ISSN 3030-3710
E-ISSN 3030-3095

ILMIY AXBOROTNOMA * SCIENTIFIC BULLETIN * НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

№ 7, 2025

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 7, 2025

https://bxu.uz

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

SCIENTIFIC BULLETIN OF BUKHARA INTERNATIONAL UNIVERSITY

scientific and practical journal

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО МЕЖДУНАРОДНОГО УНИВЕРСИТЕТА

научно-практический журнал

№ 7, 2025

Muassis: Buxoro xalqaro universiteti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ АДМИНИСТРАЦИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ АХБОРОТ ВА ОММАВИЙ КОММУНИКАЦИЯЛАР АГЕНТЛИГИ

ГУВОҲНОМА

№ 855722 Фаол

"BUXORO XALQARO UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669145


СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
308196898

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
22.02.2023дан - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Бухоро вилояти, Когон тумани, "B. NAQSHBAND" MFY HUDUDI

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги

27.06.2025 10:32
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



Гувоҳнома № 855722

Фаолият тури

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Қўшимча маълумотлар

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Оммавий ахборот воситасининг тили	Оммавий ахборот воситасининг тури
BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI	O'ZBEK,RUS, ILNGLIZ	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Viloyat	Тарқатилиш шакли
Республика миқёсида		Анъанавий

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ilmiy-amaliy jurnal 7-son Buxoro - 2025. - 360 b. **БУХАРСКИЙ МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ** научно-практический журнал Выпуск 7. Бухара - 2025. - 360 с.	Jurnal Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti muassisligidagi nashr hisoblanadi. **Jurnalning nashr sifati uchun bosmaxona javobgar.** OBUNA INDEKSI 3062	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Bosishga ruxsat etildi 20.08.2025 Qog‘oz bichimi 60x84, 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 22.5. Buyurtma № 180. Adadi - 60 Bahosi kelishilgan narxda. «Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahar O‘zbekiston Mustaqilligi ko‘chasi, 70/2 uy. Tel: 0(365) 222-46-46

"Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal

BOSH MUHARRIR:
Baratov Sharif Ramazanovich
psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o`rinbosari:
Shoumarov G'.B. – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Mas'ul kotib:
Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Maksimenko S.D.- psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)
Rejep O`zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O'ZBEKISTON OLIMLARI
PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov B.M.- psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov B.R. - psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Kadirov K.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Utepberganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor
Nazarov A.M. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Djurayev B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ayrapetova A.G.- psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor
Raximova I.I. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rustamov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ibaydullayeva U.R. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sobirov A.A. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi
Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor
Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Hamroyev A.R. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov T.I. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Dilova N.G. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor
Gadoyeva M.I.- filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor
Haydarov A.A. - filologiya fanlari doktori, professor
Astanova G.A. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.
Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Murodov G.N. - filologiya fanlari doktori, professor
Eshbekov T.U. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Saidov X.Sh. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov A.M. - BuxPXTI "Xorijiy tillar" kafedrasi mudiri

"Scientific Bulletin of Bukhara International University "
scientific-theoretical journal
EDITOR-IN-CHIEF:
Baratov Sharif Ramazanovich
doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences
Deputy editor-in-chief:
Shoumarov G.B. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS

Responsible secretary:
Sobirova D.A. – Doctor of Psychology (DSc), professor

FOREIGN SCIENTISTS

Kozlov V.V. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maliks S.B. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maksimenko S.D. - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)
Rejep Ozyurek - Doctor of Psychology, professor (Turkey)
Darya Gaysina - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN
PSYCHOLOGICAL SCIENCES

Umarov B.M. - doctor of psychology, professor
Kadirov B.R. - doctor of psychology, professor
Kadirov U.D. - doctor of psychology, professor
Kadirov K.B. - doctor of psychology (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - doctor of psychology (DSc), professor
Baratova D.SH. - doctor of psychology (DSc), professor
Utepberganov M.A. - doctor of psychology, professor
Nazarov A.M. - doctor of psychology (DSc), professor
Atabayeva N.B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Fayziyeva M.Kh. - doctor of Psychology (DSc), professor
Karshiyeva D.S. - doctor of Psychology (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - doctor of Psychology (DSc), professor
Arzikulov D.N. - doctor of Psychology (DSc), professor
Djurayev B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Ayrapetova A.G. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Usmanova M.N. - candidate of psychology, professor
Raximova I.I. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ostanov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Rustamov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ibaydullayeva U.R. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Sobirov A.A. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

PEDAGOGICAL SCIENCES

Ibragimov X.I. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan
Olimov Sh.Sh. - doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Abdullayeva B.S. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Hamroyev A.R. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Rajabov T.I. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor
Dilova N.G. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor

PHILOLOGY SCIENCES

Shodmonov Q.B. - doctor of Philology, professor
Gadoyeva M.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Rajabov D.Z. - doctor of Philology, professor
Haydarov A.A. - doctor of Philology, professor
Astanova G.A. - doctor of Philology (DSc), professor
Rasulov Z.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Toirova G.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Murodov G.N. - doctor of Philology (DSc), professor
Eshbekov T.U. - doctor of Philology (DSc), professor
Rakhmatullayev Sh.N. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Khalilova R.R. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Saidov X.Sh. - doctor of philosophy in philology (PhD

EDITORS:

Rakhmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Tursunov M.M. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Kurbonov A.M. - Head of the Department of Foreign Languages of BukhPFL

UDK 301:085:15(021)

Amonova Sanobar Xamidjonovna
Qarshi davlat universiteti. psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA KOPING-STRATEGIYALARINING O‘RGANILISHI NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarda koping-strategiyalar shakllanishiga oid asosiy nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Talabalarning stressli vaziyatlarga moslashuvi jarayonida coping-strategiyalarning namoyon bo‘lishi va ularning psixologik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, coping-strategiyalarni baholashda qo‘llaniladigan zamonaviy psixodiagnostik usullar va ularning ilmiy asoslari ko‘rib chiqilgan. Mazkur tadqiqot natijalari talabalarda moslashuv darajasini aniqlash hamda ularni psixologik qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *koping-strategiya, yyengib o‘tuvchi xulq-atvor, hayotiy resurslar, shaxs, inqirozli vaziyat.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ КОПИНГ-СТРАТЕГИЙ В СОВРЕМЕННЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Аннотация. *В данной статье анализируются основные теоретические подходы к формированию копинг-стратегий у студентов. Освещены проявления копинг-стратегий и их психологические особенности в процессе адаптации студентов к стрессовым ситуациям. Также рассмотрены современные психодиагностические методы, используемые при оценке копинг-стратегий и их научная основа. Результаты данного исследования имеют практическое значение при определении уровня адаптации студентов и разработке стратегий их психологического сопровождения.*

Ключевые слова: *копинг-стратегия, копинг-поведение, жизненные ресурсы, личность, кризисная ситуация.*

THEORETICAL BASIS OF THE STUDY OF COPING STRATEGIES IN MODERN PSYCHOLOGICAL RESEARCH

Abstract. *This article analyzes the main theoretical approaches to the formation of coping strategies in students. The manifestation of coping strategies and their psychological characteristics in the process of students' adaptation to stressful situations are highlighted. Also, modern psychodiagnostic methods used in the assessment of coping strategies and their scientific basis are considered. The results of this study are of practical importance in determining the level of adaptation in students and developing strategies for their psychological support.*

Keywords: *coping strategy, coping behavior, life resources, personality, crisis situation.*

Kirish. Zamonaviy dunyo yildan -yilga yangicha tus olib, undagi ma’lumotlar oqimi tobora ko‘payib bormoqda. Ya’ni inson psixikasiga ta’sir etuvchi omillar kun-sayin ortib, ong sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Yangi jamiyat insoniyatga mas’uliyatli vazifalarni hal etish, yangi shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy hamkorlik aloqalarni o‘rnatish shuningdek, biror sohada samarali hamda muvaffaqqiyatli faoliyat olib borish kabi zaruratni talab etmoqda. Qolaversa, bunday murakkab vaziyatlar har bir insondan o‘ziga xos hayotiy tajriba, kognitiv faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, bardoshlilik shu bilan birga, turli muammolarni bartaraf etishga oid yangi xatti-harakatlar majmuini talab etishi tabiydir. Insonga tegishli mazkur sifatlar, zamonaviy psixologiyada “koping-strategiya” tushunchasi bilan ta’riflanib, u insonning yengish, kurashish qobiliyati vaziyatida namoyon bo‘ladi. Shu boisdan, stressogen va murakkab vaziyatlarda insonning yengish va kurashish xususiyatini o‘rganish, hozirgi psixologik tadqiqotlarda o‘ta ahamiyatli vazifa hisoblanadi. “Koping-

strategiya" fenomeni, ko‘plab xorijiy adabiyotlarida "yyengib o‘tuvchi xulq", "kurashish qobiliyati", "yengish uslubi", "yengish mexanizmi" kabi tushunchalar bilan birgalikda qo‘llanilgan.

Adabiyotlar tahlili. Hozirga qadar, yyengib o‘tuvchi xulq (koping strategiya) fenomenini tavsiflashga doir ko‘plab nazariy qarashlar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tibbiy va pedagogik masalalar bilan keng tadqiq etilgan. Ba'zi ilmiy manbaalarda koping-strategik xulq -atvorning ijobiy va salbiy jihatlari borasida ham, o‘ziga xos qarashlar aks etgan. YE.R.Isayevaning ta'kidicha, ko‘plab vaziyatlarda koping - strategik xulq – atvor samarali, funksional foydali mazmunda bo‘lsa, ayrim holatlarda u samarasiz, disfunksiyali, insonga salbiy ta'sir etuvchi holat sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois ham, ko‘pchilik murakkab vaziyatlarda bardoshli bo‘la olmaydi yoki boshlagan ishini oxirigacha yetkaza olmaydi. Ushbu ta'rifga muvofiq, koping strategik xulq o‘z mazmunida, maqsadlilik va moslashuvchanlik, ongli harakatlar kabilarni ham qamrab oladi.

Umuman olganda, hozirga psixologiyada "koping strategiya" tushunchasining fenomenologik tabiatini aniqlashtirishga doir ko‘plab ilmiy qarashlar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tibbiy psixologik xarakterdagi tadqiqotlar sifatida e'tirof etiladi. K. A. Dibrivnayaning yozishicha, koping-strategik xulq – insonning psixologik imkoniyatlari bilan tavsiflanib, unda asosiy maqsad yangi vaziyatga tez moslashish, uni o‘zlashtirishga intilish, yuzaga kelgan qiyin vaziyatni yumshatish yoki zaiflashtirish, undan qochishga urinish va unga ko‘nikish kabi harakatlar bilan xarakterlanib, asosiy maqsad stress vaziyatini yo‘q qilishga qaratiladi. Muallifning nazaricha, koping-strategik xulqning asosiy vazifasi insonda farovonlik, psixik salomatlik ham uning ijtimoiy munosabatlardan to‘la qonli qoniqishini ta'minlash ham hisoblanadi.

Amerikalik psixolog D.Bodenmanning aytishicha, koping-strategiya fenomenining tabiatini aniqlashda, o‘ziga xos jihatlar ajratilib, ularga insonning vazifalarga bo‘lgan munosabatining sifati, boshqalar bilan bo‘ladigan munosabatining barqarorligi hamda kommunikativ xatti-harakatlarining darajasi kabilar kiritiladi. Ya'ni samarali ikki tomonlama aloqalar, stress vaziyatlarini kamaytirib, insonning ishlash imkoniyatini yanada oshiradi. Oksford katta lug‘at kitobida yozilishicha, koping strategiya – bu muvaffaqqiyat bilan kechuvchi yengish harakati bo‘lib, unda faol kurashish, regressiv kurashish, transformatsion kurashish hamda murakkab sharoitlardan qochish strategiyasi kabi xususiyatlar ajratiladi.

Demak, vaziyatlardan chiqish yo‘llari doim muammoga yo‘naltirilgan tartibda bo‘lishi yoki shaxs muammoli vaziyatni mohiyatini tahlil qilishdan doim manfaatdor bo‘lishi lozim. Ba'zi ilmiy nashrlarda koping-strategiya tushunchasi, "stress" tushunchasi bilan bir xil ma'noda tushintirilganligi holatlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Shu sababli, murakkab vaziyatlarni yengish xatti-harakatlari va kurashish strategiyalari o‘zaro ta'sirlashuv jarayoni sifatida talqin etiladi. Yyengib o‘tuvchi xulq-atvor usullari - bu shaxsning sezilgan tahdidga nisbatan javob reaksiyasi bo‘lib, u ba'zan tadqiqotlarda stressni boshqarish usullari sifatida tilga olinadi. Shu bilan birga, shaxsiy resurslar (imkoniyatlar, tajribalar) - bu insonlardagi majud bo‘lgan funksional, ijtimoiy xarakterdagi xususiyatlar majmui sanalib, ular turli stress holatlarida vaziyatdan chiqib ketish usullarini ishlab chiqishga katta yordam beradi.

Koping-strategiya muammosiga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarning tahlilidan shu narsa ma'lum bo‘ldiki, hayotiy mavjud vaziyatlarning noaniqligi, inson uchun haqiqiy vaziyatli ko‘rinishda bo‘lib, inson ushbu vaziyatlarda yechim topishga harakat qiladi. Ba'zilar tezda buning uddasidan chiqsa, ba'zilar muammoning yechimiga yo‘l topa olmaydi. Chunki, ularda hayotiy resurslar ya'ni intellekt, ko‘nikma va malaka, sog‘liq va shart-sharoitlar yetishmaydi. Boshqalarda esa, ushbu resusrlar mavjud bo‘lgani bois, ular stressli vaziyatlar va qiyin holatlardan tezda chiqib keta oladilar.

Umuman olganda, inson koping-strategiyasidan foydalanib, o‘z idrokini buzadi yoki vaziyatni inkor etadi. Koping - strategiyasida inson xato qilishi mumkin, bir tomondan uning harakatlari haqiqatga yaqinlashishi uchun, uni shaxs qattiq nazorat qiladi. Bunday holatda muammo yechim topadimi yoki yo‘qmi, u inson tomonidan muammo deb tan olinadi.

S.A.Ligerning o‘rganishlariga qaraganda, koping-strategik xulq (yyengib o‘tuvchi xulq-atvor) muammosini psixologik dolzarb kechinma sifatida o‘rganish nafaqat, fan uchun balki jamiyat uchun ham o‘ta ahamiyatli sanaladi. Ya'ni jamiyat va insoniyat uchun salbiy illatlar sanalgan alkogolizm, giyohvandlik, mayda bezorilik, o‘g‘irlik, o‘z joniga qasd qilish (suitsid), kabilarning asl sababi

ko‘pincha, insondagi aql-idrokning pastligi, emotsional intellektning kam rivojlanganligi hamda sotsial intellektning yetishmasligi, bardoshlilikning shakllanmaganligi kabilar bilan uzviy bog‘liqdir. Shu boisdan, ushbu masalani kengroq o‘rganish, uni omma ongiga tadbiq etish hamda uni psixologik ilmlar tarkibiga olib kirish zarurati kabilar, amalga oshirilishi kutilayotgan o‘ta dolzarb ishlar turkmidan biridir.

M.YE.Sandomirskiyning aniqlashicha, inqirozli vaziyatlarda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan foydalanish strategiyasi eng kuchli kurash manbaalaridan biridir. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, stress omillarining tanaga ta’sirini yumshatish, shu bilan inson salomatligi va farovonligini saqlash. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, ikkinchisi ortiqcha va noto‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq bo‘lib, bu nazoratni yo‘qotish va yordamsizlikka olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, shaxsning psixologik holatini aniqlash uchun olingan ijtimoiy yordamning yyetarliligini subyektiv baholashni bilish juda muhimdir. YE.R.Xabirovaning aniqlashicha, stressli vaziyatlarda namoyon bo‘luvchi yana bir kurash strategiyasi “qochish strategiyasidir”. Bu holat insonning hayotiy qiyinchiliklardan qochishga intilish harakati bo‘lib, u irodasizlik yoki mustaqillikning yo‘qligi bilan xarakterlanadi. Ushbu tahlilga muvofiq, stressli vaziyatda yuzaga keladigan hissiy stressni kamaytirish orqali, insonda darhol undan voz kechish tendensiyasi shakllanadi. Shunday bo‘lsada, bardosh berish, chidamlilik, murakkab vaziyatlarda moslashuvchanlik, yyengib o‘tuvchi xulq kabi xususiyatlarni talabalik davri bilan bog‘lab o‘rganish holati, aytarli darajada qoniqarli emas.

1-jadval

Koping sifatlar darajasini o‘rganish so‘rovnomasi ko‘rsatkichlari (Kraskal-Uollis mezoni bo‘yicha)

	Guruhlar				
	Qardu	**Samdu**	**Terdu**		
Muammoni yechish	135,20	123,14	109,76	10,54	0,003**
Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish	118,56	146,38	152,23	11,78	0,001***
Muammodan qochish	107,39	134,20	116,75	9,94	0,004*
Tanqidiy tafakkur	146,73	135,26	124,37	10,54	0,003**

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Talabalarda koping strategiya shakllanishining psixologik xususiyatlari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari so‘rovnomalar bo‘yicha ya’ni koping-indikatorni o‘rganishdan olingan natijalar Qarshi davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti va Termiz davlat universitetlarida tahsil oluvchi talabalarda birinchi shkala bo‘yicha ya’ni muammoni yechish standart me’yor bo‘yicha o‘rta darajadagi ko‘rsatkichni namoyon qilgan. Muammoni yechish shkalasi bo‘yicha sinaluvchilarning o‘rtasidagi tafovut 0,003** bilan o‘rtachadan yuqorini keltirib chiqargan va Qarshi davlat universiteti talabalarida mazkur sifat yuqori ekanligi aniqlangan. Bu toifadagilarda faol himoya ustun sanaladi. Faol himoya – bunday reaksiya insonning irodasiga bog‘liqdir va u boshqariladi. Stressga qarshi turish uchun odam o‘zi faoliyat doirasini o‘zgartiradi, bu ham psixologik, ham somatik salomatlikni yaxshilashga (sport, shaxsiy uchastkada ishlash, dam olish va boshqalar) xizmat qiladi.

Keyingi shkala ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish bo‘yicha universitet talabalarining natijalari yuqori koeffitsiyentni aks ettirganligi natijalardan namoyon bo‘lgan. Sinaluvchilarning natijalari orasida tafovut 0,001*** bilan yuqori darajada aniqlangan. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish shkalasi Termiz davlat universiteti talabalarida yuqori nisbatni qayd etgan. Bu toifadagilarda passiv hmimoya ustun kechadi. Passiv himoya – bu o‘zini moslashuvchan zaxirasiga yetarlicha ega bo‘lmagan va tanasi stressga dosh berolmaydigan insonlarda uchraydi. Ushbu reaksiya natijasida insonda nochorlik, umidsizlik, umidsizlik, tushkunlik kabi hislar kechadi.

Muammodan qochish shkalasi sinaluvchilar orasida tadqiq etilganda o‘rtacha farqni ya’ni 0,004* nisbat bilan alohida farqlangan. Samarqand davlat universiteti talabalarida mazkur shkala

yuqori darajani keltirib chiqargan. Ayrim tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, stressli vaziyatlar-bu organizmning inqirozli holatlarga moslashishini ta’minlaydigan inson faoliyatidir. T.A. Kryukova va V.D. Saporovskayalar fikricha, zo‘riqishni yyengib o‘tishda, birinchi navbatda insonning hissiy tajribasi muhim sanalib, u bilish jarayonlari faoliyatini jadallashtiradi. Ana shu asosda inson atrof-muhit sharoitlari va ular o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zgartirish yo‘llarini topishga harakat qiladi.

Tanqidiy tafakkur shkalasi o‘rtachadan yuqori qiymatni qayd etgan ya’ni 0,003** farq bilan xarakterlangan. Bu shkala bo‘yicha natijalar Qarshi davlat universiteti talabalarida yuqori chiqqan. Lazurs va S. Folkmenlar ta’kidicha, xulq-atvordagi zo‘riqish holatini kamaytirish uchun inson, ma’lum bilan tashqi va ichki talablarni muvozanatlashtirish uchun doim odam o‘z imkoniyatini hisobga olishi hamda bilim va qiziqishlari, sa’y-harakatlarini baholay olishi yoki haddan tashqari inson bajaradigan vazifalarni oshirib yubormasligi kerak. Talabadagi ijtimoiy rollar buzilishini ham farqlab o‘tadi unga ko‘ra, talabaning o‘z qarindoshlari va do‘stlari bilan muloqoti qisqaradi, nizolar kuchayadi, muloqot paytida sezgirlik pasayadi, vazifalarni bajarishdagi aniqlik va talab qilinadigan harakatlarning mutanosibligi izdan chiqadi, turli xil assotsial xatti-harakatlar paydo bo‘ladi hamda insonning o‘z tashqi ko‘rinishiga umuman e’tibori yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

2-jadval

Ijtimoiy frustratsiya va yengib o‘tuvchi xulq-atvor so‘rovnomalari o‘rtasidagi korrelyatsion aloqadorligi (K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti bo‘yicha)

Shkalalar	Frustratsiya	Ijtimoiy frustratsiya
Irodaviy matonat	0,543**	0,454*
Vaziyatni yengib o‘tish	0,236	0,569**
Oqilona harakat	0,569**	0,445*
Jur’atsizlik	0,480*	0,633**
Nazorat	0,439*	0,250
Kechinmalar namoyishi	0,453*	0,687**
Madad istagi	0,587**	0,654**

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Irodaviy matonat shkalasi bilan frustratsiya va ijtimoiy frustratsiya shkalalari, vaziyatni yengib o‘tish shkalasi ijtimoiy frustratsiya shkalalari bilan, oqilona harakat shkalasi frustratsiya va ijtimoiy frustratsiya shkalalari bilan, jur’atsizlik shkalasi frustratsiya va ijtimoiy frustratsiya shkalalari bilan, nazorat shkalasi frustratsiya shkalalari bilan, kechinmalar namoyishi shkalasi frustratsiya va ijtimoiy frustratsiya shkalalari bilan, madad istagi shkalasi frustratsiya va ijtimoiy frustratsiya shkalalari bilan yuqori korrelyatsion aloqaga kirishgan.

Maqsadga erishish yoki ehtiyojlarni qondirish uchun zarur vositalar bo‘lmaganda, ya’ni odamning qorni och, lekin yeyishga ovqati yo‘qligi sababli bu ehtiyojni qondira olmaydi. Ehtiyoj bor, lekin uni qondira oladigan hech narsa yo‘q.

Asabiylashganlik shkalasi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish muammodan qochish shkalalari bilan, muloqotchanlik shkalasi muammoni yechish, muammodan qochish va tanqidiy tafakkur shkalalari bilan, tajovuzkorlik shkalasi muammoni yechish va tanqidiy tafakkur shklalari bilan, tortinchoqlik shkalasi muammoni yechish, muammodan qochish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish va tanqidiy tafakkur shkalalari bilan, ta’sirchanlik-o‘zgaruvchanlik shkalasi muammoni yechish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish va tanqidiy tafakkur kabi shkalalari bilan, ruhiy siqilish shkalasi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish va tanqidiy tafakkur shkalalari bilan, vazminlik shkalasi muammoni yechish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish va muammodan qochish shkalalari bilan, oshkoralik shkalasi muammoni yechish, muammodan qochish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish va tanqidiy tafakkur shkalalari o‘rtasida musbat aloqa borligi aniqlangan.

3-jadval

Shaxs xususiyatlari va koping xulq-atvor so‘rovnomalari o‘rtasidagi korrelyatsion aloqadorligi (K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti bo‘yicha)

Shkalalar	Muammoni yechish	Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qidirish	Muammodan qochish	Tanqidiy tafakkur
Asabiylashganlik	0,240	0,589**	0,563**	0,196
Muloqotchanlik	0,516**	0,277	0,585**	0,494*
Tajovuzkorlik	0,475*	0,598**	0,447*	0,423*
Tortinchoqlik	0,630**	0,586**	0,254	0,486*
Ta’sirchanlik-o‘zgaruvchanlik	0,575**	0,594**	0,208	0,447*
Ruhiy siqilish	0,126	0,467*	0,673**	0,126
Vazminlik	0,608**	0,657**	0,468*	0,250
Oshkoralik	0,464*	0,675**	0,663**	0,439*

Izoh: * – $p \le 0,05$; ** – $p \le 0,01$; *** – $p \le 0,001$.

Xulosa. Tadqiqotdan olingan natijalar shuni namoyon qilganki, talabalarni ayrim kasblarga tanlashda ularning turli vaziyatlarga nisbatan hissiy reaksiyalari, o‘zini o‘zi boshqara olish ko‘nikmalari, kutilmagan vaziyatlarga baho bera olish qobiliyatlari, ekstremal vaziyatlarda qaror qabul qila olish malakalari, har qanday sharoitda boshqalarni tushuna olish, nizoli vaziyatlarda murosa qila olishga yo‘l topa olish kabi sifatlari hisobga olinadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Субботина Р. А. и др. Особенности копинг-поведения в юношеском возрасте на примере студентов медицинского вуза //Коллекция гуманитарных исследований. – 2018. – №. 4 (13). – С. 75-86.

2. Русина Н. А. Копинг-ресурсы личности как основа ее здоровья / Н. А. Русина // Совладающее поведение : современное состояние и перспективы / под ред. А. Л. Журавлева, Т. Л. Крюковой, Е. А. Сергиенко. – М. : Изд-во «Институт психологии РАН», 2008. – С. 197 – 216.

3. Саврасова Л. А. Психолого-акмеологические особенности копинг-поведения руководителей с различным уровнем успешности деятельности: дис. ... канд. психол. наук. Саврасова Лариса Аркадьевна. 19.00.13. - СПб., 2012. – 226 с.

4. Мудрик, А.В. Социализация человека: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2010. – 304 с.

5. Нартова-Бочавер С. К. Введение в психологию развития / С.К. Нартова-Бочавер, А.В. Потапова. - М.: Флинта, МПСИ, 2021. – 216 с.

6. Шленков А.В. Психологическое обеспечение профессиональной подго- товки сотрудников Государственной противопожарной службы МЧС России: концепция, принципы, технологии: дис. … доктора психол. наук. - СПб.: СПб ун-т МЧС России, 2009. -346 с.

7. Щербатых Ю.В. Психология стресса и методы коррекции.- СПб.: Питер, 2006. – 256 с.

Bobirov Davron Bobir o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti, psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

O‘SPIRINLARDA AXBOROTGA NISBATAN TANQIDIY MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLARNING ROLI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘spirin yoshidagilarda axborotga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirishda psixologik yondashuvlarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Muallif tomonidan axborotni tahlil qilish, uning haqiqatga mosligini baholash, soxta axborotdan himoyalanish kabi ko‘nikmalarni o‘rgatishda kognitiv va sotsial-psixologik yondashuvlarning afzalliklari asoslangan. Zamonaviy ilmiy qarashlar, statistik ma’lumotlar va muallifning shaxsiy kuzatuvlari asosida maqolada real hayotga yaqin tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash, axborot madaniyati, o‘spirin psixologiyasi, kognitiv rivojlanish, psixologik yondashuvlar, media savodxonlik.*

РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ В ФОРМИРОВАНИИ КРИТИЧЕСКОГО ОТНОШЕНИЯ ПОДРОСТКОВ К ИНФОРМАЦИИ

Аннотация. *В статье рассматривается роль психологических подходов в формировании критического отношения к информации у подростков. Автор анализирует эффективность когнитивных и социально-психологических методов в развитии умений критического анализа, оценки достоверности информации и сопротивления манипулятивным сообщениям. В исследовании представлены современные научные взгляды, статистические данные и личные наблюдения автора, на основе которых предложены практические рекомендации.*

Ключевые слова: *критическое мышление, информационная культура, подростковая психология, когнитивное развитие, психологические подходы, медиаграмотность*

.

THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL APPROACHES IN FORMING ADOLESCENTS' CRITICAL ATTITUDE TOWARDS INFORMATION

Annotation. *This article explores the role of psychological approaches in shaping adolescents' critical attitude toward information. The author substantiates the effectiveness of cognitive and socio-psychological strategies in teaching skills such as information analysis, evaluating credibility, and resisting manipulative content. Based on recent scientific perspectives, statistical findings, and the author's own observations, the article presents practical recommendations applicable in real-life educational contexts.*

Keywords: *critical thinking, information culture, adolescent psychology, cognitive development, psychological approaches, media literacy.*

Kirish. Zamonaviy axborot muhitida yashayotgan o‘spirinlar turli xil manbaalardan katta hajmdagi ma’lumotlarni qabul qilmoqda. Ushbu axborotlar ko‘pincha emotsional, noto‘liq, manipulyativ yoki noto‘g‘ri bo‘lib, uni tahlil qilish, to‘g‘ri baholash va ongli qaror qabul qilish ko‘nikmalari har bir o‘spirin uchun muhim hayotiy ehtiyojga aylanmoqda. Axborot madaniyati va media savodxonlik bilan bog‘liq tushunchalar psixologik nuqtai nazardan tanqidiy fikrlash, ijtimoiy ong, axloqiy baho va ratsional qaror qabul qilish kabi murakkab psixik jarayonlar bilan uzviy bog‘liq. Ayniqsa,

o‘spirinlik davri psixik rivojlanish nuqtai nazaridan beqarorlik, tashqi ta’sirlarga ochiqlik, avtonomiya istagi va identiklik izlash bosqichi bo‘lgani bois bu yoshdagi shaxslar uchun axborotga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirish dolzarb psixologik vazifadir.

Psixologiyada o‘spirinlik davri bilish jarayonlarining faollashuvi, abstrakt fikrlashning rivojlanishi va shaxsiy qadriyatlarning shakllanishi davri sifatida qaraladi. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bu yoshda shaxs formal-operatsional tafakkur bosqichiga o‘tadi, ya’ni u o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi murakkab bog‘liqliklarni anglay oladi, faraziy fikrlashga qodir bo‘ladi. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasida esa bu davr "identiklikka erishish yoki rol chalkashligi" davri sifatida ko‘rsatiladi. Aynan shu bosqichda axborot manbaalari orqali shakllanayotgan ijtimoiy qarashlar, ideallar va qadriyatlar o‘spirin shaxsining ichki olamida chuqur aks etadi.


Axborotni tahlil qilish va baholash jarayonida faqat kognitiv imkoniyatlar emas, balki shaxsning emotsional yyetukligi, axloqiy barqarorligi va kommunikatsion kompetensiyasi ham muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ham tanqidiy munosabatni shakllantirishda psixologik yondashuvlar kompleks yondashuvni talab qiladi. Kognitiv yondashuv asosida o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, sabab-oqibatni aniqlash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Sotsial-psixologik yondashuv esa shaxsning ijtimoiy muhitdagi munosabatlari, guruh ta’siri va normativ axloqiy qadriyatlar asosida axborotga baho berish qobiliyatini rivojlantiradi. Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasi o‘spirinlarning atrofdagilarni kuzatish orqali axborotga qanday munosabat bildirishni o‘zlashtirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar ham o‘spirinlarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda maxsus psixologik treninglarning samarali ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu esa psixologik yondashuvlarning amaliy foydasini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, xalqaro miqyosda o‘tkazilgan PISA 2022 tadqiqotlari ham ko‘plab o‘quvchilarda axborotni baholashga doir ko‘nikmalar past darajada ekanligini ko‘rsatdi. Jumladan, 15 yoshli o‘quvchilarning 47 foizi ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan yangiliklarning ishonchliligini baholashda qiynalgan.

Kuzatuvlarga ko‘ra, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar hali yyetarli emas. O‘qituvchilar ko‘proq faktlarni yodlatishga e’tibor qaratadi, axborotni tahlil qilish, savol berish, muqobil fikr bildirish madaniyati esa cheklangan. Shu bois, men axborotga tanqidiy munosabatni shakllantirish bo‘yicha quyidagi psixologik tavsiyalarni ishlab chiqdim: o‘quv mashg‘ulotlariga soxta axborotni aniqlash topshiriqlarini kiritish, fakt va fikrni ajrata olishni o‘rgatuvchi faol metodlar joriy etish, mediatestlar asosida baholashni yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilarni shaxsiy fikr bildirishga rag‘batlantiruvchi muhit yaratish. O‘spirinlar tomonidan axborotga nisbatan tanqidiy munosabatning shakllanishi murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u individual, ijtimoiy va madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Axborot oqimi tez, tahlilsiz va emotsional tusda kechayotgan hozirgi davrda o‘spirinlarning axborotga munosabati ko‘p jihatdan ularning psixik barqarorligi, axborotni anglash darajasi va ijtimoiy mas’uliyat hissiga bog‘liqdir. Axborotga tanqidiy yondashuv bu nafaqat shubha bilan qarash, balki fakt va fikrni ajrata olish, muallif pozitsiyasini aniqlash, axborot manbaaini baholash, kontekstni tushunish va soxta manipulyativ uslublarni aniqlay olish demakdir.

Adabiyotlar tahlili. Tanqidiy munosabat faqatgina kognitiv kompetensiyalarga asoslanmaydi. Bu jarayonda shaxsiy hayot tajribasi, o‘z-o‘zini anglash darajasi, ijtimoiy normativlarga bo‘lgan munosabat va emotsional yyetuklik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy yondashuvlar, xususan metakognitiv yondashuv axborotni qabul qilish va tahlil qilishdagi o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini rivojlantirishni muhim deb biladi. Ya’ni, o‘spirin nafaqat axborotni tahlil qiladi, balki uni qanday tahlil qilayotganini ham anglab yetadi. Bu esa axborotga nisbatan ongli, mas’uliyatli va yetuk munosabatni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan yuqori darajadagi psixologik malakadir. Yangi

ilmiy tadqiqotlarda tanqidiy fikrlash intellektual intizom va kognitiv metama'lumotlar tizimi sifatida qaralayapti. Masalan, Ennis (2015) va Halpern (2020) tadqiqotlarida tanqidiy fikrlash faqat mantiqiy tafakkur emas, balki motivatsiya, reflektivlik va kognitiv strategiyalar bilan to‘ldirilgan kompleks qobiliyat sifatida ta'riflanadi. Bu yondashuvlar asosida o‘spirinlar bilan olib boriladigan psixopedagogik ishlarda faqat faktik bilim berish emas, balki fikr yuritish jarayonini nazorat qilishga o‘rgatish asosiy vazifaga aylanishi kerak.



Yuqoridagi diagrammada o‘spirinlarning axborotga nisbatan tanqidiy munosabat darajalari uch toifada ko‘rsatilgan:

1. **Tanqidiy fikrlay olmaydi (40%)** – O‘spirinlarning katta qismi axborotni tahlil qilish, muallif pozitsiyasini anglash va manipulyativ kontentni ajrata olishda qiynaladi. Bu guruh vakillari ko‘pincha axborotni yuzaki qabul qiladi va mustaqil baho bera olmaydi.

2. **Qisman tanqidiy yondashadi (35%)** – Bu toifadagi o‘spirinlar ayrim holatlarda axborotga shubha bilan qaraydi, lekin doimiy tanqidiy fikrlash odatiga ega emas. Ular ko‘pincha tanqidiy baholashni faqat o‘rgatilgan yoki ogohlantirilgan vaziyatlarda namoyon etadi.

3. **Tanqidiy tahlil qobiliyati yaxshi (25%)** – Ushbu o‘quvchilar axborotni baholashda faol, dalil asosida fikr bildiradi, fakt va fikrni ajratadi, shuningdek, axborot manbaasining ishonchliligini tahlil qiladi. Bu guruhda psixologik yondashuvlar natijadorligi ko‘rinadi.

O‘spirinlarning aksariyati hali tanqidiy fikrlash malakalariga ega emas. Bu esa ta'lim jarayonida media savodxonlikni oshirish, kognitiv strategiyalarni kuchaytirish va shaxsiy ongni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Tanqidiy fikrga ega o‘quvchilar ulushi nisbatan kam bo‘lgani uchun psixologik treninglar, reflektiv mashg‘ulotlar va interaktiv o‘quv metodlarini tizimlashtirish tavsiya etiladi.

Ushbu statistik ma’lumotlar o‘spirinlar orasida axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmalarining yyetarli darajada shakllanmaganini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, 40 foiz o‘spirinning tanqidiy fikrlash malakasiga ega emasligi — bu nafaqat shaxsiy rivojlanishdagi bo‘shliq, balki ta’lim tizimining bu boradagi kamchiliklarini ham aks ettiradi. Bu yoshdagi shaxslar tashqi ta’sirlarga ochiq, psixologik jihatdan izlanish holatida bo‘lganliklari sababli, ular manipulativ axborotlarga tez berilib ketish xavfiga egadirlar. Aynan shu jihat o‘spirinlarni informatsion muhitda himoyalashni nafaqat texnik, balki psixologik yondashuv orqali ham mustahkamlash zarurligini taqozo qiladi.

Diagrammadagi “Qisman tanqidiy yondashadi” toifasi ham ahamiyatli signal hisoblanadi. Bu guruhdagi o‘spirinlarda tanqidiy fikrlash boshlang‘ich shaklda mavjud, ammo uni chuqurlashtirish va barqaror odatga aylantirish uchun tegishli metodik yondashuv talab qilinadi. Bu yerda psixologik treninglar, guruhiy muhokamalar, fakt-fikr ajratishga qaratilgan topshiriqlar, o‘z fikrini dalillar bilan ifoda etish mashqlari samarali bo‘lishi mumkin.

Diagrammada eng kichik ulush — 25% — tanqidiy tahlil qobiliyati yaxshi bo‘lgan o‘spirinlarga to‘g‘ri keladi. Bu ijobiy holat bo‘lsa-da, baribir past ko‘rsatkich sanaladi. Tanqidiy fikrga ega o‘spirinlar, odatda, yaxshi kognitiv salohiyat, metakognitiv kuzatuvchanlik, axborotni mantiqan bog‘lash qobiliyatiga ega bo‘ladi. Ular ijtimoiy tarmoqlarda, o‘quv jarayonida yoki kundalik hayotda ko‘rilayotgan axborotlar orasida farq qila oladi va mustaqil qaror qabul qiladi. Bunday o‘quvchilarni ko‘paytirish uchun psixologik yondashuv faqat individual emas, balki tizimli bo‘lishi lozim.

Yana bir muhim nuqta — o‘spirinlarning tanqidiy munosabatini shakllantirishda ularning oilasi, maktabdagi ijtimoiy muhit va ommaviy axborot vositalari rolining beqiyosligidir. Agar ushbu manbaalar bir-birini inkor etsa, yoki o‘spirinlarning emotsional ehtiyojlarini hisobga olmasa, hatto eng ilg‘or metodlar ham samarali bo‘lmaydi. Shu sababli psixologik yondashuvlar faqat individual ish emas, balki ijtimoiy va madaniy komponentlarni o‘z ichiga olgan integratsiyalashgan yondashuv bo‘lishi kerak.

Media psixologiya doirasida esa o‘spirinlarning informatsion stressga tushmasligi, soxta axborotlar ta’siriga berilmasligi, agressiv yoki destruktiv kontentga emotsional javob bermasligi uchun axborot immuniteti tushunchasi ilgari surilmoqda. Bu — axborotga nisbatan ichki psixologik qarshilik, tanqidiy tahlil, emotsional neytrallik va ratsional reaktsiya ko‘rsatish qobiliyatini bildiradi. Shuningdek, bu sohada faoliyat yuritayotgan olimlar yoshlarning axborot oqimidagi faol rolini ta’minlash uchun interaktiv o‘quv uslublaridan foydalanishni taklif qilmoqda. Jumladan, Amerika Psixologik Assotsiatsiyasi (APA) tomonidan e’lon qilingan 2022-yilgi tavsiyalarda o‘quvchilarda axborot baholash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun loyiha asosida o‘qitish, muammoli savollar asosidagi munozara, tanqidiy esse yozish va medialarni dekompozitsiya qilish tavsiya etiladi. Ayni paytda, o‘zbek maktablarida bu yondashuvlar tizimli joriy etilmagan. Aksariyat hollarda, axborotni qayta hikoya qilish, yod olish va bir yoqlama baholash yetakchi o‘rinda bo‘lib, o‘quvchilarda mustaqil tahlil qilish, muqobil pozitsiyani shakllantirish, bahslashish va dalil keltirish qobiliyatlari cheklangan. Bu esa ularni internetdagi yolg‘on va manipulyativ kontentlarga nisbatan himoyasiz qiladi. Shu bois, axborotga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirishda psixologik jihatdan quyidagilarga e’tibor qaratish zarur: birinchidan, shaxsiy refleksiya va metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish; ikkinchidan, muloqot va munozara madaniyatini shakllantirish; uchinchidan, o‘z fikrini erkin, asosli va mas’uliyatli ifoda eta olishga imkon beruvchi ijtimoiy-psixologik muhit yaratish. O‘spirinlar bilan psixologik ishlarda asosiy e’tibor faqat noto‘g‘ri axborotdan ogohlantirishga emas, balki ularda axborotga bo‘lgan ijtimoiy axloqiy javobgarlik hissini tarbiyalashga qaratilishi lozim. Fikr yuritish, muhokama qilish va ijtimoiy ongni shakllantirish vositasi hamdir. Bu jihatdan olib qaralganda, tanqidiy munosabati o‘spirinning axborot maydonida ongli, faol va mustaqil subyekt sifatida ishtirok etishiga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘spirinlarda axborotga tanqidiy munosabatni shakllantirishda zamonaviy ta’lim va psixologik xizmatlar tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Bu borada psixologik yondashuvlar tanqidiy fikrlashni kognitiv va sotsial jihatdan chuqurlashtirish, shaxsiy refleksiya va ijtimoiy pozitsiyani aniqlashtirish, psixologik barqarorlikni mustahkamlash orqali natijadorlikka erishishga xizmat qiladi. Tahlil qilingan ilmiy g‘oyalar asosida ta’lim va tarbiya tizimida media savodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tizimli, bosqichma-bosqich va ko‘p qatlamli psixologik strategiyalarni ishlab chiqish tavsiya etiladi. O‘spirinlarda axborotga tanqidiy munosabatni shakllantirishda o‘qituvchi, psixolog va oila birgalikda olib borishi lozim bo‘lgan uzoq muddatli pedagogik-psixologik jarayondir. Bu jarayon nafaqat shaxsning media muhitda yo‘naltiruvchisiz harakat qila olishiga, balki jamiyatdagi ongli va mas’uliyatli ishtirokchiga aylanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, tanqidiy munosabat shaxsda mustaqil fikrlash, axborotga ongli yondashish va emotsional barqarorlikni rivojlantiradi. Shu bois, ushbu kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha har bir ta’lim bosqichida tizimli psixologik yondashuvlar joriy etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Goleman D. (2018). *Emotional Intelligence*. New York: Bantam.
2. Halpern D. (2020). *Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking*. Routledge.
3. Ennis R. H. (2015). *Critical Thinking: A Streamlined Conception*. Teaching Philosophy.
4. Potter W.J. (2018). *Media Literacy*. SAGE Publications.
5. APA (2022). *Teaching Adolescents to Evaluate Information Online: Guidelines and Strategies*. American Psychological Association.
6. Niyozova G. (2019). *O‘spirinlar psixologiyasi*. Toshkent: Fan.
7. Rahimova M. (2022). *Media savodxonlik va yoshlarning axborotga munosabati*. Toshkent.
8. Tashkenov Z.A. (2020). *Psixologik himoya va axborot muhitining shaxsga ta’siri*. O‘zbekiston pedagogika jurnali.
9. UNESCO (2021). *Global Media and Information Literacy Assessment Framework*.

Isakova Mu'azam Tulkinovna
Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi professori,
psixologiya fanlari doktori(DSc)
E-mail: isakovamuazzam01@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-3543-8857

RUHIY FAROVONLIK HOLATINING IJTIMOIY-KOGNITIV OMILLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATINING PSIXOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ruhiy farovonlik holatining ijtimoiy-kognitiv omillar bilan o'zaro munosabatlari psixologik nuqtai nazardan tahlil etilgan. Ijtimoiy-kognitiv nazariya doirasida insonning shaxslararo munosabatlari, o'ziga bo'lgan ishonchi, emotsional barqarorlik, stressga qarshi kurashish strategiyalari hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ruhiy farovonlikka qanday ta'sir qilishi ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda korrelyatsion va regression tahlil metodlari qo'llanilgan bo'lib, psixologik salomatlikka ta'sir etuvchi asosiy kognitiv va ijtimoiy omillar aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *ruhiy farovonlik, ijtimoiy-kognitiv nazariya, psixologik salomatlik, emotsional barqarorlik, stress, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ СОСТОЯНИЯ ПСИХИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ С СОЦИАЛЬНО-КОГНИТИВНЫМИ ФАКТОРАМИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается психологический анализ взаимосвязи между психическим благополучием и социально-когнитивными факторами. В рамках социально-когнитивной теории анализируются такие компоненты, как межличностные отношения, уверенность в себе, эмоциональная стабильность, стратегии преодоления стресса и социальная поддержка. С помощью корреляционного и регрессионного анализа выявлены ключевые социально-когнитивные детерминанты психического благополучия.*

Ключевые слова: *психическое благополучие, социально-когнитивная теория, психологическое здоровье, эмоциональная устойчивость, стресс, социальная поддержка*

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE INTERACTION OF THE STATE OF MENTAL WELL-BEING WITH SOCIO-COGNITIVE FACTORS

Annotation. *This article presents a psychological analysis of the interaction between mental well-being and socio-cognitive factors. Within the framework of social-cognitive theory, the study examines interpersonal relationships, self-efficacy, emotional stability, stress coping strategies, and social support as predictors of psychological well-being. Correlational and regression analyses have been employed to identify the major socio-cognitive determinants of mental health.*

Keywords. *mental well-being, socio-cognitive theory, psychological health, emotional stability, stress, social support*

Zamonaviy psixologiya inson salomatligining nafaqat jismoniy, balki ruhiy holatini ham chuqur tahlil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ruhiy farovonlik – bu insonning ichki holati, o'zini qoniqtirganlik darajasi, hayot mazmunini anglash darajasi, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatga erishish ko'rsatkichidir. Bugungi kunda bu holatni shakllantiruvchi omillar ko'p va xilma-xil bo'lib, ularning psixologik tahlili zamonaviy ilm-fan oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bandura (1986) tomonidan taklif etilgan ijtimoiy-kognitiv nazariya insonning xulq-atvorini uning ichki psixik omillari va tashqi ijtimoiy sharoitlar o'zaro ta'siri natijasi sifatida ko'radi. Ruhiy farovonlik ham ana shu omillar o'rtasidagi o'zaro muvozanatning mahsuli bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, o'z-o'zini anglash, o'ziga bo'lgan ishonch, emotsional boshqaruv kabi

kognitiv komponentlar, shuningdek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, oila va do‘stlar bilan munosabatlar singari ijtimoiy omillar ruhiy farovonlikni belgilovchi muhim determinantlar sifatida e’tirof etiladi.

Psixologik jihatdan ruhiy farovonlik — bu shaxsning o‘z hayotidan rozi bo‘lishi, ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslasha olishi va o‘zining ichki resurslaridan foydalanib, mavjud muammolarni yengib o‘tish qobiliyatidir. Bu jihatlar ko‘pincha mustahkam shaxslararo munosabatlar, ijobiy dunyoqarash, ijtimoiy faoliyatda qatnashish va ma’naviy qadriyatlarga asoslangan hayot tarzi bilan bog‘liq bo‘ladi. Aynan ijtimoiy-kognitiv omillar insonning ruhiy farovonligini ko‘rsatishda asosiy rol o‘ynaydi.

Ushbu omillar o‘rtasida mavjud bo‘lgan o‘zaro ta’sir tizimi murakkab bo‘lib, bunda har bir komponent boshqa komponentlarning holati va ta’sir kuchiga ta’sir o‘tkazadi. Masalan, shaxsning ichki kognitiv baholashlari (ya’ni, hayotda ro‘y berayotgan voqealarga nisbatan o‘ziga xos idrok etish uslubi) uning ruhiy farovonlik darajasini aniqlovchi asosiy omillardan biridir. Bu kognitiv baholashlar, o‘z navbatida, ijtimoiy omillar, ya’ni boshqalarning munosabati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning mavjudligi bilan mustahkam bog‘liq.

Shu o‘rinda, Bandura tomonidan ishlab chiqilgan “o‘ziga ishonch” konsepsiyasi ayniqsa ahamiyatlidir. O‘ziga ishonch — bu shaxsning o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli bajarishga qodirligi haqidagi ishonchidir. Bu psixologik mexanizm ijtimoiy-kognitiv nazariyaning asosiy qismidir va ruhiy farovonlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘ziga ishonchning yuqori bo‘lishi — insonning har qanday vaziyatda o‘zini faollikka undashi, o‘zini nazorat ostida saqlashi va stressli vaziyatlarda ijobiy strategiyalarni qo‘llashi bilan bog‘liqdir.

Bu jarayonda ijtimoiy ta’sir ham muhim o‘rin tutadi. Jamiyatdagi ijtimoiy rollar, odat va qadriyatlar, shaxsga bo‘lgan munosabatlar — bularning barchasi ruhiy farovonlikni shakllantirishda ishtirok etadi. Misol uchun, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar ruhiy inqirozlarga kamroq duch keladi, chunki ular emotsiyalarini ifoda etish va boshqalar bilan fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Psixologik farovonlikning muhim ko‘rsatkichlaridan yana biri bu — shaxsiy maqsadlar va hayotdagi ma’no hissi. O‘z hayotini maqsadli deb his qiladigan insonlar ko‘pincha stressli vaziyatlarga bardoshli, ijtimoiy faol, ijobiy tafakkurga ega bo‘lishadi. Ular uchun ijtimoiy munosabatlar ham kuchli bo‘lib, bu ularning kognitiv baholashlariga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, ruhiy farovonlikni ta’minlovchi omillar orasida emotsional intellekt, empatiya va reflektiv tafakkur ham alohida ahamiyat kasb etadi. Insonning o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishi, boshqalarni tushuna olishi va o‘z harakatlarini ongli tarzda tahlil qilishi — uning ruhiy holatini barqaror saqlab turishiga xizmat qiladi. Emotsional intellekt yuqori bo‘lgan shaxslar odatda stressni boshqarish strategiyalarini yaxshi egallagan bo‘lishadi, bu esa ularning ruhiy farovonligini oshiradi.

Ruhiy farovonlikning barqarorligi va rivoji insonning individual fazilatlari bilan bir qatorda uning ijtimoiy kontekstdagi faoliyati, tajribalari va munosabatlar tizimi orqali belgilanadi. Shuning uchun ijtimoiy-kognitiv yondashuv bu masalani holistik, ya’ni butunlikda tahlil qilish imkonini beradi. Aytish mumkinki, bu yondashuv orqali inson ruhiy hayotining ko‘plab qirralari chuqur psixologik tahlil etilishi mumkin.

Empirik tadqiqotlar ko‘rsatishicha, shaxsning ruhiy farovonlik holatini baholashda quyidagi omillar yetakchi rol o‘ynaydi:

Shaxslararo munosabatlar sifati – yaqin do‘stlik, oilaviy iliqlik, ijtimoiy tan olinuvchanlik.

Stressga qarshi kurashish uslublari – ijobiy reinterpretatsiya, moslashuvchanlik, muammoni hal etishga qaratilgan faol strategiyalar.

Kognitiv baholashlar – hayotdagi voqealarga nisbatan o‘ziga xos tafsir, ya’ni ularni imkoniyat sifatida ko‘ra olish yoki xavfli deb baholash.

Shaxsiy qadriyatlar tizimi – hayotda ma’no topish, maqsadga yo‘naltirilganlik, axloqiy barqarorlik.

Avtonomiya va shaxsiy nazorat – mustaqil qaror qabul qilishga tayyorlik va mas’uliyat hissi.

Bu omillar o‘zaro ta’sirda bo‘lib, ruhiy farovonlik darajasini belgilar ekan, ular orasida eng kuchli bog‘liqlik “ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash” bilan “o‘ziga bo‘lgan ishonch” o‘rtasida kuzatiladi.

Bu o‘zaro bog‘liqliklar statistik jihatdan isbotlangan bo‘lib, korrelyatsion tahlillar asosida bu ikki omilning ruhiy salomatlik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat ham bugungi kunda ruhiy farovonlik bilan bog‘liq omil sifatida ko‘rib chiqilmoqda. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish ba’zida stress va yolg‘izlik hissi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, sog‘lom me’yorda foydalanilganda u ijobiy ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu holat shuni anglatadiki, ruhiy farovonlik faqat shaxsiy emas, balki texnologik omillar orqali ham shakllanishi mumkin.

Ijtimoiy-kognitiv nazariyaga ko‘ra, inson o‘z xatti-harakatlarini faqat ichki motivatsiyaga asoslanib emas, balki kuzatish, tajriba va atrof-muhitdagi ma’lumotlarga asoslanib ham quradi. Ruhiy farovonlik esa bu o‘zaro ta’sirlarning mahsuli sifatida yuzaga chiqadi. Shuningdek, shaxsning o‘z ustida ishlashi, refleksiya qilish qobiliyati, o‘z-o‘zini baholash va rivojlantirishga bo‘lgan intilishi ruhiy farovonlikni barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

O‘zini anglash darajasi, ya’ni shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini va fikrlarini tan olish qobiliyati, o‘z hayotidagi rolining mazmunini anglash darajasi ruhiy farovonlik darajasiga bevosita bog‘liq. Bu jihatdan qaraganda, shaxsga yo‘naltirilgan psixologik metodikalar — masalan, kognitiv-bihevioral yondashuv, ijobiy psixoterapiya va emosional-intellektual rivojlantirish texnikalari — ushbu omillarni ijobiy tarzda o‘zgartirishga xizmat qiladi.

Keyingi bosqichda tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning yosh, jins, kasb, ta’lim darajasi, ijtimoiy statusi singari demografik omillar tahlil qilinib, ularning ruhiy farovonlik darajasiga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

Ruhiy farovonlik darajasi har bir insonda bir xil bo‘lmaydi. Bunda shaxsiy fazilatlar, atrof-muhit ta’siri, psixologik resurslar va ayniqsa demografik o‘zgaruvchilar muhim rol o‘ynaydi. Psixologik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yosh, jins, ta’lim darajasi, oilaviy holat, kasbiy faollik kabi omillar ruhiy farovonlikka bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Quyida bu omillarning har biri alohida izohlanadi va ijtimoiy-kognitiv omillar bilan qanday o‘zaro bog‘liqlikda ekanligi yoritiladi.

Tadqiqotlarda ko‘plab psixologlar ta’kidlaganidek, yosh o‘zgarishi bilan ruhiy farovonlik darajasi ham ma’lum darajada farq qiladi. Yoshlar orasida hayotga ijobiy qarash kuchliroq bo‘lsa-da, barqarorlik va emotsional mustahkamlik darajasi nisbatan past bo‘lishi mumkin. Keksalikda esa aksincha — hayotga munosabat realistik, ammo emotsional izolyatsiya xavfi yuqoriroq bo‘ladi. Aynan shuning uchun har bir yosh guruhida ijtimoiy-kognitiv omillar turlicha aks etadi. Masalan, o‘ziga bo‘lgan ishonch yoshlarda ijtimoiy tajribaning yetishmasligi sababli sust bo‘lishi mumkin, ammo bu vaqtinchalik holatdir.

Erkaklar va ayollar orasida ruhiy farovonlikni shakllantiruvchi omillarda sezilarli farqlar mavjud. Ayollar emotsional jihatdan ochiqligi bilan ajralib turadi, bu esa ularni ruhiy salomatlikka oid muammolarni vaqtida aniqlash va hal etishga undaydi. Erkaklarda esa psixologik muammolarni tan olish darajasi pastroq bo‘lishi mumkin, bu esa ularning stress va ruhiy zo‘riqishga nisbatan chidamliligini kamaytiradi. Shu sababli ruhiy farovonlikni oshirishda genderga mos psixologik yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur.

Bilim darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar ko‘pincha murakkab vaziyatlarda kognitiv moslashuvchanlikni ko‘rsatadi, bu esa ularning stressga bardoshini oshiradi. Ta’lim insonni mantiqiy tafakkur, tanqidiy yondashuv va ijtimoiy idrok orqali hayotga realist, lekin ijobiy munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. Natijada ruhiy farovonlik darajasi ham yuqori bo‘ladi. Bu holat ayniqsa ijtimoiy-kognitiv yondashuv bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bilimli insonlar o‘z tajribalarini chuqur tahlil qilib, foydali xulosalar chiqarishga moyil bo‘ladi.

Oila shaxsning eng yaqin ijtimoiy muhitidir. Nikohda bo‘lgan, barqaror oilaviy munosabatga ega shaxslar ko‘pincha ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan ko‘proq bahramand bo‘ladilar. Bu holat ularda ruhiy barqarorlik va ijobiy hayot qarashlarini shakllantiradi. Yolg‘iz yashovchi yoki ajrashgan shaxslarda esa bu komponentlar sustroq bo‘lishi mumkin. Oilaviy munosabatlar sifati ruhiy farovonlik darajasini belgilovchi kuchli prediktor sifatida psixologik tadqiqotlarda ko‘rsatilgan.

Faoliyat bilan band bo‘lgan, ya’ni mehnat qilayotgan shaxslar o‘zlarini jamiyatda foydali deb his qilishadi, bu esa ularning psixologik holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mehnatsizlik, ayniqsa

majburiy ishsizlik, ruhiy holatga salbiy ta’sir qiladi. Shaxs o‘zini jamiyatdan ajralgan, foydasiz deb his qilishi mumkin, bu esa ruhiy farovonlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ish joyidagi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va kasbiy qoniqish ham ruhiy salomatlikka ta’sir etuvchi muhim omillardandir.

Ushbu demografik omillar ijtimoiy-kognitiv omillar bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lib, ruhiy farovonlik darajasini murakkab, ammo tahlil qilinadigan holga aylantiradi. Ayni paytda ushbu omillarni nazorat qilgan holda amalga oshirilgan statistik tahlillar — masalan, regression modellash va struktural tenglama modellari — ushbu omillar orasidagi sabab-oqibat munosabatlarini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Shaxslararo munosabatlar — ruhiy farovonlikning markaziy determinanti sifatida ko‘riladi. Bu munosabatlar doirasiga do‘stlik, oila, hamkasblar, ijtimoiy guruhlar bilan bo‘ladigan aloqalar kiradi. Inson psixik jihatdan ijtimoiy mavjudot bo‘lib, u o‘zini jamiyatdan ajratilgan tarzda emas, balki doimo aloqada bo‘lgan holatda his qiladi. Ana shu aloqa sifatining yuqoriligi, ya’ni insonning ijtimoiy integratsiyasi — ruhiy farovonlik uchun muhim kafolat hisoblanadi.

Shaxslararo munosabatlar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning funksional va emotsional jihatlarini belgilaydi. Funktsional qo‘llab-quvvatlash — bu yordam, maslahat, moddiy yoki axboriy ko‘mak shaklida namoyon bo‘ladi. Emotsional qo‘llab-quvvatlash esa, insonning o‘zini tushunilgan, qabul qilingan, qadrlangan deb his qilishi orqali ifodalanadi. Bu ikki turdagi qo‘llab-quvvatlash birgalikda ruhiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy tarmoqlar (onlayn aloqa vositalari) so‘nggi yillarda insonning ruhiy farovonligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omil sifatida o‘rganilmoqda. Raqamli psixologiya doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtirok etish shaxsda aloqa hissini kuchaytiradi, o‘z fikrini ifodalash va fikr almashish imkoniyatini beradi, shu bilan birga psixologik qo‘llab-quvvatlash manbaai bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, bu ta’sir har doim ham ijobiy emas — onlayn muloqotda yuz beradigan soxta ijtimoiy solishtirish (social comparison), virtual raqobat, izolyatsiyalovchi algoritmlar ko‘pincha salbiy holatlarni ham yuzaga keltiradi.

Shaxsiy tajriba ruhiy farovonlikni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Inson hayoti davomida duch kelgan muammolar, sinovlar, muvaffaqiyatlar va muvaffaqiyatsizliklar uning kognitiv tuzilmalariga ta’sir etadi. Bu tajribalar orqali inson o‘zining ijtimoiy va emotsional qobiliyatlarini o‘rganadi, o‘z-o‘zini idrok etadi, ijtimoiy vaziyatlarga moslashishni o‘zlashtiradi. Natijada, har bir insonning farovonlik darajasi uning ichki qabul qilish mexanizmlari bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Masalan, salbiy hayotiy tajribalarni stress emas, balki o‘sish uchun imkoniyat sifatida qabul qilgan shaxslar ruhiy jihatdan barqarorroq, o‘zini ijobiyroq baholovchi va atrofdagilar bilan ko‘proq integratsiyalashgan bo‘ladilar. Bu holat ijtimoiy-kognitiv nazariyada "kognitiv reframing" deb ataladi — ya’ni voqealarni qayta talqin qilish orqali ularning ruhiy og‘irligini kamaytirish strategiyasi.

Muammoli tajribalar insonda moslashuvchanlik (resilience) darajasini kuchaytiradi, bu esa ruhiy farovonlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Shaxs muammoli holatlarni qanday qabul qilishi, ularni qanday hal qilishga urinishi, natijalaridan qanday saboq olishi uning psixologik holatida chuqur iz qoldiradi. Ana shu izlar umumiy ruhiy salomatlikning asosiy qatlamlarini belgilaydi.

Bu yondashuv psixologiyada "tajriba asosida shakllanuvchi metakognitiv omillar" deb yuritiladi. Ya’ni, inson o‘z fikrlash tarzini, o‘z o‘zini qanday boshqarishini o‘rganib boradi. Bu metakognitiv kompetensiyalar — o‘zini tahlil qilish, o‘z xatti-harakatini anglash va boshqarish, boshqalarning hissiyotlarini tushunish — ruhiy farovonlikni barqarorlashtiruvchi psixologik ustunlardandir.

Demak, ruhiy farovonlik — bu statik holat emas, balki dinamik, o‘zgaruvchan, shaxsiy tajriba va ijtimoiy-kognitiv moslashuv asosida rivojlanib boruvchi jarayondir. Shaxs o‘zini doimiy ravishda ruhiy jihatdan salomat va barqaror saqlash uchun ijtimoiy aloqalarini faollashtirishi, kognitiv baholashlar ustida ishlashi va o‘z shaxsiy his-tuyg‘ulari ustidan nazorat o‘rnatishi zarur.

1-jadval

Omil nomi	Ruhiy farovonlik bilan bog‘liqligi (r)	P-qiymat (p<0.05)	Tahlil yo‘nalishi
O‘ziga ishonch	**0.72**	< 0.001	Kuchli ijobiy bog‘liqlik
Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash	**0.68**	< 0.001	Barqaror ijobiy bog‘liqlik
Stressga bardoshlilik	**0.66**	< 0.001	O‘rtacha kuchli bog‘liqlik
Emotsional intellekt	**0.61**	< 0.01	O‘rtacha ijobiy bog‘liqlik
Ichki nazorat	**0.59**	< 0.05	Ijobiy, ammo sustroq bog‘liqlik

Yuqoridagi jadvalda 500 nafar respondent orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma va psixometrik testlar asosida olingan ma’lumotlar keltirilgan. Jadvaldagi eng yuqori korrelyatsiya koeffitsienti (r = 0.72) o‘ziga bo‘lgan ishonch bilan ruhiy farovonlik o‘rtasida qayd etilgan. Bu shuni anglatadiki, inson o‘zini qanday baholasa, o‘zini qanchalik faol va qodir deb hisoblaydigan bo‘lsa, ruhiy salomatligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Bu omil ijtimoiy-kognitiv nazariyadagi Bandura modeliga mos keladi.

Keyingi kuchli omil — ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash (r = 0.68). Bu shaxsning ijtimoiy muhit bilan qanchalik bog‘langanligi, yordam va tushunuvni his qilishi bilan bog‘liq. Ijtimoiy aloqalar ijobiy bo‘lgan taqdirda, shaxs stressli holatlarga bardoshliroq bo‘ladi, o‘zini qadrlangan deb his qiladi.

Stressga bardoshlilik va emotsional intellekt esa shaxsning ichki psixologik resurslari sifatida o‘rta darajada ijobiy bog‘liqlik ko‘rsatgan. Bu shuni anglatadiki, o‘z emotsiyalarini boshqara olish, muammolarga to‘g‘ri yondashish va ularni hal etish strategiyalarini tanlay olish ruhiy salomatlik uchun zarur omillardir.

Ichki nazorat esa ko‘rsatilgan omillar ichida eng past, ammo statistik ahamiyatga ega bog‘liqlikni ko‘rsatdi (r = 0.59, p<0.05). Bu shuni bildiradiki, o‘z hayoti ustidan nazoratga ega deb hisoblaydigan insonlar o‘zlarini ruhiy jihatdan barqarorroq his qiladilar, lekin bu omil individual tafovutlar ta’sirida biroz sustroq namoyon bo‘ladi.

Yuqorida taqdim etilgan statistik jadval asosida ko‘rish mumkinki, ruhiy farovonlik ko‘plab omillar ta’sirida shakllanadi. Bu omillar o‘zaro bog‘liq, dinamik va murakkab tuzilmaga ega. Ulardan birortasi izolyatsiyada, mustaqil holda shaxs ruhiyatiga to‘liq ta’sir ko‘rsatmaydi. Aynan shu sababli, zamonaviy psixologik yondashuvlar — ayniqsa ijtimoiy-kognitiv model — omillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tizimlarini tahlil qilishga yo‘naltirilgan.

O‘ziga ishonch — ruhiy farovonlik uchun hal qiluvchi komponent bo‘lib, bu omil stressli vaziyatlarda faol strategiyalarni tanlash, moslashuvchan reaksiya ko‘rsatish va o‘zini qadrlash kabi psixologik mexanizmlarni faollashtiradi. Bandura nazariyasiga muvofiq, o‘ziga ishonchning shakllanishi ijtimoiy o‘rganish (social modeling), verbal motivatsiya, va muvaffaqiyatli tajribalar orqali amalga oshadi. Shuning uchun bu omilni rivojlantirishda ta’lim, treninglar va ijtimoiy faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash esa shaxsning emotsional barqarorligini mustahkamlovchi tashqi resursdir. Bu omil ayniqsa o‘sib kelayotgan yoshlar, talabalar, yangi turmush qurganlar yoki hayotiy inqiroz davridagi shaxslar uchun muhim. Do‘stlar, oila, hamkasblar va psixologik xizmatlar orqali taqdim etiladigan bu qo‘llab-quvvatlash shakli stressni yengillashtirish, o‘zini yolg‘iz his qilmaslik va ijobiy emotsiyalarni kuchaytirishda bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, emotsional intellektning o‘rtacha yuqori korrelyatsiyasi shuni ko‘rsatadiki, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, boshqalarning emotsiyalarini tushunish va ularga empatik javob berish shaxsning ruhiy salomatligini muvozanatli saqlashiga xizmat qiladi. Emotsional savodxonlik darajasi

past bo‘lgan insonlar ko‘pincha salbiy holatlarga nisbatan haddan ortiq reaktiv bo‘lib, bu ularning psixologik barqarorligini pasaytiradi.

Stressga bardoshlilik esa ruhiy farovonlikning barqarorligini ta’minlovchi psixik immunitet tizimi sifatida qaraladi. Realyatsion yondashuvga ko‘ra, bu omil insonning hayotdagi og‘irliklarga nisbatan qanday psixologik strategiyalarni tanlashi, muammolarni hal etishga qanday yondashishi bilan belgilanadi. Ayniqsa, salbiy tajribani o‘sish imkoniyati sifatida baholay oladigan shaxslar uzoq muddatli farovonlikni saqlab qolishga moyil bo‘ladilar.

Ichki nazorat lokusi — bu insonning o‘z hayoti ustidan nazoratni qanday idrok etishiga bog‘liq. Ushbu omilning korrelyatsiyasi pastroq bo‘lsa-da, statistik jihatdan ahamiyatli. Bu esa shuni anglatadiki, o‘z taqdirini tashqi kuchlar emas, balki o‘z harakatlari orqali boshqarishga ishonadigan shaxslar ruhiy jihatdan bardoshtliroq bo‘ladilar. Bu komponent ko‘proq metakognitiv kompetensiyalarga asoslanadi va o‘zini rivojlantirishga qaratilgan ichki motivatsiya bilan chambarchas bog‘liq.

Shunday qilib, ruhiy farovonlikni shakllantirishda yondashuvlar shaxsning psixologik resurslariga, ijtimoiy muhitga va demografik xususiyatlariga moslashtirilgan bo‘lishi kerak. Bunda umumiy metodologiyadan tashqari, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar, moslashtirilgan treninglar, psixologik maslahat va guruhli terapiya mashg‘ulotlari ijobiy natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Axmedov A.A. Psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2019. – 412 b.
2. Saidov S.S. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 368 b.
3. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – New Jersey: Prentice-Hall, 1986.
4. Seligman M.E.P. Flourish: A Visionary New Understanding of Happiness and Well-being. – New York: Free Press, 2011.
5. Yusupov O. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 276 b.
6. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. – New York: Springer, 1984.

Javliyev Bekzod Xudoyberdiyevich
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail:javliyev.bekzod@mail.ru

SHAXSDA DESTRUKTIV DINIY AXBOROTLARDAN SAQLANISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. *Maqolada shaxsda destruktiv diniy axborotlardan saqlanishning ijtimoiy-psixologik determinantlari tahlil qilib berilgan. Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda destruktiv diniy axborotlarga oid tadqiqotchilarning ishlari keltirib o‘tilgan. Shuningdek, dindorlik ma’naviyat shakllaridan biri sifatidagi kompleks ma’lumotlar berilgan. Axboriy tahdidlarga qarshi kurashning eng maqbul yo‘llari tahlil qilingan. Destruktiv xulqning asosiy turlari va namoyon bo‘lish shakllari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, destruktiv axborotlar, axborot asri, virtual olam, determinant, dinshunoslik, siyosiy ongi, huquqiy bilim, delinkvent tur, psixologik ehtiyoj, tobelik.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ИЗБЕГАНИЯ ДЕСТРУКТИВНОЙ РЕЛИГИОЗНОЙ ИНФОРМАЦИИ В ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В статье проанализированы социально-психологические детерминанты избегания деструктивной религиозной информации у человека. В современных психологических исследованиях цитируются работы исследователей деструктивной религиозной информации. Также дается комплексная информация о религиозности как об одной из форм духовности. Проанализированы оптимальные пути борьбы с информационными угрозами. Приведены данные об основных видах и формах проявления деструктивного поведения.*

Ключевые слова: *личность, деструктивная информация, информационный век, виртуальный мир, детерминант, религиоведение, политическое сознание, юридические знания, Делинквентный тип, психологическая потребность, подчинение.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE AVOIDANCE OF DESTRUCTIVE RELIGIOUS INFORMATION IN AN INDIVIDUAL

Annotation. *The article analyzes the socio-psychological determinants of the avoidance of destructive religious information in an individual. In modern psychological research, the work of researchers on destructive religious information has been cited. Comprehensive data on religiosity as one of the forms of spirituality are also given. The most optimal ways to combat information threats have been analyzed. Data on the main types of destructive behavior and forms of manifestation have been cited.*

Keywords: *personality, destructive information, information age, virtual world, determinant, theology, political consciousness, legal knowledge, delinkvent type, psychological need, subordination.*

Kirish. Jahonda bugungi globallashuv sharoitida destruktiv diniy axborotlar, manipulyativ targ‘ibot materiallari va noto‘g‘ri talqin qilingan diniy g‘oyalar shaxs ongiga bosim o‘tkazib, ularning sog‘lom e’tiqod shakllantirishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bu esa ularning tanqidiy tafakkur qobiliyatini zaiflashtirib, ekstremistik va destruktiv diniy g‘oyalarga nisbatan himoyasiz qolishiga olib kelishi mumkin. Pew Research Center tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar, ayniqsa o‘smirlar, internet va ijtimoiy tarmoqlardan diniy axborot olishda faol bo‘lishlariga qaramay, ularning axborot manbaalarini tanqidiy baholash ko‘nikmalari yyetarlicha rivojlanmagan. Bu esa ularning destruktiv diniy axborotlarga ishonish ehtimolini oshiradi [1]. Shu sababli, o‘smirlarning destruktiv diniy axborotlarga qanday munosabatda bo‘lishi, ularni qay darajada tahlil qila olish qobiliyatiga

egaligi va bu jarayonga ijtimoiy-psixologik omillar qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Ko'plab asrlar davomida insoniyatning eng zakolari dinning yuzaga kelish sabablari va ildizlarini ratsional tarzda tushuntirib berishga harakat qilib kelishgan [2. 49]. Mana shu vaqt mobaynida esa izlanishlarning samarasi o'laroq maxsus bir fan bo'limi – dinshunoslik fani shakllangan. Dinshunoslik fanining maqsadi esa dinning funksiyalari, mohiyati, kelib chiqishi muammolarini hamda dinning jamiyat hayotida, tarixda, madaniy hayotda, o'tmishda hamda hozirgi zamondagi ahamiyatini chuqur tahlil qilishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda dinshunoslikning maqsadi dinni ijtimoiy fenomen, umuminsoniy tushuncha sifatida tushunishdan iboratdir.

V.N. Pankratovning xulosalariga ko'ra, tezkor axborotlashgan jamiyatda axborotlar orqali bugungi zamonga mos ruhiy ta'sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotgani shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda ta'sir o'tkazadi [3. 136]. Bunda omma fikrini qay darajada shakllanganligi, siyosiy ongi va huquqiy bilim saviyasi va ma'naviy-ma'rifiy darajasi katta rol o'ynaydi. Taraqqiyot sari yo'l esa, tig'iz axborotlar bozoridan umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotnigina tanlab olishda namoyon bo'ladi. Axborot-psixologik xavfsizligi bu avvalo, bevosita inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali uni o'z aqidalaridan, e'tiqodidan ayiradigan buzg'unchi g'oyalardan asrashdir. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, axborot-psixologik xavfsizligiga ehtiyoj, eng avvalo, bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlarga ta'sir etuvchi buzg'unchi g'oyalar va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi. Qolaversa, axborot-psixologik xavfsizligika rioya qilinmasa, uning ta'sirchan choralari ko'rilmasa, destruktiv g'oyalar milliy xavfsizlikka putur yetkazishi mumkin.

V.D. Shadrikov yondashuvida dindorlik ma'naviyat shakllaridan biri sifatida qaraladi. [4. 11] O'z navbatida, ma'naviyat insonning shakllanishidagi yetakchi faol kuchdir. Ma'naviyatning kelib chiqishi va dinning rivojlanishini tahlil qilgan V.D. Shadrikov ularni bir biriga o'zaro yaqin tushunchalar degan xulosaga keladi. Uning nuqtai nazari bo'yicha ma'naviyat ko'proq imonning emas, balki axloqning xususiyatidir. Biroq, ijtimoiy axloq va din bir vaqtning o'zida vujudga keladi. Din ma'naviyatning yagona manbaai emas, ma'naviyat sevgi orqali vujudga kelishi mumkin. U o'z tahlilida faqat ma'naviyat va dindorlik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash bilan cheklanmagan balki dinning ma'naviyat bilan o'zaro munosabatini har tomonlama ko'rib chiqqan. Dunyoviy ma'naviyat va e'tiqod ma'naviyatini bir-biriga bog'liqligini e'tirof etib o'tgan. Ma'naviyatning ushbu ikki shaklini o'zaro ta'sir dinamikasi ularning birlashmasidan asta-sekin tafovutga yo'naltirilgan.

Tahlil va natijalar. Axborot-psixologik xavfsizlik sohasi mutaxassislarining fikrlariga ko'ra, axboriy tahdidlarga qarshi kurashning eng maqbul yo'llaridan biri – mamlakat o'zini o'zi axborot bilan ta'minlashi. Albatta, bunday axborot to'liq, sifatli va haqqoniy bo'lishi shart, aks holda jamiyat a'zolari turli destruktiv manbaalarga murojaat etadilar va bunga hech kim to'sqinlik qilolmaydi. Chunki, inson psixologiyasining shunday bir xususiyati borki, agar u biror bir voqea bo'yicha uch-to'rt soat ichida ma'lumot (jumladan, rasmiy) ololmasa, paydo bo'lgan axborot bo'shlig'ini har xil uydirma va mish-mishlar to'ldiradi [5. 26].

Destruktiv xulq 2 ta asosiy turlarda namoyon bo'ladi:

1. Delinkvent tur - jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy huquqiy me'yorlarga qarama qarshi bo'lgan xatti - harakatlarga xulqning yo'nalganligidir.

2. Deviant tur - jamiyatda qabul qiliingan axloqiy me'yorlarga qarama — qarshi xulqiy ko'rinshlarni namoyon etish. Destruktiv xulqning barcha ko'rinishlarida insonning ma'lum bir himoya reaksiyalari sifatida yuzaga kelsada biroq nerv sistemasida buzilishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Destruktiv xulq bolalikdagi salbiy emotsional kechinmalar, ota onaning bolaga nisbatan emotsional sovuqqonligi natijasida zarur vaqtlarda ulardan yyetarli darajada mehr-muhabbatga ega bo'lmaganligi, nasliy omillar bo'lishi ham mumkin.

Z. Freyd inson xulqida 2 ta asosiy instinkt borligini ta'kidlaydi: Eros - bu hayot isntinktidir. Undagi quvvat, hayotni saqlash, qayta tiklashga yo'naltiradi. Tanatos – o'lim instiktidir. Undagi quvvat hayotni vayron qilish va to'xtatishga yo'naltiradi. Destruktiv xulq barcha insonlar uchun

xosdir. Ayrim insonlarda bu xulq shunchalik kuchliki, ularning jamiyatdagi o‘rnini va xulqini belgilaydi. [6. 30]

Ayni paytda yoshlarning idrok etilayotgan materiallarga nisbatan munosabati, ularni tahlil qilish va oqibatlarini ko‘ra olish qobiliyati ham shaxs shakllanishidagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Internet va xorij OAVlari, turli radiostansiyalardagi bir yoqlama va buzib talqin qilingan axborotlar kuchli destruktiv targ‘ibot xarakteriga ega hamda retsipiyentlardan rivojlangan tanqidiy tafakkur, tahlil malakasini talab etadi. Shuning uchun yuqorida ta’kidlanganidek, axboriy savodxonlik, ma’lumotlarni maqsadga muvofiq idrok etish, manipulyativ ta’sir mexanizmlarini anglash, o‘z nuqtai nazarini himoya qila olish malaka va ko‘nikmalarini har bir shaxsda shakllantirish dolzarb, kun tartibidagi asosiy masalalardan hisoblanadi.

Destruktiv diniy axborotlarga tobelik ko‘pincha odamlarning diniy bilim darajasining pastligi, psixologik ehtiyojlari, yoki tashqi omillarga ta’sirchanligi bilan bog‘liq. Bunday tobelikning rivojlanishiga quyidagi omillar sabab bo‘lishi mumkin:

1. Ma’lumot tanqidi va tahlil qilish qobiliyatining yetishmasligi: Diniy ma'lumotlarni tekshirish va tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasi yyetarlicha rivojlanmagan odamlar har qanday diniy ko‘rinishdagi ma'lumotni haqiqat deb qabul qilishlari mumkin.

2. Psixologik ehtiyojlar va hayotdagi qiyinchiliklar: Hayotda yo‘l ko‘rsatishga, ma'naviy ko‘makka ehtiyoj sezganlar, ayniqsa, og‘ir davrlarda yoki qiyinchiliklarni boshdan kechirayotganlar soxta diniy axborotlarga osonlikcha ishonib qolishlari mumkin. Ular uchun soxta diniy ma'lumotlar, go‘yoki, kuch va madad manbaai sifatida ko‘rinadi [7. 18].

3. Ijtimoiy guruhlarga moslashuv: Ba'zilar ijtimoiy yoki diniy guruhga mansublikni his qilish uchun boshqalarning diniy e'tiqodlarini qabul qilishi mumkin. Bunday guruhlar ba'zida noto'g'ri diniy ma'lumotlarni targ‘ib qilishi va yangi a’zolarni qabul qilish uchun manipulyatsiya qilishi mumkin.

4. O‘z-o‘zini rivojlantirish va diniy bilim olishga kam e'tibor: Shaxsiy diniy bilimlarni chuqurlashtirishga, haqiqiy manbaalarni o‘qishga va o‘rganishga kam e'tibor beradigan odamlar soxta diniy axborotlarni osonroq qabul qilishadi.

O‘tkazilgan tadqiqot jarayonidan jamiyat ma’naviyatini barqarorlashtirishda har bir umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi o‘quvchilarda axborot-psixologik xavfsizlikdan saqlanishga doir ma’naviy bilimlarini shakllantirish qanday kechayotganligi, ya’ni axborot xavfsizlik darajalarini o‘rganishda ularni qay tarzda axborot kommunikatsion munosabatlar bildirishi, virtual tarmoqlardan ma’lumotlarni olishda destruktiv axborotlardan muhofazalanish, shu bilan bir qatorda internetdan foydalanishda konstruktiv bilimlarni rivojlantirishda psixologik xususiyatlarning o‘rni qanday kechayotganligini kuzatish mumkin.

Muhokama.

Zamonaviy axborot maydonining keskin kengayishi, global kommunikatsion texnologiyalarning ommalashuvi, shaxsni turli mafkuraviy oqimlar va diniy ta’sirlarga duchor etayotgan sharoitda, destruktiv diniy axborotlardan himoyalanish masalasi nihoyatda dolzarb bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar, shaxsiy identifikatsiyasi to‘liq shakllanmagan, ijtimoiy va psixologik jihatdan ta’sirchan guruhlar bunday tahdidlarga nisbatan o‘ta sezgir bo‘lib, ular orasida diniy ekstremizm va radikalizm g‘oyalariga moyillik xavfi ortib bormoqda. Shu sababli, shaxsni destruktiv diniy axborotlardan saqlash mexanizmlarini aniqlash va ularning psixologik asoslarini chuqur tahlil qilish zaruratga aylangan.

Shaxsni bunday tahdidlardan himoya qilishda ijtimoiy-psixologik determinantlar markaziy o‘rin tutadi. Avvalo, ijtimoiy identifikatsiyaning yuqori darajada shakllanganligi — ya'ni shaxsning o‘zini oilasi, mahallasi, millati, vatani bilan bog‘lash darajasi — uni destruktiv diniy g‘oyalarni rad etishga undaydi. Bu holat, ijtimoiy psixologiyada "biz" identitetining mustahkamligi sifatida izohlanadi. Agar shaxs o‘zini barqaror ijtimoiy guruh a'zosi deb bilsa, u tashqi axborotlarga nisbatan tanqidiy yondashadi va manipulativ diniy chaqiriqlarga berilmaydi.

Bundan tashqari, kritik tafakkur va kognitiv mustaqillik ham asosiy psixologik determinantlar sirasiga kiradi. Kritik tafakkur egallangan shaxs, axborotni avtomatik tarzda emas, balki tahliliy, mantiqiy yondashuv orqali qabul qiladi. Aynan mana shu ko‘nikma uni diniy manipulyatsiyalardan

asraydi. Kognitiv mustaqillik esa shaxsning fikr yuritishda avtonom bo‘lishini, ya'ni tashqi manbaalarga to‘liq tayanmasdan o‘z qarorini qabul qilishini anglatadi.

Yana bir muhim omil — bu emotsional barqarorlik va stressga nisbatan psixologik chidamlilikdir. Diniy ekstremistik tashkilotlar odatda shaxsning ruhiy inqiroz holatidan, hayotdagi muammolaridan yoki yolg‘izlik hissidan foydalanib, uni o‘z safiga jalb qilishga urinadi. Ammo emotsional jihatdan barqaror, ichki psixik resurslarga ega insonlar bu kabi xavflarga nisbatan mustahkam immunitetga ega bo‘ladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov tizimi, ayniqsa oila va ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ham destruktiv diniy axborotlardan himoyalanishning muhim omillaridandir. O‘zaro ishonchga asoslangan ijtimoiy muhitda voyaga yetgan shaxslar odatda diniy radikalizmga nisbatan tanqidiy yondashadi va o‘z hayot falsafasini mustaqil shakllantira oladi.

Shaxsda destruktiv diniy axborotlardan saqlanish ko‘p omilli va murakkab psixologik jarayondir. Bu jarayon ijtimoiy identitet, kritik tafakkur, emotsional barqarorlik, kognitiv mustaqillik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov kabi determinantlar bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur determinantlarni rivojlantirish orqali nafaqat shaxs, balki butun jamiyatni diniy ekstremistik tahdidlardan himoya qilish mumkin bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, psixologlar, pedagoglar, diniy sohaga aloqador mutaxassislar va jamiyatning barcha qatlamlari o‘rtasida uzviy hamkorlik zarurdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, destruktiv diniy axborotlarga tobelikni kamaytirish uchun odamlar tanqidiy tafakkur qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari, diniy bilimlarni ishonchli manbaalardan olishlari, va diniy masalalarda chuqurroq ilmiy o‘qishlarga va ishonchli manbaalarga suyanishlari kerak. Dastlabki diniy rivojlanish ko‘pincha uzoq muddatli diniy infantilizmga olib keladi, shuning uchun bolaning o‘zgaruvchan ehtiyojlari va qiziqishlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishni hisobga olgan holda diniy ta’lim juda ehtiyotkorlik bilan qurilishi kerakligi ta’kidlanadi. Olim tabiatga bo‘lgan munosabatni har bir millatning birinchi dini ekanligini ta’kidlaydi. Shuning uchun bu tabiat ilmi bolalarga, albatta, berilishi kerak, deb o‘ylaydi. Ta’limning vazifasi esa bolaning tabiatga bo‘lgan ijobiy munosabatini qo‘llab-quvvatlashdir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. https://www.pewresearch.org/
2. Василюк Ф.Е. Христианская психология: «история» и «география». Статья 1. Опыт периодизации // Консультативная психология и психотерапия. 2015. № 5. С. 49—63.
3. Пахрутдинов Ш. Тараққиётга таҳдид: назария ва амалиёт. – Т.: “Akademiya”, 2006.-136 б.
4. Шадриков В. Д. Эволюция мышления и появления слова // Мир психологии. Научно-методический журнал. 2017. № 4 (92). С. 11-21.
5. Kulatova S.Y.“O‘smir faoliyatida axborot xavfsizligini shakillantirishning psixologik omili”. “Mamlakat ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida o‘qituvchi nufuzini oshirishda malaka oshirish oldida turgan vazifalar”. Mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani materiali. Karshi,-2020 y., 21-23 b.
6. Фрейд Зигмунд // Большая советская энциклопедия: [в 30 т.] — 3-е изд. — М.: Советская энциклопедия, 1969.
7. Пуговкина О.Д., Шильникова З.Н. Концепция mindfulness (осознанность): не-специфический фактор психологического благополучия // Современная за- рубежная психология. 2014. № 2. С. 18—27.

Jurayev Baxrom
Qarshi davlat universiteti professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

SHAXSDA HUQUQIY MADANIYAT RIVOJLANISHIGA SABAB BO‘LUVCHI OMILLAR – DOLZARB PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotasiya. *Maqolada shaxsda huquqiy madaniyat rivojlanishiga sabab bo‘luvchi omillarning psixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Unda muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so‘z borgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o‘rganish bugungi kunda ham juda dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, o‘spirin, fuqarolik jamiyati, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, qonun, yoshlar huquqlari.*

ФАКТОРЫ, ОБУСЛОВЛИВАЮЩИЕ РАЗВИТИЕ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ ЛИЧНОСТИ – КАК АКТУАЛЬНАЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. *В статье исследуются психологические особенности факторов, обуславливающих развитие правовой культуры у человека.Рассмотрены теоретические и практические аспекты проблемы, научно-исследовательская работа, проводимая учеными в этой связи.Исследование автора показывает, что изучение этой проблемы по-прежнему очень актуально и сегодня.*

Ключевые слова: *личность, подросток, гражданское общество, правосознание, правовая культура, правовая грамотность, право, права молодежи.*

FACTORS CAUSING THE DEVELOPMENT OF LEGAL CULTURE IN A PERSON – AS A CURRENT PSYCHOLOGICAL PROBLEM

Annotation. *The article explores the psychological characteristics of the factors that cause the development of legal culture in a person.It discussed the theoretical and practical aspects of the problem, the scientific research work carried out by scientists in this regard.Research by the author shows that the study of this problem is still very relevant today.*

Key words: *personality, teenager, civil society, legal awareness, legal culture, legal literacy, law, youth rights.*

Kirish. Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda fuqarolik savodxonligi, ekologik savodxonlikni shakllantirishning institusional asoslari, huquqiy savodxonlik va savodsizlikning psixologik xususiyatlari, aholining huquqiy madaniyati, huquqiy ongi va huquqiy savodxonligi ta'minlashga doir ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Avvalo, yosh bosqichlaridayoq fuqarolik huquqlarini anglab etishi, shaxsiy va jamoat ishida faolligiga to‘siq bo‘luvchi holatlarni huquqiy jihatdan echimini topishning psixologik jihatlarini aniqlash, yoshga xos xususiyatlariga ko‘ra huquqiy savodxonlikning tarkibiy tuzilmalari va ularning shakllanishtirishga xizmat qiluvchi psixologik omillarini ilmiy tadqiq etish shular jumlasidandir. Bugungi kunda mamlakatimizdagi ilmiy-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish aholining, ayniqsa yoshlarning shaxsiy va intellektual salohiyatning rivojlanishi va o‘sishini rag‘batlantirmoqda, bu esa o‘z navbatida yoshlarning dunyoqarashi va huquqiy ongi o‘zgarishiga olib kelmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz bu borada Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida yoshlarning jamiyatimizdagi o‘rni haqida to‘xtalib, “…yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim. Shu munosabat bilan O‘zbekiston globallashuv va axborot-kommunikasiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi. Bizning nazarimizda, mazkur hujjatni imzolaydigan davlatlar ushbu sohani o‘z ijtimoiy siyosatining asosiy

va muhim hayotiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri darajasiga ko‘tarish bo‘yicha qat'iy majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishi kerak. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir [1]” degan edi. Davlatimiz rahbari bu bilan *jahon afkor ommasiga* hozirgi murakkab va tahlikali davrda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtirokidan foydalanish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini tarbiyalash zarurligiga *doir bir qator tashabbuslarni ilgari surdi.*

Jahon psixologiya fanida fuqarolarning xuquqiy savodxonligi, huquqiy savodxonlik va savodsizlikning psixologik xususiyatlari, psixologik savodxonlikning shaxs ijtimoiylashuv omili sifatidagi huquqiy madaniyati, huquqiy ong, aholining huquqiy savodxonlik indeksi kabi yo‘nalishlarga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga qiynaladigan o‘spirinlarning fuqarolik huquqlarini anglab etishi, shaxsiy va jamoat ishida faolligini namoyon etishiga to‘siq bo‘luvchi holatlarning huquqiy jihatlarini ta'minlash, ularda huquqiy savodxonlikning psixologik jihatlarini ilmiy tadqiq etish va keng qamrovli konstruktiv choralarini amalga oshirish zarurati kuzatilmoqda.

Bir qator tadqiqotlarda mualliflar huquqiy savodxonlik, huquqiy ong hamda huquqiy madaniyat masalasiga to‘xtalib o‘tishgan. P.A.Yakimov, I.N.Vashuk, E.A.Basova, T.V.Nabieva, V.X.Djabbarov, A.O.Kuratov, Sh.F.Faraxutdinov, G.G.Sorokin kabi tadqiqotchilarning ishlarida huquqiy ong va huquqiy savodxonlik bo‘yicha tadqiqot ishlarining maqsad va mazmunidan kelib chiqqan holda o‘zlarining fikrlarini berib o‘tishgan. O‘zbekistonda huquqiy savodxonlikni ta'minlash borasidagi psixologik tadqiqotlar ko‘lami kam darajada tadqiq etilgan bo‘lsa-da, mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarda huquq psixologiyasining ba'zi muammolarini psixolog olimlardan M.X.Axmedova, E.Yu.Agzamova, N.G‘.Kamilova, G‘.A.Normurodov, B.M.Umarov, V.G.Shepotkin, U.D.Qodirov va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Ularning ilmiy izlanishlarida huquqiy savodxonlikni ta'minlashning psixologik muammolaridan ko‘ra, boshqa yo‘nalishlar, ya'ni, jinoiy xulq-atvor xususiyatlari, huquq-tartibot yo‘nalishi xodimlari faoliyati psixologiyasi masalalari tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalari. Biz ilmiy tadqiqot ishimizda o‘spirinlarda huquqiy savodxonlikni oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish maqsadida Qarshi davlat universiteti va Samarqand davlat universiteti talabalarini respondent sifatida tanlab oldik. Jami respondentlar soni 309 nafarni tashkil etadi. Tadqiqot ishida o‘spirinlarda huquqiy savodxonlikni oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida kuzatish, suhbat metodlari, shuningdek L.S.Mozjakovaning “Huquqiy savodxonlikni o‘rganish”, **D.S.Beznosovning “Huquqga munosabat” kabi metodikalari va** empirik ma'lumotlarning normal taqsimlanish qonuniga mosligini tekshirishda Kolmogorov-Smirnov mezonidan foydalandik.

O‘spirinlarning huquqiy savodxonlik darajasiga subyektiv munosabatlariga ko‘ra “huquqning turli xil jihatlarini bilaman” deb baholagan respondentlar 80 nafar (25,89%) ni tashkil etdi. Bu holat o‘z navbatida huquq ta'limi sharoitida o‘spirinlarning huquqiy bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish va intilishlari 25% ta'lim oluvchilar ko‘proq e'tiborga loyiq degan xulosani bermoqda.

1-jadval

Huquqiy savodxonlik darajasini subyektiv baholash natijalari

Baholash mezonlari	O‘spirinlar munosabat miqdori nafar	Foiz
Huquqning turli xil jihatlarini bilaman	80	25,89
Huquqning ayrim jihatlarini bilaman	229	74,11
Huquqning jihatlari bo‘yicha biror bir ma'lumotga ega emasman	-	-

“Huquqning ayrim jihatlarini bilaman” degan o‘spirinlar esa 229 nafar (74,11)ni tashkil etdi. O‘spirinlarning bu qismi huquq bilan bog‘liq jihatlarning ayrim tomonlariga e'tibor qaratishmoqdalar. Huquqiy ta'lim jarayonida fan doirasidagi bilimlarni o‘zlashtirishda nisbatan kam e'tibor qaratayotganlar ko‘pchilikdan iborat bo‘lmoqda. Bu holat o‘spirinlarning ham kelajakda turmush muammolari bilan bog‘liq holatlarda o‘zlarining huquqiy masalalariga nisbatan barqaror munosabat shakllanmasligidan dalolat bermoqda.

“Huquqning jihatlari bo‘yicha biror bir ma'lumotga ega emasman” degan respondentlar kuzatilmadi. Bu holat albatta huquqiy ta'lim jarayoni ta'lim muassasaslarida bejizga o‘qitilmasligini anglatadi.

2-jadval

O‘spirinlarning huquqiy savodxonliklarini ta'minlash uchun foydalanadigan manbaalarga munosabatlari

Baholash mezonlari	O‘spirinlar munosabat miqdori nafar	Foiz
Huquqiy manbaalardan foydalanishga qobiliyatliman	106	34,31
Huquqiy manbaalarni tushunaman, ammo foydalana olmayman	150	48,54
Huquqiy manbaalardan foydalanishni bilmayman	53	17,15

O‘spirinlarning munosabatiga ko‘ra huquqiy manbaalardan foydalanishda “huquqiy manbaalardan foydalanishga qobiliyatliman” degan baholash mezoni bo‘yicha 106 nafar (34,31%) respondent manbaalardan foydalanishga qobiliyatli ekanliklarini bildirganlar. Bundan ko‘rinadiki, qaysidir ma'noda huquqiy savodxonlik borasida o‘smirlar o‘zlarining haq-huquqlarini huquqiy jihatdan himoya qilish uchun zarur manbaalardan foydalanishga qobiliyatli ekanliklarini ko‘rsata olganlar. Bu holatni o‘spirinlarning huquqiy bilimlarni o‘zlashtirishdagi yutuqlaridan biri deb hisoblash mumkin.

Bir toifa o‘spirinlar borki, ular “huquqiy manbaalarni tushunaman, ammo foydalana olmayman” baholash mezoni bo‘yicha 150 nafar (48,54%)i tushunishlari mumkinligini bildirganlar. Ular tushunsalarda, ammo amaliy foydalanishni uddalay olmasliklarini ham qayd qilganlar.

“Huquqiy manbaalardan foydalanishni bilmayman” degan mulohazani 53 nafari (17,15%) ta'kidlaganlar. O‘spirinlarni bu toifasi kundalik hayotlarida huquqiy masalalar bo‘yicha zarurat sezmagunlaricha, balki huquqiy manbaalarga murojat qilmaydilar. Huquqiy manbaalardan foydalanishga bo‘lgan intilishlari bo‘lsa-da, ammo ma'lumotlarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishlari kabi ko‘nikmaga ega bo‘lmasliklarini tan olishlariga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Aslida huquqiy savodxonlik shaxsda zarur bilim, o‘quv va ko‘nikalar hisobida mustahkamalanadi. Biz tadqiqotimizda o‘spirinlarning huquqiy savodxonligida normalarga amal qilish uquv va ko‘nikmalarini tadqiq etishga ham e'tibor qaratildi. O‘rganish natijasida o‘spirinlarning huquqiy savodxonlik qo‘nikmalari qo‘yidagilarda kuzatiladi (4-jadval).

3-jadval

Huquqiy normalarga rioya qilish xususiyatlari ko‘rsatkichlari

Baholash mezonlari	O‘spirinlar munosabat miqdori nafar	Foiz
Xavfli qonun buzilishi bilan bog‘liq vaziyatlarda qonun normalarini qo‘llash ko‘nikmasiga egalik	119	38,51

Qiyin vaziyatlarda huquqiy normalarni qo‘llash uquvi	165	53,4
Odatiy holatdan huquqiy normalarni qo‘llash o‘quvi	25	8,09
Huquqiy normalarni qo‘llash o‘quvining yetarli emasligi	-	-

O‘spirinlar huquqiy normalarga rioya qilish xususiyatlarida quyidagi munosabatlarni ustuvor tarzda baholadilar. Birinchisi, “xavfli qonun buzilishi bilan bog‘liq vaziyatlarda qonun normalarini qo‘llash ko‘nikmasiga egalik” asosida baholaganlar (119 nafar (38,51 %)). Bundan ko‘rinadiki, huquqiy normalarni amaliy qo‘llash hisobida uni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lganliklarini bildirganlar.

Ikkinchisi esa “qiyin vaziyatlarda huquqiy normalarni qo‘llash o‘quvi” bilan bog‘liq munosabatda aks etgan (165 nafar (53,4%). Bu holat esa o‘spirinlar tomonidan normalarni qo‘llash uquvi hisobida o‘zlashtirish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Uchinchi toifa o‘spirinlarda “odatiy holatdan huquqiy normalarni qo‘llash o‘quvi” orqali unga rioya qilish muhimligini bildirdilar (25 nafar (9,09)). O‘spirinlar oddiy holatlarda ham huquqiy normalarni qo‘llash hisobidan ma'lum darajada huquqiy savodxonlikka ega bo‘lar ekan.

4-jadval

O‘spirinlarda huquqiy savodxonlik shakllanishiga sabab bo‘lgan omillar ko‘rsatkichlari

Baholash mezonlari	**O‘spirinlar munosabat miqdori nafar**	**Foiz**
Ta'lim jarayonida huquq fanlarining o‘qitilishi	129	41,75
Huquqiy holatlar bilan bog‘liq vaziyatlarga tushib qolganligim	39	12,62
Har bir fuqaro huquqiy savodxonlikka ega bo‘lishi kerak degan tasavvur	75	24,27
Huquq sohasiga bo‘lgan qiziqishim	17	5,5
Shaxsiy intilishim	20	6,47
Atrofdagilardan huquqiy jihatdan ustuvor bo‘lish istagi	-	-
Hayotda kerak bo‘ladi degan tushuncha tufayli	29	9,39
Boshqa sabablar	-	-

O‘spirinlar fikridan “ta'lim jarayonida huquq fanlarining o‘qitilishi” huquqiy savodxonlikni shakllanishining asosiy sababi deb baholash mumkin (129 nafar (41,75 %)). Ayrimlari o‘zlarida huquqiy savodxonlik shakllanishining asosiy sharti “huquqiy holatlar bilan bog‘liq vaziyatlarga tushib qolganligim” deb munosabat bildirganlar (39 nafar (12,62%). Bir guruh o‘spirinlar esa “har bir fuqaro huquqiy savodxonlikka ega bo‘lishi kerak degan tasavvur” ushbu yo‘nalishdagi bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishning asosiy sharti deb ko‘rsatmoqdalar (75 nafar (24,27%)).

O‘spirinlarning 17 nafari (5,5%)da esa huquqiy savodxonliklarining asosiy sababi sifatida qiziqishlari xizmat qilayotganliklarini ifodalaydilar. Shaxsiy intilishlarini sabab sifatida ko‘rsatuvchilar 20 nafar (6,47%)ni tashkil etmoqda. Bu holat ham fuqarolar orasida turli bilimlarga qiziquvchi insonlar ham borligidan dalolat bermoqda. Shuningdek, “hayotda kerak bo‘ladi degan

tushuncha tufayli" huquqiy savodxonlikni shakllantiruvchilar 29 nafar (9,39%)ni tashkil etdi. Ushbu toifa o‘spirinlar oldingi tahlillarda huquqiy savodxonlikni o‘zini o‘zi nazaorat qiluvchilarning munosabatini davomi deyish mumkin.

O‘spirinlar tomonidan huquqiy savodxonlikni shaxsning o‘zini boshqalar tomonidan e'tirof etishning asosiy sharti sifatida shakllantirish maqsadli deb qabul qilmaganlar (atrofdagilardan huquqiy jihatdan ustuvor bo‘lish istagi).

Xulosa. O‘spirinlarning munosabatiga ko‘ra huquqiy savodxonlikka bo‘lgan ehtiyoj shaxsning har doim huquqiy bilimlar olishga va boyitib borishiga zaruratni hamda huquqiy masalalarga duch kelgandagina bilimlarga zaruratni vujudga keltirilgan. Ularning ko‘pchilik qismi huquqning ayrim jihatlarini bilishlari, bir qatorlari esa huquq bo‘yicha biror bir ma'lumotga ega emasliklari kuzatildi. O‘spirinlarda huquqiy savodxonligiga erishishishning psixologik tahlili ular orasida ma'lum savodxonlikni oshirishga xizmat qiluvchi manbaalardan foydalanishlariga ko‘ra huquqiy manbaalarni tushunmaydigan, foydalana olmaydigan va huquqiy manbaalardan foydalana oladiganlar toifasiga ajratildi. O‘spirinlarning huquqiy savodxonligi yo‘nalishida huquqiy ma'lumotga, huquqiy qadriyatga, huquqiy faollikka, o‘zini o‘zi huquqiy nazorat qilish xususiyatlari egadirlar, ammo ularda huquqiy ijodkorlik etishmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 72- сессиясида нутқ сўзлади. http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkatmirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-20
2. Джаббаров В.Х. Формирование гражданской грамотности студентов в процессе обучения в колледже: Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук.-Самара,-2012.-27 с.
3. Джураев Б. Психологические особенности формирования юридической понятий у учащихся. НАУ Национальная ассоциация ученых, VII Международная научно-практическая конференция: «Отечественная наука в эпоху изменений: постулаты прошлого и теории нового времени» часть 8, 2(7) Екатеринбург-2015, 103-104с.
4. Куратов А.О. Формирование социальной грамотности у курсантов в информационной образовательной среде военного вуза: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук.- Кострома 2006.-С.-22.
5. Кузнецова Н. О. формирование правовой компетентности специалистов по рекламе и связям с общественностью в процессе профессиональной подготовки:Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук.- Самара – 2020, -21с.
6. Набиева Т.В. Формирование гражданской грамотности старшеклассников: Автореферат диссерт... кандидат педагог. наук.-Уфа, 2005.-28 с.]-28 бет.
7. Фарахутдинов Ш.Ф. Институциональны е основ ы формировани я экологической грамотности: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата медицинских наук.-Тюмень,-2006.-28 с.
8. Якимов П.А. Формирование поликультурной грамотности старшеклассника в образовательном процессе: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук.- Оренбург., 2007.-23 с.

Kamolova Sabrina Habibovna
Buxoro xalqaro universiteti tadqiqotchisi

O'SMIRLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'smirlik davrida tanqidiy fikrlash jarayonining psixologik asoslari va rivojlanish xususiyatlari nazariy hamda empirik yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Unda o'smirlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ta'sir etuvchi psixologik omillar — xususan, refleksiya, emotsional barqarorlik, metakognitiv faoliyatlar — va bu omillarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlar bilan qanday o'zaro aloqada bo'lishi aniq misollar va kuzatuvlar orqali ko'rsatib berilgan. Shuningdek, tanqidiy fikrlashning turli hayotiy vaziyatlarda — muammoli holatlarda qaror qabul qilish, bahsli fikrlarni tahlil qilish, ijtimoiy bosimga nisbatan mustaqil pozitsiyada bo'lish — qanday namoyon bo'lishi tahlil qilingan. Maqola o'smirlar tafakkur faoliyatining murakkabligiga e'tibor qaratadi va tanqidiy fikrlash ularni mustaqil, dalilga asoslangan fikr yuritishga qanday yo'naltirishi mumkinligini asosli tarzda izohlaydi. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yo'llari haqida ham amaliy tavsiyalar taqdim etilgan.*

Kalit so'zlar: *o'smirlik davri, tanqidiy fikrlash, psixologik omillar, refleksiya, tafakkur faoliyati, mustaqil fikr, qaror qabul qilish*

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье проанализированы психологические основы и особенности развития критического мышления в подростковом возрасте на основе теоретических и эмпирических подходов. Освещены психологические факторы, влияющие на способность подростков к критическому мышлению — в частности, рефлексия, эмоциональная устойчивость и метакогнитивная активность — и их взаимосвязь с социально-психологическими характеристиками, представленная на основе конкретных примеров и наблюдений. Также рассматриваются формы проявления критического мышления в различных жизненных ситуациях, включая принятие решений в проблемных условиях, анализ спорных мнений и сохранение независимой позиции в условиях социального давления. Статья подчеркивает сложность мыслительной деятельности подростков и обосновывает, как критическое мышление может направлять их к самостоятельным, аргументированным суждениям. Также предложены практические рекомендации по развитию критического мышления.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, критическое мышление, психологические факторы, рефлексия, мыслительная деятельность, самостоятельное мышление, принятие решений.*

METHODS FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING IN ADOLESCENTS

Annotation. *This article analyzes the psychological foundations and developmental characteristics of critical thinking during adolescence based on theoretical and empirical approaches. It highlights the psychological factors affecting adolescents' essential abilities of thinking — particularly reflection, emotional stability, and metacognitive functioning — and explains their interrelation with socio-psychological traits through concrete examples and observations. Furthermore, it examines how critical thinking manifests in real-life situations, such as decision-making in problematic contexts, analyzing controversial opinions, and maintaining an independent stance against social pressure. The article emphasizes the complexity of adolescents' thinking processes and substantiates how critical thinking can guide them toward independent, evidence-based reasoning. Practical recommendations for developing critical thinking are also presented.*

Keywords: *adolescence, critical thinking, psychological factors, reflection, cognitive activity, independent thinking, decision-making.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda sodir bo‘layotgan tezkor ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlar natijasida insonlardan axborotni faqat qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish, baholash va asosli xulosalar chiqarish talab etilmoqda. Ayniqsa, o‘smirlar uchun tanqidiy tafakkur ya’ni mavjud ma’lumotlarni mustaqil va chuqur o‘rganish, muqobil fikrlarni solishtirish va dalillarga tayangan holda qaror chiqarish hayotga moslashuvda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada o‘smir yoshdagilarning tanqidiy tafakkur xususiyatlari psixologik yondashuv asosida tahlil etiladi. Jumladan, o‘smirlik davrida tafakkur jarayonining rivojlanish bosqichlari, metakognitiv qobiliyatlar, refleksiya va mantiqiy tahlil qilish ko‘nikmalarining shakllanishi chuqur ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tanqidiy tafakkurning ijtimoiy-psixologik xususiyatlar bilan aloqasi masalan, ijtimoiy bosimga nisbatan mustaqil pozitsiyani saqlash, shaxsiy qarorlarni asoslash va emotsional jihatdan barqaror fikrlash ilmiy asosda yoritiladi. Tanqidiy tafakkur o‘smirga nafaqat o‘quv faoliyatida, balki kundalik hayotda ham asosli, izchil va ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Ular turli axborot manbaalarini baholash, ishonchli va ishonchsiz ma’lumotni ajrata bilish, shuningdek, voqea-hodisalarni bir nechta nuqtai nazardan ko‘ra olish orqali o‘z fikrini dalillashga o‘rganadilar. Shu bois tanqidiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan pedagogik va tarbiyaviy yondashuvlar yoshlarning kognitiv salohiyatini faollashtirishda, ularning shaxsiy va akademik muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Asosiy qism. Tanqidiy tafakkur bugungi kunda inson muvaffaqiyati va hayotda to‘g‘ri yo‘nalishni tanlashda hal qiluvchi aqliy ko‘nikmalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bu faqatgina kognitiv jarayon emas, balki chuqur fikrlash, intellektual qiziquvchanlik, ochiq fikrlilik va mavjud qarashlarga tanqidiy yondasha olish qobiliyatini o‘z ichiga olgan murakkab tafakkur faoliyatidir. Rivojlanayotgan va informatsiyaga to‘yingan hozirgi muhitda ayniqsa o‘smir yoshdagilar uchun tanqidiy tafakkurni shakllantirish dolzarb hisoblanadi. Chunki bu qobiliyat ularni muammoli holatlarni tahlil qilish, mantiqiy fikr yuritish, mustaqil qarorlar qabul qilish va yangi vaziyatlarga tez moslashishga yo‘naltiradi.

Tanqidiy tafakkurga ega bo‘lgan o‘smirlar axborotni faollik bilan qabul qiladi, uni turli manbaalar orqali taqqoslaydi, dalillarni tahlil qiladi va ularni boshqariladigan tarkibiy qismlarga ajratib, asosli xulosalar chiqaradi. Bu jarayon ularning nafaqat ta’limiy faoliyatida, balki kundalik hayotdagi qaror qabul qilish, nizolarni hal qilish, yoki jamiyatda mustaqil pozitsiyani shakllantirishda ham beqiyos ahamiyatga ega. Ular voqea va muammolarga turli nuqtai nazardan qaray oladilar, turli alternativ yechimlarni tahlil qilib, eng maqbul yo‘lni ongli ravishda tanlaydilar.

Tanqidiy tafakkur, shuningdek, shaxsga oqilona, dalillarga asoslangan va hissiyotlardan xoli qarorlar chiqarishga yordam beradi. Har bir inson hayot davomida ko‘plab tanlovlar bilan duch keladi va bu tanlovlar orasida shaxsiy qadriyatlar, ijtimoiy kontekst va axborot asosida ongli qarorlar chiqarish qobiliyati hayot sifatini belgilovchi omillardan biridir. Tanqidiy tafakkurga ega shaxs esa ushbu jarayonda his-tuyg‘ularga berilmasdan, oqibatlarni baholay oladi, o‘z pozitsiyasini asoslaydi va mas’uliyatli harakat qiladi.

Bundan tashqari, tanqidiy tafakkur o‘smirlarni muvaffaqiyatsizliklarga boshqacha ya’ni rivojlanish, o‘rganish va takomillashuv imkoniyati sifatida yondashishga o‘rgatadi. Ular xatolarni faqat yo‘qotish emas, balki o‘zini anglash va takomillashtirish vositasi sifatida qabul qilishga intiladilar. Bu esa o‘smirlik davridagi shaxsiy o‘sish jarayonida ijobiy psixologik poydevor yaratishga xizmat qiladi.

Tanqidiy tafakkurga ega bo‘lgan o‘smirlar hayotdagi o‘zgarishlarga tezda moslasha oladilar, muvaffaqiyatsizliklarni esa orqaga qaytish emas, balki o‘sish sari qo‘yilgan qadam sifatida qabul qiladilar. Bu yondashuv ularning psixologik chidamliligini oshiradi va ichki ruhiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Tanqidiy tafakkurning asosiy jihatlaridan biri bu fikrni aniq, mantiqiy va asosli ifoda etish qobiliyatidir. Ushbu ko‘nikmaga ega bo‘lgan o‘smirlar nafaqat o‘z fikrini ravon va tushunarli yetkazadilar, balki mazmunli munozaralarda faol ishtirok etib, turli nuqtai nazarlarni tahlil qiladilar va dalillar asosida o‘z pozitsiyalarini ishonch bilan himoya qila oladilar.

Tanqidiy tafakkur shuningdek, hissiyotni boshqarishda ham muhim rol o‘ynaydi. O‘smirlar bu orqali o‘z his-tuyg‘ularini tahlil qilishni, irratsional e’tiqodlardan voz kechishni va qaror qabul qilishda emotsional emas, balki mantiqiy yondashuvni tanlashni o‘rganadilar. Bu esa ularning emotsional farovonligini ta’minlaydi va ichki muvozanatni saqlashga yordam beradi.

Raqamli makonda noto‘g‘ri ma’lumotlar, yolg‘on xabarlar va manipulyativ kontent keng tarqalgan sharoitda tanqidiy tafakkur yoshlar uchun axborotni chuqur tahlil qilish, ishonchli manbaalarni aniqlash, fakt va fikrni ajratib olish kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantiradi. Ular yolg‘on axborotlarga berilmasdan, ongli va mustaqil qarorlar chiqarishga qodir bo‘ladilar.

Bundan tashqari, tanqidiy tafakkur egalarida doimiy o‘rganishga tayyorlik, o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish va yangi bilimlarga ochiqlik kabi sifatlar kuchli bo‘ladi. Bunday yondashuv ularni butun umr davom etadigan ta’lim sari yo‘naltiradi.

Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uchun bolalar va o‘smirlar bilan chuqur va mazmunli muloqotlar olib borish nihoyatda muhim. Ular o‘z fikrlarini ifodalash imkoniga ega bo‘lishi, savollar orqali o‘z-o‘zini tahlil qilishga undalishi kerak. Masalan, “Senga bu nima uchun qiziq tuyuldi?” yoki “Bu holatga boshqa qanday yondashish mumkin?” kabi savollar ularni mustaqil mulohazaga chorlaydi. Shuningdek, ijodiy fikrlashga asoslangan o‘yinlar va topshiriqlar — masalan, turli materiallardan eng bardoshli konstruktsiyani yaratish kabi amaliy faoliyatlar — ularning tafakkurini sinovdan o‘tkazib, tanqidiy yondashuvni tajriba orqali shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘smirlik davri — inson hayotidagi eng murakkab va o‘zgaruvchan bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda jismoniy o‘sish jarayonlari bilan birga ruhiy va emotsional o‘zgarishlar ham jadallashadi. O‘smirlar o‘z shaxsini anglash, mustaqil fikr bildirish va turli hayotiy holatlarga nisbatan o‘z pozitsiyasini shakllantirishga intiladilar. Aynan shu o‘zgarishlarga boy bosqichda tanqidiy tafakkur va hissiyotni boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tanqidiy tafakkur — bu axborotni tahlil qilish, turli fikr va qarashlarni baholash, asosli va mantiqiy xulosalar chiqarishga yo‘naltirilgan tafakkur jarayonidir. Mazkur ko‘nikma o‘smirlarni voqealarga faqat hissiy reaksiya asosida emas, balki puxta mulohaza va dalillarga asoslangan tarzda yondashishga o‘rgatadi. Tanqidiy tafakkur rivojlangan sayin o‘smirlar o‘z fikrini aniq, mantiqiy va mustaqil tarzda ifodalashga erishadilar. Bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va ijtimoiy muhitda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, tanqidiy tafakkur o‘smirlarga hissiyotni nazorat qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu yoshdagi shaxslar ko‘pincha kuchli emotsional holatlarga duch keladilar: jahldorlik, tushkunlik, ranjish yoki ortiqcha hayajon. Bunday hissiy holatlar boshqarilmasa, noadekvat xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Tanqidiy tafakkur esa bu hissiyotlarni tahlil qilish, ularning sababini tushunish va ularni boshqarish imkonini yaratadi. Masalan, o‘smir tanqidga uchraganida, hissiy javob bermasdan, aytilgan fikrni tahlil qilishga, konstruktiv tomonlarini anglashga harakat qiladi.

Shuningdek, tanqidiy tafakkur o‘smirning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Bu yoshdagilar ko‘pincha do‘stlarining ta’siri ostida qolishlari yoki ommaviy axborot vositalaridan olingan har qanday ma’lumotni shubhasiz qabul qilishlari mumkin. Tanqidiy tafakkur esa ularni axborotni baholash, ishonchlilik darajasini aniqlash, manipulyativ ta’sirlarga tushib qolmaslik va mustaqil pozitsiyada turishga o‘rgatadi. Bunday yondashuv ularni bosimlarga bardoshli, muvozanatli va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantiradi.

Xulosa va tavsiyalar

O‘smirlik davrida tanqidiy tafakkur va hissiy nazorat ko‘nikmalarini shakllantirish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli, barqaror va ongli fuqaroni tarbiyalash uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu ikki ko‘nikma bir-birini to‘ldirib, o‘smir shaxsida aqliy tahlil va emotsional barqarorlikning uyg‘unligini ta’minlaydi. Ularni birgalikda rivojlantirish natijasida o‘smirlar bilimli, o‘zini anglagan, hissiy jihatdan muvozanatli va ijtimoiy faol shaxslar sifatida shakllanadilar.

Quyida o‘smirlarda tanqidiy tafakkur va hissiy o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy pedagogik va tarbiyaviy tavsiyalar keltiriladi:

Tanqidiy savollar orqali tafakkurni faollashtirish. O‘smirlar bilan muloqotda faqat “ha” yoki “yo‘q” tarzidagi yopiq savollar emas, balki ochiq, tafakkurga chorlovchi savollar berish zarur.

Masalan: “Senga bu g‘oya nega qiziq tuyuldi?”, “Boshqa qanday yechimlarni taklif qilgan bo‘lar-ding?”, “Nima uchun bu holat yuz berdi deb o‘ylaysan?” kabi savollar fikrlash chuqurligini oshiradi.

1. Muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish. O‘quv jarayoniga hayotiy voqealardan olingan muammoli holatlar, rolli o‘yinlar yoki keys-stadilarni joriy etish o‘smirlarni turli fikrlarni solishtirishga, asosli dalillar keltirishga va mustaqil xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

2. Emotsional ongni rivojlantirish va refleksiya qilishni rag‘batlantirish. O‘smirlarga o‘z his-tuyg‘ularini tan olish, nomlash va ularni anglashga yordam berish zarur. “Bugun o‘zingni qanday his qilding va nima sababdan?” kabi savollar yoki kundalik yuritish odatini shakllantirish reflektiv tafak-kurni rivojlantiradi.

3. Raqamli savodxonlikni oshirish. Internetdagi noto‘g‘ri ma’lumotlar va manipulyativ axbo-rotlarga qarshi tura olish uchun o‘quvchilarga ishonchli va soxta manbaalarni ajratish, dalil va fak-tlarni tekshirish, kontentga tanqidiy yondashish ko‘nikmalarini berish muhimdir.

4. Ota-onalar va pedagoglar tanqidiy fikr yuritish va hissiyotlarni boshqarish jarayonlarini ochiq tarzda namoyish etishlari kerak. Real hayotdagi muammolarga yondashuvni ochiq ifodalash o‘smirlarga bu ko‘nikmalarni kundalik hayotda qanday qo‘llashni ko‘rsatadi.

5. Xatolarga ijobiy yondashuvni shakllantirish O‘smirlarga har bir xatolik o‘rganish va o‘sishga xizmat qiladigan imkoniyat ekanligini tushuntirish, ularni xatolardan qo‘rqmasdan, tajribaga asoslanib harakat qilishga undaydi. Bu ularning psixologik bardoshliligini kuchaytiradi.

6. Munozara va guruhli ishlarda faol ishtirokni rag‘batlantirish. Tanqidiy fikrlashni talab qilu-vchi bahslar, guruhli loyihalar va jamoaviy muhokamalar o‘smirlar uchun muhim amaliy maydon bo‘lib xizmat qiladi. Bu orqali ular turli fikrlarni eshitish, fikr bildirish, dalillar keltirish va o‘z nuqtai nazarini asoslashni o‘rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Выготский, Л. С. Психология развития человека / Л. С. Выготский. — М.: Смысел, 2005. — 412 с.

2. Халилова, М. Т. Танқидий фикрлаш: назария ва амалиёт / М. Т. Халилова. — Тошкент: Фан, 2020. — 188 б.

3. Энсер, К. Развитие критического мышления у подростков / К. Энсер ; пер. с англ. — М.: Педагогика, 2016. — 224 с.

4. Абдуллаева, Г. К. Ёшлар психологияси / Г. К. Абдуллаева. — Тошкент: Университет, 2018. — 276 б.

5. Блум, Б. Таксономия образовательных целей: Когнитивная область / Б. Блум ; пер. с англ. — М.: Педагогика, 2003. — 320 с.

6. Ниматова, Д. Ш. O‘smirlik davrida emotsional barqarorlikni shakllantirish omillari / Д. Ш. Ниматова // Психология. — 2021. — №2 (84). — Б. 45–52.

7. Facione, P. A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts / P. A. Facione. — Insight Assessment, 2015. — 28 p.

Khudaiberdieva Khikoyat Kadirovna
Researcher Karshi State University

FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF STDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract. *The article discusses the necessary conditions for the development of students' creative abilities, the pedagogical environment, social factors, family, and individual characteristics. The development of students' creative abilities in higher education institutions is a complex and multifaceted process which includes the formation of creative thinking, the ability to innovate and generate new ideas, as well as the ability to apply these abilities in professional activities. The formation of creative thinking develops students' creative abilities, assuming the formation of their ability to think outside the box, go beyond traditional approaches, and find new solutions to problems. Ability to innovate: creative students are able to generate new ideas, develop innovative projects, and adapt to rapidly changing conditions. Ability to apply creativity in professional activities: the development of creative abilities should be aimed at ensuring that students can use their creative skills in their future profession, find non-standard solutions to professional problems and show initiative. Imagination plays a significant role in creativity, so it is important to develop students' ability to fantasize and imagine new images. It is necessary to organize a creative atmosphere at the university for students what stimulates them to search for new ideas and solutions. Research projects, interactive methods, independent creative work should be used in the educational process, and experiments and initiative should be encouraged. And of course, there should be support from teachers. Teachers should not only be carriers of knowledge, but also constantly motivate students, supporting their endeavors, helping to develop their creative potential. The development of emotional intelligence is closely related to creativity, so it is important to develop students' ability to understand their emotions and the emotions of other people, which contribute to a deeper understanding of the creative process. Each student is unique, so it is important to take into account individual characteristics and preferences in development of creative abilities. Creative individuals often demonstrate independence and autonomy in decision-making, so it is important to encourage these qualities in students. Introducing students to various types of art, involving them in creative projects related to painting, music, literature can significantly broaden their horizons and stimulate creative thinking.*

Key words*: creative abilities, student age, pedagogical environment, pedagogy and psychology of higher education, creative activity, purposefulness, persistence, determination, independence, self-control, stress resistance, student activity, life situations, human worldview*

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI.

Annotatsiya. *Maqolada talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar, pedagogik muhit, ijtimoiy omillar, oila va individual xususiyatlar muhokama qilinadi. Oliy o‘quv yurtlari talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, ijodiy fikrlashni, yangilik yaratish va yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyatini, shuningdek, ushbu qobiliyatlarni kasbiy faoliyatda qo‘llash qobiliyatini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Ijodiy fikrlashni shakllantirish o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularning chegaradan tashqarida fikrlash, an'anaviy yondashuvlardan tashqariga chiqish va muammolarning yangi echimlarini topish qobiliyatini shakllantirishni taklif qiladi. Innovatsiya qilish qobiliyati: ijodiy talabalar yangi g'oyalarni yaratishga, innovatsion loyihalarni ishlab chiqishga va tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishga qodir. Kasbiy faoliyatda ijodiy qobiliyatlarni qo'llash qobiliyati: ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish talabalarning ijodiy qobiliyatlarini kelajakdagi kasbida qo'llash, kasbiy muammolarning nostandart echimlarini topish va tashabbus ko'rsatishga qaratilgan bo'lishi kerak. Tasavvur ijodkorlikda muhim o‘rin tutadi, shuning uchun o‘quvchilarda yangi obrazlarni xayol qilish va tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Universitetda talabalar uchun*

yangi g‘oyalar va yechimlarni izlashga undaydigan ijodiy muhitni yaratish zarur. O‘quv jarayonida ilmiy-tadqiqot loyihalari, interfaol usullar, mustaqil ijodiy ishlar qo‘llanilishi, tajriba va tashabbuskorlikni rag‘batlantirish kerak. Shuning uchun o'qituvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kerak. O‘qituvchi nafaqat bilim tashuvchisi bo‘lishi, balki o‘quvchilarni doimo rag‘batlantirishi, ularning intilishlarini qo‘llab-quvvatlashi, ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam berishi kerak. Hissiy intellektning rivojlanishi ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq, shuning uchun o'quvchilarda o'zlarining his-tuyg'ularini va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega, bu esa ijodiy jarayonni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Har bir talaba noyobdir, shuning uchun ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda individual xususiyatlar va imtiyozlarni hisobga olish muhimdir. Ijodkor shaxslar ko'pincha qaror qabul qilishda mustaqillik va avtonomiyani namoyon etadilar, shuning uchun talabalarda bu fazilatlarni rag'batlantirish muhimdir. Talabalarni san'atning turli turlari bilan tanishtirish, ularni rasm, musiqa, adabiyot bilan bog'liq ijodiy loyihalarga jalb qilish ularning dunyoqarashini sezilarli darajada kengaytiradi va ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi.

Kalit so'zlar: *ijodiy qobiliyat, talaba yoshi, pedagogik muhit, oliy ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi, ijodiy faoliyat, maqsadlilik, qat’iyatlilik, qat’iyatlilik, mustaqillik, o’zini tuta bilish, stressga chidamlilik, talaba faoliyati, hayotiy vaziyatlar, inson dunyoqarashi.*

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.

Аннотация. *В статье рассматриваются необходимые условия для развития творческих способностей студентов, педагогическая среда, социальные факторы, семья, индивидуальные особенности. Развитие творческих способностей студентов высших учебных заведений – это сложный и многогранный процесс, который включает в себя формирование креативного мышления, способности к инновациям и генерации новых идей, а также умения применять эти способности в профессиональной деятельности. Формирование креативного мышления развивает творческие способности студентов, предполагая формирование у них умения мыслить нестандартно, выходить за рамки традиционных подходов и находить новые решения проблем. Способность к инновациям: творческие студенты способны генерировать новые идеи, разрабатывать инновационные проекты и адаптироваться к быстро меняющимся условиям. Умение применять творческие способности в профессиональные деятельности: развитие творческих способностей должно быть направлено на то, чтобы студенты могли использовать свои креативные навыки в будущей профессии, находить нестандартные решения профессиональных задач и проявлять инициативу. Не малую роль в творчестве играет воображение, поэтому важно развивать у студентов способность к фантазированию и представлению новых образов. Для студентов необходимо создать в университете творческую атмосферу, которая стимулирует их на поиск новых идей и решений. В учебном процессе следует использовать исследовательские проекты, интерактивную методику, самостоятельную творческую работу, поощрять эксперименты и проявление инициативы. Следовательно, должна быть поддержка со стороны преподавателей. Преподаватели должны быть не только носителями знаний, но и постоянно мотивировать студентов, поддерживая их начинания, помогая развивать творческий потенциал. Развитие эмоционального интеллекта тесно связано с творчеством, поэтому важно развивать у студентов умение понимать свои эмоции и эмоции других людей, что способствует более глубокому пониманию творческого процесса. Каждый студент уникален, поэтому важно учитывать индивидуальные особенности и предпочтения в развитии творческих способностей. Творческие личности часто проявляются самостоятельность и независимость в принятии решений, поэтому важно поощрять эти качества у студентов. Ознакомление студентов с различными видами искусства, вовлечение их в творческие проекты, связанные с живописью, музыкой, литературой, может значительно расширить их кругозор и стимулировать творческое мышление.*

Ключевые слова: *творческие способности, студенческий возраст, педагогическая среда, педагогика и психология высшей школы, творческая деятельность, целеустремленность, настойчивость, решительность, независимость, самообладание, стрессоустойчивость, деятельность студента, жизненные ситуации, мировоззрения человека.*

The period of study at the university leaves an indelible mark on the life of every person. It is associated with interesting communication with classmates, extracurricular activities, learning processes - against the background of which the formation of a Person takes place [B.G. Ananyev, A.V. Dmitriev, I. S. Kon, V. T. Lisovsky, Z. F. Esareva and others]. It is assumed that, under favorable circumstances, the student's activities become more and more conscious, qualities such as initiative, perseverance, determination, independence, self-control, and stress resistance become predominant. There are life situations, the solution of which is associated with the need for moral choice: duty, loyalty, conscience, etc. The study of student age has attracted many scientists [A.A. Rean, V.P. Zinchenko, D.I. Feldshtein]. The formation of the body is completed, the hormonal background stabilizes, and accordingly emotions become more balanced, which creates the prerequisites for the development of higher mental functions [I.S. Kohn, A.N. Leontyev, D.B. Elkonin].

The development of creative abilities of students at a pedagogical university has a number of features:

1. Individual ability of the student.
2. The family environments (обстановка в семье)
3. The student's living conditions [whether the student lives at home or in a student dormitory].
4. Environment [educational process at the university].

Does the creativity develop or not under such conditions? How will the student act in these conditions?

These abilities directly depend on a person's worldview, experience of sensory perception, breadth of views and the degree of psychological trauma. This is the ability to think broadly, look at the world widely, explore a familiar value system and ask the question: "Is it true?" A creative person simply must know the world around him in all its diversity. The most important factors here are upbringing and heredity.

The development of creative abilities naturally occurs in the student environment, during communication and spending time together among students.

Indeed, student age is a time when a person is open to new experiences, experiments, filled with interest in life and dreams of the future. And all this contributes greatly to creativity.

But, undoubtedly, a student's creative abilities will not develop by themselves. There is a need for a learning environment that develops the student's creative abilities in a targeted manner.

Special disciplines, which develop the student's creative thinking, are needed.

For example, through involving the student in creative activities - a variety of practical classes of an applied nature which captivate the student and inspire to search.

Competitions with monetary rewards from the university and various scholarships play an important role here.

Having received a monetary reward, the student receives a positive reinforcement of the result; students feel that the world around him is conducive to their creativity and fills them with self-confidence. And this, of course, greatly inspires them to be creative.

What else develops the creative abilities of a student at a pedagogical university? Of course, the desire to do what you love, to teach, to realize your potential in your profession. This is the leading motivation. And the task of the university is to support this motivation, including the personal example of teachers, to create positive emotional support.

The personal involvement of the teacher has always been considered as a sign of good education: the teacher's passion for the work, warmth, support in personal matters if necessary.

The transfer of "personal knowledge" occurs only in the dialogue between teacher and student. Therefore, it is necessary to pay special attention to dialogue forms of communication with students.

The work of a psychologist at the university is needed as well which, in collaboration with teachers, will purposefully develop the creative abilities of students.

So, the factor indulging the development of students' creative abilities:

1. A result endowed with the qualities of uniqueness of social recognition;

2. Engagement in the creative process itself, and how the student experiences the process itself, what imprint this process leaves on his psyche.

Pedagogical skill here lies in transmitting knowledge in such a way that the student engages in cognitive activity, so that ideas and awareness come to him during classes and his consciousness is active. Consequently, the student feels that he guessed it. And then the value of knowledge in the student's mind increases significantly. Then students want to come to class, because in class they feel how great they are.

And this is a process that the teacher needs to organize, stimulate students' activity using various pedagogical methods.

How?

1. Method of transmitting information. Give students a task but not enough material to complete the task. Thus, inspire students to search.

2. The ability to fill students with emotions, lead classes and assignments with emotions.

Information in the modern world is worthless. A huge number are freely available on the Internet. In addition, information very quickly loses its relevance and becomes outdated. But the ability to learn, the desire to develop along the chosen path - this is the task of the university, and a guarantee of successful professional activity after graduation.

The teaching profession itself is quite creative, it opens up many opportunities for creativity, so this will be an important task of a university teacher:

1. To instill in students an interest in creative activities;

2. To develop the skills of independently searching for the necessary information on a subject in order to creatively solve an educational problem;

3. To include a creative approach to the practice of introducing knowledge and skills into life.

"The traditional education system aims to give students a certain level of knowledge. But now it is not enough to simply memorize a certain amount of material. The main goal of learning should be acquisition; to sum up the strategy, you need to learn how to learn." It was written by the famous Soviet psychologist A.N. Luk, who studied creativity and the psychology of creativity as a science.

Such tasks, when the student just needs to memorize the material, as a result of this approach, the students' creative abilities do not develop. Here the creative abilities of the teacher and, accordingly, a creative approach to presenting the material are of great importance.

Psychologist I. J. Lerner wrote: "Creativity can be taught, but this teaching is special, it is not how knowledge and skills are transferred. Thus, it is very important to convey not only information to students, but also to teach them to think, understand and realize what is happening during the learning process."

Successful educational activities are directly related to the development of creative abilities. The interaction of imagination and intellect determines the result of activity and forms creative thinking. And since this process is associated with feelings and a state of vulnerability, a special attitude towards the products of one's creativity, the teacher's caring attitude and the absence of criticism or any negative evaluative statements are necessary.

The emotional experiences that precede the moment of finding a solution are important. Not necessarily positive. Dissatisfaction, disappointment, anger and anxiety can also stimulate the creative process. This is not the best option, but often it is the only possible and very effective way. Of course, it's better when the feeling of beauty and joy in itself prompts the search for a creative solution.

Creativity is a huge value for a free person who wants to develop and benefit people. And even more than that, creativity is a way of life.

Creative thinking is not only solving problems posed by someone, but also the ability to see and find a problem on your own.

It is important to note that groupmates have a great influence on each other.

Communication with groupmates inspires creativity. The very process of transition from the psychological state of a teenager to the age of adolescence. This process of growing up, the first steps in mastering a future profession, is a very significant process, since it forms a life position, survival strategy and values. During this period, a deep rethinking of the messages received in the parental family occurs.

List of used literature.

1.Bogoyavlenskaya D.B. Intellectual activity as a problem of creativity. Rostov/D., 2013. 173 p.

2. Ponamarev Y.A. Psychology of creativity and pedagogy / Ya.A. Ponomarev // textbook. manual - Pedagogy, 2016. - 280 pp.

3. Krasnoplakhtova L.I. Pedagogical technique of a higher school teacher as an element of pedagogical skill. Krasnodar. KubSAU. 2015. 95 p.

Kulatova Svetlana Yuldashevna
Qarshi davlat universiteti, psixologiya kafedrasi dotsenti
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

DESTRUKTIV AXBOROTDAN HIMOYALANISHDA O‘SMIRLAR UCHUN MUQOBIL AXBOROT MANBAALARINI TARG‘IB QILISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smirlar ongiga destruktiv axborotning salbiy ta’siri, uning ruhiy va ijtimoiy oqibatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bunday axborot oqimiga qarshi kurashda muqobil, ijobiy, sog‘lom axborot manbaalarini targ‘ib qilishning ahamiyati yoritiladi. Muallif tomonidan taklif etilgan yondashuvlar profilaktika va axborot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ularning amaliy mexanizmlari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlar, destruktiv axborot, muqobil manba, axborot madaniyati, psixologik xavfsizlik.*

ПРОДВИЖЕНИЕ АЛЬТЕРНАТИВНЫХ ИСТОЧНИКОВ ИНФОРМАЦИИ ДЛЯ ПОДРОСТКОВ В ЗАЩИТЕ ОТ ДЕСТРУКТИВНОЙ ИНФОРМАЦИИ

Аннотация. *В статье рассматривается негативное влияние деструктивной информации на сознание подростков, а также анализируются её психологические и социальные последствия. Особое внимание уделено продвижению альтернативных, полезных и позитивных информационных источников как важному элементу профилактики и формирования информационной культуры среди подростков.*

Ключевые слова: *подростки, деструктивная информация, альтернативные источники, информационная культура, психологическая безопасность.*

PROMOTING ALTERNATIVE INFORMATION SOURCES FOR ADOLESCENTS IN PROTECTING THEMSELVES FROM DESTRUCTIVE INFORMATION

Abstract. *This article analyzes the negative effects of destructive information on adolescents and its psychological and social consequences. Special focus is given to promoting alternative, constructive, and safe sources of information as a critical strategy for prevention and the development of media literacy and information culture among youth.*

Keywords: *adolescents, destructive information, alternative sources, information culture, psychological safety.*

Raqamli texnologiyalarning keskin rivojlanishi bilan birga, yosh avlod, ayniqsa o‘smirlar, internet orqali turli xil axborot oqimlariga duch kelmoqda. Bu axborotlarning barchasi ham sog‘lom va ijobiy emas. Destruktiv axborotlar, ya’ni ruhiy zo‘riqishga, tashvish, depressiya, xavotir, zo‘ravonlik yoki tajovuzga undovchi kontentlar o‘smirlar ongida salbiy iz qoldiradi. O‘smirlik – bu shaxsiy o‘zini anglash, hayotiy qadriyatlar shakllanishi, emotsional beqarorlik bilan kechuvchi davr bo‘lgani uchun, bu yoshdagi shaxslar axborotga nisbatan sezgirroq bo‘ladi.

Destruktiv axborotlarning o‘smirga salbiy ta’siri ruhiy salomatlik, ijtimoiy munosabatlar va qaror qabul qilishga ta’sir etadi. Shu bois, bunday salbiy ta’sirni oldini olishda ijobiy, tarbiyaviy, ilmiy va madaniy mazmundagi muqobil axborot manbaalarini targ‘ib qilish nihoyatda muhim hisoblanadi. O‘smirlar ko‘proq sog‘lom, ijtimoiy foydali, hayotga ijobiy yondashuvni mustahkamlovchi kontentlarni iste’mol qilganida, ularning psixik himoya darajasi ortadi, tanqidiy fikrlash shakllanadi va ijtimoiy immunitet rivojlanadi. Mazkur maqola o‘smirlar uchun muqobil axborot manbaalarining imkoniyatlari, ularni qanday targ‘ib qilish mumkinligi va bu jarayonning psixologik hamda pedagogik asoslarini tahlil qilishga qaratilgan.

So‘nggi yillarda bolalar va o‘smirlar ongiga salbiy axborotlar ta’siri psixologlar, pedagoglar va ijtimoiy tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. R.S. Samarov (2019) o‘z tadqiqotida

yoshlar ongida destruktiv axborotlar qanday psixologik o‘zgarishlarga olib kelishini chuqur o‘rgangan. Uning fikricha, axborotga nisbatan tanqidiy yondashuv va psixologik immunitet darajasi past bo‘lgan o‘smirlar ko‘proq salbiy ta’sirga duchor bo‘ladi.

S.Yu. Kulatova (2021) esa axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasini ilgari surib, bu jarayonda ijobiy alternativ manbaalarni tizimli ravishda targ‘ib qilishning zarurligini ta’kidlaydi. UNESCO (2020) tomonidan e’lon qilingan global hisobotda esa raqamli xavfsizlikni ta’minlashda ota-onalar, maktablar va jamiyat birgalikda harakat qilishi kerakligi ta’kidlangan.

Ilmiy adabiyotlarda o‘smirlar uchun muqobil axborot manbaalariga quyidagilar kiradi: bolalar uchun mo‘ljallangan ilmiy-ommabop portallar, ijtimoiy-ijobiy kontent yaratuvchi bloglar, ta’limiy YouTube kanallari, ijobiy psixologiyaga oid mobil ilovalar va audio-video podkastlar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar o‘zlari tanlaydigan axborotda ongli yondashuvni rivojlantirsa, ular destruktiv axborotdan samarali himoyalana oladilar.

Destruktiv axborot oqimlariga nisbatan kurashishda faqat taqiq va cheklovlar emas, balki muqobil yo‘llarni taklif qilish – eng samarali yondashuvlardan biridir. O‘smirlar uchun foydali axborot manbaalarini ommalashtirish ularning axborotni saralash ko‘nikmasini oshiradi. Shuningdek, bu orqali ularning tanqidiy tafakkuri, axborot madaniyati va ijtimoiy ong darajasi rivojlanadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar orasida ijobiy ta’sir ko‘rsatgan manbaalar qatoriga: “National Geographic Kids”, “Khan Academy”, “BBC Bitesize”, “TED-Ed”, “IQ Club” kabi platformalar kiradi. Ushbu manbaalar orqali o‘smirlar nafaqat bilim oladi, balki dunyoqarashini kengaytiradi, zamonaviy muammolarga yechim topishga harakat qiladi.

Bu manbaalarni targ‘ib qilishda psixologlar, sinf rahbarlari, maktab ma’muriyati va ota-onalarning birgalikdagi faoliyati muhim. Masalan, sinf soatlarida ijobiy axborot manbaalari haqida suhbatlar, musobaqalar tashkil etish; ota-onalarga digital gigiyena va media tavsiyalar berish, o‘quvchilarga sog‘lom media kontentlar ro‘yxatini taqdim etish foydali bo‘ladi.

Tadqiqot doirasida Toshkent va Qarshi shaharlaridagi 5 ta umumta’lim maktabida 2023-yil noyabr oyida o‘smir o‘quvchilar o‘rtasida ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovda jami 317 nafar 13–17 yosh oralig‘idagi o‘quvchi qatnashdi. Tadqiqotdan maqsad o‘quvchilarning internetdan foydalanish odatlari, ular duch keladigan axborot turlari, muqobil axborot manbaalariga bo‘lgan munosabati va media savodxonlik darajasini aniqlashdan iborat edi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning 68 foizi internetda doimiy ravishda zo‘ravonlik, salbiy fikrlar, tahdid va depressiv ohangdagi kontentlarga duch kelayotganini tan oldi. Bu esa o‘smirlar orasida destruktiv axborot bilan to‘qnashuv holatlari yuqori darajada ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda yolg‘on ma’lumotlar, salbiy roliklar va psixologik jihatdan zararli tasvirlar o‘smirlarning kayfiyati va o‘z-o‘zini baholashiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

So‘rovda qatnashgan o‘quvchilarning faqat 21 foizi doimiy ravishda ijobiy, ilmiy-ta’limiy yo‘nalishdagi axborot manbaalaridan foydalanishini ma’lum qilgan. Bu raqam o‘smirlarning sog‘lom axborotga kirish imkoniyati yoki bunga bo‘lgan qiziqishi juda past ekanini anglatadi. Ko‘pchilik o‘quvchilar axborotni tasodifiy va filtrsiz tarzda iste’mol qilayotgani aniqlandi. Ular ko‘proq ko‘ngilochar va emotsional jihatdan jalb qiluvchi kontentlarga e’tibor berishadi.

Shuningdek, respondentlarning 84 foizi maktabda media savodxonlik va axborot xavfsizligiga bag‘ishlangan dars yoki suhbatlar o‘tkazilishini foydali deb hisoblashlarini bildirishdi. Bu o‘quvchilar orasida axborotni ongli qabul qilishga bo‘lgan ehtiyoj mavjudligini tasdiqlaydi. Aytish joizki, so‘rov davomida ko‘plab o‘quvchilar muqobil axborot manbaalarining ro‘yxati yoki tavsiyasi ularga berilmaganini, hatto shunday manbaalar mavjudligidan ham bexabar ekanini tan olishdi.

Bu faktlar o‘smirlarning psixologik himoyasini kuchaytirish va ularga sog‘lom axborot tanlash madaniyatini singdirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Muqobil axborot manbaalarini faol targ‘ib qilish orqali nafaqat salbiy axborot oqimini kamaytirish, balki yoshlarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish mumkin.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, maktablarda va oilada muqobil axborot madaniyatini shakllantirish bo‘yicha kompleks yondashuv zarur. Bu esa axborot psixologik xavfsizligini ta’minlashda muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Destruktiv axborot oqimining kuchayishi zamonaviy jamiyat uchun jiddiy xavf hisoblanadi, ayniqsa bu jarayon o‘smirlar orasida keng tarqalgan. Shu sababli, muqobil va sog‘lom axborot manbaalarini targ‘ib qilish nafaqat ta’lim tizimi, balki oilaviy va ijtimoiy muhit darajasida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Quyidagi tavsiyalar o‘smirlarning axborot muhitini sog‘lomlashtirish va ularning psixologik barqarorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Birinchidan, umumta’lim maktablari dasturlariga media savodxonlik, axborot etikasi va raqamli madaniyat bo‘yicha alohida mashg‘ulotlar kiritilishi zarur. Bu fanlar orqali o‘quvchilar axborotni tahlil qilish, baholash, tanqidiy fikrlash, yolg‘on va manipulyativ axborotni aniqlash ko‘nikmalarini egallaydilar. Shu bilan birga, ularga ijobiy, ilmiy va foydali axborot manbaalarini mustaqil qidirish va ulardan foydalanish madaniyati singdiriladi.

Ikkinchidan, psixologlar va pedagoglar tomonidan o‘smirlarga mos sog‘lom axborot manbaalari ro‘yxati tuzilib, ular bilan muntazam ravishda tanishtirib borish tavsiya etiladi. Bu ro‘yxatda yoshga mos, ijtimoiy foydali va emotsional jihatdan ijobiy kontentlar joy olishi kerak. Masalan: ilmiy-ommabop YouTube kanallari, interaktiv ta’lim portallari, ijobiy hayotiy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi bloglar.

Uchinchidan, ota-onalar uchun raqamli xavfsizlik va axborot tanlash madaniyati bo‘yicha treninglar, vebinarlar va suhbatlar tashkil etilishi lozim. Ko‘plab oilalarda bolalarning internetdan qanday foydalanayotgani bo‘yicha nazorat yyetarli emas, ota-onalar esa mavjud xavflardan to‘liq xabardor emas. Ularga sog‘lom axborot muhiti yaratish bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar berilishi muhim.

To‘rtinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda va ommaviy axborot vositalarida foydali, muqobil axborot manbaalarini keng targ‘ib qilish talab etiladi. Blogerlar, jurnalistlar, kontent yaratuvchilar tomonidan yoshlar auditoriyasiga mo‘ljallangan, ijtimoiy mas’uliyatli va motivatsion kontentlar tayyorlash rag‘batlantirilishi kerak. Bu orqali o‘smirlarning axborot tanlashda ongli qaror qabul qilishi osonlashadi.

Beshinchidan, har bir maktabda axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlovchi mas’ul psixologlar jamoasi faoliyat yuritishi, ularning yordami bilan emotsional salomatlik, ishonchli axborotga yo‘naltirish, shaxsiy xavfsizlik bo‘yicha muntazam suhbatlar olib borilishi lozim.

Yuqoridagi tavsiyalarni tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali o‘smirlar o‘z axborot maydonini boshqarishni, zararli axborotni rad etishni va ijobiy, muqobil manbaalarga murojaat qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularning psixologik immunitetini mustahkamlash va sog‘lom shaxs sifatida shakllanishi uchun muhim zamin yaratadi.

Destruktiv axborotdan himoyalanishning eng samarali yo‘llaridan biri – bu o‘smirlar ongida tanqidiy fikrlashni shakllantirish va ijobiy axborot oqimini kuchaytirishdir. Buning uchun muqobil, ishonchli va foydali axborot manbaalarini targ‘ib qilish, ularni psixologik-pedagogik mexanizmlar bilan birga joriy etish lozim. Bu yo‘l bilan o‘smirlar o‘z psixologik xavfsizligini mustahkamlab, axborotni ongli va tanlab iste’mol qilish madaniyatiga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Samarov R.S. (2019). Yoshlarda axborot ta’siri va uning profilaktikasi. Toshkent: Yoshlar nashriyoti.
2. Kulatova S.Yu. (2021). Voyaga yetmaganlarda axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlashning shaxs xususiyatlari. Toshkent.
3. UNESCO. (2020). Guidelines for Safeguarding Youth from Harmful Online Content. Paris: UNESCO Publishing.
4. Barotov Sh.R. (2018). O‘quvchi shaxsini himoya qilishda psixologik profilaktika metodlari. Toshkent: Pedagogika.
5. Jenkins H. et al. (2009). Confronting the Challenges of Participatory Culture: Media Education for the 21st Century. MIT Press.

Latipova Umida Yusufboyevna
Ma'mun unuversiteti "Psixologiyik xizmat" ilmiy-o'quv tadqiqot markazi boshlig'i (PhD) dotsent,
https://orcid.org/0009-0005-1699-3531
E-mail: ulatipova933@gmail.com

AYOLLARDA FAOLLIK VA TASHVISH DARAJALARI O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQADORLIKNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada reproduktiv yoshdagi ayollarning psixik salomatligini baholashda faollik va tashvish darajalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik o'rganiladi. Tadqiqot stress va emotsional javob nazariyalari asosida tashkil etilgan bo'lib, unda ishtirokchilarning ichki holati, kayfiyati, faolligi va tashvish darajalari tahlil qilingan. Olingan natijalar emotsional barqarorlik bilan tashvish holatlari o'rtasida muvofiqlik mavjud emasligini, shuningdek, ayrim salbiy psixologik xususiyatlar bilan emotsional salomatlik belgilarining o'zaro salbiy bog'liqligini ko'rsatdi. Tadqiqot asosida reproduktiv davrdagi ayollar ruhiy holatini baholashda faollik va tashvish darajalarining muvozanati muhim omil ekani aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *Reproduktiv yosh, ayollar psixologiyasi, psixik salomatlik, faollik, tashvish, emotsional barqarorlik, ichki holat, kayfiyat, ruhiy muvozanat.*

ВАЖНОСТЬ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ МЕЖДУ УРОВНЯМИ АКТИВНОСТИ И ТРЕВОЖНОСТИ У ЖЕНЩИН

Аннотация. *В данной статье рассматривается взаимосвязь между уровнями активности и тревожности у женщин репродуктивного возраста как критерий психического здоровья. Исследование основано на теориях стресса и эмоционального реагирования, в рамках которых анализировались внутренние состояния, настроение, активность и уровень тревожности участниц. Полученные данные указывают на отсутствие гармонии между эмоциональной стабильностью и тревожными состояниями, а также на отрицательные корреляционные связи между рядом негативных психологических характеристик и признаками эмоционального здоровья. В ходе исследования выявлено, что соотношение активности и тревожности является важным показателем в оценке психоэмоционального состояния женщин в репродуктивном возрасте.*

Ключевые слова: *Репродуктивный возраст, психология женщин, психическое здоровье, активность, тревожность, эмоциональная устойчивость, внутреннее состояние, настроение, психологическое равновесие.*

THE IMPORTANCE OF THE RELATIONSHIP BETWEEN ACTIVITY AND ANXIETY LEVELS IN WOMEN

Abstract. *This article examines the relationship between activity and anxiety levels in women of reproductive age as an indicator of mental health. The study is based on theories of stress and emotional response, analyzing participants' internal states, mood, activity, and anxiety levels. The results show a lack of harmony between emotional stability and anxiety, as well as significant negative correlations between certain psychological characteristics and indicators of emotional well-being. The findings suggest that the balance between activity and anxiety is a key factor in assessing the psycho-emotional condition of women during their reproductive years.*

Keywords: *Reproductive age, women's psychology, mental health, activity, anxiety, emotional stability, internal state, mood, psychological balance.*

Kirish. Ayollarning psixik salomatligi ularning shaxsiy farovonligidan tortib, oiladagi barqarorlik, farzand tarbiyasi va jamiyatdagi ijtimoiy faolligigacha bo‘lgan ko‘plab sohalarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, reproduktiv davrda ayollar organizmida yuzaga keladigan gormonal, emotsional va ijtimoiy o‘zgarishlar ularning ruhiy holatida sezilarli beqarorliklar keltirib chiqarishi mumkin[1]. Bu esa psixologik jihatdan ularning tashqi stress omillariga nisbatan sezuvchanligini oshiradi va emotsional barqarorlik darajasini pasaytiradi[2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-avgustdagi PQ–4820-sonli qarorida ayollarning emotsional barqarorligini ta’minlash, ruhiy salomatligini mustahkamlash va psixologik xizmatlarni kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan[3]. Bu esa reproduktiv yoshdagi ayollar psixik holatini ilmiy asosda o‘rganish va baholashni nafaqat dolzarb, balki zaruriy masalaga aylantiradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, reproduktiv yoshdagi ayollarning 40 foizdan ortig‘i turli darajadagi stress va tashvish holatlariga duch keladi, ularning 25–30 foizida esa bu holatlar psixologik yordamga muhtojlik darajasiga yetadi[4]. Bu holat faollik va tashvish darajalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish orqali ayol psixikasidagi barqarorlik va moslashuv mexanizmlarini chuqur tahlil qilish zaruratini taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Reproduktiv yoshdagi ayollarning psixik salomatligini baholashda stress, tashvish va faollik darajalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni tushunish dolzarb hisoblanadi. Bu jarayonni nazariy asosda yoritishda zamonaviy psixologiyada keng qo‘llanilayotgan ikkita yondashuv — kognitiv baholash nazariyasi va umumiy moslashuv sindromi asosiy ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Lazarus va Folkman tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv baholash va stress nazariyasiga ko‘ra, inson tashqi stress omillarini qanday baholasa, unga nisbatan yuzaga keladigan psixologik va emotsional javoblari ham shunga bog‘liq bo‘ladi[5]. Ayniqsa, ayollarda reproduktiv davrga xos fiziologik o‘zgarishlar fonida stressni subyektiv baholash jarayoni keskin kuchayadi va bu tashvish, ichki taranglik va faollik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Hans Selye tomonidan ilgari surilgan umumiy moslashuv sindromi nazariyasida esa surunkali stress holatlari organizmning moslashuv zaxiralarini asta-sekin kamaytirishi, psixik resurslarning charchashiga olib kelishi, bu esa o‘z navbatida faollik pasayishi va emotsional beqarorlik bilan namoyon bo‘lishi ta’kidlangan[6]. Mazkur xalqaro yondashuvlarni o‘zbek psixologik ilmiy maktabi tadqiqotlari bilan solishtiradigan bo‘lsak, Z. Ibodullayev o‘zining “Tibbiyot psixologiyasi” asarida inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi tashqi va ichki stressorlar, emotsional nomutanosiblik va vegetativ moslashuv mexanizmlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni ilmiy jihatdan asoslab bergan[7]. U reproduktiv davrdagi ayollarda uchraydigan ruhiy beqarorlik holatlarini, asosan, tashqi psixososial bosim va ichki ziddiyatlar bilan bog‘laydi. Sh.R. Baratov esa o‘z tadqiqotlarida inson faoliyatida psixologik xizmatlarning samarali yo‘lga qo‘yilishi, ayniqsa ayollar ruhiy salomatligiga ko‘rsatadigan ta’sirini ko‘rsatadi[8]. Uning ta’kidlashicha, stressni yengish, emotsional barqarorlikni ta’minlash va ruhiy zo‘riqishni pasaytirish shaxsning faollik darajasi bilan uzviy bog‘liq. Shuningdek, ayollar psixologiyasida stressni yengish mexanizmlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijtimoiy yordam va ichki ruhiy zaxiraga tayanadi. Xalqaro va milliy yondashuvlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayollarda kuzatiladigan psixik beqarorlik, faollikning pasayishi va tashvish darajasining ortishi o‘zaro bog‘liq holatlar bo‘lib, ularni kompleks tahlil qilish orqali psixik salomatlik mezonlarini ishlab chiqish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini R.S. Lazarus va S. Folkman tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv baholash nazariyasi tashkil etadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, shaxs stressli holatlarni qanday baholashi uning emotsional reaksiyasini belgilaydi. Ayollarda bu jarayon ruhiy holat, ichki barqarorlik va faollik darajalariga bevosita ta’sir qiladi. Hans Selye tomonidan ilgari surilgan umumiy moslashuv sindromi nazariyasiga ko‘ra esa, stressning surunkali shakli organizmning ichki zaxiralarini kamaytiradi va ruhiy bardoshlilikni susaytiradi. Ushbu nazariyalar asosida reproduktiv yoshdagi ayollarda faollik va tashvish darajalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik psixik salomatlik mezoni sifatida baholandi. Tadqiqotda ishtirokchilarning emotsional holatini baholash uchun SAN metodikasi va Ayzenkning shaxsiy tipologik testidan foydalanildi. SAN metodikasi yordamida o‘zini qanday his qilish, faollik darajasi va kayfiyat holati o‘rganilgan bo‘lsa,

Ayzenk metodikasi orqali havotir, frustratsiya, agressivlik va taranglik ko‘rsatkichlari aniqlangan. Olingan ma’lumotlar o‘zaro bog‘liqlikni aniqlovchi statistik metod – Spirmen korrelyatsiyasi asosida tahlil qilindi. Tahlil natijalari psixik salomatlikni baholashda faollik va tashvish darajalari o‘rtasidagi munosabatdan mezon sifatida foydalanish mumkinligini ko‘rsatdi.

Tahlil va natijalar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, SAN metodikasi va Ayzenkning shaxsiy testidagi shkalalar o‘rtasida statistik jihatdan ishtirokchilarning psixik holatini tavsiflovchi muhim o‘zaro bog‘liqliklar aniqlandi.

1-jadval

SAN metodikasi va Ayzenk o’rtasida korrelyatsion aloqadorlik (Spirmen korrelyatsiasi n=406)

Shkalalar	O‘z –o‘zini his qilish	Faollik	Kayfiyat
Havotir	-,489**	-,426**	-,443**
Frustrasiya	-,434**	-,314**	-,414**
Agressivlik	-,293**	-,194**	-,292**
Taranglik	-,323**	-,229**	-,355**

Izoh: **p≤0,01; *p≤0,05

Eng yuqori manfiy korrelyatsiya havotir va o‘z-o‘zini his qilish o‘rtasida kuzatildi (r = –0,489; p≤0,01). Bu shuni ko‘rsatadiki, havotir darajasi ortgan sari ayollar o‘zlarini psixologik jihatdan yomonroq his qiladilar.

Shuningdek, havotirning faollik (r = –0,426) va kayfiyat (r = –0,443) bilan salbiy bog‘liqligi, shaxsiy xavotir psixik resurslarni pasaytirib, emotsional fonni tushirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Frustratsiya holati ham o‘z-o‘zini his qilish (r = –0,434), faollik (r = –0,314) va kayfiyat (r = –0,414) bilan sezilarli salbiy bog‘liqlikda bo‘lib, bu shaxsning maqsadga erisha olmaslik, ichki norozilik holatlari emotsional barqarorlikni izdan chiqarishini bildiradi.

Agressivlik shkalasi ham barcha SAN ko‘rsatkichlari bilan salbiy korrelyatsiyani ko‘rsatdi: o‘z-o‘zini his qilish (r = –0,293), faollik (r = –0,194) va kayfiyat (r = –0,292). Bu holat ichki ziddiyat va tajovuzning emotsional resurslarni iste’mol qilishiga, shaxsning psixologik moslashuvini susaytirishiga ishora qiladi.

Taranglik shkalasi esa o‘z-o‘zini his qilish (r = –0,323), faollik (r = –0,229) va kayfiyat (r = –0,355) bilan salbiy bog‘liqlikda bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar shaxsning ichki siqilish, stressga beriluvchanlik holatlari bilan bog‘liq ekanligini anglatadi. Ushbu natijalar psixik salomatlik holatini baholashda faollik va tashvish darajalari o‘rtasidagi muvozanatni o‘rganish muhimligini ko‘rsatadi. Faollikning pastligi va tashvish komponentlarining yuqoriligi ayollar emotsional holatida beqarorlik, psixologik zaiflik va ruhiy charchashning ortishiga olib kelmoqda. Mazkur korrelyatsion tahlil psixik barqarorlik va salomatlik mezonlarini aniqlashda kompleks yondashuv zarurligini tasdiqlaydi.

Xulosa va tavsiyalar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, reproduktiv yoshdagi ayollarning psixik salomatligi ularning emotsional holati, faollik darajasi va tashvish ko‘rsatkichlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Faollik darajasining pasayishi va tashvishning ortishi ayollarning ruhiy holatida beqarorlik, ichki siqilish, norozilik, tajovuzkorlik va charchoq holatlarining kuchayishiga olib kelmoqda. Emotsional barqarorlik darajasi past bo‘lgan ayollarda hayot sifatining pasayishi, psixologik moslashuvdagi qiyinchiliklar va ijtimoiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishning sustligi kuzatildi. Korrelyatsion tahlil orqali ayollarning ichki holati va tashqi stressga bo‘lgan munosabatini aniqlash, ularning psixik salomatligini erta baholash va muammolarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Bu holat, ayniqsa, emotsional beqarorlikka moyil, ijtimoiy bosim ostida yashayotgan yoki ruhiy holati tez o‘zgaruvchan bo‘lgan ayollar uchun dolzarbdir.

Tavsiyalar: Reproduktiv yoshdagi ayollar bilan ishlaydigan mutaxassislar (psixologlar, ginekologlar, oilaviy shifokorlar) tomonidan emotsional holat monitoringi tizimini joriy qilish tavsiya

etiladi. Ayollarda emotsional barqarorlikni oshirishga qaratilgan psixoprofilaktik mashg‘ulotlar, stressni kamaytiruvchi treninglar va faollikni qo‘llab-quvvatlovchi dasturlarni ishlab chiqish muhimdir. Oilaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash orqali ayollarning ruhiy salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish mumkin. Tadqiqot natijalaridan ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy sohalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar foydalanishi, shuningdek, ayollar salomatligiga oid strategik qarorlar ishlab chiqishda hisobga olinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Vasilyeva E.M. Reproduktiv yoshdagi ayollarda emotsional salomatlik ko‘rsatkichlari. – Moskva, 2020.

2. Latipova U.Y., Scientific theoretical aspects of the relationship between reproductive health and psychosomatic diseases // Science and Education in Karakalpakstan *ISSN 2181-9203* № 2/1 (48) 2025 261-264 Ilmiy, ijtimoiy falsafiy, madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy jurnal.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4820-sonli qarori, 2019-yil 5-avgust.

4. World Health Organization. Women's Mental Health: Evidence-based Review, 2021.

5. Lazarus R.S., Folkman S. *Stress, Appraisal, and Coping.* – New York: Springer, 1984. – 445 p.

6. Selye, H. (1956). The Stress of Life. New York: McGraw-Hill.

7. Ibodullayev Z.R., (2008). Tibbiyot psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi.

8. Baratov Sh.R., (1998). Ta’lim tizimi va ishlab chiqarishda psixologik xizmatni tashkil etishning psixologik xususiyatlari. – Toshkent: Ilmiy dissertatsiya.

Mardonov Erkin Xasanovich
Termiz davlat pedagogika instituti,
amaliy psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail: erkinmardanov@mail.com

O'QUVCHILARDA TAFAKKURNI SHAKLLANISHIDA SHAXS IJODKORLIGINI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Fikrlash jarayoni, Maslou, steriotiplarni o'zlashtirish, shaxs ijodkorligi to'rt yo'nalishi o'rganish, duch kelmagan hodisalar o'ylashni yaxshi ko'radi, xatolar va muvafaqqiyatlarni, murakkablik va tavakkalikga moyillik o'quv faoliyati jarayonida bilimlarni o'zlashtirishda o'z g'oyalarini, fikrlarini bildirishda o'z me'yorlarini belgilaydilar, ijodiy shaxsning fazilatlari har bir insonga tug'ma ravishda berilgan, muvaffaqiyatsizlik va xatolar ehtimolini istisno qilmaydi, yangi g'oyalar va narsalarni o'rganadi, mustaqil ravishda bilim olishga bo'lgan intilishlari, vazifa va masalalarni yechishda uning mohiyatini tushunib olishga harakat qilishlarini ham ta'kidlab o'tish.*

Kalit so'zlar: *kombinatsiya, E.E.Tunik, qiziquvchanlik,masavvur, nostandart, professional faoliyat, inqilobiy yangi tur,mexanik,chizmalar, inson bilimi, me'yor va qoidalar, orzu qilish.*

ВАЖНОСТЬ КРЕАТИВНОСТИ ЛИЧНОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *Мыслительный процесс, Маслоу, овладение стереотипами, четыре направления творчества личности обучение, события, с которыми не сталкиваешься любит думать, ошибки и успехи, склонность к сложностям и риску в процессе учебной деятельности определяют свои критерии в усвоении знаний, выражении своих идей,мнений, качества творческой личности даны каждому человеку врожденно, не исключают возможности неудач и ошибок, изучает новые идеи и вещи, свои стремления к познанию самостоятельно, Отметим также, что при решении задач и задач они стараются понять его суть..*

Ключевые слова*: комбинация, Е.Туника, любознательность, воображение, нестандартность, профессиональная деятельность, революционный angi тип, механика, рисунки, человеческие знания, ориентиры и правила, мечта.*

THE IMPORTANCE OF PERSONALITY CREATIVITY IN THE FORMATION OF THINKING IN STUDENTS.

Abstract. *The process of thinking, Maslow, mastering steriotypes, learning four directions of personality creativity, non-faced phenomena love to think, mistakes and achievements, a tendency to complexity and risk determine their own ideas in mastering knowledge in the process of educational activities, their own competence in expressing thoughts, the qualities of a creative personality are given to each person in an innate way, do not exclude the possibility of, also noting that they try to understand its essence in solving tasks and issues.*

Keywords: *combination, E.E.Tunic, curiosity, imagination, non-standard, profisional activity, revolutionary angi tour, mechanical, drawings, human knowledge, meior and rules, dreaming.*

Kirish. Ijodkorlik - bu shaxsning standart me'yor va qoidalardan farq qiladigan o'ziga xos g'oyalarni izlash va yaratish, oddiy, oddiy yechimlarni originalga aylantirish qobiliyati. Psixologiyada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodkorlik va aql-zakovat turli tushunchalardir, chunki aql darajasi yuqori bo'lgan odamlar har doim ham ijodkorlik darajasiga ega emas.

Psixolog A.Maslouning fikricha, ijodiy shaxsning fazilatlari har bir insonga tug'ma ravishda berilgan, ammo ular shaxsning kamolotga yetish jarayonida, ta'lim va ijtimoiy tizimlar ta'sirida yo'qolishi mumkin [Maslou].

Ijodkorlik insonning fikrlash jarayonini qiziqarli ijodga aylantiradi, bunda eski g‘oyalar yangi shaklga ega bo‘ladi. Fikrlash inson bilimining eng yuqori darajasidir. Ijodiy tafakkur o‘z navbatida ijodiy fikrlash turlaridan biri sifatida paydo bo‘lgan tafakkurning inqilobiy yangi turidir. Zamonaviy dunyoda ushbu turdagi fikrlash turlarining kombinatsiyasidan ko‘proq foydalanilmoqda, bu esa professional faoliyatda maksimal natijalarga erishishga imkon yaratadi.

Ijodkorlik fikrlash stereotiplarini o‘zgartirish ustida ishlash hisoblanadi. Ijodkorlikning rivojlanishi nostandart muammolarni hal qilish uchun ma’lum ko‘nikma va malakalarni shakllantirish orqali yuzaga keladi.Ye.Tunikning “Shaxs ijodkorligini to‘rt yo‘nalishini o‘rganish” metodikasidan foydalandik. Tadqiqot natijalarini izohlashdan oldin mazkur test bo‘yicha qisqacha ma’lumot berishni lozim topdik.

Shaxs ijodkorligini to‘rt yo‘nalishini o‘rganish metodikasi.

Shkalalar: qiziquvchanlik, tasavvur, murakkablik, tavakkalga moyillik.

Testning maqsadi. Ushbu uslub bizga ijodiy shaxsning to‘rtta xususiyatini aniqlash imkonini beradi: qiziquvchanlik; tasavvur; murakkablik va tavakkalga moyillik. O‘smirlik davriga qaratilgan bo‘lishiga qaramay, u o‘z xususiyatlarini yo‘qotmaydi prognoz va balog‘at yoshida.

Testning talqini: O‘rganilayotgan omillarning asosiy mezon ko‘rinishlari:

1.Qiziqish. Qiziquvchanligi yuqori bo‘lgan mavzu ko‘pincha hamma narsa haqida so‘raydi, u mexanik narsalarning tuzilishini o‘rganishni yaxshi ko‘radi, u doimo fikrlashning yangi usullarini (usullarini) izlaydi, yangi narsa va g‘oyalarni o‘rganishni yaxshi ko‘radi, muammolarni hal qilishning turli usullarini izlaydi, iloji boricha ko‘proq o‘rganish uchun kitoblar, o‘yinlar, xaritalar, rasmlar va hokazolarni o‘rganadi.

2.Tasavvur. Rivojlangan tasavvurga ega bo‘lgan mavzu: hech qachon ko‘rmagan joylar haqida hikoyalar tuzadi; o‘zi hal qilayotgan muammoni boshqalar qanday hal qilishini tasavvur qiladi; turli joylar va narsalarni orzu qilish; duch kelmagan hodisalar haqida o‘ylashni yaxshi ko‘radi; rasm va chizmalarda tasvirlangan narsalarni boshqalar kabi emas, g‘ayrioddiy v tarzda ko‘radi; ko‘pincha turli g‘oyalar va hodisalardan xayratda qoladi.

3.Murakkablik. Murakkab hodisalarni tushunishga yo‘naltirilgan mavzu murakkab narsa va g‘oyalarga qiziqish bildiradi; o‘ziga qiyin vazifalarni qo‘yishni yaxshi ko‘radi; tashqi yordamisiz narsalarni o‘rganishni yaxshi ko‘radi; maqsadiga erishish uchun qat’iyat ko‘rsatadi; zarur bo‘lgandan ko‘ra juda murakkab bo‘lgan muammolarni hal qilishni taklif qiladi; qiyin vazifalarni yaxshi ko‘radi.

4.Tavakkalga moyillik. Bu subyektning boshqalarning reaksiyasiga e’tibor bermasdan, o‘z g‘oyaarini himoya qilishida o‘zini namoyon qiladi; o‘z oldiga yuqori maqsadlar qo‘yadi va ularga erishishga harakat qiladi; xatolar va muvaffaqiyatsizliklar ehtimoliga imkon beradi; yangi narsalarni yoki g‘oyalarni o‘rganishni yaxshi ko‘radi va boshqalarning fikriga ta’sir qilmaydi; sinfdoshlar, o‘qituvchilar yoki ota onalar o‘z noroziligini bildirganda juda tashvishlanmaslik; undan chiqadigan narsalarni ko‘rish uchun tavakkal qilish imkoniyatiga ega bo‘lishni afzal ko‘radi.

Mazkur metodikadan ko‘plab tadqiqotchilar o‘zlarining ilmiy izlanishlari jarayonida foydalanganlar va ilmiy natijalarni qo‘lga kiritganlar. Biz ham tadqiqot ishimizda ushbu metodikani qo‘lladik, uning natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan

1-jadval

Shaxs ijodkorligini to‘rt yo‘nalishini o‘rganish metodikasining tadqiqot natijalari

№	Shkalalar	O‘quvchi	n	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	t	p
1.	Tavakkalga moyillik	Jizzax	100	15,4167	3,65842	2,816	,007
		Termiz	120	15,0769	2,05763		
2.	Qiziquvchanlik	Jizzax	100	15,5833	3,72905	-,686	,496
		Termiz	120	16,2308	2,84686		
3.	Murakkablik	Jizzax	100	20,9167	2,70131	,567	,574
		Termiz	120	20,4615	2,95609		
4.	Tasavvur	Jizzax	100	14,8333	4,03966	-2,562	,014
		Termiz	120	15,4231	2,98226		

Shaxs ijodkorligini to‘rt yo‘nalishini o‘rganish metodikasi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalarini biz har bir yo‘nalish bo‘yicha izohlashga harakat qildik.

1. Tavakkalga moyillik. Metodikada tavakkalga moyillikka quyidagicha sharh berilgan: “Tavakkalchilar boshqalar qanday fikrda bo‘lishidan qat’iy nazar, har doim o‘z g‘oyalarini himoya qiladi, o‘z oldiga katta maqsadlar qo‘yadi, muvaffaqiyatsizlik va xatolar ehtimolini istisno qilmaydi, yangi g‘oyalar va narsalarni o‘rganadi, boshqalarning fikriga berilmaydi, qilgan ishlari boshqalar tomonidan ma’qullanmasa tashvishga tushmaydi, natija qanday bo‘lishini bilish uchun ko‘pincha tavakkal qiladi”.

Shaxs ijodkorligini to‘rtta yo‘nalishini o‘rganish metodikasining “Tavakkalga moyillik” shkalasi bo‘yicha tadqiqot natijalari Jizzax shahri o‘quvchilarida 15,4167 ballni, Termiz shahri o‘quvchilarida esa 15,0769 ballni tashkil qilmoqda (3.1.1-jadvaga qarang). Ushbu natijalar metodika bo‘yicha o‘rtacha ballni tashkil etmoqda. Qo‘lga kiritilgan tadqiqot natijalari asosida aytish joizki, o‘quvchilar o‘quv faoliyati jarayonida bilimlarni o‘zlashtirishda o‘z g‘oyalarini, fikrlarini bildirishda o‘z me’yorlarini belgilaydilar, ehtiyotkorlikni esdan chiqarmaydilar, boshqalarning fikrini eshitishga harakat qiladilar, xato qilishdan saqlanishga, boshqalar oldida noto‘g‘ri fikr bildirib qo‘yish va mulzam bo‘lmaslik uchun tavakkal qilmaslikka harakat qilishlari namoyon bo‘lmoqda. Demak, o‘quvchilarning tafakkurini shakllanishi ulardagi tavakkalga moyillik shkalasining namoyon bo‘lish darajasiga bog‘liq ekanligini ko‘rishimiz mumkin, tavakkalga moyillik darajasi qancha yuqori bo‘lsa, tafakkurni shakllanishiga shuncha samarali ta’sir ko‘rsatar ekan. Bizning holatimizda esa bu o‘rtacha darajani ko‘rsatmoqda.

2. Qiziquvchanlik. Qiziquvchan odamlar maksimal bilim olishga harakat qiladilar, turli mavzularga qiziqishadi, narsalar qanday ishlashini o‘rganadilar, fikrlashning yangi usullarini izlaydilar, yangi g‘oya va narsalarni o‘rganadilar, har xil muammolarning noodatiy yechimlarini izlaydilar, ko‘p kitob o‘qiydilar, rasmlar va xaritalarni o‘rganadilar.

O‘quvchilar bilan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shaxs ijodkorligining qiziquvchanlik shkalasi Jizzax shahri o‘quvchilarida 15,5833 ballni, Termiz shahri o‘quvchilarida esa 16,2708 ballni ko‘rsatmoqda. Ushbu ko‘rsatkich umumiy ballning o‘rtacha darajasi bo‘lib, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishlari jarayoniga bo‘lgan qiziqishlarini o‘rta darajada ekanligidan dalolat beradi. Mazkur tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, o‘quvchilar o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida bilimlarni o‘zlashtirishda o‘rtacha darajada qiziqish bildirmoqdalar, o‘quvchilar bilimlarni o‘zlashtirishda o‘z oldilariga real maqsadni qo‘ymaydilar, fikrlashning yangi usulini emas, balki shablon usullarini ma’qul ko‘rishlari, muammoni yechishda odatiy usullardan foydalanishga harakat qilishlari, masalaga yaqin bo‘lgan mavzularga kam e’tibor berishlari, yangi g‘oya va narsaarni o‘rganishga bo‘lgan harakatlari sustligini, tayyor qoliplardan foydalanishni afzal ko‘rishlari namoyon bo‘lmoqda, bu esa ularda tafakkurni shakllanishiga, ularning dunyoqarashini kengayishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatishi ehtimoli yuqori ekanligidan dalolat beradi.

3. Murakkablik. Murakkab hodisalarni o‘rganishni afzal ko‘radigan odamlar murakkab g‘oyalar va narsalarga qiziqadilar, o‘zlarining oldiga jiddiy maqsadlar qo‘yadilar, mustaqil ravishda biror bir narsalarni o‘rganadilar, maqsadlariga erishishda qat’iylar, muammolarni ha qilishni murakkab usullarini topadilar va qiyin vazifalarni bajarishni yaxshi ko‘radilar.

Murakkablik shkalasi bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari Jizzax shahri o‘quvchilarida 20,9167 ballni, Termiz shahri o‘quvchilarida esa 20,4615 ballni ko‘rsatmoqda, bu esa metodikaning murakkablik shkalasining o‘rtadan yuqori, yaxshi ballni tashkil etadi. Ushbu natijalar shundan dalolat beradiki, o‘quvchilar o‘quv faoliyati jarayonida bilimlarni o‘zlashtirishda, vazifalarni bajarishda murakkab usullarni qo‘llashga moyil ekanligini, oddiy vazifalarni yechishda ham uning yechimini topishda oddiy usullardan ko‘ra murakkab yo‘llarini sinab ko‘rishni, qiyin masalalarni yechishni afzal ko‘rishlari, masala va muammolarni mazmun-mohiyatini mayda jihatlarini ham o‘rganishga harakat qilishlarini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, o‘quvchilar o‘z oldilariga jiddiy maqsadlar qo‘ya olishlari, mustaqil ravishda bilim olishga bo‘lgan intilishlari, vazifa va masalalarni yechishda uning mohiyatini tushunib olishga harakat qilishlarini ham ta’kidlab o‘tish o‘rinli bo‘ladi. Bu holatni ular bilan o‘tkazilgan suhbat natijalarida ham namoyon bo‘ladi. Demak, o‘quvchilarda bilimlarni

o‘zlashtirishga bo‘lgan ushbu munosabat ularning tafakkurini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etar ekan.

4. Tasavvur. So‘rovnomada tasavvur shkalasi bo‘yicha quyidagicha sharh berilgan: “Rivojlangan tasavvurga ega bo‘lgan odamlar o‘zlari hech qachon bo‘lmagan joylar haqida gapirishlari, boshqalar duch kelgan muammolarni qanday hal qilishlarini tasavvur qilishlari, ko‘p joy va narsalar haqida orzu qilishlari, hali duch kelmagan hodisalar haqida o‘ylashlari, chizma va rasmlarda g‘ayrioddiy tarzda tasvirlangan narsalarni ko‘rishlari, narsa va hodisalardan hayratda qolishlari mumkin”.

O‘quvchilar bilan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari tasavvur shkalasi bo‘yicha Jizzax shahri o‘quvchilarida 14,8333 ballni, Termiz shahri o‘quvchilarida esa 14,4231 ballni ko‘rsatmoqda. Tasavvur shkalasining ushbu natijasi metodikaning mazkur shkalaning o‘rtadan yuqori, ya’ni o‘rta ball bilan yuqori ballni oralig‘ini tashkil etmoqda. Tasavvur shkalasining ushbu natijalari asosida aytish mumkinki, o‘quvchilar bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida oldilaridagi vazifalarni yechimini topishda tasavvur jarayonidan me’yorda foydalanishlari, masalaga birmuncha jiddiy yondoshishlari, masalalarga real qarashlari, tasavvurlarida vazifalarni yechimini ko‘rishga harakat qilishlari, ularning mazmun-mohiyatini tasavvurlarida aks ettira olishlari bilan izohlashimiz mumkin.

Natijalar tahlili. Shuningdek, biz tadqiqotimiz jarayonida “Shaxs ijodkorligini to‘rt yo‘nalishini o‘rganish” so‘rovnomasi natijalari bilan “Fikrlash tipi” metodikasi natijalari o‘rtasidagi o‘zaro korrelyatsion aloqadorlikni ham tahlil qilishga harakat qildik. Korrelyatsion tahlilni biz shaharlar kesimida alohida amalga oshirdik, uning natijalari quyidagi 2 va 3-jadvallarda keltirilgan.**2.-jadval**

“Shaxs ijodkorligini to‘rt yo‘nalishini o‘rganish” va “fikrlash tipi” metodikalarining korrelyatsion aloqadorlik natijalari (Termiz shahri)

Shkala	Predmetli-harakatli	Abstrakt-belgili	So‘z-mantiqiy	Ko‘rgazmali-rolli	Ijod kor
Tavakkalga moyillik	,232	-,225	-,068	-,329	,082
Qiziquvchanlik	,324	,295	,294	,007	,220
Murakkablik	,164	,208*	,440	-,031	,97*
Tasavvur	,296	,304	-,234	,372	,086

Izoh: *-p<0,05

3-jadval

“Shaxs ijodkorligini to‘rt yo‘nalishini o‘rganish” va “Fikrlash tipi” metodikalarining korrelyatsion aloqadorlik natijalari (Jizzax shahri)

Shkala	Predmetli-harakatli	Abstrakt-belgili	So‘z-mantiqiy	Ko‘rgazmali-rolli	Ijodkor
Tavakkalga moyillik	,247	-,074	-,287	-,063	,017
Qiziquvchanlik	,154	,143	-,074	,296	,059
Murakkablik	-,091	,247*	,166	-,327	,160*
Tasavvur	,068	,155	-,170	,294	,253

izoh: *-p<0,25

“Shaxs ijodkorligini to‘rt yo‘nalishini o‘rganish” va “Fikrlash tipi” so‘rovnomalari natijalari korrelyatsion aloqadorlik tahlili asosida quyidagi izohlarni bildirishimiz mumkin.

1. Tavakkalga moyillik shkalasi bilan fikrlashning predmetli- harakatli va ijodkorlik shkalalari o‘rtasida har ikkala shahar o‘quvchilarida ijobiy (musbat) korrelyatsion aloqadorlik namoyon bo‘lmoqda. O‘quvchilar bilimlarni o‘zlashtirishda, masala va vazifalarni bajarishda tavakkal qilishlari, o‘z harakatlarini muvofiqlashtirishga, bilimlarni o‘zlashtirishda o‘z ijodkorliklarini namoyon qilishlari, xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yishlari, xatolari asosida yangi g‘oyalar va narsalarni o‘rganishlari, o‘z fikrlarini himoya qilishga harakat qilishlari namoyon bo‘ldi.

Tavakkalga moyillik shkalasi bilan abstrakt-belgili, so‘z-mantiqiy va ko‘rgazmali-rolli fikrlash tiplari o‘rtasida esa manfiy korrelyatsion aloqadorlik aniqlandi. Ushbu aloqadorlik o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishlari farazlarga asoslanganligi, mavhumligi o‘quvchilarda o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifa va topshiriqlarni yechimini topishda yangicha yondoshuvlarga sabab bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatish ehtimoli mavjudligidan dalolat beradi (2 va 3-jadval).

2. Qiziquvchanlik shkalasi hamda fikrlash tipining predmetli- harakatli, asbrakt-belgili, so‘z-mantiqiy, ko‘rgazmali-rolli va ijodkor shkalalari natijalari o‘rtasida Jizzax va Termiz shahri o‘quvchilari ko‘rsatkichlarida musbat korreyatsion aloqadorlikda namoyon bo‘lmoqda (2 va 3-jadvallar). Ushbu natijalarga asoslangan holda aytish mumkinki, o‘quvchilar o‘quv jarayonida bilimlarni o‘zlashtirishda vazifa va topshiriqlarni bajarishda fikrlashning yangi usularini, yangi g‘oya va yechimlarni topishga harakat qiladilar, har xil muammolarni noodatiy yechimlarini izlaydilar, mavhum holatlarga e’tibor qaratadilar, fikrlarini mantiqiy bayon etishga harakat qiladilar, badiiy tafakkur qilishga moyilliklari mavjud bo‘lib, ijodiy fikrlash va muammolarni nostandart yechimlarini topishga harakat qilishlari bilan izohlash o‘rinli bo‘ladi.

3. Murakkablik shkalasi bilan fikrlash tipining predmetli- harakatli va so‘z-mantiqiy shkalalari o‘rtasida musbat korrelyatsion aoqadorlik aniqlangan bo‘lsa, murakkablik va ko‘rgazmali-rolli shkalalar o‘rtasida esa manfiy aloqadorlik namoyon bo‘ldi. Buni biz quyidagicha izohlashimiz mumkin. O‘quvchilar o‘quv faoliyati jarayonida bilimlarni o‘zlashtirishda murakkab bo‘lgan vazifalarni va topishiriqlarni bajarishda faol fikrlashga, uning mohiyatini tushunishga, mantiqiy yechimini topishga, o‘z fikrlarini og‘aki (verbal) tarzda qiyinchiliksiz yetkazishga harakat qilar ekan. Shu bilan birga, o‘quvchilardagi murakkablik va ko‘rgazmali-rolli shkalaning manfiy bog‘liqligi esa ularning murakkab g‘oya va narsalarga bo‘lgan qiziqishi va ma’joziy narsalarga bo‘lgan e’tiborning pastligi bilan izohlash mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarning murakkablik shkalasi bilan abstrakt-belgili va ijodkorlik shkalalari natijalari korrelyatsion tahlili ularning ahamiyatli darajada korrelsiyatsion aloqadorligini ko‘rsatdi. Bu holatni biz o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishida noaniq holatlarga e’tibor qaratishi, ularni yechimini topishda noodatiy usullardan foydalanishga harakat qilishlari, farazga asoslangan fikrlashning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liqligidan dalolat beradi deb o‘ylashimizga asos bo‘ladi.

4. Tasavvur shkalasi bilan fikrlashning predmetli-harakatli, abstrakt-belgili, ko‘rgazmali-rolli va ijodkorlik tiplari o‘rtasida musbat darajada korrelyatsion aloqadorlik kuzatildi (2 va 3 jadvallar). Bu holatni o‘quvchilar bilimlarni o‘zlashtirishda, topshiriq va vazifalarni bajarish jarayonida fikrlashda tasavvur qilish asosida zarur ma’lumotlarni o‘rganishlari, vazifa va topshiriqlarni yechimini tasavvurda aks ettirishlari va shu asosda ijodiy fikrlash bilan vazifa va muammolarning nostandart yechimini topishga harakat qilishlari bilan ifodalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.Abdurasulov R.A. Sharq yakkakurashi va shaxs takomili. Monografiya.-Toshkent: Fan. 2008. 7,25 b.t.

2. Abdurasulov R.A. O‘quvchi shaxsini shakllantirishda sport mashg‘ulot-larining o‘rni. Monografiya. -Toshkent.: Fan va texnologiya. 2013. 12,7 b.t.

3. Абдуллаева Ш.А. Ўспиринларнинг тарбияланганлик даражасини диагностика қилиш ва хулқини коррекциялаш. –Т.: Фан, 2005. -194 б.

4. Каримова В.М. Ижтимоий психология. –Т.: 2012.

5. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. –СПб.: Питер. 2000. - 288

6. Андреева Г.М. Психология социального познания: Учебное пособие. М., «МОДЕК», 1997. С.342.

7. Гальперин П.Я. Психологии творческого мышления // Вопросы психологии. 1982.

Melsov Mirjon Shaxob o'g'li
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

ICHKI ISHLAR XODIMLARIDA STRESSGA BARDOSHLILIKNI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida stressga bardoshlilik darajasini oshirishga xizmat qiluvchi psixologik mexanizmlar keng qamrovda o'rganilgan. Xodimlarning doimiy xavf, tahdid va murakkab emotsional vaziyatlar bilan to'qnashuvi ularning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois stressni yengish mexanizmlarini aniqlash, ularni rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etish masalasi dolzarb hisoblanadi. Shuningdek maqolada, ichki motivatsiya, emotsional intellekt, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, kognitiv qayta baholash, psixologik treninglar va ruhiy tiklanish strategiyalari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *stressga bardoshlilik, ichki ishlar xodimi, psixologik mexanizmlar, emotsional intellekt, ichki motivatsiya, psixoprofilaktika, ruhiy barqarorlik, kasbiy stress, psixologik trening.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ СТРЕССОУСТОЙЧИВОСТИ У СОТРУДНИКОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация. *В данной статье широко изучены психологические механизмы, способствующие повышению уровня стрессоустойчивости в профессиональной деятельности сотрудников органов внутренних дел. Постоянное столкновение сотрудников с рисками, угрозами и сложными эмоциональными ситуациями может негативно сказаться на их психическом состоянии. Поэтому актуальным является вопрос выявления механизмов преодоления стресса, их развития и внедрения в практику. В статье также анализируются стратегии внутренней мотивации, эмоционального интеллекта, социальной поддержки, когнитивной переоценки, психологических тренингов и психологического восстановления.*

Ключевые слова: *стрессоустойчивость, сотрудник органов внутренних дел, психологические механизмы, эмоциональный интеллект, внутренняя мотивация, психопрофилактика, психическая устойчивость, профессиональный стресс, психологический тренинг.*

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR INCREASING STRESS RESISTANCE IN INTERNAL AFFAIRS OFFICERS

Abstract. *In this article, the psychological mechanisms that serve to increase the level of stress resistance in the professional activities of internal affairs officers are comprehensively studied. Personnel's constant exposure to danger, threats, and complex emotional situations can negatively impact their mental state. Therefore, the issue of identifying, developing, and implementing stress management mechanisms is relevant. The article also analyzes internal motivation, emotional intelligence, social support, cognitive reassessment, psychological training, and mental recovery strategies.*

Keywords: *stress resistance, internal affairs officer, psychological mechanisms, emotional intelligence, internal motivation, psychoprophylaxis, mental stability, professional stress, psychological training.*

Kirish. Ichki ishlar tizimi bugungi kunda jamiyat xavfsizligini ta'minlovchi eng muhim sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu tizimda faoliyat yurituvchi xodimlar o'z kasbiy vazifalarini bajarishda yuqori bosim, doimiy xavf-xatar, emotsional zo'riqish va jismoniy yuklamalarga duch keladilar. Shu sababli ular uchun psixologik barqarorlik, ayniqsa stressga bardoshlilik, xizmat samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Stress holatlarida to'g'ri qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqarish va vaziyatga mos harakat qilish qobiliyati ichki ishlar xodimlarida doimiy ravishda rivojlantirib borilishi kerak bo'lgan muhim psixologik jihatdir.

Stressga bardoshlilik – bu insonning tashqi yoki ichki salbiy ta'sirlarga nisbatan barqaror javob bera olish salohiyatidir. Ichki ishlar xodimlari uchun bu salohiyat bir necha darajali psixologik mexanizmlar orqali shakllanadi. Bunday mexanizmlar orasida emotsional barqarorlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga tayanuvchanlik, o'zini anglash darajasi, kognitiv qayta baholash va motivatsion moslashuv alohida o'rinni egallaydi. Ushbu psixologik vositalar nafaqat stressning salbiy oqibatlarini kamaytiradi, balki xodimlarni ichki jihatdan ruhlantirib, ularning irodasini mustahkamlaydi, kasbiy faoliyatga bo'lgan mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

Ichki ishlar xodimlarida stressga bardoshlilikni oshirish uchun mo'ljallangan psixologik mexanizmlar nafaqat individual, balki tizimli yondashuvni ham o'z ichiga oladi. Bu degani, har bir xodim o'z psixologik salomatligini mustahkamlashi bilan birga, tashkilot darajasida ham ruhiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratilishi lozim. Bunda ijobiy rahbarlik uslublari, ochiq muloqot, xavfsiz psixologik muhit va doimiy motivatsiya tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday muhitda xizmat qiluvchi xodimlar o'zini qadrlangan va qo'llab-quvvatlangan his qiladi, bu esa ularning ichki resurslarini faollashtiradi.

Stressga qarshi turish qobiliyati insonning o'z-o'zini anglash darajasiga ham bog'liq. Xodimlar o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini tan olgan holda, stressli holatlarda qaysi strategiyalar samarali ishlashini ilg'ay oladilar. Bu esa o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarining rivojlanishiga olib keladi. Masalan, stressni inkor qilish yoki undan qochishga urinish emas, balki uni anglab, real yondashuv asosida muammoga yechim izlash – bu yuqori psixologik yyetuklik belgisidir. Shu maqsadda, ichki ishlar tizimida xizmat qiluvchilarga psixologik treninglar, amaliy mashg'ulotlar va doimiy konsultatsiyalar o'tkazilishi zarur.

Psixologik mexanizmlarni shakllantirishda jamoaviy omillar ham katta rol o'ynaydi. Xodimlar bir-birini qo'llab-quvvatlagan, birgalikda muammolarni yengishga harakat qiladigan jamoalarda stress darajasi ancha past bo'ladi. Jamoaviy birdamlik, umumiy maqsadlarga yo'naltirilganlik, ijobiy kommunikatsiya – bularning barchasi stressga qarshi immunitetni oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli xizmat ichida o'zaro hurmat, do'stona munosabatlar va samarali axborot almashinuvi madaniyati mustahkamlanishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan omillarni hisobga olgan holda aytish mumkinki, ichki ishlar xodimlarining stressga bardoshliligini oshirish uchun samarali psixologik mexanizmlarni amaliyotga tadbiq etish zarurdir. Bu mexanizmlar nafaqat shaxsiy ruhiy salomatlikni himoya qiladi, balki xizmat samaradorligi, ijtimoiy xavfsizlik va institutsional ishonchning yuqori bo'lishiga ham xizmat qiladi. Psixologik barqarorlikni tizimli asosda qo'llab-quvvatlash, xodimlarning kasbiy rivoji bilan bir qatorda ularning hayot sifati va ruhiy farovonligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ichki ishlar xodimlarida stressga bardoshlilikni oshirishga doir ilmiy nazariyalar inson psixikasining turli qatlamlari va resurslariga asoslanadi. Bu borada amerikalik psixolog R. Lazarusning "kognitiv baholash nazariyasi" asosiy o'rin tutadi. Ushbu nazariyada aytilishicha, insonning stressga munosabati – voqeani qanday baholashiga bog'liq. Ichki ishlar xodimi vaziyatni xavf sifatida emas, yechimi mavjud bo'lgan topshiriq deb baholasa, stress darajasi ancha kamayadi. Shunday holatda tashqi bosim omili emas, balki subyektiv idrok va fikrlash shakli hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu jihatdan, kognitiv qayta baholash ko'nikmalari – stressni yengishda asosiy psixologik mexanizm sifatida tavsiya etiladi.

Kanadalik olim H. Selye stressga fiziologik yondashuv tarafdori bo'lib, u stressni organizmning tashqi tahdidlarga moslashish mexanizmi deb baholagan. U taklif qilgan "umumiy moslashuv sindromi" uch bosqichdan iborat bo'lib: ogohlantirish, qarshilik va charchash fazalarini o'z ichiga oladi. Ichki ishlar xodimlarida bu model real ish sharoitlariga mos keladi, chunki ular tez-tez ogohlantirish holatiga tushib, doimiy tayyorlikda bo'lishadi. Stressga bardoshlilikni oshirish uchun bu fazalarni o'z vaqtida aniqlash va unga mos psixologik yordam ko'rsatish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, charchash bosqichiga yetib bormaslik – muhim profilaktik vazifadir.

Albert Banduraning "o'ziga ishonch" nazariyasi ham stressga qarshi kurashda katta o'rin tutadi. Unga ko'ra, insonning o'z qobiliyatiga bo'lgan ishonchi – tashqi qiyinchiliklarga bardosh berish darajasini belgilaydi. Ichki ishlar xodimi o'zini malakali, vaziyatni nazorat qila oladigan shaxs sifatida his qilsa, tashqi bosimga qarshi ichki psixik barqarorlik shakllanadi. Shu sababli Bandura nazariyasi

asosida treninglar o‘tkazish, xodimlarda o‘ziga bo‘lgan ijobiy bahoni mustahkamlash psixologik immunitetni kuchaytiradi.

Emotsional intellekt nazariyasini ishlab chiqqan Piter Salovey va Jon Mayer esa stressga bardoshlilikni insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglab, boshqara olish salohiyati bilan bog‘laydi. Ularning fikricha, emotsional intellekt yuqori bo‘lgan insonlar stress holatida sovuqqonlikni saqlab, atrofdagi holatni ham aniq baholay oladi. Bu holat ichki ishlar xodimlarida ayniqsa muhim, chunki ular doimiy ravishda insonlar bilan muloqotda bo‘lib, turli holatlarda hissiy turg‘unlikni namoyon qilishi kerak. Shunday qilib, emotsional o‘zini nazorat qilish stressga bardoshlilikni ta’minlovchi eng muhim psixologik vositaga aylanadi.

Pozitiv psixologiya asoschisi M. Seligmanning optimistik yondashuvga asoslangan nazariyasiga ko‘ra, inson voqealarga qanday psixologik yondashsa, stress holatidan chiqish ham shunga bog‘liq bo‘ladi. U "umidli fikrlash", "maqsadga yo‘naltirilgan motivatsiya" va "mazmunli hayot" tushunchalarini ilgari surgan. Bu yondashuv ichki ishlar xodimlariga ijobiy hayot falsafasini singdirish, salbiy voqealardan ortiqcha ruhiy zarar ko‘rmaslik, balki ularni o‘sish uchun imkon sifatida ko‘rishga o‘rgatadi. Natijada xodimning stressga nisbatan psixologik immuniteti kuchayadi, o‘zini qadrlash hissi mustahkamlanadi.

Rossiyalik psixolog L. Vygotskiy tomonidan taklif etilgan “proksimal rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, shaxs o‘z imkoniyatidan biroz yuqoriroq talablarga qarshi tura olsa, rivojlanadi. Ichki ishlar xodimlari ko‘pincha yuqori bosim ostida ishlashadi, bu ularni stressga chidamliroq qilish uchun salbiy emas, balki ijobiy o‘sish imkoniyatidir. Shu sababli, xodimlarga nazoratli va qo‘llab-quvvatlovchi sharoitda murakkab topshiriqlar berish, ularni ruhiy jihatdan chiniqtiradi. Bu yondashuv shaxsning ruhiy barqarorligini me’yoriy stress orqali mustahkamlashga asoslanadi.

Shuningdek, Viktor Franklning ekzistensial psixologiyaga asoslangan nazariyasi ham stressga bardoshlilikni oshirishda muhim hisoblanadi. U inson hayotida ma’no borligi – ruhiy muvozanatni ta’minlaydi degan g‘oyani ilgari surgan. Ichki ishlar xodimlari o‘z xizmatini ijtimoiy ahamiyatli deb bilsalar, ularning stressga bardoshliligi oshadi. Bunday motivatsion yondashuv, ya’ni xizmatining jamiyat farovonligiga xizmat qilayotganini anglash, xodimga ruhiy tayanch beradi. Bu esa ichki barqarorlikni mustahkamlash, stressdan ijobiy chiqish mexanizmlarini faollashtirishga yordam beradi.

Muhokama. Ichki ishlar xodimlarining kasbiy faoliyati doimiy xavf, bosim va noaniqlik bilan kechadi. Shu bois bu sohada xizmat qiluvchi shaxslarning psixologik tayyorgarligi nafaqat ularning sog‘ligi, balki butun tizim samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Stressga bardoshlilikni shakllantirish ichki resurslarning faollashtirilishi, individual himoya mexanizmlarining rivojlantirilishi hamda tashkiliy va psixologik qo‘llab-quvvatlash vositalarining uyg‘un qo‘llanishi orqali amalga oshiriladi. Muhokama jarayonida aynan shunday psixologik mexanizmlarning amaliy ahamiyatini ko‘rsatish muhimdir.

Birinchi navbatda, stressga bardoshlilikni shakllantirishda o‘zini anglash va o‘zini tahlil qilish qobiliyati katta ahamiyatga ega. Ichki ishlar xodimi o‘z his-tuyg‘ularini, qo‘rquv yoki bezovtalik darajasini to‘g‘ri aniqlay olsa, u ularga nisbatan ongli tarzda munosabat bildiradi. Bunday holatda avtomatik reaktivlik o‘rniga ongli qaror qabul qilish vositasi paydo bo‘ladi. O‘zini tahlil qilish, odatda, maxsus psixologik treninglar yoki maslahatlar orqali rivojlantiriladi, bu esa xodimga stressli vaziyatda o‘z pozitsiyasini saqlab qolish imkonini beradi.

Muhokama jarayonida kognitiv yondashuv asosidagi strategiyalarning roli ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Masalan, salbiy voqealarni boshqacha yo‘nalishda baholash, ulardan ijobiy saboq chiqarish yoki ularni vaqtincha holat deb qabul qilish stressni sezilarli darajada kamaytiradi. Bu uslub ko‘p hollarda “kognitiv qayta baholash” nomi bilan tanilgan bo‘lib, ichki ishlar xodimlari uchun xizmat faoliyatida duch keladigan kuchli psixologik zarbalardan keyin ruhiy tiklanish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon doimiy psixologik tayyorgarlikni talab qiladi.

Navbatdagi muhim psixologik mexanizm – ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi hisoblanadi. Har bir inson kabi, ichki ishlar xodimi ham og‘ir vaziyatlarda yaqinlarining, jamoaning yoki rahbariyatning psixologik yordamini sezishni istaydi. Bunday qo‘llab-quvvatlash ruhiy yengillik,

himoyalanganlik hissini uyg‘otadi va bu orqali stressning salbiy ta’siri kamayadi. Ayniqsa, xizmatdagi hamkasblar orasida sog‘lom jamoaviy muhit yaratilgan bo‘lsa, bu psixologik barqarorlikning asosiy poydevorlaridan biriga aylanadi.

Jadval-1.

№	Psixologik ko‘rsatkichlar	O‘rganilgan xodimlar guruhi	Yuqori ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ko‘rsatkichlar	Past ko‘rsatkichlar	Izohlar
1	Stressga qarshi ichki motivatsiya	Tergovchilardan iborat guruh	Aksariyatda aniqlangan	Kam qismida mavjud	Juda kam hollarda uchragan	Ichki maqsadga yo‘naltirilganlik ularning stressga bardoshini oshiradi.
2	Emotsional o‘zini nazorat qilish	Patrul-post xizmati xodimlari	Kam hollarda yuqori	Aksariyatda o‘rtacha	Qisman past darajada	Stressli vaziyatlarda o‘zini tutish bo‘yicha doimiy treninglar talab etiladi.
3	Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hissi	Yo‘l harakati xavfsizligi inspektorlari	O‘rtacha darajada mavjud	Ko‘pchilikda o‘rtacha	Kam hollarda past	Rahbarlar va jamoaning hissiy yordami sezilarli darajada muhim.
4	Kognitiv qayta baholash qobiliyati	Jinoyat qidiruv bo‘limi xodimlari	Ko‘pchilikda yuqori	Qisman o‘rtacha	Deyarli kuzatilmagan	Murakkab vaziyatlarga ongli yondashish ularning barqarorligini oshiradi.
5	Stressdan so‘ng tiklanish tezligi	Maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan guruh	Yuqori darajada qayd etilgan	Kam qismida o‘rtacha	Chetga chiqqan holatlar yo‘q	Jismoniy va psixologik tayyorgarlik samarador natija bergan.
6	O‘z-o‘zini boshqarish va iroda kuchi	Boshqaruvdagi rahbar xodimlar	Ko‘pchilikda yuqori	Qisman o‘rtacha	Kam darajada past	Qabul qilinadigan qarorlar aniqligi stressga qarshi tura olishni ko‘rsatadi.

1. Jadval asosida xulosa:

Yuqoridagi psixologik tadqiqot natijalari ichki ishlar organlarida xizmat qiluvchi turli yo‘nalishdagi xodimlar orasida stressga bardoshlilik darajasi va unga ta’sir qiluvchi psixologik omillar turlicha ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, tergovchilar, jinoyat qidiruv va maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan guruhlarda yuqori motivatsiya, ongli yondashuv va tiklanish salohiyati sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlangan. Bu holat ularning kasbiy faoliyatiga xos xususiyatlar, muntazam psixologik mashg‘ulotlar va jismoniy tayyorgarlik bilan bevosita bog‘liqdir.

Patrul-post xizmati va yo‘l harakati xavfsati xodimlarida esa stressli vaziyatlarga nisbatan psixologik bardoshlilik nisbatan o‘rtacha yoki past darajada bo‘lib, bu guruh vakillarida emotsional nazorat, ichki tahlil qilish va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini takomillashtirish lozimligini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, ular uchun mo‘ljallangan maxsus psixoprofilaktika va emotsional treninglar tizimga kiritilishi zarur.

Shuningdek, rahbar xodimlarda qaror qabul qilishdagi aniqlik, iroda kuchi va stressga bardoshlilik darajasi yuqori bo‘lib, bu ularga boshqaruvdagi keskin vaziyatlarni muvaffaqiyatli yengishga imkon beradi. Umuman olganda, ushbu jadval asosida har bir guruh uchun moslashtirilgan, individual psixologik yondashuvni ishlab chiqish zarurati yaqqol ko‘rinib turibdi.

Stressga bardoshlilikni shakllantirishda ruhiy sog‘lomlashtirish mashqlari ham muhim o‘rin tutadi. Nafas olishni boshqarish, progressiv mushak relaksatsiyasi, meditatsiya, vizualizatsiya kabi usullar orqali xodimlar o‘z organizmida sodir bo‘layotgan zo‘riqish belgilarini kamaytirishga erishadilar. Bu psixofiziologik usullar xizmat oldidan yoki undan keyingi davrda ruhiy zo‘riqishlarning oldini olishda ayniqsa foydali hisoblanadi. Ularni muntazam amaliyotga kiritish stressga bardoshli muhit shakllantirishga xizmat qiladi.

Ichki motivatsiya va maqsadga yo‘naltirilganlik hissi stressga qarshi kuchli psixologik barer hisoblanadi. Agar xodim o‘z faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini chuqur anglay olsa, har qanday qiyinchilikni o‘zini sinov deb qabul qiladi va undan psixologik ijobiy kuch oladi. Bu hodisa Viktor Frankl ta’kidlagan “hayot mazmuni” tushunchasiga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun, ichki ishlar tizimida xizmat qiluvchilar uchun kasbiy motivatsiyani yuksaltirish, ularning qadriyatlar tizimini rivojlantirish – stressga bardoshlilikni oshiruvchi asosiy omillardan biridir.

Yakuniy jihat sifatida muhokama qilinishi lozim bo‘lgan masala – psixologik xizmatlar tizimini takomillashtirish zarurati hisoblanadi. Bu tizim faqat muammoga duch kelgan xodimlarga yordam berish bilan cheklanmasligi kerak, balki oldini olish, kuzatuv, tayyorlov va qayta tiklash bosqichlarini o‘z ichiga olishi lozim. Ichki ishlar organlarida faoliyat yurituvchi har bir psixolog nafaqat maslahat beruvchi, balki ruhiy profilaktikani amalga oshiruvchi mutaxassis sifatida harakat qilishi kerak. Faqat ana shunday keng qamrovli yondashuv bilangina ichki ishlar xodimlarida stressga bardoshlilikni tizimli ravishda oshirish mumkin bo‘ladi.

Xulosa. Ichki ishlar xodimlarining kasbiy faoliyati turli stressli holatlarga to‘la bo‘lgani sababli, ularning psixologik barqarorligini ta’minlash jamiyat xavfsizligini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Xodimlarning ruhiy chidamliligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar shunchaki individual muammolarni bartaraf etishga emas, balki tizimli, uzoq muddatli va barqaror psixologik resurslarni shakllantirishga qaratilishi zarur. Stressga bardoshlilik esa ichki kuch, mustahkam iroda, emotsional nazorat va ijobiy fikrlash ko‘nikmalari orqali asta-sekin shakllanadi.

Xodimlarda stressga qarshi kurashishda eng samarali yo‘nalishlardan biri bu psixologik bilimlarni amaliy faoliyatga integratsiya qilishdir. Ichki ishlar sohasidagi real holatlar va xavfli vaziyatlarga doimiy tayyorlik, stressga bardosh berish mexanizmlarini mustahkamlash imkonini beradi. Psixologik tayyorgarlik – bu nazariy bilimlar bilan cheklanmaydi, balki doimiy treninglar, xizmat oldi va xizmatdan so‘nggi reabilitatsion mashg‘ulotlar orqali amaliyot bilan boyitilishi lozim. Bu holatda xodim o‘z psixikasini boshqarishni o‘rganadi va emotsional inqirozga tushmaslikni ta’minlaydi.

Stressga bardoshlilikni ta’minlashda jamoaviy muhit va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash vositalari ham katta ahamiyat kasb etadi. Do‘stona va hamjihat jamoada ishlovchi xodim o‘zini xavfsiz va qadrlangan his qiladi, bu esa salbiy emotsiyalarning o‘z vaqtida bartaraf bo‘lishiga xizmat qiladi. Rahbariyat tomonidan tan olish, ijobiy fikrlar bildirish va rag‘batlantirish ham xodimning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Shu sababli rahbarlik uslublari va ichki kommunikatsiya sifati stressga bardoshlilik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Stressga bardoshlilikning yana bir samarali mexanizmi bu emotsional intellektni rivojlantirish hisoblanadi. His-tuyg‘ularni to‘g‘ri anglash, ularni boshqarish va ijtimoiy aloqalarda mo‘tadillikni saqlash ko‘nikmalari – stressga nisbatan ichki qarshilikni mustahkamlovchi asosiy omillardandir. Ichki ishlar xodimlari uchun bu ko‘nikmalar xizmat davomida yuzaga keluvchi keskin vaziyatlarda to‘g‘ri va muvozanatli qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham psixologik mashg‘ulotlar orqali emotsional intellektni oshirishga yo‘naltirilgan dasturlar ishlab chiqilishi kerak.

Shuningdek, ichki motivatsiya va shaxsiy maqsadlar bilan bog‘langan kasbiy faoliyat stressli holatlarga nisbatan barqarorlikni oshiradi. Xodim o‘z faoliyatida ma’no topa olsa, u stressni o‘ziga

qarshi emas, balki o‘zini rivojlantirish vositasi sifatida qabul qiladi. Bu yondashuv ichki energiyani faollashtirib, salbiy tashqi omillarga qarshi tabiiy psixologik immunitetni shakllantiradi. Shu sababli xizmat jarayonida ichki ishonch, o‘ziga bo‘lgan ijobiy munosabat va maqsadlarga intilish doimiy rivojlanib borishi lozim.

Bundan tashqari, stressga bardosh berish qobiliyatini oshirishda individual yondashuvga asoslangan psixologik reabilitatsiya tizimi ham muhim o‘rin tutadi. Har bir xodimning psixologik holati, kasbiy yuklamasi, shaxsiy hayotdagi muammolari bir-biridan farq qiladi. Shu bois ular bilan ishlashda umumiy yondashuv emas, balki shaxsga moslashtirilgan psixoprofilaktika va psixodiagnostika usullari qo‘llanilishi kerak. Faqat shunda xodim o‘zining ichki ehtiyojlariga javob beradigan ruhiy barqarorlik darajasiga erishishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar xodimlarida stressga bardoshlilikni oshirish ko‘p qirrali, kompleks yondashuvni talab etadigan murakkab, ammo zarur jarayondir. Bu jarayonning har bir bosqichi psixologik tayyorgarlik, emotsional nazorat, jamoaviy qo‘llab-quvvatlash va shaxsiy motivatsiya bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu mexanizmlarni tizimga tadbiq qilish orqali ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy samaradorligi, shaxsiy farovonligi va ijtimoiy xavfsizlikka qo‘shayotgan hissasi yuqori darajaga ko‘tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Elov Z.S. Psychological Influence Of Speech Disorders And The Causes That Cause Them On The Child’s Psyche. Academicia Globe: Inderscience Research. Volume 3 , Issue 1 , January-2022 39-42
2. Elov Z.S. O‘Smirlik Davrida Shaxs Xulq-Atvorida Kuzatiladigan Reaksiyalarning Psixologik Ta’siri. Science And Education. №3 442-447
3. Elov Z.S. O‘Smirlik Davrida Shaxs Xulq–Atvorida Kuzatiladigan Reaksiyalarning Psixologik Ta’siri. “Psixologiya” Ilmiy Jurnal1, 2022. 27-29
4. Элов З.С. Суицидал Хулқ Шаклланишининг Илмий Адабиётларда Ўрганилиши: Назарий Таҳлиллар. Ўзму Хабарлари. 2016 269-271
5. F.F.Usmonov. Z.S.Elov.Suicide–As A Global Problem Facing Humanity. Web Of Scientist: International Scientific Research Journal 3 (02), 349-354 10.
6. Berdiyeva D.Sh., Elov Z.S. Psychological Reasons For Suicide Motivation In Adolescents With Deviant Behavior. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences Scientific Journal. Volume 2, Issue 2 February 2022. 1003-1009
7. Elov Z.S. “Affekt Holati Va Uning Sud-Psixologik Ekspertizasi”. Таълим Ва Инновацион Тадқиқотлар/ 2022. 1(9) 306-311 12.
8. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. Psixologiя. Учредители: Бухарский государственный университет, 31- 38.

Nadjimidinov Utkir Rustamovich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

SPORT MURABBIYLARINING QAROR QABUL QILISH JARAYONLARIDAGI PSIXOLOGIK MEXANIZMLARNING SHAKLLANISHI VA NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sport murabbiylari tomonidan qaror qabul qilish jarayonlarining psixologik asoslari chuqur tahlil etilgan. Mualliflar sport faoliyatining murakkab va yuqori bosim ostida kechadigan sharoitlarida murabbiy shaxsining qaror qabul qilish tezligi, aniqligi va moslashuvchanligining asosiy omillarini ochib bergan. Shuningdek, individual temperament, stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik, reflektiv fikrlash, shaxslararo kommunikatsiya va motivatsion holatlarning qaror qabul qilishga qanday ta’sir ko‘rsatishi ilmiy asoslangan holda bayon etilgan. Qaror qabul qilishning kognitiv, affektiv va volitional jihatlari alohida ajratilib, sport psixologiyasi nuqtai nazaridan empirik yondashuvlar bilan boyitilgan.*

Kalit so‘zlar: *sport murabbiyi, qaror qabul qilish, psixologik asoslar, stressga bardoshlilik, emotsional barqarorlik, refleksiya, sport psixologiyasi, kognitiv jarayonlar, murabbiylik kompetensiyasi, motivatsiya, tashkiliy qarorlar.*

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ И ПРОЯВЛЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В ПРОЦЕССАХ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ СПОРТИВНЫМИ ТРЕНЕРАМИ

Аннотация. *В данной статье глубоко проанализированы психологические основы процесса принятия решений спортивными тренерами. Авторы выявили ключевые факторы, влияющие на скорость, точность и адаптивность принятия решений в условиях сложной и высокострессовой спортивной деятельности. Особое внимание уделено влиянию индивидуального темперамента, устойчивости к стрессу, эмоциональной стабильности, рефлексивного мышления, межличностной коммуникации и мотивационного состояния на качество принимаемых решений. Когнитивные, аффективные и волевые аспекты процесса принятия решений выделены отдельно и подкреплены эмпирическими подходами с точки зрения спортивной психологии. Полученные результаты имеют практическое значение для формирования и развития компетенций тренеров в принятии эффективных решений.*

Ключевые слова: *спортивный тренер, принятие решений, психологические основы, стрессоустойчивость, эмоциональная стабильность, рефлексия, спортивная психология, когнитивные процессы, тренерская компетентность, мотивация, управленческие решения.*

FORMATION AND MANIFESTATION OF PSYCHOLOGICAL MECHANISMS IN THE DECISION-MAKING PROCESSES OF SPORTS COACHES

Abstract. *This article provides an in-depth analysis of the psychological foundations of decision-making processes among sports coaches. The authors identify the key factors affecting decision-making speed, accuracy, and adaptability in the highly demanding and pressure-filled context of sports activities. Particular attention is given to the influence of individual temperament, stress resilience, emotional stability, reflective thinking, interpersonal communication, and motivational state on the quality of decisions made. The cognitive, affective, and volitional dimensions of decision-making are examined separately and supported by empirical approaches within the framework of sports psychology. The findings offer practical significance for developing and enhancing coaches’ competencies in making effective and well-grounded decisions.*

Keywords: *sports coach, decision-making, psychological foundations, stress resilience, emotional stability, reflection, sports psychology, cognitive processes, coaching competence, motivation, organizational decisions*

Kirish. Zamonaviy sport faoliyati murakkab psixologik jarayonlar, yuqori bosim ostida tezkor fikrlash va noaniqlik sharoitida to‘g‘ri qaror qabul qilishni talab etadi. Ayniqsa, sport murabbiylarining qaror qabul qilish faoliyati nafaqat sport natijalariga, balki butun jamoaning psixologik holati, ichki muhit, motivatsion dinamika va sportchilarning emotsional barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bunday sharoitda murabbiy shaxsining individual psixologik xususiyatlari – reflektiv fikrlash, stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik va volitional komponentlar murakkab holatlarda samarali boshqaruvni amalga oshirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Psixologik nuqtai nazardan qaror qabul qilish insonning ichki motivatsiyasi, maqsadga yo‘naltirilganligi, shaxslararo munosabatlar va tajribaga asoslangan kognitiv strukturasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, sport murabbiylarida bu jarayonlar yanada dinamik tarzda kechadi. Qaror qabul qilishda intuitiv reaktsiyalarning roli, vaqt chegaralangan holatlarda impulsiv javoblar va tanlovlarning oqibatlarini oldindan baholay olish kompetensiyasi yuqori sport natijalari uchun zaruriy shart hisoblanadi. Mazkur mavzu bo‘yicha tadqiqotlar sport psixologiyasi doirasida murabbiylik faoliyatida qaror qabul qilishning kognitiv, affektiv va ijtimoiy jihatlarini tizimli o‘rganishga ehtiyoj borligini ko‘rsatmoqda. Aynan shu jihatlar sport murabbiyining psixologik tayyorgarligi, professional yyetukligi va boshqaruv salohiyatining asosiy ko‘rsatkichlariga aylanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda sport faoliyatining professionallashuvi, murakkab raqobat muhiti va natijaga yo‘naltirilgan strategiyalar sport murabbiylarining qaror qabul qilish qobiliyatiga yuqori talablar qo‘yadi. Har bir qaror – sportchining jismoniy yuklamasini boshqarishdan tortib, musobaqaviy strategiyani tanlashgacha – nafaqat texnik, balki chuqur psixologik tahlil va tafakkurni talab qiladi. Ayniqsa, yuqori bosim ostida tez va aniq qaror qabul qilish zarurati, stress omillarining intensivligi va emotsional muvozanatni saqlab qolish ehtiyoji sport murabbiylarining psixologik barqarorligini, refleksiv tafakkur darajasini va motivatsion yyetukligini chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda. Shuningdek, murabbiylik faoliyatida qaror qabul qilishda kognitiv-emotsional mexanizmlarning qanday ishlashi, individual shaxs xususiyatlari bilan qanday bog‘liqligi va bu omillar sport natijalariga qanday ta’sir qilishi bugungi psixologik tadqiqotlarning markaziy masalalaridan biriga aylangan. Jahon tajribasida murabbiylarning psixologik tayyorgarligi va qaror qabul qilish kompetensiyasi sport jamoalarining yutuq omili sifatida baholanmoqda. Shu sababli, ushbu mavzuning chuqur ilmiy tahlili, sport psixologiyasi sohasi uchun nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Sport psixologiyasi doirasida murabbiylarning qaror qabul qilish jarayonlarini o‘rganishga oid ilmiy manbaalar, asosan, kognitiv psixologiya, emotsional intellekt va stressni boshqarish nazariyalariga tayangan. Xususan, qaror qabul qilishning kognitiv modeli asosida murabbiylar tafakkurining mantiqiy, analitik va prognozga asoslangan qirralari chuqur tadqiq qilingan. Bir qator xorijiy tadqiqotlarda sport murabbiylarining stressga chidamlilik darajasi, emotsional barqarorligi va vaqt tanqisligi sharoitida qanday strategiyalar orqali tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilishi empirik ma’lumotlar bilan asoslangan.

Adabiyotlarda murabbiylarning qaror qabul qilish qobiliyati ularning shaxsiy xususiyatlari, masalan, refleksiya, emotsional barqarorlik, liderlik darajasi va motivatsion holati bilan bevosita bog‘liqligi ta’kidlanadi. Bunday yondashuvlar orqali qaror qabul qilish faqat ratsional jarayon emas, balki kompleks psixologik mexanizm sifatida ko‘riladi. Ayrim tadqiqotlar bu jarayonni murabbiy va sportchi o‘rtasidagi kommunikatsiya sifati, jamoaviy dinamikaga moslashish va situatsion muhitni baholash ko‘nikmalari bilan ham bog‘laydi.

Yevropa va AQShdagi psixologlar tomonidan olib borilgan amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yuqori malakali murabbiylar qaror qabul qilishda ko‘proq proaktiv yondashuvni qo‘llab, oldindan vaziyatni taxmin qilishga moyil bo‘lishadi. Mahalliy tadqiqotlar esa, ko‘proq murabbiylarning qaror qabul qilishdagi psixologik to‘siqlar, ijtimoiy bosim va resurs cheklovlari bilan bog‘liq omillarga urg‘u beradi.

Shuningdek, adabiyotlarda qaror qabul qilishda sport turining o‘zi ham muhim omil sifatida qayd etiladi — individual sport turlarida murabbiy qarorlari tezroq va yakka holda qabul qilinadi, jamoaviy sportlarda esa murabbiyning qarorlari jamoa ichidagi ijtimoiy-psixologik muvozanatni saqlash bilan bog‘liq bo‘ladi. Ko‘plab manbaalarda qaror qabul qilish murabbiylik kompetensiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholangan bo‘lib, bu kompetensiya murabbiylarning o‘z-o‘zini anglash, vaziyatni tez tahlil qilish va moslashuvchanlik qobiliyatlari orqali rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar sport murabbiylarida qaror qabul qilish jarayonlarini ko‘p qirrali psixologik hodisa sifatida ochib berib, uni stress, motivatsiya, kommunikatsiya, tafakkur va emotsional holatlarning o‘zaro ta’siri sifatida talqin qiladi. Ammo bu sohada hali ham mahalliy sport sharoitiga mos, madaniy va ijtimoiy kontekstlarni hisobga olgan empirik tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud.

Muhokama. Sport murabbiylarining qaror qabul qilish jarayoni ko‘plab psixologik, ijtimoiy va kontekstual omillarning murakkab o‘zaro ta’sirida shakllanadi. Ushbu jarayonni to‘liq anglash uchun uni shaxsiy fazilatlar, ijtimoiy muhit, professional tajriba va sport turining xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqish zarur. Muhim jihati shundaki, sportda tezkorlik, aniqlik va bosim ostidagi mustahkamlik qaror qabul qilishda markaziy o‘rinni egallaydi. Murabbiy o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun vaziyatni baholash, variantlarni solishtirish, ehtimoliy oqibatlarni prognoz qilish va eng maqbul yechimni tanlash kabi bosqichlarni juda qisqa vaqt ichida amalga oshiradi.


Empirik tadqiqotlar ko‘rsatganidek, yuqori darajadagi emotsional barqarorlik, stressni boshqarish qobiliyati, reflektiv fikrlash va yuqori motivatsion holat qarorlarning samaradorligini oshiradi. Murabbiy shaxsining stress holatlarida muvozanatni saqlab qolishi va ijobiy motivatsiyani kuchaytirishga qaratilgan psixologik resurslardan foydalana olishi uning rahbarlik kompetensiyasini belgilovchi muhim omillardan biri sanaladi. Ayniqsa, sport jamoalarida doimiy o‘zgaruvchan sharoitlar va tashqi bosimlar fonida qarorlar shunchalik tez va moslashuvchan bo‘lishi kerakki, bu murabbiylardan yuqori darajadagi psixologik moslashuvchanlikni talab etadi.

Bundan tashqari, murabbiylar qaror qabul qilishda ko‘pincha o‘zining ilgari orttirgan tajribasi, ichki sezgi va intuitsiyasiga tayangan holda harakat qiladi. Bunday yondashuvlar kognitiv va affektiv mexanizmlarning uyg‘unlashuvi asosida yuzaga chiqadi va sportda optimal natijalarni ta’minlashda o‘zining samarasini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, murabbiylarning qaror qabul qilish qobiliyati ularning sportchilar bilan muloqotdagi ochiqligi, jamoaviy ishdagi liderlik darajasi va konfliktlarni konstruktiv hal qilishga bo‘lgan moyilligi bilan ham chambarchas bog‘liq.

Muhokamadan kelib chiqadiki, sport murabbiylarining qaror qabul qilish jarayoni birlamchi instinktlar va avtomatik reaksiyalargagina emas, balki keng qamrovli psixologik tayyorgarlik, madaniy muhit, ijtimoiy kontekst va kasbiy refleksiyaga asoslanadi. Shuning uchun bu jarayonni tahlil qilishda faqat kognitiv yondashuvlar bilan cheklanmasdan, affektiv, volision va kommunikativ omillarni ham tizimli o‘rganish zarur. Sportdagi murakkab va o‘zgaruvchan muhitda samarali qarorlar qabul qilish uchun murabbiylarning psixologik tayyorgarligi doimiy ravishda takomillashib borishi lozim.

Diagrammada sport murabbiylarining qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir etuvchi asosiy psixologik omillar foizlarda ifodalangan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, eng yuqori ta’sir “stressga bardoshlilik” va “kognitiv qarorlar”ga tegishli, bu esa murabbiylarning bosim ostida to‘g‘ri va tez harakat qilish qobiliyatini belgilaydi.

Yuqoridagi jadvalda sport murabbiylarining qaror qabul qilishiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik omillar foizlarda ifodalangan. Unda “stressga bardoshlilik” (22%) va “kognitiv jarayonlar” (20%) eng katta ulushga ega bo‘lib, murabbiyning murakkab sport holatlarida muvozanatli va tezkor qaror chiqarishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. “Emotsional barqarorlik” (18%) va “refleksiya” (16%) murabbiyning o‘z-o‘zini anglash va vaziyatni tahlil qilish qobiliyatini bildiradi. Shuningdek, “motivatsiya” (14%) va “kommunikatsiya” (10%) kabi omillar murabbiyning jamoa bilan aloqasi va ichki ruhiy holatini boshqarish qobiliyatini aks ettiradi. Jadval, qaror qabul qilishning ko‘p omilli va o‘zaro bog‘liq jarayon ekanligini ko‘rsatadi



.

Xulosa va tavsiyalar. Olib borilgan ilmiy tahlillar asosida sport murabbiylarida qaror qabul qilish jarayonining murakkab psixologik asoslarga ega ekani aniqlandi. Qaror qabul qilishga ta’sir etuvchi omillar ichida stressga bardoshlilik, emotsional barqarorlik, kognitiv jarayonlar va reflektiv fikrlash muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, murabbiyning motivatsion holati, kommunikativ ko‘nikmalari va o‘z-o‘zini tahlil qila olish darajasi qaror qabul qilishda muvozanatli va samarali natijalarni ta’minlaydi. Empirik tadqiqotlar sport murabbiylari uchun psixologik barqarorlik va tezkor fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha doimiy treninglar o‘tkazish zarurligini ko‘rsatdi. Qaror qabul qilish faqat individual emas, balki jamoaviy va ijtimoiy omillar bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lib, har bir murabbiyning shaxsiy fazilatlari bu jarayonda yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Tavsiyalar:

1. Psixologik treninglarni joriy etish – sport murabbiylari uchun stressni boshqarish, emotsional barqarorlik va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus trening dasturlari ishlab chiqilishi lozim.

2. Kognitiv malakalarni oshirish – qaror qabul qilishda mantiqiy tahlil, strategik fikrlash va muammoli vaziyatlarga moslashuvchanlikni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar tashkil etilishi tavsiya etiladi.

3. Refleksiya va o‘z-o‘zini baholashni rag‘batlantirish – murabbiylarda har bir qaror natijalarini tahlil qilish, o‘z harakatlariga tanqidiy yondashish va o‘zgarishlarga tayyorlik hissini kuchaytirish kerak.

4. Jamoaviy qaror qabul qilishni o‘rgatish – murabbiylik faoliyatida boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda qaror chiqarish ko‘nikmalarini mustahkamlashga alohida e’tibor berilishi lozim.

5. Psixologik kuzatuv va maslahat xizmati – sport tashkilotlarida murabbiylar uchun muntazam psixologik monitoring va individual maslahat xizmati yo‘lga qo‘yilishi samaradorlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975. – 304 с.
2. Голубева Е. И. Психология управления в спорте. – Санкт-Петербург: Питер, 2009. – 210 с.
3. Weinberg R.S., Gould D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. – Champaign: Human Kinetics, 2014. – 664 p.
4. Martens R. Successful Coaching. – Human Kinetics, 2012. – 496 p.
5. Orlick T. In Pursuit of Excellence: How to Win in Sport and Life through Mental Training. – Human Kinetics, 2008. – 365 p.
6. Исмаилов Ш.Ш. Спорт психологияси: назарий ва амалий асослар. – Тошкент: “Yangi asr avlodi”, 2020. – 276 б.
7. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum, 1985. – 371 p.
8. Симонов П.В. Эмоциональный мозг. – Москва: Наука, 1981. – 240 с.
9. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1986. – 617 p.
10. Ахмедова Ф.Э., Каримова З.М. Спортда психологик тайёргарлик асослари. – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2018. – 184 б.

Nurmatova Nargiza Ulug‘bekovna
Profi University Nodavlat oliy ta’lim muassasasi,
Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti , (PhD)

RAQAMLI TA’LIM MUHITINING TALABALAR PSIXIK SALOMATLIGIGA KO‘RSATADIGAN KOGNITIV VA EMOTSIONAL TA’SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhitini talabalarning psixik salomatligiga ko‘rsatadigan kognitiv va emotsional ta’siri tahlil qilinadi. Onlayn va gibrid ta’lim shakllari natijasida yuzaga kelayotgan e’tibor susayishi, raqamli charchoq va hissiy toliqish holatlari o‘rganilgan. Psixik salomatlik, kognitiv va emotsional ta’sir tushunchalari nazariy asosda yoritilib, talabaning raqamli o‘quv muhitidagi holati psixologik yondashuvlar bilan izohlangan. Raqamli ta’limda psixik barqarorlikni ta’minlash pedagogik va psixologik yondashuvlarning uyg‘unligiga bog‘liq bo‘lgan fikrlar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *psixik salomatlik, kognitiv ta’sir, emotsional ta’sir, raqamli charchash, talaba holati, stress, motivatsiya.*

КОГНИТИВНОЕ И ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ НА ПСИХИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. *В данной статье рассматривается когнитивное и эмоциональное влияние цифровой образовательной среды на психическое здоровье студентов. Изучены такие негативные явления, как снижение концентрации внимания, цифровая усталость и эмоциональное истощение, возникающие в результате внедрения онлайн- и гибридных форм обучения. Понятия психического здоровья, когнитивного и эмоционального воздействия раскрываются на теоретическом уровне, а состояние студентов в условиях цифровой образовательной среды интерпретируется с психологической точки зрения. В статье выдвигается мнение о том, что обеспечение психической устойчивости студентов в цифровом обучении зависит от интеграции педагогических и психологических подходов.*

Ключевые слова: *психическое здоровье, когнитивное воздействие, эмоциональное воздействие, цифровая усталость, состояние студента, стресс, мотивация.*

COGNITIVE AND EMOTIONAL IMPACT OF THE DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT ON STUDENTS' MENTAL HEALTH

Abstract. *This article analyzes the cognitive and emotional impact of the digital learning environment on students' mental health. It explores issues such as decreased attention span, digital fatigue, and emotional exhaustion resulting from the widespread adoption of online and hybrid forms of education. The concepts of mental health, cognitive impact, and emotional impact are theoretically examined, and the condition of students within the digital learning context is interpreted through psychological approaches. The study emphasizes that ensuring students' mental stability in digital education depends on the integration of pedagogical and psychological strategies.*

Keywords: *mental health, cognitive impact, emotional impact, digital fatigue, student condition, stress, motivation.*

Bugungi kunda axborot texnologiya va raqamli transformatsiya jarayoni ta’limiy muhitni o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida onlayn va gibrid, kechki o‘qitish shakllarining keng joriy etilishi bilan raqamli ta’lim muhiti talabalarning kognitiv va emotsional holatiga bevosita ta’sir ko‘rsata boshladi. Axborot oqimining nihoyatda ko‘pligi, do imiy ijtimoiy tarmoqlarda va saytlarda faollik, vizual yuklama, texnostress kabi omillar insonlarning

psixik salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, charchoq, e’tibor yetishmovchiligi, stress, hatto psixo-somatik alomatlarga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, raqamli muhitda o‘qiyotgan talabalar psixik salomatligini tadqiq qilish dolzarb masala sanaladi.

Ko‘plab tadqiqotlar raqamli muhitda ta’lim oluvchi shaxslarning diqqatni jamlash qobiliyatida pasayish, raqamli charchash sindromi, emotsional zaiflashuv kabi salbiy holatlarni aniqlagan. Biroq O‘zbekiston sharoitida bu holatlarning chuqur psixologik tahlili yyetarli darajada o‘rganilmagan.

Tadqiqot muammosining mohiyatini tahlil qilishdan avval, mavzuning nazariy asoslarini aniqlashtirish maqsadida unda asosiy o‘rin tutuvchi “psixik salomatlik”, “kognitiv ta’sir” va “emotsional ta’sir” kabi atamalarning mazmun-mohiyatini konseptual jihatdan ochib berish zarur.

Psixik salomatlik — bu insonning ruhiy farovonlik holati bo‘lib, u shaxsga hayotdagi stressli vaziyatlarni yyengib o‘tish, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish, muvaffaqiyatli ta’lim olish va mehnat qilish, shuningdek, jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkonini beradi. Psixik salomatlik — bu sog‘liq va rivojlanishning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u bizning shaxsiy va jamoaviy qarorlar qabul qilish, munosabatlar qurish hamda yashayotgan jamiyatni shakllantirish qobiliyatlarining asosi hisoblanadi. Psixik salomatlik — bu insonning asosiy huquqlaridan biridir. Shu bilan birga, u shaxsiy, ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi[7].

Bugungi raqamli ta’lim muhiti psixik salomatlik masalasiga yangicha qarashni talab etmoqda. An’anaviy yondashuvlarda psixik salomatlik, odatda, shaxsning hissiy barqarorligi va stressga bardoshlilik darajasi bilan ifodalansa, bizningcha, bu tushuncha raqamli ta’lim kontekstida yanada kengroq talqin etilishi lozim. Chunki virtual muhitdagi uzluksiz muloqot, ekran bilan o‘zaro doimiy aloqadorlik, tananing harakatsiz holati, shaxsiy makon va vaqtning buzilishi – bularning barchasi psixik salomatlikning faqat emotsional emas, balki kognitiv barqarorlik jihatini ham taqozo etadi.

Shuni ta’kidlash joizki, talabaning raqamli ta’limdagi psixik holati nafaqat ichki hissiy reaksiya, balki tashqi raqamli ta’sirlar bilan shakllanuvchi murakkab psixo-pedagogik tizimdir. Shuning uchun, bizning nuqtai nazarimizga ko‘ra, psixik salomatlik raqamli ta’limda o‘zini faollikda namoyon etish, kognitiv yuklamani boshqarish, hissiy-ijtimoiy muvozanatni saqlay olish va o‘zini ijtimoiy muhit a’zosi sifatida anglashi kabi mezonlar orqali baholanishi kerak. Bu esa raqamli o‘quv muhitida inson resurslarini kompleks qo‘llab-quvvatlashni talab etadi.

Raqamli ta’lim muhitining talabalarga ta’sirini baholashda “kognitiv ta’sir” tushunchasini aniq va ilmiy asosda tushunib olish zarur. “Cognitive Psychology – College of the Canyons” darsligida keltirilganidek, kognitsiya — bu “fikrlash” jarayonidir va u idrok, bilim, muammoni hal qilish, baholash, til va xotira bilan bog‘liq psixik faoliyatlarni qamrab oladi[1, p.3]. Ushbu ta’rifdan kelib chiqib, kognitiv ta’sir deganda, aynan shu jarayonlarga raqamli muhit orqali ijobiy yoki salbiy ko‘rsatiladigan o‘zgarishlar tushuniladi. Misol uchun, uzoq vaqt davomida ekran qarshisida bo‘lish e’tiborning susayishiga olib kelishi, yoki mos o‘quv texnologiyalarining qo‘llanilishi fikrlash faoliyatining faollashishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ta’lim oluvchi ongida bilimni anglash, uni tahlil qilish va xotirada saqlash jarayonlari turli tashqi omillarga sezgir bo‘ladi. Ayniqsa, sun’iy muhitda yuzaga keladigan ma’lumotlar oqimi, vizual va eshituv yuklamalarning uyg‘unlashmaganligi, diqqat resurslarini tezda egallab, fikrning tarqoqlashuviga olib keladi. Bu holat o‘quv faoliyatida kognitiv tizimga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Talabaning bilimga bo‘lgan ongli munosabati susayadi, axborotni idrok etish va chuqur o‘zlashtirish qiyinlashadi.

Bosh miya faoliyatining haddan tashqari bandligi sababli fikrlash tezligining pasayishi, tanqidiy yondashuvdagi sustlik va xotira yetishmovchiligi kuzatiladi. O‘qitish jarayonida ko‘p manbaali axborotni bir vaqtda qabul qilish ehtiyoji — e’tiborning bo‘linishiga, kognitiv yuklamaning ortishiga olib keladi. Bu esa nafaqat ta’lim samaradorligini pasaytiradi, balki talabaning psixik holatida ham emotsional charchoq, ruhiy tushkunlik va faoliyatdan chekinish kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ta’lim jarayonida emotsional javoblar – bu shunchaki hissiyot bo‘lib qolmay, ularning kognitiv va sotsiopsixologik jarayonlarga sezilarli ta’siri mavjud. Emotsional ta’sir – bu shaxsning ichki holatlari, ya’ni quvonch, xavotir, motivatsiya va boshqa hissiyotlar orqali e’tibor, xotira va qaror qabul qilish kabi kognitiv jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadigan psixologik holatdir[5, p.3-6]. Masalan, kuchli

ijobiy yoki salbiy hissiyotlar diqqatni jamlash va xotirada axborotni saqlashga bevosita ta'sir etadi. Bu holat ta'lim jarayonida talabaning ruhiy holati va o'quv faolligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi.

Emotsional ta'sir shuningdek, qaror qabul qilish, muammolarni hal etish va ijtimoiy muloqotdagi samaradorlikni ham belgilab beradi. Immordino-Yang va Damasio[4] o'z izlanishlarida emotsiyalar va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi integrativ munosabatni asoslab berishgan. Ular ta'lim muhitidagi emotsional holat o'quvchining o'quvga bo'lgan motivatsiyasini oshirishi yoki pasaytirishi mumkinligini ta'kidlashgan. Shu sababli, emotsional ta'sirni o'lchash va uni boshqarish ta'lim tizimida nafaqat akademik, balki psixologik yondashuvlarning uyg'unligida qaralishi zarur.

Emotsional ta'sir deganda ma'lum bir omil yoki jarayonning insonning hissiy holatiga ko'rsatadigan ta'siri tushuniladi. Bunday ta'sir natijasida shaxsda muayyan his-tuyg'ular paydo bo'ladi yoki uning kayfiyati hamda emotsional holati o'zgaradi. Emotsional ta'sir insonning kayfiyati va ruhiy barqarorligiga daxldor bo'lib, ta'sir ko'rsatuvchi omilning xususiyatiga ko'ra ijobiy yoxud salbiy bo'lishi mumkin. Masalan, qo'llab-quvvatlovchi va ijobiy hodisalar odamda quvonch hamda xotirjamlik hissini uyg'otishi mumkin. Aksincha, zararli yoki stressli omillar qo'rquv, bezovtalik yoki tushkunlik kabi salbiy emotsiyalarni keltirib chiqaradi. Raqamli ta'lim muhiti sharoitida ham emotsional ta'sir masalasi dolzarb sanaladi. Texnologiyadan uzluksiz foydalanish va axborot oqimining mo'lligi talabalarning hissiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada, bunday sharoitda talabalarda charchoq, stress va emotsional toliqish kabi salbiy hissiy holatlar yuzaga kelishi mumkin. Shu bilan birga, to'g'ri tashkil etilgan raqamli ta'lim jarayoni ayrim hollarda talabalarda qiziqish va motivatsiyani oshirib, ijobiy emotsional ko'tarinkilikni vujudga keltirishi mumkin. Raqamli muhitning emotsional ta'siri talabalarning umumiy psixik salomatligi hamda o'quv jarayonidagi samaradorligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

COVID-19 pandemiyasi ta'lim jarayonini butkul raqamli muhitga o'tkazdi va bu holat talabalarning psixik salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Fauville va hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotda, "Zoom charchoqligi" (Zoom orqali charchash holati) videoaloqa orqali ta'lim olish natijasida yuzaga keladigan kognitiv va emotsional charchoq sifatida tavsiflanadi: "Zoom charchoqligi bu videoaloqa mashg'ulotlarida qatnashishdan kelib chiqadigan toliqish holatidir"[3]. Tadqiqotchilar ushbu holatni oddiy ekranga tikilish emas, balki virtual muloqotdagi o'ziga xos fazoviy dinamikalar va doimiy o'z-o'zini kuzatish bilan bog'laydilar.

Nadler[6] Zoom platformasida muloqotning to'rt asosiy o'lchami o'zgarganini ko'rsatgan: uzoq tikilish va yaqinlik o'rtasidagi nomutanosiblik, sun'iy noverbal ishoralar, o'z tasvirini doimiy ko'rish (o'zini ekranda kuzatishdan kelib chiqadigan stress) va jismoniy harakat cheklanishi. Nadlerning fikriga ko'ra "Odamlar o'zlarining og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlarini ongli ravishda nazorat qilishlari va boshqa ishtirokchilarga ishoralarni ataylab yetkazishlari kerak[6]". Bu esa tabiiylikni yo'qotadi va insonning aqliy resurslaridan ortiqcha foydalanilishiga olib keladi. Bundan tashqari, hissiy charchoq ham kuchayadi.

Raqamli ta'limning uzoq muddatli qo'llanilishi talabalarning ruhiy holatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Deep va Chen[2] o'z tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar orasida pandemiya davrida keng tarqalgan, raqamli ekranlarga uzoq vaqt tikilish va uzluksiz onlayn topshiriqlar natijasida yuzaga keladigan aqliy va hissiy charchoq holatini asosiy stress manbaalaridan biri sifatida ko'rsatadilar. Ularning fikricha, raqamli ekranlarga haddan tashqari tikilish va uzluksiz onlayn akademik vazifalar talabalarda kognitiv charchoq va hissiy uzilishlarga sabab bo'lmoqda. Ushbu natijalar Fauville tomonidan qayd etilgan Zoom charchoqligi fenomeniga mos keladi, va bu raqamli muhitda uzluksiz muloqot, monitoring va o'z-o'zini kuzatish psixik salomatlikka salbiy ta'sir o'tkazishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Psixologlarning fikriga ko'ra oliy ta'lim muassasalari tomonidan akademik va emotsional qo'llab-quvvatlash yetishmagan sharoitda talabalarda yolg'izlik, xavotir va charchoq holatlari kuchayadi. Bu holat raqamli ta'lim muhitida talabalarning emotsional barqarorligi ta'lim sifati bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Shu bois, raqamli ta'lim modellarini ishlab chiqishda nafaqat texnologik qulaylik, balki psixologik himoya, hissiy barqarorlik va insonparvar yondashuv muhim mezonlar sifatida qaralishi lozim.

Shuningdek, raqamli ta’limda hissiy muhitning sifati talabaning o‘zini anglash darajasi va ichki motivatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Doimiy raqamli aloqa, vazifalarning takroriyligi va shaxsiy makonning chegaralanishi talabaning emotsional holatida beqarorlik, ruhiy siqilish va charchoq holatlarini kuchaytiradi. Ayniqsa, interaktivlikdan yiroq bo‘lgan, faqat topshiriq asosida qurilgan o‘quv faoliyati hissiy uzilish, ishtirokni pasaytirish va ijtimoiy ajralish holatlarini keltirib chiqaradi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifati va talabaning o‘zlashtirish darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bunday holatlarning oldini olishda hissiy xavfsizlik, samarali muloqot va ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirish zarur bo‘ladi. Talabaning raqamli muhitda o‘zini qadrlangan, eshitilgan va psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlangan deb his qilishi — uning emotsional barqarorligini mustahkamlovchi asosiy omillardandir. Bu esa nafaqat individual ruhiy farovonlikni, balki guruhdagi umumiy o‘quv muhitining sifati va ijtimoiylashuv darajasini ham belgilab beradi. Shu bois, zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan bir qatorda, insonparvarlikka asoslangan pedagogik yondashuvlar hamda emotsional salomatlikni qo‘llab-quvvatlovchi amaliy mexanizmlar joriy etilishi zarur.

Yuqorida olib borilgan tahlillar raqamli ta’lim muhitining talabalarning psixik salomatligiga ko‘rsatadigan kognitiv va emotsional ta’siri murakkab va ko‘p qirrali jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Raqamli vositalarning uzluksiz qo‘llanilishi, vizual yuklama, texnostress, o‘z-o‘zini doimiy kuzatish, ijtimoiy ajralish va interaktivlikning yetishmasligi kabi omillar nafaqat e’tibor va xotira kabi kognitiv funksiyalarni zaiflashtiradi, balki talabalarda ruhiy charchoq, motivatsiya pasayishi, depressiv holatlar va emotsional toliqishni ham keltirib chiqaradi. Bu holatlarning chuqur psixologik asoslari zamonaviy kognitiv va emotsional psixologiya yondashuvlari orqali tahlil qilinishi lozim.

Shu munosabat bilan, raqamli ta’limni takomillashtirish jarayonida nafaqat texnologik imkoniyatlar, balki talabaning psixik barqarorligi, emotsional xavfsizligi, o‘zini anglash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi ham inobatga olinishi kerak. Raqamli muhitda o‘quvchi faoliyatini barqaror tutish uchun pedagogik yondashuvlar psixologik va ijtimoiy mezonlar bilan uyg‘unlashtirilishi zarur. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim sifati va talaba shaxsining sog‘lom rivojlanishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Andrade M., Walker N. Cognitive Psychology. College of the Canyons – Zero Textbook Cost Program. 2020. – 271 p. – p. 3. – CC BY 4.0. – URL:https://www.canyons.edu/_resources/documents/academics/onlineeducation/Psych126TextbookFinalV1_2.pdf

2. Deep P.D., Chen Y. Student Burnout and Mental Health in Higher Education During COVID-19: Online Learning Fatigue, Institutional Support, and the Role of Artificial Intelligence // Higher Education Studies. – 2025. – Vol. 15, No. 2. – P. 381–395. – DOI: https://doi.org/10.5539/hes.v15n2p381

3. Fauville G., Luo M., Queiroz A.C.M., Bailenson J.N., Hancock J. Zoom Exhaustion & Fatigue Scale // Technology, Mind, and Behavior. – 2021. – Vol. 2, No. 1. – P. 1–20. – DOI: https://doi.org/10.1037/tmb0000039

4. Immordino-Yang, M. H.; Damasio, A. We feel, therefore we learn: The relevance of affective and social neuroscience to education // Mind, Brain, and Education. – 2007. – T. 1, № 1. – B. 3–10.– DOI: https://doi.org/10.1111/j.1751-228X.2007.00004.x

5. Izard, C. E. Emotion theory and research: Highlights, unanswered questions, and emerging issues // Annual Review of Psychology. – 2009. – T. 60. – B. 1–25.– DOI: https://doi.org/10.1146/annurev.psych.60.110707.163539

6. Nadler R. Understanding “Zoom fatigue”: Theorizing spatial dynamics as third skins in computer-mediated communication // Computers and Composition. – 2020. – Vol. 58. – P. 1–3. – DOI: https://doi.org/10.1016/j.compcom.2020.102613

7. Психическое здоровье / Информационный бюллетень. Всемирная организация здравоохранения. Центр СМИ (апрель 2016). https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/mental-health-strengthening-our-response

Qodirova Odina Djurabayevna

Andijon davlat universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasi dotsenti
E-mail:qodirova@mail.ru

IJTIMOIY TARMOQLARNING SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANISHIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy ishda ijtimoiy tarmoqlarning shaxs emotsional intellektiga ta'siri psixologik nuqtai nazardan o'rganildi. Tadqiqot davomida yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi aniqlanib, ularning emotsional intellekt ko'rsatkichlari bilan bog'liqligi statistik va psixologik tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlarda uzoq vaqt sarflovchi ishtirokchilarning emotsional sezgirligi va empatiya darajasi pastroq bo'lib chiqqan. Emotsional intellekt va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish davomiyligi o'rtasida salbiy korrelyatsiya mavjudligi aniqlangan. Tadqiqot asosida shaxsda emotsional intellektni shakllantirish va ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanishni targ'ib qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so'zlar; *ijtimoiy tarmoqlar, emotsional intellekt, psixologik ta'sir, empatiya, yoshlar, muloqot, hissiy ong, shaxs rivojlanishi, digital muhit, psixologik farovonlik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА РАЗВИТИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *Данное научное исследование посвящено изучению психологического влияния социальных сетей на развитие эмоционального интеллекта людей. В ходе исследования был проведен анализ ежедневного использования социальных сетей молодыми пользователями и его корреляции с уровнем эмоционального интеллекта. Результаты показали, что участники, которые проводили больше времени в социальных сетях, как правило, имели более низкий уровень эмоциональной чувствительности и эмпатии. Была обнаружена статистически значимая отрицательная корреляция между эмоциональным интеллектом и продолжительностью использования социальных сетей. На основе полученных результатов были разработаны практические рекомендации по развитию эмоционального интеллекта и пропаганде сознательного и ответственного использования социальных сетей среди молодежи.*

Ключевые слова: *социальные сети, эмоциональный интеллект, психологическое воздействие, эмпатия, молодежь, общение, эмоциональная осведомленность, личностное развитие, цифровая среда, психологическое благополучие.*

PSYCHOLOGICAL IMPACT OF SOCIAL NETWORKS ON THE DEVELOPMENT OF EMOTIONAL INTELLIGENCE OF THE INDIVIDUAL

Annotation. *This scientific research explores the psychological impact of social networks on the development of individuals' emotional intelligence. The study involved an analysis of young users' daily usage of social media and its correlation with emotional intelligence levels. The results revealed that participants who spent more time on social networks tended to have lower levels of emotional sensitivity and empathy. A statistically significant negative correlation was found between emotional intelligence and the duration of social media use. Based on the findings, practical recommendations were developed to foster emotional intelligence and promote conscious and responsible use of social networks among youth.*

Keywords: *social networks, emotional intelligence, psychological impact, empathy, youth, communication, emotional awareness, personal development, digital environment, psychological well-being.*

Kirish So'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Telegram, TikTok, Facebook va boshqalar) odamlararo muloqot, axborot almashinuvi va o'zini ifoda etishning asosiy vositasiga

aylangan. Shu bilan birga, bu tarmoqlar shaxsning emotsional intellekti — ya'ni o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish va boshqalarning emotsiyalariga nisbatan sezgirlik qobiliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani psixologik tadqiqotlar uchun dolzarb masalaga aylandi. Mazkur maqola ijtimoiy tarmoqlar faoliyatining emotsional intellekt rivojiga ijobiy va salbiy ta’sirlarini aniqlash, yoshlar orasida bu jarayonning xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, yoshlar orasida bu platformalarning ommalashuvi nafaqat muloqot shaklini, balki psixologik jarayonlarga, jumladan emotsional intellekt rivojlanishiga ham sezilarli darajada ta'sir ko‘rsatmoqda. Emotsional intellekt insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglay olishi, boshqarishi, boshqa insonlarning emotsiyalarini tushunishi va ular bilan samarali munosabatda bo‘la olish qobiliyati sifatida ta'riflanadi. Bu tushuncha ilk bor P. Salovey va J. Mayer tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lsa-da, keyinchalik D. Goleman tomonidan keng ommalashtirilgan[1].

Bugungi kunda psixologlar emotsional intellektni insonning shaxsiy muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuvchanligining muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etishmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, virtual muloqotning real hayotdagi emotsional tajribalarga qanday ta'sir qilayotgani dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda. Chunki ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilayotgan muloqot ko‘pincha emotsional yondashuvdan xoli, qisqa, yuzaki va ba’zan manipulyativ shaklda kechadi[2]. Bu holat esa yoshlarning emotsional sezgirligini pasaytirishi yoki sun'iy emotsiyalarga ko‘nikishiga sabab bo‘lishi mumkin. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlarda doimiy ishtirok etish odamlarning o‘zini ifoda etish, empatiya qilish va ijtimoiy signalni anglash qobiliyatiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, shaxs rivojlanish bosqichida bo‘lgan o‘smirlar va talaba yoshidagilarda bu ta’sirlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlarning shaxs emotsional intellektiga ko‘rsatadigan psixologik ta’sirini chuqurroq o‘rganish zarurati ortib bormoqda.

Demak, ijtimoiy tarmoqlarning shaxs emotsional intellektiga ta’sirini aniqlash, uning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilish, shuningdek, ushbu omillarni hisobga olgan holda psixologik tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi insonlarning o‘zaro muloqot qilish, shaxsiy fikr bildirish va ijtimoiy aloqalarni saqlash shakllarini tubdan o‘zgartirdi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar — Facebook, Instagram, Telegram, TikTok kabi platformalar nafaqat axborot almashish maydoniga, balki shaxslararo munosabatlar, emotsional ifoda va psixologik tajribalarni boshqarish muhitiga aylangan. Bu muhitning o‘ziga xos tomoni shundaki, foydalanuvchi virtual muloqot orqali o‘zini istagancha namoyish eta oladi, biroq bu har doim ham haqiqiy emotsiyalarni ifodalay olmaydi.

Psixologik jihatdan, ijtimoiy tarmoqlar shaxsga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

O‘zini ifoda etish va tanitish (identifikatsiya qilish);

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash olish;

Emotsional tushkunlikni yengillashtirish;

Jamoaga tegishlilik hissini kuchaytirish.

Biroq bu imkoniyatlar bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqlar turli salbiy ta'sirlarni ham yuzaga keltirishi mumkin: o‘zini boshqalar bilan solishtirish, yolg‘on ideal obrazlarga ergashish, emotsional charchash, virtual muloqotga haddan ziyod bog‘lanish va boshqalar.

Emotsional intellekt tushunchasi ilk bor P. Salovey va J. Mayer tomonidan 1990-yillarda ilgari surilgan bo‘lib, insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, ularni boshqarish, boshqa insonlarning emotsiyalarini tushunish va ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo‘lish qobiliyati sifatida ta'riflanadi. Keyinchalik, D. Goleman ushbu tushunchani kengaytirib, uni inson muvaffaqiyatining muhim psixologik omili sifatida ko‘rsatdi.

Emotsional intellekt quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

O‘z his-tuyg‘ularini anglash – ichki emotsiyalarni sezish va nomlash qobiliyati;

Emotsiyalarni boshqarish – hissiyotlar ustidan nazorat o‘rnatish va salbiy holatlardan chiqib ketish;

O‘zini motivatsiya qilish – ichki energiya va ijobiy munosabatni saqlab qolish;

Empatiya – boshqalarning emotsiyalarini tushunish va ularga nisbatan sezgir bo‘lish;

Ijtimoiy ko‘nikmalar – samarali muloqot, konfliktlarni hal qilish va jamoa bilan ishlash malakasi.

Emotsional intellekt yuqori bo‘lgan shaxslar odatda barqaror psixologik holatga ega, stress holatlarini samarali yyengib o‘tadi va ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Ijtimoiy tarmoqlar shaxs emotsional intellektining rivojlanishiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi: bu ijobiy va salbiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtirok etuvchi shaxslar o‘z emotsiyalarini tez-tez ifodalaydi, boshqa foydalanuvchilarning fikr va kayfiyatiga bevosita javob qaytaradi, bu esa empatiya va emotsional sezgirlikni oshirishga yordam beradi.

Boshqa tomondan esa, virtual muloqotda mimika, intonatsiya, tana tili kabi muhim emotsional signallar yo‘qoladi. Bu esa haqiqiy ijtimoiy his-tuyg‘ularni anglash va boshqarish qobiliyatining susayishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar orasida noto‘g‘ri ideal obrazlar, "layk" va izohlarga qaramlik holatlari kuzatiladi, bu esa shaxsiy o‘z-o‘zini baholash, o‘ziga ishonch va ichki motivatsiyani pasaytiradi.

Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlarning shaxs emotsional intellektiga ta’siri murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, uni chuqur tahlil qilish orqali zamonaviy psixologiyada dolzarb muammolardan birini yoritish mumkin bo‘ladi.

Metodologiya (Methods) Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi bilan shaxs emotsional intellekti o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, ularning o‘zaro ta’sir mexanizmlarini psixologik tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish chastotasi va uslublarini aniqlash;

Tadqiqot ishtirokchilarining emotsional intellekt darajasini baholash;

Ijtimoiy tarmoq faoliyati bilan emotsional intellekt o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni statistik jihatdan aniqlash.

Tadqiqot Toshkent shahri oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan 18–25 yoshdagi 120 nafar talaba orasida o‘tkazildi.

Tadqiq ishtirokchilari “ijtimoiy tarmoqlardan faqat muloqot va ko‘ngilochar maqsadlarda foydalanuvchilar” hamda “o‘zini rivojlantirish, ta’lim olish va hissiy aloqa uchun foydalanuvchilar” deb ikki guruhga ajratildi.

Natijalar (Results) Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘zini rivojlantirish va hissiy tushunishni maqsad qilgan foydalanuvchilarning emotsional intellekt ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ldi ($p < 0.01$).

Doimiy ravishda faqat ko‘ngilochar kontent iste'mol qiluvchi foydalanuvchilarda esa emotsional o‘zini anglash va boshqalarning emotsiyasini tushunish darajasi past bo‘lib chiqdi. Korrelyatsiya tahlili ijtimoiy tarmoqdan foydalanish sifati bilan emotsional intellekt komponentlari o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik borligini ko‘rsatdi ($r = 0.62$).

Ishtirokchilarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi		
So‘rovnomadan olingan natijalarga ko‘ra, ishtirokchilarning ijtimoiy tarmoqlarga bo‘lgan qiziqishi quyidagicha taqsimlandi:		
Foydalanish davomiyligi (kuniga)	**Ishtirokchilar soni**	**Ulushi (%)**
1 soatdan kam	12	12%
1–3 soat	34	34%
3–5 soat	28	28%
5 soatdan ko‘p	26	26%

Statistik tahlil: O‘rtacha foydalanish vaqti: 3–4 soat atrofida. Minimal ko‘rsatkich: 1 soatdan kam (12%) Maksimal ko‘rsatkich: 5 soatdan ko‘p (26%)

Eng ko‘p uchraydigan oraliq: 1–3 soat (34%) Ko‘pchilik (54%) ishtirokchilar ijtimoiy tarmoqlarda kuniga 3 soatdan ko‘proq vaqt o‘tkazadi.

Psixologik tahlil: Kam vaqt sarflovchilar (1 soatdan kam): Ushbu guruh vakillari ijtimoiy tarmoqlarni asosan zarurat tufayli yoki cheklangan maqsadlarda foydalanadi. Ular orasida emotsional intellekt ko‘rsatkichlari nisbatan yuqoriroq bo‘lishi mumkin, chunki ular real hayotiy tajribaga va jonli muloqotga ko‘proq e’tibor qaratishadi.

O‘rtacha foydalanuvchilar (1–3 soat): Bu guruhda tarmoqlardan foydalanish nisbatan muvozanatli bo‘lib, shaxsning emotsional va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda foydali bo‘lishi mumkin. Bu oraliqda foydalanish o‘zini boshqarish va hissiyotlarni anglash darajasiga zarar yetkazmaydi.

Katta hajmdagi foydalanuvchilar (3–5 soat va 5+): Ushbu guruh vakillarida emotsional charchoq, hissiy beqarorlik, muloqotda sun’iylik, haddan tashqari o‘zini namoyon qilish istagi (self-presentation) ko‘proq kuzatiladi. Bu esa emotsional intellekt darajasining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, bu guruhga mansub yoshlar orasida real ijtimoiy aloqalardan chekinish, ijtimoiy taqqoslash, shaxsiy qadriyatlar buzilishi kabi psixologik muammolar aniqlanish ehtimoli yuqori.

So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, aksariyat ishtirokchilar ijtimoiy tarmoqlarda kuniga 3 va undan ortiq soat vaqt o‘tkazadi (54%). Bu esa emotsional intellekt rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan asosiy xavf omili sifatida baholanadi. Ayniqsa, uzoq vaqt virtual kontent iste’mol qilish shaxsning real hayotdagi emotsional reaksiyalarini sun’iylashtiradi, empatiya darajasini pasaytiradi va psixologik farovonlikni susaytiradi. Shuningdek, foydalanuvchilarning asosiy maqsadlari (ko‘ngil ochar kontent, muloqot, izohlash, baham ko‘rish) ularning psixologik holatiga bevosita ta’sir qiladi. Aynan kontent sifati va foydalanish konteksti ham emotsional intellekt shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Munozara (Discussion) Natijalar ijtimoiy tarmoqdan foydalanishning shaxs psixologik rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Maqsadli va ongli foydalanish shaxsning emotsional savodxonligini oshiradi, muloqot madaniyati va empatiya darajasini kuchaytiradi. Boshqa tomondan, haddan tashqari vaqt sarflash va passiv kontent iste’moli emotsional faollikni pasaytiradi va stress darajasini oshiradi.

Bu holat Goulman va Mayer & Salovey tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt nazariyalarini qo‘llab-quvvatlaydi: ya’ni ijtimoiy muhit, ayniqsa raqamli muhit, his-tuyg‘ularni o‘rganish va boshqarishda muhim omildir.

Xulosa (Conclusion) Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy tarmoqdan foydalanish uslubi shaxsning emotsional intellektiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsiy o‘sish, ta’lim va hissiy muloqotga yo‘naltirilgan foydalanish ijobiy natijalar beradi. Shuning uchun yoshlar orasida raqamli savodxonlik, emotsional madaniyat va ongli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Hozirgi axborot-kommunikatsiya asrida inson hayotining deyarli barcha sohalariga internet va ijtimoiy tarmoqlarning kirib kelgani shaxsiy rivojlanish, ayniqsa emotsional intellektning shakllanish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning emotsional intellektga ta’siri psixologik jihatdan o‘rganildi hamda nazariy va empirik tahlillar orqali muhim ilmiy asoslar ishlab chiqildi.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Emotsional intellekt – shaxsning muhim psixologik ko‘rsatkichi bo‘lib, u insonning o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish, boshqalarni tushunish va moslashuvchan muloqot olib borish qobiliyatini aks ettiradi. Mazkur qobiliyat ijtimoiy hayotda muvaffaqiyat, ijtimoiy moslashuv va psixologik barqarorlik uchun zarur hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlar ikkiyoqlama ta’sirga ega:

Ijobiy jihatdan, ular tezkor axborot almashish, o‘zini ifodalash, empatiyani rivojlantirish, emotsional qo‘llab-quvvatlash olish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Salbiy jihatdan esa, ijtimoiy tarmoqlarga bog‘lanib qolish, sun’iy taqqoslash, virtual aloqalarga haddan ortiq ishonch, shaxsiy chegaralarning buzilishi, emotsional charchoq va stress holatlarini kuchaytiradi.

Empirik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

Tadqiqotda qatnashgan ishtirokchilarning 54 foizi ijtimoiy tarmoqlarda kuniga 3 soatdan ortiq vaqt o‘tkazadi.

N.Holl testi asosida aniqlanishicha, ishtirokchilarning katta qismi o‘rtacha darajadagi emotsional intellektga ega bo‘lsa-da, ko‘p vaqt tarmoqda bo‘lganlarning EI darajasi pastroq bo‘lib chiqdi.

Person korrelyatsion tahlili asosida ijtimoiy tarmoqdan foydalanish davomiyligi bilan emotsional intellekt o‘rtasida $r = –0.43$ miqdorida salbiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi ($p < 0.01$).

Gender, yosh va foydalanish maqsadlari omillarining ham emotsional intellekt shakllanishiga bilvosita ta’siri mavjud. Ayniqsa, mazmunan boy, ta’limiy va interaktiv kontent emotsional qobiliyatlarni rivojlantiradi, lekin maqsadsiz va passiv iste’mol psixologik salomatlikka zarar yetkazadi.

Toirova Munavvar Murodullayevna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktaranti

O‘SMIRLARDA MILLIY O‘ZLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smirlik davrida milliy o‘zlikni shakllantirishning psixologik mexanizmlari har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqotda shaxsiy identitet, ijtimoiy identifikatsiya, reflektiv tafakkur va axborot muhitining milliy o‘zlikka ta’siri psixologik jihatdan yoritilgan. Muallif milliy o‘zlikni faqat etnik belgilar bilan emas, balki o‘smirning ichki dunyosi, shaxsiy refleksiyasi va ijtimoiy-madaniy o‘zaro ta’siri bilan bog‘laydi. Milliy identitetning shakllanishida oila, maktab, do‘stlar guruhi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar asosiy ta’sir omillari sifatida ko‘rsatilgan. Maqolada milliy o‘zlikni shakllantirishda hissiy-motivatsion tayanchlar, shaxsiy pozitsiya va metakognitiv ko‘nikmalarning ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlik davri, milliy o‘zlik, shaxsiy identitet, ijtimoiy identifikatsiya, refleksiya, psixologik mexanizmlar, madaniy identitet.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье будет проведен всесторонний анализ психологических механизмов формирования национальной идентичности В подростковом возрасте. В исследовании психологически освещается влияние личности, социальной идентичности, рефлексивного мышления и информационной среды на национальную идентичность. Автор связывает национальное самосознание не только с этническими признаками, но и с внутренним миром подростка, его личностной рефлексией и социокультурным взаимодействием. Семья, школа, группа друзей, средства массовой информации и социальные сети были названы основными факторами влияния на формирование национальной идентичности. В статье обосновывается важность эмоционально-мотивационных основ, личностной позиции и метакогнитивных навыков в формировании национальной идентичности.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, национальная идентичность, личная идентичность, социальная идентичность, рефлексия, психологические механизмы, культурная идентичность.*

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF NATIONAL SELF-FORMATION IN ADOLESCENTS

Annotation. *This article comprehensively analyzes the psychological mechanisms of the formation of the national self in adolescence. The study psychologically covered the effects of personal identity, social identity, reflective thinking, and the information environment on national identity. The author connects the national self not only with ethnic characters, but also with the Inner World, personal reflection and sociocultural interaction of the teenager. In the formation of national identity, family, school, group of friends, media and social media are cited as the main factors of influence. The article is based on the importance of emotional-motivational supports, personal position and metacognitive skills in the formation of the national self.*

Keywords: *adolescence, national identity, personal identity, social identity, reflection, psychological mechanisms, cultural identity.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida yosh avlodning milliy o‘zligiga bo‘lgan munosabatini shakllantirish, ularning etnik, madaniy va tarixiy ildizlarga asoslangan shaxsiy identifikatsiyasini mustahkamlash dolzarb psixologik masalalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, o‘smirlik davri inson hayotidagi eng nozik va muhim bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda shaxsda “Men kimman?”, “Qaysi xalq vakiliman?”, “Qaysi qadriyatlarga tayanaman?” kabi o‘zlikni anglashga doir savollar keskin namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonlar shaxsiy o‘zgarishlar, ijtimoiy ta’sirlar va psixologik ehtiyojlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, milliy o‘zlikni shakllantirish psixologik jihatdan murakkab va ko‘p omilli dinamik tizimdir. O‘smirlarning milliy o‘zligini shakllantirishda oilaviy muhit,

maktabdagi tarbiyaviy ishlar, ijtimoiy aloqalar, ommaviy axborot vositalari, ayniqsa internet maydonidagi ko‘p qirrali axborot oqimi muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, o‘smirlarda milliy identitetning psixologik asoslarini chuqur o‘rganish, ularni rivojlantiruvchi mexanizmlarni aniqlash, bu boradagi tashqi va ichki omillarni psixologik jihatdan tahlil qilish hozirgi davr uchun zarur bo‘lgan ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, o‘z millatini tan olish, unga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lish va milliy qadriyatlarni shaxsiy hayot mezonlariga aylantira olish refleksiv tafakkur, hissiy barqarorlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy identifikatsiya kabi bir qator psixologik omillar bilan bevosita bog‘liq.

Adabiyotlar tahlili. O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va psixologik jihatdan dinamik bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda shaxsiy identitet, ijtimoiy o‘zlik, shaxslararo munosabatlar va madaniy identifikatsiya jarayonlari keskin faollashadi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy adabiyotlarda milliy o‘zlikni shakllantirish jarayoni turli yo‘nalishlarda tahlil qilingan bo‘lib, mualliflar bu jarayonning psixologik mexanizmlariga individual, sotsiokulturniy va kognitiv yondashuvlar orqali izoh berishgan.

E.Erikson milliy o‘zlikning shakllanishini shaxsiy identitetning rivojlanish bosqichlaridan biri sifatida izohlaydi. Uning fikricha, o‘smirlikda shaxs “Men kimman?” degan savolga javob izlar ekan, bu izlanishda u o‘zining ijtimoiy, madaniy, tarixiy va milliy kontekstdagi o‘rnini aniqlashga harakat qiladi. Erikson milliy identitetni psixososial identitetning ajralmas qismi sifatida ko‘radi, bu esa o‘smirlar uchun milliy qadriyatlarni qabul qilish va ularni ichki me’zon sifatida o‘zlashtirish zarurligini anglatadi.

J.Marshiya milliy identitetni tanlash va unga sodiqlikni anglatuvchi ikki yo‘nalishli jarayon sifatida talqin etadi. Unga ko‘ra, o‘smirlar identitet izlanishlari jarayonida turli madaniy va ijtimoiy guruhlarga nisbatan daxldorlik hissini sinab ko‘radilar. Agar bu sinovlar ongli va izchil kechsa, ular o‘z milliy guruhiga nisbatan ijobiy hissiyotlar va sadoqatni shakllantiradilar. Bu psixologik barqarorlik esa sog‘lom milliy identitetning shakllanishiga zamin yaratadi.

T.Sarbin va V.Scheibe tomonidan ishlab chiqilgan “narrativ identitet” konsepsiyasi asosida shaxs o‘z hayotini ma’lum bir voqeliklar doirasida hikoya sifatida qayta quradi. Bu yondashuv milliy o‘zlikni ham narrativ konstruksiya sifatida talqin qiladi. O‘smirlar o‘z millati, xalqi, tarixiy ildizlari haqida ma’lumotlarni shaxsiy “hikoya”ga aylantirgan sayin, ular o‘zlarining etnik daxldorligini chuqurroq anglaydilar. Natijada, milliy o‘zlik faqat tashqi belgilar (til, madaniyat, urf-odat) bilan emas, balki ichki hissiy-hikoyaviy asoslar bilan bog‘liq bo‘ladi.

F.Berry tomonidan ishlab chiqilgan akkulturatsiya nazariyasida milliy identitet boshqa madaniy guruhlar bilan muloqot natijasida o‘zgarishi va shakllanishi mumkinligi ta’kidlanadi. Bu yondashuv ayniqsa ko‘p madaniyatli muhitda o‘sayotgan o‘smirlar uchun muhimdir. Ular bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq madaniy normalarni o‘zlashtirishi mumkin, bu esa identitetda muvozanat yoki ziddiyatni keltirib chiqaradi. Shunday muhitda sog‘lom milliy o‘zlikni shakllantirish uchun o‘smirga psixologik qo‘llab-quvvatlov, ijtimoiy ko‘mak va identitetga doir aniq yo‘nalish zarur.

M.Bennett madaniyatlararo sezgirlik nazariyasida shaxsning o‘z va begona madaniyatni qanday qabul qilishi orqali identitet shakllanishi haqida izoh beradi. Unga ko‘ra, etnik identitet rivoji uchun birinchi bosqich — o‘z madaniyatiga sezgirlik va unga nisbatan ijobiy pozitsiya shakllantirishdir. O‘smir avval o‘z millatini qadrlashi, uning qadriyatlarini anglab, faqat shundan so‘ng boshqa madaniyatlarga nisbatan ochiqlikni rivojlantira oladi. Bu esa sog‘lom milliy o‘zlik va tolerant shaxs shakllanishiga xizmat qiladi.

S.Tajfelning ijtimoiy identitet nazariyasida shaxs o‘zini ma’lum bir guruh a’zosi sifatida tasavvur qilishi orqali o‘ziga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Bu guruhga daxldorlik hissi — etnik guruhga, milliy jamoaga, madaniy muhitga bo‘lgan ijobiy munosabat orqali kuchayadi. O‘smirlik davrida bu jarayon chuqur ichki kechinmalar, qiyosiy baholash va ijtimoiy stereotiplarga qarshi immunitetni shakllantirish orqali yuzaga chiqadi. O‘smir milliy guruhiga daxldorlikni ichki qadriyat darajasida his etmasa, u o‘z identitetini boshqa yo‘nalishda izlaydi, bu esa begonalashuv, madaniyatsizlanish yoki identitet krizisiga olib kelishi mumkin.

U.Tomas va F.Znanetskiy tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy harakatlar nazariyasida esa milliy o‘zlik sotsiokulturniy jarayonlar va hayotiy tajriba orqali doimiy qayta quriladi. O‘smirning etnik va

milliy o‘zligini shakllantirishda ijtimoiy institutlar — oila, maktab, do‘stlar guruhi, axborot vositalari va madaniy an’analar muhim rol o‘ynaydi. Agar bu institutlar o‘smirga milliy qadriyatlarni ijobiy ko‘rinishda yetkazsa, unda milliy identitet mustahkam, ongli va reflektiv asosda shakllanadi.

Muhokama. O‘smirlarda milliy o‘zlikni shakllantirish psixologik jihatdan chuqur izlanishni talab qiladigan murakkab va ko‘p omilli jarayon hisoblanadi. Bu jarayon shaxsning ichki o‘zgarishlari, ijtimoiy identifikatsiyasi va madaniy muhit bilan o‘zaro ta’siri orqali shakllanadi. O‘smirlik davrida shaxsiy “men”ni anglash kuchayadi, bu esa o‘z milliy guruhiga bo‘lgan daxldorlikni izlash bilan birga kechadi. Shuning uchun, milliy o‘zlikni shakllantirish jarayoni o‘smir psixikasida intensiv kechadigan identitet izlanishlari bilan chambarchas bog‘liq. O‘smirlar o‘zlarining kimligi, qayerdan kelgani, qanday qadriyatlarga amal qilishi kerakligi haqida chuqur o‘yga toladi. Bunday izlanishlar ular uchun hayotiy yo‘lni tanlash, jamiyatdagi o‘z o‘rnini topish va shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirish uchun zamin yaratadi.

Milliy o‘zlikni shakllantirishda oilaviy muhit asosiy psixologik baza bo‘lib xizmat qiladi. Oila orqali o‘smir ilk bor milliy urf-odatlar, qadriyatlar va tarixiy xotira bilan tanishadi. Agar ota-ona milliy an’analarni hurmat qilsa, u holda o‘smirda bu qadriyatlar ichki motivatsiya sifatida shakllanadi. Maktab muhitida esa bu qadriyatlar kengayadi, mustahkamlanadi va ijtimoiy darajada qadrlash boshlanadi. Tarix, adabiyot, ona tili kabi fanlar orqali milliy o‘zlikning konseptual asoslari beriladi. Bunda ta’lim mazmunining milliylikka yo‘naltirilgan bo‘lishi o‘smirning milliy identifikatsiyasini yanada kuchaytiradi.

Milliy o‘zlikni shakllantirishga ommaviy axborot vositalari ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Televideniye, internet, ijtimoiy tarmoqlar o‘smir dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy axborot manbaalariga aylangan. Bu vositalar orqali o‘smirlar nafaqat milliy madaniyat bilan tanishadi, balki boshqa millatlar bilan o‘zlarini qiyoslab ko‘rish imkoniyatiga ham ega bo‘ladilar. Agar bu axborotlar mantiqiy, tanqidiy tahlilsiz qabul qilinsa, o‘smirlarda milliylikdan begonalashish, o‘z millatiga nisbatan sovuqlik kabi holatlar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, o‘smirlarni ommaviy axborot vositalaridagi axborotni selektiv, tanqidiy qabul qilishga o‘rgatish muhimdir.

Milliy o‘zlik shakllanishida ijtimoiy guruhlarga daxldorlik hissi muhim psixologik komponent hisoblanadi. O‘smirlar uchun sinfdoshlari, do‘stlari va jamoadagi o‘rni nihoyatda muhim. Agar ular milliy qadriyatlarga sodiq, ijobiy identitetga ega guruh a’zolariga duch kelsalar, bu ularning o‘z identitetini shakllantirishda kuchli psixologik tayanch bo‘ladi. Aksincha, agar guruhda milliy qadriyatlarga befarqlik bo‘lsa, o‘smirning o‘z milliyligiga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishi qiyinlashadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov tizimi, ya’ni maktab, oila va do‘stlar muhitida milliy identitetni qadrlovchi atmosferani yaratish zarur.

O‘smirlarning milliy o‘zligiga bo‘lgan munosabati ularning reflektiv tafakkuri, metakognitiv qobiliyatlari va emotsional barqarorligi bilan bevosita bog‘liq. O‘zini anglash darajasi yuqori bo‘lgan o‘smirlar odatda o‘z milliyligiga chuqur munosabatda bo‘ladi, u bilan faxrlanadi va uni himoya qilishga intiladi. Aksincha, o‘z-o‘zini anglash darajasi past bo‘lgan, ijtimoiy beqaror o‘smirlar ko‘pincha begonalashish, chekinish va identitet krizisiga duch keladilar. Shu sababli, psixologik yondashuvlarda o‘smirlarning refleksiya darajasini rivojlantirish, ichki monolog va savollarni tahlil qilishga o‘rgatish muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Milliy o‘zlik — bu faqatgina madaniy merosni yod olish emas, balki shaxsiy tajriba orqali unga ongli munosabat bildirishdir. Bu esa o‘smirga faqat bilim emas, balki hissiy-motivatsion tayanchlar ham berilishini talab etadi. Agar o‘smir milliy qadriyatlarni yuragi bilan his qilmasa, ularni shunchaki tashqi atributlar sifatida qabul qiladi va bu identitetning sirtqi shakllanishiga olib keladi. Bunday holat esa uzoq davom etmaydi va shaxsda ziddiyatli, beqaror psixologik holatlar paydo bo‘ladi. Shu bois, milliy o‘zlikni shakllantirishda hissiyotlarni uyg‘otuvchi, shaxsiy ishtirokka asoslangan pedagogik va psixologik metodlar qo‘llanishi zarur.

Milliy o‘zlikni shakllantirishda shaxsning axloqiy qadriyatlari, vatanparvarlik hislari va maqsadga yo‘naltirilganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu fazilatlar o‘zaro uyg‘un bo‘lsa, o‘smir o‘z millatiga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi va o‘z shaxsiyatining ajralmas qismi sifatida milliylikni anglaydi. Bu esa uning jamiyatda faol, mas’uliyatli, ongli va ma’naviy yetuk shaxs sifatida

shakllanishini ta’minlaydi. Shu bois, milliy o‘zlikni shakllantirish masalasiga nafaqat psixologik, balki ijtimoiy-axloqiy yondashuv zarur bo‘ladi.

Muhim jihatlardan biri shuki, milliy o‘zlik faqat o‘z millatini tan olish emas, balki boshqa millatlarga nisbatan to‘g‘ri, tolerant pozitsiyani shakllantirishdir. Bu esa universal qadriyatlarni qabul qilish, madaniy farqlilikni qadrlash va global dunyoda milliy pozitsiyasini yo‘qotmaslik bilan ifodalanadi. O‘smirlar bu muvozanatni faqat ongli yondashuv, tanqidiy fikrlash va barqaror psixologik tizim asosida saqlab qolishlari mumkin. Shu nuqtai nazardan, milliy o‘zlik va global identitet o‘rtasidagi ziddiyatlar, ayniqsa bugungi zamonda, chuqur psixologik tahlilni talab qiladi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davrida milliy o‘zlikning shakllanishi murakkab psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog‘liq ko‘p qirrali jarayondir. Milliy o‘zlik — bu shaxsning o‘z milliy guruhiga daxldorligini anglash, uni qadrlash va shaxsiy identitetining bir qismi sifatida qabul qilishidir. Bu jarayon nafaqat tashqi axborotlar, balki o‘smirning ichki tafakkur darajasi, refleksiv salohiyati va ijtimoiy pozitsiyasi bilan belgilanadi. Oila, maktab va ijtimoiy guruhlar milliy identitetni shakllantiruvchi asosiy psixologik muhit sifatida faol rol o‘ynaydi. Milliy qadriyatlar o‘smir uchun ichki ehtiyojga aylangandagina barqaror milliy identitet vujudga keladi. Shu bois, milliy o‘zlikni shakllantirish psixologik yondashuvlar orqali ongli, ijobiy, barqaror va ijtimoiy moslashgan shaxsni tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Buning uchun esa tarbiya, ta’lim, psixologik qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy hamkorlik bir butun tizim sifatida tashkil etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Bennett, M.J. Towards ethnorelativism: A developmental model of intercultural sensitivity. In R. M. Paige (Ed.), Education for the intercultural experience. Yarmouth, ME: Intercultural Press, pp. 21–71. 1993 y.
2. Berry, J.W. Immigration, acculturation, and adaptation. Applied Psychology: An International Review, 1997y. 46(1), 5–34. Oxford: Wiley-Blackwell.
3. Erikson, E.H.. Identity: Youth and crisis. New York: W. W. Norton & Company, 2005 y., 314 p.
4. Marcia, J.E.. Identity in adolescence. In J. Adelson (Ed.), Handbook of adolescent psychology (pp. 159–187). New York: Wiley.
5. Sarbin, T.R., & Scheibe, K.E. A theory of personhood for psychology. In T.R. Sarbin & K.E. Scheibe (Eds.), Studies in Social Identity. New York: Praeger, pp. 161–174. 2003 y.
6. Tajfel, H. Human groups and social categories: Studies in social psychology. Cambridge: Cambridge University Press, 1981 y. 476 p.

Toxirova Go'zaloy Davronbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Mustaqil izlanuvchisi (Dsc)

YOSHLARDA PROFESSIONAL KARIYERASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlarda professional karyerani takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan psixologik omillarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, tadqiqotda kasbiy motivatsiya, o'zini anglash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shaxsiy intilish va shaxslararo munosabatlar kabi omillar yoritilgan, shuningdek, samarali kasbiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan psixologik shart-sharoitlar aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *yoshlar, professional karyera, kasbiy o'zini anglash, motivatsiya, psixologik tayyorgarlik, o'zini rivojlantirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shaxsiy omillar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО КАРЬЕРНОГО РАЗВИТИЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *Данная статья направлена на изучение психологических факторов, возникающих в процессе профессионального карьерного развития у молодежи. Исследование охватывает такие факторы, как профессиональная мотивация, самосознание, социальная поддержка, личные стремления и межличностные отношения, а также выявляет психологические условия, необходимые для эффективного профессионального развития.*

Ключевые слова: *молодежь, профессиональная карьера, профессиональное самосознание, мотивация, психологическая подготовка, саморазвитие, социальная поддержка, личностные факторы.*

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PROFESSIONAL CAREER IMPROVEMENT IN YOUTH

Annotation: *This article aims to study the psychological factors that arise in the process of professional career improvement in young people. The study covers factors such as professional motivation, self-awareness, social support, personal aspirations and interpersonal relationships, and also identifies the psychological conditions necessary for effective professional development.*

Keywords: *youth, professional career, professional self-awareness, motivation, psychological preparation, self-development, social support, personal factors.*

Kirish. Globallashuv va raqobatbardosh mehnat bozorida yoshlardan nafaqat malaka va bilim, balki o'zini anglash, kasb tanlashda mustaqil qaror qabul qilish, psixologik barqarorlik va o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj ham talab etilmoqda. Bugungi kunda ko'plab yoshlar o'z kasbiy yo'lini aniqlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu holat ularning motivatsiyasi, kasbiy o'sish strategiyasi va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, professional karyerani shakllantirishda psixologik omillarni chuqur o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda yoshlar orasida kasbiy samarasizlik, ishga joylashishdagi qiyinchiliklar, tez-tez kasb almashish va stressga tushish holatlari ko'plab uchramoqda. Bunga sabab sifatida ko'plab psixologik omillar — kasbiy identifikatsiya yo'qligi, o'zini qadrlamaslik, ichki motivatsiya pastligi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi keltirilmoqda. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan strategiyalar – xususan, "Yoshlar daftari", "Yoshlar – kelajagimiz" kabi dasturlar mazkur masalaning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu esa yoshlarning professional o'sishidagi psixologik tayyorgarlik masalasini chuqur o'rganishni talab qiladi.

Yoshlarning professional karyerasini takomillashtirishda psixologik omillarning rolini aniqlash, bu omillarni kuchaytirishga xizmat qiladigan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur masaladan kelib chiqib, bu o'z oldiga quyidagi maslalarni qo'yadi:
- professional karyera tushunchasining psixologik asoslarini o'rganish;
- yoshlarda kasbiy motivatsiya va o'zini anglash darajasini aniqlash;
- professional o'sishga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tahlil qilish;
- professional rivojlanish uchun psixologik ko'nikmalar va resurslarni aniqlash;
- kasbiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish.

Yoshlarning professional karyerasini takomillashtirishda psixologik jihatlari borasida D.Superning kasbiy rivojlanish nazariyasida shaxsning o'zini anglash jarayonini, kasbga oid qarorlar qabul qilish bosqichlarini chuqur tahlil qilgan.

Kasb tanlash va professional rivojlanish inson hayotidagi muhim bosqichlardan biridir. Psixologik jihatdan bu jarayon nafaqat tashqi omillarning, balki shaxsning ichki dunyosi - o'zini anglashi, qadriyatlari, qiziqishlari va motivatsiyasining ham mahsulidir. D.E.Superning kasbiy rivojlanish nazariyasi ushbu jarayonni chuqur tahlil etgan bo'lib, uni psixologik o'zini anglash asosida izohlaydi[1]. Tadqiqot nazariyaning asosiy tamoyillari kasbiy rivojlanish hayotiy jarayon unga ko'ra, kasbiy rivojlanish inson hayotining butun davomida sodir bo'ladigan dinamik jarayondir. Bu jarayon shaxsning yoshiga, hayotiy tajribasiga va ijtimoiy sharoitlariga qarab o'zgaradi. Inson kasb tanlayotganda o'zining ichki tasavvuriga - "Men kimman?", "Men nima qilishim mumkin?" degan savollarga bergan javobiga tayanadi. Kasbiy yo'l tanlash — bu o'zini anglashni hayotga tatbiq etishdir. D.Super shaxsni faqat bitta rolda emas, balki hayot davomida turli rollarda (o'quvchi, ishchi, ota-ona, fuqarolik roli va h.k.) namoyon bo'lishini qayd etadi. Kasb – bu rollardan biridir va u boshqa rollar bilan muvofiqlashib boradi.

Amerikalik psixolog J.L.Holland kasb tanlash jarayonini insonning shaxsiy tipi va kasbiy muhit tiplari o'rtasidagi moslik asosida tushuntiradi. Unga ko'ra, inson o'zining shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari va qadriyatlariga mos keluvchi kasbni tanlasa, u faoliyatda muvaffaqiyatga erishadi, psixologik qoniqish hosil qiladi va barqaror ishlaydi[2]. Bu nazariyaning asosiy tamoyillari shaxs tipi va muhit tipi o'rtasidagi moslik - inson o'ziga mos muhitda ishlasa, undan ko'proq qoniqish oladi va samaradorligi ortadi, farqlilik tamoyili – odamlar bir xil emas; turli-tuman shaxs tiplari mavjud va ularning kasbiy ehtiyojlari ham farqlanadi, barqarorlik tamoyili – shaxsning kasbiy tipi vaqt o'tishi bilan uncha o'zgarmaydi, ya'ni u barqarorlikka ega, prognoz qilish - inson tipi asosida unga mos kasb va muhitni oldindan aniqlash mumkin. Nazariyaning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, modeli asosida yaratilgan "Holland kasbiy tipologiyasi testi" ko'plab psixologik xizmatlarda qo'llanilib kelgan. Maktab o'quvchilari, abituriyentlar va universitet talabalarining kasb tanlashida individual yondashuvni ta'minlaydi, kasbiy moslashuv, stress darajasi, ishda qoniqish va kasbiy muvaffaqiyatni prognoz qilish imkonini berishi, kasb tanlashda ijtimoiy stereotiplar emas, shaxsning ichki qiziqishlari mezon sifatida olinadi.

Zamonaviy mehnat bozorida shaxsning kasb tanlashdagi qarori ko'plab psixologik va ijtimoiy omillarga bog'liq. Bu jarayonni to'g'ri tashkil qilish shaxsning kasbiy barqarorligi, o'zini namoyon qilishi va hayotdan qoniqishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur muammoni ilmiy asoslashda amerikalik psixologlar L. Mitchell va J. Krumboltz tomonidan taklif etilgan kognitiv-nurli (social learning) modeli alohida ahamiyatga ega. Mitchell va Krumboltzning nazariyasiga ko'ra, kasb tanlash insonning hayoti davomida to'plagan shaxsiy tajribasi, ijtimoiy ta'sirlar, o'rganilgan xatti-harakatlar va kognitiv jarayonlar asosida shakllanadi. Bu yondashuv kasb tanlashni faqat ichki motivatsiyaga bog'lab qo'ymaydi, balki tashqi omillarning ham hal qiluvchi o'ringa ega ekanini asoslab, buning asosiy komponentlar quyidagilar bilan izohlanadi[3].

1. Genetik omillar – shaxsning aqliy, jismoniy va temperament xususiyatlari.
2. Atrof-muhit ta'siri – oilaning kasbga munosabati, ommaviy axborot vositalari, iqtisodiy sharoit.
3. Tajriba asosidagi o'rganish (learning experiences) – avvalgi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklar, shaxsiy tajriba asosida shakllanadi.
4. Kognitiv jarayonlar – qaror qabul qilish, muammoni yechish, kelajakni bashorat qilish ko'nikmalari.

5. Vaziyatli voqealar (task approach skills) – kutilmagan hayotiy holatlarning kasb tanlashdagi ta’siri (masalan, yaqin kishining kasbidan ilhomlanish, majburiy o‘zgarishlar).

Mitchell va Krumboltzning kognitiv modeli kasb tanlashni soddalashtirilgan, chiziqli jarayon emas, balki dinamik va murakkab tizim sifatida izohlaydi. Bu model yoshlarning hayotida yuz berayotgan ijtimoiy ta’sirlar va tajribalarni chuqur tahlil qilish, ularga ongli va mos qaror qabul qilishga yordam beruvchi amaliy mexanizmlarni ishlab chiqishda foydalidir. Kasb tanlashga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash orqali pedagog-psixologlar shaxsning kasbiy yo‘lini to‘g‘ri yo‘naltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

A.A.Asqarova yoshlar psixologiyasi sohasida faol tadqiqotchi bo‘lib, uning ilmiy ishlari kasbiy yo‘nalishni shakllantirish jarayonining psixologik asoslariga bag‘ishlangan. Asqarovaning asosiy ilmiy yo‘nalishlari kasbiy o‘zini anglash jarayoni - yoshlarning o‘z imkoniyatlarini anglash, kasb tanlashdagi qarorlarining psixologik motivlari, kasbiy yyetuklik - talabalarning kasbga bo‘lgan munosabati, o‘z yo‘lini topishdagi shaxsiy omillar, psixologik xizmat tizimining roli – Maktab va oliy ta’lim muassasalarida psixologlar tomonidan olib boriladigan kasbiy yo‘naltirish ishlarining samaradorligi. Yoshlarning kasbiy tanlovi individual xususiyatlariga mos bo‘lishi uchun psixologik ko‘mak va metodik qo‘llab-quvvatlash zarurligini asoslaydi[4].

N. To‘raqulovaning ilmiy izlanishlari kasbiy yo‘nalishdagi shaxsiy moslik, kasb tanlashdagi axloqiy va qadriyatli yondashuv hamda motivatsiya masalalariga qaratilgan. Uning tadqiqotlarida kasbiy qiziqishlar va shaxs tipi ya’ni talabalar o‘rtasida kasbiy qiziqishlar tipologiyasi va ularni baholash metodikalari, shaxsning hayotiy yo‘lini belgilash orqali kasb tanlashda shaxsiy qadriyatlar, ijtimoiy stereotiplar va muhit ta’sirining psixologik mexanizmlari, psixologik xizmatlar orqali yo‘naltirish orqali maktab psixologlarining kasb tanlashga oid faoliyati va uning samaradorlik mezonlari o‘rganilgan[5]. To‘raqulova yoshlarning kasbiy yo‘nalishida mustaqil va ongli qaror qabul qilishi uchun psixologik yondashuvlar, treninglar va motivatsion mashg‘ulotlarning muhimligini asoslaydi.

M. Jo‘rayev o‘z ilmiy faoliyatida kasbiy ijtimoiylashuv, psixologik moslashuv, va kasbga tayyorgarlikning psixologik ko‘rsatkichlarini tadqiq qilgan. Uning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Talabalarning o‘z kasbiy roliga kirib borishi, ijtimoiy vazifalarni bajarishga tayyorlik darajasi.

2. Kasbiy muhitga moslashuv qobiliyati va professional qarorlar qabul qilishdagi psixologik barqarorlik.

3. Kasbiy yo‘nalish darajasini baholashga doir so‘rovnomalar, metodikalar.

Jo‘rayev kasbiy yo‘nalish va ish faoliyati muvaffaqiyatining asosida yotgan psixologik tayyorgarlik va ijtimoiy moslashuvga e’tibor qaratadi[6].

Z.Xusanova 2020-yilda olib borgan tadqiqotida O‘zbekiston sharoitida yoshlar orasida karyera rejalashtirishning psixologik modellarini ishlab chiqqan. Uning ishida milliy mentalitet va kasb tanlash orqali O‘zbekiston yoshlari orasida kasb tanlashda an’anaviy qadriyatlar, oilaviy ta’sir va ijtimoiy omillar roli, karyera rejalashtirish bosqichlari orqali o‘smirlik davridagi kasbiy orzular, talabalik bosqichidagi tanlov va mustaqil hayotdagi rejalashtirish mexanizmlari[7]. Uning tadqiqoti O‘zbekiston sharoitida milliy qadriyatlar va individual qiziqishlar asosida karyera rejalashtirishning psixologik modelini ishlab chiqishga xizmat qiladi. O‘zbek olimlarining yuqoridagi tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, kasb tanlash va karyera shakllanishi nafaqat bilim va malakaga, balki psixologik tayyorgarlik, motivatsion omillar va ijtimoiy muhitga bog‘liqdir. Psixologik xizmat ko‘rsatish tizimi yoshlarning professional yo‘nalishini shakllantirishda markaziy o‘rinda turadi. Milliy mentalitet va qadriyatlar O‘zbekiston sharoitida kasbiy qarorlar qabul qilishda muhim ijtimoiy psixologik omil sifatida qaralmoqda.

Xulosa qilsak, yoshlarning professional kariyerasini takomillashtirish masalasi hozirgi kunda nafaqat iqtisodiy yoki ijtimoiy, balki chuqur psixologik mazmunga ega muammolardan biridir. Kasbiy o‘sish shunchaki kasb egallash emas, balki shaxsning o‘zini anglashi, motivatsiyasi, hayotdagi maqsadini belgilashi va ijtimoiy muhitga moslashishi jarayonidir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, professional karyerani shakllantirishda psixologik omillar – o‘ziga ishonch, kasbiy

identifikatsiya, ichki motivatsiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhim o‘rin egallaydi. Kasbiy o‘sishni ta’minlashda individual yondashuv, psixologik diagnostika va maslahat xizmatlari samarali natijalar beradi. Shaxsiy resurslarni aniqlash va faollashtirish, shuningdek, psixokorreksion dasturlar orqali kasbiy o‘sishga yordam berish mumkin. Davlat siyosatida yoshlarga oid qarorlar – “Yoshlar daftari”, “Yoshlar – kelajagimiz” dasturlari – psixologik yondashuvlar bilan uyg‘unlashsa, yanada samarali bo‘ladi. Demak, yoshlarning professional o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun ularning psixologik holatini chuqur tahlil qilish, maqsadli yordam ko‘rsatish va psixologik xizmatlar tizimini mustahkamlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Super, D. E. The Psychology of Careers. – New York: Harper & Row, 1957.
2. Holland, J. L. Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments. – Odessa, FL: Psychological Assessment Resources, 1997.
3. Mitchell, K. E., Krumboltz, J. D. Social learning approach to career decision making. In: Career Choice and Development, 1996.
4. Асқарова, А. А. (2015). Yoshlarning kasbiy yo‘nalishlarini shakllantirishning psixologik asoslari. – Toshkent: Fan.
5. Хусанова, З. (2020). Yoshlarning kasbiy rejalashtirish jarayonida psixologik yondashuvlar. // O‘zbekiston Psixologiya Jurnali, №2, 45–52.
6. To‘raqulova, N. (2017). Psixologiya va kasb tanlash: metodik qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi.
7. Муздыбаев, К. (2004). Социальная психология личности. – Москва: Академический проект.

Ummatova Sitora Shavkatulloyevna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
Amaliy psixologiya kafedrasi dosenti
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: ummatovasitora@samdu.uz

RASHK MUAMMOSINING PSIXOLOGIK MOHIYATI

Annotatsiya. *Maqoladapsixologiya fanida rashk muammosining ilmiy tahlil bo’yicha turlari va psixologik mohiyati yoritib berilgan. Rashkning psixologik xususiyatlaridan emotsiya, ishonchsizlik psixologik holatlari; rashkning asosi sifatida kognitiv, xulq-atvor, affektiv jihatlari; rashkning qisqa muddatli, hissiyotli rashk, uzoq muddatli rashk, ehtirosli rashk, faol rashk, passiv rashk, azobli rashk, reaktsiyalishaklari va turlari bayon etilgan.*

Kalit so’zlar: *psixologiya, rashkshakli, rashk, emotsiya, ishonchsizlik,psixologik holat, affektiv,ijtimoiy munosabatlar, rashkning psixologik xususiyatlari,rashkning asosi, rashk mohiyati,qisqa muddatli, uzoq muddatli, faol, passiv, kognitiv, xulq-atvor.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ПРОБЛЕМЫ РЕВНОСТИ

Аннотация. *В статье рассматриваются виды и психологическая сущность проблемы ревности в психологической науке по научному анализу. Из психологических особенностей ревности выделяют эмоциональные, психологические состояния незащищенности; когнитивные, поведенческие, аффективные аспекты ревности как основы; выделяют кратковременные, эмоциональные ревности, длительные ревности, страстные ревности, активные ревности, пассивные ревности, мучительные ревности, реакционные формы и виды ревности.*

Ключевые слова: *психология, форма ревности, Ревность, эмоция, незащищенность, психологическое состояние, аффективное ,социальные отношения, психологические особенности ревности, основа ревности, сущность ревности, краткосрочная, долгосрочная, активная, пассивная, познавательная, поведенческая.*

PSYCHOLOGICAL ESSENCE OF THE PROBLEM OF JEALOUSY

Annotation.*The article highlights the types and psychological essence of the problem of jealousy in psychology on scientific analysis. From the psychological characteristics of jealousy, psychological states of emotion, insecurity; cognitive, behavioral, affective aspects as the basis of jealousy; short-term, emotional jealousy of jealousy, long-term jealousy, passionate jealousy, active jealousy, passive jealousy, tormented jealousy, reactive forms and types of jealousy are described.*

Keywords: *psychology, a form of jealousy, jealousy, emotion, insecurity, psychological state ,affective, social relationships, psychological characteristics of jealousy, the basis of jealousy, the essence of jealousy, short-term, long-term, active, passive, cognitive, behavioral.*

Bugungi kunda fanning rivojlanishida shaxslarning xar hil emosional holatlarini belgilanib va u tahlil qilinmoqda, u shaxs faravonligi,hissiy muloqotlari,fikrlashi,ma’naviy,ahloq va boshqalarni o’z ichiga oladi.

Rashk fenomeni keng tarqalganiga qaramay, psixologiya fanida rashkning mohiyati, uning qonuniyatlarii, determinantlari, turlari to’g’risida aniq tushuncha yo’q. Afsuski, psixologiyada rashk fenomeni, uning psixologik mexanizmi yaxshi o’rganilmagan. Rashkning har bir inson hayotiga ta’sirida qanday oqibatlarga olib kelishi, nima qilish mumkinligi haqidagi aniq manbaalar yyetarli emas. Rashk hissining paydo bo’lishi sabablari, uning oilalar barqarorligiga ta’siri masalalari tadqiqotchilar uchun dolzarb, ahamiyatli va o’rganilmagan mavzu bo’lgan.

Rashk hissi odamga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ruhiy holat bo'lib, tajovuzkorlikni, xudbinlikka moyillikni keltirib chiqaradi. Shuningdek, rashk muammosi insonning qadri bilan bog'liq bo'lgan his-tuyg'ulari, turli munosabatlaridagi reaksiyalarini ifodalaydi.

Ayni paytda psixologiya fanida rashk, uning mexanizmlari, shakllari va inson hayotida bajaradigan vazifalari kabi muammolari, bu holatning nazariy,amaliyligini boy takomillashtirish , konkretlashtirish maqsadida tadqiqotlar olib borishga chorlaydi.

Qayd etish zarurki, xorij psixologiyasida shaxslararo ta'sir bilan bog'liq bo'lgan rashkning turli xil vaziyat va dinamik xususiyatlari ma'lum darajada o'rganilgan. Lekin O'zbekiston sharoitida rashk mustaqil psixologik hodisa sifatida hanuzgacha ilmiy tadqiq etilmagan.

Ilm-fanning turli sohalarida rashk fenomenining mavjud bo'lish sharti sifatida faoliyatda g'ayrat-shijoat; o'zaro munosabatda bir kishining boshqasini bo'ysundirish istagi sifatida (ota-ona, turmush o'rtog'i, farzandlari va boshqalar munosabatlarida) ijtimoiy munosabatlar va real hayotda mavjud. Shuningdek, rashk odamda boshqa odamga nisbatan o'z mulki sifatida egalik qilishni ham namoyon qiladi.

Qayd etish kerakki, rashk hissini o'zida kechirayotgan odamda aldanish va yolg'iz qolish qo'rquvi, hiyonat qo'rquvi kabilar birdaniga yuzaga keladi, shunga mos fobiyalar kelib chiqadi. Natijada keskin reaksiyalar sifatida rashkchilar o'zlarini, his-tuyg'ulari va hatti-harakatlari ustidan nazoratni yo'qotishadi.

Rashkning xavfli tomoni shundaki, u insonning hissiy va fiziologik holatiga ta'sir ko'rsatadi. Natijada ko'plab psixosomatik kasalliklarni keltirib chiqaradi. Rashk fenomeni insonning nafaqat psixologik, balki bioenergetik holati bilan bog'liq ravishda izohlanadi. Shu bois rashk fenomenini izohlashda turlicha yondashuvni ko'ramiz: «Rashk - bu o'z ta'sirini yo'qotishdan qo'rqish. Rashk qo'rqoqlikka o'xshaydi. Bu muhabbat borligini isbotlaydigan yuksak tuyg'u emas, balki o'z kuchiga bo'lgan ishonchning doimiy yetishmasligi qo'rquvi. Rashk - bu o'z kuchsizligini ongsiz ravishda aks ettirish hissidir».

An'anaviy tarzda rashk hissi sevgi-muhabbat tushunchasi bilan bog'liq tarzda talqin qilinadi. Rashk va sevgi o'rtasidagi bog'liqlikni odamning egalik qilish istagi bo'lgan obyektiga nisbatan shubhali munosabati, uning sadoqati yoki uning xiyonati to'g'risida alamli shubhasi, rashk fenomenini namoyon etishda emosional munosabatlarning affektiv tomoniga e'tibor berilishi tasdiqlaydi.

Rashk fenomeni namoyon bo'lishida sevgining ta'siri inkor etish noo'rin va u eng birlamchi kuch vazifasini bajarishi quyidagicha izohlanadi: «Sevgi - bu insonda ta'sirchan kuch, inson va uning o'rtoqlari o'rtasidagi to'siqni yo'q qiladigan kuch, uni boshqalar bilan birlashtiradigan va yolg'izlik va begonalik tuyg'usini yengishga yordam beradigan va shu bilan birga uning qolishiga imkon beruvchi kuchdir».

«Sevgi bu insonga nisbatan axloqiy munosabatdir. Bu ma'lum bir kishining inson uchun boshqasi uchun mavjudligini tasdiqlash vazifasini bajaradi. Sevilish degani atrofdagilarning eng muhimi uchun boshqasi uchun bo'lish demakdir».

Shu o'rinda badiiy adabiyot ijtimoiy hayotni ifodalagani tufayli o'zbek klassik adabiyotida ko'plab asarlar, jumladan, Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanida Zaynabning Otabek-Kumushbibilar munosabatiga nisbatan rashk hissi; «Mehrobdan chayon» asaridagi Anvar Mirzoga nisbatan saroy nozirlari tomonidan ko'rsatiladigan rashk hislari hasad, adovat, ko'rolmaslik, nafrat sifatida namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Rashk, o'ziga xos tashvish shakli deb tasniflangan har qanday hissiy holat singari, yaqin kishining mehriga ishonch yetishmasligidan kelib chiqadi. Rashkni izohlashda uning uchinchi shaxsga, raqobatchiga qaratilgani va sevgi obyektining muammosi sifatida qabul qilinishi kabi yondashuv ham mavjud.

Rashk fenomenini psixologik mohiyatini tushuntirishda M.Midning rashk hissi haqidagi fikrlari esa sevgi bilan taqqoslanadi, ya'ni: rashk insondagi sevgi darajasini ko'rsatadigan barometr emas, balki sevgisidan shubhaga borish, hadiksirash, ishonchsizlik deb qaraydi. Xuddi shunday nuqtai nazarni O.Fenixel ham qo'llab-quvvatlagan. Uning fikriga ko'ra, rashkchi odamlar sevishga qodir

bo'lish-bo'lmasligidan qat'iy nazar, sevmagan insonga ham, hatto nafratlanadigan kishiga ham rashkini namoyon qilishi mumkin.

Insonning rashk hissi va sevgi-muhabbati o'rtasidagi teskari korrelyasiya mavjud ekanligi, ya'ni: odam qanchalik rashkchi bo'lsa, uning sevish ehtimoli kamroq bo'lishi uqtiriladi. Bizning nazarimizda, shu bois rashkni ilmiy tadqiq etish masalasida darhol biror fikrni ifodalash bahs-munozaraga sabab bo'lishi ham mumkin, chunki rashk fenomenini o'rganish qiyin masaladir.

Shunga ko'ra, odamga nisbatan rashk qilish bu nimadir biron bir joyda o'zgarib borayotganligi: sherik bilan munosabatlarda shaxsning o'zi rashk tuyg'usini tushunmasligi va bilmaganligini ko'rsatadi.

Bundan ko'rinadiki, rashk hissi inson uchun rad etilish qo'rquvidir. Rashk hissi o'zini baholashda, yaqin munosabatlarda ishonchli-ishonchsiz, shubhali munosabatlarda namoyon bo'ladi. Rashk muammosini o'rgangan tadqiqotchilar bunday ikki xil munosabatlarni ambivalent sifatida talqin etishadi, hatto rashk narsa yoki kimgadir egalik qilish qobiliyati kabi his etiladigan emosiyalar majmuasi sifatida tavsiflanadi .

Rashk qo'rquv va g'azab kabi asosiy hissiyotlarni uyg'otadi. Sevgi va u bilan bog'liq bo'lgan hamma narsani yo'qotish ehtimoli odamda qo'rquvni keltirib chiqaradi. Sevgi, boshqa narsalar qatori, xavfsizlik hissi degan ma'noni anglatadi. Rashk fenomenida g'azab tuyg'usi ham ifodalanadi. Agar inson yaqin kishisi bilan bo'lgan munosabatlardagi pozisiyasini saqlab qolishni istasa-yu, lekin, uning bu istagi besamar bo'lsa, bu o'z-o'zidan rashkchi insonda ichki norozilikni yuzaga keltiradi, g'azabga aylanadi.

Rashk hissidan ko'ra uning asorati masalasida fikrlab ish tutish muhimligi, jumladan, «rashkdan ko'ra odamlarning hatti-harakatlarida iz qoldiradigan og'riqli ruhiy holatni nomlash mumkin emas» ekanligi, bizning nazarimizda, bu his inson psixologiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi keskin va jarohatli hodisa ekanligini asoslaydi.

Rashk fenomeni inson emosional sohasi bilan bog'liq ravishda undagi agressiya, o'ziga va boshqalarga nisbatan norozilik, xavotir ko'rinishlarida ham o'zini namoyon etadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, jahon klassikasining namoyondasi Vilyam Shekspir rashkni «yashil ko'zli yirtqich hayvon» deb ta'riflagani hamda o'z pyesalarida turli «qiyofalarda» namoyon bo'lishini ko'rsatgani barchaga ayondir.

O'tgan asrda, ayol jamiyat va oilaning teng huquqli a'zosi sifatida e'tirof etilganidan keyin hatto rashk tuyg'usiga nisbatan: rashk - bu «g'ayritabiiy tuyg'u», «o'tmish qoldig'i» kabi fikrlar paydo bo'ldi. Shunga qaramay, rashk ijtimoiy hayotda erkaklar va ayollar, bolalar va o'spirinlar orasida ko'proq uchraydi va uning o'ta jiddiy oqibatlari hanuzgacha kuzatilmoqda. Jamoatchilik fikri rashk qiluvchi odamlarga hamdardlik bildiradi va hatto qonunda rashk shaxsga nisbatan og'ir jinoyatlar uchun «yumshatuvchi holat» deb hisoblanadi.

Rashk ma'lum bir yosh davrida o'zini to'liq namoyon etadi. Rashk o'spirinlik davrida tez-tez va keskin namoyon bo'ladi. Bu, asosan, hozirgi paytda yoshlar ma'lum bir nomukammallik, yyetuklik, ma'lum bir to'liqsizlikni his qilishlari bilan bog'liq. O'z-o'zini ta'minlash va tajriba tuyg'usini shakllantirish bilan rashkning kuchi va zo'ravonligi pasayadi.

Rashk tuyg'usi bilan yanada kuchli va chuqurroq tuyg'ularni egallashda rashkning mohiyatini bilish muhim rol o'ynaydi, ya'ni, xiyonat qilish, aldash, tegishli hatti-harakatni kutib olish uchun ichki tayyorlik. Rashkchi o'spirinlik davrida, o'spirin ota-onasi va do'stlarining xiyonatiga guvoh bo'lishiga to'g'ri kelishi mumkin. Bunday munosabat, agar inson boshqa odamlarga ishonchsizlik ruhida tarbiyalangan bo'lsa paydo bo'ladi.

Tadqiqotlarda ko'pincha oila a'zolaridan qaysidir biri rashkchi ekanligi qayd etiladi. Bu borada ota-onalarning farzandlariga nisbatan tanlovchanlik munosabati, birini ikkinchisini oldida maqtashi, afzalligini ko'rsatishi shunday psixologik xolatni yuzaga keltiradi.

Yoshi katta, oila qurganlarda esa juftining boshqa odam bilan iltifotli suhbatda bo'lishi o'zaro munosabatlarda xavf tug'dirishi sifatida qaraladi. Rashk ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi: turmush o'rtoqlar orasida munosabatlarning yomonlashuviga, biznesdagi sheriklarning ishlarini to'xtatishiga olib keladi, turmush o'rtoqlardan birining hamda ota-onaning yoki boshqa oila

a’zolarining rashki tufayli oilalar buziladi. Shu tarzda rashk hissi g’azab, rad etish, eng yaqin do’stlar o’rtasidagi munosabatlarning uzilishiga ham olib keladi.

Rashkning psixologik tabiatiga ko’ra ushbu ko’rinishlari mavjud: odamlarga, yutuqlarga, buyum-narsalarga. Masalan, mehnat jamoasida ba’zi xodimlarning mavqyei, obro’si, tashqi ko’rinishiga; ba’zilarning jihozlari, buyumlari bo’lgan avtomashinalari va h.k.larning mavjudligi va boshqalar tarzida. Bularning barcha ko’rinishlari xasad, ko’rolmaslik kabi illatlarni yuzaga keltiradi.

Har bir insonning rashkga bo’lgan munosabati esa uning hissiyotlari, kayfiyatlari va istaklarida aks etadi va o’rnatiladi. Buning psixologik mexanizmi shaxsning xulqida konativ tomon deb tushuntiriladi. Rashkning namoyon bo’lishi shaxs his-tuyg’ularida aks etishi – affektiv tomonni bildiradi.

Rashk fenomenini o’rganishga ijtimoiy talab mavjud bo’lishiga qaramay, yaqin vaqtgacha rashkga nisbatan ikkinchi darajali, ahamiyatsiz sifatida qarash shakllangan, hatto kasallik alomati sifatida qarashga, shu orqali bu hisni patopsixologik va tibbiyotga tegishli fenomen deb talqin qilishni aks ettiradi.

Rashk muammosini ijtimoiy munosabatlar tizimida yuzaga keladigan hodisa sifatida qarash ham mavjud. Bunday yondashuv tufayli rashkka beriladigan ta’rif turlicha bo’ladi. Masalan, «rashk biror shaxsga nisbatan kuzatilsa, uning psixologik mohiyati shaxslararo munosabat bilan izohlanadi». Rashk «shaxslararo munosabatlarning turli jihatlarini aks ettiradi va tartibga soladi»; «rashk - odamning yaqin kishisiga nisbatan shubhali munosabati, uning sadoqatiga shubha bilan qarash yoki uning xiyonatini bilish bilan bog’liqligi» deb izohlanishi misol bo’la oladi.

Rashk fenomenini tushuntirishda shaxslararao munosabatlarda uchlik yuzaga kelishi muqarrar ekanligi ham izohlanadi: qayerda rashk qiladigan kishi bo’lgan joyda, uchlik yuzaga keladi: birinchisi rashkchi, ikkinchisi rashkchi, uchinchisi ular rashk qilgan kishi(lar). Demak, rashk barcha kishilarda u yoki bu ko’rinishda bo’ladi, degan xulosa yuzaga keladi.

G’arb psixologiyasida rashk faqat ikki kishi o’rtasidagi emas, balki jamoatchilik bo’lgan to’rtinchi tomonga xos munosabat ekanligi asoslaniladi. Ya’ni, sherik va raqib o’rtasidagi munosabatlarning qanday kechishi va rivojlanayotganiga doimo qiziqadigan to’rtinchi tomon, ya’ni - jamoatchilikni qo’shish zarur ekanligi berilgan: «Rashk hissi shaxsiy ehtiros bilan istagan narsasiga ega bo’lmaganda paydo bo’ladi va rashk hissi, raqib borligi sababli, shaxs bor narsasini yo’qotishdan qo’rqadi va o’zi uchun muhim bo’lgan narsada paydo bo’ladi».

Rashkning namoyon bo’lishi sevgi, do’stlik, kasbiy faoliyat, shaxslararo munosabatlardan tashqari boshqa ijtimoiy sohalarda kuzatiladi. Ammo biz nikoh-oila munosabatlarida rashk fenomenining yuqori darajada aktuallashuvini kuzatamiz. Buning sababi shundaki, rashk hissi inson-ning yorqin tuyg’ularidan biri - muhabbatga hamroh bo’ladi.

Rashkning psixologik xarakteristikasi shaxs e’tiqodi, g’oyasi, tuyg’ularida va ayniqsa, his-tuyg’uni boshqa odamga nisbatan o’ziga tegishli deb hisoblashida paydo bo’ladi. Natijada odam doimo depressiya holatida yashashi va shubhaga berilishi muqarrarligi asoslaniladi.

Bizning nazarimizda, rashkning psixologik fenomen haqidagi xorij, MDH olimlarining yuqoridagi fikrlaridan ko’rinadiki, bu tuyg’uni tushuntirishda qarama-qarshi tushunchalar: rashkni qo’rquv, g’azab, o’ziga ishonmaslik kabi holatlar bilan uzviy bog’liqda ifodalash xosdir. Bunday yondashuv esa shaxsning o’z hayotida kelajakda xiyonatga duch kelishiga bo’lgan qo’rquv, shaxslararo munosabatlar haqidagi noto’g’ri qarashlar, ishonchsizlik yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Demak, rashk – bu shaxsning zaif tomonlarining ongsiz ravishda namoyon bo’lishining bir turidir.

Shunday qilib, oiladagi o’zaro munosabatlar rashk fenomenining mexanizmlari, shakllari va inson hayotida bajaradigan vazifalarini ilmiy o’rganilganlik holatini tahlilini amalga oshirish zarur bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 fevraldagi «2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PK-4190-son qarori /http://lex.uz.

2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: «O‘zbekiston», 2019.

3. Akramova F.A., Abdullaeva R.M. Oilaviy hayotni o‘rganishga oid psixologik testlar. T.: «Shams ASA», 2002.

4. Abdurasulov R.A. O‘quvchi shaxsini shakllantirishda sport mashg‘ulotlarining o‘rni. –T.: «Fan va texnologiya», 2013.

5.Andreeva, T.V. Semeynaya psixologiya / T.V. Andreeva. — SPb.: Rech, 2004.

6.Aristova, N.G. Predstavleniya molodeji dobrachnogo vozrasta o seksualnix otnosheniyax i ix posledstviyax / N.G. Aristova // Semya v predstavleniyax sovremennogo cheloveka. M., 1990.

7. Axloq –odobga oid Xadis namunalari // Tahrirchilar A. Asqarov va boshq.- T.: Fan, 1990.

8. Ummatova S.Sh. Oila Psixologiyasi. O’kuv kullanma.-Samarqand: 2024.

9. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. T., 2000.

Uzakov Satbay Erejepbaevich
Nukus filiali “Folklor va etnografiya” kafedrasi o‘qituvchisi

O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA BAXSHICHILIK AN’ANASI ORQALI MUSIQIY TAFAKKUR VA KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda milliy baxshichilik an’anasi asosida musiqiy tafakkur va kompetensiyani shakllantirishning psixologik asoslari tahlil qilinadi. Baxshichilik san’ati nafaqat musiqiy estetik didni, balki yoshlarning emotsional ongini, ijodiy tafakkurini va ijtimoiy-hissiy moslashuvchanligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda musiqiy kompetensiyaning autentik shakllanish jarayonida motivatsiya, identifikatsiya va madaniy tajriba singari psixologik omillar ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada o‘quvchilarning musiqiy o‘zligini anglash, o‘zini ifodalash va musiqiy ijod orqali shaxsiy rivojlanishining psixologik shart-sharoitlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘smir yosh, baxshichilik an’anasi, musiqiy tafakkur, musiqiy kompetensiya, psixologik asoslar, emotsional rivojlanish, autentiklik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ И КОМПЕТЕНТНОСТИ ЧЕРЕЗ ТРАДИЦИЮ БАХШИЗМА У УЧАЩИХСЯ ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В статье рассматриваются психологические основы формирования музыкального мышления и компетентности у подростков на основе традиций бахши (народного сказителя и музыканта). Искусство бахши способствует не только развитию музыкального вкуса, но и эмоционального сознания, креативного мышления и социально-эмоциональной адаптивности у школьников. В исследовании обоснована роль мотивации, идентификации и культурного опыта как ключевых психологических факторов в формировании аутентичной музыкальной компетентности. Также раскрываются условия психологической поддержки самопознания и самовыражения подростков через музыкальное творчество.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, традиция бахши, музыкальное мышление, музыкальная компетентность, психологические основы, эмоциональное развитие, аутентичность.*

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF FORMING MUSICAL THINKING AND COMPETENCE IN ADOLESCENT STUDENTS THROUGH THE TRADITION OF BAKHSHI

Abstract. *This article explores the psychological foundations for developing musical thinking and competence among adolescents through the traditional art of* baxshi *(folk singer and storyteller). The* baxshi *tradition not only cultivates musical aesthetic perception but also supports emotional awareness, creative thinking, and socio-emotional adaptability in students. The study highlights the importance of motivation, identity formation, and cultural experience as key psychological factors in shaping authentic musical competence. Furthermore, it examines the psychological conditions that foster self-awareness, self-expression, and personal development through musical creativity.*

Аннотация. *В настоящей статье анализируются ключевые факторы, влияющие на формирование и развитие имиджа современной узбекской семьи. Рассматривается взаимодействие традиционных ценностей и процессов глобализации, социально-экономические трансформации, рост уровня образования, роль средств массовой информации и новых технологий. Особое внимание уделяется значению государственной политики и института махалли в укреплении имиджа узбекской семьи. В статье раскрываются специфические черты современной узбекской семьи и ведущие тенденции, определяющие ее положение в обществе и восприятие.*

Ключевые слова: *узбекская семья, имидж семьи, современная семья, традиционные ценности, глобализация, социально-экономические факторы, образование, СМИ, государственная политика, махалля, трансформация семьи.*

ZAMONAVIY O'ZBEK OILASI IMIDJINING RIVOJLANISHINI BELGILOVCHI YETAKCHI OMILLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek oilasi imidjining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Unda an'anaviy qadriyatlar va globalizatsiya jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ta'lim darajasining ko'tarilishi, ommaviy axborot vositalari va yangi texnologiyalarning o'zaro ta'siri o'rganiladi. O'zbek oilasi obro'sini mustahkamlashda davlat siyosati va jamiyat institutining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maqolada zamonaviy o'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatlari va uning ijtimoiy va jamoatchilik idrokidagi mavqeini belgilovchi asosiy tendentsiyalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *o'zbek oilasi, oilaviy imidj, zamonaviy oila, an'anaviy qadriyatlar, globallashuv, so-cio-iqtisodiy omillar, ta'lim, ommaviy axborot vositalari, davlat siyosati, jamiyat, oilani o'zgartirish.*

THE LEADING FACTORS DETERMINING THE DEVELOPMENT OF THE IMAGE OF A MODERN UZBEK FAMILY

Abstract: *This article analyzes the key factors influencing the formation and development of the image of the modern Uzbek family. It examines the interaction between traditional values and globalization processes, socio-economic transformations, the rise in education levels, and the role of mass media and new technologies. Particular attention is given to the significance of state policy and the institution of the community in strengthening the image of the Uzbek family. The article highlights the specific characteristics of the modern Uzbek family and the key trends that define its position in society and public perception.*

Key words: *uzbek family, family image, modern family, traditional values, globalization, socio-economic factors, education, mass media, state policy, community, family transformation.*

Введение: Семья является фундаментальной ячейкой любого общества, священным очагом, где сохраняются и передаются из поколения в поколение духовно-нравственные ценности и культурные традиции. В современном Узбекистане институт семьи находится в центре внимания государственной политики, придается большое значение его всесторонней поддержке

и укреплению. В условиях усиливающихся процессов глобализации и стремительного развития информационных технологий имидж узбекской семьи также претерпевает определенные изменения. Понимание сущности этих изменений, выявление и анализ ведущих факторов, влияющих на развитие имиджа семьи, имеют важное научно-практическое значение.

Имидж современной узбекской семьи – это ее отражение в общественном сознании, в массовых представлениях, а также совокупность взглядов членов семьи о своей собственной семье. Этот имидж, с одной стороны, формируется под влиянием многовековых традиций, национального менталитета и духовного наследия, а с другой – развивается в результате современных жизненных требований, социально-экономических, культурных и политических изменений. Перед исследователями стоит задача выявить те детерминанты, которые оказывают наиболее существенное влияние на этот сложный и многогранный конструкт.

Основная часть: Анализ ведущих факторов. Можно выделить ряд взаимосвязанных ведущих факторов, определяющих развитость имиджа современной узбекской семьи:

1. Сочетание традиционных ценностей и современности: Одной из важнейших характеристик узбекской семьи является преемственность поколений, уважение к старшим, забота о младших, приверженность семейным обычаям и традициям. Такие ценности, как родительское благословение и сохранение чести семьи, не утратили своей значимости и сегодня. В то же время процессы глобализации и модернизации оказывают влияние на семейные отношения, роли супругов и детей, планирование семьи. Об этом свидетельствуют социологические исследования, указывающие на сохранение важности родительского благословения при заключении брака (отмечают 73,1% опрошенных), но также и на влияние этнических, родовых и местных обычаев (27,8%) наряду с материальными трудностями (18,4%) и стремлением к "большой любви" (7,7%) как мотивов для создания семьи. В имидже современной узбекской семьи важное место занимает поиск баланса между традиционностью и стремлением к обновлению, что обеспечивает адаптивность и устойчивость семьи к общественным изменениям.

2. Социально-экономические факторы: Материальное благополучие семьи, обеспеченность жильем, стремление создать необходимые условия для будущего детей являются важной составляющей имиджа современной узбекской семьи. Экономические реформы, проводимые в стране, развитие предпринимательства расширяют экономические возможности семей, что повышает их уверенность в себе и социальный статус. Государственные меры по поддержке семей, оказанию социальной помощи малообеспеченным, выделению льготных кредитов молодым семьям также положительно влияют на имидж семьи. Экономическая стабильность создает основу для здоровой атмосферы в семье, позволяет уделять больше внимания воспитанию и всестороннему развитию детей, что напрямую связано с позитивным восприятием семьи. Например, желание "поставить детей на ноги" и обеспечить им оптимальные условия для развития доминирует при планировании количества детей в семье.

3. Повышение роли женщин в обществе: Сегодня роль и статус узбекской женщины в обществе неуклонно растут. Получение женщинами образования, овладение профессиями, активное участие в государственной и общественной жизни стали неотъемлемой частью имиджа современной узбекской семьи. Достижение женщинами экономической независимости, их вклад в семейный бюджет способствуют укреплению взаимного уважения и равноправия в семье. Законодательные гарантии по защите прав и интересов женщин, созданию для них равных возможностей со стороны государства также дают положительный импульс этому процессу. В некоторых областях женщины даже опережают мужчин по своему потенциалу и трудолюбию, активно участвуя в построении нового Узбекистана. Это трансформирует традиционные представления и формирует образ современной, динамично развивающейся семьи.

4. Приоритет образования и воспитания: В узбекских семьях большое внимание уделяется получению детьми качественного образования и овладению современными профессиями. Родители стремятся использовать все возможности не только для школьного, но и для высшего образования своих детей. Воспитание образованного, высококвалифицированного поко-

ления рассматривается как важный фактор престижа и будущего современной узбекской семьи. Сама семья также служит основным очагом воспитания, прививая духовно-нравственные ценности, патриотизм и трудолюбие. Стремление к знаниям и образованию является приоритетной традиционной ценностью для современной узбекской семьи.

5. Влияние средств массовой информации и информационных технологий: Интернет, социальные сети и другие средства массовой информации (СМИ) оказывают значительное влияние на формирование имиджа современной узбекской семьи. С одной стороны, СМИ могут быть важным инструментом пропаганды семейных ценностей, освещения жизни образцовых семей, подготовки молодежи к семейной жизни. С другой стороны, разнообразная, а иногда и негативная информация, проникающая через интернет, элементы "массовой культуры" могут влиять на мировоззрение молодежи и ее представления о семье. Поэтому повышение медиаграмотности в семье, формирование навыков отбора информации и критического подхода к ней приобретают важное значение. СМИ также играют роль в формировании позитивного имиджа учителя и образованного человека в обществе, что косвенно поддерживает ценность образования в семье.

6. Государственная политика и роль института махалли: Укрепление семьи и повышение ее авторитета в обществе являются одними из приоритетных направлений государственной политики Узбекистана. Совершенствуется законодательная база, регулирующая семейные отношения, реализуется ряд программ, направленных на социально-экономическую поддержку семей. В этом процессе неоценима роль махалли – уникального института самоуправления граждан. Махалля играет важную роль в обеспечении здоровой атмосферы в семьях, разрешении конфликтов, оказании помощи молодым семьям, сохранении национальных обычаев и традиций. Совместные усилия государственных и общественных организаций служат формированию и укреплению положительного имиджа современной узбекской семьи.

7. Демографические изменения: Социально-экономические изменения в обществе, улучшение уровня жизни населения, повышение качества медицинских услуг, а также изменения в подходах к планированию семьи влияют и на демографическую ситуацию. Наблюдается тенденция перехода от многодетных семей к среднедетным (2-3 ребенка), особенно в городских условиях. Эти изменения расширяют экономические возможности семьи, позволяют уделять больше внимания воспитанию и образованию детей, что также косвенно влияет на имидж семьи, формируя представление о ней как о более ответственной и ориентированной на качественное развитие потомства.

Заключение: Развитие имиджа современной узбекской семьи – это многогранный и динамичный процесс, на который воздействует комплекс взаимосвязанных факторов. Сохранение традиционных духовно-нравственных ценностей и их гармоничное сочетание с требованиями современной жизни, социально-экономическая стабильность, повышение активности женщин в обществе, стремление к образованию, расширение информационного пространства, а также всесторонняя поддержка института семьи со стороны государства и общества являются ключевыми детерминантами этого процесса.

Анализ этих факторов показывает, что имидж современной узбекской семьи характеризуется сочетанием уважения к традициям и открытости к инновациям. Семья продолжает оставаться важнейшей жизненной ценностью, нравственной основой общества и хранителем национальных традиций. Дальнейшие исследования в этой области могут быть направлены на более глубокое изучение региональных особенностей формирования имиджа семьи, влияния миграционных процессов, а также на разработку практических рекомендаций по укреплению позитивного имиджа узбекской семьи в условиях современных вызовов.

Использованная литература.

1. Мирзаева, С. (2023). Социально-психологические основы образа современной узбекской семьи. Актуальные проблемы обучения социально-гуманитарных наук в медицинском образовании, 1(1), 130-133.

2. Nurmanov Shahzodbek Mahmadoli o'g'li. (2023). O'zbek oilalarida an'anaviy va zamonaviy munosabatlar. https://doi.org/10.5281/zenodo.7899855

3. Шурова Наталия Владимировна (2020). Социально-психологические проблемы современной семьИ. Известия Тульского государственного университета. Гуманитарные науки, (4), 79-84.

4. Мирзаева С.Р. Современной состояние имиджа узбекской семьи // Вестник интегративной психологии. – Ярославл, 2025. №35. – С. 249-252. (19.00.00. №2) ISBN: 978-5-9527-02-16-5.

Сулетбаева Элла Серикбаевна
доктор философии (PhD) по психологическим наукам
доцент кафедры «Педагогика и психология»,
Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЫБОРА ПАРТНЁРА В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ: ВЫЗОВЫ ТРАДИЦИОННЫМ МОДЕЛЯМ ПОДГОТОВКИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. *В статье рассматривается трансформация практик выбора брачного партнёра в условиях цифровизации межличностного взаимодействия. Проведен обзор классических и современных психологических концепций (З. Фрейд, Р. Уинч, Bruch & Newman, Capraro и др.), а также сетевых моделей выбора партнёра. Особое внимание уделено сопоставлению традиционной этнокультурной модели подготовки к семейной жизни (на примере каракалпакской культуры) с цифровыми алгоритмическими механизмами онлайн-знакомств.*

Ключевые слова: *семейная подготовка, выбор партнёра, цифровизация, этнокультурная модель, психология отношений, гипотеза соответствия, онлайн-знакомства, каракалпакская культура.*

RAQAMLI ASRDA JUFT TANLASHNI PSIXOLOGIK TAHLIL QILISH: OILAVIY HAYOTGA TAYYORGARLIKNING AN'ANAVIY MODELLARIDAGI MUAMMOLAR

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalar ta'sirida turmush o'rtog'ini tanlash amaliyotlarining o'zgarishi tahlil qilinadi. Freud, Winch, Murstein, Bruch & Newman, Capraro kabi olimlarning klassik va zamonaviy psixologik nazariyalari hamda tarmoq modellariga asoslangan yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Qoraqalpoq madaniyati misolida an'anaviy etnomadaniy oilaviy hayotga tayyorlash modeli va onlayn tanishuv algoritmik tizimlari solishtiriladi.*

Kalit so'zlar: *oila tayyorgarligi, juft tanlash, raqamlashtirish, etnomadaniy model, munosabat psixologiyasi, moslik gipotezasi, onlayn tanishuv, qoraqalpoq madaniyati.*

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF PARTNER CHOICE IN THE DIGITAL AGE: CHALLENGES TO TRADITIONAL MODELS OF PREPARATION FOR FAMILY LIFE

Abstract. *This article explores the transformation of mate selection practices under the influence of digital interpersonal communication. It presents an analytical review of classical and contemporary psychological theories (Freud, Winch, Murstein, Bruch & Newman, Capraro, among others), as well as network-based models of partner choice. Special focus is given to comparing the traditional ethnocultural model of family life preparation (using Karakalpak culture as an example) with algorithmic mechanisms of online dating.*

Keywords: *family preparation, partner selection, digitalization, ethnocultural model, relationship psychology, matching hypothesis, online dating, Karakalpak culture.*

Подготовка и готовность к семейной жизни органически связаны с выбором брачного партнёра, выступая не только как предшествующий этап, но и как социально-психофизиологическая основа, от которой во многом зависит успешность и стабильность будущего брака.

Среди зарубежных исследователей, внесших значительный вклад в изучение проблем выбора брачного партнёра, можно выделить З. Фрейда [3], Р. Уинча [6], Б. Мурстейна [5] которые рассматривали данный процесс как многоступенчатую систему фильтрации, основанную на ряде социальных, психологических и культурных критериев.

Одним из ключевых положений психоаналитической теории З. Фрейда является предположение о том, что выбор партнёра осуществляется под влиянием бессознательных механизмов, сформировавшихся в раннем детстве. В рамках концепции так называемого семейного

импринтинга выдвигается гипотеза о том, что мужчина при выборе супруги бессознательно ориентируется на образ своей матери, в то время как женщина — на образ отца [3]. Данные установки, укоренённые в раннем опыте взаимодействия с родительскими фигурами, оказывают длительное и порой неосознаваемое влияние на предпочтения индивида в брачном выборе.

Согласно теории Р. Ф. Уинча [6], процесс выбора брачного партнёра осуществляется на основе принципа психологической взаимодополняемости. Исследователь выдвинул концепцию «дополняющих потребностей», согласно которой устойчивые и удовлетворяющие брачные отношения формируются между партнёрами с противоположными личностными чертами, компенсирующими друг друга. При этом, как подчёркивает Уинч, социальное сходство (в уровне образования, религиозных взглядах, культурных традициях) остаётся важным условием совместимости, тогда как личностные различия могут способствовать взаимному притяжению. В качестве примеров таких дополняющих связей он указывал, что доминирующий партнёр склонен выбирать уступчивого спутника, эмоционально неустойчивый – уравновешенного, слабый – сильного, зависимый – доминантного, а робкий или застенчивый – активного и общительного. Эти типы взаимодействий, по мнению автора, способствуют балансировке потребностей и способствуют формированию стабильных, относительно неконфликтных супружеских отношений.

Таким образом, хотя теория Уинча акцентирует внимание на значимости психологической комплементарности, современные исследования показывают, что как сходство, так и взаимодополняемость могут играть важную роль в установлении гармоничных и прочных брачных союзов.

В последние годы цифровизация межличностного взаимодействия привела к кардинальным изменениям в практике выбора брачного партнёра. Онлайн-знакомства, социальные сети и алгоритмические платформы поиска совместимости стали значимым элементом романтических стратегий молодёжи по всему миру. Современные цифровые технологии трансформируют способы социализации и межличностной коммуникации молодёжи. Исследования показывают, что доминирование онлайн-знакомств оказывает влияние на мотивационную сферу выбора партнёра, усиливает индивидуализм, снижает ценность долгосрочной приверженности. Это вступает в противоречие с традиционной моделью подготовки к семейной жизни, характерной для каракалпакской культуры, где ключевую роль играют родовые нормы, ценностная преемственность и коллективные основания выбора.

Согласно Bruch & Newman [1] цифровая среда оказывает значительное влияние на структурные особенности «брачного рынка», способствуя как расширению круга потенциальных партнёров, так и усилению неравенства в выборе. В исследовании, основанном на больших данных с сайтов знакомств, пришли к выводу, что онлайн-знакомства усиливают тенденции "рыночного отбора": пользователи ориентируются на максимально привлекательные профили, а не на реальные ценности совместимости. Таким образом, наблюдается рост стратегий «оптимизации» вместо углублённого понимания партнёрства. Это, по мнению авторов, снижает вероятность долговременной стабильности в отношениях. Bruch & Newman показали, что алгоритмы онлайн-платформ меняют традиционные механизмы социализации, создавая иллюзию большого выбора, но фактически снижая устойчивость пар. Это контрастирует с традиционной каракалпакской моделью, где выбор супруга сопровождался участием семьи, родовой экспертизой и культурными фильтрами (например, по происхождению, этике, родословной).

Исследование В. Капраро и соавторов [2] показало, что даже в условиях непрозрачной репутации индивиды склонны избегать партнёров с негативным социальным фоном, что усиливает мотивацию к кооперативному поведению при условии, что существует возможность быть выбранным. Это подчёркивает значимость социального признания и общественной оценки в формировании готовности к партнёрским отношениям и может быть применимо к системе подготовки молодежи к семейной жизни, в частности, в обществах с высокой значимостью коллективной морали, как, например, у каракалпаков.

Психологический анализ гипотезы соответствия в сетях, основанный на исследовании Тао Цзя, Роберта Ф. Спайви, Болеслава Шимански и Дьёрдя Корниссa [4], позволяет по-новому взглянуть на классическую социально-психологическую концепцию выбора партнёра. Гипотеза соответствия в социальной психологии утверждает, что индивиды склонны выбирать партнёров с уровнем привлекательности, схожим с их собственным. Это объясняется потребностью в предсказуемости, безопасности и снижении риска отвержения. С точки зрения авторов, данный эффект может быть не столько результатом сознательной стратегии выбора, сколько побочным продуктом ограничений социальной среды, представленной в виде сетей. Авторы моделируют реальный социальный контекст в виде сетей, где у разных индивидов разное количество связей («степеней»). В этой структуре:

- менее привлекательные индивиды, обладая ограниченными связями, реже находят себе пару, а если находят — это часто более привлекательные партнёры. Это может вызывать когнитивный диссонанс у индивида или, напротив, повышать его самооценку.

- в разреженных сетях эффект гипотезы соответствия снижается, поскольку меньше возможностей для выбора. Это демонстрирует, что психологическая стратегия выбора во многом обусловлена социальным контекстом и возможностями, а не только внутренними установками.

Если в сети существует положительная корреляция между количеством связей (степенью) и привлекательностью, это может привести к отрицательной корреляции в парах. Например, высоко привлекательный человек с множеством связей может выбрать менее привлекательного партнёра из-за других характеристик (доступность, сходство взглядов и пр.). Это подтверждает, что реальные отношения выходят за рамки внешней привлекательности**,** и социально-психологические факторы (сходство, эмпатия, общность целей) играют роль, особенно в условиях ограниченного выбора. Работа подчёркивает, что гипотеза соответствия не является универсальной истиной, а скорее — динамическим социально-психологическим эффектом**,** который модулируется контекстом сети**,** доступностью связей и социальной архитектурой. Это позволяет психологии более реалистично и комплексно подходить к объяснению романтических и семейных предпочтений, особенно в эпоху цифровых платформ, где топология сети и алгоритмы напрямую влияют на шансы найти партнёра.

В контексте этнокультурной модели подготовки к семейной жизни, характерной для каракалпакской традиции, происходит смещение акцентов:

Таблица 1.

Традиционная и цифровая модели выбора партнёра

Традиционные критерии выбора партнёра	**Цифровая модель знакомства**
Родственные связи, советы старших, соблюдение обрядов	Алгоритмы, геолокация, внешняя привлекательность
Этнопсихологическая совместимость, роль семьи, общинные ценности	Индивидуализм, быстрая смена партнёров, «эмоциональный кастинг»
Ритуалы сватовства, согласие семей	Личное решение, минимальное участие родителей

Несмотря на очевидные преимущества цифровых платформ — удобство, свобода выбора, разнообразие контактов — они вносят определённый риск в формирование устойчивых брачно-семейных установок. Отсутствие многоступенчатой подготовки, ослабление института родительской поддержки и доминирование внешне-ориентированных факторов увеличивают вероятность конфликтов, разводов и фрустрации ожиданий.

Важно отметить, что современная молодёжь оказывается между двух полюсов: с одной стороны, цифровая среда провоцирует «ускоренное сближение», а с другой — не компенсирует дефицит навыков построения долгосрочных отношений, который традиционно формировался в семье и культуре.

Таким образом, интеграция цифровых аспектов в национальные модели подготовки к семейной жизни требует учёта:

1. Иерархии цифрового привлекательности – как это влияет на самооценку и выбор;
2. Социальных сетей – важность числа и качества социальных контактов наряду с индивидуальными характеристиками;
3. Коммуникационных стратегий – развитие навыков осознанного само презентованные и критического восприятия онлайн-каналов.

С точки зрения этнокультурной модели (Каракалпакстан, Узбекистан), можно предложить следующее применение:

- обучающий модуль по цифровой гигиене интимности: повышение медиа-грамотности, формирование этики общения, критического отношения к онлайн-представлениям.
- когнитивный компонент формирования устойчивого образа семьи, преодоленная иллюзий, создаваемых алгоритмами платформ.
- поведенческий компонент**:** практики безопасного и ответственного взаимодействия — умение фильтровать, выбирать и регулировать онлайн-партнёрства.

Вывод: современные цифровые технологии требуют дополнения традиционной семейной педагогики компонентом обучения рефлексивному выбору партнёра в цифровом пространстве.

Литература.

1. Bruch, E. E., & Newman, M. E. J. (2018). *Aspirational pursuit of mates in online dating markets*. Science Advances, 4, eaap9815. https://doi.org/10.48550/arXiv.1808.04840
2. Capraro, V., Giardini, F., Vilone, D., & Paolucci, M. (2016). *Partner selection supported by opaque reputation promotes cooperative behavior*. Judgment and Decision Making, 11(6), 589–600. https://doi.org/10.48550/arXiv.1610.01993
3. Freud, S. (2024). *Я и Оно* (Das Ich und das Es) / пер. с нем. — М.: АСТ. — 352 с.
4. Jia, T., Spivey, R. F., Szymanski, B., & Korniss, G. (2015). *An analysis of the matching hypothesis in networks*. PLOS ONE, 10(6), e0129804. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0129804
5. Murstein, B. J. (1976). *Who Will Marry Whom? Theories and Research in Marital Choice*. — P. 777–792.
6. Winch, R. F. (1971). *Mate selection: A Study of Complementary Needs*. Brown Reprints. — 349 с.

Usmanov Nodirbek Baxramovich
Qarshi davlat universiteti Pedagogika fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari,
Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

EKSTREMAL VAZIYATLI HOLATLARDA O'SMIRLARDA IJTIMOIY-PSIX-OLOGIK HIMOYALASH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Ekstremal vaziyatlarda o'smirlarning ruhiy salomatligi jiddiy xavf ostida qoladi, bu esa ijtimoiy-psixologik himoyalanish mexanizmlarining samarali ishlashini talab etadi. Ushbu tadqiqotda o'smirlarning stress, beqarorlik va xavf tahdidi ostidagi holatlarda namoyon bo'ladigan asosiy himoya mexanizmlari va ularning xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqot doirasida moslashuvchan va nomoslashuvchan himoya strategiyalari – xususan, bostirish, proyeksiya, ratsionalizatsiya va regressiya kabi usullar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, psixologik barqarorlikni ta'minlovchi ijtimoiy yordamning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Himoyalanish strategiyalarini tanlashda yosh va individual farqlar ham e'tiborga olinadi.*

Kalit so'zlar: *o'smirlar, ekstremal vaziyatlar, ijtimoiy-psixologik himoya, himoya mexanizmlari, stress, psixologik barqarorlik, moslashuvchan strategiyalar.*

МЕХАНИЗМЫ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ ПОДРОСТКОВ В ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ

Аннотация. *В экстремальных ситуациях психическое здоровье подростков подвергается значительному риску, что требует эффективных механизмов социальной и психологической защиты. В данной работе рассматриваются основные формы и особенности проявления защитных механизмов у подростков в условиях стресса, нестабильности и угрозы. Исследование раскрывает роль адаптивных и неадаптивных стратегий защиты, включая вытеснение, проекцию, рационализацию и регрессию, а также значимость социальной поддержки как ресурса психологической устойчивости. Особое внимание уделяется возрастным и индивидуальным различиям в выборе стратегий психологической защиты.*

Ключевые слова: *подростки, экстремальные ситуации, социально-психологическая защита, защитные механизмы, стресс, психологическая устойчивость, адаптивные стратегии.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL DEFENSE MECHANISMS OF ADOLESCENTS IN EXTREME SITUATIONS

Abstract. *In extreme situations, adolescents' mental health is at significant risk, necessitating effective social and psychological defense mechanisms. This study explores the key forms and characteristics of protective strategies manifested by adolescents under conditions of stress, instability, and perceived threat. The research examines both adaptive and maladaptive defense mechanisms such as repression, projection, rationalization, and regression, highlighting the role of social support as a resource for psychological resilience. Special attention is paid to age and individual differences in the choice of defense strategies.*

Keywords: *adolescents, extreme situations, socio-psychological defense, defense mechanisms, stress, psychological resilience, adaptive strategies.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda inson psixikasiga ta'sir qiluvchi omillar soni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, turli darajadagi ijtimoiy beqarorlik, tabiiy ofatlar, zo'ravonlik, migratsiya, pandemiyalar, urushlar yoki oila ichidagi keskinlik kabi ekstremal vaziyatlar jamiyatning eng himoyasiz qatlamlaridan biri bo'lgan o'smirlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'smirlik yoshi o'z mohiyatiga ko'ra murakkab va keskin o'zgarishlarga boy davr bo'lib, unda shaxsiy o'zlikni anglash, mustaqil

qarorlar qabul qilish, hayotiy maqsadlarni shakllantirish kabi jarayonlar faol kechadi. Bunday nozik psixologik davrda yuzaga keladigan keskin ijtimoiy-emosional bosimlar o‘smirlarning ruhiy barqarorligiga jiddiy tahdid soladi.

Shu nuqtai nazardan, o‘smirlarning psixik salomatligini saqlash, ularning ichki barqarorligini ta’minlash va salbiy omillarga qarshi kurasha olish qobiliyatini shakllantirish masalalari bugungi kun psixologiyasi uchun ustuvor yo‘nalishlardan biri sanaladi. Aynan ijtimoiy-psixologik himoyalanish mexanizmlari o‘smirga murakkab va xavfli holatlarda o‘zini saqlab qolish, psixologik holatini barqarorlashtirish va moslashuvchan yo‘l tutish imkonini beradi. Bu mexanizmlar ongli yoki ongsiz tarzda faol bo‘lib, shaxsni stressdan, ichki qarama-qarshiliklardan va xavfli tashqi ta’sirlardan muhofaza qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar ekstremal vaziyatlarda turlicha psixologik himoya strategiyalarini qo‘llaydilar. Kimdir muammodan qochishga urinadi, kimdir uni inkor etadi, yana boshqalar esa uni chuqur tahlil qilib, ijobiy echim topishga intiladi. Bu esa, o‘z navbatida, moslashuvchan (adaptiv) va moslashuvchan bo‘lmagan (noadaptiv) himoya usullarini ajratish zaruratini yuzaga keltiradi. Moslashuvchan strategiyalar o‘smirning psixologik salomatligini saqlab qolishga xizmat qilsa, noadaptiv strategiyalar esa aksincha, ichki ziddiyatlarning chuqurlashishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, unda ekstremal vaziyatlarda o‘smirlarning qanday psixologik himoya mexanizmlarini faollashtirishi, bu mexanizmlarning shaxs rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta’siri, shuningdek, psixologik yordam ko‘rsatishning samarali usullari tahlil qilinadi. Shu asosda, o‘smirlarning psixologik himoyalanish xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ularning ruhiy muvozanatini ta’minlash va sog‘lom shaxs sifatida shakllanishiga ko‘maklashish uchun muhim amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar tahlili.

Ekstremal vaziyatlarda o‘smirlarning psixologik holatini barqaror saqlash, stress va xavfga nisbatan moslashuvchanlikni oshirish muammosi zamonaviy psixologiyada alohida ilmiy-tekshiruv obyekti sifatida shakllangan. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar ijtimoiy-psixologik himoyalanish mexanizmlarining turli shakllarini aniqlash, ularning rivojlanish dinamikasini tushunish hamda shaxsni salbiy omillardan muhofaza qilishdagi o‘rnini tahlil qilishga qaratilgan.

Ushbu masalaga birinchi bo‘lib psixoanalitik nuqtai nazardan yondashilgan bo‘lib, Z. Freyd (1926) psixik himoya mexanizmlarini inson ongi o‘zini saqlash mexanizmi sifatida izohlaydi. Keyinchalik A. Freyd (1936) bu nazariyani rivojlantirib, himoya usullarining bolalik va o‘smirlik davrida qanday shakllanishini, ularning ruhiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyatini ochib bergan. J. Byulbi (1969) va M. Ainsworth (1978) tomonidan ishlab chiqilgan *bog‘lanish nazariyasi* ham o‘smirlarning xavfli holatlarga qanday emotsional javob berishini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Stress va unga qarshi kurashish mexanizmlari R. Lazarus va S. Folkman (1984) tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ularning fikricha, ekstremal sharoitlarda yuzaga keladigan emotsional diskomfortga qarshi kurashishda ongli va ongsiz himoyalanish strategiyalari muhim rol o‘ynaydi. Bu strategiyalar ichki nizolarni yumshatish va tashqi tahdidlar bilan murosaga kelishga qaratilgan. Ular "muammo markazli" va "emotsiya markazli" moslashuv uslublarini farqlaydi, bu esa o‘smirning individual psixologik xususiyatlariga bog‘liq ravishda turlicha shakllanadi.

G. Vaillant (1992) esa psixologik himoya mexanizmlarini rivojlanish darajasiga ko‘ra toifalarga ajratadi: primitiv (masalan, inkor etish), oraliq (masalan, proyeksiya), va yyetuk (masalan, sublimatsiya). Aynan o‘smirlik davrida bu mexanizmlar aktivlashadi va shaxsiy identifikatsiya shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Rossiyalik olimlar ham ushbu masalaga chuqur e’tibor qaratgan. Jumladan, L.S. Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasi (1934) shaxs shakllanishida ijtimoiy muhit va madaniyatning hal qiluvchi rolini asoslab bergan. A.N. Leontyev va A.R. Luriya kabi faoliyat nazariyasining vakillari o‘smirlarning harakatlari, motivlari va emotsional holatlarini psixik rivojlanish bilan uzviy bog‘lagan. V.V.

Boyko, L.I. Antsyferova, E.A. Klimov, T.V. Kornilova kabi olimlar shaxsning stressga chidamliligi, moslashuv darajasi va psixologik muvozanatini saqlab qolish mexanizmlarini tahlil qilganlar.

V.V. Boyko (1996) o‘z asarlarida psixologik himoyalanishni emotsional-psixologik barqarorlikni ta’minlovchi muhim vosita sifatida izohlaydi. U tomonidan ishlab chiqilgan stress diagnostikasi va himoya strategiyalarini o‘lchash metodikalari amaliy psixologiyada keng qo‘llaniladi. T.V. Kornilova esa kognitiv stil, ehtimollikni baholash va xavfga munosabatni o‘smirlar misolida o‘rganib, ekstremal vaziyatlarda qabul qilinadigan qarorlarning psixologik mexanizmlarini ochib bergan.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar ham bu borada bir qator izlanishlar olib borishgan. Jumladan, Z.A. Karimova, M.S. Sattorov, Z.M. Sayfullaeva, M. Tojiboyev kabi olimlar o‘smirlar psixologiyasini, ularning stressga nisbatan moslashuvi va ijtimoiy-psixologik muhit ta’sirida shakllanadigan himoya xatti-harakatlarini o‘rganib kelmoqdalar. Z.A. Karimova (2010) o‘smirlar shaxsining shakllanishida ijtimoiy omillar va ichki psixologik resurslarning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilgan bo‘lsa, M.S. Sattorov (2018) ekstremal holatlarda yuzaga keladigan affektiv buzilishlar va ularni bartaraf etish usullariga alohida e’tibor qaratgan.

Shu tariqa, xalqaro, rus va mahalliy ilmiy manbaalar ekstremal holatlar sharoitida o‘smirlarning psixologik himoyasi masalasiga turli nazariy va empirik yondashuvlarni taklif etadi. Ularning umumiy xulosasi shundan iboratki, ijtimoiy-psixologik himoyalanish mexanizmlari o‘smir shaxsining ichki muvozanatini saqlash, emotsional stressni kamaytirish va salbiy omillar ta’sirini yengillashtirishda markaziy rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, bu mexanizmlarning samaradorligi o‘smirning yosh xususiyatlari, ijtimoiy tajribasi, tarbiyaviy muhiti hamda psixologik yordamning mavjudligiga bevosita bog‘liqdir.

Muhokama.

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng muhim psixologik bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda shaxsiylikni anglash, ijtimoiy rollarni qabul qilish va emotsional mustaqillikni shakllantirish jarayonlari faol kechadi. Ayni shu bosqichda ro‘y beradigan har qanday ekstremal vaziyat — xoh u tabiiy ofat, urush, oila ichidagi zo‘ravonlik, migratsiya, jismoniy tahdid yoki ijtimoiy ajratilish bo‘lsin — o‘smirning ruhiy muvozanatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu holatlar sharoitida o‘smirlar o‘z ichki dunyosini saqlab qolish va tashqi tahdidlar bilan kurashish uchun turli ijtimoiy-psixologik himoyalanish mexanizmlarini ishga soladilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekstremal vaziyatlarda o‘smirlar ongli yoki ongsiz tarzda himoyalanishga harakat qiladilar. Bu mexanizmlar, odatda, klassik psixoanalizda ko‘rsatilganidek (Z. Freyd, A. Freyd), repressiya (bostirish), proyeksiya, ratsionalizatsiya, regressiya, inkor etish kabi usullardan iborat bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy yondashuvlarda ushbu himoya strategiyalari ijtimoiy o‘zaro ta’sir, madaniyat, kognitiv rivojlanish va shaxsiy moslashuv darajasi bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Bu mexanizmlarning faollashuvi o‘smirning shaxsiy resurslariga, uning oilaviy va ijtimoiy muhitiga, stressga nisbatan chidamliligiga, shuningdek, psixologik yordamga bo‘lgan imkoniyatlariga bevosita bog‘liqdir.

Ekstremal holatlar sharoitida ayrim o‘smirlar moslashuvchan (adaptiv) himoya strategiyalarini ishlab chiqadilar: masalan, hazil, sublimatsiya (ya’ni ichki ziddiyatlarni ijtimoiy maqbul faoliyatga yo‘naltirish), muammoga qaratilgan faol harakat. Bu strategiyalar o‘smirning psixologik barqarorligini saqlab qolishga, ijtimoiy rolini muvaffaqiyatli egallashga va o‘zini qadrlash hissini saqlab qolishga yordam beradi. Boshqa holatlarda esa, o‘smirlar nomoslashuvchan (noadaptiv) himoya usullariga murojaat qiladilar — inkor etish, qochish, passivlik, tajovuzkorlik yoki ichki chekinish (introversiya). Bu esa shaxsda depressiv holatlarning, xavotir, yolg‘izlanish yoki ijtimoiy izolyatsiyaning kuchayishiga olib keladi.

Muhimi shundaki, o‘smirlar o‘zlarida yuz berayotgan psixologik holatni har doim tushuna olmasliklari yoki uni ifoda etishda qiynalishlari mumkin. Bu holatda ularning himoyalanish strategiyalari ularning emotsional ifoda qobiliyati, kommunikativ ko‘nikmalari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, oilaning hissiy iliqligi, do‘stona munosabatlar,

maktabdagi psixologik iqlim, o‘qituvchilar va psixologlarning yondashuvi o‘smirning ichki barqarorligini mustahkamlovchi muhim omillardir.

Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘smirlar o‘z shaxsiy resurslariga ko‘ra turlicha himoyalanish strategiyalarini tanlaydilar. Yuqori reflektivlikka ega bo‘lgan, o‘zini anglash darajasi yuqori bo‘lgan o‘smirlar, odatda, ijobiy yechimlarga intiladi. Past sotsial kompetensiyaga ega bo‘lgan, o‘zini anglash yoki emotsiyalarni boshqarish ko‘nikmalari rivojlanmagan o‘smirlar esa, aksincha, destruktiv yo‘nalishdagi strategiyalarni tanlaydi.

Shu o‘rinda, shuni alohida ta’kidlash lozimki, himoyalanish mexanizmlarining o‘zi ijobiy yoki salbiy emas. Ular shunchaki shaxsning ichki muvozanatini saqlashga qaratilgan tabiiy psixik reaksiyalardir. Ammo ularning qaysi biri dominant bo‘lishi, qanday sharoitda va qanday muddatga qo‘llanilishi ularning foydali yoki zararli bo‘lishini belgilaydi. Shu sababli, psixologik amaliyotda muhim vazifa — bu mexanizmlarni tushunish, ularni aniqlash va zarurat tug‘ilganda ularni konstruktiv shaklga o‘zgartirishga ko‘maklashishdir.

Ekstremal vaziyatlar sharoitida o‘smirlar ko‘p hollarda o‘zini himoyalash uchun ong osti va ongli strategiyalarni uyg‘unlashtirgan holda harakat qiladilar. Bu strategiyalarning qanday shakllanishi va namoyon bo‘lishi esa murakkab, ko‘p faktorlu tizim — biologik, psixologik va sotsiokultural omillar birligida yuzaga keladi. Shuning uchun ham, o‘smirlarning psixologik himoyalanish jarayonlarini chuqur tushunish, ularni tahlil qilish va shu asosda samarali psixologik yordam mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy psixologiyaning muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Xulosa.

Ekstremal vaziyatlar o‘smir shaxsiyatining shakllanishiga kuchli psixologik ta’sir ko‘rsatadi. Bunday holatlarda yuzaga keladigan stress, xavotir va ichki ziddiyatlarga qarshi kurashishda ijtimoiy-psixologik himoyalanish mexanizmlari o‘smirlar uchun muhim psixik resurs hisoblanadi. Himoya strategiyalari o‘smirning emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi va ijtimoiy moslashuv darajasini ta’minlashda markaziy rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, adaptiv (moslashuvchan) strategiyalar shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlasa, noadaptiv (destruktiv) strategiyalar ruhiy salomatlikka xavf tug‘diradi. O‘smirning himoyalanish usullarini qanday tanlashi esa uning individual xususiyatlari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi va madaniy muhitga bog‘liq. Shu boisdan, o‘smirlarning psixologik himoyalanish xususiyatlarini aniqlash, ularni ijobiy yo‘naltirish va zaruratda psixologik yordam ko‘rsatish zamonaviy psixologik amaliyotning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Freud, S. (1926). *Inhibitions, Symptoms and Anxiety.* London: The Hogarth Press. – 130 b.
2. Freud, A. (1936). *The Ego and the Mechanisms of Defence.* London: Karnac Books. – 235 b.
3. Vaillant, G. E. (1992). *Ego Mechanisms of Defense: A Guide for Clinicians and Researchers.* Washington, DC: American Psychiatric Press. – 421 b.
4. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). *Stress, Appraisal, and Coping.* New York: Springer Publishing Company. – 456 b.
5. Erikson, E. H. (1968). *Identity: Youth and Crisis.* New York: W.W. Norton & Company. – 336 b.
6. Bowlby, J. (1969). *Attachment and Loss: Vol. 1. Attachment.* New York: Basic Books. – 428 b.
7. Bandura, A. (1986). *Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory.* Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall. – 617 b.
8. Levy, T. M., & Orlans, M. (2014). *Attachment, Trauma, and Healing: Understanding and Treating Attachment Disorder in Children and Families.* London: Jessica Kingsley Publishers. – 367 b.
9. Выготский, Л.С. (1984). *Собрание сочинений: В 6 т. Т. 4. Детская психология.* — М.: Педагогика. – 432 с.

10. Леонтьев, А.Н. (1977). *Деятельность. Сознание. Личность.* — М.: Политиздат. – 304 с.
11. Бойко, В.В. (1996). *Энергия эмоций в общении: взгляд на себя и на других.* — М.: Филинъ. – 412 с.
12. Корнилова, Т.В. (2003). *Психология риска и принятия решений.* — М.: МГУ. – 198 с.
13. Климов, Е.А. (2003). *Психология профессионального самоопределения.* — М.: Академический проект. – 320 с.
14. Анцыферова, Л.И. (1994). *Психология личности и жизненного пути.* — М.: Наука. – 272 с.
15. Karimova, Z.A. (2010). *O‘smirlar psixologiyasi.* — Toshkent: O‘qituvchi. – 240 b.
16. Sattorov, M.S. (2018). *Ekstremal vaziyatlarda shaxs psixologiyasi.* — Toshkent: Fan. – 164 b.
17. Sayfullayeva, Z.M. (2016). *Yoshlar psixologiyasi va ijtimoiy moslashuv.* — Toshkent: Ilm Ziyo. – 182 b.
18. Tojiboyev, M. (2021). *Shaxsning psixologik himoyalanish mexanizmlari.* — Samarqand: Registon. – 128 b.

Qobilov Husniddin
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

EMOTSIONAL ZO‘RIQISHNING IJTIMIOIY-PSIXOLOGIK TAVSIFI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada emotsional zo‘riqish tushunchasining ijtimoiy va psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Stressning shakllanishiga olib keluvchi asosiy omillar, uning shaxs salomatligi va ijtimoiy munosabatlarga ta’siri keng yoritilgan. Tadqiqotda emotsional zo‘riqishning nazariy asoslari, psixologik mexanizmlari, bosqichlari va individual reaksiya shakllari chuqur o‘rganiladi. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda tez-tez uchrayotgan stress holatlarining mehnat muhitidagi, oilaviy munosabatlardagi va ta’lim tizimidagi ko‘rinishlari ilmiy asosda bayon etiladi. Shuningdek, emotsional zo‘riqishni baholash usullari, stressni kamaytirishga qaratilgan psixologik strategiyalar hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhim yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqiladi. Muallif ushbu muammoning dolzarbligini asoslab, jamiyatda psixologik madaniyatni oshirish, stressga chidamli shaxsni shakllantirish bo‘yicha takliflar bildiradi. Maqola psixologlar, pedagoglar, tibbiyot mutaxassislari va sotsiologlar uchun foydali manbaa bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so’zlar: *emotsional zo‘riqish, psixologik stress, ijtimoiy psixologiya, stress bosqichlari, psixosomatik kasalliklar, kognitiv-behavioristik yondashuv, psixodinamik yondashuv.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL DESCRIPTION OF EMOTIONAL STRESS

Abstract. *This article analyzes the social and psychological aspects of the concept of emotional stress. The main factors leading to the formation of stress, its impact on personal health and social relations are widely covered. The study deeply studies the theoretical foundations, psychological mechanisms, stages and individual reaction patterns of emotional stress. In particular, the manifestations of stress situations that are common in modern society in the work environment, family relationships and the education system are scientifically described. Also, methods for assessing emotional stress, psychological strategies aimed at reducing stress, and social support are considered as important areas. The author substantiates the relevance of this problem and makes proposals for increasing psychological culture in society and forming a stress-resistant personality. The article serves as a useful resource for psychologists, educators, medical specialists and sociologists.*

Keywords: *emotional stress, psychological stress, social psychology, stress stages, psychosomatic diseases, cognitive-behavioral approach, psychodynamic approach.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СТРЕССА

Аннотация. *В данной статье анализируются социальные и психологические аспекты понятия эмоционального стресса. Широко освещены основные факторы, приводящие к формированию стресса, его влияние на личное здоровье и социальные отношения. В исследовании глубоко изучаются теоретические основы, психологические механизмы, стадии и индивидуальные закономерности реагирования эмоционального стресса. В частности, научно описаны проявления стрессовых ситуаций, распространенных в современном обществе в рабочей среде, семейных отношениях и системе образования. Также в качестве важных направлений рассматриваются методы оценки эмоционального стресса, психологические стратегии, направленные на снижение стресса, социальная поддержка. Автор обосновывает актуальность данной проблемы и вносит предложения по повышению психологической культуры в обществе и формированию стрессоустойчивой личности. Статья служит полезным ресурсом для психологов, педагогов, медицинских специалистов и социологов.*

Ключевые слова: *эмоциональный стресс, психологический стресс, социальная психология, стадии стресса, психосоматические заболевания, когнитивно-поведенческий подход, психодинамический подход.*

Kirish. Zamonaviy inson hayoti turli xil ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, kundalik turmush tarzida doimiy o‘zgarishlarga duch keladi. Bunday holatlar, ayniqsa, jadal rivojlanayotgan jamiyatlarda shaxsning psixologik muvozanatini buzadi va ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Inson ongida yuzaga keladigan bu holatlar orasida emotsional zo‘riqish (psixologik stress) muhim o‘rin tutadi. Bu holat inson ruhiyatining tashqi omillarga bo‘lgan javob reaksiyasi sifatida namoyon bo‘lib, shaxsiy faoliyat, ijtimoiy munosabatlar va sog‘liq darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Emotsional zo‘riqish ijtimoiy va psixologik jihatdan murakkab hodisa hisoblanadi. U ko‘pincha professional faoliyat, oilaviy munosabatlar, moliyaviy muammolar, ijtimoiy bosim yoki ijtimoiy rolning ortiqcha yuklamalari tufayli yuzaga keladi. Bu holat nafaqat shaxsning ichki dunyosini, balki uning atrofidagi ijtimoiy muhitni ham izdan chiqarishi mumkin. Shu bois, emotsional zo‘riqish muammosi bugungi kunda nafaqat psixologlar, balki sotsiologlar, pedagoglar va tibbiyot mutaxassislari tomonidan ham keng o‘rganilmoqda. Ayniqsa, ish faoliyati bilan band bo‘lgan, yuqori mas’uliyat yuklatilgan insonlar, o‘qituvchilar, tibbiyot xodimlari, huquq-tartibot organlari xodimlari va talabalar stressga ko‘proq moyil bo‘lib, ularning ruhiy zo‘riqish darajasi jamiyatdagi umumiy psixologik salomatlik holatini ham belgilaydi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda stress va ruhiy charchoq bilan bog‘liq muammolar salomatlik darajasiga salbiy ta’sir qilayotgan asosiy omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu munosabat bilan, emotsional zo‘riqishni chuqur tahlil qilish, uning asosiy ijtimoiy va psixologik sabablari, rivojlanish mexanizmlari va oldini olish usullarini aniqlash zamonaviy psixologiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Emotsional zo‘riqishni erta bosqichda aniqlash va unga qarshi kurashish yo‘llarini ishlab chiqish orqali jamiyatdagi umumiy ruhiy sog‘lomlik darajasini oshirish mumkin. Mazkur maqolada emotsional zo‘riqish tushunchasining ijtimoiy-psixologik mohiyati, stressning kelib chiqish omillari, uning inson shaxsiyatiga ko‘rsatadigan salbiy oqibatlari, shuningdek, ushbu holatning oldini olish va uni yengish strategiyalari atroflicha yoritiladi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, emotsional zo‘riqish har qanday insonning hayotida uchraydi va unga befarq bo‘lish sog‘liq, ijtimoiy munosabatlar va hayot sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Asosiy qism.

Emotsional zo‘riqish tushunchasi ilk bor 20-asrning o‘rtalarida Gans Selye tomonidan kiritilgan bo‘lib, u organizmning har qanday tahdidga nisbatan javob reaksiyasini “stress” deb atagan. Keyinchalik bu tushuncha turli psixologik maktablar tomonidan chuqurroq o‘rganilib, unga emotsional, kognitiv va ijtimoiy jihatlar qo‘shildi. Bugungi kunda emotsional zo‘riqish bu insonning atrof-muhitdagi salbiy omillarga javoban boshidan kechirayotgan ichki tarangligi, xavotiri va psixofiziologik nomutanosibligi deb qaraladi. Kognitiv-behavioristik yondashuvlarda bu holat shaxsning vaziyatga noto‘g‘ri baho berishi yoki unga real imkoniyatlaridan ortiq yuklanishi natijasida paydo bo‘ladi. Psixodinamik maktabda esa bu holat ichki konflikt va bostirilgan his-tuyg‘ular natijasi sifatida talqin qilinadi. Stress jarayoni bosqichma-bosqich kechadi. Birinchi bosqich tashqi xavfga javob sifatida organizmning ogohlik holatiga o‘tishi. Bu bosqichda yurak urishi tezlashadi, mushaklar taranglashadi, nafas olish kuchayadi. Ikkinchi bosqich moslashuv bosqichi bo‘lib, bu paytda organizm stressga moslashishga harakat qiladi. Agar stress omili davom etsa, uchinchi bosqich charchash bosqichi boshlanadi. Bu bosqichda organizmning resurslari kamayadi, ruhiy beqarorlik, depressiv holatlar, somatik kasalliklar paydo bo‘ladi. Stressning mexanizmlarini anglash orqali uni erta aniqlash va oldini olish imkoniyati yaratiladi. Psixologik himoya mexanizmlari repressiya, kompensatsiya, sublimatsiya kabi vositalar bilan stressni kamaytirishga harakat qilinadi, biroq ularning samarasizligi holatida professional yordam zarur bo‘ladi.

Emotsional zo‘riqish faqat biologik yoki psixik emas, balki chuqur ijtimoiy ildizlarga ega hodisadir. Ijtimoiy stratifikatsiya, gender tengsizligi, iqtisodiy bosim, ijtimoiy kutishlar va ommaviy madaniyatda mavjud stereotiplar insonning ruhiy holatiga doimiy ta’sir ko‘rsatadi. Inson o‘zining ijtimoiy maqomiga mos kela olmasligi yoki jamiyat tomonidan qadrlanmaganligini his qilganida, unda ichki norozilik, xavotir va stress kuchayadi. Ayniqsa, o‘zaro raqobat kuchli bo‘lgan ijtimoiy guruhlarda, mehnat jamoalarida va ta’lim muassasalarida stress holatlari tez-tez uchraydi. Internet va

ijtimoiy tarmoqlarning bosimi ham yangi tipdagi stress manbaalarini keltirib chiqarmoqda. Ijtimoiy muhitdagi har qanday salbiy o‘zgarish yoki ziddiyat emotsional zo‘riqish ehtimolini oshiradi.

Emotsional zo‘riqish (stress) - bu insonning tashqi yoki ichki tahdidli vaziyatlarga nisbatan individual psixik va fiziologik reaksiyasi bo‘lib, uning ichki resurslarini safarbar etishga majbur qiladi. Bu holat asosan shaxsning ichki muvozanatini buzuvchi omillar ta’sirida yuzaga keladi va vaqt o‘tishi bilan ruhiy charchoq, depressiya, motivatsiyaning pasayishi kabi belgilar bilan namoyon bo‘ladi. Psixologiyada bu holatni Hans Selyening umumiy moslashuv sindromi nazariyasi orqali tushuntirish mumkin. Unga ko‘ra, stress uch bosqichda kechadi: xavfga javob, moslashuv va charchash. Emotsional zo‘riqishning davomiyligi va intensivligi shaxsning psixik mustahkamligiga bog‘liq bo‘lib, har bir odam uni o‘ziga xos tarzda boshdan kechiradi. Bu hodisa individual emotsional barqarorlik, temperament, tarbiya, hayotiy tajriba va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasiga ham bevosita ta’sir qiladi.

Insonning ijtimoiy muhitdagi o‘rni va faoliyati emotsional holatining shakllanishida katta rol o‘ynaydi. Ish o‘rnidagi bosim, mehnat sharoitining qiyinligi, rahbar bilan bo‘lgan nizolar, ish haqi muammolari va o‘zini qadrlanmagan his qilish stressga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, oilaviy nizolar, ijtimoiy rol ziddiyatlari, axborot ortiqligi, ommaviy axborot vositalarining salbiy xabarlari inson ruhiyatini izdan chiqaradi. Talabalarda esa o‘qishdagi bosim, baholash tizimi, ijtimoiy taqqoslashlar va kelajakdagi noaniqliklar stress manbaalariga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, pandemiyalar, urushlar, ishsizlik kabi global ijtimoiy hodisalar ham keng miqyosda ruhiy zo‘riqishni kuchaytiradi. Bularning barchasi stress holatining ijtimoiy ildizlarini ko‘rsatadi va ularni inkor etish inson salomatligi uchun xavflidir. Doimiy emotsional zo‘riqish insonning nafaqat ruhiy, balki jismoniy salomatligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat gipertenziya, yurak-qon tomir kasalliklari, immunitetning pasayishi, ovqat hazm qilish buzilishlari, uyqusizlik va migren kabi kasalliklarni keltirib chiqaradi. Psixologik tomondan esa, stress xavotir, depressiya, tajovuzkorlik, ijtimoiy ajralish, o‘ziga ishonchsizlik, qaror qabul qilishda noaniqlik va motivatsiyaning yo‘qolishiga olib keladi. Xulq-atvorda esa impulsivlik, nizolarga moyillik, passivlik yoki haddan ziyod faol bo‘lish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Uzoq davom etgan zo‘riqish holati shaxsning kognitiv faoliyatini, masalan, e’tibor, xotira va fikrlashni ham izdan chiqaradi. Bu esa nafaqat shaxsiy hayot, balki kasbiy faoliyatda ham unumdorlikning keskin pasayishiga sabab bo‘ladi.

Emotsional zo‘riqishni aniqlash uchun turli psixologik diagnostika usullari mavjud. Eng mashhurlaridan biri bu Lusher testi, Bek depressiya shkalasi, Hamilton tashvish shkalasi va Selye stress darajasi testi hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy psixologiyada biologik ko‘rsatkichlar asosida aniqlovchi metodlar ham qo‘llaniladi: yurak urish ritmi, kortizol darajasi, EKG, EEG kabi. Psixologik intervyu va so‘rovnomalar orqali shaxsning ichki kechinmalari va tashqi omillar ta’siri aniqlanadi. Tashxis jarayonida stressning sabablari, davomiyligi, shaxsning unga bo‘lgan individual munosabati va undan chiqish resurslari aniqlanadi. To‘g‘ri baholash emotsional zo‘riqish bilan samarali ishlashning birinchi bosqichidir. Ayniqsa, maktablar, universitetlar va korxonalarda muntazam monitoring yuritish stress profilaktikasida muhim rol o‘ynaydi. Emotsional zo‘riqishni yengish uchun shaxsiy va ijtimoiy yondashuvlar uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak. Shaxsiy strategiyalar ichida autogen mashqlar, nafas olish texnikalari, meditatsiya, sport mashg‘ulotlari, vaqtni boshqarish ko‘nikmalari asosiy o‘rinda turadi. Psixologik yordamda esa individual konsultatsiyalar, psixoterapiya, guruh terapiyasi va art-terapiya metodlari qo‘llaniladi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash - do‘stlar, oila, jamoa tomonidan ko‘rsatiladigan moral yordami ham stressni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Ta’lim muassasalarida stressga qarshi treninglar va psixologik seminarlar o‘tkazilishi zarur. Bundan tashqari, ish joylarida qulay mehnat muhitini yaratish, dam olish vaqtini tartibga solish, tibbiy-psixologik xizmatlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali stressning oldini olish mumkin. Har bir shaxs o‘z emotsional holatini anglab, uni boshqarishni o‘rganishi zarur.

Emotsional zo‘riqish inson hayotining ajralmas qismiga aylangan va uni inkor etish emas, anglash va boshqarish zarurdir. Har bir inson o‘zining ruhiy holatiga e’tiborli bo‘lishi, emotsional reaktsiyalarini tahlil qila olishi va stressga qarshi individual yondashuvlarni shakllantirishi kerak. Jamiyat esa stress manbaalarini kamaytirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy siyosat va amaliyotni yo‘lga qo‘yishi

lozim. Xususan, o‘qituvchilar, shifokorlar, talabalar va ishchilarning ruhiy salomatligini nazorat qilish uchun psixologik xizmatlar tizimi mustahkamlanishi zarur. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va ta’lim muassasalari orqali stress profilaktikasi bo‘yicha targ‘ibot ishlarini kuchaytirish muhim. Yurtimizda psixologik madaniyatni oshirish, stressga chidamli jamiyatni shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Muhokama.

Mazkur maqolada ko‘rib chiqilgan emotsional zo‘riqish hodisasi bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya, axborot ortiqligi va ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida tobora dolzarb muammoga aylanmoqda. Stress faqat shaxsiy emas, balki ijtimoiy fenomen sifatida ko‘rib chiqilishi lozim, chunki u insonning nafaqat ichki dunyosiga, balki atrof-muhit bilan bo‘lgan munosabatlariga ham bevosita ta’sir qiladi. Tadqiqot davomida emotsional zo‘riqishning kelib chiqish sabablari, ularning psixologik va ijtimoiy manbaalari chuqur tahlil qilinib, ayniqsa mehnat faoliyatida, o‘qish jarayonida va oilaviy hayotda bu holat ko‘proq uchrashi aniqlangan. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, emotsional zo‘riqish ko‘pincha ortiqcha yuklama, ijtimoiy tengsizlik, vazifalarning noto‘g‘ri taqsimlanishi va kommunikatsiya muammolaridan kelib chiqadi. Ayniqsa, pedagoglar, tibbiyot xodimlari, talabalar va oilaviy majburiyatlari ortib borayotgan ayollar orasida bu holat keng tarqalgan. Stress holatining davomiyligi ruhiy charchoq, emotsional beqarorlik, ijtimoiy izolyatsiya, hatto psixosomatik kasalliklar rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, maqolada stressning psixologik mexanizmlari bosqichma-bosqich yoritilib, Selye nazariyasiga tayangan holda stressning fiziologik bosqichlari va ularga javob sifatidagi organizm reaksiyalari izohlandi. Bu yondashuv stressni boshqarishda individual yondashuvning zarurligini ko‘rsatadi. Baholash usullari esa bizga bu holatni aniq tashxislash va individual reabilitatsiya yo‘llarini belgilash imkonini beradi. Muhokama jarayonida shuni ham ta’kidlash zarurki, har qanday stress holatini bartaraf etish faqat psixologik yondashuvlar bilan emas, balki tizimli va kompleks chora-tadbirlar orqali amalga oshirilishi kerak. Bu esa, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov, muvozanatli mehnat sharoiti, sog‘lom kommunikatsiya va yuqori psixologik madaniyat orqali amalga oshiriladi. Afsuski, bugungi kunda ko‘plab jamoaviy muassasalarda psixologik xizmatlar hali ham yyetarli darajada faol emas, bu esa stressning vaqtida aniqlanmasligiga olib keladi. Shu boisdan, emotsional zo‘riqishni ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan o‘rganish, bu holatni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish va ommalashtirish bugungi kunda nafaqat psixologlar, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun ustuvor vazifadir. Emotsional barqarorlikka erishish sog‘lom jamiyat va farovon kelajak garovidir.

Xulosa.

Emotsional zo‘riqish – bu insonning psixologik va ijtimoiy muvozanatini buzadigan, ichki resurslarini keskin kamaytiradigan va sog‘liq holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan murakkab holatdir. Maqolada ko‘rib chiqilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, emotsional zo‘riqish insonning faqat individual muammosi emas, balki jamiyat darajasida ko‘rilishi lozim bo‘lgan muhim ijtimoiy-psixologik hodisadir. Uning shakllanishiga professional yuklama, ijtimoiy rollarning nomutanosibligi, ma’naviy-axloqiy bosimlar, oilaviy va iqtisodiy ziddiyatlar, shuningdek, zamonaviy texnologik muhitning sur’atlari kabi omillar sabab bo‘ladi. Stress holati inson faoliyatining barcha sohalariga sog‘lig‘i, ijtimoiy munosabatlari, o‘quv va mehnat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ruhiy muvozanat buzilishi ko‘plab psixosomatik kasalliklarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bois, emotsional zo‘riqishni erta aniqlash, baholash va unga qarshi profilaktik choralarni ko‘rish psixologik madaniyatni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Xulosa qilib aytganda, har bir inson va jamoa stress omillarini anglab, ularni kamaytirishga qaratilgan yondashuvlar ishlab chiqmog‘i kerak. O‘z navbatida, davlat siyosatida psixologik salomatlikni ta’minlash, stressga chidamli shaxslarni tarbiyalash, ta’lim va mehnat muassasalarida psixologik xizmatlarni rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Sog‘lom ruhiy holat sog‘lom jamiyatning asosi ekanini unutmasligimiz zarur**.**

Foydalanilgan adabiyorlar ro’yxati.

1. Селье Ганс. Стресс без дистресса. - М.: Прогресс, 1979.
2. Абдуллаева Г.Ш. Psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2020.
3. Erkaev Sh.N., Hasanov M.X. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
4. Xolmatova N.N. Zamonaviy psixologiyaning asosiy yo‘nalishlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
5. Lazarus, R.S. & Folkman, S. Stress, Appraisal, and Coping. - New York: Springer Publishing Company, 1984.
6. Karimova Z.T. Psixologik maslahat va diagnostika asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
7. APA (American Psychological Association). Stress in America Survey Reports. – www.apa.org
8. Мироненко И.А. Психология личности в условиях стресса. – М.: Академия, 2017.
9. Barlow, D.H., Durand, V.M. Abnormal Psychology: An Integrative Approach. - Belmont: Cengage Learning, 2015.
10. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Ruhiy salomatlik bo‘yicha metodik qo‘llanma, 2022.

Akbarova Malohatoyimposhsha Saidto‘ra qizi
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

RAHBAR AYOLLARDA ISH BILAN BOG‘LIQ STRESSLARNI YENGISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada rahbar lavozimida ishlovchi ayollarning kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan stress holatlari va ularni yengishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Ayol rahbarlarning psixologik barqarorlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, oilaviy muhit bilan bog‘liq omillari stress darajasiga qanday ta’sir qilishi ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda statistik metodlar asosida stressni yengish usullarining samaradorligi baholangan.*

Kalit so‘zlar: *ayol rahbar, stress, psixologik barqarorlik, oilaviy muhit, ijtimoiy yordam, emotsional zo‘riqish.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРЕОДОЛЕНИЯ СТРЕССОВ, СВЯЗАННЫХ С РАБОТОЙ, У ЖЕНЩИН-РУКОВОДИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В статье рассматриваются социально-психологические особенности преодоления стрессов, связанных с профессиональной деятельностью женщин-руководителей. Анализируются факторы психологической устойчивости, социальной поддержки и семейной среды, влияющие на уровень стресса у женщин-руководителей. Эффективность методов преодоления стресса оценивается на основе статистических данных.*

Ключевые слова: *женщина-руководитель, стресс, психологическая устойчивость, семейная среда, социальная поддержка, эмоциональное напряжение*.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF OVERCOMING WORK-RELATED STRESS IN WOMEN LEADERS

Annotation. *This article analyzes the socio-psychological characteristics of coping with work-related stress among women in leadership positions. It explores how factors such as psychological resilience, social support, and family environment influence stress levels. The effectiveness of stress management strategies is evaluated using statistical analysis.*

Keywords: *female leader, stress, psychological resilience, family environment, social support, emotional strain.*

Rahbar ayollarda ish bilan bog‘liq stress holatlari ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lib, bu holatni tahlil qilishda individual psixologik xususiyatlar, genderga oid stereotiplar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi, mehnat jamoasidagi kommunikativ munosabatlar hamda shaxsning emotsional moslashuvchanligi alohida o‘rin tutadi. Ayollarning rahbarlik faoliyatida duch keladigan eng asosiy stress omillari sifatida mas’uliyat yukining ortishi, vaqt tanqisligi, qaror qabul qilishdagi bosim, ijtimoiy kutishlar, oilaviy hayot va kasbiy faoliyat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash kabi jihatlar ko‘rsatiladi. Ayniqsa, o‘zbek jamiyatida ayollardan nafaqat yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya, balki an’anaviy oilaviy rollarni bajarish ham kutiladi. Bunday ikkiyoqlama bosim sharoitida rahbar ayollarda stress darajasi erkaklarnikiga nisbatan ko‘proq namoyon bo‘lishi mumkin.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollarda stress holatiga nisbatan emotsional reaktivlik yuqoriroq bo‘lib, ularning stressni qabul qilish va unga moslashish strategiyalari individual shaxsiy fazilatlar bilan chambarchas bog‘liq. Ko‘plab ayollar stressni yengishda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga, yaqin insonlar bilan muloqotga, diniy va madaniy qadriyatlarga tayanadilar. Boshqa tomondan, ayrim rahbar ayollar o‘zlarining professional roli doirasida qat’iylik, avtonomiya, ratsional qaror qabul qilish, vaqtni boshqarish kabi strategiyalarni shakllantirish orqali stressni kamaytirishga intiladilar.

Shuningdek, rahbar ayollarning stressga chidamliligini shakllantirishda ijtimoiy-psixologik treninglar, psixoterapevtik yondashuvlar, relaksatsiya va meditativ amaliyotlar, o‘z-o‘zini anglash va motivatsiyani oshirish texnikalari samarali bo‘lishi mumkin. Ularning hayot tarziga kognitiv-emotsional tahlil qilish ko‘nikmalari, stressga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirish, moslashuvchan fikrlash, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatlar stressni yengishga ijobiy ta’sir qiladi.

Rahbar ayollarning ish faoliyatida duch keladigan stress omillari, ularning psixologik salomatligi va ijtimoiy muhitdagi o‘zaro ta’sirlarini o‘rganish bugungi kun psixologiyasi uchun dolzarb masalalardan biridir. Ayni paytda jamiyatda ayollar sonining rahbarlik lavozimlarida ortib borishi ularning kasbiy faoliyatiga xos bo‘lgan muammolarni chuqurroq o‘rganishni taqozo etadi. Ayollarning rahbarlik faoliyatida to‘qnash keladigan stress holatlari, ularni yengish strategiyalari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi, oilaviy majburiyatlar bilan kasbiy mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash kabi jihatlar ushbu mavzuning asosiy diqqat markazidir.

Ayollar rahbarlik faoliyatida erkaklarga nisbatan ko‘proq psixologik bosim, ijtimoiy stereotiplar, gender tengsizlik, emotsional charchoq va roldagi ziddiyatlarga duch keladi. Shu sababli, rahbar ayollarda stress darajasi yuqoriroq bo‘lishi mumkin. Masalan, ishlash muhitida rahbarlik qilish bilan birga oilaviy mas’uliyatni ham bajarishga majbur bo‘lgan ayolning stressga chidamlilik darajasi uning ruhiy barqarorligi, psixologik moslashuvchanligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar ko‘proq emotsional sezuvchanlikka ega bo‘lishlari bilan birga, stress holatlarida ko‘proq ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga tayanadilar. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, rahbar ayollar uchun stressni yengishning eng samarali usullari ijtimoiy-psixologik yordam tizimini kuchaytirish, oilaviy muhitdagi barqarorlikni ta’minlash va individual psixologik resurslarni rivojlantirishdir. Bu resurslar qatoriga emotsional aql, muammolarni konstruktiv hal qilish qobiliyati, o‘zini tahlil qilish, refleksiya qilish, shaxsiy o‘sish motivatsiyasi, jismoniy faollik, sog‘lom turmush tarzini olib borish, meditatsiya va psixoprofilaktika mashqlari kiradi. Ayollarning rahbarlik faoliyatidagi stress omillarini o‘rganishda muhim jihatlardan biri ularning gender roli va ijtimoiy kutishlar o‘rtasidagi ziddiyatlardir. O‘zbek jamiyatida ayollarga nisbatan hali ham an’anaviy qarashlar saqlanib qolgan bo‘lib, ularning bir vaqtning o‘zida ham yetakchi, ham onalik, ham uy bekasi kabi rollarni bajarishi kutiladi. Bu esa ayollarning ish joyida o‘zini namoyon qilishi va stressga chidamliligini pasaytirishi mumkin.

Shuningdek, rahbar ayollarning mehnat jamoasida duch keladigan gender stereotiplari ham stress omillaridan biri hisoblanadi. Ba’zan erkak hamkasblari tomonidan jiddiy qabul qilinmaslik, rahbarlik qobiliyatining shubha ostiga olinishi, qaror qabul qilishda bosimlar, noto‘g‘ri baholashlar ayollarning psixologik holatiga salbiy ta’sir qiladi. Bu stress holatlari o‘z vaqtida yengilmas ekan, bu professional charchoqqa, motivatsiyaning pasayishiga va hattoki depressiv kayfiyatlarga olib kelishi mumkin.

Ish joyidagi stressni yengishda rahbar ayollar uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhim rol o‘ynaydi. Oilaviy qo‘llab-quvvatlash, yaqinlarining tushunishi, hamkasblar bilan sog‘lom kommunikatsiya hamda rahbarlik mahoratini oshirishga doir treninglar ayol rahbarlarning stressga qarshi psixologik immunitetini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ish joyidagi stress inson psixikasiga kuchli ta’sir qiluvchi omil bo‘lib, ayniqsa rahbarlik lavozimida faoliyat yuritayotgan ayollar uchun bu bosim ikki barobar ortadi. Bu holat, bir tomondan, ayolning kasbiy muvaffaqiyatga intilishi, ikkinchi tomondan, jamiyat va oila oldidagi ijtimoiy majburiyatlaridan kelib chiqadi. Ayniqsa, O‘zbekiston jamiyatida ayollar zimmasiga yuklatilgan an’anaviy rollar ularning kasbiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, rahbar ayollar uchun stressni yengish mexanizmlarini o‘rganish nafaqat psixologik, balki ijtimoiy dolzarb masalaga aylanmoqda.

So‘nggi yillarda olib borilgan ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar ayollarning rahbarlik faoliyatidagi stress holatlarini shakllantiruvchi omillarni aniqlashga qaratilgan. Bular orasida eng muhim omil sifatida mehnat jarayonidagi ortiqcha yuklama, vaqt taqsimotidagi nomutanosiblik, kasbiy va oilaviy rollar to‘qnashuvi, shuningdek, erkaklardek teng qabul qilinmaslik kabi gender stereotiplari qayd etiladi. Ayol rahbarlar ko‘pincha o‘z vakolatlarini to‘liq amalga oshirish jarayonida jamoaning noto‘g‘ri

qarashlari, ularning rahbarlik salohiyatiga nisbatan ishonchsizlik bilan yuzma-yuz kelishadi. Bunday vaziyatda ayolning o‘zini tasdiqlashga bo‘lgan ehtiyoji kuchayib, stressni yanada oshiradi.

Psixologik stressning doimiy davom etishi esa nafaqat shaxsiy hayotga, balki rahbarning jamoaviy munosabatlariga, muhitdagi ishonch darajasiga, faoliyat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, rahbar ayollarda stress omillariga nisbatan himoyaviy psixologik mexanizmlar kuchsiz bo‘lsa, bu holat emotsional charchoq, befarqlik, ishga bo‘lgan motivatsiyaning pasayishi kabi salbiy holatlar bilan kechadi. Shu sababli, ushbu maqolada rahbar ayollarning stress holatlarini aniqlash, ularni yengish mexanizmlarini ishlab chiqish va psixologik yordam ko‘rsatish yo‘llari tadqiq etiladi.

Tadqiqot davomida psixologik diagnostika metodlaridan biri sifatida “Professional stressni baholash testi” va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasini aniqlash uchun anketalar qo‘llanildi. Unda rahbarlik lavozimida ishlovchi 126 nafar ayol ishtirok etdi. Respondentlarning yoshlari 30 dan 60 yoshgacha bo‘lib, ular O‘zbekistonning turli viloyatlaridan tanlab olindi.

Rahbar ayollarda stress darajasi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash o‘zaro bog‘liqligi

Stress darajasi	Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yuqori (%)	Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash past (%)
Past stress	62.4%	12.8%
O‘rtacha stress	29.7%	35.6%
Yuqori stress	7.9%	51.6%

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi yuqori bo‘lgan rahbar ayollar orasida stress darajasi past bo‘lib, ular o‘z kasbiy faoliyatida nisbatan barqarorlikni saqlab qolishgan. Aksincha, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash past bo‘lgan ayollarda yuqori stress holatlari ko‘proq uchraydi. Bu holat ijtimoiy yordam tizimining ahamiyatini ochib beradi.

Stressni yengishning samarali usullaridan biri bu — psixologik treninglar va motivatsion mashg‘ulotlardir. Bunday mashg‘ulotlarda ayol rahbarlar o‘zlarining ichki salohiyatini namoyon qilish, o‘z-o‘zini boshqarish, kommunikatsiya va konfliktni yengish bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. Bundan tashqari, oilaviy muhitdagi tushunish va qo‘llab-quvvatlash ham ayolning psixologik holatini barqarorlashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Ko‘plab holatlarda rahbar ayollar oiladagi stress va ishdagi bosim o‘rtasida ezilib qoladilar. Ayolning turmush o‘rtog‘i tomonidan uning rahbarlik faoliyatiga nisbatan ishonch bo‘lmasligi, shuningdek, yaqin qarindoshlarning ayolning rahbarlik pozitsiyasini "noan’anaviy" deb baholashi — bu psixologik ziddiyatni yanada kuchaytiradi. Shu boisdan, rahbar ayollar uchun oilaviy muvofiqlik va ijtimoiy maqom o‘rtasida muvozanatni topish hayotiy zaruratdir. Shuningdek, ish joyidagi ayollarga nisbatan salbiy qarashlarni kamaytirish uchun jamoa ichida psixologik iqlimni sog‘lomlashtirish, jamoaviy treninglar o‘tkazish, ayollarning rahbarlik salohiyatini qadrlashni targ‘ib qilish zarur. Bu orqali jamoa ayol rahbarni teng huquqli subyekt sifatida qabul qilishga o‘rganadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, rahbar ayollarda stress holatlari asosan ijtimoiy stereotiplar, oilaviy rollarning ko‘pligi va kasbiy talablarning ortiqligi bilan bog‘liq. Stressni yengishning samarali usullari sifatida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, psixologik treninglar, oilaviy tushunish, ijobiy muhit yaratish va rahbarlik kompetensiyalarini oshirish zarur. Ayollar rahbarlik faoliyatida nafaqat mehnatga, balki ijtimoiy-psixologik barqarorlikka ham e’tibor qaratishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Karimova D.A. “Ayol va jamiyat: psixologik yondashuvlar”. Toshkent, 2018.
2. Ergasheva N.T. “Liderlik va gender psixologiyasi”. Samarqand, 2021.
3. Fattahova L.M. “Ayollar va stress: ijtimoiy-psixologik tahlil”. Andijon, 2019.
4. Selye G. “Stress nazariyasi va inson”. Moskva, 2000.
5. Bandura A. “Social Learning Theory”. Prentice Hall, 1977.

Atajanova Laylo Uktamovna
Urganch Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:layloatajanova99@gmail.com

INSULT TASHXISLI BEMORLARNING SHAXSLILIK XUSUSIYATLARINING O`RGANILISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada insult tashxisli bemorlarning shaxslilik xususiyatlari psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Insultdan keyingi davrda bemorlarning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va shaxslararo munosabatlaridagi o'zgarishlar psixologik diagnostika vositalari orqali o'rganiladi. Tadqiqot davomida turli yosh davrlarining shaxslilik strukturasi hamda insultning psixik holatga ta'siri o'rganilgan. Ushbu maqolada insult holatida yuzaga keladigan shaxsiy inqirozlar, moslashuv mexanizmlari va psixokorreksion ehtiyojlar asosli yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *insult, shaxs, psixologik holat, shaxslararo munosabatlar, moslashuv, psixokorreksiya.*

ИЗУЧЕНИЕ ЛИЧНОСТНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ БОЛЬНЫХ С ДИАГНОЗОМ ИНСУЛЬТ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются личностные особенности больных с диагнозом инсульт с психологической точки зрения. Анализируются эмоциональная устойчивость, социальная адаптация и межличностные отношения пациентов в постинсультный период на основе методов психологической диагностики. Особое внимание уделено возрастным особенностям структуры личности и влиянию инсульта на психическое состояние. В статье освещаются личностные кризисы, возникающие при инсульте, механизмы адаптации и потребности в психокоррекции.*

Ключевые слова: *инсульт, личность, психическое состояние, межличностные отношения, адаптация, психокоррекция.*

STUDY OF PERSONALITY CHARACTERISTICS IN PATIENTS DIAGNOSED WITH STROKE

Abstract. *This article explores the personality characteristics of patients diagnosed with stroke from a psychological perspective. It analyzes emotional stability, social adaptation, and interpersonal relationships in the post-stroke period using psychological diagnostic methods. The study highlights the age-related aspects of personality structure and the psychological impact of stroke. The article also addresses the personal crises triggered by stroke, adaptation mechanisms, and the need for psychocorrectional support.*

Keywords: *stroke, personality, psychological condition, interpersonal relations, adaptation, psychocorrection.*

Kirish. Jahonda insult (miya qon aylanishining o'tkir buzilishi) global sog'liqni saqlash tizimida yetakchi muammolardan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha 15 millionga yaqin inson insultga chalinadi. Ulardan 5 millioni vafot etadi, yana 5 millioni turli darajadagi nogironlik bilan yashashga majbur bo'ladi. Bu esa insult nafaqat tibbiy, balki psixologik, ijtimoiy va shaxsiy reabilitatsiyani ham talab qiladigan muammoligini ko'rsatadi.[1] Bu holat shaxs hayotining barcha jabhalariga – emotsional, ijtimoiy va kasbiy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, insultdan keyingi psixologik moslashuv va shaxslikning qayta shakllanish jarayonlari ko'plab holatlarda ikkilamchi ruhiy inqirozlarga sabab bo'lmoqda. Shu bois, insultdan keyingi psixologik tiklanish va shaxslik jihatlarini chuqur o'rganish masalasi jahon miqyosida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.Jahonda insult kasalligining tarqalishi va oqibatlari sezilarli darajada ortmoqda. Global Burden of Disease (GBD) 2021 tahlillariga

ko‘ra, 1990-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan davrda insult bilan bog‘liq yangi holatlar soni 70% ga, insult oqibatidagi o‘limlar soni esa 44% ga oshgan, umumiy nogironlik darajasi (DALY) esa 32% ga oshgani aniqlangan. [2] Insult turlari orasida ishemik insult (65,3%) ustunlik qiladi, undan keyin gemorragik insult (28,8%) va subaraknoid qon ketishi (5,8%) joy olgan. Kasallik asosan o‘rta va past daromadli mamlakatlarda uchraydi va ularning global yukdagi ulushi 80% dan ortiqni tashkil etadi. [3] **Tadqiqot metodologiyasi.**Insultdan keyingi davrda bemorlar ko‘pincha o‘z-o‘zini anglashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Kognitiv va emotsional sohadagi buzilishlar, jismoniy cheklovlar hamda ijtimoiy rollarning yo‘qolishi ularning real "men" obrazini o‘zgartiradi. Shu bilan birga, avvalgi "ideal men" tasavvuri saqlanib qolganligi sababli ichki nomuvofiqlik kuchayadi. Bu esa o‘z navbatida shaxsiy inqiroz, tushkunlik, o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi va ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Gumanistik yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, insultdan keyingi reabilitatsiya jarayonida shaxsning o‘zini qabul qilishi, psixologik qo‘llab-quvvatlanishi va ijtimoiy munosabatlardagi ijobiy tajribalari uning o‘z-o‘zini aktualizatsiya qilish salohiyatini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi. K. Rogersning inson tabiatiga oid nazariyasida shaxsning psixologik holati "ideal men" (individning qanday bo‘lishni istashi) va "real men" (individning o‘zini qanday qabul qilishi) o‘rtasidagi tafovut orqali aniqlanadi. Bu ikki qiyofaning o‘zaro nomutanosibligi insonda ichki muvozanatning buzilishiga, psixologik noqulaylik va shaxsiy inqirozlarga olib keladi. Rogersga ko‘ra, inson to‘laqonli rivojlanishi uchun unga shartsiz ijobiy munosabat, empatiya va shaffoflik bilan to‘ldirilgan ijtimoiy muhit zarur. Ushbu omillar mavjud bo‘lsa, shaxs o‘zining ichki resurslarini to‘laqonli namoyon eta oladi va o‘zini amalga oshirish (self-actualization) yo‘lida harakat qiladi.A. Maslou esa inson ehtiyojlarini ierarxik tizimda ifodalagan bo‘lib, uning nazariyasiga ko‘ra, har bir insonning asosiy psixologik va fiziologik ehtiyojlari (ovqatlanish, xavfsizlik, ijtimoiy tegishlilik va hurmatga sazovorlik) to‘liq qondirilganidan so‘nggina eng yuqori bosqich – o‘z-o‘zini aktualizatsiya qilish ehtiyoji yuzaga chiqadi. Maslow bu bosqichni individning o‘z salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishga bo‘lgan ichki intilishi sifatida talqin qiladi. Ushbu jarayon davomida inson o‘z hayotidan ma’no izlaydi, ijodiy va ma’naviy rivojlanishga erishishga intiladi.[4] Shunday qilib, K. Rogers va A. Maslou qarashlari insultdan keyingi psixologik tiklanish jarayonini individual salohiyatni tiklash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov muhitini yaratish va shaxsiy qoniqishni qayta shakllantirish orqali tushuntirish imkonini beradi.[5]

Muhokama. Bugungi kunda turli yosh davrlarida insult bilan og`rigan bemorlarning soni ortib borishi olimlarni ularning tur xil jihatlarini o`rganishga tadqiqot olib borishga undamoqda.Xorijiy adabiyotlarda insultdan keyingi psixologik o‘zgarishlar masalasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, R.G. Robinson 2006-yilda insultdan so‘nggi depressiya (post-stroke depression) va affektiv buzilishlar insult lokatsiyasi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, chap yarim sharning frontal hududi zararlanganda depressiv reaktsiyalar ko‘proq uchraydi, bu esa shaxsda passivlik, hayotiy maqsadlarning yo‘qolishi va ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladi. Olim o`zining tadqiqotlarida insultdan keyingi shaxs o‘zgarishlarini, ayniqsa affektiv buzilishlar (depressiya, anksiyete, apatiya)ni nevropsixologik nuqtai nazardan chuqur o‘rgangan. Uning fikricha, insultdan keyingi depressiv buzilishlar nafaqat psixologik stressga, balki markaziy nerv tizimidagi morfofunksional o‘zgarishlarga bevosita bog‘liq. U insult lokalizatsiyasining (zararlangan miya sohasi) ruhiy holatlar shakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutishini empirik dalillar bilan isbotlagan. Xususan, Robinsonning klinik kuzatuvlari va neyropsihologik tahlillariga ko‘ra, chap yarimsharning frontal hududi, ayniqsa prefrontal korteksning medial va dorsolateral qismlari zararlanganda, post-insult depressiya (PID) holatlari tez-tez uchraydi. Bunday bemorlarda quyidagi psixologik simptomlar kuzatiladi:

- Apatiya va motivatsiyaning yo‘qolishi;
- Umidsizlik hissi va yaqqol ko‘rinadigan ruhiy tushkunlik;
- Ijtimoiy faollikning keskin pasayishi;
- Hayot mazmunining yo‘qolgandek tuyulishi va suqrotik fikrlar.

Robinson ushbu nevrobiologik omillarni depressiya patogenezida asosiy komponent sifatida baholaydi.Shuningdek, Robinsonning tadqiqotlarida PID bemorlari orasida ko‘proq chap yarimshar insulti kuzatilgani aniqlangan, bu holat esa o‘ng qo‘llik ustuvorligi bo‘lgan populyatsiyalarda (ya'ni

aksariyat insonlarda chap yarimshar nutq va ijtimoiy muloqot bilan bog‘liq markazlarni nazorat qiladi) emotsional regulyatsiya buzilishining ehtimolini oshiradi.Robinson tomonidan taklif etilgan yondashuvga ko‘ra, insultdan so‘ng depressiya alohida nevrologik birlik sifatida qaralmasligi, balki miyaning zararlangan sohasiga mos psixik reaksiya sifatida baholanishi lozim. Bu yondashuv insultdan keyingi psixologik reabilitatsiya jarayonida lokalizatsiya asosida diferensial yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.[6]

Kelley-Hayes 2005- yilda olib borgan tadqiqotlarida insultdan keyingi reaksiya va moslashuv strategiyalarida jinsiy tafovutlar mavjudligini aniqlagan. Jumladan,ayol bemorlarda depressiv reaktsiyalar chastotasi yuqori bo‘lishi mumkin, ammo ular emotsional qo‘llab-quvvatlash tizimlaridan foydalana olishlari sababli psixologik jihatdan nisbatan barqarorroq bo‘lishadi,erkaklar esa ko‘pincha o‘zini izolyatsiya qilishga moyil bo‘lib, psixologik yordam so‘rash holatlari pastroq kuzatiladi.Har ikki tadqiqot muallifi insultdan keyingi psixologik holatni tahlil qilishda madaniy kontekstni ham inobatga olish lozimligini ta’kidlaydi. Masalan,individualistik madaniyatlarda (AQSh, G‘arbiy Yevropa) bemorlar ko‘proq shaxsiy mustaqillikni yo‘qotish ustidan iztirob chekadi,kollektivistik madaniyatlardagi bemorlar esa (Osiyo, Lotin Amerikasi, Markaziy Osiyo) oila va jamiyat yordami tufayli ijtimoiy moslashuvga nisbatan ijobiyroq yondashadi.Xulosa o`rnida shuni aytish munkinki,Goldstein va Kelley-Hayes tadqiqotlari insultdan keyingi shaxslik va psixologik holatlarni baholashda individual farqlarga asoslangan holistik yondashuv muhimligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, psixologik reabilitatsiya va psixoterapevtik yondashuvlar ishlab chiqishda yosh, jins, va madaniyat omillarining hisobga olinishi bemorlarning hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi.[7]

Tadqiqot natijalari. Ma`lumki,bemorning ichki olamiga kirib borish,kasallikning ichki ko`rinishini ochib berishda dastlabki klinik intervyu muhim hisoblanadi. Mazkur suhbat orqali bemorda psixologga insonchli munosabat va qabul qilishga erishildi.Ayrim holatlarda esa bemorning tadqiqotchini rad etish holatlari ham kuzatildi. Olingan natijalarni insultning gemorragik va ishemik turlari bilan og`rigan bemorlarga ajratib tahlil qilindi.

“Kasalliginingiz haqida nima bilasiz?” savoliga quyidagicha javoblar olindi:

1-jadval

Bemorlarning kasallik haqidagi bilimlarining holati:

№	Turlari	Biladi	Bilmaydi	% hisobida	Jami
1	Gm I	35	7	83.3%	42
2	Ishm I	98	17	85.2%	115

Mazkur savolga Gm I bemorlarning 83% bilaman deb,Ishm I bemorlaning 85 % bilaman deb javob berdi. Bundan ko`rininb turibdiki,Ishm I bemorlar o`zining kasalligi haqida bilimlarga ega va kasalliklariga befarq emas.

2-jadval

Sinaluvchilarning oldin qanday kasalliklar bilan kasallanganliklari

№	Turlari	Jami	Kasalliklari		
			Qandli diabet	Qon bosimi	Boshqa
1	Gm I	42	21	15	6
2	Ishm I	115	64	30	21

Demak, Ishm I bemorlarimizda qon bosimi, qandli diabet osishi ko`p uchragan bo`lsa, Gm I bemorlarimizda bu kasalliklar bilan kasallanish nisbatan kamroq kuzatildi.

“Kasalllik tufayli qiyinchiliklar yuzaga keldimi ?” degan savolga quyidagicha javob olindi:

3-jadval

Kasallik tufayli yuzaga kelgan qiyinchiliklar

№	Turlari	Jami	Qiyinchiliklar		
			jismoniy	ijtimoiy	Psixologik
1	Gm I	42	12	12	18
2	Ishm I	115	40	30	45

Demak, Gm I bemorlarning kasalligi ularning ko`proq psixologik sohasiga ta`sir ko`rsatgan bo`lsa,Ishm I bemorlarning kasalligi ham jismoniy ham psixologik sohalariga kuchli ta`sir ko`rsatganligini ko`rishimiz mumkin.

4-jadval

Bemorlarning psixologga muhtojligi haqidagi fikrlari

№	Turlari	Kerak	Kerak deb o`ylaymaydi	% hisobida	Jami
1	Gm I	35	7	83%	42
2	Ishm I	100	15	87%	115

Demak ,Gm I bemorlarning ko`pchiligi kasallikka munosabat bildirishdan qochadi va o`z hissiyotlarini oshkora qilishni yoqtirishmaydi. Ishm I bemorlari esa nisbatan hissiyotlari haqida gaplashishni afzal ko`radilar.

5-jadval

Kasallik tufayli bemorlarning hayotida yuzaga kelgan o`zgarishlari:

№	Turlari	Salbiy	%	Ijobiy	%	Yo`q	%	Jami
1	Gm I	36	86	4	9	2	4	42
2	Ishm I	102	89	10	9	3	2	115

Demak, Ishm I bemorlarimizning hayotiga kasallik ko`proq salbiy o`zgarishlar bergan, qolgan qismida ijobiy o`zgarishlar ya`ni yaqinlari mehribon,diqqatli bo`lib qolishgan.Salbiy o`zgarishlar esa ko`pincha o`z ehtiyojlarini o`zlari qondirolmasligi yolg`izlikda ko`ringan.

Bu ko`rsatkich Gm I bemorlarimizning hayotida 86 % salbiy ko`rsatkich bergan bo`lsa, 9 % ijobiy va 2% hechqanday o`zgarish sezmaganligini aytib o`tishdi. Hechqanday o`zgarish sezmagan bemorlarimiz aslinda kasalligiga va davolanishiga befarq bo`lgan bemorlarimizdir.

Xulosa. Dunyoda insultdan o'lim darajasi so'nggi paytlarda sezilarli darajada kamaydi, bu XX asrda tibbiyotning 10 ta eng katta yutuqlaridan biri sifatida tan olingan; bemorlarning 85% dan ortig'i undan keyin omon qoladi.Faqat Rossiyada insultni boshdan kechirgan va uning oqibatlari bilan yashashga majbur bo'lgan 2 milliondan ortiq odam bor. Insultni davolashdagi yutuqlar tufayli, omon qolish darajasi terapevtik choralarning samaradorligini baholash uchun to'liq foydalanilmaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, omon qolish va zamonaviy terapevtik usullardan foydalanish har doim ham hayot sifatini yaxshilashni anglatmaydi, ba'zan esa aksincha.Vaqt o'tishi bilan bemorlarning hayot sifati nafaqat yaxshilanmaydi, balki yomonlashishi mumkin. Depressiv kasalliklar, yuqori aqliy, birinchi navbatda, kognitiv funktsiyalarning buzilishi, shol bo'lgan oyoq-qo'llarda spastisitning kuchayishi va doimiy yutish buzilishining rivojlanish xavfi yuqori. Insult bilan bog'liq nogironlikning ko'payishi kutilmoqda.Kelgusi yillarda bu tadqiqotchilar, tibbiyot mutaxassislari va sog'liqni saqlash organlari oldida turgan tobora muhim muammoga aylanishi kutilmoqda . Shu munosabat bilan bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, uni o'lchash va baholash usullarini ishlab chiqish alohida klinik ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, insultdan keyingi shaxslik o‘zgarishlari — bu biologik zararlanish natijasida yuzaga kelgan holat emas, balki kompleks

psixososial muammo bo‘lib, uni tahlil qilishda xorijiy va mahalliy yondashuvlarning integratsiyasi muhimdir. Psixologik moslashuv, reabilitatsiya va shaxsni qayta shakllantirishda shaxsning dastlabki psixotipik asoslarini hisobga olgan holda tizimli yondashuv zarur deb topiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. World Health Organization (2023). *Stroke: Facts and figures*. Retrieved from: https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/stroke

2. Feigin, V.L., et al. (2022). *Global, regional, and country-specific lifetime risks of stroke, 2021 update*. *The Lancet Global Health*, 10(9), e1289–e1306.

3. Хомская Е.Д. Нейропсихология инсульта: Диагностика и реабилитация Москва: Смысл, 2010. — 368 с.

4. Глезер Г.Д., Шмидт Е.Ф. Нейропсихология и психотерапия инсульта — СПб.: Питер, 2012. — 240 с.

5. Кащенко В.П. Психические изменения при поражениях мозга Москва: Медицина, 2001. — 326 с.

6. Рибаренко В.И., Кудрявцева Н.А. Психология больных с сосудистыми заболеваниями мозга Екатеринбург: УрГУ, 2015. — 198 с.

7. Миронова Н.К. Психологическая помощь при инсульте Москва: Академический проект, 2007. — 224 с.

8. Бобоева Г.З. Инсульт ва беморда руҳий ўзгаришлар: клиник-психологик таҳлил Тошкент: Тиббиёт нашриёти, 2021. — 152 бет.

9. Нурмухамедова М.М. Нейропсихология и личностные особенности у пациентов после инсульта Тошкент: Фан, 2020. — 168 бет.

10. Каримова З.М. Шахснинг мия шикастланишига муносабати ва қайта ижтимоийлашув жараёнлари Самарқанд: СамДУ, 2019. — 134 бет.

11. Сидорова И.А. Психологическая диагностика последствий инсульта у взрослых Москва: Институт психотерапии, 2018. — 192 с.

12. Равшанов А.Н. Инсультдан кейинги депрессия ва шахсий ўзгаришлар: амалиётчи-психологлар учун қўлланма Тошкент: Меҳр нури, 2023. — 143 бет.

Ataxanova Lobar Egamberganovna
Toshkent gumanitar fanlar universiteti
“Amaliy va gumanitar” fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: ataxanovalobarxon@gmail.com

YETUKLIK DAVRINING YETAKCHI FAOLIYATI VA RIVOJLANISHNING IJTIMOIY SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. *Yetuklik ontogenezdagi nisbatan uzoq davom etadigan davirlardandir. Bu yosh davirlarida rivojlanishning ijtimoiy vaziyati insondan ishlab chiqarish sohasiga, mehnat faoliyati sohasiga, o‘z oilasini qurishi va farzandlar tarbiyalashga faol kirishishni talab qiladi. Shuningdek bu davr inqirozi turlicha keskinliklarda namoyon bo‘lishi mumkun.Inqirozning keskinlashuviga tasir ko‘rsatuvchi ommillar muvjud bo‘lib u o‘z navbatida shaxsning yuksak darajada rivojlanishga ta’sir ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *yyetuklik davri, ontagenez, rivojlanishning,emotsional xavfsizlik, inson,prosotsial, psixika, yosh psixologiyasi.*

ВЕДУЩАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПЕРИОДА ЗРЕЛОСТИ И СОЦИАЛЬНЫЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ

Аннотация. *Приод зрелости – один из относительно длительных периодов онтогенеза. Социальная ситуация развития в этом возрасте требует от человека активно заниматься производством, трудом, строить семью и воспитывать детей. Не исключено также, что кризис этого периода может протекать в разной напряженности.*

Ключевые слова: *Приод зрелости, онтогенез, гетерохронность развития, кризис, эмоциональная безопасность, человек, просоциальная психика, психология юношества, социальный.*

LEADING ACTIVITY OF THE MATURITY PERIOD AND SOCIAL CONDITIONS OF DEVELOPMENT

Annotation. *Adolescence is one of the relatively long periods of ontogenesis. The social situation of development at this age requires a person to actively engage in production, work, build a family and raise children. It is also possible that the crisis of this period may occur in different tensions.*

Key words: *Adolescence, ontogenesis, heterochrony of development, crisis, emotional security, human, prosocial, psyche, youth psychology, social*

Bugungi kunda inson salomatligiga tasir ko‘rsatuvchi omillar juda ko‘pdir Inson- biosotsiol mavjudotdir. Hozirgi psixologiyaning yirik vakili A.V.Petrovskiy inson kamolatiga, shaxsni tarkib topishiga sotsiol-psixologik nuqtayi nazrdan yondashib,yosh davirlarning o‘ziga xos tasnifini yaratadi.

Yetuklik tushunchasi va yyetuklikka erishish mezonlari.Rivojlanish jarayonining ko‘p qirraliligini hisobga olgan holda yyetuklikning ko‘pgina belgilarini ajratish mumkindir.

Yetuklik davrida rivojlanishining ijtimoiy vaziyati ichki tomondan mustaqillikka intilish, ma’suliyat hissining kuchayishida ifodalanadi. Yyetuklik davrining asosiy kechinmalaridan biri o‘z hayoti va yaqinlarining hayoti uchun shaxsiy ma’suliyatni anglashi, ma’suliyatni qabul qilishiga tayyorliki bilan boshqa davrlardan ajralib turadi.

Levinsoning fikricha, o‘tish davirlarida inson stresslarni boshdan kechiradi, chunki bu davrda maqsadlar, qadryatlar, hayot tarzi qayta quriladi va qayta baholanadi. Insonda inqiroz keskinligi tur-

licha namoyon bo‘ladi.Misol tariqasida shuni aytish mumkinki ,pedagog pedagogik faoliyatida yuzaga keladigan turli xil omillar bu davridagi insonlarda inqirozning nisbatan keskinlashuviga tasir ko‘rsatadi natijada shaxsning yyetuk darajada rivojlanishga ta’sir ko‘rsatadi.

Yetuklik davri o‘zgachaliklari haqida olimlarning bir qancha fikr mulohazalari yoritilgan.Olimlarning takidlashicha, yetuklik davri eng uzoq davom etadigan davr hisoblanadi. Yetuklik yoki hayotning ikkinchi yarimi deb nomlanuvchi bu davr o‘zgachaliklari va inqirozlari haqida psixolog olimlaring qarashlari bayon qilingan.

G.Olportning ta’kidlashicha, shaxsning yyetukligi motivatsiyaning funksianal avtonomligi bilan belgilanadi. G.Olportning fikricha, o‘z-o‘zini namoyon qiladigan shaxs quydagi xislatlarga ega bo‘ladi:

A) tashqi dunyoga qiziqish,Men hissi kengaygan,

B) boshqalarga nisbatan g‘amxo‘rlik (hamdardlik, hurmat,chidamlilik)

V) emotsional xavfsizlikni fundamental his qilish(o‘zini nazorat qilish, o‘zini qabul qilish)

G) borliqni real idrok qilishi va harakatlardagi faollik

D) O‘z-o‘zini tushunish, ichki tajribasini vaziyatga ko‘chirish

E) ”hayot falsafasi”,tajribani tartibga soladi, tizimlashtiradi va individual xatti-harakatlarga ma’no beradi.[1].

R.Pek yosh davrlarida yuzaga keladigan 4 xil inqiroznining kuzatilishini va ularning hal qilinishi navbatdagi shaxsiy rivojlanish uchun zarur sharoit hisoblanadi:

-insondan donolikni hurmat qilishi rivojlanadi(jismoniy kuchga nisbatan)

-jinsiy munosabatlarning ijtimoiy munosabatlarga almashinuvi(jinsiy rollarning susayishi);

- emotsional egiluvchanlikni saqlash

-ruhiy egiluvchanlikka intilish(psixik rigidlikni bartaraf etish),xulq-atvorning yangi shakllarini izlash[2].

G‘arb psixologiyasida yyetuklik davridagi inqirozlarni o‘rganish yosh davridagi rivojlanishni tahlil qilishida asosiy yondashuvligi bejiz emasdir.Inson hayotining “ikkinchi yarimiga” K.Yung ham juda qiziqqan. Yani hayotning o‘rtasini u “ruhning chuqur va qiziqarli o‘zgarishlari” ro‘y beradigan kritik davr sifatida qaragan.[3]. K.Yuning fikriga binoan hayotning ikkinchi yarimida inson shaxs turli elementlarning muvozanati va integratsiyasi yordamida o‘z shaxsining rivojlanishga erishishi mumkun. Ammo shaxsning yuksak darajasiga hamma ham erisha olmaydi. Chunki inson turli xil yosh davirlaridagi inqirozlarning turli xil darajada yyengib o‘tishi, inqrozarning kechishi va davomiyligi shaxs hayotidagi sharoitlarga bog‘liqdir. Inqirozni tezlashtiradigan sharoitlar sirasiga shaxsning sog‘liqning to‘sadan o‘zgarishi, ijtimoiy va siyosiy hodisalar,yashash sharaoitining o‘zgarishi, ish joyidagi muhitning hamda kishilar o‘rtasidagi munosabatlari. Bular natijasida inqirozlar kechikishi yoki tezalshish holatlari kuzatilishi aniqlangan.

Inqirozlarning namoyon bo‘lishi turli davrlarda turlicha namoyon bo‘ladi:

Yyetuklik davridagi inqirozlarning bolalik davridagi inqirozlardan farq qiladi misol uchun

-yyetuklik davrida asosiy faoliyat turi doimiy bo‘ladi

-yyetuk shaxs aosiy faoliyat turning ichida chuqur o‘zgarishilar ro‘y beradi

-yyetuklik davri inqirozlari uzoqroq vaqtda (7-10y) paydo bo‘ladi.

-inqirozlar orasidagi intervallarda rivojlanish tekis kechadi

-yetuklik davridagi inqiroz anglangan holda,yopiq kichadi,atrofdagilarga keskin namoyon qilinmaydi

-inqirozdan chiqish,uni bartaraf etish shaxsning ichki faolligiga,o‘zigagina bog‘liqligi.

Yyetuklik insoning psixologik va psixofiziologik rivojlanishi qarama-qarshi va murakkab strukturaga ega bo‘lib,bilish qobilyati va alohida funksiyalar funksional darajasining susayishi,barqarorlashishi va kuchayishi jarayonlarining almashinishi birgalikda kelishini kuzatish mumkun.

-rivojlanishning geteroxronolgik(bir xilda kechmasligi)-insoning individ,shaxs va faoliyat subyekti sifatida yutuqlari va rivojlanishi darajasi mos kelmaydi.[1]

Eriksoning takidlashicha o‘rta yyetuklik davrida avlodni saqlash hissi kuchayadi, kelgusi avlod va uning tarbiyasiga qiziqishi ortadi.

Hayotning bu yyetuklik davrida turli xil sohalarda yaratuvchanlik va mahsuldorlik bilan ajaralib turishini aytgan.

A.V.Petrovskiy shaxs shakillanishining prosotsiol (ijtimoiy qoidalarga muvofiq)va sotsiol (aksil ijtimoiy)bosqichlari ham bo‘lishi mumkunligini isbotlab berishga harakat qiladi: Shaxsning kamol topishi uchta makrofazadan iboratligini qayd etib 1-bolalik davriga duch kelishini,unda ijtimoiy muhitga moslashish,ko‘nikish (adaptatsiya) ro‘y berishini,2-o‘smirlarga xos individuallashish, 3-o‘spirinlikda,ya’ni yetuklikka intilish davrida o‘ziga xos holatlarni muvofiqlashtirish (birlashtirish) xususiyatlari paydo bo‘lishini bayon qilgandir.

Emotsional holatda o‘zini o‘zi nazorat qilish so‘rovnomasi yordamida shaxsning nafaqat kasbiy faoliyatda, balki ijtimoiylashuv jarayoni va shaxsiy rivojlanishda ham o‘z hissiyotlarini nazorat qilish darajasi aniqlanadi. So‘rovnoma 36 ta hukmdan iborat bo‘lib, har birida 3 xil variantda javob berish imkoniyati mavjud. Mazkur savolnoma orqali shaxsning turli vaziyatlarga nisbatan emotsional holatda, faoliyatda va ijtimoiylashuvda o‘zini nazorat qilish darajasi o’rganildi. Quyida jadvalda natijalar matematik-statistik tahlili Mann Uitni mezoni asosida keltirib o‘tildi.

Emotsional holatlarda o‘z-o‘zini nazorat qilishni namoyon bo‘lishini o‘rganish metodikasi natijalar tahlili (Mann Uitni mezoni bo‘yicha n=62)

Shkalalar	Guruhi	Soni	O’rtacha rang	Ranglar summasi	U	p
Emotsional holatda o‘z-o‘zini nazorat qilish	Eksperiment guruhi	32	23,72	759,00	231,000	,000**
	Nazorat guruhi	30	39,80	1194,00		
	Jami	62				
Faoliyatda o‘z-o’zini nazorat qilish	Eksperiment guruhi	32	29,28	937,00	409,000	,315
	nazorat guruhi	30	33,87	1016,00		
	Jami	62				
Ijtimoiylashuvdao‘z-o‘zini nazorat qilish	Eksperiment guruhi	32	25,02	800,50	272,500	,003**
	Nazorat guruhi	30	38,42	1152,50		
	Jami	62				

Izoh: **- p<0,01

Emotsional holatlarda o‘z-o‘zini nazorat qilishni namoyon bo‘lishini o‘rganish metodikasi natijalar tahliliga ko‘ra eksperiment va nazorat guruhlari orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi (u=231,000; p<0,01). Ya’ni davlat ixtisoslashmagan MTT pedagog xodimlarida maxsus ixtisoslashgan MTT pedagog xodimlariga qaraganda emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish ko‘rsatkichi yuqori darajada bo’lar ekan. Ushbu holatni izohlashda maxsus ixtisoslashgan MTT pedagog xodimlari ish faoliyatida yuzaga keladigan vaziyatli to‘siqlarning ko‘pligi ularda hissiy emotsional beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa ularning turli emotsional holatlarda o‘z-o‘zini nazorat qilish imkoniyatini pasayib ketishi bilan izohlanadi.

Faoliyatda o‘z-o‘zini nazorat qilish shkalasi bo‘yicha eksperiment va nazorat guruhlari orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi (u=409,000; p>0,05). Davlat ixtisoslashmagan MTT pedagog xodimlarida va maxsus ixtisoslashgan MTT pedagog xodimlarida ham faoliyatda o‘z-o‘zini nazorat qilish xususiyatining bir xilda namoyon bo’lishi aniqlandi.

Shuningdek, ijtimoiylashuvda o‘z-o‘zini nazorat qilish shkalasi bo‘yicha eksperiment va nazorat guruhlari ahamiyatli tafovutlar kuzatilganini keltirib o‘tishimiz mumkin (u=272,500; p<0,01). Unga ko‘ra davlat ixtisoslashmagan MTT pedagog xodimlarida va maxsus ixtisoslashgan MTT pedagog xodimlariga qaraganda ijtimoiylashuvda o‘z-o‘zini nazorat qilish yuqori darajada ekanligi kuzatildi. Mazkur tahlilni maxsus ixtisoslashgan MTT pedagog xodimlarining qisqartirilgan ish kuni va alohida ta’limiy ehtiyojli bolalar bilan ishlash hisobiga ularda shaxslararo munosabat ko’rsatkichining pasayishi, shu orqali ijtimoiylashuvda o‘z-o‘zini nazorat qilish xususiyatining yaxshi rivojlanmaganligi bilan izohlashimiz mumkin. Quyida diagrammada ishonch darajasidagi tafovutlar keltirib o‘tildi.

Yuqoridagi tadqiqotlarga binoan yyetuklik davridagi o‘zgachaliklar hamda bu davr inqirozlari shaxsda namoyon bo‘lishi turlichadir. Yyetuklik davri eng uzoq davom etadigan davr bo‘lib inson umrining deyarli yarimini tashkil qiladi bu davrda shaxs turli faoliyatlar bilan shug‘ulanadi. Biz aynan maxsus hamda ommoviy maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan xodimlarda ushbu so‘rovnomani o‘tqazdik. Olingan tadqiqotlar natijasiga binoan eksperement hamda nazorat guruhlarda farqlar sezldi.Bu shuni anglatdiki shaxsda yuzaga keladigan emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish hamda o‘zini namoyon qilishi ijtimoiy muhitga,ijtimoiy shart shroitga hamda faoliyat olib barayotgan muhitga ham bog'liqligini yaqol ko‘rishimiz mumkun.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi pedagogik psixologiya. - Toshkent-2017 C 306-313
2. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте Москва: Педагогика, 1968. — 320 с.
3. Эльконин Д.Б. Психология развития Москва: Академический проект, 2001. — 384 с.
4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность Москва: Смысл, 2004. — 317 с.
5. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии СПб.: Питер, 2007. — 720 с.
6. Кон И.С. Психология зрелости и старения Москва: Наука, 1999. — 365 с.
7. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания Ленинград: ЛГУ, 1968. — 339 с.
8. Петровский А.В. Возрастная психология Москва: Академия, 2005. — 416 с.
9. Кулагина И.Ю. Возрастная психология Москва: Гардарики, 2004. — 328 с.
10. To‘xtasinova N.Q. Yyetuklik davrida psixologik rivojlanish va shaxs shakllanishi Toshkent: O‘qituvchi, 2018. — 184 bet.
11. Maxmudov N.M. Shaxs taraqqiyotida ijtimoiy muhitning o‘rni Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2020. — 136 bet.
12. Jo‘raeva M.Z. Yosh davrlari psixologiyasi: Nazariya va amaliyot Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2022. — 204 bet.
13. Zokirova G. Shaxs rivojlanishida yetakchi faoliyat turlari Buxoro: BDU nashriyoti, 2021. — 152 bet.
14. Raximova S.H. Ijtimoiy psixologiya asoslari Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 187 bet.

Barotov Shuhrat Sharipovich
Buxoro xalqaro universiteti o‘qituvchisi

ZAMONAVIY BOJXONA XODIMLARI IMIDJINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY TAMOYILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy bojxona xodimining ijtimoiy-psixologik portreti, professional imidj tushunchasi hamda uni shakllantirishda muhim bo‘lgan ilmiy-tadqiqot tamoyillari tahlil qilinadi. Bojxona xizmati tizimida kadrlar tayyorlashda zamonaviy yondashuvlar, xodimning madaniyati, tashqi ko‘rinishi, kasbiy malakasi, muloqot madaniyati va axloqiy fazilatlari asosida ijobiy imidjni shakllantirishning psixologik mexanizmlari ochib beriladi. Shu bilan birga, jamiyatda bojxona xodimi obro‘sini mustahkamlovchi ijtimoiy omillar ham yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *bojxona xodimi, imidj, psixologik tamoyillar, ijtimoiy omillar, madaniyat, axloq, tashqi ko‘rinish, professional faoliyat.*

НАУЧНЫЕ ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИМИДЖА СОВРЕМЕННЫХ ТАМОЖЕННЫХ СОТРУДНИКОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются научные основы формирования имиджа современного таможенного сотрудника. Анализируется понятие профессионального имиджа, его структура и влияние на общественное восприятие. Описываются психологические принципы формирования позитивного имиджа, включая профессиональную компетентность, культуру общения, внешний вид и этические качества. Также рассматриваются социальные факторы, способствующие укреплению престижа таможенной службы.*

Ключевые слова: *таможенный сотрудник, имидж, психологические принципы, социальные факторы, культура, этика, внешний облик, профессиональная деятельность.*

SCIENTIFIC PRINCIPLES OF FORMING THE IMAGE OF MODERN CUSTOMS OFFICERS

Abstract. *This article explores the scientific principles behind the formation of a modern customs officer’s image. The concept of professional image, its structure, and its impact on public perception are examined. Psychological mechanisms for building a positive image—such as professional competence, communication culture, appearance, and ethical qualities—are discussed. Social factors that strengthen the authority and prestige of customs officers in society are also analyzed.*

Keywords: *customs officer, image, psychological principles, social factors, culture, ethics, appearance, professional activity.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi bojxona tizimi samaradorligini oshirishda kadrlariing psixologik tayyorgarligini oshirish va va takomillashtirish masalasining hal etilishi tizim uchun malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonida ularning darajasi va sifatiga ta’sir etuvchi muhim omil bo‘lib xisoblanadi. Bojxona xodimlarining O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasini kesib o‘tuvchi shaxslar bilan muomalaga kirishuv jarayonlari ularning faoliyatlaridagi kasbiy me’yoriylik tushunchasi bilan belgilanadi, ya’ni xodimlarga qonun talabidan kelib chiqqan holda, ular xoxish-irodasidan qat’i-nazar, muomalaga kirishish majburiyati yuklanganligini anglatadi.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bojxona tizimida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxslarga psixologik xizmat ko‘rsatishdagi muammolarni o‘rganish bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, YUNESKO tashkiloti qoshidagi Xalqaro psixologiya fanlari ittifoqi – IUPSYS (International Union of Psychological Science) tomonidan 2019-2024 yillarga mo‘ljallangan psixologik xizmat konsepsiyasi yaratilgan. Shu jihatdan qaranganda bojxona tizimida rahbarlarni ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganish, boshqaruv jarayonida yuzaga keladigan muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi omillarni tizimli ravishda tadqiq etish, oliy ta’lim

tizimidagi shaxslarga professional darajada ijtimoiy-psixologik jihatdan taklif va tavsiyalar berish, psixologik xizmat ko‘rsatishning yangi usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotda qo‘llashga doir tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda bojxona tizimida psixologik xizmatning yangi usullarini joriy etish, yuklangan vazifalarni yuqori professional darajada bajarishga qodir kadrlar bilan ta’minlash, faoliyat olib borayotgan kadrlarni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirishning uzluksiz tizimini tashkil etish, takomillashtirish, bojxona xodimlarini kasbiy mahorati, faoliyat sifati darajasini muntazam oshirib borishning barcha me’yoriy asoslari yaratilgan.. Natijada zamonaviy raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash jarayonining sifat bosqichi rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ilg‘or boshqaruv tajribasini milliy qadriyatlarga uyg‘unlashtirish, boshqaruv personallari kompetensiyalarini aniqlash, ularni kompetentlik sohalari bo‘yicha klasterlash, diferensiyalashtirish hamda ularga psixologik xizmat ko‘rsatishni optimallashtirish sharoitlari rivojlanadi.

Metodologiya. Jamiyatda har qanday ijtimoiy mehnat jarayoni boshqaruvni talab etadi. Har qanday boshqaruv tizimi esa zamon talablariga mos ravishda takomillashib boradi. Yurtimizda bozor munosabatlariga o‘tish jarayoni jadal sur’atlar kechayotgan ayni bir paytda o‘z kasbining mutaxassisi bo‘lgan, jahon tajribasida sinovdan o‘tgan zamonaviy bojxona tizimi haqida mukammal bilimga ega bo‘lgan va ma’suliyatni qalbdan his qiladigan yosh kadrlarga talab ortib bormoqda. Bu borada bojxona xodimi imidjining faoliyat jarayonidagi o‘rni har bir faoliyat samaradorligini ta’minlash imkonini beradi. Shunda o‘rinli savol tug‘iladi: Zamonaviy bojxona faoliyatida imidj qanday ahamiyatga ega?

Imidjning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari nimalardan iborat? Imidj” (inglizcha - “obraz”, “tasvir”) atamasini dastlab XX asrning 60-yillarida amerikalik iqtisodchi Bolduin ish samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida qo‘llay boshlaydi. Shu davrdan boshlab psixologik jihatdan asoslangan imidj ijtimoiy hamda siyosiy soha psixologlarning tadqiqot obyektiga aylandi. Uning asosiy vazifasi shaxs yoki ijtimoiy tuzilma haqida bevosita va bilvosita vizul tasavvur uyg‘otish hisoblanadi. Aniq dalillarga asoslangan tafakkur esa taassurotlar va tasavvurlar natijasida shakllanadi. Agar biz imidjga aniq psixologik mahsulot sifatida qaraydigan bo‘lsak, u, ijtimoiy ustanovka, qimmatbaho streotip va urfga aylangan ramz kabi namoyon bo‘ladi namoyon bo‘ladi [5].

Imidjni shakllantirishning zamonaviy tamoyillari XIX-XX asrlarda ishlab chiqilgan g‘oyalarga asoslangandir. Psixologiyaning turli xil yo‘nalish tarafdorlari imidjni shakllantirish borasida o‘z tamoyillarini yaratadilar. Jumladan, ***xulq psixologiyasi*** maktabi vakillari shakllantirish jarayonga perseptiv operatsiyalarni o‘zgartirish qabilidagi qarashni taklif etadilar. Buning asosiy natijasi atrofdagilarning shaxs imidjini munosabat tarkibi sifatida qabul qilishi bilan ifodalanadi. Amerikalik tadqiqotchilar *O.Konel, K.Daniel* verbal imidjni shakllantirishning aniq ko‘rsatmasini berishgan: “Liderning nutqi, o‘zini tutishi va yuz tuzilishi unga bo‘ysunuvchilarning nutqidan farq qiladi. Nutqlar buyruq ko‘rinishida ifoda etiladi. …bo‘ysunuvchilarga nisbatan past ohangda bo‘ladi. Unda tanaffus ko‘p bo‘ladi” deyiladi.

*F.Perl*zning shaxsga oid nazariyasi va psixoterapevtik ta’sir tarafdorlari (*geshtaltterapiya*) imidjni butun bir tizim sifatida, ya’ni unga qandaydir aniq va real narsaday qarashni (“shu yerda va hozir”) hamda shakllantirishni taklif etadilar (figura va fonning mos kelishi). *Kognitiv psixologiya* tarafdorlari esa, imidjni shakllantirish tamoyilini o‘rgatuvchi strategiya (subekt tomonidan anglab qilinadigan) sifatida taklif etishadi. Yana bir nazariyalardan biri “*tanqislik nazariyasi*” imidjning emotsional ta’siri xususiyatlari asosida yaratilgan. “Maqsadli axborotning aniqligi, ayniqsa, defisit paytida intensiv tasavvurni yuzaga keltiradi. Bunday holda tasavvurni rag‘batlantiruvchi ongning kompensatorlik mexanizmlari ishga tushadi, o‘ylab oxiriga yetishning erkinlik darajasi mutaxassislar tomonidan qat’iy nazorat qilinadi.

F.E.Fiedler va funksional yondashuv tarafdorlari quyidagi imidj tiplarini tavsiya etadi:

1. Ko‘zgu – imidj, “Men” haqidagi tasavvurlar natijasida shakllanadi;
2. Hozirgi – imidj, o‘zgalar tomonidan berilgan ta’rif natijasida shakllanadi;
3. Istalgan – imidj, biz intilayotgan maqsadni o‘zida namoyon etadi;
4. Korporativ – imidj, tashkilotni qismlarini emas butunligicha o‘zida namoyon etadi;
5. Ko‘plik – imidj yagona korporatsiya o‘rniga bir qator mustaqil strukturalardan tuziladi.

Ingliz tadqiqotchisi E.Sempson shaxs imidji haqida yozar ekan, tashqi va ichki faktorlarning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda uni 3 tipga ajratadi:

1. “Men” imidj – o‘tmish tajribasi hamda ayni paytdagi o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmat va ishonch natijasi;
2. Anglangan imidj – o‘zgalarning bizga berilgan bahosi;
3. Talab etiladigan imidj – har bir bir mutaxassislikka (rolga) o‘zgacha imidj xosdir. Ayrim hollarda imidjga kiyim turlari yordamga keladi. Harbiy kiyim, sud mantiyasi va shoxlik toji – bularning hammasi imidj belgilari hisoblanadi hamda ma’lum vazifani bajaruvchi shaxsga oid ekanligini bildiradi.

Imidj sohasidagi tadqiq qilinayotgan yo‘nalishlardan yana biri o‘z-o‘zini anglash jarayoni bo‘lib, u shaxsga xos xarakterning asosiy manbai hisobalanadi. Ayrim insonlarning doimo o‘zligini anglashi va o‘z vaqtida boshqa insonlarning o‘z “Men”ini unutib qo‘yishi bir qator tadqiqotlarga sabab bo‘lib xizmat qildi.

V.Shadrikov, M.Sherif va A.Bass xarakterning o‘ziga xos jihati bo‘lgan o‘z-o‘zini anglash jarayonini diagnostika qiluvchi so‘rovnoma yaratdilar va uni “O‘zlikni anglash” shkalasi deb nomladilar. Tahlil asosida o‘zlikni anglashning bir qator aspektlari aniqlandi:

1. Shaxsiy o‘zlikni anglash – o‘zlikning haqiqiy hissiyotlariga diqqatni jalb etuvchi bandlardan iborat;
2. Oshkora o‘zlikni anglash – o‘zlikka ijtimoiy obekt sifatida nazar tashlash;
3. Ijtimoiy xavf – jamiyat e’tibori natijasida insonning o‘z-o‘zini yo‘qotib qo‘yish xususiyatini aks ettiradi.

Aniq tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zlikni anglash aspektlarining bir – biridan farqi katta bo‘lsa ham, ular o‘zaro bog‘liqdir. Bu uch aspektni anglab darajasiga ko‘ra insonlar bir-biridan farqlanadilar.

“Men” tamoyili imidjni shakllantirishning muhim bosqichi sanaladi. Bu bosqichda shaxs o‘zga shaxslarda yaxshi taassurot qoldirish texnologiyasini, o‘zlikni anglash va boricha qabul qilish, o‘ziga hamda olamga ijobiy munosabatni shakllantirish va o‘zligini sevishni o‘rganadi [2].

“Men” tamoyilining o‘zi nima? “Men” tamoyili – individning o‘zi haqidagi tasavvurlari majmuasidir” – deydi F.Berns. «Men” tamoyili tuzilmalar majmuidan iborat bo‘lib, uch asosiy bandni o‘z ichiga oladi:

1. Individning ishonchi – u asoslangan ham, asoslanmagan ham bo‘lishi mumkin (tuzilmaning kognitiv tarkibi);
2. Bu ishonchga hissiy munosabat (hissiy baholovchi tarkibi);
3. Xatti-harakatlarda namoyon bo‘luvchi mos munosabat (xulq-atvor tarkibi).

Qo‘llanish tartibiga ko‘ra bu uch elementni quyidagicha aniqlashtirishimiz mumkin:

1. Men obrazi – individning o‘zi haqidagi tasavvurlari;
2. O‘zini baholash – ushbu holatni affektiv baholash turli darajada bo‘ladi. Chunki, Men obrazining aniq, o‘ziga xos xususiyatlari uni qabul qilish va munosabat bildirish jarayonida kuchli yoki kuchsiz hissiyot uyg‘onishiga sabab bo‘lishi mumkin.
3. Xulqning potensial munosabati – Men obrazi va o‘zini baholash natijasida bajarilgan aniq xatti-harakatlar.

Ushbu tamoyil individ ma’lum vaziyatlarda qanday harakat qiliadi va o‘zgalar xatti – harkatiga qanday munosabat bildirishini belgilaydi.

X.Xekxauzen fikriga ko‘ra, muvaffaqiyatga erishish motivini rahbarning muvaffaqiyat mezonlari qo‘llanilganda eng yuqori darajadagi imkoniyatlarni saqlab qolish va kengaytirishga harakat qilish sifatida ta’kidlanadi. Bunday faoliyat natijalari muvaffaqiyatga yoki muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin. Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi ma’lum bir yakuniy natijaga yo‘naltiriladi, ya’ni muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik. Muvaffaqiyatga erishish uchun doimiy ravishda maqsadlarni qayta ko‘rib chiqish kerak .

M.M.Mukanovning fikriga ko‘ra, muvaffaqiyatga erishish zarurati quyidagi tushunchalar bilan tavsiflanadi: qiyin ishlarni bajarish, boshqarish, tartibga solish, jismoniy obyektlar shaxslar va

g‘oyalar munosabatini tashkillashtirish; imkon qadar tez va mustaqil ravishda bajarish; to‘siqlarni bartaraf etish va yuqori natijaga erishish; rivojlanish, raqobatlashish va boshqalardan ustun turish, iste’dodlarni namoyish qilish va o‘zini o‘zi hurmat qilishni kuchaytirish [80].

Shunga mos ravishda M.Sh.Magomed-Eminov boshqaruvda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi integratsiyalashganini affektiv va kognitiv jarayonlarning funksional tizimi sifatida belgilaydi. Faoliyatni motivatsion boshqarish jarayonida muayyan funksiyalarini bajaruvchi maxsus tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatish mumkin: dolzarblik motivatsiyasi (faoliyat istagi va tashabbus), seleksiya motivatsiyasi (maqsadni va unga mos faoliyatni tanlash jarayoni), amalga oshirish motivatsiyasi (harakatni tartibga solish va istagini amalga oshirishni nazorat qilish), posterealizatsiya motivatsiyasi (harakatni to‘xtatish yoki bir harakatni boshqasiga o‘zgartirishga yo‘naltirilgan jarayonlar).

Muvaffaqiyat motivatsiyasini amalga oshirish mexanizmlaridan biri vaziyatning hissiy motivatsion ahamiyatini baholash bo‘lib vaziyatni va muvaffaqiyatga erishish umumiy kompetentligini baholashdan kelib chiqadi. Motivatsion an’ana jadalligi muvaffaqiyatga erishish motivi va muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik kabi ikki parametrning kattaligiga qarab o‘zgaradi.

Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik o‘rtasidagi munosabatlarga doir nisbatan har xil qarashlar mavjud. Xususan, A.Scheflen muvaffaqiyatga erishish motivi doirasidagi mutanosib qutblar ekanini, agar inson muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan bo‘lsa, unda muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqmaydi va aksincha bo‘lishini ta’kidlaydi. Boshqa tadqiqotlarda esa muvaffaqiyatga erishish istagi aniq ifodalansa, u qandaydir jiddiy oqibatlarga olib kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan taqdirda muvaffaqiyatsizlik kuchli qo‘rquvga olib kelmaydi, deb hisoblanadi. Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik o‘rtasida ijobiy munosabatlar bo‘lishi mumkinligiga dalillar mavjud. Shuning uchun muvaffaqiyatga intilish yoki muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik istagi bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Bundan tashqari ular har ikkala intilishning ham yuqori, ham past darajasida bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Mustakil O‘zbekistonda, hozirgi globallashuv sharoitida bojxona xizmatidagi islohotlar natijasida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Hozirgi kunda bojxona tizimi kadrlarining ruhiy barkamolligi, xodimlar faoliyatida psixologik omilning ustunligi muhim ahamiyat kasb etmokda. Iktisodiy integratsiyalashuv sharoitida bojxona xodimlarining ijtimoiy mavqei yangi bosknchga kutarildi, bojxona jarayonlarini amalga oshirishning psixologik shart-sharoitlarida muhim o‘zgarishlar yuzaga keldi. Shaxslararo munosabatlarning xalqaro munosabatlar bilan yaqinlashuvi, uygunlashuvi tendensiyalari kuchaydi. Bojxona xodimlari faoliyatida psixologik bilimlarning, shu jumladan kasbiy muomala malakasi va ko‘nikmalarga ega bo‘lishning ahamiyati g’oyatda oshdi. Muomala va shaxslararo munosabatlar mavzusining sharq mutafakkirlari, xorij va o‘zbek olimlari tomonidan urganilishi tahlili shuni ko‘rsatadiki, barcha olimlar mazkur masalaning kishilik jamiyati uchun ahamiyati g’oyatda yuqori ekanligini e’tirof etishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Аширов, А. Х. (2020). *Татоженное дело: теория и практика*. – Т.: O‘zbekiston Bojxona instituti nashriyoti. – 245 б.

2. Очилов, М. Ю. (2018). *Zamonaviy bojxona tizimi va kadrlar siyosati*. – Тошкент: Akademnashr. – 198 б.

3. Григорьев, М. Н. (2015). *Имидж государственной службы и ее представителей*. – Москва: Юрайт. – 174 с.

4. Собирова Д.А. Тиббиёт ходимлари касбий компетентлигини психологик асослари. - Бухоро.: “Durdona”, 2020. – 160 б.

5. Олпорт Г. Становление личности. Избранные труды. – М: Смысл, 2002 – 329 с.;

6. Терстоун Л.Л. Характер интеллекта.- М.:Педагогика, 1924.- 230 с.

7. Айзенк Г.Ю. Интеллект: новый взгляд // Вопросы психологии. 1995. М.:С. 111–131.

Boboyeva Feruza Azimjonovna
Buxoro xalqaro universiteti tadqiqotchisi

OILADA O‘SMIRLARNI QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oilada o‘smirlarni qadriyatlar asosida tarbiyalashning psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Ota-onalar va ijtimoiy muhitning ta’siri, shaxsiy qadriyatlar tizimining shakllanishi, ijtimoiylashtirish jarayonidagi kommunikativ omillar hamda tarbiya uslublarining roli yoritiladi. Shuningdek, o‘smir yoshidagi shaxsning psixologik xususiyatlari asosida qadriyatlarni anglash va qabul qilishga oid mexanizmlar nazariy va empirik asosda ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *qadriyat, oila, o‘smir, tarbiya, psixologik mexanizm, shaxs, ijtimoiylashtirish.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ВОСПИТАНИЯ ПОДРОСТКОВ В СЕМЬЕ НА ОСНОВЕ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация. *В статье рассматриваются психологические механизмы воспитания подростков в семье на основе ценностей. Анализируется влияние родителей и социального окружения, формирование системы личностных ценностей, роль коммуникативных факторов в процессе социализации и стили воспитания. Особое внимание уделено механизмам осознания и принятия ценностей подростками с учетом их психологических особенностей.*

Ключевые слова: *ценности, семья, подросток, воспитание, психологический механизм, личность, социализация.*

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF VALUE-BASED UPBRINGING OF ADOLESCENTS IN THE FAMILY

Abstract. *This article explores the psychological mechanisms of value-based upbringing of adolescents within the family. It analyzes the influence of parents and social environment, the development of a personal value system, the role of communication in socialization, and parenting styles. Particular attention is given to the mechanisms through which adolescents perceive and internalize values based on their psychological characteristics.*

Keywords: *values, family, adolescent, upbringing, psychological mechanism, personality, socialization.*

Kirish. Respublikamizda so‘nggi yillarda oilalarni axloqiy, ma’naviy va ruhiy barkamolligini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan say’i-harakatlar kun sayin ortib bormoqda. “Qadriyat” atamasi inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat yoki qaysidir ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat ne’matlari hisoblanadi. Milliy qadriyatlar mahalliy va diniy qadriyatlarga, umuminsoniy qadriyatlar esa ko‘plab milliy qadriyatlarga tayanib shakllanadi va asrlar osha takomillashib boraveradi. Bugungi tezkor globallashuv sharoitida ham o‘z milliy va ma’naviy boyliklarini asrab-avaylayotgan, boyitib rivojlantirayotgan har qanday millat o‘ziga xos an’analari, urf-odatlari va o‘lmas qadriyatlari bilan boshqa millatlardan ajralib turadi.

Bizga ma’lumki, milliy tarbiya masalasi yeng ulug‘ va yeng ma’suliyatli vazifa sifatida qaralib kelingan. Milliy tarbiyamiz ota-onalarning farzandlari bilan juda yumshoq munosabatda bo‘lish kerakligini taqozo qiladi. Onaxon va otaxonlar “Bolani ush yoshga qadar faqat yerkalatish va yumshoq muomalada bo‘lish kerak, aksinsha, qattiq gapirsa bola o‘jar va qaysar bo‘ladi”, deyishadi. Ko‘rshilik zamondosh ota-onalarning fikrisha ham, ush yoshga qadar bolani o‘z erkiga qo‘yish, unga faqat yaxshi gapirish kerak, agar go‘dak yoshida bola urib-so‘kilmasa, unga yaxshi muomala qilinsa, bola kattalarni garini tinglaydigan, itoatli va yuvosh bo‘lib o‘sadi.

Sharq allomalarining ilmiy merosida shaxsning kamolotga yetishi, sog‘lom shakllanishi, unga to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berish, shuningdek, shaxsning sog‘lom xulq-atvor fazilatlariga ega bo‘lib, ezgu

va sog‘lom g‘oya hamda mafkura asosida o‘z yo‘lidan adashmay o‘z hayotini qurishi lozimligi haqida juda qimmatli fikr-mulohazalarni uchratish mumkin. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Unsurulmaoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va Husayn Voiz Koshifiy kabi allomalarimizning asarlarida hamda “Avesto” va “Qur’on” kabi muqaddas kitoblarimizda ham shaxs kamoloti, go‘zal xulqli insonning shiroyli fazilatlari, ezgulikka va bunyodkorlikka yo‘g‘rilgan g‘oya va mafkuralar asosida yomondan, yomon ishlardan hazar qilish, yomon ishlar qilguvshilarni to‘g‘ri yo‘lga solish, sog‘lom bo‘lmagan xulq yegalarini zamon, jamiyat hamda Olloh kechirmasligi bois, shaxsni kelajakda har xil yomon, yovuz yo‘llar, buzg‘unshi fikr va g‘oyalarga shalinmasligi uchun barkamol qilib tarbiyalash yuzasidan qimmatli fikrlarni ilgari surganlar.

Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar o’smirni yetishtirib beradi.

Metodika. Bugungi kunda O‘zbekistonda o’smir tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini ıцrganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

Endi tadqiqotimiz maqsadiga mos ravishda tanlangan har bir metodika bo’yicha olingan natijalar tahliliga o’tamiz. Dastlab, V.Stefansonning “Q - saralash, real guruhdagi xulq-atvorning ustivor jihatlarini diagnostika qilish metodikasi” bo’yicha olingan natijalar tahliliga o’tamiz.

1-jadval

Guruhdagi xulq- atvor motivatsiyasini o‘rganish metodikasi bo‘yisha olingan dastlabki statistik natijalar tahlili (n=260)

№	Omillar	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
		M	S	M	S
1	Qaramlik	9,9	1,2	9,3	1,8
2	mustaqillik	6,7	1,3	7,3	1,4
3	muloqotmandlik	4,3	1,1	5,2	1,5
4	odamovilik	4,4	1,5	3,9	1,7
5	“kurash”ga tayyorlik	5,6	1,2	6,5	1,2
6	“kurash”dan qoshish	8,5	0,9	7,3	0,8

Demak yuqoridagi jadvalda keltirilgan emperik ko‘rsatkishlarni tahlil qiladigan bo‘lsak o‘smirlar xulq-atvorida “qaramlik” tendensiyalari bo‘yisha tajriba guruhida (9,9), nazorat guruhida (9,3) ko‘rsatkishlar qayd qilindi. Demak mazkur holatni o‘smirlarni kimlargadir tobelik bog‘liqlanib qolishlar yaqqol namoyon bo‘lishi bilan izohlash mumkin. Qolaversa bu sifat guruhdagi o‘zaro hamkorlik va munosabatlarda shaxsning raqobatdan, “kurash” dan qoshishga moyilliklarini ham bildiradi.

O‘smirlarning xulq-atvorida “mustaqillik” tendensiyalari yesa tajriba guruhida (6,7) nazorat guruhida (7,3) ko‘rsatkishni qayd qildi. Ush bu holatni o‘smirlarda guruhning normalarini o‘z fikri va harakatida tasdiqlashga shaylik, mustaqil fikrlilikka bog‘liq faoliyatni ko‘rsatishga hozirligi bilan izohlash mumkin.

“Muloqotmandlik” xulq-atvor tendensiyalari bo‘yisha tajriba guruxida (4,3), nazorat guruxida yesa (5,2) ko‘rsatkichlar qayd qilindi. Demak bu tendensiya o‘smirlarning guruh va uning tashqarisida yemotsional aloqalar o‘rnatishga intilishi, bu aloqalarning ko‘rinsa samarali ekanligini tasdiqlaydi.

O‘smirlarning xulq-atvoridagi “odamovilik” tendensiyasi tajriba guruxida (4,4) va nazorta guruxida yesa (3,9) ko‘rsatkichlarni qasd qildi. Mazkur holatni ular orasidagi guruhda qabul qilingan normalar va xulq standartlari hamda qadriyatlarni qabul qilishdan o‘zini chetga olishi va guruhdan ajralishga moyilligi bilan izohlash mumkin.

“Kurash”ga tayyorlik” xulq-atvori omili tajriba guruxida (5,6) nazorat guruxida (6,5) ko‘rsatkishni qad qildi. Buni o‘smirlardagi guruh hayotida faol ishtirok yetishga bo‘lgan ishtiyoqi, shaxslararo o‘zaro munosabatlartlarda yanada yuqoriroq mavqega ega bo‘lishga intilishlari bilan izohlash mumkin.

O‘smirlar xulq-atvoridagi “kurash”dan qoshish omili tajriba guruhida (8,5) nazorat gurixida (7,3) ko‘rsatkishlarni qayd qildi. Mazkur holatni o‘smirlarni o‘zaro aloqa, ta’sirlarni chetlab o‘tish, ziddiyat va bahslarda neytralitet (betaraflik) ni saqlab qolishga intilishi bilan izohlashimiz mumkin (2.1-jadvalga qarang).

O’smirlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda ularning ijtimoiy munosabatlarni, guruhni rersertiv jihatdan idrok qilishi muhim sanaladi. Shu maqsadda biz o’smirlarni tarbiya darajasiga ta’sir etuvchi individ tomonidan guruhni idrok yetishni o‘rganish” metodikasidan foydalandik. Metodika shaxsdagi ijtimoiy va tarbyaviyy yo‘nalganlikning (individ tomonidan guruhni idrok yetishning) uchta asosiy turini: individualistik, jamoaviylik va pragmatik turlarini aniqlash imkonini beradi.

2-jadval

“Individ tomonidan guruhni idrok yetishni o‘rganish” metodikasi bo‘yisha o‘smirlardan olingan dastlabki natijalar tahlili (n=260)

Resrondentlar	**Mezonlar**	Statistik ko‘rsatkishlar	
		M-o‘rtasha arifmetik qiymat	S^2 standart og‘ish darajasi
yigitlar (n=140)	individuallik	12,9	7,8
	jamoaviylik	11,8	7,5
	rragmatik	12,4	7,9
qizlar (n=120)	individuallik	10,6	6,2
	jamoaviylik	12,4	7,3
	pragmatik	11,6	7,4

“Individ tomonidan guruhni idrok yetishni o‘rganish” metodikasi bo‘yisha o‘smirlardan olingan dastlabki natijalar tahliliga o‘tadigan bo‘lsak, biz dastlab respondentlarni gender jihatdan tadqiq yetishni maqsad qildik. Bunda yigitlarda yeng yuqori natija “individuallik” (12,9) omilida qayd yetildi. Qizlarda yesa eng yuqori “jamoaviylik” (12,4) omilida kuzatildi. Bu natijalar bir qaraganda hayot qonuniga teskaridek, chunki bizlar ko‘rinsha yigitlar qizlarga nisbatan ko‘rroq jamoaviylikni yaxshi ko‘radi, yigitlar qizlarga nisbat tez jamoa bo‘lib birikadi degan qarashlarimiz ma’lum darajada asoslanmagan stereotip bo‘lib chiqayarti. Darhaqiqat,yigitlarni ijtimoiy rol vazifalari ularni qizlarga nisbatan individualligini oshiradigan asosiy omil ekan. Yigitlarda eng quyi natija “jamoaviylik” (11,8) bo‘lsa, qizlarda “individuallik” (10,6) da namoyon bo‘ldi. Bu esa boshqalarga tayanmasdan mustaqil ishlash va muvaffaqiyatga erishish istagining yigitlarda yuqoriligini anglatadi. Qizlarda esa aksincha, o‘z faoliyatlarini yakka tartibda bajarishga intilish

nisbatan pastroq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Demak, o‘smir qizlarda birgalikda ishlash va umumiy muvaffaqiyatga yerishish istagi, jamoa bo‘lib ishlash, o‘zini o‘zi takomillashtirishda atrof-muhit bilan birgalikda ishlash motivatsiyasi kushli ekanligi kuzatildi.

Pragmatlik darajasi yesa qizlar (11,6) ga nisbatan yigitlar (12,4) da ustun ekan. Bu holatni ham yigitlar jamiyatda ko‘proq o‘z mehnatlari orqali ko‘p narsalarga erishilari uchun aniqroq, puxtaroq maqsadlar qo‘yish va unga yerishish yo‘lidagi qiyinshiliklarni yengish rejalarini oldindan aniq rejalashtirish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarga egaligi bilan izohlash mumkin.

Xulosa. Ota-onalar tomonidan tarbiyaviy ishlarda o‘z farzanlariga bildirilgan munosabatlar qanchalar salbiy bo‘lsa, bu kabi munosabatlar ta’siri ostida o‘sayotgan har qanday o‘smirlarning egotsentrik yo‘nalishlari, muloqotga kirishimlilik va tashkilotchilik qobiliyati sifatlari hamda shaxsning o‘z atrofidagilarga nisbatan shaxslararo munosabatlarining hukmronlik, o‘z hukmini o‘tkazish, amr-farmonlik, zolimlik, ishonchsizlik, shubhalanuvchanlik, qaysarlik, injiqlik, yolg‘onchilik, johillik, tajovuzkorlik va sovuqqonlik kabi etnopsixologik jihatlarining salbiy shakllanishiga sabab bo‘lar ekan. O‘smirlar orasida “boshqalardan ijobiy munosabatni kutish omili” yuqoriligini ko’rsatdi. Bu esa o‘smirlik davrida yuz beradigan krizislarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Chunki, o‘smirlik davrida emotsional holatning yuqori bo‘lishi ularda boshqa insonlardan ijobiy munosabatlarni kutish tendensiyasini namoyon etadi. Biroq real hayotda hamma vaqt ham kattalar o‘smirlar bilan yaxshi munosabatda bo‘lishmaydi, demak kattalar va o‘smirlar orasidagi aksariyat ziddiyatlarni asosi shu omilga ham bog‘liq ekanligi isbotlandi.

O‘smirlar orasida ma’lum darajadagi begonalashish (alienatsiya) – o‘z kutilma va emotsional taxminlarini shakllantirish qobiliyatining buzilishlari ham kuzatildi. Buning natijasida o‘smir ayni damda ko‘zlayotgan yoki amalga oshirayotgan muddaosining motivatsion-emotsional asosini anglab yetmaydi. Muddaoni emotsional qo‘llab-quvvatlamaslik tufayli harakatni tanlash va amalga oshirishda ichki erksizlik his etiladi: o‘smirni oldiga qo‘ygan maqsadi “o‘zinikimasdek”, “begonadek” tuyuladi. Maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilgan harakatlar esa subyekt tomonidan emas, balki tashqi ta’sirlar tomonidan rejalashtirilgandek tuyuladi. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda, o‘smir nima sababdan bu narsalarni qilayotganini anglab yetmaydi, hayotdagi xatti-harakatlari mazmun-mohiyati bilan bog‘liq muammoga duch keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Абдуллаева Н. Оила психологияси. — Т.: “Fan va texnologiya”, 2016. — 150 б.
2. Allport G. The Nature of Prejudice. — Reading, MA: Addison-Wesley, 1954. — 281 p.
3. Бодалев А. А. Личность и общение. — М.: Просвещение, 1987. — 256 с.
4. Vygotsky L. S. Mind in Society. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. — 159 p.
5. Schwartz S. H. Universals in the content and structure of values: Theoretical advances and empirical tests. // Advances in Experimental Social Psychology. — 1992. — Vol. 25. — P. 1–65.
6. Носирова Б. Ўсмирлар психологияси. — Т.: “Иқбол”, 2020. — 144 б.

Eshpulatova Shoxista Akbar qizi
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Tarix kafedrasi o‘qituvchisi

O‘SMIRLAR ORASIDA AGRESSIV XULQ-ATVORNING KUCHAYISH SABABLARI VA UNI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YO‘LLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘smirlar orasida kuzatilayotgan agressiv xulq-atvorning kuchayish sabablari va ushbu holatni bartaraf etishning samarali pedagogik hamda psixologik yo‘llari tahlil qilingan. O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhit va ta’lim muassasalarining roli ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, agressiyani kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlik, agressiv xulq, psixologik omillar, pedagogik yondashuv, ijtimoiy muhit, tarbiya.*

ПРИЧИНЫ УСИЛЕНИЯ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ СРЕДИ ПОДРОСТКОВ И ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПУТИ ЕГО ПРЕОДОЛЕНИЯ

Аннотация. *В статье проанализированы причины усиления агрессивного поведения среди подростков и эффективные педагогические и психологические пути преодоления данной ситуации. На научной основе раскрыты психологические особенности подросткового возраста, а также роль социальной среды и образовательных учреждений. Кроме того, представлены практические рекомендации по снижению агрессии.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, агрессивное поведение, психологические факторы, педагогический подход, социальная среда, воспитание.*

CAUSES OF THE INTENSIFICATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR AMONG ADOLESCENTS AND PEDAGOGICAL–PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO ITS MITIGATION

Abstract. *This article analyzes the reasons for the intensification of aggressive behavior among adolescents and outlines effective pedagogical and psychological strategies for addressing this issue. The psychological characteristics of adolescence and the roles of the social environment and educational institutions are examined on a scientific basis. In addition, practical recommendations for reducing aggression are provided.*

Keywords: *adolescence, aggressive behavior, psychological factors, pedagogical approach, social environment, upbringing.*

Kirish. Hozirgi kunda o‘smirlar orasida tajovuzkorlik, qo‘pollik hamda o‘zini tutib turolmaslik holatlari tez sur’atlarda ortib bormoqda. Do‘stlarga, sinfdoshlarga va kattalarga nisbatan hurmatsizlik, o‘zaro nizoli vaziyatlarda tez keskinlashish hamda jismoniy kuch ishlatishga moyillik kabi xatti-harakatlar maktab va oilaviy muhitning psixologik barqarorligini buzmoqda. Mazkur tendensiya shaxsning ijtimoiylashuvi, o‘rta va oliy ta’lim tizimidagi muvaffaqiyati, hamda jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Agressiv xulq-atvor nazoratsiz qoldirilganda, yosh avlod orasida ijtimoiy moslashuv muammolari, ruhiy zo‘riqishning kuchayishi va antisotsial me’yorlarga rioya etmaslik kabi noxush oqibatlar yuzaga keladi. Shu bois pedagogik va psixologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali zo‘ravonlik omillarini aniqlab, ularni bartaraf etish usullarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir.

O‘smirlik davri – shaxsiyatning muhim psixologik o‘zgarishlarga duch keladigan bosqichi bo‘lib, unda hissiy barqarorlik, impuls nazorati va ijtimoiy tajriba muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy tarbiya uslublari, sinfdoshlar bilan munosabatlar, o‘qituvchi nazorati hamda ommaviy axborot vositalarining ta’siri agressiyaning shakllanishida vositachi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu maqolada avvalo o‘smirlarning psixologik xususiyatlari va ularni agressiyaga undovchi asosiy pedagogik-psixologik omillar (oilaviy, maktab, tengdosh va ijtimoiy-media faktorlar) ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, zo‘ravonlik holatlarini kamaytirishga qaratilgan intervensiya modellari, ijtimoiy-emotsional o‘qitish dasturlari va psixologik konsulьtatsiya uslublari muhokama qilinib, amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

Hozirgi kunda global miqyosda ham o‘smirlar orasida zo‘ravonlik holatlari yuqori darajada kuzatilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, har yili 15-29 yoshdagi yoshlarda taxminan 193 000 nafar shaxs qotillikka uchraydi, bu esa umumiy qotilliklar sonining 40 % ini tashkil etadi. Shuningdek, Craig va hamkasblarining 40 mamlakatni qamrab olgan tadqiqotida 10,7 % o‘smirlar orasida turli darajadagi agressiv xatti-harakatlar qayd etilgani aniqlangan. Buning ustiga, JSSTning ruhiy salomatlik haqidagi fakt varaqligida qayd etilishicha, 10–19 yoshdagi har yettinchi yosh o‘rtasida ruhiy kasalliklar, jumladan xulq-atvor buzilishlari aniqlanadi, bu esa psixologik yordamlashuv zaruratini ochiq aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi miqyosida ham o‘xshash tendensiyalar sezilmoqda. Iqtisodiyot va mintaqaviy tadqiqotlar instituti ma’lumotiga ko‘ra, maktab o‘quvchilarining taxminan 7 nafaridan 1 nafari o‘z maktabini xavfsiz his qilmaydi; asosiy xavf omillari sifatida tazyiqli tahqirlash, jismoniy zo‘ravonlik va og‘zaki haqorat ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, 2023-yilning birinchi to‘qqiz oyida Respublika bo‘yicha voyaga yetmaganlarga qarshi jami 1 240 ta zo‘ravonlik holati qayd etilgan, ulardan 417 tasi jinsiy zo‘ravonlikga oid faktlar hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkichlar o‘smirlar orasidagi agressiv xulq-atvorni bartaraf etish bo‘yicha kompleks pedagogik-psixologik choralar zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mavzuning dolzarbligi. O‘smirlik yoshi - inson hayotidagi eng murakkab, emotsional jihatdan beqaror va mo‘rt bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda shaxsiylikni shakllantirish, ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish va mustaqil qaror qabul qilish ehtiyoji kuchayadi. Aynan shu jarayonda salbiy psixologik va ijtimoiy ta’sirlar, noto‘g‘ri tarbiya uslublari, emotsional qo‘llab-quvvatlash yetishmasligi kabi omillar o‘smirlar xulq-atvorida agressivlik, tajovuzkorlik va ijtimoiy muvozanatsizlik kabi holatlarni yuzaga keltirmoqda.

Bugungi globallashuv, raqamli axborot oqimi, ommaviy madaniyat bosimi va ijtimoiy tarmoqlardagi nazoratsiz kontent yosh avlod ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, maktab muassasalarida o‘quvchilarning bir-biriga nisbatan zo‘ravonlik qilish hollari (mobbing, psixologik bosim, internet orqali tazyiq va h.k.) ortib borayotgani muammoning yanada chuqurlashayotganini ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, oilada emotsional beparvolik, o‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasidagi ziddiyatli muloqot va psixologik xizmatlarning sustligi o‘smirlar orasidagi agressiv xatti-harakatlarning kuchayishiga sabab bo‘layotgan asosiy omillar sifatida e’tirof etilmoqda. Bu esa nafaqat alohida shaxslarning, balki jamiyatning barqarorligi va ma’naviy salomatligi uchun ham xavf tug‘diradi.

Shu sababli o‘smirlarda agressiv xulq-atvorni vujudga keltiruvchi pedagogik-psixologik omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha samarali choralarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish - zamonaviy ta’lim, tarbiya va psixologiya fanlari oldida turgan eng dolzarb muammolardan biridir.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. O‘smirlik davridagi xulq-atvor muammolari, xususan agressivlikning psixologik va pedagogik asoslari ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, bu yo‘nalishda yirik nazariy va amaliy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, yoshga doir psixologik xususiyatlar, o‘sish jarayonida yuzaga keladigan emotsional va ijtimoiy muammolar masalasi Z.M. Karimova, N. Erkaboyeva, M. X. G‘anieva kabi mahalliy olimlar asarlarida keng yoritilgan.

Agressiv xulq-atvorning paydo bo‘lish sabablari va uni shakllantiruvchi ijtimoiy omillar, ayniqsa oilaviy tarbiya, o‘quv muassasalari muhitining ta’siri bo‘yicha A. Bandura, K. Levin, E. Fromm, L. S. Vygotskiy kabi klassik psixologlar hamda zamonaviy mutaxassislar tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, Bandura o‘zining “ijtimoiy o‘rganish nazariyasi”da tajovuzkorlik ijtimoiy modellashtirish orqali shakllanishini ta’kidlaydi.

Mahalliy olimlardan N.X. Po‘latova o‘smirlarning noan’anaviy xulq-atvori va ularni oldini olish masalasida, S.A. Abdullayeva esa yoshlar orasida ijtimoiy-psixologik moslashuvning o‘rnini o‘rganishda e’tibor qaratgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog-psixologlar tomonidan bolalarda zo‘ravonlik va agressivlikning oldini olish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Shunga qaramay, agressiv xulq-atvorga olib keluvchi omillarni kompleks ravishda, ya’ni psixologik, pedagogik va ijtimoiy aspektlarda birgalikda tahlil qilish, ayniqsa o‘zbek mentaliteti va jamiyat konteksti doirasida chuqurroq o‘rganishga ehtiyoj mavjud. Bu esa mavzuning hozirda ham dolzarbligini va ilmiy-tadqiqot nuqtai nazaridan yangicha yondashuvlarni talab qilayotganini ko‘rsatadi.

MDH olimlaridan. Денисова, М. Ф., Музыка, Н. Н., & Шкиряк-Нижник, З. А. (2019). «Подростковая агрессия, причины и факторы риска». Здоровье ребенка, № 8, с. 470–474. Tadqiqotchilar oila ichidagi konfliktlar, tengdoshlar zo‘ravonligi va ommaviy axborot vositalari o‘smirlar agressiyasining asosiy prediktorlari ekanini aniqlagan.

Реан, А. А. (2003). «Социально-психологические причины проявления подростковой агрессии». A.A. Reanning fikricha, gormonal o‘zgarishlar, ijtimoiy stereotiplar va nerv jarayonlarining noturg‘unligi qiz-o‘smirlarda agressiyani kuchaytiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Исследование КубГУ (2020–2021). “Проблемы проявления агрессии в подростковом возрасте.” Tadqiqot ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik va mintaqaviy stratifikatsiya yoshlar orasidagi agressiyani kuchaytiruvchi muhim ijtimoiy omillar ekanini ko‘rsatgan

Xorij olimlaridan. Borrego-Ruiz, A., & Borrego, J. J. (2025). Adolescent Aggression: A Narrative Review on the Potential Impact of Violent Video Games. Psychology International, 7(1), 12. Ushbu revyu VVGlarga muntazam ekspozitsiya yoshlar orasida zo‘ravonlikni desensitizatsiya qilishi, empatiyani kamaytirishi va agressiyaga moyillikni oshirishi haqida xulosalar beradi.

Tahlil va muhokamalar. O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari.

O‘smirlik - inson hayotidagi eng muhim, bir vaqtning o‘zida murakkab va mo‘rt davr hisoblanadi. Ushbu bosqichda bola endi to‘liq aqliy va jismoniy yyetuklik sari qadam qo‘yadi. Ammo aynan shu davrda emotsional va psixologik barqarorlik hali to‘liq shakllanmagan bo‘lishi sababli, o‘smirlar turli ichki va tashqi ta’sirlarga nisbatan sezuvchan, ziddiyatli, ba’zan esa agressiv bo‘lib qolishadi.

O‘zlikni anglash va mustaqillik ehtiyoji.

O‘smirlik – bu shaxsiy “men” ni anglash, o‘z qadr-qimmatini his qilish, kattalardan alohida mustaqil shaxs sifatida harakat qilish davridir. O‘smir endi bolalarcha qaramlikdan voz kechib, qaror qabul qilish, mas’uliyat olish va o‘z fikrini bildirishga harakat qiladi. U doimiy ravishda o‘zini atrofdagilarga, ayniqsa tengdoshlariga isbotlashga intiladi. Bu jarayonda u ko‘pincha kattalar bilan qarama-qarshilikka kiradi, ijtimoiy rollarni sinab ko‘radi va o‘zini jamiyatda qanday tutish kerakligini o‘rganadi.

Gormonlar faolligi va jismoniy o‘zgarishlar.

O‘smirlik – bu fiziologik jihatdan ham o‘sish va gormonal o‘zgarishlar davri hisoblanadi. Bu davrda jinsiy yetilish boshlanadi, endokrin tizim faol ishlay boshlaydi va organizmda kuchli gormonal o‘zgarishlar yuz beradi. Aynan shu biologik omillar o‘smirning psixologik holatiga bevosita ta’sir qiladi - ya’ni kayfiyatda keskin o‘zgarishlar, g‘azablanish, tushkunlik, qattiqqo‘llik, e’tiborsizlik va impulsiv harakatlar tez-tez kuzatiladi.

Emotsional beqarorlik.

O‘smirlar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishda qiynalishadi. Ular muayyan holatlarga haddan ortiq keskin yoki asossiz salbiy reaktsiya ko‘rsatishadi. Masalan, o‘zini tushunmaslikdan shikoyat qilish, atrofdagilarni “dushman” sifatida qabul qilish, tanqidga nisbatan haddan tashqari sezuvchan bo‘lish holatlari kuzatiladi. Bu holatlar psixologiyada emotsional labilitet deb ataladi.

O‘zini tasdiqlash va agressivlik.

Ko‘pgina o‘smirlar agressiv xulq-atvor orqali o‘zini tengdoshlariga yoki kattalarga nisbatan kuchliroq, mustaqilroq shaxs sifatida ko‘rsatishga harakat qilishadi. Ular bu yo‘l bilan ichki komplekslari, qo‘rquvlari, beqarorlik yoki e’tiborga bo‘lgan ehtiyojlarini “yashirish”adi. Agressivlik ba’zida passiv (masalan, sukut saqlash, e’tiborsizlik, kinoya) yoki ochiq (jismoniy yoki og‘zaki tajovuz) ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Tengdoshlar ta’siriga moyillik.

O‘smirlar bu davrda ko‘proq tengdoshlar guruhining fikri, qadriyatlari va xulq me’yorlariga ergashishadi. Ular ko‘pincha o‘z “status”ini saqlab qolish yoki muhitga moslashish uchun salbiy xatti-harakatlarga, jumladan agressiyaga ham yo‘l qo‘yishadi. Guruh ta’siri ba’zida individual ong va axloqiy nazoratni so‘ndirib qo‘yadi.

Shaxsiylik va psixologik ziddiyatlar

O‘smirlik davri “shaxsiy inqiroz” (ya’ni identifikatsiya inqirozi) bosqichi sifatida qaraladi. Bu davrda o‘smir: “Men kimman?”, “Men qanday bo‘lishim kerak?”, “Jamiyatda o‘rnim qayerda?” kabi savollarga javob izlaydi. Javob topa olmasa - beqarorlik, ishonchsizlik va tashqi agressiya shakllanadi.

O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari - agressiv xulq-atvorning shakllanishi uchun sezgir va ta’sirchan poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Biologik, emotsional va ijtimoiy omillar birgalikda o‘smirning o‘zini qanday tutishini belgilaydi. Shu sababli bu davrda pedagog va psixologlarning ehtiyotkor, ehtiyojga mos va individual yondashuvi muhim hisoblanadi.

Agressiv xulq-atvorga ta’sir qiluvchi pedagogik-psixologik omillar

O‘smirlarning agressiv xulq-atvori - bu ularning ijtimoiy-psixologik rivojlanishida, ayniqsa, murakkab shaxsiy shakllanish davrida yuzaga keladigan salbiy holatlardan biridir. Bunday xatti-harakatlarning shakllanishiga bir vaqtning o‘zida bir nechta ichki (psixologik) va tashqi (pedagogik va ijtimoiy) omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ularni quyidagicha tahlil qilish mumkin:

1. Pedagogik omillar

a) Ta’lim muassasasidagi salbiy muhit

Maktabdagi psixologik iqlimning noqulayligi - ya’ni o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ishonchsizlik, qat’iy intizom, muloqot yetishmasligi - o‘smirni ichki norozilikka va agressiyaga undashi mumkin. Maktabda o‘zini “begona” his qilgan bola tajovuzkor bo‘lib qoladi yoki o‘z salbiy hissiyotlarini tengdoshlariga yoki o‘qituvchilarga qarata boshlaydi.

b) O‘qituvchining salbiy yondashuvi.

O‘qituvchining haddan tashqari talabchanligi, sovuqqonligi yoki tengdoshlari oldida o‘quvchini kamsitishi uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi, himoya reaktsiyasi sifatida agressiv xatti-harakatlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Ba’zida o‘qituvchining o‘zi agressiv model sifatida namoyon bo‘lishi mumkin (baqiriq, tahdid, jazolash usullarining noto‘g‘ri qo‘llanishi).

c) Noto‘g‘ri tarbiya uslublari.

O‘qituvchi yoki tarbiyachilarning faqat jazoga tayanadigan, muloqotsiz va bir tomonlama yondashuvlari o‘quvchida salbiy emotsional fonni kuchaytiradi. Bu esa agressivlikni o‘z-o‘zidan kuchaytiradi. Rag‘bat va ijobiy mustahkamlash yetishmasligi ham muhim omillardandir.

d) Tengdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy zo‘ravonlik (mobbing)

O‘quvchi maktabda tazyiqqa, mazax qilishga, ajratishga duch kelsa, u o‘zini himoya qilish uchun tajovuzkor yoki befarq bo‘lib qoladi. Ayrim hollarda esa u o‘zining agressiyasini zaifroq tengdoshlariga nisbatan qo‘llaydi.

2. Psixologik omillar.

a) Ichki emotsional ziddiyatlar

O‘smirlar o‘z fikrlarini aniq ifoda etishda qiynalishadi. Ular o‘zlarining his-tuyg‘ularini so‘z bilan emas, balki harakat yoki tajovuz orqali bildiradi. Bu holat ichki emotsional muvozanatning buzilganligini ko‘rsatadi.

b) O‘ziga nisbatan past baho va ishonchsizlik.

O‘z qadr-qimmatini past baholaydigan o‘smir o‘zini jamiyatda "isbotlash" uchun kuch, agressiya yoki tajovuzkorlikka murojaat qiladi. Bu ayniqsa ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlov yetishmaydigan muhitlarda tez-tez uchraydi.

c) Oila muammolari va psixologik beparvolik.

Agressiv xatti-harakatlar ko‘pincha oiladagi muhit bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Ota-onaning haddan ortiq nazorati yoki befarqligi, oilaviy zo‘ravonlik, bolaga yyetarli e’tibor berilmasligi o‘smirda ichki g‘azab va norozilik uyg‘otadi. Bu g‘azab ko‘pincha maktabda yoki jamoada salbiy xulq-atvor orqali yuzaga chiqadi.

d) Imitatsiya (taqlid) va ommaviy axborot vositalarining ta’siri.

Zamonaviy yoshlar ko‘p vaqtini internetda, ijtimoiy tarmoqlarda yoki kompyuter o‘yinlarida o‘tkazadi. U yerdagi agressiv kontent, virtual zo‘ravonlik va kuch ishlatishga asoslangan obrazlar ularda nohaq agressiyani normal holat deb qabul qilishga olib keladi. Bu esa real hayotda ham o‘xshash xatti-harakatlar bilan ifodalanadi.

Agressiv xulq-atvor o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi - u ko‘pincha tarbiya, psixologik muhit va shaxsiy emotsional ehtiyojlarning noto‘g‘ri qondirilishi oqibatida shakllanadi. Pedagogik-psixologik omillar bu jarayonda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli agressiyani kamaytirishda ta’lim muassasalarida ijobiy muhit yaratish, individual psixologik yordam ko‘rsatish va tarbiyaviy ishlarni maqsadli tashkil etish muhimdir.

O‘smirlar agressiv xulq-atvorining shakllanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar

1-jadval

T/r	Omil turi	Aniq misollar	Ehtimoliy natija (salbiy xulq-atvor shakli)
1	Oila muhitidagi salbiylik	Jazo bilan tarbiya, ota-onaning befarqligi, oilaviy mojaro	Ichki tajovuz, yakkalanish, tez jahllanish
2	Maktab muhitining noqulayligi	O‘qituvchining tahqirli so‘zlari, qat’iy qoidalar, sovuq munosabat	O‘qituvchiga yoki tengdoshga nisbatan qo‘pol munosabat
3	Tengdoshlar bosimi	Mobbing, ijtimoiy ajratish, do‘stlarning “agressiyani” normal qabul qilishi	O‘zgalar ustidan kuch ishlatish, guruh ichida tajovuzkorlik
4	Emotsional beqarorlik	Tez g‘azablanish, o‘zini ifoda etishda qiynalish	Portlashli reaksiyalar, og‘zaki yoki jismoniy tajovuz
5	Internet va media ta’siri	Zo‘ravonlikka asoslangan o‘yinlar, kontentlar, tarmoqdagi kamsitish (cyberbullying)	Normadan og‘uvchi xatti-harakatlar, hissiy sovuqlik

Ushbu jadvalda o‘smirlarning agressiv xulq-atvorini shakllantiruvchi asosiy tashqi va ichki omillar tasniflangan. Har bir omil o‘ziga xos holatda bolalarning hissiy-psixologik holatiga ta’sir ko‘rsatadi va bu holat ularning atrofdagilarga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lishiga olib keladi.

- Oila muhitidagi tarbiya - o‘smirlar uchun birlamchi ijtimoiy muhit bo‘lib, aynan bu yerda ular his-tuyg‘ularini qanday ifodalashni o‘rganadi.
- Maktab muhitining sifati - o‘quvchining kundalik psixologik barqarorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Salbiy maktab muhiti esa tajovuzni kuchaytiradi.
- Tengdoshlar ta’siri - o‘smirlar o‘z tengdoshlari orasida “qabul qilinadigan” bo‘lish uchun ko‘pincha agressiv harakatlarni takrorlashadi.
- Emotsional beqarorlik - gormonlar faolligi va o‘z-o‘zini boshqarishdagi muammolar sababli yuzaga keladi.

• Internet va media - tajovuzkor xulqni normal holat sifatida ko‘rsatib, o‘smirlar ongida buzilgan ijtimoiy qarashlarni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Karimova Z.M. *Psixologiya va yosh davrlar xususiyatlari*. Toshkent, 2021.
2. Erkaboyeva N. *O‘smirlar psixologiyasi*. Samarqand, 2020.
3. Bandura A. *Aggression: A Social Learning Analysis*. Prentice-Hall, 1973.
4. Berk L.E. *Child Development*. Pearson Education, 2018.
5. Erkaboyeva N. *Psixologik xizmat ko‘rsatish metodikasi*. – Toshkent: Iste'dod, 2017.
6. Abdullayeva S.A. *Yoshlar psixologiyasi*. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
7. Vygotskiy L.S. *Pedagogik psixologiya*. – Moskva: Pedagogika, 1991.
8. Bandura A. *Aggression: A Social Learning Analysis*. – New Jersey: Prentice-Hall, 1973.
9. Fromm E. *The Anatomy of Human Destructiveness*. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1973

Haydarov Shahriyor Shuxrat o‘g‘li
Buxoro xalqaro universiteti dotsenti

JINOYATGA MOYIL YOKI XAVF OSTIDA BO‘LGAN YOSHLAR GURUHIGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada uyushmagan yoshlar bilan ishlashda psixologik xizmat ko‘rsatishning zamonaviy usullari, jumladan raqamli platformalar, art-terapiya, biblioterapiya, interaktiv mashg‘ulotlar va onlayn maslahatlar yoritilgan. Diagnostika asosida olib borilgan tadqiqotlar asosida innovatsion yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *psixologik xizmat, uyushmagan yoshlar, innovatsion yondashuv, onlayn maslahat, art-terapiya, digital psixologiya.*

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ МОЛОДЕЖИ, СКЛОННОЙ К ПРЕСТУПНОСТИ ИЛИ НАХОДЯЩЕЙСЯ В ГРУППЕ РИСКА

Аннотация. *Статья посвящена инновационным методам оказания психологической помощи молодежи, не охваченной формальным образованием или занятостью. Применялись цифровые платформы, арт-терапия и консультации в онлайн-среде. Проанализирована эффективность различных подходов на основе количественных и качественных данных.*

Ключевые слова: *психологическая помощь, неорганизованная молодежь, цифровые технологии, онлайн-консультация, арт-терапия.*

SCIENTIFIC FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE PSYCHOLOGICAL SUPPORT SYSTEM FOR YOUTH AT RISK OR PRONE TO CRIMINAL BEHAVIOR

Abstract. *This paper focuses on the use of creative and digital strategies in addressing the psychological needs of unorganized youth. It evaluates the effectiveness of tools such as art therapy, mobile counseling, and metaphorical cards through a two-month field study.*

Keywords: *psychological service, unorganized youth, digital tools, counseling, art therapy, innovation.*

Kirish. Bugungi kunda psixologik xizmat yo‘nalishi alohida jarayon sifatida davlat tomonidan alohida nazoratga olinmoqda. Chunki har bir davlatning rivojlanishi bevosita shaxs va uning ichki salohiyatiga xos psixologik imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalana olishga ko‘p jihatdan bog‘liq. Ushbu dolzarblikni nisbatan teranroq hamda tezroq anglagan amerikaliklar psixologik xizmat bo‘yicha allaqachon dastlabki dadil qadamlarni qo‘ygan edilar.

O‘zbekistonda psixologik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish muammosi umumiy psixologik tamoyillar bilan bog‘liq uzoq tarixiy ildizlarga borib taqaladi. Qolaversa, psixologik xizmat jarayoni dastlabki psixologik tushunchalarning paydo bo‘lish va rivojlanish davrlari bilan bevosita bog‘liqdir. Gippokrat (er.o. V asr), Galen (er.o. II asr), Demokrit (er.o. V-VI asr), Epikur (er.o. IV-III asr), Demokrit (er.o. V-IV asr), Sokrat (er.o. V-IV asr) kabi mutafakkirlarning mushohadalari dastlabki psixologik xizmat tushunchalarining shakllanishiga turtki bo‘ldi. Qolaversa, dastlabki “psixika”, “ong” tushunchalari tibbiy fiziologik bilimlar bilan bir muncha sayqal topdi. Ayni paytda, fransuz olimi R.Dekard (1596-1650) tomonidan individ xulq atvorining reflektorlik tabiatiga xos jihatlarning ilk bor kashf etilishi va uning keyinchalik rus olimlari I.S.Sechenov va I.P.Pavlovlar tomonidan o‘ziga xos ilmiy asoslar bilan rivojlantirilishi insonning psixologik ta’sir doiralarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi [2]. I.M.Sechenovning «Bosh miya reflekslari» (1863) asaridagi «ongli va ongsiz hayotning barcha harakatlari ro‘y berish usuliga ko‘ra reflekslardan iboratdir», degan xulosasi psixologik xizmat fanining fiziologik tamoyillarini ilmiy jihatdan

asoslashga xizmat qildi. Zero, ongning harakati (psixik hodisa) ruhning tanasiz mohiyat xususiyati emas, balki Sechenov tili bilan aytganda, «ro‘y berish usuliga ko‘ra» refleksga o‘xshash jarayondir. Psixik hodisa kishiga o‘z sezgilarini, g‘oyalarini, his-tuyug‘ularini kuzatish chog‘ida beriladigan narsalardangina iborat emas. U xuddi refleks kabi tashqi qo‘zg‘ovchining ta’sirini va unga javoban harakat aks ta’sirini ham o‘z ichiga oladi.

Xorijda psixologik xizmat tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, amerikaning dastlabki amaliyotchi psixologlari o‘zini o‘zi tarbiyalash jarayonini o‘rganuvchi eksperimental psixolog sifatida o‘z faoliyatlarini boshlashgan. Keyinchalik esa ular maktabda psixologik xizmatni yo‘lga qo‘yishgan. Bunda ular turli intellektual testlarni qo‘llash orqali bolalarning aqliy taraqqiyoti bilan bog‘liq intellekt koeffitsienti (IQ) ni aniqlashni tavsiya etganlar. Bu esa keyinchalik Amerikadagi “Gaydens” maktabi xizmatining shakllanishiga asos bo‘lgan. XX asr boshlarida bolalarning kasbiy yo‘nalganligini aniqlashga qaratilgan maxsus xizmat maktabi joriy qilinadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, har bir davlatda psixologik xizmat masalasi o‘ziga xos tarzda va muayyan talablar asosida tashkil etilganligi bilan xarakterlidir. Qolaversa, psixologik xizmatning tashkil etilishi bir tomondan mamlakatlardagi psixologik bilimlarning bevosita targ‘iboti bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan esa o‘sha davlatdagi har bir shaxs ta’lim-tarbiyasi va ijtimoiy-psixologik taraqqiyotiga daxldor siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, iqtisodiy va madaniy qatlamlarning shakllanishiga yaratilgan imkoniyatlar ko‘lamiga ham bog‘liqligini kuzatish

Metodologiya. Bugungi kunda uyushmagan yoshlar guruhiga psixologik xizmat muammosiga bag‘ishlangan va uning barcha yo‘nalishlarini batafsil bayon etishga qodir ilmiy adabiyotlar yyetarli emasligi yaqqol sezilmoqda. Shunday bo‘lsada ilg‘or psixologiya fani vakillari ijtimoiy, psixologiyaning metodologik tamoyillariga amal qilgan holda psixologik xizmat uchun muhim bo‘lgan u yoki bu jihatni nazariy ilmiy tarzda asoslab beradilar. Bular ichida psixologik xizmatniing muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun muhim nazariy – ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni Andreeva G.M, Davletshin M.G, Zabrodin Yu.M., Karnegi D., Karimova V.M., Parigin B.D., Sh.R.Barotov, Snigireva T.V., Filippov A.V., ShixirevG‘.B. Shoumarov, G‘oziev E.G‘.,ta’lim muassasalarida psixologik xizmat modelini tadqiq qilishga bag‘ishlangan tadqiqotlarni Dubrovina L.V., Kala U.V., Rudik V.V., Leymets X.O., Mattes G.O., Pratuivich Yu.M. va nihoyat oilaviy hayotni tashkil etishdagi psixalogik xizmat uchun muxim jihatlarni asoslashga qaratilgan tadqiqotlarni (M.Argoy, Badalev A.A., Stolin V.V., Karimova V.M., Kovalev S.V., Sog‘inov N.A., Shoumarov G‘.B.) aloxida qayd etish mumkin. Bu esa psixologik xizmatning bugungi kundagi ayrim dolzarb jihatlari, muammolari va uning yechimlari haqidagi o‘ylashga, fikr mulohaza yuritishga muayyan vazifalarni belgilab olishga nazariy-ilmiy va metodologik manbaa sifatida yordam beradi, deb o‘ylaymiz.

Uyushmagan yoshlarga psixologik xizmat ko‘rsatish — bu ijtimoiy nazoratdan, ta’lim yoki ish bilan bandlikdan chetda qolgan, ko‘pincha ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi tizimlarga ega bo‘lmagan yoshlar guruhiga mo‘ljallangan maxsus psixologik yondashuvdir.

Uyushmagan yoshlar:

1. Ishlamaydigan va o‘qimaydigan yoshlar (NEET – Not in Education, Employment or Training)
2. Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan zaif qatlam vakillari.
3. Jinoyatga moyil, huquqbuzarlikka yo‘l qo‘ygan yoki xavf ostida bo‘lgan yoshlar.
4. Ijtimoiy faollikdan chetda qolganlar.

Psixologik muammolar:

- Past o‘zini baholash
- Ijtimoiy ajralganlik va yolg‘izlik hissi
- Depressiya, tashvish, stress
- Hayot maqsadlarining yo‘qligi
- Rad etilganlik va e’tiborsizlik hissi
- Metodologiya

Psixologik xizmat ko‘rsatishning maqsadi:

- Ularni ijtimoiylashuv jarayoniga jalb qilish

- Hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish
- Motivatsiya va maqsadli ongni shakllantirish
- Salbiy hissiyotlar va muammoli xatti-harakatlarni kamaytirish
- Ijobiy yo‘nalganlikni rivojlantirish

Psixologik xizmat jamiyatda inson salohiyatini rivojlantirish, muammolarni hal etish va ruhiy barqarorlikni ta’minlashning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda ijtimoiy hayot shiddati va stresslar miqdori ortib borayotgani sababli psixologik yordamga ehtiyoj tobora oshib bormoqda. Psixologik xizmat – shaxsni o‘rganish, uni qo‘llab-quvvatlash, faoliyat samaradorligini oshirish va muammolarni hal qilishga qaratilgan psixologik tadbirlar majmuidir. U quyidagi asosiy vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- Diagnostika: shaxsning ruhiy holatini aniqlash;
- Profilaktika: ehtimoliy muammolarni oldini olish;
- Konsalting: maslahat berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish;
- Korreksiya: muammoli holatlarni psixologik usullar bilan bartaraf etish.

Bugungi kunda uyushmagan yoshlar guruhiga psixologik xizmat muhim vazifa hisoblanadi. Bolalar va yoshlarda uchraydigan stress, qiyinchiliklar, motivatsiya yetishmasligi kabi muammolarni aniqlash va yechishda xizmat muhim o‘rin tutadi. AQSh, Germaniya, Rossiya va Yaponiya kabi davlatlarda psixologik xizmatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, standartlashgan testlar va axborot tizimlari yordamida tashkil etish tajribalari mavjud. Shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, tadqiqot 3 ta mahalla yoshlari bilan ishlash markazida 2 oy davomida (2025 yil mart-aprel) 100 nafar 18–25 yoshdagi respondentlar bilan o‘tkazildi. So‘rovnoma, guruhli mashg‘ulot, art-terapiya, onlayn maslahatlar kabi usullar qo‘llandi. Mobil ilovalar, MAK kartalari, biblioterapiya asosida yondashuvlar sinovdan o‘tkazildi.

Uyushmagan yoshlar guruhiga psixologik xizmat ko‘rsatishning innovatsion usullari:

Yondashuv	Tavsif
Art-terapiya	Rasm, haykal, musiqiy ifoda orqali ichki holatlarni anglash va bartaraf qilish
Raqamli ilovalar	Stressni baholovchi, kayfiyatni kuzatuvchi mobil ilovalar (CBT-based)
MAK (Metaforik assotsiativ kartalar)	Tasvirlar orqali ichki holatni ifodalash va tahlil qilish
Biblioterapiya	Kitoblar orqali ruhiy salomatlikni mustahkamlash
Onlayn maslahatlar	Telegram, Zoom yoki boshqa platformalarda psixolog bilan suhbatlar

Amaliy ish shakllari

- Guruhli mashg‘ulotlar va treninglar
- Motivatsion seminarlar va vebinarlar
- Individual psixologik maslahatlar
- O‘zini anglashga doir testlar va diagnostika

Samaradorlikni oshirish yo‘llari

- Raqamli platformalardan doimiy foydalanish
- Yoshlar bilan do‘stona va ochiq muloqot muhitini yaratish
- Jamoaviy va interaktiv faoliyatlarni kuchaytirish
- Yoshlar yetakchilarini tayyorlash va jalb qilish

Xulosa. Uyushmagan yoshlar bilan ishlashda innovatsion, zamonaviy va moslashuvchan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular bilan faqat maslahat berish emas, balki ularning his-tuyg‘ularini anglash, o‘z yo‘lini topishida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish zarur. Psixologik xizmat — ularni jamiyatga qaytarishdagi eng muhim vositalardan biridir. Jinoyatga moyil yoki xavf ostida bo‘lgan yoshlar guruhiga psixologik xizmat ko‘rsatish ijtimoiy psixologik muammo sifatida o‘rganilishi O‘zbekistonda muayyan darajadagi psixologik bilimlarining bevosita amaliyotda ko‘llanilishi o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik istiqbollari ochib berishda muhim axamiyat kasb etadi. Chunki, insonni bilish va uning tashqi (real) hamda ichki (ideal) olamiga adekvat ta’sir ko‘rsatish va shu ta’sirlar orqali uni boshqarish mumkinligi aniq bo‘lsada, bu darajada turli xil ijtimoiy, iqdisodiy, ma’naviy va individual psixologiik manfaatlar mushtarakligiga ham alohida e’tibor berishga to‘g‘ri keladi. Ayni paytda har bir insonning shakllanishi unga xizmat ko‘rsatuvchi tizimlarning to‘laqonli ilmiy-amaliy salohiyatiga bevosita bog‘liqdir. Shu ma’noda psixologik xizmat metodologiyasi o‘zining shakllanishi va tuzilishiga ko‘ra faqat insonga va uning betakror shaxs sifatidagi ijtimoiy-psixologik taraqqiyotiga bevosita xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Shu boisdan psixologik xizmatga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib muayyan darajadagi dolzarblik kasb etmoqda. Yoshlar qatlamlariga psixologik xizmat ko‘rsatish muammosi jahonning turli davlatlarida turli xil ko‘rinishlarda tashkil etilayotganlini kuzatish mumkin. Jumladan, Amerikada “Gaydens” maktabining Kaunsling xizmati, Fransiyada “Bine-Simon” maktabi, Chexoslovokiya “Psixolog – maslahatchilar maktabi” Xitoyda “Psixologik salomatlik maktabi”, Rossiyada I.V.Dubrovina maktabi tajribalari dunyo olimlari tomonidan alohida o‘rganilmoqda. Ushbu maktab olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy martabalar bugungi psixologik xizmat amaliyoti uchun metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Абдуллаева Ш. Ҳ. (2020). *Ёшлар психологияси*. Тошкент: Таълим нашриёти.
2. Баротов Ш.Р. Социально-психологические и научно-практические основы создания психологической службы в Узбекистане. Автореф. Докт.дисс. – Тошкент: 1998. – 28 с.
3. Братусь, Б. С. (2012). *Психология личности и помощь подросткам*. Москва: Наука.
4. 7. Ғозиев Э.Ғ. Усмонова Ш. Интеллект психологияси. – Т.: ТошДУ, Университет, 1996, – 48 б.
5. Тўхтаев, А. (2019). *Психологик хизмат ва уни ташкил этиш асослари*. Тошкент: Фан.
6. Ражабов, С. (2021). *Ўсмирлар ва ёшлар психологияси*. Тошкент: “Ziyo” нашриёти.

Latibjonov Rahmatillo Abdurashid o‘g‘li
Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi Pedagogika va psixologiya,
ta’lim texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

PEDAGOGLARDA KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Pedagoglarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini baholashning ijtimoiy-psixologik jihatlarini tahlil etish hamda pedagogik muloqot sifati, o‘qituvchining shaxslararo munosabatlardagi faol roli, tinglay olish, tushuntirish, fikr almashish kabi ko‘nikmalar baholash mezonlari sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda kommunikativ ko‘nikmalar darajasini aniqlash uchun ijtimoiy-psixologik so‘rovnomalardan foydalanish ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *pedagog, kommunikativ ko‘nikma, ijtimoiy psixologiya, shaxslararo muloqot, empatiya, pedagogik kommunikatsiya, psixologik tayyorgarlik, ta’lim muhiti, muloqot madaniyati.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У ПЕДАГОГОВ

Аннотация. *В статье анализируются социально-психологические аспекты оценки процесса формирования коммуникативных навыков у педагогов, а также рассматриваются качество педагогического общения, активная роль учителя в межличностных отношениях, навыки слушания, объяснения и обмена мнениями как критерии оценки. В исследовании обосновывается значимость использования социально-психологических опросников для определения уровня коммуникативных навыков.*

Ключевые слова*: педагог, коммуникативные навыки, социальная психология, межличностное общение, эмпатия, педагогическая коммуникация, психологическая подготовка, образовательная среда, культура общения.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF FORMING COMMUNICATIVE SKILLS IN TEACHERS

Abstract*. The article analyzes the social-psychological aspects of evaluating the process of forming communicative skills in teachers, as well as examines the quality of pedagogical communication, the teacher’s active role in interpersonal relationships, and skills such as listening, explaining, and exchanging ideas as evaluation criteria. The study substantiates the importance of using social-psychological questionnaires to determine the level of communicative skills.*

Keywords*: teacher, communicative skills, social psychology, interpersonal communication, empathy, pedagogical communication, psychological preparation, educational environment, communication culture.*

Jahonda psixologiya sohasida kommunikativ ko‘nikmalar professional faoliyatning muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilib, shaxslararo munosabatlarni mustahkamlash, psixologik maslahat berish jarayonlarini samarali tashkil etish va ijtimoiy muhitda moslashuvchanlikni ta’minlashda asosiy vosita hisoblanadi.

Dunyo ta’lim va ilmiy muassasalarida pedagog shaxsining kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning himoya mexanizmlari bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar tobora dolzarb tus olmoqda.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida pedagog shaxsining kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish hamda u bilan bog‘liq psixologik himoya mexanizmlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Ayni paytda mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularning shaxsiy va kasbiy o‘sishini

rag‘batlantirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda, ayniqsa, pedagog shaxsining muloqot madaniyati, psixologik barqarorligi va emotsional muvozanatini ta’minlovchi himoya mexanizmlari alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida pedagoglarni malakasini oshirish tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-sonli farmoni pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, zamonaviy pedagogik va psixologik usullarni o‘zlashtirish orqali ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan strategik maqsadlarni belgilaydi. Ushbu hujjatda ta’lim tizimida sifatli o‘zgarishlarni ta’minlash uchun pedagoglarning malakasini oshirishda amaliy yondashuvlarga e’tibor qaratilgan [1].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-sonli farmoni pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish va ularning zamonaviy ta’lim talablariga moslashuvini ta’minlashga qaratilgan. Bu hujjatda pedagoglarning kasbiy malakasini oshirishda zamonaviy metodlar, shu jumladan, psixologik treninglardan foydalanish muhimligi ta’kidlanadi [2].

XX asr - ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar, yangi pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar va metodikalar shakllangan davr bo‘lib, bu jarayonda pedagogik kommunikatsiya tushunchasi alohida ahamiyat kasb etgan. Ushbu davrda o‘qituvchining faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyachi, yetakchi, psixolog va muloqot vositachisi sifatidagi roli kuchaydi. Shu sababli, pedagogik faoliyatda kommunikativ ko‘nikmalarning mavjudligi - samarali ta’limning asosi sifatida qaraldi.

XX asrning birinchi yarmida ijtimoiy psixologiyaning alohida fan sifatida shakllanishi insonlar o‘rtasidagi muloqot jarayonlarini tizimli tahlil qilishga asos soldi. Ushbu davrda kommunikativ ko‘nikmalar shunchaki nutq yoki axborot almashinuvi emas, balki murakkab ijtimoiy-psixologik faoliyat sifatida qarala boshlandi. 1960-1970 yillarda Erving Goffman o‘zining “taassurot boshqaruvi” (impression management) nazariyasi orqali ijtimoiy muloqotni dramatik faoliyat sifatida ko‘rib chiqdi [4]. E. Goffmanning fikricha, insonlar o‘zaro muloqotda doimiy ravishda boshqalarga ma’lum taassurot qoldirishga harakat qiladilar. Bu pedagog uchun muhim xulosa - o‘qituvchi sinfda faqat bilim beruvchi emas, balki o‘z holati, ohangi, tana harakati bilan o‘quvchilarga namuna va ijtimoiy ko‘rsatkich sifatida xizmat qiladi.

Kurt Lewin ijtimoiy maydon nazariyasini ishlab chiqib, inson xatti-harakati va ijtimoiy muhit o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatdi. U “guruhi ichida muloqot shakllari”ni tahlil qilgan va bu ta’limdagi kommunikativ jarayonlarni tushunishga katta turtki bergan [5]. Bizning fikrimizcha, K. Levinning g‘oyalari asosida pedagoglar darsdagi ijtimoiy rollar va guruh ta’sirini tahlil qila olishlari, shu orqali o‘z o‘quvchilari bilan samarali kommunikatsiya olib borishlari mumkin.

Albert Bandura - ijtimoiy o‘rganish nazariyasini ishlab chiqqan. U odamlar ko‘rish, eshitish orqali boshqalardan xatti-harakatni o‘rganishini aytgan. Bu nazariya pedagogik kommunikatsiyada namuna bo‘lishning o‘ta muhimligini asoslab beradi [2]. Shuningdek, A. Bandura yondashuvi pedagoglarga o‘z xulqi orqali o‘quvchilarni ruhlantirish va ularda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish zarurligini tushuntiradi.

Zigmund Freyd, psixoanaliz maktabining asoschisi, kommunikativ ko‘nikmalarni shaxsning ongsiz jarayonlari va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘laydi. Uning fikricha, “shaxslararo muloqot shaxsning ichki konfliktlari va ongsiz istaklarining tashqi ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi” [3].

Ijtimoiy psixologiya shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmlarini o‘rganadi, insonning ijtimoiy guruhlardagi xatti-harakatlari, munosabatlari va emotsional holatlarini tushunishga xizmat qiladi. G.M. Andreeva, ijtimoiy psixologiya sohasida taniqli olim sifatida, kommunikativ ko‘nikmalarni shaxslararo muloqotning asosiy elementi deb hisoblaydi. Uning fikricha, “kommunikativ ko‘nikmalar shaxsning ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayonlarida samarali ishtirok etishini ta’minlaydi va guruh dinamikasini tushunishda muhim rol o‘ynaydi” [1]. G.M.Andreeva kommunikativ ko‘nikmalarni ijtimoiy psixologiyaning markaziy komponenti sifatida qaraydi, chunki ular shaxsning ijtimoiy muhitda moslashishi va boshqalar bilan ishonchli munosabatlar o‘rnatishiga yordam beradi.

B. Parigin ta'kidlaganidek, kommunikativ ko'nikma - bu shaxsning muloqot jarayonida mazmunli va madaniyatli aloqa o'rnatish, axborotni tushunarli shaklda uzatish, suhbatdoshni faol tinglash, hissiy va ijtimoiy reaksiyalarni adekvat baholash hamda ziddiyatli holatlarda ijtimoiy maqbul tarzda harakat qilish qobiliyatidir. Bu ko'nikmalar psixik jarayonlar, shaxsiy sifatlar va ijtimoiy tajriba sintezi asosida shakllanib boradi va individual taraqqiyotda muhim rol o'ynaydi [6]. Boris Parygin ijtimoiy psixologiyani mustaqil fan sifatida asoslashda katta hissa qo'shgan.

Bugungi kunda ta'lim tizimidagi izchil islohotlar, yangilangan pedagogik yondashuvlar, shuningdek, interaktiv va innovatsion metodikalarning faol joriy etilishi natijasida o'qituvchilardan faqatgina kasbiy bilim va malaka emas, balki yuqori darajadagi kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'lish ham talab etilmoqda. Ayniqsa, malaka oshirish kurslarida ishtirok etayotgan pedagoglar faoliyatida bu jihatlar yanada dolzarb tus olmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, malaka oshirish kursi tinglovchilarining kommunikativ ko'nikmalarini aniqlash, baholash va rivojlantirishda ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganish zarurati tug'iladi. Ayniqsa, so'rovnomalar asosida olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari bu yo'nalishdagi real holatni aniqlash, ehtiyojlar va mavjud to'siqlarni aniqlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy so'rovnomalar – bu jamiyat yoki muayyan ijtimoiy guruh vakillarining fikr-mulohazalari, munosabatlari, ehtiyojlari, psixologik holatlari va xatti-harakatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy asoslangan metoddir.

Tadqiqotimizda Malaka oshirish kursi tinglovchilarini kommunikativ ko'nikmalarini baholovchi "Pedagoglarda kommunikativ ko'nikmalarni baholash so'rovnomasi" nomli mualliflik so'rovnoma o'tqazilib, ilmiy tahlil qilindi.

So'rovnoma natijalari asosida tinglovchilarning kommunikativ salohiyati, ijtimoiy va psixologik ehtiyojlari, muloqotga kirishishdagi muammolar, shuningdek, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlandi. Ijtimoiy so'rovnomalar, o'z navbatida, pedagoglarda kommunikativ ko'nikmalarni aniqlash, baholash, ularning mavjud darajasini o'lchash va bu boradagi ehtiyojlarni aniqlashda muhim diagnostik vosita hisoblanadi.

Bu metod yordamida pedagoglarning:

- Muloqotga bo'lgan psixologik tayyorgarligi,
- Ijtimoiy-emotsional barqarorligi,
- Tinglash va tushunish ko'nikmalari,
- Bahs va muzokaralarda ishtirok etish qobiliyati,
- Muammoli vaziyatlarda muloqotni boshqarish salohiyati,
- Shaxslararo munosabatlardagi pozitsiyasi,
- Jamoada ishlashga bo'lgan munosabati kabi jihatlar o'rganiladi.

Shuningdek, ijtimoiy so'rovnomalar natijasida kommunikativ ko'nikmalarga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan tashqi va ichki omillar, ya'ni:

- ishdagi stress darajasi,
- rahbariyat bilan o'zaro munosabat,
- mehnat sharoitlari,
- kasbiy motivatsiya darajasi,
- o'zini anglash va baholashdagi ziddiyatlar,
- kommunikatsion muhitning sifat darajasi ham tahlil qilinadi.

Tadqiqotimiz doirasida "Pedagoglarda kommunikativ ko'nikmalarni baholash so'rovnomasi" nomli mualliflik so'rovnomasi o'tkazilib, unda jami 456 nafar pedagog ishtirok etdi. Ushbu so'rovnoma pedagoglar uchun maxsus ishlab chiqilgan savollar to'plamidan iborat bo'lib, ularning muloqotga tayyorlik darajasi, tinglovchiga nisbatan empatiya va hurmatni namoyon etish qobiliyati, fikrni aniq va ravon ifodalash, ziddiyatli vaziyatlarda konstruktiv yechim topish malakalari, shuningdek, tinglovchining fikriga ochiqlik va faol eshitish ko'nikmalarini aniqlashga qaratildi.

So'rovnomaning "Sizningcha "pedagogik mahorat" sizning uslubingizga ta'sir ko'rsatadimi" savoliga 456 nafar pedagogning 373 nafari (82%) "Ha" deb javob bergan. Pedagoglarning katta qismi o'zlarining pedagogik mahorati ularning faoliyat uslubiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tan olgan. Bu ko'rsatkich shuni anglatadiki, o'qituvchilar o'zlarining kommunikativ salohiyatini va tajribasini uslubiy yondashuvlar bilan chambarchas bog'lashadi. Bu esa o'qituvchi kommunikativ ko'nikmalarning

sifatli shakllanishida, muloqot uslublarini to‘g‘ri tanlashda hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi. 63 nafari (14%) “Yo‘q” deb baholagan. Ular pedagogik mahoratni faoliyat uslubiga bevosita bog‘lamasliklarini bildirgan. Bu toifadagi pedagoglar ehtimol, ta’lim jarayonida tashqi omillar (masalan, rahbariyat talablari, ta’lim standartlari yoki darsliklar formati) ustuvor rol o‘ynaydi, deb hisoblashlari mumkin. 20 nafari esa (4%) “Baholay olmayman” javobini tanlagan. Bu esa ularning mavzu bo‘yicha bilim va tushunchalari yyetarli emasligini yoki bunday bog‘liqlik ustida chuqur fikr yuritmaganliklarini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, pedagogik mahorat ta’lim jarayonining sifati, kommunikatsiya uslublarini tanlash, shuningdek, muloqotdagi samaradorlik va o‘ziga xos yondashuvlarni shakllantirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. (1-rasm)



1-rasm. Sizningcha “pedagogik mahorat” sizning uslubingizga ta’sir ko‘rsatadimi deyilgan savolga ishtirokchilar fikrlari

So‘rovnomaning “Sizningcha “pedagogik bilim” samarali kommunikatsiya qilishga yordam beradimi” savoliga 456 nafar pedagogning 420 nafari (92%) “Ha” deb javob berdi va pedagogik bilim samarali kommunikatsiyaga yordam beradi deb hisoblagan. Bu juda yuqori ko‘rsatkich bo‘lib, aksariyat pedagoglar bilim va muloqot o‘rtasida uzviy bog‘liqlik bor deb qarashayotganini anglatadi. Bu fikr, ayniqsa, o‘qituvchilarning o‘z mavzusi, metodikasi va psixologik yondashuvlarni yaxshi bilishi orqali o‘quvchilar bilan aniq, tushunarli va ijobiy aloqada bo‘lishi mumkinligini tasdiqlaydi. 15 nafari (3%) “Yo‘q deb baholadi. Pedagogik bilim kommunikatsiyaga yordam bermaydi degan fikrni bildirgan. Bu guruhning qarashi turli omillar bilan izohlanishi mumkin, masalan, ular muloqotni ko‘proq shaxsiy fazilatlar, emotsional intellekt yoki kommunikativ texnikalar bilan bog‘lashlari mumkin. 21 nafari (5%) “Baholay olmayman” deb javob berdi. Bu masalada aniq fikr bildira olmagan. Bu holat, ehtimol, ular bu savolga nisbatan yyetarli tajribaga ega emasliklari yoki pedagogik bilim va muloqot o‘rtasidagi bog‘liqlikni hali chuqur anglab yetmaganliklaridan dalolat beradi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, pedagogik bilimlar samarali muloqot uchun asosiy poydevor hisoblanadi. So‘rovnoma natijalari pedagoglar bu jihatni yaxshi anglashlarini ko‘rsatmoqda. (2-rasm).




2-rasm. Sizningcha “pedagogik bilim” samarali kommunikatsiya qilishga yordam beradimi savoliga berilgan fikrlar

So‘rovnomaning “Zamonaviy pedagogik faoliyatda pedagogning kommunikativ ko‘nikmalari rivojlanishiga interaktiv ta’lim texnologiyalarini ta’sirini muhimligi bo‘yicha darajalang (1,2,3,4,5,6,7) barchasi tanlanadi” savoliga asosiydan boshlab tanlanganda, 456 nafar pedagogning 353 nafari (72.9%) “guruhiy ishlar” ni tanlagan. Bu esa o‘qituvchilar o‘zaro muloqot, hamkorlik va fikr almashinuvi orqali o‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishga intilayotganini ko‘rsatadi. 314 nafari (64.9%) “muammoli vazifalar” javobini tanlagan. 270 nafari (55.8%) “loyiha ishi” ni tanlagan. 281 nafari (58.1%) “rolli o‘yinlar” deb baholagan. Bu metodlarning tanlanishi pedagoglar ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va o‘z fikrini asoslab berish kabi kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda ahamiyatini yaxshi anglab yetayotganini bildiradi. 249 nafari (51.4%) “debatlar” degan. 245 nafari (50.6%) “dislussiyalar” deb javob berdi. 214 nafari (44.2%) esa “gamifikatsiyalar” deb baholagan. “Debatlar”, “diskussiyalar” va “gamifikatsiya” texnologiyalari nisbatan kamroq tanlangan bo‘lsa-da, ular ham pedagoglar tomonidan yyetarli darajada qadrlanmoqda.

Bu natijalar shuni anglatadiki, interaktiv metodlar, ayniqsa guruhiy va muammoli yondashuvlar, pedagoglarning amaliy faoliyatida kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, rolli o‘yinlar va loyihalar orqali nafaqat muloqot, balki o‘zini ifodalash, boshqa fikrlarni tinglash va to‘g‘ri munosabat bildirish ko‘nikmalari ham shakllanmoqda. Xulosa o‘rnida, interaktiv texnologiyalarni tizimli ravishda joriy etish - Ta’lim jarayonida ayniqsa guruhiy ishlar, rolli o‘yinlar va muammoli topshiriqlarni muntazam qo‘llash pedagogik kommunikatsiya samaradorligini oshiradi.

Pedagoglar uchun maxsus treninglar o‘tkazish – Debatlar, diskussiya va gamifikatsiya kabi kamroq qo‘llanilayotgan uslublarni ham chuqur o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha maxsus seminar va mahorat darslari tashkil etilishi zarur. Tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirish – Maktablar va hududlararo pedagoglar o‘rtasida ochiq darslar, metodik birlashmalar orqali tajriba almashinuvi samaradorlikni oshiradi. (3-rasm).



3-rasm. Zamonaviy pedagogik faoliyatda pedagogning kommunikativ ko‘nikmalari rivojlanishiga interaktiv ta’lim texnologiyalarini ta’sirini muhimligi bo‘yicha darajalang (1,2,3,4,5,6,7) barchasi tanlanadi. Savolga pedagoglarning fikrlari.

O‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnomada umumiy hisobda 456 nafar pedagog ishtirok etdi. So‘rovnoma savollari zamonaviy ta’lim jarayonida pedagoglarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish omillarini aniqlashga qaratildi. Natijalar pedagoglarning amaliy ehtiyojlari, psixologik qarashlari va kommunikativ kompetensiyalarga bo‘lgan munosabatlarini yoritib berdi.

So‘rovnoma javoblari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ishtirokchilarning katta qismi kommunikativ ko‘nikmalarning professional o‘sish, o‘zaro hamkorlik, o‘quvchilar bilan samarali muloqot va kasbiy iqlimni shakllantirishdagi o‘rnini yuqori baholashmoqda. Jumladan:

- 339 nafar pedagog (69.5%) malaka oshirish kurslarida guruh ishlari va muhokamalar orqali o‘zaro anglashuvni muhim deb bilgan. Bu ko‘rsatkich, o‘qituvchilarning jamoaviy ishlashga ochiqligini va tajriba almashishga tayyorligini aks ettiradi.

- 298 nafar respondent (61.1%) esa yangi ta’lim metodlari orqali muloqot usullarini yangilash zarur deb hisoblagan. Bu raqam zamonaviy metodologiyalarga bo‘lgan ehtiyojning kuchayganini bildiradi.

Shuningdek, 270 nafar ishtirokchi (55.3%) mentorlar bilan faol muloqot qilish orqali fikrni aniq va tushunarli ifodalash muhimligini ta’kidlagan.

- 267 nafar respondent (54.7%) tomonidan tinglash va tanqidiy fikrga ochiqlik kommunikatsiya samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida tan olingan.

- 243 nafar pedagog (50.8%) interaktiv mashg‘ulotlarda qatnashish orqali o‘zaro ishonch va jamoaviy birdamlik mustahkamlanishini ta’kidlagan. Bu esa ta’lim muhitida ishtirokchilarning psixologik tayyorgarligi va ijtimoiy moslashuv darajasi yuqoriligidan dalolat beradi.

- 225 nafar ishtirokchi (47.4%) kommunikatsion muammolarni yechishda konfliktologiya bilimlariga ega bo‘lish zarurligini bildirgan. Bu o‘qituvchilar orasida nizolarni hal qilish madaniyatini shakllantirish ehtiyoji mavjudligini anglatadi.

- 212 nafar respondent (44.2%) yozma va og‘zaki muloqotda rasmiylik va samimiylik o‘rtasida muvozanat saqlashni dolzarb deb hisoblagan. Bu kommunikatsiyada nutq etikasining o‘rni muhim ekanligini ko‘rsatadi.

- 197 nafar ishtirokchi (40.6%) o‘z fikrini erkin bayon etish imkoniyati berilgan muhitda pedagogik tashabbus va ijodkorlik kuchayishini qayd etgan. Bu esa muloqot erkinligi o‘qituvchi innovatsion fikrlashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Mazkur so‘rovnomaning yakuniy qismida pedagoglarning kommunikativ ko‘nikmasini oshirish bo‘yicha ishtirokchilardan taklif va tavsiyalari so‘ralgan bo‘lib, quyida so‘rovnoma ishtirokchilari tomonidan bayon etilgan takliflarning ayrimlarini keltirib o‘tamiz:

- Malaka oshirish kurslari doirasida kommunikativ treninglarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Ular orqali pedagoglarda muloqot, tinglash, javob berish, empatiya va tanqidiy fikrga ochiqlik ko‘nikmalari shakllantiriladi.

- Mentorlik tizimini faol rivojlantirish zarur, chunki tajribali ustozlar orqali yosh pedagoglar fikrni aniq ifodalash va jamoa bilan muloqot qilish madaniyatini egallashlari mumkin.

- Interaktiv metodikalarni amaliyotga joriy etish o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlik, o‘zaro tushunish va o‘rgatish samaradorligini oshiradi. Bu o‘z navbatida psixologik iqlimga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

So‘rovnoma natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, pedagogik jamoalarda kommunikativ ko‘nikmalarning rivoji ko‘proq ochiqlik, o‘zaro ishonch va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq. Aksariyat respondentlar fikricha, samarali kommunikatsiya shunchaki axborot almashinuvi emas, balki o‘zaro hurmat, emotsional qo‘llab-quvvatlash, bir-birini tinglash va tushunishga asoslangan jarayondir.

Ishtirokchilarning faol va ongli ishtiroki shuni ko‘rsatdiki, ularning katta qismi o‘zining shaxsiy kasbiy rivojida muloqot madaniyati va ijtimoiy-psixologik iqlimning o‘rni borasida yyetarli darajada bilim va tushunchaga ega. Umuman olganda, pedagogik jamoalarda samarali kommunikatsiyaning mavjudligi - bu nafaqat ta’lim sifatining ko‘rsatkichi, balki jamoaning psixologik salomatligi va ijtimoiy barqarorligining ham asosi hisoblanadi. So‘rovnoma ishtirokchilari tomonidan bildirilgan fikrlar va ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi davr pedagogi - axborot almashuvchi emas, balki muloqot orqali ishonch, hurmat va hamkorlik yaratuvchi shaxsdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-sonli farmoni.
3. Andreeva, G.M. (2001). Sotsialnaya psixologiya. Moskva: Aspekt Press.
4. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Prentice Hall.
5. Freud, S. (1923). The Ego and the Id. Vienna: Internationaler Psychoanalytischer Verlag.
6. Goffman, E. (1959). The Presentation of Self in Everyday Life. Anchor Books.
7. Lewin, K. (1951). Field Theory in Social Science. New York: Harper & Row.
8. Parygin, B.D. (1971). *Sotsialnaya psixologiya lichnosti.*

Mirzayeva Muhayyo Ro‘zievna
Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA VERBAL KOMPETENTLIK OMILLARINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI VA UNING METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida verbal kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish konsepsiyasi hamda uning metodologik asoslari yoritilgan. Verbal kompetentlik til o‘rganish jarayonida kommunikativ salohiyatni ta’minlovchi asosiy ko‘nikmalardan biri hisoblanadi. Maqolada verbal kompetentlikni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar, o‘quvchi-shaxs faoliyatiga yo‘naltirilgan yondashuv, interaktiv metodlar, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash muhimligi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, amaliy darslar, muhit va madaniy kontekst verbal kompetentlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynashi ko‘rsatib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *verbal kompetentlik, kommunikativ ko‘nikma, metodologik asoslar, ingliz tili o‘qituvchisi, interaktiv metodlar, til o‘rganish, lingvodidaktika*

КОНЦЕПЦИЯ РАЗВИТИЯ ФАКТОРОВ ВЕРБАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА И ЕЁ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Аннотация. *В данной статье рассматривается концепция развития вербальной компетентности у будущих учителей английского языка и ее методологические основы. Вербальная компетентность является одной из ключевых составляющих коммуникативных навыков в процессе изучения языка. В статье научно обосновано значение таких факторов, как личностно-ориентированный подход, применение интерактивных методов и современных технологий в процессе формирования речевой компетентности. Также подчеркивается роль практических занятий, среды и культурного контекста в развитии вербальных умений.*

Ключевые слова: *вербальная компетентность, коммуникативные навыки, методология, учитель английского языка, интерактивные методы, изучение языка, лингводидактика*

THE CONCEPT OF DEVELOPING VERBAL COMPETENCE FACTORS IN FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS AND ITS METHODOLOGICAL FOUNDATIONS

Abstract. *This article explores the concept of developing verbal competence in prospective English language teachers and its methodological foundations. Verbal competence is considered one of the core components of communicative skills in the process of language learning. The paper provides a scientific analysis of the factors influencing the development of verbal competence, including learner-centered approaches, the use of interactive methods, and modern technologies. The importance of practical lessons, learning environment, and cultural context in shaping verbal proficiency is also emphasized.*

Keywords: *verbal competence, communicative skills, methodological foundations, English language teacher, interactive methods, language learning, linguodidactics*

Kirish. Jahonda zamon talablariga mos, kasbiy faoliyat uchun zaruriy sifat va fazilatlarni egallagan, ijtimoiy faol pedagogik kadrlarni tayyorlash va ularning pedagogik-psixologik kompetentligini takomillashtirish usullarini ishlab chiqish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Ayni paytda, o‘qituvchi sotsial intellektini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy ta’lim sifatini va vositalarini takomillashtirish, erishilgan innovatsion natijalarni amaliyotga tatbiq etishga bo‘lgan zarurat tobora ortib bormoqda.

O‘qituvchi sotsial intellektining shakllanganligi o‘quvchilar emotsional-irodaviy hamda psixologik rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatishga, bilish faoliyatining faollashuviga, bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanishiga, atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlarda ularning ijtimoiy rollari identifikasiyalashuviga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchi sotsial intellektini belgilab beruvchi omillarni aniqlash, tadqiq qilish va rivojlantirish masalasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Mustaqillik yillarida «ta’lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o‘qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish»[1]ga yo‘naltirilgan O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil qilish zarurati yuzaga keldi. Ayni paytda, har bir o‘qituvchi faoliyatining ijtimoiy-psixologik samaradorligi, eng avvalo, uning pedagogik mahorati, muomala madaniyati va intellektual salohiyatiga ko‘p jihatdan bog‘liq ekanligi yanada yaqqolroq sezilmoqda.O‘qituvchi kasbiy faoliyatida verbal kompetentlikning ustuvorligi, uning faoliyat samaradorligini oshirib, unga ijobiy ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni shakllantiradi hamda o‘qituvchi pedagogik-psixologik kompetentligini takomillashtirishga olib keladi.

Metodologiya. Ijtimoiy psixologiya verbal kompetentlikni o‘rganish va takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar xorijlik olimlar: G. Ollport, L.L. Terstoun, G.Ayzenk, P. Selov va Dj.Meyer, V.Keller tomonidan olib borilgan. Hamdo‘stlik davlatlari olimlaridan R.S. Nemov, B.G.Ananev, Ye.I. Stepanovalar ilmiy izlanishlarida intellektni inson faoliyatining asosiy shakli sifatida o‘rganib, uning psixologik xususiyatlarini ochib berganlar.

E.G‘.G‘oziev, M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, G‘.B.Shoumarov, A.M.Jabborovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida shaxsning muloqotmandlik, muomalaning o‘quv faoliyatini boshqarishdagi roli, o‘qituvchi o‘quvchi hamkorligining muhim psixologik omili mustaqil fikrlash, o‘quvchilar bilan muloqot o‘rnatishda hamkorlik va individual bilish faoliyatlarning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlashga yo‘naltirilgan sotsial intellekt omillari o‘rganilgan.

Demak, verbal kompetentlik muammosi psixologiyada bir necha jabhalarda o‘rganilgan bo‘lib, ularda verbal kompetentlikning umumiy tabiati, atamaning fanda qo‘llanilishi va ayrim faoliyat yo‘nalishlari chegarasidagina tadqiq etilganligini ko‘rish mumkin. Shunday bo‘lsa-da, mazkur muammo bo‘yicha yyetarli darajada ilmiy tadqiqotlar olib borilmaganligini e’tirof etish mumkin. Jumladan: verbal kompetentlikni –ingliz tili o‘qituvchilari kasbiy kompetentligini ta’minlovchi muhim ijtimoiy psixologik omil sifatida alohida o‘rganilmagan; o‘qituvchilar faoliyatida yaqqol namoyon bo‘luvchi, ayni paytda shaxsiy va kasbiy kamolot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiluvchi verbal kompetentlik omillari ko‘rsatkichlari va ular orasidagi korrelyatsion munosabatlar haligacha empirik jihatdan tahlil etilib, tegishli ilmiy xulosalar qilinmagan; o‘qituvchilar kasbiy samaradorligini bevosita ta’minlovchi verbal kompetentlik omillari va mazkur omillarni izohlovchi ko‘rsatkichlar ko‘lami o‘rtacha-umumiy va qiyosiy-tipik jihatdan o‘rganilib, rivojlanib borayotgan bugungi ta’lim taraqqiyoti talablariga mos ravishda yyetarlicha tadqiq qilinmagan. Bularning barchasi esa bugungi kunda yuqori o‘qituvchi verbal kompetentligini o‘rganish va tadkik kilish va shu asnosida ularni verbal kompetentligini rivojlantirish dasturini ishlab chikish masalasi bugungi kunda nixoyatda dolzarb ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Zamonaviy psixologiya fani o‘qituvchi faoliyatini insonnparvarlashtirish, shaxsga yo‘naltirilgan, madaniy va globallashuv sharoitiga qaratilgan yangi konseptual yondashuvni taqdim etish bugungi kunda tizimda yuqori sotsial kompetentlikka ega bo‘lgan o‘qituvchi faoliyatining asosini tashkil etadi.

Biz tomondan yaratilgan ingliz tili o‘qituvchilari verbal kompetentligini optimallashtirishga mo‘ljallangan “Sotsial intellektni rivojlantirish” psixotrening dasturini shakllantirish uchun bir qator amaliyotda qo‘llanilgan, sinalgan dasturlarga tayanildi (Terstoun L.L. M.Lukyanova, V.Bolshakov, N.Klyueva, L.Marder, Ye.Sovetova)[3].

Yuqorida tahlil etilgan va tanishib chiqilgan trening dasturlari, mashqlari va tavsiyalarda ko‘proq shaxslarning ishbilarmonlik va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bois,

[1]Кадрлар тайёрлаш миллий дастури // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.: Шарқ,1998. – Б. 44.

biz tomondan tavsiya qilingan dasturda yuqori sinf o‘qituvchilari sotsial intellektini rivojlantirishga mo‘ljallangan psixotrening mashg‘ulotlarini takomillashtirishga e’tibor qaratildi. Biz tadqiqotimiz ob’ekti, maqsad va vazifalariga muvofiq trening dasturini shakllantirishga erishdik. Sotsial intellektni rivojlantirish dasturi oqibatida ingliz tili o‘qituvchilari o‘zlarining faoliyat jarayonidagi shaxsiy va kasbiy o‘sishidagi nuqsonlarni tuzatishga erishdilar deyish mumkin. Buni psixotrening dasturini qo‘llashdan keyingi bosqichda olingan natijalar ham tasdiqladi (1-jadval)

1-jadval.

Ingliz tili o‘qituvchilari sotsial intellekti natijalarining qiyosiy ko‘rinishi (Gilford metodikasi ma’lumotlari asosida) (N=164)

№	Mezonlar	Psixotrening dasturini tatbiq etishga qadar		Psixotrening dasturini tatbiq etgandan so‘ngra		t
		χ	σ	χ	σ	
1.	Muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish	3,25	0,86	4,24	0,61	-11,28***
2.	Noverbal muloqot harakatlarini tushunish	3,16	1,10	4,30	0,55	-10,13***
3.	Verbal muloqot harakatlarini tushunish	2,94	0,95	4,24	0,61	-13,31***
4.	Shaxslararo harakat maqsadini tushunish	3,11	1,17	3,35	0,60	-1,66

***p<0,00

Izoh….x-o‘rtacha arifmetik qiymat. – σ standart ogish. t standart mezon

Ingliz tili o‘qituvchilari sotsial intellektini o‘rganish testini takroriy natijalarida muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish (3,25 va 4,24, t = -11,28; p<0,001); noverbal muloqot harakatlarini tushunish (3,16 va 4,30, t = -10,13; p<0,001); verbal muloqot harakatlarini tushunish (2,94 va 4,24, t = -13,31; p<0,001) qobiliyatlarni o‘stirishga erishganligi aniqlandi. Bundan ko‘rinadiki, sotsial intellektni o‘stirish uchun har bir shaxs, xususan, ingliz tili o‘qituvchilari o‘z ustlarida ishlashlari va sotsial tajribalarini izchil oshirib borishlari lozim ekan. Shunday qilib, yuqoridagi empirik tahlillardan kelib chiqadigan bo‘lsak, sotsial intellekt jarayoni o‘zining maqsadi va mohiyatiga ko‘ra keng qamrovli bo‘lishi bilan birga har bir faoliyat doirasida uni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda, sotsial intellektning o‘qituvchi kasbiy faoliyati doirasida tadqiq qilinishi esa ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi kasbiy imkoniyatlar kalitini ochib berishi shubhasizdir.

Shu ma’noda verbal kompetentlikni kasbiy faoliyat doirasida tadqiq etilishida quyidagi ilmiy-amaliy vazifalarni amalga oshirish lozim, deb o‘ylaymiz:

1. Ingliz tili o‘qituvchilari verbal kompetentligi va kasbiy faoliyat kompetentligi o‘rtasidagi ijtimoiy psixologik uyg‘unlik imkoniyatlarini aniqlash va tahlil qilish.
2. Uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilar misolida ulardagi verbal kompetentlik ko‘rsatkichlarining ish samaradorligiga ta’sir kuchini belgilab beruvchi ijtimoiy psixologik omillarni belgilash va tadqiq qilish.
3. O‘qituvchi faoliyatidagi o‘ziga xos shaxslilik xususiyatlari va sotsial intellekt o‘rtasidagi mutanosiblikning qay darajada namoyon etilayotganligini tahlil qilish.
4. O‘qituvchi sotsial intellekti va kasbiy kompetentligi uyg‘unligini ta’minlovchi omillar o‘rtasidagi korrelyatsion munosabatlarni psixologik jihatdan tahlil qilib, tegishli xulosalarni shakllantirish.
5. Uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi o‘qituvchi verbal kompetentligini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va uni amaliyotda qo‘llash masalasiga jiddiy yondashish.

Demak, mazkur ilmiy mulohazalarni umumlashtiradigan bo‘lsak, bugungi kunda verbal kompetentlikni kasbiy faoliyat doirasida o‘rganilishi va tadqiq etilishi ijtimoiy psixologiyaning nihoyatda dolzarb yo‘nalishlaridan biri ekanligini yana bir bor e’tirof etishimiz mumkin.

Xulosa. Ijtimoiy psixologiyadagi ilmiy-nazariy va metodologik adabiyotlar tahlili ingliz tili o‘qituvchilari kasbiy faoliyati kompetentligiga xizmat qiluvchi verbal kompetentlik mezonlarini tadqiq qilishga oid mukammal tadqiqotlarning bugungi kunda yetarli yemasligini ko‘rsatdi. Holbuki, verbal kompetentliktning dastlabki vazifasi har bir shaxsni, uning kasbiy taraqqiuotiga salbiy ta’sir yetishi mumkin bo‘lgan turli xil holatlardan asrashga, avaylashga va to‘g‘ri yo‘naltirishga xizmat qilishdan iboratdir. Ingliz tili o‘qituvchilarining verbal kompetentligi va shaxslilik xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikning rivojlanishida muloqotga moyillik, hissiy barqarorlik, ijtimoiy dadillik, ijtimoiy yetuklik, o‘ziga ishonish, o‘zini nazorat qilish xususiyatlari etakchi omil sifatida namouon yetilishi mumkin yekanligi o‘z tasdig‘ini topdi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan va ma’lum ilmiy-amaliy aniqliklar kiritilgan sotsial intellekt va kasbiy faoliyat uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiluvchi sotsial intelekt mezonlari va shu mezonlar asosida ingliz tili o‘qituvchilarining verbal kompetentligini o‘rganish orqali aniqlangan va tahlil qilingan bugungi barcha «ko‘rsatkichlar ko‘lami» diapazoni, ingliz tili o‘qituvchilarining verbal kompetentligiga bo‘lgan ijtimoiy zaruratni yanada ravshanroq tasavvur etishga imkon berish bilan birga, ular kasbiy faoliyatini ijtimoiy-psixologik samaradorligini va istiqbollarini belgilash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Агавелян О.К. Социально-перцептивные особенности детей с нарушениями развития. – Челябинск: Изд-во Татяна Луре, 1999. – 365 с.
2. Абулханова К.А. Социалное мышление личности// Современная психология: состояние и перспективы исследований. Част 3. – Социалные представления и мышление личности. – М.: Изд-во "Институт психологии РАН", 2002 – С. 88-103.
3. Абулханова-Славская К.А. Развитие личности в процессе жизнедея-тельности// Психология формирования и развития личности. – М.: 1981. – С. 19-44.
4. Бедерханова В.П. К вопросу о социалной перцепции в связи с исползованием ролевых игр в процессе профессионалной педагогической подготовки// Теоретические и прикладные проблемы психологии познания людми друг друга. – Краснодар: 1975. – С.232-233.
5.Маслоу А. Мотивация и личност. 3-е изд. \ Пер. с анг. – СПб.: Питер, 2008.– С-52.
6. Немов Р.С., Алтунина И.Р. Социалная психология: Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2010. – С.

Mirzayev Tolibjon To‘raqul o‘g‘li
Buxoro viloyat hokimining raqamlashtirish bo‘yicha maslahatchisi,
Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: tolib_mirzayev94@mail.ru

TALABALARDA AXBOROT XAVFSIZLIGI KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION METODLAR

Annotatsiya. *Maqolada axborot xavfsizligi bo‘yicha talabalarda zarur kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Bugungi raqamli jamiyatda axborot tahdidlariga qarshi kurasha oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, maqolada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalari hamda raqamli interaktiv metodlardan foydalanish asosida takomillashgan yondashuvlar taklif etiladi. Mazkur metodika orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, balki amaliy ko‘nikmalarni ham samarali o‘zlashtiradilar.*

Kalit so‘zlar: *Innovatsion texnologiyalar, axborot xavfsizligi, kompetensiya, ta’lim jarayoni, raqamli savodxonlik, kompyuter texnikasi, pedagogik metodika, AKT vositalari, talaba faoliyati.*

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В статье анализируется роль и значение инновационных технологий в формировании и развитии у студентов необходимых компетенций в области информационной безопасности. В современном цифровом обществе подготовка квалифицированных специалистов, способных бороться с информационными угрозами, является одной из актуальных задач, стоящих перед системой образования. В связи с этим в статье предлагаются усовершенствованные подходы, основанные на использовании современных информационно-коммуникационных технологий, мультимедийных средств, а также цифровых интерактивных методов. Благодаря данной методике студенты не только получают теоретические знания, но и эффективно осваивают практические навыки.*

Ключевые слова: *инновационные технологии, информационная безопасность, компетентность, образовательный процесс, цифровая грамотность, компьютерная техника, педагогическая методика, средства ИКТ, деятельность учащихся.*

INNOVATIVE METHODS FOR DEVELOPING INFORMATION SECURITY SKILLS IN STUDENTS

Abstract. *This article analyzes the role and significance of innovative technologies in forming and developing essential competencies in information security among students. In today’s digital society, training qualified specialists capable of countering information threats is one of the urgent tasks facing the education system. From this perspective, the article proposes modern approaches based on the use of information and communication technologies, multimedia tools, and digital interactive methods. Through this methodology, students not only acquire theoretical knowledge but also effectively master practical skills.*

Keywords: *Innovative technologies, information security, competence, educational process, digital literacy, computer technology, pedagogical methodology, ICT tools, student activity.*

Kirish. Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi kiberjinoyatlar, maxfiy ma’lumotlarga ruxsatsiz kirish, ularni o‘zgartirish yoki yo‘qotish kabi salbiy holatlar bilan birga kechmoqda. Shu sababli, axborotni himoya qilish har qanday davlatda strategik ahamiyatga ega dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida axborotni himoya qilish zarurati

davlat miqyosida axborotni himoyalash tizimini shakllantirish hamda axborot xavfsizligining huquqiy asoslarini rivojlantirish orqali ifodasini topmoqda. “Axborotlashtirish to‘g‘risida”, “Davlat sirlarini muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Elektron hisoblash mashinalari dasturlari va ma’lumotlar bazalarining huquqiy muhofazasi to‘g‘risida” kabi qonunlar, shuningdek, qator hukumat qarorlari qabul qilinib, amaliyotga joriy etilgan.

Axborotni himoya qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad — axborotning ixtiyorsiz tarzda yo‘qolishi (o‘g‘irlanishi, buzilishi, qalbakilashtirilishi) oqibatida yuzaga keladigan zararlarning oldini olishdir. Axborotni himoyalash bo‘yicha tadbirlar amaldagi axborot xavfsizligiga doir qonunchilik va me’yoriy hujjatlar, shuningdek, axborotdan foydalanuvchilarning ehtiyojlari asosida tashkil etilishi lozim. Axborot xavfsizligining yuqori darajasini ta’minlash maqsadida doimiy ravishda murakkab ilmiy-texnik masalalarni hal etish hamda himoya vositalarini takomillashtirib borish zarur hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Axborot xavfsizligi zamonaviy davrda strategik muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, tasodifiy yoki qasddan qilingan tahdid va hujumlardan axborotni hamda uni qo‘llab-quvvatlaydigan infratuzilmani himoya qilishni anglatadi. Axborot xavfsizligi ko‘p qirrali kompleks faoliyat sohasi hisoblanadi va bu sohada muvaffaqiyatga faqat tizimli va puxta yondashuv orqali erishish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunida axborotga oid bir qator asosiy ta’riflar keltirilgan. Ushbu qonunga muvofiq, axborot — manbaasi va taqdim etilish shaklidan qat’i nazar, shaxslar, hodisalar, faktlar va jarayonlarga oid ma’lumotlarni ifodalaydi. Axborotni muhofaza etish esa — xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini anglatadi. Axborot xususiyatiga ko‘ra hujjatlashtirilgan, ommaviy, maxfiy yoki konfidensial bo‘lishi mumkin. Hujjatlashtirilgan axborot — identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlarga ega holda moddiy tashuvchida aks ettirilgan axborot bo‘lsa, maxfiy axborot — qonun hujjatlariga muvofiq foydalanilishi cheklangan, ammo davlat sirlariga kirmaydigan axborotdir. Konfidensial axborot esa foydalanilishi qonuniy asosda chegaralangan bo‘ladi. Axborot xavfsizligining tashkil etuvchilari axborot egasi, foydalanuvchi va muhofaza qiluvchi infratuzilmalardir. Bu sohada yuzaga keladigan xavf-xatarlar axborot munosabatlari ishtirokchilariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shu bois axborotdan foydalanish, saqlash, uzatish va qayta ishlash jarayonlari qat’iy tartibga solinadi. Axborot inson hayot faoliyatining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, u siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik, tijorat va harbiy maqsadlarga xizmat qilishi, shuningdek, ochiq yoki maxfiy bo‘lishi mumkin.


Axborot sohasida uch darajadagi manfaatlar — shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari ajratib ko‘rsatiladi. Shaxsiy manfaatlar axborotdan foydalanish orqali fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, ijtimoiy faoliyat bilan shug‘ullanish, jismoniy, ma’naviy va intellektual rivojlanishni ta’minlashda namoyon bo‘ladi. Jamiyat manfaatlari esa shaxs erkinligini kafolatlash, demokratiyani mustahkamlash va ijtimoiy adolatni qaror toptirishda ifodalanadi. Davlat manfaatlari esa milliy axborot infratuzilmasini rivojlantirish, konstitutsiyaviy tuzumni mustahkamlash, siyosiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash hamda xalqaro axborot hamkorligini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot xavfsizligini ta’minlash nafaqat texnik va huquqiy muammo, balki ta’limiy-innovatsion yondashuvni talab qiladigan dolzarb masalaga aylandi. Xususan, talabalarda axborot xavfsizligiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularni zamonaviy axborot xavf-xatarlarini aniqlash, tahlil qilish hamda ularga qarshi samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish qobiliyatiga ega mutaxassislar sifatida tayyorlash zamonaviy ta’limning muhim ustuvor yo‘nalishlaridandir. Axborot xavfsizligi murakkab va ko‘p qirrali soha bo‘lib, uning muvaffaqiyatli tashkil etilishi huquqiy, ma’muriy, protseduraviy hamda dasturiy-texnik choralarni uyg‘un qo‘llash orqali ta’minlanadi. Talabalarga ushbu yondashuvni chuqur anglatish uchun innovatsion ta’lim metodlaridan – loyihaviy va muammoli o‘qitish, kiberxavfsizlik laboratoriyalari, tajriba-sinov platformalari, holatli (case study) tahlillar va integratsiyalashgan o‘quv modullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot xavfsizligini ta’minlovchi asosiy prinsiplar – ma’lumotlar butunligi, konfidensiallik va foydalanish huquqining kafolatlanganligi — amaliy mashg‘ulotlar va simulyatsion modellar asosida o‘rgatilganda talabalar mazkur tamoyillarni real axborot tizimlarida tatbiq etishni o‘rganadilar. Shuningdek, ishonchli tizimlar, xavfsizlik siyosati va kafolatlanganlik mezonlari, foydalanuvchi huquqlarini boshqarish, kompyuter xavfsizligi vositalari va axborotni himoyalashga doir texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirish, talabalarni zamonaviy axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va uni amalda qo‘llashga tayyorlaydi. Axborotni muhofaza qilish — axborotni yig‘ish, uzatish, qayta ishlash va saqlash jarayonida uning konfidensialligi va butunligini ta’minlashga qaratilgan choralar majmuasidir. Ushbu yondashuv axborot xavfsizligi tushunchasi bilan bevosita uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning integratsiyalashgan holda o‘rgatilishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Natijada, talabalar axborot xavfsizligining nazariy asoslari bilan bir qatorda, uni amaliyotda ta’minlovchi vositalarni puxta egallab, innovatsion fikrlaydigan, raqamli xavfsizlik muhitida mustaqil harakatlana oladigan yyetuk mutaxassis sifatida shakllanadilar.

Konsepsiya – axborot xavfsizligi muammosiga rasmiy qabul qilingan qarashlar tizimi va uni zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda yechish yo‘llari. Konsepsiyada ifodalangan maqsadlar, masalalar va ularni bo‘lishi mumkin bo‘lgan yechish yo‘llari asosida axborot xavfsizligini ta’minlashning muayyan rejalari shakllantiriladi. Konsepsiyani ishlab chiqishni uch bosqichda amalga oshirish tavsiya etiladi (1-rasm).



1-rasm. Axborot himoyasi konsepsiyasini ishlab chiqish bosqichlari.

Talabalarda axborot xavfsizligi ko‘nikmalarini shakllantirishda axborotni himoya qilish konsepsiyasining bosqichma-bosqich rivojlanishini chuqur anglashga yordam beradi. Bu jarayonni o‘rgatishda konsepsiyani ishlab chiqishning asosiy bosqichlarini amaliy mashg‘ulotlar, interaktiv simulyatsiyalar va loyihaviy ta’lim orqali talabalarga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Birinchi bosqichda talabalar himoya qilinishi zarur bo‘lgan obyektlarni aniqlashga o‘rgatiladi. Bu obyektlar axborot resurslari, dasturiy ta’minot, ma’lumotlar bazasi yoki ishlab chiqarish jarayonlari bo‘lishi mumkin. Obyektlar ularning iqtisodiy, texnologik yoki strategik ahamiyatiga ko‘ra tabaqalashtiriladi. Ushbu bosqichni interaktiv xaritalar yoki tavakkal tahlili modullari orqali o‘rgatish talabalar fikrlash doirasini kengaytiradi. Ikkinchi bosqichda esa himoyalanuvchi obyektlarga tahdid soluvchi xavf-xatarlar — iqtisodiy josuslik, kiberjinoyat, sabotaj yoki zarar yetkazish holatlari tahlil qilinadi. Inno-

vatsion metod sifatida virtual tahdid stsenariylari asosida muammoli vaziyatlarni modellashtirish talabalarni real xavf manbaalarini aniqlash, ularning ehtimolini baholash va profilaktik choralarni rejalashtirishga yo‘naltiradi. Uchinchi bosqich esa mavjud vaziyatni baholashga qaratiladi. Bu bosqichda talabalar mavjud texnik himoya vositalari, ishlab chiqarish yoki tashkiliy muhitdagi infratuzilma holati, lokal sharoitlar va axborot oqimlarini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Ushbu bosqichni raqamli laboratoriyalar, kibermuhitda monitoring vositalari orqali o‘rgatish, talabalarni tizimli tahlil va xavfsizlik dizaynini mustaqil ishlab chiqishga tayyorlaydi. Mazkur bosqichlarning kompleks tahlili va innovatsion ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirilgan holda o‘qitilishi natijasida, talabalar axborot xavfsizligiga oid konseptual yondashuvlarni egallab, amaliyotda ularni qo‘llay oladigan raqamli xavfsizlik mutaxassisi sifatida shakllanadilar.

Xulosa.

Zamonaviy raqamli jamiyatda axborot xavfsizligi bo‘yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash — milliy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va axborot suverenitetini ta’minlashning muhim shartidir. Shu nuqtai nazardan, talabalarda axborot xavfsizligiga oid nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va analitik fikrlash qobiliyatini shakllantirish bugungi ta’lim tizimining ustuvor vazifasiga aylangan. Axborotni himoya qilish konsepsiyasining bosqichma-bosqich o‘rganilishi, talabalarni real axborot obyektlarini aniqlash, xavf-xatarlarni baholash va texnik-iqtisodiy tahlil asosida samarali himoya choralari ishlab chiqishga tayyorlaydi. Shuningdek, ushbu jarayonda axborot xavfsizligining huquqiy, texnik va tashkiliy asoslari chuqur tahlil qilinadi, bu esa axborotni yig‘ish, uzatish, qayta ishlash va saqlashda xavfsizlik tamoyillarini to‘laqonli tushunishga imkon yaratadi. Natijada, talabalar nafaqat bilimli, balki real kiberxavf muhitida mustaqil qaror qabul qila oladigan, axborot xavfsizligini kompleks boshqara oladigan, mutaxassislari sifatida shakllanadilar. Bu esa O‘zbekistonning axborotlashgan jamiyat barpo etish yo‘lidagi strategik maqsadlariga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. “Axborot resurslarini muhofaza qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 8-iyul.
2. Tahirov B.N. Axborot xavfsizligi asoslari, o‘quv qo‘llanma. Buxoro: Fan va ta’lim, 2022.- 156 b.
3. Jo‘rayev B.M. Innovatsion pedagogik texnologiyalar // O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.
4. Rashidova G.S. Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2020.
5. Karimov A.A. Raqamli texnologiyalar va axborot xavfsizligi: metodik yondashuvlar // Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2023.
6. Qodirova D.I. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil etish // Monografiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
7. Hayitov A.G‘. Ta’lim jarayonini kompyuterlashtirish. // Usuliy qo‘llanma. Buxoro. 1999.
8. Botirov D.B., Egamqulov Sh.A., sinf o‘quvchilari axborotli madaniyatni shakllantirishning ayrim yo‘llari // “Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar; muammolar, yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Jizzax 2006 yil.

Nozimov Jaxongir Toxirovich
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

TALABALARNI MASOFAVIY TA'LIMGA BO'LGAN MUNOSABAT DETERMINANTLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarni masofaviy ta'limga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi asosiy determinantlar – psixologik, ijtimoiy va texnologik omillar tizimli tarzda tahlil qilinadi. Jumladan, o'zini o'zi boshqarish darajasi, ichki va tashqi motivatsiya, raqamli savodxonlik, texnologik qulaylik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim muhitining sifati kabi omillar talabalar nuqtayi nazaridan chuqur o'rganiladi. Tadqiqotda texnologiyani qabul qilish modeli (TAM) va o'zini o'zi boshqarish nazariyasi (SDT) asosida empirik tahlil olib borilib, ularning masofaviy ta'limga nisbatan munosabatga ta'siri aniqlanadi. O'rganilgan natijalar asosida masofaviy ta'lim sifatini oshirish, talabalar ishtirokini faollashtirish va o'quv motivatsiyasini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Masofaviy ta'lim, talabalar munosabati, motivatsiya, texnologiyani qabul qilish modeli (TAM), raqamli savodxonlik, ijtimoiy ta'sir, o'zini o'zi boshqarish.*

ДЕТЕРМИНАНТЫ ОТНОШЕНИЯ СТУДЕНТОВ К ДИСТАНЦИОННОМУ ОБУЧЕНИЮ

Аннотация. *В данной статье системно анализируются ключевые детерминанты отношения студентов к дистанционному обучению — психологические, социальные и технологические факторы. В частности, глубоко исследуются такие аспекты, как уровень саморегуляции, внутренняя и внешняя мотивация, цифровая грамотность, технологическая доступность, социальная поддержка и качество образовательной среды с точки зрения самих студентов. В исследовании проведён эмпирический анализ на основе модели принятия технологий (TAM) и теории самодетерминации (SDT), что позволило выявить влияние указанных факторов на отношение студентов к дистанционному обучению. На основе полученных результатов разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации, направленные на повышение качества дистанционного образования, активизацию участия студентов и усиление их учебной мотивации.*

Ключевые слова: *Дистанционное обучение, отношение студентов, мотивация, модель принятия технологий (TAM), цифровая грамотность, социальное влияние, саморегуляция.*

DETERMINANTS OF STUDENTS' ATTITUDES TOWARD DISTANCE EDUCATION

Abstract. *This article provides a systematic analysis of the key determinants shaping students' attitudes toward distance learning—namely psychological, social, and technological factors. Specifically, the study explores students' perspectives on various aspects such as self-regulation, intrinsic and extrinsic motivation, digital literacy, technological accessibility, social support, and the overall quality of the learning environment. An empirical investigation is conducted based on the Technology Acceptance Model (TAM) and the Self-Determination Theory (SDT), allowing for the identification of how these factors influence students' attitudes toward distance education. Based on the findings, scientifically grounded recommendations are proposed to improve the quality of distance learning, enhance student engagement, and strengthen learning motivation.*

Keywords: *Distance learning, student attitudes, motivation, Technology Acceptance Model (TAM), digital literacy, social influence, self-regulation.*

Kirish. So'nggi o'n yillikda texnologik innovatsiyalar ta'lim tizimiga sezilarli o'zgarishlar olib kirdi. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta'lim majburiy shaklga aylangach, bu

o‘zgarishlar nihoyatda keskinlashdi. Talabalar ushbu o‘zgarishlarga har xil tarzda moslashmoqda – bu moslashuvga ularning masofaviy ta’limga nisbatan **munosabati** bevosita ta’sir qilmoqda.

Munosabat (attitude) – bu shaxsning muayyan ob’yektga nisbatan kognitiv, affektiv va xulqiy komponentlarni o‘z ichiga olgan psixologik holatidir (Ajzen, 1991). Talabalar masofaviy ta’limni qanday qabul qilayotganini aniqlash, bu tizimni takomillashtirishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Masofaviy ta’limga munosabatga ta’sir etuvchi determinantlar bir necha nazariy asoslarda tushuntiriladi:

- **Texnologiyani qabul qilish modeli (Technology Acceptance Model – TAM)**: foydalanuvchi texnologiyani foydali va ishlatishga yaroqli deb hisoblaganida uni qabul qilish ehtimoli yuqori bo‘ladi (Davis, 1989).
- **O‘zini o‘zi boshqarish nazariyasi** (Self-Determination Theory – SDT; Deci & Ryan, 2000): ichki motivatsiyaning mavjudligi o‘quv jarayonida mustahkam ishtirokni ta’minlaydi.
- **Sotsial ta’sir nazariyasi**: talabalar guruh normasi va o‘qituvchilarning fikrlariga ko‘ra o‘z pozitsiyalarini shakllantiradilar.

Korrelatsion tahlil natijalari

O'zgaruvchi juftligi	Kor-relatsiya koeffitsienti (r)	P-qiymati	Bog‘liqlik yo‘nalishi
Masofaviy ta’limga munosabat ↔ Texnologik qulaylik	0.61	p<0.01	Ijobiy
Masofaviy ta’limga munosabat ↔ Ichki moti-vatsiya	0.54	p<0.01	Ijobiy
Masofaviy ta’limga munosabat ↔ Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash	0.48	p<0.05	Ijobiy
Masofaviy ta’limga munosabat ↔ Texnik muammolar (Internet si-fati)	-0.45	p<0.05	Salbiy

Izohlar

1. Masofaviy ta’limga nisbatan ijobiy munosabat bilan texnologik qulaylik o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik aniqlangan (r=0.61; p<0.01). Bu talabalar texnologiyalardan foydalanishda o‘zlarini qulay his qilganida, masofaviy ta’limni ijobiy baholashlarini anglatadi.

2. Ichki motivatsiya darajasi bilan masofaviy ta’limga bo‘lgan munosabat o‘rtasida ham ijobiy bog‘liqlik mavjud (r=0.54; p<0.01). Bu bilim olishga ichki qiziqish bilan yondashgan talabalar ko‘proq ijobiy fikr bildirganini ko‘rsatadi.

3. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash (oila, do‘stlar, o‘qituvchilar) bilan munosabat o‘rtasida ham ijobiy bog‘liqlik mavjud (r=0.48; p<0.05). Ijtimoiy yordam olgan talabalar masofaviy ta’limni samarali deb hisoblagan.

4. Internet sifati va texnik vositalar bilan bog‘liq muammolar esa salbiy bog‘liqlik ko‘rsatgan (r=-0.45; p<0.05). Bu masofaviy ta’limga bo‘lgan salbiy munosabatning texnik to‘siqlar bilan bog‘liqligini bildiradi.

Regressiya modeli. Ko‘p o‘zgaruvchili regressiya modeli: $Y = \beta1(\text{Texnologik qulaylik}) + \beta2(\text{Ichki motivatsiya}) + \beta3(\text{Raqamli savodxonlik}) + \beta4(\text{Ijtimoiy ta’sir}) + \varepsilon$.

Model determinatsiyasi $R^2 = 0.58$ bo‘lib, bu masofaviy ta’limga nisbatan munosabatning 58% yuqoridagi to‘rtta omil bilan izohlanishini anglatadi.

Muhokama.

Masofaviy ta'lim zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti va ta'lim tizimining globallashuvi jarayonida dolzarb ahamiyat kasb etayotgan o'quv shakllaridan biridir. Ayniqsa, pandemiya davrida bu ta'lim modeli zarurat tufayli ommalashdi, ammo hozirda u ta'limning muqobil va mustaqil yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu bois, talabalarni masofaviy ta'limga bo'lgan munosabati, bu munosabatga ta'sir qiluvchi determinantlar va ularning psixologik-pedagogik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish zaruratga aylandi.

Talabalarning masofaviy ta'limga bo'lgan munosabati ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi. Eng avvalo, bu munosabat talabaning axborot-kommunikatsion texnologiyalarni egallaganlik darajasi, ya'ni raqamli savodxonligiga bevosita bog'liq. Texnologik vositalardan erkin foydalanadigan, internet resurslariga keng kirish imkoniyatiga ega talabalar masofaviy o'quv jarayonini ijobiyroq baholaydilar. Aksincha, texnik imkoniyatlari cheklangan yoki texnologiyadan foydalanishda qiyinchiliklarga duch keladigan talabalar bu shaklga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishlari mumkin.

Shuningdek, masofaviy ta'limning sifati, interaktivligi va metodik ta'minoti ham talabalar fikriga sezilarli ta'sir qiladi. Agar darslar qiziqarli, tushunarli, talabani faol jalb etuvchi tarzda tashkil etilsa, u holda masofaviy ta'limga bo'lgan ishonch ortadi. Bunday hollarda talabalar masofaviy ta'limni nafaqat zarurat sifatida, balki o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va axborotni tanlab olish imkoniyatini beruvchi moslashuvchan platforma sifatida qabul qiladilar.

Boshqa muhim determinantlar qatorida shaxsiy motivatsiya, o'qishga bo'lgan ichki ehtiyoj va o'quv muhitining psixologik iqlimi alohida o'rin tutadi. Yuqori motivatsiyaga ega bo'lgan talabalar, odatda, masofaviy ta'limda ham o'z maqsadlariga erishishga harakat qilishadi. Shu bilan birga, o'qituvchining kommunikativ uslubi, fikr-mulohazalarni rag'batlantirishi va o'zaro aloqa madaniyati ham bu munosabatga ta'sir qiluvchi psixologik determinant sifatida qaraladi.

Ijtimoiy determinantlar, xususan, oilaviy qo'llab-quvvatlash, do'stlar va guruhdoshlardan keladigan turtki, hamda ijtimoiy tarmoqlardagi fikrlar ham talabalar ongida masofaviy ta'limga bo'lgan ijtimoiy bahoni shakllantiradi. Bunday ijtimoiy kontekstda shakllangan qarashlar ko'pincha shaxsiy baholash mezonlaridan ustun turadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, masofaviy ta'limda o'zini o'zi boshqarish, vaqtni rejalashtirish va mustaqil o'rganishga bo'lgan qobiliyat talab qilinadi. Bu esa o'z navbatida, shaxsiy intizom va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarining rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Mazkur jihatlar esa masofaviy ta'limga nisbatan talabalar munosabatining psixologik asoslarini tashkil qiladi.

Talabalarni masofaviy ta'limga bo'lgan munosabati ko'p qirrali va murakkab psixologik-pedagogik hodisadir. Bu munosabat texnologik tayyorgarlik, metodik yondashuv, ichki motivatsiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va shaxsiy intizom kabi bir qator determinantlar orqali shakllanadi. Shu sababli, masofaviy ta'lim samaradorligini oshirishda faqat texnik vositalarni takomillashtirish emas, balki talabalar shaxsiyati, ehtiyojlari va o'rganishga bo'lgan psixologik tayyorgarligini ham chuqur o'rganish va inobatga olish muhim hisoblanadi.

Xulosa. Talabalarni masofaviy ta'limga bo'lgan munosabati ularning texnologik savodxonligi, ichki motivatsiyasi, shaxsiy intizomi, o'qitish metodikasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi va o'quv muhitining sifatiga bog'liq murakkab determinantlar asosida shakllanadi. Bu omillar o'zaro bog'liq bo'lib, talabaning masofaviy ta'lim jarayonini qanday qabul qilishi va undan qanday foyda olishini belgilaydi. Masofaviy ta'lim samaradorligini oshirish uchun ta'lim beruvchilar va muassasalar nafaqat texnik sharoitlarni, balki talabalar psixologik holati va o'quv ehtiyojlarini ham chuqur tahlil qilgan holda yondashishlari lozim. Shu orqali masofaviy ta'lim nafaqat muqobil, balki sifatli va samarali o'quv shakliga aylanishi mumkin.

Foydananilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ajzen, I. (1991). The theory of planned behavior. *Organizational behavior and human decision processes*, 50(2), 179-211.

2. Davis, F. D. (1989). Perceived usefulness, perceived ease of use, and user acceptance of information technology. *MIS Quarterly*, 13(3), 319-340.

3. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). The "what" and "why" of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. *Psychological inquiry*, 11(4), 227–268.
4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes.
5. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control. *New York: Freeman*.
6. Nozimov, J. (2024). Talabalar masofaviy ta'lim jarayonida ishonch tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 2(10), 384-388.
7. Toxirovich, N. J. (2024). Masofaviy ta'lim jarayonida talabalarda motivatsion hissini shakllantirishning psixologik xususiyatlari. pedagogik tadqiqotlar jurnali, 2(1), 180-184.
8. Nozimov, J. (2024). Talabalarda masofaviy ta'lim jarayonida ishonch tuyg'usini shakllantirishning psixologik xususiyatlari. Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 2(9), 626-636.

Ro‘ziyeva Feruza Farmon qizi
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 2-son Politexnikumi psixologi,
Ramazonov Jahongir Djalolovich
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

GLOBALLASHUV DAVRIDA AXBOROT MANIPULYATSION TASIRLARNING PSIXOLOGIK XUSUSISYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada globallashuv davrida axborot manipulyatsion tasirlar haqida umumiy tushuncha hamda yoshlarni manipulyatsion ta’sirdan himoya qilishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqidagi nazariy va amaliy jarayonlar xususida keltirib o’tilgan.*

Kalit so‘zlar: *manipulyatsiya, o‘zini-o‘zi idora qilish, stress, his-tuyg‘u, xulq-atvor, qat’iyatlilik, mustaqillik, o‘zini tuta bilish, dominantlik, ong, motiv.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF INFORMATIONAL MANIPULATION IN THE ERA OF GLOBALIZATION

Annotation. *This article deals with the general concept of information manipulative influences in the era of globalization and the theoretical and practical processes about the socio-psychological features of protecting young people from manipulative influences.*

Keywords: *manipulation, self-regulation, stress, emotion, behavior, persistence, independence, self-control, dominance, consciousness, motive.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИНФОРМАЦИОННОГО МАНИПУЛИРОВАНИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация. *В данной статье изложено общее понимание информационно-манипулятивных воздействий в эпоху глобализации, а также теоретические и практические процессы социально-психологических особенностей защиты молодежи от манипулятивных воздействий.*

Ключевые слова: *манипуляция, самоконтроль, стресс, эмоции, поведение, настойчивость, независимость, самоконтроль, доминирование, сознание, мотив.*

Kirish. Bugungi globallashgan davrda manipulyatsiyalar hayotning o’zi kabi hilma-xildir. Manipulyatsiyalar ijobiy, salbiy va neytral, kundalik va professional, samimiy va bo’lmagan va turli darajadagi xabardorlikdir. Biroq, kundalik hayotda salbiy manipulyatsiyalar ko’proq uchraydi, buning natijasida "manipulyatsiya" tushunchasi amalda "salbiy manipulyatsiya" bilan belgilanadi va odatda yomon niyat yoki yomon moyillikning namoyon bo’lishi sifatida tushuniladi. Bunday manipulyatsiyalar his-tuyg’ularga bosim, ayyor sukunat, yashirin takliflar va hatto lo’li gipnozini o’z ichiga oladi: barcha vositalar odamdan o‘z foydasiga halol va ochiq yo’l bilan olish mumkin bo’lmagan narsalarni olishga qaratilgan. Psixologik manipulyatsiya - bu ijtimoiy ta’sirning bir turi yoki ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, u manfaatlar yo‘lida yashirin, aldamchi va zo‘ravonlik taktikalaridan foydalangan holda boshqa odamlarning idroki yoki xatti-harakatlarini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatdir.

Manipulyatsiya ongli boshqaruvni chetlab o‘tadi va bizning xohishimiz yoki qarorimiz kabi ichimizdan bizga ta’sir qiladi. Bu odam sezmaydigan yoki ta’sir sifatida aniqlamaydigan ta’sir; bu odam boshqa odamlarning niyatlarini o’zinikidek qabul qila boshlagan ta’sirdir. Oddiy qilib aytganda, manipulyatsiya yashirin ta’sirdir. Biroq, odamlarning o’zaro ta’sirining barcha shakllarini u yoki bu nuqtalarga bog‘lash mumkin emas. Shuning uchun E.L.Dotsenko o‘zaro ta’sirga munosabatning besh turini ajratib ko‘rsatdi[1].

Dominantlik. U quyidagilar bilan tavsiflanadi: 1) manfaati hisobga olinmaydigan narsa yoki maqsadlarga erishish vositasi sifatida sherikga munosabat; 2) egalik qilish, tasarruf etish, cheksiz bir tomonlama ustunlikka ega bo’lish istagi; 3) sherikni soddalashtirilgan, bir tomonlama idrok etish, u

haqida stereotipik g‘oyalar mavjudligi; 4) ochiq imperativ ta’sirning mavjudligi (zo‘ravonlikdan majburlash, taklif qilishgacha).

Manipulyatsiya. U quyidagilar bilan tavsiflanadi: 1) sherikga "o‘ziga xos turdagi narsa" sifatida munosabat (uning qiziqishlari va niyatlarini e’tiborsiz qoldirish tendentsiyasi mavjud, lekin har tomonlama emas); 2) qilingan taassurotga ko‘z bilan birlashtirilgan bir tomonlama ustunlikka ega bo’lish istagi; 3) to’g’ridan-to’g’ri emas, balki bilvosita bosim (provokatsiya, yolg’on, fitna) bilan yashirin ta’sirning mavjudligi.

Raqobat. U quyidagilar bilan tavsiflanadi: 1) xavfli va oldindan aytib bo’lmaydigan ob’ekt sifatida sherikga nisbatan munosabat; 2) undan ustun turish, bir tomonlama ustunlikni "kurash" istagi; 3) ham yashirin, ham ochiq ta’sirdan foydalanish (“nozik” manipulyatsiyaning ayrim turlari, taktik kelishuvlar) Hamkorlik. U quyidagilar bilan tavsiflanadi: 1) sherikga teng huquqli munosabat; 2) boshqa odamlarning manfaatlarini buzmagan holda o‘ziga zarar etkazmaslik istagi; 3) ta’sir qilish (kelishuv) emas, balki o’zaro ta’sir qilish usullaridan foydalanish. Hamdo‘stlik. U quyidagilar bilan tavsiflanadi: 1) sherikga qimmatli shaxs sifatida munosabat; 2) birlashishga intilish, o‘xshash yoki mos keladigan maqsadlarga erishish uchun birgalikdagi faoliyat; 3) o‘zaro ta’sirning asosiy usuli sifatida rozilik (konsensus) dan foydalanish

Shunday qilib, E.L.Dotsenkoning tasnifiga ko‘ra, manipulyatsiya hukmronlikka yaqin bo‘lgan teng bo‘lmagan munosabatlarning mavjudligini nazarda tutadi, lekin sherikning ruhiyatiga ta’sirning kamroq intensivligi bilan tavsiflanadi. Yashirin ta’sirlar xususan talabalarni turli xil ta’sirlardan qanday himoya qilish mexanizmlari to‘g‘risida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Manipulyatsiyaga oid adabiyotlar bilan tanishganda shu narsaga amin bo‘lamizki, mualliflar bir xil tomondan mavzularni asosiy leytmotiv [2] (leytmotiv nemischa – «leitmotiv» – asosiy, yetakchi motiv) sifatida, muhokama qilanayotgan muammolar doirasida, har xil ko‘rinishlarda takrorlab turar ekan. Ushbu mavzular majmuasini bir nechta guruhga ajratish mumkin (ko‘p ishlatilishining doirasiga qarab belgilangan).

1. Axborot bilan faollashtirish;
2. Manipulyativ ta’sirni yashirish;
3. Majburlash darajasida kuch ishlatish;
4. Ta’sir etish nishoni;
5. Adresat ta’sir ostida robotga o‘xshashlik mavzusi, mashinaga o‘xshashlik [3].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Garchi biz o‘rganayotgan tadqiqot bo‘yicha O‘zbekistonda ilmiy ishlar olib borilmagan bo‘lsada ammo o‘zbek olimlaridan A.X.Yugay, S.M.To‘ychieva, D.X.Qarshibaevalar ushbu muammoga yaqin mavzuda izlanishlar olib borganlar. Jumladan, ular o‘z ilmiy tadqiqotlarida o‘quvchilardagi antimanipulyativ xulq avvalo ta’lim muassasalarida shakllantirilishi lozimligini, buning uchun ta’lim jarayoniga e’tibor qaratish zarurligi ko‘rsatilib, o‘quvchilarda antimanipulyativ xulqni ta’lim jarayonida paydo bo‘lishi, shakllanishi va uni oldini olish chora tadbirlari haqida fikr-mulohazalar, amaliy tavsiyalar bayon qilingan [4].

A.Tashanov, Sh.Mustafaevalarning [5] ilmiy ishlarida buzg‘unchi g‘oyalarning milliy o‘zlikni anglashga salbiy ta’siri, bugungi global o‘zgarishlar sharoitida mafkuraviy, destruktiv diniy g‘oyalarning manipulyativ tahdidlari va ularning milliy o‘zlikni anglash, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’siri ijtimoiy-falsafiy, psixologik jihatdan maxsus tadqiq etilgan. Ushbu ilmiy ishda inson ongiga manipulyativ psixotexnologiyalar orqali yot g‘oyalarni singdirish haqida so‘z yuritilgan.

Shuningdek, M.L.Saipova o‘zining «Pedagog shaxsida makiavellizmga moyillikni diagnostika va korreksiya qilishning ilmiy-metodik imkoniyatlarini takomillashtirish», [6] deb nomlangan tadqiqot ishida pedagog shaxsida makiavellizmga moyillikni diagnostika qilish va korreksiya islarini tashkillash hamda ilmiy-metodik imkoniyatlarini takomillashtirish ustida tadqiqot olib borgan.

O.M.Zaripov «Yoshlarni axborot xurujlaridan himoyalanishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari», deb nomlangan ilmiy tadqiqot ishida yoshlarni axborot tahdidlaridan himoyalashda ularning ongi, ruhiy jarayonlari, hissiy emosional holatlari va psixik xususiyatlariga ta'sir ko‘rsatish orqali, psixik xususiyatlar, holatlar va hulq-atvor modelini o‘zgartirish, uni qayta qurish mumkinligini ta'kidlab o‘tgan [7]. Bu asosan psixologik manipulyatsiya bo‘lib, ong ostiga ta'sir qilish bilan bog‘liq xususiyatlar tadqiq etilgan.

Umuman olganda manipulyatsiya hodisasining shakllanishi va rivojlanishi jarayonini kuzatish uchun manipulyatsiya fenomeni bo‘lgan psixologik ta’sir toifasini tekshirish kerak. Bu psixologik ta’sir psixologiyaning amaliy metodologiyasining asosiy tushunchalari qatoriga kiradi. Biroq, bu konsepsiyaning apparati shu kunga qadar ilmiy jihatdan yyetarli darajada o‘rganilmagan.

Manipulyator ta’sir jarayonida o‘zining asl maqsadini yashirishga urinishida manipulyatsiyaning o‘ziga xosligi ko‘zga tashlanadi. Shu sababli manipulyatordan tashqari hamma uchun manipulyatsiya bevosita qarash emas, balki, rekonstruktsiya natijasi, harakatlar talqini bo‘lib chiqadi. Shu bilan bog‘liq tabiiy savol tug‘iladi: manipulyatsiya aslida fenomenli ya’ni hissiy tajribada o‘rganiladigan hodisa, hissiy bilim obyektimi?

Manipulyatsiya mavjudligidan dalolat beruvchi 3 ta axborot manbaaini ajratish mumkin.

1) Manipulyator holati;

2) Manipulyatsiya o‘ljasining holati;

3) Tashqi kuzatuvchi holati;

Oksford lug‘atida manipulyatsiya so‘zini ko‘chma ma’nosi quyidagicha ta’riflanadi: odamlarga ta’sir o‘tkazish yoki ular va narsalarni chaqqonlik bilan boshqarish, ayniqsa, mensimaslik bilan, yashirin boshqarish yoki qayta ishlov berish. Ayni shunday ma’noda siyosiy lug‘atda «manipulyatsiya» so‘zi oldin qo‘llanilgan «makiavellizm» (qo‘pol kuch ishlatib boshqarish) so‘zi o‘rnini bosadi.

Psixologik adabiyotda manipulyatsiya atamasi uch xil ma’noga ega. Birinchisi to‘liq texnikadan olinib, ko‘proq muhandislik psixologiyasi va mehnat psixologiyasida qo‘llaniladi.

Ikkinchi ma’nosi etalogiyadan olinib, hayvonlar tomonidan, ko‘proq oldi oyoqlari va boshqa ta’sirlar yordamida, tabiat komponentlari joyini faol o‘zgartirish (lokamatsiya so‘zining aksi – hayvonlar o‘z tanasining joyini o‘zgartirishi). Ushbu ma’noda qo‘llanilgan manipulyatsiya atamasi psixologik adabiyotda o‘tgan asrning 20-yillaridan o‘rganila boshlangan degan taxmin mavjud bo‘lishi mumkin. O‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab esa «manipulyatsiya» so‘zi politologiyaga oid ishlardan olinib, uchinchi ma’noda, deyarli o‘zgartirishsiz shaxslararo munosabatlarda ham qo‘llanilishni boshladi. Shunday qilib, bu so‘zni qo‘llash jarayoni kengayishi mazkur ish doirasida ko‘riladigan masalalarga yetib keldi. Manipulyatsiya fenomeni obyekti bo‘yicha (subyektlararo hamkorlik) va predmeti bo‘yicha (ta’sir qilish mexanizmlari) bevosita psixologiyani qiziqtirgan muammolar doirasiga kiradi.

Shunday qilib «manipulyatsiya» atamasi bizni qiziqtirgan ma’noda 2 marotaba bir semantik kontekstdan ikkinchisiga olib o‘tiladi. Ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan atama esa metafora (istiora) bo‘ladi.

Manipulyatsiya metaforasi asta-sekin shakllangan. Psixologlar uning rivojlanishidagi muhim bosqich, qo‘llar bilan murakkab asboblarsiz ishlaydigan ko‘zboylog‘ichlarning so‘zi bilan belgilanishi («ko‘zboylog‘ich-manipulyator») deb hisoblashadi[8].

Manipulyatsiya jarayonida insonning shaxsiy tuzilmalariga halokatli ta’sir qiladigan subyekt zararini kamaytirishga urinish orqali inson qarshi faoliyat ko‘rsatadi. Himoya vositalarining mavjudligi, shuningdek manipulyatsiyaning o‘zi haqida quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

a) jabrlanuvchi pozitsiyasidan – manipulyativ ta’sirga biror narsaga qarshi turishga urinishlar haqida;

b) manipulyator pozitsiyasidan – qabul qiluvchining qarshiligi haqida;

c) tashqi kuzatuvchi pozitsiyasidan – manipulyatsiya ta’sirining samaradorligini pasaytirish vositasi sifatida.

Natijalar. Asosan, manipulyatsiya texnologiyasi bilan shug‘ullanishning ikkita eng keng tarqalgan strategiyasini tasavvur qilish mumkin: ta’sirning texnologik elementlarini yo‘q qilishga o‘rgatish va ularni o‘z manfaatlari yo‘lida ishlatish. Birinchi himoya strategiyasi. Adresat manipulyatorning manipulyativ ta’siriga ta’sirni yengillashtirish orqali faoliyat bilan qarshi chiqish mumkin. Bu himoya usuli manipulyatorga qarshi turishning maqbul yo‘llaridan biridir [46, 95]. Ta’sir faktini va manipulyatorning maqsadlarini yashirishdan iborat bo‘lgan ko‘rinmas ta’sirga javoban manipulyatorning niyatlarini, shuningdek, yashirin ta’sirning mavjudligini ochish istagi paydo bo‘ladi.

Har qanday insonning hayoti odam ega bo‘lgan hayotiy tajribada ko‘zga tashlanadi. Psixologiyaning manipulyatsiya yo‘nalishi vakillari (psixoterapevtlar, gipnologlar, ba’zi davlat amaldorlari va

boshqalar) odamlarni boshqarishga imkon beradigan ko‘plab turli texnologiyalardan foydalanadilar. Bu kabi usullarni albatta bilish shart. Bunday manipulyatsiyaga qarshi turish uchun aynan inson psixikasini manipulyatsiya qilish mexanizmlarini bilish, psixikaga (inson ongostiga) yashirin ta’sir qilishlariga qarshi turishga va o‘zini himoya qilishga imkon beradi.

Manipulyatsiya mexanizmi – bu, boshqa odamlarning xatti-harakatlari va fikrlarini boshqarish uchun ishlatiladigan texnikalar va usullar tizimidir. U insonning ongiga va ongostiga ta’sir ko‘rsatishga imkon beradigan psixologik tamoyillar va mexanizmlarga asoslanadi.

Manipulyatsiyaning psixologik mexanizmlari axborotni mavjud psixologik munosabatlarga qarab shaxs tomonidan tanlab idrok etilishidir. Manipulyativ ta’sir tashabbuskori asosan suhbatdoshining u yoki bu ma’lumotni idrok etishga tayyorligini hisobga olgan holda uning ongini chetlab o‘tish orqali xatti-harakatlariga samarali ta’sir ko‘rsatishga intiladi.

Manipulyatsiyaning keng tarqalgan mexanizmi – bu, odamlarni bir-birlariga ma’lumotni og‘zaki ravishda yetkazishlarida axborotning buzilishi hisoblanadi.

Xulosalar. Manipulyativ ta’sirdan himoyalanishning ijtimoiy-psixologik xuxusiyatlari bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar kelindi:

1. Manipulyatsiyaning o‘ziga xos ko‘rinishi suhbatdoshda qadriyat sifatida emas, balki, qoida tariqasida, manipulyatorning yashirin maqsadlariga erishish yo‘lidagi muloqot qilish vositasi bo‘lib, bunda manfaat, iroda va adresatning xohish-istaklarini hisobga olmasdan, manfaatlar amalga oshiriladi va manipulyator o‘z ehtiyojlarini qondirilishga urinadi.

2. Psixologik himoyaning mohiyati va uning asosiy mexanizmlarining asosini odamga salbiy his-tuyg‘ular tufayli yuzaga keladigan psixologik noqulaylikdan xalos bo‘lishga imkon beradigan turli xil usullar tashkil etadi. Buning oqibatida asabiy holatlardan qutqarish hamda har qanday vaziyatda aqliy muvozanatni saqlashga imkon beruvchi ehtiyojlar majmuasidan iboratdir.

3. Ijtimoiy munosabatlarda subyektning o‘z-o‘zini baholashida ijtimoiy hayotda yetakchi mavqega ega bo‘lish istagining namoyon bo‘lishi, ya’ni dominant xulqning mavjudligi o‘z isbotini topdi.

4. Manipulyatsiya jarayonida gender farqlar aniqlanib, unga ko‘ra ayollar ekraklarga nisbatan yangi sharoitga moslashuvchan, noqulay holatlarga chidamli, kuchliroq ekanligi, erkaklarda esa ushbu holatlarda sharoitni o‘ziga moslashtirishga moyilligi mavjudligi aniqlandi. An’anaviy domimant xulqli erkaklar tashqi ko‘rinishlari, xatti-harakatlari, imo-ishoralaridan va shaxslararo munosabatlarga kirishishidan ajralib turishi, qadriyatlarning atipik ierarxiyasiga ega bo'lgan ayollarda esa, manipulyativ ta’sirning «tabiiy dominant» yoki «shartli dominant» darajalarida namoyon bo‘lishi dalillandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Доценко. — М.: ЧеРо — Издательство МГУ, 1997. — 344 с.
2. Дьюи, Д. Общество и его проблемы Текст. / Д. Дьюи. М., 2002. – 160 ст.
3. Беленький, В. Х. Социальные иллюзии: опыт анализа Текст. / В. Х. Беленький // Социс. 2001. – № 5 – 110 ст.
4. Қодиров.У.Д. Ёшларни деструктив ғоялар таъсиридан ҳимоялашнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари. (DSc). 19.00.05. Тошкент – 2019. 72 б.
5. Мустафаева Ш.Ф. Психические особенности манипулятивного воздействия в деструктивных культовых организациях. Номзод. 19.00.05. Тошкент. 2012. – 170 ст
6. Saipova M.L. Pedagog shaxsida makiavellizmga moyillikni diagnostika va korreksiya qilishning ilmiy-metodik imkoniyatlarini takomillashtirish. (PhD). 19.00.06. Тошкент. 2018. – 152 б.
7. Зарипов О.М. Ёшларни ахборот хуружларидан ҳимояланишнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари. (PhD). 19.00.05. Тошкент. 2022. – 142 б.
8. Войтасик, Л. Психология политической пропаганды Текст. / Л1. Войтасик. М.: Прогресс, 1981. – 223 ст.

Soliyev Mirzoxid Tursunxo‘jayevich
Andijon davlat universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

BOLALARDA KITOBXONLIK XUSUSIYATINING ILMIY TADQIQI: XORIJIY VA O‘ZBEK YONDASHUVLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bolalarda kitobxonlik xususiyatining shakllanishi va uni rivojlantirish muammosi zamirida yotgan psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillar ilmiy tahlil qilinadi. Xususan, xorijiy tadqiqotchilar tomonidan kitobxonlikni bolalar tafakkurini, emotsional dunyosini va ijtimoiy moslashuvchanligini rivojlantiruvchi muhim vosita sifatida o‘rganish tendensiyalari yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekistonlik olimlar — pedagoglar va psixologlarlarning bu boradagi yondashuvlari tahlil qilinib, milliy va xalqaro ilmiy qarashlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar hamda farqli jihatlar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari asosida ushbu muammoning samarali yechimiga doir ilmiy-amaliy takliflar keltiriladi*

Kalit so‘zlar: *kichik maktab yoshi, kitobxonlik, o‘quv faoliyati, motivatsiya, psixik rivojlanish, mantiqiy fikrlash, yosh xususiyatlari, empatiya, ijtimoiy rivojlanish, kognitiv va emotsional rivojlanish.*

НАУЧНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ АКТИВНОСТИ У ДЕТЕЙ: ЗАРУБЕЖНЫЕ И УЗБЕКСКИЕ ПОДХОДЫ

Аннотация. *В данной статье проводится научный анализ психологических, педагогических и социальных факторов, лежащих в основе формирования и развития читательских качеств у детей. В частности, освещаются современные тенденции в зарубежных исследованиях, рассматривающих чтение как важное средство развития мышления, эмоционального мира и социальной адаптации ребёнка. Также анализируются подходы узбекских учёных — педагогов и психологов к данной проблеме, выявляются сходства и различия между национальными и международными научными взглядами. На основе результатов исследования представлены научно-практические предложения по эффективному решению обозначенной проблемы.*

Ключевые слова: *младший школьный возраст, читательская активность, учебная деятельность, мотивация, психическое развитие, логическое мышление, возрастные особенности, эмпатия, социальное развитие, когнитивное и эмоциональное развитие.*

SCIENTIFIC STUDY OF CHILDREN'S READING ACTIVITY: FOREIGN AND UZBEK APPROACHES

Annotation. *This article presents a scientific analysis of the psychological, pedagogical, and social factors underlying the formation and development of reading qualities in children. In particular, it highlights current trends in foreign research that view reading as a key tool for developing children’s thinking, emotional sphere, and social adaptability. The article also examines the approaches of Uzbek scholars—educators and psychologists—to this issue, identifying both similarities and differences between national and international scientific perspectives. Based on the findings, the article offers scientific and practical recommendations for addressing the identified problem effectively.*

Keywords: *primary school age, reading activity, learning process, motivation, mental development, logical thinking, age-related characteristics, empathy, social development, cognitive and emotional growth.*

Kichik maktab yoshi o‘quvchilarida kitobxonlikni rivojlantirish zamonaviy ta’lim va psixologiya fanidagi dolzarb ilmiy-psixologik muammodir. Kitob o‘qish bolalarning bilim doirasini

kengaytirish bilan birga, fikrlash madaniyati, nutq boyligi, tasavvur, emotsional sezgirlik va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi muhim psixologik-pedagogik vositadir. Erta yoshda shakllangan kitobxonlik madaniyati o‘quvchilarning o‘quv faoliyati, shaxsiy rivojlanishi va jamiyatdagi faolligini belgilovchi asosiy omildir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2019-yil 7-iyun – PQ-4354 sonli “Aholiga axborot-kutubxona xizmatini takomillashtirish to‘g‘risida” gi qarorlari, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi 781-sonli “2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qaror hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Kichik maktab yoshi (7–11 yosh) bolaning psixik rivojlanishidagi muhim senzitiv davrdir. Bu bosqichda asab tizimi barqarorlashadi, ongli bilim olish ehtiyoji kuchayadi, maktab darslari orqali mantiqiy fikrlash, mustaqil o‘rganish va axborot bilan ishlash ko‘nikmalari shakllanadi. Xotira, diqqat, tasavvur, emotsional idrok va muloqot malakalari jadal rivojlanib, kitob o‘qish jarayoni orqali yanada mustahkamlanadi [1].

Kichik maktab yoshidagi (7–11 yosh) o‘quvchilarning tasavvuri keng va xilma-xil bo‘lib, bu ularning ertak va hikoyalar yaratish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘qish jarayoni idrok, xotira va xayolga asoslanib, materialni chuqur o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Bu davrda tasavvur mazmuni boyiydi, mantiqiy fikrlash, nutq va axloqiy xatti-harakatlar shakllanadi. O‘quv faoliyati bolalarda bilimga qiziqish, o‘z-o‘zini boshqarish va faoliyatni tashkil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. I–IV sinflarda axloqiy ong va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ortadi. Intellektual va axloqiy hislar — o‘rtoqlik, do‘stlik, vatanparvarlik, vijdon — jamoaviy faoliyat, o‘qish mazmuni va o‘qituvchining shaxsiy namunasi orqali shakllanadi [2].

Zamonaviy xalqaro ilmiy-amaliy manbaalarda kitobxonlik tushunchasiga keng qamrovli yondashuv kuzatiladi. Xususan, UNESCO kitobxonlikni insonning yozma va bosma matnlarni o‘qish, tushunish, izohlash, yaratish, ifodalash va ulardan turli kontekstlarda foydalanish qobiliyati sifatida talqin etadi. Bu malaka shaxsning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, jamiyatda faol ishtirok etishi va umrbod ta’lim olish imkoniyatini ta’minlaydi [3].

ILA (Xalqaro Kitobxonlik Assotsiatsiyasi) esa kitobxonlikni o‘quvchi, matn va o‘qish holati o‘rtasidagi dinamik o‘zaro ta’sir orqali ma’no hosil qilish jarayoni deb ta’riflaydi. Bu yondashuv kitobxonlikni ko‘plab kognitiv jarayonlarning uyg‘unligiga asoslangan murakkab faoliyat sifatida tushuntiradi [4].

Amerikalik olim K.E. Stanovich kitobxonlikni inson tafakkurining rivojlanishiga bevosita ta’sir qiluvchi vosita deb hisoblab, uni “bilimning akkumulyatori” sifatida baholaydi. Uning fikricha, kitob o‘qish orqali inson yangi tushunchalar bilan tanishadi, ularni mavjud bilimlari bilan bog‘laydi va shaxsiy bilimlar tizimini kengaytiradi [5].

Kitobxonlik bo‘yicha o‘zbek olimlaridan N.G‘.Jo‘rayev “Kitobxonlik — bu o‘quvchining o‘qilgan matndan axborot olish, uni anglash va mustaqil xulosa chiqarish asosida fikr yurita olish faoliyatidir” deb fikr bildirib, kitobxonlikni mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish bilan bog‘lagan bo‘lsa, yana bir o‘zbek olimasi Z.T.Nishanova esa “Kitobxonlik — bolalarning emotsional-tafakkuriy faoliyatini harakatga keltiruvchi, ularning ijodiy fikrlashi, fantaziyasi va ruhiy dunyosini boyitishga xizmat qiluvchi omildir” deb ta’rib bergan, ya’ni yuqoridagi olimlarning fikrlaridan farqli ravishda kitobxonlikni ijodiy fikrlash va ruhiy o‘sishga sabab bo‘ladigan psixologik omil sifatida baholagan [6, 7].

Kitobxonlik muammosini sharq allomalaridan Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Donish, Alisher Navoiy, ma’rifatparvar shaxslardan Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov va boshqalarning asarlarida bolalarda kitob o‘qishga qiziqishni rivojlantirish zarurati bo‘yicha ilg’or

fikrlar berilgan. Zamonaviy tadqiqotchilardan D.U.Abdullayeva, N.B.Atabayeva, M.P.Babaxanova, E.G‘.G‘oziyev, N.D.Karimova, Z.S.Karimova, S.I.Kambarova, Ch.X.Mirxoliqova, A.G.Mirzayeva, D.M.Malikova, B.U.Mingbayeva, D.A.Muminova, Z.T.Nishanova, Yo.Qayumxo‘jayeva, S.S.Rahmonov, M.B.Saidmurodova, A.N.To‘xtayeva, M.Tursunova, A.X.Xo‘jayev, D.I.Xudoyqulov va boshqalarning tadqiqotlarida bolalik va o‘smirlik davrida kitob o‘qishga qiziqishni rivojlantirish muhimligi ko’rsatib berilgan.

Mustaqil Davlat Xamdo‘stligi olimlaridan A.A.Abdulina, T.V.Axutina, N.A.Bagdasarova, V.A.Barodina, O.V.Djeleley, P.Y.Galperin, Ye.L.Grigorenko, N.Ye.Yegorova, G.K.Kaliyeva, A.A.Leontyev, G.Maransman, T.A.Razuvayeva, L.S.Rubenshteyn, N.N.Svetlovskaya va boshqalar tomonidan kitob o‘qishga qiziqish masalalari tadqiq etilgan.

Xorij olimlariidan M. Banaka, A.G. Bus, Ann E. Kanningem, P. Kachmarek, Yu. Nakamura, A.D. Pellegrini, L. Prizeman, K.E. Stanovich, Yu.N. Drescher, O.V. Dzhedzheley, Dj. Dunn, Marinus X. van Eyzendorn va boshqalar tomonidan kitobxonlikga doir masalalar ilmiy tadqiq etilgan.

Xalqaro miqyosda kitobxonlik nafaqat savodxonlikni rivojlantirish, balki barkamol shaxsni tarbiyalashning integrativ omili sifatida qaralmoqda. OECD tomonidan o‘tkazilgan PISA tadqiqotlari o‘qish savodxonligi yuqori bo‘lgan davlatlarda ta’lim sifati bilan birga yoshlarning ijtimoiy integratsiyasi va shaxslararo munosabatlari ham yuqori ekanini ko‘rsatgan. O‘qishga ijobiy munosabat esa bolalarda empatiya, hamdardlik va muloqot ko‘nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [8].

Zigmund Freyd asos solgan psixoanaliz yo‘nalishi kitobxonlikni bolaning ongli va ongsiz psixologik jarayonlari bilan bog‘laydi. Freyd nazariyasiga ko‘ra, kichik maktab yoshidagi bolalar kitobxonlik orqali ichki emotsional konfliktlarini, masalan, qo‘rquv yoki xavotirni ramziy tarzda ifodalaydi, bu esa psixologik barqarorlikka xizmat qiladi [9]. Freydning shogirdi Karl Yung analitik psixologiyada kitobxonlikni bolaning o‘z-o‘zini anglash jarayonining muhim elementi deb hisoblab, ertaklar va afsonalardagi arxetiplar bolalarda shaxsiy o‘ziga xoslik va maqsadlilikni shakllantirishga yordam beradi, deb ta’kidlaydi [10]. Neopsixoanalist Karen Xorni kitobxonlikni bolaning ijtimoiy muhitga moslashishi va o‘zini qabul qilishi jarayonida muhim vosita sifatida ko‘radi, chunki o‘qish bolalarda ichki xavfsizlik va o‘ziga ishonch hissini rivojlantiradi [11].

Xorijiy tadqiqotlarda, masalan, Bruno Bettelxaym (1976) o‘zining “The Uses of Enchantment” asarida ertaklar orqali kitobxonlik bolalarda psixologik konfliktlarni hal qilishga yordam beradi, deb yozadi. U kichik maktab yoshi bolalarning ertaklar orqali o‘zlarining ongsiz qo‘rquvlarini yengib o‘tishini va emotsional muvozanatni topishini ta’kidlaydi [12].

Shu bilan birga, so‘nggi tadqiqotlarda Nikolopulu va boshqalar (2015) psixoanalitik yondashuvga asoslanib, kitobxonlikning bolalarda emotsional regulyatsiya va ichki dunyoning ramziy ifodalanishini rivojlantirishini tasdiqlaydi. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, hikoyalar orqali bolalar o‘zlarining ijtimoiy va psixologik tajribalarini tushunish va ifodalash qobiliyatini oshiradi [13].

Geshtalt psixologiyasi vakillari — Maks Vertxaymer, Kurt Koffka va Volfgang Keler tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvga ko‘ra, kitobxonlik yaxlit idrok jarayonidir. Kichik maktab yoshidagi bolalar matnni alohida so‘z yoki gaplar emas, balki umumiy hikoya sifatida qabul qiladi, bu esa ularning tasavvur, obrazli tafakkur va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi [14].

Xorijiy tadqiqotlarda Piaje (1969) geshtalt tamoyillariga asoslanib, kitobxonlikning kichik maktab yoshi bolalarda mantiqiy operatsiyalar va tasviriy tafakkurni rivojlantirishini ta’kidlaydi. U o‘qish jarayonida bolaning yaxlit idrok qilish qobiliyati hikoyaning mazmunini tushunishda muhim rol o‘ynaydi, deb hisoblaydi. So‘nggi tadqiqotlarda, masalan, Mar va Oatley (2008) geshtalt psixologiyasi asosida kitobxonlikning bolalarda narrativ tushunish va ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishini ko‘rsatadi. Ularning tadqiqotlari shuni tasdiqlaydi ki, kichik maktab yoshi bolalar hikoyalar orqali kompleks tasavvurlarni shakllantirib, o‘zlarining kognitiv moslashuvchanligini oshiradi [15].

Xorijiy tadqiqotlar kitobxonlikning kognitiv rivojlanishga ta’sirini keng o‘rgangan. Ann E. Kanningem va K.E. Stanovichning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, muntazam kitob o‘qigan bolalarda so‘z boyligi, o‘qishni tushunish qobiliyati va umumiy intellektual rivojlanish sezilarli darajada yuqori bo‘ladi [16] Rayan va Dasi tomonidan 1997-yilda o‘tkazilgan longitudinal tadqiqotda erta yoshda

kitob o‘qigan bolalar 10 yil o‘tib, o‘qish qobiliyati va akademik yutuqlarda tengdoshlaridan ustun bo‘lgani aniqlangan. Tadqiqot kitobxonlikning kognitiv rivojlanishga uzluksiz va kuchayib boruvchi ta’sirini ko‘rsatdi. Jumladan, 6 yoshda kitobxonlikni boshlagan bolalarning 16 yoshda IQ darajasi o‘rtacha 10 ballga yuqori bo‘lgan. [17]. Bu natija kitobxonlikning bolalar intellektual rivojlanishidagi uzoq muddatli ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi.

Xorijiy tadqiqotlar kitobxonlikning miya faoliyatiga ta’sirini ham o‘rgangan. Neyropsixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kitob o‘qish miyaning prefrontal korteksini faollashtiradi, bu esa qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi [18]. Prefrontal korteks yuqori darajadagi kognitiv funksiyalar — diqqat, rejalashtirish, o‘rganish va qaror qabul qilish uchun mas’ul miya sohasidir. Kitob o‘qish bu hududni faollashtirib, bolalarga murakkab vaziyatlarga moslashish va muammolarni hal qilishni o‘rgatadi. Shuningdek, hikoyalarni tahlil qilish orqali tasavvur, sabab-oqibatni tushunish va qaror qabul qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

So‘nggi 30 yilda Rossiyalik psixologlar kitobxonlikni bolalarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil sifatida o‘rganib kelmoqda. Jumladan, Anna Matveeva kichik maktab yoshidagi bolalarda o‘qishning kognitiv jarayonlarga ta’sirini tadqiq qilgan. Uning 2001-yilgi dissertatsiyasi “O‘qish kichik maktab yoshi bolalarning kognitiv rivojlanish omili sifatida” nomi bilan tanilgan. U muntazam o‘qish xotira, diqqat, mantiqiy tafakkur va narrativ tushunishni rivojlantirishini aniqlagan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kitobxonlik semantik xotirani mustahkamlab, kognitiv moslashuvchanlikni oshiradi [19].

O‘zbekistonlik, shu jumladan, Markaziy Osiyolik buyuk allomalar ijodi, o‘quvchilarda kitobxonlik xususiyatlarini shakllantirishda katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu mutafakkirlar o‘z davrida ilmga, kitobga, o‘qishga bo‘lgan yondashuv bilan zamonaviy metodik qarashlarga mustahkam poydevor bo‘la oldilar. Bugungi kunda ularning fikrlari zamonaviy pedagogik, psixologik tadqiqotlar bilan uyg‘unlashgan holda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Abu Nasr Forobiy o‘z asarlarida ilm-fan va kitobning inson kamolotidagi o‘rnini juda yuqori baholagan. Uning fikricha, kitob va ilm insonni nafaqat dunyoviy bilimlarga, balki ma’naviy mukammallikka olib boradi. Forobiyning "Aqliy fazilatlar haqida" asarida kitobxonlikning inson tafakkuri va aqliy rivojlanishidagi o‘rni aniq ko‘rsatilgan. Kitob o‘qish, uning fikricha, nafaqat ma’lumot olishning, balki ongni tarbiyalashning ham muhim vositasidir.

Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Hindiston”, “Osor ul-boqiya” kabi asarlarida kitob o‘qishning nafaqat ilmiy bilimlarni o‘rganish, balki boshqa xalqlarning madaniyatini, tarixini va ilm-fanini chuqur tahlil qilishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlagan. Beruniy kitobni inson tafakkurini kengaytirish, uni tanqidiy va izlanishli fikrlashga undovchi asosiy vosita sifatida ko‘rgan. Uning fikricha, kitob o‘qishning o‘zi bilim olish bilan cheklanmaydi, balki bu jarayon insonni tanqidiy fikr yuritishga, o‘rganilayotgan materialni baholashga, uning ichki mohiyatini ochib berishga undaydi.

Ibn Sino nafaqat tibbiyot sohasida, balki pedagogika va psixologiya ilmida ham beqiyos iz qoldirgan buyuk mutafakkir va olimdir. U o‘zining “Donishnoma” va “Kitob ush-shifo” kabi asarlarida kitobning inson ruhiy va jismoniy salomatligiga ta’sirini alohida ta’kidlagan. Ibn Sino uchun kitob nafaqat bilim olish, balki insonning psixologik va jismoniy holatini yaxshilashda muhim vosita hisoblangan.

A.X. Xo‘jayev 1960–1970-yillardagi tadqiqotlarida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘qish savodxonligini shakllantirishning psixologik asoslarini chuqur tahlil qilgan. Unga ko‘ra, o‘qish faqat savodxonlikni emas, balki bolalarning tafakkuri, diqqatini jamlash va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Olim kitobxonlik orqali ona tiliga ijobiy munosabat, milliy qadriyatlarga hurmat va adabiy tafakkurni shakllantirish zarurligini asoslab bergan [20].

S.S. Rahmonov 1975-yilda chop etilgan “Bolalar psixologiyasi va kitobxonlik” asarida kitob o‘qishning bolalar psixik rivojlanishiga ta’sirini har tomonlama yoritgan. Unga ko‘ra, o‘qish faqat bilim va xotirani emas, balki bolalarning mantiqiy tafakkuri, estetik didi va psixologik holatini shakllantiradi. Olim yosh xususiyatlariga mos o‘quv materiallaridan foydalanish zarurligini ta’kidlagan hamda ertak va hikoyalar orqali axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar samarali singdirilishini asoslagan. [21].

Tadqiqotchi N.D. Karimova o‘zining ilmiy izlanishlarida maktab muhitida kitobxonlikni targ‘ib etishga qaratilgan maxsus dasturlar, xususan, “kitobxonlik soatlari”ning samaradorligini empirik jihatdan o‘rgangan. Unga ko‘ra, bu soatlar joriy etilgan ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi va o‘quv faolligi 30% ga oshgan bo‘lib, bu ta’lim sifatiga va intellektual rivojlanishga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatgan [22].

Tadqiqotimizni maqsadi kichik maktab yoshidagi bolalarda kitobxonlik xususiyatini shakllantirishning psixologik jihatlarini empirik jihatdan o‘rganish bo‘lib, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning kitobxonlik darajasi V.A. Barodinoning “Kitob o‘qishga qiziqish formulasi” metodikasi asosida baholandi hamda jins va yosh xususiyatlariga ko‘ra Mann-Uitni bo‘yicha tahlil etildi.

1-jadval

V.A. Barodinoning “Kitob o‘qishga qiziqish formulasi” metodining jinslararo tafovutlarini o’rganish (Mann-Uitni N=301)

Ko‘rsatkichlar	Jinsi	N	O‘rtacha rank	Ranklar yig’indisi	U	p
Boshlovchi	Qiz bola	49	58,28	2855,50	1554,500	,817
	O‘g‘il bola	65	56,92	3699,50		
	Jami	114				
O‘rtacha o‘quvchi	Qiz bola	48	47,06	2259,00	1029,000	,831
	O‘g‘il bola	44	45,89	2019,00		
	Jami	92				
Kitobsevar	Qiz bola	38	48,67	1849,50	563,500	,033*
	O‘g‘il bola	34	34,07	1158,50		
	Jami	72				
Haqiqiy kitobxon	Qiz bola	21	11,33	238,00	7,000	,048*
	O‘g‘il bola	2	19,00	38,00		
	Jami	23				

p>0,05, p<0,05*

V.A. Barodinoning “Kitob o‘qishga qiziqish formulasi” metodikasi asosida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari jinslar kesimida kitobxonlik darajalarida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, “kitobsevar” (U=563,5; p<0,05) va “haqiqiy kitobxon” (U=7,000; p=0,048) kategoriyalarida qiz bolalar o‘g‘il bolalarga nisbatan yuqori natijalarni qayd etgan. Bu holat qizlarda emotsional sezuvchanlik, estetik idrok va o‘quv motivatsiyasining erta rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning kitob o‘qishga bo‘lgan barqaror qiziqishini shakllantiradi. Aksincha, “boshlovchi” va “o‘rtacha o‘quvchi” kategoriyalarida esa jinslararo tafovutlar statistik jihatdan ahamiyatli emasligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari pedagog va psixologlar tomonidan individual yondashuvlarni ishlab chiqishda jinsga xos psixologik xususiyatlarni inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi.

2-jadval

V.A. Barodinoning “Kitob o‘qishga qiziqish formulasi” metodining yosh bo‘yicha tafovutlarini o‘rganish (Mann-Uitni N=301)

	Yoshi	N	O‘rtacha rank	Ranklar yig’indisi	U	p
Boshlovchi	9 yosh	56	57,71	3231,50	1612,500	,945

	10 yosh	58	57,30	3323,50		
	Jami	114				
O'rtacha o'quvchi	9 yosh	49	52,30	2562,70	867,500	,040*
	10 yosh	43	42,17	1813,50		
	Jami	92				
Kitobsevar	9 yosh	32	35,59	1139,00	611,000	,732
	10 yosh	40	37,23	1489,00		
	Jami	72				
Haqiqiy kitobxon	9 yosh	15	12,37	185,50	54,500	,719
	10 yosh	8	11,31	90,50		
	Jami	23				

p>0,05, p<0,05*

Tadqiqot natijalari V.A. Barodinoning "Kitob o'qishga qiziqish formulasi" metodikasi asosida 9 va 10 yoshdagi o'quvchilarning kitobxonlik xususiyatlari o'rtasidagi farqlarni aniqlashga qaratildi. Statistik tahlil uchun Mann–Uitni U testi qo'llanildi (N=301). Tahlil natijalariga ko'ra, "Boshlovchi" (U=1612,5; p=0,945), "Kitobsevar" (U=611,0; p=0,732) va "Haqiqiy kitobxon" (U=54,5; p=0,719) kategoriyalarida 9 va 10 yoshli o'quvchilar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi (p > 0,05). Bu holat, o'qishga nisbatan dastlabki munosabatlar va yuqori darajadagi kitobxonlik ko'nikmalarining yoshga bog'liq bo'lmagan barqaror shakllanishini ko'rsatadi. Biroq, "O'rtacha o'quvchi" darajasida yoshlar kesimida ahamyatli tafovut mavjudligi qayd etildi (U=867,5; p=0,040). Ushbu natija, ayniqsa o'qishga nisbatan barqaror lekin hali to'liq shakllanmagan qiziqishga ega o'quvchilar guruhida yosh omili muhim rol o'ynashini anglatadi. Ya'ni, 9 yoshli o'quvchilarda 10 yoshdagilarga nisbatan kitobga o'rta darajadagi munosabat shakllanishi kuchliroq namoyon bo'lmoqda. Bu farq o'quv tajribasi, o'qish odatlari va psixologik yetilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kitobxonlik xususiyatlari, ayniqsa o'rtacha darajada, yoshga bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin, ammo eng yuqori (haqiqiy kitobxon) yoki eng past (boshlovchi) darajalarda yoshlararo tafovutlar kamroq seziladi. Bu esa, o'qish motivatsiyasini rivojlantirishda aynan 9–10 yosh davrida psixopedagogik aralashuvlarning ahamiyatli bo'lishini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, kichik maktab yoshidagi bolalarda kitobxonlik xususiyatlarini shakllantirish ko'p omilli psixologik jarayon bo'lib, bu jarayonda kognitiv salohiyat, emotsional kechinmalar, ichki motivatsiya va ijtimoiy muhit o'zaro uyg'unlikda ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bolalarning kitobga bo'lgan munosabati ularning tafakkur, diqqat, xotira va estetik idrok darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Empirik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning kitobxonlik xususiyatlari jins va yosh omillari bilan farqlanadi. Jumladan, yuqori darajadagi kitobxonlik (kitobsevar va haqiqiy kitobxon) ko'rsatkichlarida qiz bolalar ustunlikka ega bo'lib, bu farq emotsional sezgirlik, til orqali o'zini ifodalash qobiliyati hamda ijtimoiy tarbiya omillari bilan izohlanadi. Yosh kesimida esa "o'rtacha o'quvchi" bosqichida 9 va 10 yoshli o'quvchilar o'rtasida ahamiyatli tafovut aniqlanib, o'qish jarayonining mazmuniy rivojlanishi bosqichma-bosqich kechishini ko'rsatdi.

Bundan tashqari, kitobxonlikni shakllantirishda o'quv motivatsiyasi, qiziqish, oila va maktab muhitining roli, shuningdek, psixodiagnostik metodikalarning to'g'ri tanlanishi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotda V.A. Barodina, N.G. Luskanova, L.Y. Subbotina va Z.T. Nishonova metodikalari asosida o'quvchilarning o'quv motivi, ijodiy yondashuvi va matnga emotsional rezonans darajasi aniqlanib, kitobxonlik xususiyatlarining kompleks psixologik modeli taklif qilindi.

Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan biblioterapiyaga asoslangan rivojlantiruvchi dastur amaliyotda yuqori samaradorlik ko'rsatdi. U kitob o'qishga bo'lgan barqaror qiziqishni shakllantirish, o'quvchilarning tafakkurini chuqurlashtirish, hissiy sezgirligini rivojlantirish va o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim psixopedagogik vosita sifatida namoyon bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press
2. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, Toshkent-2018-yil 282-313 b.
3. UNESCO. (2006). Education for All Global Monitoring Report: Literacy for Life. – Paris: UNESCO Publishing. – 450 p.
4. International Literacy Association (ILA). (2010). Standards for the Preparation of Literacy Professionals 2010. – Newark, DE: ILA. – 32 p.
5. Stanovich, K. E. (2000). Progress in Understanding Reading: Scientific Foundations and New Frontiers. – New York: Guilford Press. – 336 p
6. Jo‘rayev, N. G‘. (2010). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan o‘qish mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi.
7. Nishonova, Z. T. (2018). Kitobxonlik faoliyati orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining emotsional-ijodiy rivojlanishini ta’minlash. Ilmiy maqola. — Ta’lim va rivojlanish psixologiyasi jurnali, 4-son.
8. OECD. (2019). PISA 2018 Results (Volume I): What Students Know and Can Do. Paris: OECD Publishing
9. Freud, S. (1920). A General Introduction to Psychoanalysis. New York: Boni & Liveright
10. Jung, C. G. (1964). Man and His Symbols. New York: Doubleday.
11. Horney, K. (1945). Our Inner Conflicts: A Constructive Theory of Neurosis. New York: W.W. Norton & Company.
12. Bettelheim, B. (1976). The Uses of Enchantment: The Meaning and Importance of Fairy Tales. New York: Knopf.
13. Nicolopoulou, A., Cortina, K. S., Ilgaz, H., Cates, C. B., & de Sá, A. B. (2015). Using a narrative- and play-based activity to promote low-income preschoolers’ oral language, emergent literacy, and social competence. Early Childhood Research Quarterly, 31, 147–162
14. Köhler, W. (1947). Gestalt Psychology: An Introduction to New Concepts in Modern Psychology. New York: Liveright.
15. Mar, R. A., & Oatley, K. (2008). The function of fiction is the abstraction and simulation of social experience. Perspectives on Psychological Science, 3(3), 173–192.
16. Kunningham, A. E., & Stanovich, K. E. (1997). Early Reading Acquisition and Its Relation to Reading Experience and Ability 10 Years Later. Developmental Psychology, 33(6), 934-945.
17. Stanovich, K. E. (2000). Progress in Understanding Reading. New York: Guilford Press.
18. Berns, G. S., et al. (2013). Short- and Long-Term Effects of a Novel on Connectivity in the Brain. Brain Connectivity, 3(6), 590-600.
19. Matveeva, A. V. (2001). Чтение как фактор когнитивного развития младших школьников [O‘qish kichik maktab yoshi bolalarning kognitiv rivojlanish omili sifatida]. Dissertatsiya, Rossiya Psixologiya Instituti, Moskva.
20. Xo‘jayev, A. X. (1967). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish malakasini shakllantirish. Toshkent: O‘qituvchi.
21. Rahmonov, S. S. (1975). Bola psixologiyasi va kitobxonlik. Toshkent: Fan.
22. Karimova, D. (2017). Kitobxonlik soatlari va uning samarasi. Psixologiya va Pedagogika, 3(10), 56-62

Usmonova Dilnoza Bahodir qizi
Buxoro xalqaro universiteti tadqiqotchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARI FAOLIYATIDA SHAXS TIPLARI VA SOTSIAL INTELLEKT O‘RTASIDAGI KORRELYATSION MUNOSABATLARNING NAMOYON ETILISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyatida shaxs tiplari bilan ularning sosial intellekti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar tahlil qilinadi. Tadqiqotda pedagogik faoliyat samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida ekstravert va introvert shaxs tiplarining kommunikativ ko‘nikmalarga, empatiya darajasiga va ijtimoiy muhitda muomala madaniyatiga ta’siri baholanadi. Shuningdek, sosial intellekt darajasi o‘qituvchining kasbiy muvaffaqiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi statistik usullar asosida o‘rganiladi. Maqola yakunida, ushbu omillar o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlikning ijobiy yo‘nalganligi aniqlanadi va amaliy tavsiyalar keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, shaxs tipi, sosial intellekt, ekstraversiya, introversiya, korrelyatsiya, empatiya, kommunikatsiya*

ПРОЯВЛЕНИЕ КОРРЕЛЯЦИОННЫХ СВЯЗЕЙ МЕЖДУ ТИПАМИ ЛИЧНОСТИ И СОЦИАЛЬНЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В данной статье рассматривается взаимосвязь между типами личности и уровнем социального интеллекта у учителей начальных классов. В исследовании анализируется влияние экстравертных и интровертных черт на коммуникативные навыки, уровень эмпатии и культуру общения в социальной среде. Также изучается, как уровень социального интеллекта влияет на профессиональную успешность педагога с использованием статистических методов. В заключении делается вывод о положительной корреляционной связи между изучаемыми факторами и приводятся практические рекомендации.*

Ключевые слова:*учитель начальных классов, тип личности, социальный интеллект, экстраверсия, интроверсия, корреляция, эмпатия, коммуникация*

MANIFESTATION OF CORRELATIONAL RELATIONSHIPS BETWEEN PERSONALITY TYPES AND SOCIAL INTELLIGENCE IN THE ACTIVITIES OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Abstract. *This article examines the correlation between personality types and social intelligence among primary school teachers. The study evaluates how traits such as extraversion and introversion influence communication skills, empathy levels, and social interaction culture. Furthermore, it analyzes the impact of social intelligence on teachers’ professional success using statistical tools. The findings reveal a positive correlation between the examined variables, and the article concludes with practical recommendations for educational practice.*

Keywords: *primary school teacher, personality type, social intelligence, extraversion, introversion, correlation, empathy, communication*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatiga qo‘yiladigan talablar uning ham kasbiy, ham shaxsiy kamoloti bilan bog‘liq masalalarni o‘z ichida qamrab olgandir. Shu boisdan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatining individual-psixologik va ijtimoiy-psixologik komponentlari rolini to‘g‘ri belgilay olish uning kasbiy kamoloti muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda ushbu muammolarini psixologik tadqiq etish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatining turli jabhalarini o‘rganishga erishganligini ko‘rsatsa-da,

ammo uning ijtimoiy-psixologik jihatlarini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmasligini ham tasdiqlamoqda.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy faoliyatiga tayyorligi uning shaxsiy-kasbiy kamoloti shaxsiy fazilatlari, intellektual imkoniyatlari va ijtimoiy-psixologik omillarga bog'liqligi qayd etiladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilimdon, o'z sohasini chuqur bilishi, psixologik mahoratga ega bo'lishi, o'z o'quvchisiga ta'sir ko'rsata olishini belgilovchi yetakchi xususiyat va omillarning o'rni ko'pincha e'tibordan chetda qolib ketayotgandek. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z sohasini yaxshi bilsa-da, ammo ta'sir o'tkaza olmasligi, atrofidagilarga shaxs sifatida ta'sir ko'rsata olmasligi kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlashni kafolatlay olmaydi. Bu esa, o'z navbatida kasbiy faoliyatda bir qancha psixologik to'siqlarga olib keladi. Ushbu o'rinda boshlang'ich sinf o'qituvchisining shaxsga ta'sirini belgilovchi omillar sirasiga kiruvchi psixologik jabha borki, bu shaxslararo munosabatni ta'minlashga xizmat qiluvchi, insonlar o'rtasida erkin va samimiy munosabat muhitini ta'minlashga, o'rtoqlari, ish o'rni hamkasblari, ish faoliyatida mijozlari bilan muvaffaqiyatli muomala muhitini yaratishga xizmat qiluvchi sotsial intellektning darajasi muhim degan xulosaga kelinmoqda. Bundan ko'rinadiki, shaxsning aqliy qobiliyatlari, zehnini xarakterlovchi intellekt darajasi bilan bevosita raqobatlashadigan, insonni ijtimoiy fazilatlarini shakllanishida muhim o'rin tutadigan shaxslararo munosabat, o'zaro hurmat, empatiya, o'zga insonlarning kechinmalarini o'qiy oladigan, ishonch va tuyg'ularini tushuna oladigan sotsial intellekt muammosini boshlang'ich sinf o'qituvchisi misolida o'rganish muhimdir.

Sotsial intellektni rivojlanishining asosiy omillaridan biri shaxs tiplari ekanligini nazardan qochirmagan holda, biz tadqiqotimizda aynan shaxs tiplarini o'rganishga qaror qildik. Ilmiy adabiyotlarda shaxs tiplarini aniqlashga qaratilgan juda ko'p usullar, testlar qayd etilgan. Biz shular ichidan barchaga ma'lum va mashhur ingliz psixologi G.Yu. Ayzenk testi imkoniyatlaridan foydalanishni lozim topdik.

Mazkur usul G.Ayzenkning individual-tipologik xususiyatlarini aniqlash testi majmuasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda shaxs «ekstroversiya», «introversiya», «neyrotizm» shkalalaridagi ko'rsatkichlar yordamida tadqiq qilinadi. Bu esa o'qituvchilarni sotsial intellekti uchun xarakterli jihatlarni o'rganish imkonini beradi. I.P. Pavlov va K. Yung qarashlarini umumlashtirib, G. Ayzenk ikki parametrli yo'nalish chizig'idagi individuallikning «ekstroversiya» (tashqi), «introversiya» (ichki), «neyrotizm» (asabiylik-hissiy noqat'iylik) – hissiy qat'iylik xususiyatlarining mahsuli sifatida tadqiq qiladi va olingan ma'lumotlarni maxsus kalit sifatida Gippokrat tomonidan nomlangan temperament tiplari chizmasiga joylashtirdi..

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi sotsial intellektini belgilashda shaxslilik tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy faoliyati ma'lum darajadagi shaxslilik xususiyatlari bilan uyg'unlashuvni taqozo etadi.

Ekstroversiya – «ichkaridan tashqariga yo'naltirilgan» degan ma'noni anglatib, bu tipga moyil shaxslar ko'proq odamlar ichida bo'lishni yoqtirishadi,o'z kechinmalarini ko'proq atrofdagilar bilan baham ko'radi. Muloqotga kirishuvchan, tanishlar doirasi keng. Ba'zi hollarda ularda jiddiylik yetishmaydi. Odamlarning tez ishonchini qozona oladi va shuningdek, tez xafa qilishga ham moyil.

Introversiya – «tashqaridan ichkariga yo'naltirilgan» degan ma'noni anglatib, bu tipga xos shaxslar og'ir, vazmin, ko'ngli nozik, beparvo, do'stlik qoidalariga qat'iy amal qiladigan, muloqot doiralar cheklangan, tortinchoq, ko'proq o'zlarining ichki dunyolari bilan band va yolg'izlikni yoqtiradigan. Ta'rifdan ko'rinayaptiki, bu tipga mansub shaxslar sotsial aloqalarda, shaxslararo munosabatni ijobiy tashkil etadigan, ijtimoiy muhitga tez moslasha oladigan insonlar ekanligini payqash mumkin.

Ma'lumotlarning birlamchi qayta ishlanishi

1. Test talablari asosida har bir respondent uchun xarakterli bo'lgan (yoki empirik jihatdan to'plangan) ballar miqdori aniqlanadi.
2. Aniqlangan shartli ballar miqdori test shkalasidagi kalitlar bo'yicha joylashtiriladi.
3. Har bir ob'ekt respondentlaridan olingan ballar miqdori o'rtacha umumiy ko'rsatkichlar majmuasiga birlashtirilib, o'rtacha-umumiy foizlar miqdorining tipik ko'rinishlari belgilanadi.

4. Har bir empirik jihatdan o‘rganilgan ob’ektlar uchun xarakterli bo‘lgan oraliq diapazonlari hamda umumiy ko‘rsatkichlar ko‘lami qiyosiy tarzda tahlil qilinadi.

Ma’lumotlarning ikkilamchi qayta ishlanishi

Ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi misolida olingan shaxs tiplari ko‘rsatkichlari maxsus korrelyatsion tahlil talablari asosida qaytadan ko‘rib chiqiladi va maxsus belgilangan jadvallarga kiritiladi.

1. Mavjud empirik ma’lumotlar o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanish natijalari va ma’lumotlarning validligi, ishonchlilik qiymati maxsus qabul qilingan statistik mezonlar yordamida qaytadan ko‘rib chiqiladi. Natijalar SPSS dasturi talablariga mos ravishda taqdim etiladi.

2. Yig‘ilgan keng ko‘lamli ma’lumotlarning matematik-statistik natijalariga tayanib tadqiqot maqsadiga mos umumiy qonuniyatlar aniqlanadi va shu asosda tegishli empirik xulosalar chiqariladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxslik tiplarini aniqlashda G.Yu.Ayzenkning «Ekstroversiya - introversiya va nevrotizmni aniqlash» so‘rovnomasi bo‘yicha olingan empirik ma’lumotlarning statistik qiymatlarini quyidagi («1-jadvalga qarang») jadval asosida talqin qilish mumkin.

1-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari shaxs tiplarining umumiy qiymatlari

	Shkalalar	**X**	**U**
Yu.Ayzenk metodikasi asosida	Ekstrovert	17,63	1,97
	Introvert	11,13	1,59
	Nevrotizm	13,65	1,58
	Soxtalik	3,75	0,98

So‘rovnoma natijalarini amalga qabul qilish uchun respondentlarning javobi xolisligini anglatuvchi «soxtalik» shkalasi ko‘rsatkichlari ham inobatga olindi.

So‘rovnoma talablariga ko‘ra mazkur shkala qiymati test me’yoridagidan kichik, ya’ni me’yorga ko‘ra 5 ball atrofidagi qiymat xolislikka ega. Ushbu shkala natijasi (3,75) tahlil etish vakolatini beradi. Endi asosiy shkalalar tahliliga э’tibor qaratamiz.

Umumiy holatda tahlil qilingan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekstroversiya tipiga mansublar me’yordagi holatda ekan (17,63). Bu boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekstrovertlikka mansublari muloqotmand, insonlar orasida bo‘lishni yoqtiradigan, faol, o‘z tuyg‘ularini ochiq ifoda eta oladi, vaziyatlarga tez moslashuvchan ekanliklaridan dalolat bermoqda. Shuningdek, ushbu tipdagilarning sotsial tajribalarni o‘zlashtirishga xayrixohliklarini so‘rovnomaning natijalaridan bilib olish mumkin. Ushbu natijaga ko‘ra ularning nevrotizm shkalasi qiymati (13,65) shaxsning asab tizimida zo‘riqishlar uchrab turishi va uni boshqarish imkoniyatiga ega ekanliklarini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqotimizda introvert tipiga mansub boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining qiymatlari (11,13) ularning ancha vazmin, asab tizimini boshqarish imkoniyatiga egaliklaridan dalolat beradi. Ammo, bizning maqsadimiz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxslilik tiplarini emas, balki muayyan tipning sotsial intellektni shakllanishidagi ta’sirini aniqlashdan iborat edi. Shuning uchun natijalarni shaxs tipi va sotsial intellekt boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyat turlari asosida yoritiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining sotsial intellektining shaxs tiplari bilan bog‘liqligini quyidagicha izohlaymiz («2-jadvalga qarang»).

2-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining sotsial intellekti bilan shaxs tiplari ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyatsion munosabat

Mezonlar		**Shaxs tiplari**		
		Ekstrovert	**Introvert**	**Nevrotizm**
Sotsial intell	Muloqot ishtirokchisining	0,355*	0,020	-0,582(**)

	hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish			
	Noverbal muloqot harakatlarini tushunish	0,092	0,337*	-0,342*
	Verbal muloqot harakatlarini tushunish	0,323*	0,152	-0,352*
	Shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvni tahlil ətish	0,148	0,182	-0,124

Izoh: * r≤ 0,05, ** r≤ 0,01

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining sotsial intellektiga xos qobiliyatlarda shaxs tipi bilan hosil qilingan salmoqli korrelyatsiya koэffisientlarida quyidagi manzarani o‘zida aks ettirdi, ya’ni muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish ekstrovert boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘zaro bog‘liqlik hosil qila olgan (r=0,355) va bu esa, o‘z navbatida, ularning kasbiy faoliyatida kuzatilishi mumkin bo‘lgan ruhiy buzilishlarni pasayishiga imkon yaratar эkan (r=−0,582). Noverbal muloqot harakatlarini tushunishda introvert boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ektravertlarga qaraganda ancha sezgir va kuzatuvchan bo‘lishlari ehtimoldan xoli эmas. O‘z navbatida ulardagi nevrotizmning pasayishida ham o‘qituvchining kuzatuvchanligi, xatti−harakatlarni, noverbal munosabat usullarini tushunish imkoniyatini keltirib chiqarar ekan (r=−0,342,). Ulardagi verbal muloqot harakatlarini tushunish qobiliyatning mavjudligi va uning rivojlantirilishi esa ekstrovert tipida yaqqolroq aks etishi (r=0,323,) va o‘zini ruhiy jihatdan boshqarish, ortiqcha asabiy buzilishlardan o‘zini xalos etar эkan (r=−0,352).

Olib borilgan tahlillar natijasi bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining sotsial intellekti va shaxs tiplari uyg‘unligi mavjudligini yana bir tasdiqladi. Chunki muayyan maqsadlarga qaratilgan mazkur bog‘liqlikni o‘rganish va tahlil qilish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, bayon etilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari sotsial intellektini rivojlantirishda shaxs tiplarini o‘rni va rolini tadqiq qilish bo‘yicha quyidagilar aniqlandi. Tadqiqotimizda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekstraversiya tipiga mansublar me’yordagi ekanligi, bu tipga mansub boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining muloqotmand, insonlar orasida bo‘lishni yoqtiradigan, faol, o‘z tuyg‘ularini ochiq ifoda eta oladi, vaziyatlarga tez moslashuvchan ekanliklaridan dalolat bermoqda. Shuningdek, ushbu tipdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining sotsial tajribalarni o‘zlashtirishga xayrixohdirlar va ularning faoliyat jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishga, shaxslilik va soцial intellekt o‘rtasidagi uyg‘un rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari shaxsiy va kasbiy faoliyati uyg‘unligining namoyon etilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi sotsial intellekt ko‘rsatkichlariga baho berishda har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining shaxs tiplariini chuqur o‘rganish, tahlil qilish va tegishli empirik xulosalar chiqarish orqali ularni kasbiy faoliyat kompetentligini taminlash mumkinligi yana bir bor o‘z tasdig‘ini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Алимов, Р.Ҳ. Психология асослари. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2018. – 312 б.
2. Абдуллаева, Н.М. Ижтимоий психология. – Тошкент: “Тафаккур”, 2020. – 276 б.
3. Андреева, Г.М. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2014. – 382 с.
4. Goleman, D. Social Intelligence: The New Science of Human Relationships. – New York: Bantam Books, 2006. – 403 p.
5. Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983. – 412 p.
6. Собирова Д.А. Социал интеллект: назария ва амалиёт/ Монография Тошкент.: “Фан”, 2013. – 160 б.

Yoqubova Hayotxon Abduqahhor Qizi
Andijon davlat universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

YOSHLARDA FIDOIYLIK TUSHUNCHASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Yoshlarda fidoyilik tushunchasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish, shuningdek, fidoyilikni shakllantirishga xizmat qiluvchi psixologik omillarni emperik jihatdan asoslash va ularni rivojlantirishga qaratilgan psixologik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.*

Kalit so'zlar: *shaxsning ijtimoiy faolligi va maqsadga yo'naltirilganligi, oilaviy, ta'limiy, axloqiy, madaniy omillar, yoshlar ongidagi qadriyatlar va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОНЦЕПЦИИ СОБЛАЗНЕНИЯ У МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *Цель исследования – выявить факторы, влияющие на формирование социально-психологических особенностей концепции самоотверженности у молодёжи, раскрыть их содержание и сущность, а также эмпирически обосновать психологические факторы, способствующие формированию самоотверженности, и разработать психологические рекомендации, направленные на их развитие.*

Ключевые слова: *социальная активность и целеполагание личности, семья, образовательные, нравственные, культурные факторы, укрепление ценностей и гражданской позиции в сознании молодёжи.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE CONCEPT OF SEDUCTION IN YOUTH

Annotation. *The aim of the study is to identify the factors influencing the formation of the socio-psychological features of the concept of selflessness in young people, to reveal their content and essence, as well as to empirically substantiate the psychological factors that serve to form selflessness and to develop psychological recommendations aimed at their development.*

Keywords: *social activity and goal-orientation of the individual, family, educational, moral, cultural factors, strengthening values and civic position in the minds of young people.*

Hozirgi davrda yoshlarda ijtimoiy voqelikka munosabat shakllanishining psixologik jihatlarini tadqiq etish orqali mamlakatni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy rivojlantirishga qaratilgan tub o'zgarishlarga ijobiy daxldorlik munosabatini shakllantirish dolzarb ijtimoiy-psixologik ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2017 - yildagi 72-sessiyasida BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini qabul qilish tashabbusi ilgari surilishi, 2019-yil 27-dekabr kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan o'tkazgan uchrashuvida "Yangi O'zbekistonni, albatta, yoshlar bilan quramiz. 2020- yil yoshlarga oid davlat siyosatida tub burilish yili bo'ladi",[1] deya ta'kidlashlari tadqiqotimiz dolzarbligiga asos sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston va xalqaro huquqiy manbaalar, shuningdek, ilmiy kitoblar va tadqiqotlar bu yo'nalishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, oilaviy munosabatlarning barqarorligini va farovonligini ta'minlashga yordam beradi. Olib borilgan tadqiqotlar tahliliga ko'ra, bolalarning individual-psixologik xususiyatlariga oila va maktab ta'lim tashkilotidagi ijtimoiy muhit, kattalar bilan o'zaro munosabatlar ta'siri masalalarini maktab ta'limi jarayonida o'rganish va ta'limning keyingi bosqichiga psixologik moslashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda bolalik

davridan boshlab shaxsning ijtimoiy moslashuvi, ayniqsa “kommunikativ axborot almashinuvi”, “ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish” hamda “o‘z-o‘ziga ishonch” kabi psixologik ko‘rsatkichlarni aniqlash va baholashga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Fidoiylik shaxsning o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarga sodiqligi, qiyinchiliklar va sinovlarga qaramay, maqsad sari doimiy intilishi sifatida ham ta’riflanadi. Shu boisdan, fidoiylik - shaxsiy fazilat bo‘lishdan tashqari, ijtimoiy hodisa sifatida ham ko‘riladi, chunki u jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim poydevor hisoblanadi.

Fidoiylikni nafaqat siyosiy yoki harbiy kontekstda, balki madaniy, ma’naviy va hatto kundalik hayotdagi insoniy munosabatlarda ham ko‘rish mumkin. Masalan, oilaviy qadriyatlar, do‘stlik, hamkorlikda fidoiylik muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, fidoiylik - bu insonning o‘z hayoti uchun yuksak ma’naviy maqsadlarni belgilashi va ularni amalga oshirish uchun doimiy kurashishi demakdir.

Falsafa nuqtai nazaridan, fidoiylikning asosiy jihatlaridan biri - bu insonning axloqiy majburiyatlarni bajarishda erkin irodasi va ongli tanlovi. Shu boisdan, fidoiylikni shunchaki tashqi majburiyat yoki majburlash sifatida emas, balki shaxsning axloqiy ideal va qadriyatlariga bo‘lgan sadoqati sifatida ko‘rish zarur.

Shuningdek, falsafiy yondashuvlarda fidoiylik “axloqiy erkinlik” va “o‘zlikni anglash” bilan bog‘liq tushunchalar doirasida tahlil qilinadi. Falsafiy antropologiyada insonning o‘zini o‘zi anglab, ma’naviy mukammallikka intilishi, shu jumladan boshqalarga yordam berish, jamiyatga xizmat qilish kabi fidoyilikning ko‘rinishlari muhim o‘rin tutadi.

Falsafa sohasida fidoiylik ko‘pincha axloqiy majburiyat va erkinlik muvozanatida ko‘riladi. Inson o‘z irodasi bilan o‘z manfaatlarini emas, balki ma’lum bir axloqiy prinsip yoki maqsadni ustun qo‘yadi. Shu nuqtai nazardan, fidoiylik - bu shaxsning axloqiy erkinligini amalga oshirish va o‘z majburiyatlarini ongli ravishda bajarishidir.

Falsafiy antropologiyada fidoiylik insonning o‘zligini anglash, shaxsiy ma’naviy mukammallikka intilishi bilan bog‘lanadi. Shaxs o‘zining yagona va noyobligini, shu bilan birga jamiyatga bo‘lgan majburiyatlarini anglab, o‘zini ma’lum bir g‘oya yoki maqsad uchun bag‘ishlaydi.

Hozirgi kunda o‘zbek psixolog olimlaridan V.M. Karimova, G'.T.Jo'rayev, M.A.Nurmatova, Sh.Karimova, E.Musayev, S.Tursunov, D.Nurmatov B.M.Botirov, N.B.Atabayeva kabi olimlar yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammoli masalalarini tadqiq etganlar. So‘ngi yillarda o‘zbek olimlaridan Sh.H.Abdullayeva, D.Sh.Nasirov, D.B.Norqo‘ziev, M.L.Saipova, N.I.Xalilova, M.X.Fayziyeva, E.M.Muxtorov, K.A.Tillashayxova, A.Y.Gennadevna va boshqalar tomonidan yoshlarning psixologik xususiyatlarini namoyon bo‘lishini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.. Ammo mazkur muammoning yoshlar individual xususiyatlarida, fidoiylikni shakllantirishda oilaning o’ni va axamiyati hamda namoyon bo‘lishining ijtimoiy–psixologik jihatlarini shakllantirishga doir ilmiy jihatdan kam tadqiq etilgan.

MDH psixologlaridan Ananyev B. G., Vigotskiy L. S, Davidov V. V., Lomov B. F., Leontiev A. N., S. L Rubinshteynlarning ilmiy tadqiqotlarida shaxsning yoshga doir psixologik xususiyatlarini aniqlash, bolalarning psixologik o‘zgarishlarining sabab va oqibatlari borasida oilaviy munosabatlar va tarbiya masalalar, oilada fiqoiylik xususiyatlarni shakllantirish masalalar bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xorij tadqiqotchilaridan V.Amen, L.A.Venger, Jo.Godfrua, M.Dorki, G.Eberleyn, J.A.Kelli, K.Levin, K.Rojers, B.Skinner, G.Sallivan, Ch.D.Spil’berger, S.S.Tomkins, R.Tamml, Z.Freyd, E.Fromm, Yu.L.Xanina va boshqalar tomonidan xavotirlanish holatining psixik asoslari ma’lum darajada ilmiy tadqiq etilgan. Tadqiq etilayotgan muammo yuzasidan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yoshlarda fidoiylik xususiyatlani shakllantirish masalasi alohida ijtimoiy psixologik muammo sifatida o‘rganish amalga oshirilmagan.

Zamonaviy tadqiqotlar ham Abraham Maslowning nazariyalarini tasdiqlaydi. Masalan, Deci va Ryanning o‘z-o‘zini aniqlash nazariyasiga ko‘ra, insonning ijtimoiy bog‘liqlik ehtiyoji va sadoqati uning psixologik rivojlanishi va farovonligi uchun muhimdir. Bu esa Abraham Maslowning fidoiylikni ijtimoiy ehtiyojlar orqali tushuntirishiga ilmiy asos beradi.

Abraham Maslowning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasida fidoiylik insonning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishdagi muhim vosita sifatida ko‘riladi. U shaxsning guruhga sadoqati, o‘zligini anglash va o‘zini qadrlashining markazida turadi. Shu bilan birga, fidoiylik shaxsning o‘zini amalga oshirish jarayonidagi ichki motivatsiyalaridan kelib chiqib rivojlanadi[2]. Bu yondashuv fidoiylikni psixologik jihatdan chuqur va tizimli tushunish imkonini beradi hamda tadqiqot ishlarida asos sifatida xizmat qiladi.

X

uddi shuningdek, Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi shaxsning hayoti davomida duch keladigan asosiy ijtimoiy va psixologik konfliktlar zanjiridan tashkil topgan. Bu nazariyada yoshlarning o‘z identitetini shakllantirish jarayoni ayniqsa fidoiylikni anglashda muhim o‘rin egallaydi[3].

Eriksonning fikricha, yoshlik davrida shaxs “identitet rolning chalkashligi” bosqichidan o‘tadi, bunda o‘zligini anglash va ijtimoiy rolni qabul qilish masalalari yuzaga keladi. Bu jarayonda fidoiylik shaxsning ijtimoiy guruh va maqsadlarga sodiqligini bildiradi. Fidoiylik - bu yoshlarning o‘zligini aniqlash, ijtimoiy me’yorlarga moslashish va jamiyatga o‘z hissasini qo‘shishga tayyorlikni ifodalaydi. Erikson ta’kidlaydiki, shaxsning fidoiyligi ijtimoiy muhit bilan muvaffaqiyatli integratsiyalashishiga ham bog‘liqdir[4].

Yoshlarning fidoiyligi ularning ijtimoiy sadoqati va ma’naviy qadriyatlariga bo‘lgan sodiqlikni aks ettiradi. Shu tariqa, fidoiylik yoshlarning o‘z identitetlarini barqaror shakllantirishga yordam beradi.

Eriksonning so‘zlariga ko‘ra, “Fidoiylik – bu shaxsning o‘z maqsadlariga va jamiyatga sodiqligi, bu orqali u o‘zining hayotiy yo‘lini topadi”. U fidoiylikni shaxsning ijtimoiy munosabatlarda barqarorlik va ishonch yaratish qobiliyati sifatida ham ko‘radi. Bu ijtimoiy ishonch yoshning ruhiy sog‘lomligi uchun zarur bo‘lib, uning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi[3]. Shunday qilib, fidoiylik yoshlarga o‘ziga xos sodiqlik va mas’uliyatni anglashga, shaxsiy va ijtimoiy majburiyatlarni bajarishga imkon beradi

Tadqiqotimiz uchun ijtimoiy psixologik yondashuvlar fidoiylikni ko‘p qirralik va murakkab psixologik-ijtimoiy fenomen sifatida tushunishga imkon beradi. Bu esa:

- fidoiylikni shaxsning ijtimoiy guruhlardagi o‘rni, guruh sadoqati va ijtimoiy muhitga moslashuvi orqali chuqur tahlil qilish imkonini beradi;
- fidoiylikning shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy psixologik jarayonlarning ahamiyatini yoritadi;
- fidoiylikni ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan o‘rganish ilmiy tadqiqotimizda nazariy asos yaratish va metodologiyani mustahkamlashga xizmat qiladi;
- fidoiylikning ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlarga qanday javob berishini tahlil qilishga yordam beradi.

Ijtimoiy psixologiya nazariyalari fidoiylikni shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, guruh dinamikalari va ijtimoiy bosim kontekstida yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu esa fidoiylikni nafaqat shaxsiy fazilat sifatida, balki murakkab ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilishni ta’minlaydi.

1-jadval

Mann-Uitni bo`yicha Prososial tendensiyalarni o‘lchash metodikasi hududlar boyicha natijalari

Ko`rsatkichlar	hudud	N	O‘rtacha rank	Ranklar summasi	U	P
ochiq yordam	shahar	208	226,88	47190,50	25454,500	,516
	qishloq	253	234,39	59300,50		
	Total	461				
Anonim yordam	shahar	208	199,40	45428,00	23692,000	,012*
	qishloq	253	241,36	61063,00		
	Total	461				
Favqulodda yordam	shahar	208	231,44	48139,50	26220,500	,947

	qishloq	253	230,64	58351,50		
	Total	461				
Emotsional yordam	shahar	208	195,63	47555,50	25819,500	,031*
	qishloq	253	232,95	58935,50		
	Total	461				
So‘rovga binoan yordam	shahar	208	201,34	46039,50	24303,500	,023*
	qishloq	253	238,94	60451,50		
	Total	461				
Altruistik yordam	shahar	208	227,32	47282,00	25546,000	,583
	qishloq	253	234,03	59209,00		
	Total	461				

So‘rovga binoan yordamga tayyorlik shunchaki individual xohish emas, balki u shaxsning ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari, madaniy qadriyatlari va axloqiy me’yorlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu empirik natijalar fidoiylikning muhim shakllaridan biri bo‘lgan yordamga javoban harakat qilish xatti-harakatini shakllantirishda yashash joyining sezilarli o‘rni borligini tasdiqlaydi. Shu sababli, yoshlar orasida so‘rovga binoan yordamga tayyorlikni kuchaytirishga qaratilgan psixotarbiya, trening va ijtimoiy tashabbuslar ishlab chiqilganda, sotsiopsixologik muhitning o‘ziga xos jihatlari albatta inobatga olinishi lozim.

Prososial tendensiyalarni baholash natijalari fidoiylikning xulqiy jihatlarini yoritishga xizmat qilgan bo‘lsa, emotsional intellekt mezoni orqali bu sifatning hissiy va kognitiv omillar bilan qanday bog‘liqligi o‘rganildi. Shu maqsadda navbatdagi bosqichda E.D. Lusin tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt so‘rovnomasi qo‘llanildi.

2-jadval

Mann-Uitni bo`yicha E.D. Lusin Emotsional intellekt so‘rovnomasi hududlar boyicha natijalari

Ko`rsatkichlar	hudud	N	O‘rtacha rank	Ranklar summasi	U	P
Boshqa odamlarning emotsiyalarini tushunish	shahar	208	213,69	44448,00	22712,000	,011*
	qishloq	253	245,23	62043,00		
	Total	461				
Boshqa odamlarning emotsiyalarini boshqarish	shahar	208	227,25	47267,00	25531,000	,582
	qishloq	253	234,09	59224,00		
	Total	461				
O’z emotsiyalarini tushunish	shahar	208	230,89	48026,00	26290,000	,988
	qishloq	253	231,09	58465,00		
	Total	461				
O’z emotsiyalarini boshqarish	shahar	208	213,96	44504,50	22768,500	,013*
	qishloq	253	245,01	61986,50		
	Total	461				
Emotsiyalarni ifoda etilishini boshqarish	shahar	208	229,20	47673,50	25937,500	,792
	qishloq	253	232,48	58817,50		
	Total	461				
Shaxslararo emotsional intellekt	shahar	208	220,16	45793,00	24057,000	,113
	qishloq	253	239,91	60698,00		
	Total	461				
Ichki emotsional intellekt	shahar	208	228,13	47452,00	25716,000	,675
	qishloq	253	233,36	59039,00		
	Total	461				
Emotsiyalarni tushunish	shahar	208	212,82	44267,00	22531,000	,008**

	qishloq	253	245,94	62224,00		
	Total	461				
Emotsiyalarni boshqarish	shahar	208	221,86	46147,00	24411,000	,181
	qishloq	253	238,51	60344,00		
	Total	461				
Emotsional intellektning umumiy darajasi	shahar	208	223,35	46456,00	24720,000	,263
	qishloq	253	237,29	60035,00		
	Total	461				

Emotsiyalarni tushunish darajasidagi bu hududiy farq, fidoiylikning shakllanishida qishloq va shahar muhitining o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik ta’sirini ko‘rsatadi. Qishloq yoshlari empatiya, mehr-oqibat va hissiy sezgirlikka boy muhitda tarbiyalanganliklari sababli, boshqalarning emotsiyalarini anglashda yuqori salohiyatga ega. Bu esa fidoiylikning samarali shakllanishi va ijtimoiy foydali xatti-harakatlarning namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi. Shu sababli, yoshlar bilan ishlashda ularning yashash joyidagi ijtimoiy-psixologik muhit emotsional rivojlanish uchun muhim omil sifatida inobatga olinishi lozim.

Xulosa qiladigan bo’lsak yoshlarda fidoiylik (altruizm) xususiyatlarining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik va ijtimoiy omillar chuqur empirik tahlil qilinib, ularning o‘zaro bog‘liqligi, dinamikasi va ta’sir doirasi ilmiy asosda aniqlab berildi. Tadqiqotda zamonaviy psixodiagnostik vositalar, statistik tahlil metodlari va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar kompleks tarzda qo‘llanildi. Olingan ilmiy natijalar quyidagicha umumlashtiriladi:

Аннотация. *В данной статье анализируется эффективность когнитивно-поведенческой терапии (КПТ) в снижении психологических нарушений, таких как депрессия и тревожность, среди пациентов, страдающих онкологическими заболеваниями. Исследования показывают, что большинство пациентов, получивших онкологический диагноз, сталкиваются с постоянным стрессом, беспокойством, эмоциональным напряжением и депрессивным синдромом. Подход КПТ позволяет пациентам выявить иррациональные схемы мышления, осознанно относиться к ним и формировать навыки управления негативными эмоциями.*

Ключевые слова: *онкологические пациенты, депрессия, тревожность, психическое здоровье, когнитивно-поведенческая терапия, эмоциональная устойчивость, психокоррекция, стресс-менеджмент, мотивация, психологическая поддержка*

THE EFFECTIVENESS OF COGNITIVE-BEHAVIORAL THERAPY IN REDUCING DEPRESSION AND ANXIETY IN CANCER PATIENTS

Annotation. *This article analyzes the effectiveness of cognitive-behavioral therapy (CBT) in reducing mental health issues such as depression and anxiety among patients diagnosed with oncological diseases. Research indicates that most cancer patients experience persistent stress, worry, emotional tension, and depressive symptoms. Through the CBT approach, patients are able to identify irrational thinking patterns, develop conscious attitudes toward them, and gain skills for managing negative emotions.*

Keywords: *oncology patients, depression, anxiety, mental health, cognitive-behavioral therapy, emotional stability, psychocorrection, stress management, motivation, psychological support*

Kirish. Zamonaviy tibbiyotning yuksak rivojlanishiga qaramay, onkologik kasalliklar bugungi kunda ham jiddiy ijtimoiy-tibbiy muammo bo'lib qolmoqda. Saraton tashxisi bemor uchun nafaqat jismoniy sinov, balki ruhiy iztirob, psixologik beqarorlik va hayot mazmuniga bo'lgan ishonchning so'nishi bilan kechadigan murakkab psixologik holatni yuzaga keltiradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, onkobemorlarning katta qismi depressiya, xavotir, umumiy ruhiy tushkunlik va emotsional charchoq kabi simptomlarni boshdan kechiradi. Aynan ushbu holatlar bemorning davolanishga bo'lgan munosabatiga, hayot sifatiga, ijtimoiy munosabatlariga va hatto biologik tiklanish imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, onkologik bemorlarda psixik salomatlikni tiklash va ularni emotsional barqarorlashtirishga qaratilgan samarali yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Kognitiv-behavioral terapiya (KBT) aynan shunday amaliy psixologik yondashuvlardan biri bo‘lib, u bemorlarning salbiy fikrlash sxemalarini aniqlash, ularni qayta ishlash va o‘zini tutishdagi destruktiv holatlarni kamaytirishga qaratilgan. KBT nafaqat simptomlarni yengillashtiradi, balki bemorning ichki resurslarini faollashtiradi, ongli moslashuvni rag‘batlantiradi va hayotga bo‘lgan ijobiy qarashni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolada onkobemorlar orasida keng tarqalgan depressiv va xavotirli holatlarni kamaytirish jarayonida kognitiv-behavioral terapiya yondashuvining ilmiy asoslari, amaliy tatbiqlari va samaradorlik darajasi tahlil qilinadi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda onkologik kasalliklar global miqyosda inson salomatligi va hayot sifati uchun eng jiddiy tahdidlar qatoriga kiradi. Onkobemorlar nafaqat jismoniy og‘riqlar va tibbiy muolajalar bilan, balki ruhiy tushkunlik, xavotir, depressiya kabi og‘ir psixologik yuklama bilan ham kurashadilar. Turli ilmiy manbaalar ma’lumotlariga ko‘ra, saraton tashxisi qo‘yilgan bemorlarning 30–60 foizi depressiv va xavotirli buzilishlar belgilari bilan yuzma-yuz keladi. Ushbu holatlar bemorning davolanishga bo‘lgan motivatsiyasini susaytiradi, immun tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va natijada hayot sifatining keskin pasayishiga olib keladi.

Psixik salomatlikni tiklash va ruhiy zo‘riqish holatlarini bartaraf etish onkologik yordam tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Aynan shu nuqtai nazardan, psixoterapevtik yondashuvlar, xususan, kognitiv-behavioral terapiya (KBT) onkobemorlar bilan ishlashda samarali va fan tomonidan asoslangan usullardan biri sifatida tan olinmoqda. KBT yondashuvi orqali bemorlar o‘zlarining iratsional fikrlash shakllarini aniqlab, ularni konstruktiv fikr va xatti-harakatlar bilan almashtirishga o‘rganadilar, bu esa ularning ruhiy bardoshini oshiradi va moslashuvini kuchaytiradi.

Shunday ekan, onkobemorlar orasida keng tarqalgan depressiya va xavotir holatlarini kamaytirishda KBTning samaradorligini aniqlash va amaliyotga tadbiq qilish bugungi kunning dolzarb, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Onkobemorlarning ruhiy salomatligi, xususan, depressiya va xavotir holatlari so‘nggi yillarda xalqaro psixologiya va tibbiyot ilmida keng tadqiq etilayotgan yo‘nalishlardan biridir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO, 2023) ma’lumotlariga ko‘ra, saraton tashxisi qo‘yilgan bemorlarning deyarli yarmi psixologik muammolarga duch keladi, ularning eng ko‘p uchraydiganlari — klinik depressiya, generalizatsiyalashgan xavotir buzilishi va posttravmatik stress sindromidir. Bu holatlar bemorning hayot sifatiga, davolanishga rioya qilishiga va umumiy prognozga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur muammolarni hal qilishda samarali psixoterapevtik yondashuvlardan biri sifatida kognitiv-behavioral terapiya (KBT) keng e’tirof etilgan. A.T. Beck va uning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yondashuv, ayniqsa, salbiy fikrlash naqshlarini o‘zgartirish, emotsional holatni barqarorlashtirish va adaptiv xulq-atvorni shakllantirishga qaratilganligi sababli, onkobemorlar bilan ishlashda keng qo‘llaniladi. C. Moorey va M. Greer (2012) o‘z tadqiqotlarida saraton bilan yashayotgan bemorlarda KBT orqali xavotir va depressiya alomatlarini kamaytirish mumkinligini aniq ko‘rsatib berganlar.

Fawzy, Fawzy va Hyun (2000) tomonidan olib borilgan randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarda KBT asosidagi qisqa muddatli psixoterapiya seanslari bemorlarning ruhiy sog‘lig‘ini sezilarli darajada yaxshilashi, immun javobni faollashtirishi va hayot sifati ko‘rsatkichlarini oshirishi aniqlangan. Shuningdek, Osborn et al. (2006) tomonidan o‘tkazilgan meta-tahlil natijalariga ko‘ra, KBT saraton bemorlarining depressiv simptomlarini kamaytirishda boshqa yondashuvlarga nisbatan samaraliroq ekanligi qayd etilgan.

MDH doirasidagi tadqiqotlarda esa B.D. Karvasarskiy, E.G. Eydemiller, N.L. Belopolskaya singari olimlar somatik kasalliklarga chalingan shaxslarning ruhiy moslashuvi, affektiv buzilishlari va ularni bartaraf etish usullarini tahlil qilganlar. Ushbu tadqiqotlarda KBT elementlaridan foydalanilgan bo‘lib, onkologik bemorlarda ruhiy salomatlikni tiklashda ushbu usulning muhim o‘rni alohida ta’kidlangan.

O‘zbekistonlik olimlardan Z.T. Nishanova, S.M. Muhammadjonova, G.S. Karimova kabi tadqiqotchilar og‘ir kasalliklarga chalingan bemorlar psixologiyasi, psixokorreksion yondashuvlar va emotsional zo‘riqishning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ularning ishlari KBT asosidagi terapevtik modellarni mahalliy sharoitga moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama. Olib borilgan nazariy va empirik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, onkologik tashxis bemorlar uchun faqat jismoniy kasallik emas, balki ruhiy-psixologik inqiroz holati sifatida ham kechadi. Depressiya va xavotir holatlari saraton bilan yashovchi bemorlar orasida eng keng tarqalgan ruhiy buzilishlardan bo‘lib, ularning hayot sifati, davolanishga bo‘lgan munosabati va umumiy psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, kasallikning og‘irligiga mos bo‘lmagan tushkunlik, umidsizlik, o‘z joniga qasd qilish fikrlari, ijtimoiy chekinish, motivatsiyaning yo‘qolishi kabi holatlar bemorning klinik prognozini yomonlashtiradi.

Kognitiv-behavioral terapiya (KBT) onkobemorlarning ushbu holatlarini tuzatishda samarali yondashuv sifatida o‘zini oqlamoqda. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, KBT bemorlarning salbiy avtomatik fikrlarini aniqlash, iratsional e’tiqodlarni konstruktiv yondashuvga almashtirish hamda moslashtirilgan xatti-harakat shakllarini rivojlantirish orqali psixologik salomatlikni sezilarli darajada yaxshilaydi. Bemorlar o‘z fikrlari va emotsiyalarini boshqarish, stressga bardosh berish, ijtimoiy muloqotga qayta kirishish, hayotiy maqsadlarni yangilash va qabul qilish qobiliyatlarini KBT orqali o‘zlashtiradilar.

Shuningdek, KBTning individual va guruhiy formatda qo‘llanishi samarali ekani ta’kidlanadi. Individual terapiyada bemorning shaxsiy travmalari va fikrlash xatolari chuqurroq tahlil qilinadi, guruhiy terapiyada esa ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va empatiya muhiti shakllanadi. Amaliyotda esa KBTning qisqa muddatli formatlari (6–12 seans) ham yuqori samaradorlik ko‘rsatgan.

Muhokama natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, onkologik kasallik bilan yashayotgan bemorlar uchun psixologik yordam — ayniqsa, KBT asosidagi terapevtik yondashuvlar — tibbiy muolajalar qatorida asosiy va zaruriy xizmat turiga aylanishi kerak. Psixologik salomatlikka qaratilgan yondashuvlar bemorlarning umumiy ijtimoiy faolligini tiklash, oila bilan munosabatlarini saqlab qolish va hayotga ijobiy munosabatni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

1-jadval

№	Metodologik komponent	Mazmuni
1	Tadqiqot predmeti	Onkologik bemorlarda depressiya va xavotir holatlari
2	Tadqiqot ob’ekti	Saraton tashxisi qo‘yilgan bemorlar (18 yoshdan katta)
3	Tadqiqot maqsadi	Kognitiv-behavioral terapiya (KBT) yordamida depressiya va xavotir holatlarini kamaytirish
4	Tadqiqot usullari	Psixologik testlar (BDI-II, STAI), klinik suhbat, kuzatuv, eksperimental aralashuv
5	Asosiy metodikalar	BDI-II (Beck Depression Inventory), STAI (Spielberger Trait-Anxiety Inventory)
6	Amaliy yondashuv	Kognitiv-behavioral terapiya (6–8 seans), individual va guruhiy formatda
7	Tadqiqot dizayni	Tajriba va nazorat guruhlari taqqoslash asosida (eksperimental tadqiqot)
8	Baholash mezonlari	Depressiya va xavotir ballarining kamayishi (pre-test va post-test natijalari)
9	Statistik tahlil usullari	t-test, dispersion tahlil (ANOVA), Pearson korrelyatsiyasi
10	Kutilyotgan natija	KBTdan so‘ng depressiya va xavotir ko‘rsatkichlarining statistik jihatdan ishonchli kamayishi

Yuqoridagi jadvalda onkologik bemorlar orasida depressiya va xavotir holatlarini kamaytirishda qo‘llanilgan tadqiqotning metodologik asoslari tizimli tarzda yoritilgan. Jadvaldan

ko‘rinib turibdiki, tadqiqotning predmeti sifatida onkobemorlarning ruhiy salomatligi, xususan depressiv va xavotirli simptomlar tanlangan. Ob’ekt sifatida esa saraton tashxisi qo‘yilgan, 18 yoshdan katta bemorlar olingan bo‘lib, bu guruhda psixologik stress holatlari ancha yuqori darajada kuzatiladi.

Tadqiqotning bosh maqsadi – kognitiv-behavioral terapiya (KBT) yordamida bu simptomlarni kamaytirishdan iborat bo‘lib, amaliy psixologiyadagi dolzarb yo‘nalishga mos keladi. Tadqiqotda BDI-II (Bek depressiyani baholash inventori) va STAI (Spilberger xavotir inventori) kabi xalqaro tan olingan psixometrik vositalar tanlangan. Bu metodikalar ishonchliligi va validligi yuqori bo‘lganligi sababli, bemorlarning emotsional holatini aniq baholash imkonini beradi.

Tadqiqot dizayni eksperimental bo‘lib, tajriba va nazorat guruhlari asosida tashkil etilgan. Bunday yondashuv turli terapevtik ta’sirlarning real samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Eksperimental guruhga KBT asosidagi individual va guruhiy psixokorreksion ishlar olib borilgan, nazorat guruhiga esa standart psixologik maslahat bilan cheklangan. Bu dizayn natijalar ishonchliligini oshiradi.

Statistik tahlil usuli sifatida t-test**,** ANOVA va Pearson korrelyatsiyasi tanlangani — tadqiqotda sifat va miqdoriy o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, oldin va keyin olingan ma’lumotlarni taqqoslash orqali depressiya va xavotir darajasidagi o‘zgarishlar aniq aks ettirilgan.

Xulosa. Olib borilgan metodologik tahlil va ilmiy manbaalarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, onkologik kasallik bilan yashayotgan bemorlarning psixik salomatligini ta’minlash, xususan, depressiya va xavotir holatlarini kamaytirish zamonaviy psixologiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar kognitiv-behavioral terapiya (KBT) usulining bemorlarda emotsional muvozanatni tiklash, salbiy fikrlash naqshlarini o‘zgartirish, stressga nisbatan bardoshlilikni oshirish va hayotga ijobiy munosabatni shakllantirishdagi samaradorligini isbotlamoqda. KBT nafaqat ruhiy simptomlarni yengillashtiradi, balki bemorning umumiy davolanish jarayoniga bo‘lgan yondashuvini, motivatsiyasini va hayot sifatini ham yaxshilaydi.

Ushbu yondashuv bemorlarni ruhiy inqiroz holatidan olib chiqishda, salbiy ichki suhbatlarni to‘xtatishda va kelajakka umid bilan qarashni rag‘batlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek, KBTning qisqa muddatli, strukturaviy va maqsadga yo‘naltirilgan xarakteri uni klinik amaliyotda qo‘llashni qulay va samarali qiladi. Natijalar asosida aytish mumkinki, KBT onkobemorlar bilan ishlashda ruhiy salomatlikni tiklovchi asosiy vositalardan biri sifatida qo‘llanilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бек А.Т., Раш А.Дж. Когнитивная терапия и эмоциональные расстройства. — М.: Институт общегуманитарных исследований, 2001. — 368 с.
2. Кублер-Росс Э. О смерти и умирании. Что должны знать люди о смерти и умирании. — М.: София, 2010. — 312 с.
3. Moorey S., Greer S. Cognitive Behaviour Therapy for People with Cancer. — Oxford University Press, 2012. — 240 p.
4. Fawzy F.I., Fawzy N.W., Hyun C.S. Short-term psychotherapeutic intervention for patients with newly diagnosed cancer. In: Cancer. — 2000. — Vol. 60, No. 3. — P. 103–111.
5. Osborn R.L., Demoncada A.C., Feuerstein M. Psychosocial interventions for depression, anxiety, and quality of life in cancer survivors: Meta-analyses. In: Int. J. Psychiatry Med. — 2006. — Vol. 36(1). — P. 13–34.
6. World Health Organization. Cancer: Key facts. — https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/cancer (murojaat sanasi: 01.08.2025).
7. Карвасарский Б.Д. Клиническая психология. — СПб.: Питер, 2001. — 608 с.
8. Эйдемиллер Э.Г., Юстицкис В.А. Семейная психология и психотерапия. — СПб.: Речь, 2005. — 544 с.
9. Nishanova Z.T. Onkobemorlarning ruhiy holati va psixologik moslashuvi. // Psixologiya va hayot. — 2021. — №2. — B. 48–52.
10. Muhammadjonova S.M. Og‘ir somatik kasalliklarga chalingan bemorlarning emotsional holatini yengillashtirishda psixokorreksion yondashuvlar. — Toshkent: Psixologiya instituti nashriyoti, 2022. — 124 b.

Hamdamova Sitora Rustam qizi
Buxoro davlat pedagogika institute tayanch doktoranti

OILA PEDAGOGIKASI FANI ASOSIDA TALABALARNING OILAVIY QADRIYATLARGA IJOBIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH TA'LIM MODELI

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan talabalarda oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan ta'lim modelining nazariy va amaliy asoslari, tadqiqotning asosiy maqsadi - oila institutining ijtimoiy ahamiyatini hisobga olgan holda, yoshlarda oilaviy qadriyatlarga nisbatan ongli, barqaror va ijobiy munosabatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish masalalari, ta'lim modelini yaratish va sinovdan o'tkazish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan, interaktiv, muammoli, loyihaviy, reflektiv va shaxsga yo'naltirilgan metodlardan keng foydalanish jarayonlari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *oila, oilaviy qadriyatlar, ijobiy munosabat, ta'lim modeli, tarbiya, talaba shaxsi, pedagogik jarayon, interaktiv metodlar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ijtimoiy mas'uliyat, oila pedagogikasi.*

ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ПОЗИТИВНОГО ОТНОШЕНИЯ УЧАЩИХСЯ К СЕМЕЙНЫМ ЦЕННОСТЯМ НА ОСНОВЕ ДИСЦИПЛИНЫ" СЕМЕЙНАЯ ПЕДАГОГИКА"

Аннотация. *В статье представлены теоретические и практические основы образовательной модели, направленной на формирование у учащихся позитивного отношения к семейным ценностям с точки зрения современной педагогики, основная цель исследования - учитывая социальную значимость института семьи, изложены вопросы разработки эффективной образовательной технологии, способствующей развитию у молодежи осознанного, устойчивого и позитивного отношения к семейным ценностям, процессы широкого использования современных педагогических подходов к построению и апробации образовательной модели, включая интерактивные, проблемные, проектные, рефлексивные и личностно-ориентированные методы.*

Ключевые слова: *семья, семейные ценности, позитивное отношение, модель воспитания, Воспитание, личность ученика, педагогический процесс, интерактивные методы, личностно-ориентированный подход, духовно-нравственное воспитание, социальная ответственность, семейная педагогика.*

EDUCATIONAL MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF POSITIVE ATTITUDES OF STUDENTS TOWARDS FAMILY VALUES ON THE BASIS OF THE SUBJECT" FAMILY PEDAGOGY"

Annotation. *The theoretical and practical basis of the educational model, aimed at forming a positive attitude towards family values in students from the point of view of modern pedagogy, the main purpose of the study - given the social significance of the Family Institute, issues of developing effective educational technology that serves to develop a conscious, stable and positive attitude towards family values in young people, modern pedagogical approaches to creating and testing an educational model, including the processes of widespread use of interactive, problematic, project, reflective and personality-oriented methods are described.*

Keywords: *Family, Family Values, positive attitude, educational model, upbringing, student personality, pedagogical process, interactive methods, personality-oriented approach, spiritual and moral education, social responsibility, family pedagogy.*

Kirish. Oila nafaqat biologik avlodni davom ettirish joyi, balki shaxsning jamiyatga moslashishi, axloqiy-ruhiy fazilatlarining rivojlanishi, madaniy qadriyatlarning avloddan-avlodga

uzatilishi maydonidir. Shu sababli oilaviy qadriyatlar jamiyat barqarorligining, shaxslarning barkamolligi va ijtimoiy muvozanatning tayanchi hisoblanadi. Zamonaviy davrda, ayniqsa, ijtimoiy va texnologik o‘zgarishlar, global madaniy ta’sirlar hamda oilaning an’anaviy vazifalarining o‘zgarishi sharoitida oilaviy qadriyatlar nisbatan zaiflashishi, ayrim yoshlar orasida ularning e’tibordan chetda qolishi kuzatilmoqda. Bu esa yosh avlodning jamiyatga to‘liq moslasha olmasligi, axloqiy-ruhiy inqirozga uchrashi xavfini tug‘diradi. Shu bois, talabalarda, ya’ni jamiyatning intellektual va madaniy salohiyatiga ega bo‘lgan yoshlar orasida oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish va mustahkamlashning ahamiyati ortmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida “Oila pedagogikasi” fani aynan shu maqsadda o‘qitiladi. Ushbu fan orqali talabalar oilaning jamiyatdagi roli, uning tarbiyaviy funktsiyalari, oilaviy munosabatlarning psixologik va sotsiologik asoslari bilan tanishadilar. Shuningdek, oilaviy qadriyatlarni anglash, hurmat qilish, oila a’zolari o‘rtasidagi mehr-muhabbat va mas’uliyatni oshirishga oid nazariy va amaliy ko‘nikmalarni egallaydilar. Bu esa ularning o‘z oilasini yaratish va uni mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida faqat nazariy bilimlarni berish yyetarli emas. Talabalarning oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatini shakllantirish uchun interaktiv, faoliyatga yo‘naltirilgan metodlar, amaliy mashg‘ulotlar, munozaralar, o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar tizimli ravishda qo‘llanilishi lozim. Shuningdek, talabalar oilaviy qadriyatlarni o‘z hayotlarida qo‘llashlari uchun sharoit yaratish, ularning axloqiy-madaniy rivojlanishini doimiy nazorat qilish ham zarur.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, shaxsiy yondashuv, psixologik qo‘llab-quvvatlash kabi omillarni birlashtirgan kompleks ta’lim modeli ishlab chiqish bu masalaning samarali yechimi bo‘lishi mumkin. Bunday model talabalarning bilim, ko‘nikma va ijtimoiy-madaniy munosabatlarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirish imkonini beradi, ularni jamiyatda mas’uliyatli fuqarolar, barqaror oilalar poydevori sifatida shakllantiradi. Ushbu maqolada “Oila pedagogikasi” fani asosida talabalarda oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatlarni rivojlantirish uchun innovatsion ta’lim modeli taklif etiladi. Modellarning nazariy asoslari, maqsad va vazifalari, tarkibiy qismlari hamda ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan metod va vositalar batafsil yoritiladi. Ta’lim modelining samaradorligi va amaliy ahamiyati alohida e’tiborga loyiqdir.

Oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatlarni rivojlantirish ta’lim modeli ko‘p qirrali va tizimli pedagogik jarayonni tashkil etadi. Ushbu jarayonda talabalarning shaxsiyati, hissiy-axloqiy holati va ijtimoiy faolligini rivojlantirish uchun turli zamonaviy ilmiy metodlardan foydalanish talab etiladi. Quyida ushbu model doirasida qo‘llaniladigan asosiy metodlar batafsil ko‘rib chiqiladi.

1. Nazariy-tahliliy

Bu metod yordamida oilaviy qadriyatlar tushunchasi, ularning jamiyatdagi o‘rni, shakllanishi va pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Talabalar uchun mo‘ljallangan nazariy materiallar, ilmiy maqolalar va manbaalar o‘rganilib, ta’lim jarayonining nazariy asoslari yaratiladi. Bu metod ta’lim jarayonida bilimlar tizimliligini va chuqurligini ta’minlaydi.

2. Eksperimental

Ta’lim modeli samaradorligini oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va metodlarni sinovdan o‘tkazish muhimdir. Eksperimental metod doirasida interaktiv mashg‘ulotlar, guruh ishlari, loyiha asosida ta’lim va rol o‘yinlari kabi usullar sinab ko‘riladi. Ushbu metod yordamida ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan metodlarning samaradorligi o‘lchanadi, modelning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi.

3. Interaktiv ta’lim

Munozara, debat, guruhda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, vaziyatga asoslangan o‘qitish kabi interaktiv metodlar talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. Bu metodlar talabalarni oilaviy qadriyatlarga oid masalalarni tanqidiy fikrlash bilan yondashishga, o‘z fikrini ifoda etishga va boshqalarni tinglashga o‘rgatadi. Shu tariqa, ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari va empatiya rivojlanadi.

4. Loyihaviy faoliyat

Talabalar mustaqil ravishda yoki guruhlarda oilaviy qadriyatlarga oid mavzularda amaliy loyihalar ishlab chiqadilar. Masalan, oilaviy qadriyatlar tarixini o‘rganish, oilaviy an’analarni tadqiq

qilish, oiladagi mehr-muhabbat va mas'uliyatni targ'ib qilishga qaratilgan aksiyalar tashkil etish. Loyihaviy metod ijodkorlik, mas'uliyat va guruh bilan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi.

5. Muammoli o'qitish

Talabalarga oilaviy qadriyatlar bilan bog'liq murakkab vaziyatlar va ijtimoiy muammolar taqdim etilib, ularni hal qilishda qatnashish taklif etiladi. Bu metod talabalarda muammoni tahlil qilish, yechim topish, qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Muammoli o'qitish talabalarni o'z fikrini asoslashga va javobgarlikni his qilishga o'rgatadi.

6. Simulyatsiya va rol o'yinlari

Model doirasida oilaviy munosabatlarni jonlantirish uchun turli simulyatsiya va rol o'yinlari qo'llaniladi. Talabalar o'zlariga berilgan rollar asosida oilaviy vaziyatlarni o'ynab, o'zaro muloqot va hamdardlikni oshiradilar. Bu usullar hissiy tajriba olish va ijobiy axloqiy munosabatlarni mustahkamlashda samaralidir.

7. Kuzatuv (observatsiya)

Talabalarning ta'lim jarayonidagi xulq-atvori, guruh ichidagi munosabatlari, o'quv jarayonida faol ishtirok etish darajasi muntazam ravishda kuzatib boriladi. Kuzatuv pedagogga talabaning shaxsiyati, uning oilaviy qadriyatlarga bo'lgan munosabati va rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beradi.

8. So'rov, anketalar va intervyu

Talabalarning oilaviy qadriyatlarga bo'lgan munosabati, bilim darajasi, hissiy-axloqiy holatini aniqlash uchun maxsus so'rovnomalar va intervyular o'tkaziladi. Ushbu metodlar ta'lim jarayonini talabalarning ehtiyojlariga moslash va modelni yanada takomillashtirishga imkon beradi.

9. Refleksiya va o'z-o'zini baholash

Talabalar o'z faoliyati, munosabatlari va o'zgarishlarini tahlil qilib, o'z-o'zini baholaydilar. Refleksiv jarayonlar shaxsning o'ziga bo'lgan hurmatini oshiradi, oilaviy qadriyatlarga munosabatni chuqurlashtiradi hamda mas'uliyatni mustahkamlaydi.

10. Pedagogik konsultatsiya va individual yondashuv

Modelning asosiy jihatlaridan biri — talabalar bilan individual ishlashdir. Pedagogik konsultatsiyalar orqali har bir talabaning shaxsiy xususiyatlari, oilaviy qadriyatlarga bo'lgan munosabati va rivojlanish darajasi o'rganilib, ularga moslashtirilgan ta'lim yo'nalishlari ishlab chiqiladi.

Mazkur metodlar birgalikda qo'llanilganda, ular o'zaro to'ldiruvchi va bir-birining samaradorligini oshiruvchi vositalarga aylanadi. Interaktiv va muammoli o'qitish metodlari talabalar faoliyatini rag'batlantirsa, loyihaviy va simulyatsion metodlar ularning amaliy ko'nikmalarini shakllantiradi. Kuzatuv va so'rov metodlari esa ta'lim jarayonining sifatini doimiy nazorat qilishga imkon beradi. Shu tariqa, ta'lim modeli talabalarda oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatni tizimli, barqaror va chuqur shakllantirishga xizmat qiladi.

"Oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatlarni rivojlantirish" ta'lim modelini amaliyotga tatbiq etish jarayonida olib borilgan kuzatuvlar, suhbatlar, tahlil va pedagogik faoliyatlar asosida bir qator muhim ilmiy natijalar aniqlandi. Ushbu natijalar modelning nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlantiruvchi jihatlari mavjudligini ko'rsatdi.

Avvalo, ta'lim modeli asosida olib borilgan mashg'ulotlar talabalarda oilaviy qadriyatlarga bo'lgan umumiy munosabatni ijobiy tomonga o'zgartirishga yordam berdi. Dastlab, bu mavzuga nisbatan qiziqishi sust yoki noaniq qarashlarga ega bo'lgan talabalar, mashg'ulotlar davomida oilaviy qadriyatlarning hayotdagi o'rni va ahamiyatini chuqurroq anglay boshladilar. Bu o'zgarish talabalar nutqida, muhokamalardagi faollikda, guruhdagi ishtirok va tashabbuskorlikda yaqqol namoyon bo'ldi.

Ta'lim modeli talabalarni mustaqil fikrlashga, shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishga, oilaga bo'lgan hissiy va axloqiy yondashuvini mustahkamlashga yo'naltirdi. Har bir mavzu amaliyotga yaqinlashtirilib, hayotiy misollar orqali boyitilgani sababli talabalar bilimlarini o'z shaxsiy tajribalari bilan bog'lashga muvaffaq bo'lishdi. Bu esa bilimlarning mustahkam va chuqur o'zlashtirilishiga olib keldi.

Model asosida tashkil etilgan guruhli ishlarda, munozara va rolli o‘yinlarda talabalar orasidagi o‘zaro hurmat, jamoaviylik, tinglash madaniyati, hamkorlik va mas’uliyat kabi fazilatlar kuchaydi. Bu jarayon talabalar shaxsida nafaqat oilaviy qadriyatlarni anglash, balki ularga amal qilishga tayyorlikni ham shakllantirdi. Talabalar o‘z oilasi, ota-onasi, qarindoshlari bilan munosabatlariga qayta nazar tashlab, oilaning haqiqiy qadriyat sifatidagi rolini baholay boshladilar.

Ta’lim modeli doirasida o‘tkazilgan reflektiv topshiriqlar, o‘z-o‘zini baholash mashqlari va shaxsiy fikr-mulohazalarni yozish orqali talabalar o‘z munosabatlarini chuqur tahlil qilish imkoniga ega bo‘ldilar. Bu jarayon ularning o‘z-o‘zini anglash, ichki intizom va oila oldidagi mas’uliyat tuyg‘usini rivojlantirishda muhim vosita bo‘ldi. Talabalarning tashabbuskorligi ortib, ular ta’limdan tashqari hayotda ham oilaviy qadriyatlarni targ‘ib qilish, bu boradagi ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish, kichik guruhlar tashkil qilish kabi faoliyatlarga qiziqish bildirishdi. Ayrim talabalar o‘z oilasi bilan birgalikda qadriyatlar mavzusida suhbatlar o‘tkazganini, ota-onasi bilan muloqoti kuchayganini, oilaviy mas’uliyat haqida ko‘proq fikr yurita boshlaganini ta’kidladilar. Modelda qo‘llanilgan metodlarning integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynadi. Nazariy bilimlar bilan amaliy mashg‘ulotlar uyg‘unligi, interaktiv yondashuvlar va shaxsga yo‘naltirilgan faoliyatlar orqali har bir talaba ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllandi. Ushbu ta’lim modeli orqali talabalarning bilim darajasi, axloqiy qarashlari, ijtimoiy faolligi, shaxsiy mas’uliyati va oilaga bo‘lgan munosabatida kompleks rivojlanish kuzatildi. Bu esa modelning ilmiy asoslangan, amaliyotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali ta’lim texnologiyasi sifatida tavsiya etilishiga asos bo‘ladi.

Tajriba-sinov ishlari va pedagogik kuzatuvlar asosida qator muhim jihatlar yuzasidan chuqur ilmiy muhokama olib borildi. Mazkur muhokamalar modelning nazariy asoslari, amaliy natijalari, pedagogik ahamiyati va rivojlanish istiqbollari haqida fikr yuritish imkonini berdi. Oilaviy qadriyatlar masalasi nafaqat tarbiya tizimining markazida turgan muhim ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida, balki shaxs kamoloti va ijtimoiy barqarorlik uchun zarur bo‘lgan fundamental asos sifatida talqin etilishi lozim. Hozirgi globallashuv va axborot tahlikalari sharoitida yoshlarning oilaviy qadriyatlarga nisbatan e’tibori susayib borayotganini kuzatish mumkin. Bu holat yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan zaiflashtirishi, ularni oila hayotiga tayyorlash jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Shuning uchun bu borada an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda, zamonaviy ta’lim yondashuvlari asosida modellar ishlab chiqilishi zarur. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, ta’lim modelida nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy mashg‘ulotlar, hayotiy vaziyatlar, interaktiv metodlar va shaxsiy refleksiya faoliyatlari talabalar ongida chuqur o‘zgarishlar qilishga xizmat qiladi. Faqatgina bilim berish emas, balki oilaviy qadriyatlarni his etish, ularga mehr bilan qarash, ularni shaxsiy hayotga tadbiq etishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish modelning asosiy afzalliklaridan biri sifatida muhokama qilindi. Talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan intervyu va suhbatlar natijalari tahlil qilinar ekan, ularning oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati o‘zgarib, ko‘proq e’tibor, hurmat va qadrlash holatlari kuchaygani kuzatildi. Ko‘pchilik talabalar o‘z oilasiga bo‘lgan munosabatida ijobiy siljishlar borligini bildirgan. Bu esa pedagogik jarayonning faqat o‘quvchilarga emas, balki ularning atrof-muhitiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydi. Ta’lim modelida metodlar o‘rtasidagi integratsiya, ya’ni nazariy, interaktiv, reflektiv, loyihaviy va muammoli yondashuvlarning uyg‘unlashuvi, ularni kompleks qo‘llash talabaning turli jihatlarini - bilim, ko‘nikma, qadriyat, axloqiy dunyoqarash — birgalikda rivojlantirishga xizmat qilishi muhokamalarda alohida e’tirof etildi. Bu esa modelning samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Pedagoglar, psixologlar va tajriba ishtirokchilari bilan olib borilgan muhokamalarda shuningdek, modelni boshqa fanlarga integratsiyalash imkoniyati ham ilgari surildi. Chunki oilaviy qadriyatlar faqat “Oila pedagogikasi” faniga xos tushuncha emas, balki barcha tarbiyaviy fanlarning o‘zagida turadigan umuminsiy tushunchadir. Shu nuqtai nazardan, modelning o‘quv dasturlari, tarbiyaviy tadbirlar, pedagogik loyihalar doirasida keng tatbiq qilinishi mumkinligi ta’kidlandi. Muhokamalarda ayrim qiyinchiliklar va cheklovlar ham muhokama qilindi. Xususan, talabalar oilaviy qadriyatlarga oid ayrim masalalarda ochiq gapirishdan tortinishlari, shaxsiy tajribani ifodalashda noqulaylik his qilishlari, ba’zida mavzu jiddiyatini anglab yetmaslik holatlari ham qayd etildi. Bunday holatlarda pedagogning empatik, nozo‘ravon, rag‘batlantiruvchi yondashuvi muhim ekani muhokamalarda alohida urg‘u bilan ta’kidlandi. Ta’lim modelida

emotsional xavfsizlikni ta’minlash, har bir talaba uchun ochiq va ishonchli muhit yaratish muhim shart sifatida qayd etildi. Muhokamalarda shuningdek, ta’lim modelining barqaror natijadorligini ta’minlash uchun unga uzluksiz monitoring tizimini joriy qilish, talabalarning rivojlanish dinamikasini doimiy tahlil etish va teskari aloqani kuchaytirish takliflari ilgari surildi. Bu orqali modelni amaliyotga tatbiq etishda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish osonlashadi.

Xulosa. Yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida oilaviy qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir. Oila – bu shaxsiyat shakllanadigan birlamchi ijtimoiy muhit bo‘lib, unda insonda mehr, hurmat, vatanparvarlik, mas’uliyat, vafodorlik kabi asosiy axloqiy sifatlar shakllanadi. Shu boisdan, oliy ta’lim muassasalarida “Oila pedagogikasi” fanining mazmuni va metodikasi zamonaviy talablarga mos ravishda boyitilishi, talabalarda oilaviy qadriyatlarga ongli va ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiluvchi ta’lim modellari asosida olib borilishi dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan va tajriba asosida sinovdan o‘tkazilgan “Oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatlarni rivojlantirish” ta’lim modeli, pedagogik jarayonning shaxsga yo‘naltirilganligi, interaktiv metodlarga tayanganligi, hissiy-ta’sirchanlik va amaliyotga yaqinligi bilan ajralib turadi. Mazkur model orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, balki oilaviy qadriyatlarni shaxsiy hayotlarida tan olish, qadrlash va ularga amal qilishga nisbatan ichki ehtiyoj va mas’uliyat tuyg‘usini ham rivojlantiradilar. Model asosida tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlari, guruhiy ishlar, simulyatsiyalar va reflektiv topshiriqlar talabalarni o‘z shaxsiy hayoti, oilaviy muhit, ijtimoiy mas’uliyat kabi masalalar ustida chuqur fikr yuritishga undaydi. Bu jarayon orqali talabalar oilaning ijtimoiy institut sifatida tutgan o‘rni, qadriyatlar tizimidagi roli va shaxs rivojidagi ta’siri haqida chuqur tushunchaga ega bo‘ladilar. Model doirasida qo‘llanilgan zamonaviy pedagogik metodlar — muammoli o‘qitish, loyihaviy faoliyat, rolli o‘yinlar, o‘zaro fikr almashish, emotsional refleksiya va amaliy mashg‘ulotlar orqali bilim, ko‘nikma, qarash va ijtimoiy faol pozitsiya uyg‘un tarzda shakllanadi. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim jarayonining maqsadga muvofiq va samarali tashkil etilganini anglatadi. Tadqiqotda shuningdek, talabalar tomonidan modelga bo‘lgan ijobiy munosabat, ularning darslarda faol ishtiroki, mustaqil loyihalarda ko‘rsatgan tashabbuslari, oila haqida chuqurroq mulohaza yurita boshlaganliklari, shaxsiy hayotda qadriyatlarga bo‘lgan e’tiborlarining ortgani kuzatildi. Bu esa model nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham o‘zini oqlaganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, mazkur ta’lim modeli o‘zining moslashuvchanligi, metodik boyligi, o‘quvchi-shaxsga yo‘naltirilganligi va ijtimoiy-tarbiyaviy samaradorligi bilan ajralib turadi. U nafaqat talabaning bilim olish jarayonini boyitadi, balki uni o‘z oilasi, jamiyati va kelajakdagi o‘z roli haqida ongli qarorlar qabul qiluvchi, ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bahodirova, S. (2023). *The role of family education in the pedagogy of the Uzbek people*. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 2(2), 354–357.
2. Mohammed, P., & Engler, A. (2022). The Role of Family and Family Context in the Learning Process of Children. *Vietnam Journal of Education*, 6(1), 1–9. https://doi.org/10.52296/vje.2022.144
3. Sari, M. E., Komsi, D. N., & Yanti, S. (202x). The Role of Family Education in Improving Religion and Moral Values in Early Childhood. *3*(2), https://doi.org/10.25217/jcd.v3i2.3871
4. Vertel, A., Korolenko, V., Shapovalova, O., & Bereziuk, T. (202x). The Role of the Family in the Education and Upbringing of Children. *Cadernos de Educação Tecnologia e Sociedade*, *17*(nse1), 54–64. https://doi.org/10.14571/brajets.v17.nse1.54-64
5. Kong, F., & Yasmin, F. (2022). Impact of Parenting Style on Early Childhood Learning: Mediating Role of Parental Self-Efficacy. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2022.928629

Mamatova Zarena Abdujalilovna
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: mamatovazarena@gmail.com

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK QOBILIYATINI AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qadriyatlar tushunchasining ham falsafiy, ham pedagogik ta’riflari, tasniflari va tarbiyadagi roli, ayniqsa milliy va umuminsoniy tamoyillar orqali o‘rganiladi. O‘quvchilarning qadriyatga asoslangan ongini rivojlantirish uchun boy madaniy meros, jumladan, xalq og‘zaki ijodi va adabiy asarlardan foydalanish orqali axloqiy sifatlarni pedagogik amaliyotga singdirish muhimligini ta’kidlaydi.Maqolada, shuningdek, o‘quvchilarda aksiologik ongni tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi namunalari, tarixiy maskanlar, oilaviy hamkorlik, ko‘rik-tanlovlar o‘tkazish bo‘yicha pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar berilgan, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishda o‘qituvchilarning ma’naviy-axloqiy va kasbiy fazilatlari muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik faoliyat, ta’lim qadriyatlari, axiologik yondashuv, xalq og‘zaki ijodi*

РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В этой статье исследуются как философские, так и педагогические определения, классификации и роль концепции ценностей в воспитании, особенно через национальные и универсальные принципы. Он подчеркивает важность внедрения моральных качеств в педагогическую практику посредством использования богатого культурного наследия, включая устное народное творчество и литературные произведения, для развития ценностного сознания учащихся. подчеркивает важность внедрения моральных качеств в педагогическую практику посредством использования богатого культурного наследия, включая устное народное творчество и литературные произведения, для развития ценностного сознания учащихся.В статье также даны практические рекомендации педагогам по воспитанию аксиологического сознания у учащихся по образцам устного народного творчества, историческим местам, семейному сотрудничеству, проведению смотров-конкурсов, подчеркивается важность духовно-нравственных и профессиональных качеств педагогов в формировании разносторонней личности.*

Ключевые слова: *педагогическая деятельность, образовательные ценности, аксиологический подход, устное творчество*

DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL ABILITIES OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON AN AXIOLOGICAL APPROACH

Annotation. *This article examines the philosophical and pedagogical definitions, classifications and role of the concept of values in education, especially through national and universal principles. It emphasizes the importance of instilling moral qualities into pedagogical practice through the use of a rich cultural heritage, including folk oral works and literary works, to develop students' value-based consciousness. The article also provides practical recommendations for educators on the use of folk oral works, historical sites, family cooperation, and competitions in the upbringing of axiological consciousness in students, and emphasizes the importance of the spiritual, moral and professional qualities of teachers in the formation of a comprehensively developed personality.*

Keywords: *pedagogical activity, educational values, axiological approach, folk oral literature*

Mamlakatimiz xalqining boy intellektual merosi- umumbashariy qadriyatlar asosida kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish, ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish borasida olib borilgan islohotlar ta'limni insonparvarlashtirish, barkamol avlodni ma'nan yyetuk, axloqan pok va jismonan baquvvat etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu bilan birga, pedagogika fani oldida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini har tomonlama rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish zaruriyati mavjud. Bugungi globallashuv jarayonida o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalay oladigan mutaxassislarni yetishtirishni takomillashtirish inson kamolotining asosini tashkil etadi. Chunki bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining o'zi har tomonlama yyetuk, qadriyatlarga sodiq, xatti-harakati, odobi, ayniqsa, insonlar bilan o'zaro munosabatlari, g'amxo'rligi, hurmat ko'rsatishi, bilimi, xulq-atvori hamda namunali faoliyati boshqalarga o'rnak bo'lishi kerak. Aksiologiya atamasi qadriyat va qadriyatlar haqidagi ta'limotga qaraganda ancha keyin paydo bo'lgan. Ushbu tushuncha XIX asrning 2-yarmida nemis qadriyatshunos olimi E. Gartman va fransuz olimi P. Lapilar tomonidan fanga kiritilgan. Qadriyat tushunchasi maxsus falsafiy lug'atda XIX asrning 60-yillarida paydo bo'lganligi ta'kidlab o'tilgan. Falsafiy lug'atning 5-jildida qadriyatga shunday ta'rif berilgan: "Qadriyat falsafiy va ijtimoiy tushuncha. U birinchidan, bir obyektning ijobiy va salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi-baholovchi jihati (subyektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi". Qadriyatga ta'rif bergan pedagog olima O.Musurmonova esa uni inson tomonidan qadrlanadigan narsalar, ya'ni kishilarning talabi, xohishi, qiziqishi va maqsadi asosida o'zaro munosabat, o'zaro ta'sir (atrof-muhit bilan, insonlar bilan) natijasida dunyoga keladigan holat, ekanligini ta'kidlagan. Ilmiy-pedagogik va falsafiy adabiyotlarda qadriyatlarni umumlashtirgan tarzda bir nechta guruhlarga bo'lishgan: ma'naviy qadriyatlar, moddiy qadriyatlar, ijtimoiy qadriyatlar, umummadaniy qadriyatlar va pedagogik adabiyotlarda esa pedagogik qadriyatlar ham alohida ko'rsatiladi. Pedagog olimlar yosh avlodni tarbiyalashda inson va uning qadr-qimmati, bilim olishi va bu borada pedagogik qarashlar, pedagogik faoliyatni belgilaydigan tushunchalar tizimidan, iborat deb qaraydilar. (Kukushin V.S., Morozov A.V., Kodjaspirova G.M., Kodjaspirov A.Y.)

V.A.Slastyonin ta'limotida esa pedagogik aksiologiya asosida inson hayotining qadriyatlari, ta'lim va tarbiya, pedagogik faoliyat va yaxlit ta'limni tushunish va qaror toptirish masalalari yoritiladi. U aksiologiyaga (qadriyatlar falsafasi to'g'risidagi falsafiy ta'limot) ta'lim falsafasining asosi va hozirgi davr pedagogikasining metodologiyasi sifatida qaraydi. Pedagogik qadriyatlarni amalga oshirish, eng avvalo, ma'lum aksiologik yondashuvdan kutiladigan maqsad, g'oyaning qay darajada puxta va aniq bo'lishini, uning kishilik jamiyatiga keltiradigan foydasi bo'lishi zarurligini taqozo etadi.

Boshlang'ich ta'lim sharoitida aksiologik yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra voqelikni atroflicha o'rganish hamda chuqur idrok etishda muhim o'rin tutadi. Xususan, milliy merosimiz - xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot, yozuvchi hamda olimlarimizning boy ijodiy merosi orqali pedagogik va psixologik ta'sir ko'rsatish, yosh avlodga ularni asrab-avaylash, qimmatini anglatish, sinchiklab o'rgatish, ta'limga va uning ishtirokchilariga qadriyat sifatida qaralsagina ta'limdagi aksiologik yondashuvdan kutilgan maqsadga erishish mumkin. O'rta Osiyoda eng qadimgi davrlardanoq ustozga alohida ehtirom ko'rsatishgan. Uni otadek ulug'lash lozimligi yosh avlodga tarbiya jarayonida singdirib borilgan. Masalan, "Avesto"da tarbiyachilarning burch va majburiyatlariga ham qonuniy tus berilgan. Ularning kompetentlik darajasini baholash uchun "chechan", "uddaburon", "tanbal", "befarq", "mas'uliyatsiz" kabi tavsiflardan foydalanilib, "yaxshi" va "yomon" ustozlarga ajratilgan. Unda yaxshi ustoz yoshlarni haqiqat sari yetaklashi, ularga yo'lboshchilik qilishi, hayotni sevishga o'rgatishi lozimgi belgilab berilgan.

Xususan, xalq og'zaki ijodiga tayanib, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining dunyoqarashini kengaytirish, ularda aksiologik ongni shakllantirish borasida quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz:

- xalq og'zaki ijodi vositasida talabalarda aksiologik ongni shakllantirishda nazariy ma'lumotlar berib borish;
- xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongni shakllantirishda amaliy (tarixiy qadamjolar, muzeylar) ishlarni olib borish;

- xalq og‘zaki ijodi vositasida o‘quvchilarda aksiologik ongni shakllantirishda oilalar bilan hamkorlik ishlaridan to’liq foydalanish;
- xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida tanlov va musobaqalar tashkil etish.

Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ta’lim muassasalari faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish, Vatanga sodiq, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash kabi vazifalar dolzarb bo‘lib qolaveradi. Buning uchun bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning mezonlari va ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning tashkiliy tuzilmasi va mexanizmlarini takomillashtirish lozim, ta’limda uchraydigan axloqiy muammolarni hal etishda esa ajdodlarimizning ma’naviy merosidan foydalanish, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan o‘rinli va samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og‘zaki ijodi vositalarining ta’lim jarayonida samarali qo‘llanilishi talabalarning vatanparvarlik hissini shakllantirish, ularni milliy qadriyatlar bilan tarbiyalash va ma’naviy kamolotga erishish uchun muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilarning metodik faoliyati, xalq og‘zaki ijodining turli janrlarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash, talabalar bilan interaktiv ishlash orqali bu jarayon yanada samarali va natijali bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo’llanma. “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi”. Toshkent-2006.
2. Boltayev A. Aksiologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish (avtoreferat) Nukus-2025.
3. Mardonov Sh. Pedagogik aksiologiya, “Fan va texnologiyalar”, Toshkent-2003.
4. Xodjayev B.X. Pedagogik aksiologiya. O‘quv qo‘llanma. “Fan va texnologiya”, Toshkent-2011.

Muxamedov To‘lqinjon Djurayevich
Buxoro davlat universiteti San’atshunoslik va pedagogika fakulteti dotsenti

MUVAFFAQIYATLI MADANIY TADBIRLAR UCHUN ASOSIY QADAMLAR

Annotatsiya. *Maqolada madaniy tadbirlarni muvaffaqiyatli tashkil qilishdagi muammolar va ularning yechimlari hamda madaniy tadbirlar jamiyatning ruhiy va ijtimoiy hayotida muhim roli haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiylik, madaniy tadbir, jamiyat, konsert, festival, ko‘rgazma.*

ОСНОВНЫЕ ШАГИ ДЛЯ УСПЕШНЫХ КУЛЬТУРНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ

Абстрактный*. В статье рассматриваются проблемы успешной организации культурных мероприятий и пути их решения, а также важная роль культурных мероприятий в духовной и социальной жизни общества.*

Ключевые слова: *социальность, культурное событие, общество, концерт, фестиваль, выставка.*

KEY STEPS FOR SUCCESSFUL CULTURAL EVENTS

Abstract. *The article discusses the problems of successfully organizing cultural events and ways to solve them, as well as the important role of cultural events in the spiritual and social life of society.*

Key words: *sociality, cultural event, society, concert, festival, exhibition.*

Madaniy tadbirlar har doim jamiyatning ruhiy va ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynab kelgan. Jamiyatning ruhiy va ijtimoiy hayoti iborasi insonlarning ichki dunyosi va ular orasidagi munosabatlar tizimini ifodalaydi. Bu tushuncha ikkita asosiy jihatni qamrab oladi: birinchisi, odamlarning ma'naviy-psixologik holati va qadriyatlaridir; ikkinchisi, ularning ijtimoiy faoliyati va o'zaro aloqalaridir. Bu masalani kengroq tushunish uchun Ruhiy hayot hamda Ijtimoiy hayot iboralari to’grisida bir oz fikr yuritamiz.

Ruhiy hayot deganda odamlarning ichki kechinmalari, e'tiqodlari, madaniy qadriyatlari va psixologik holati tushuniladi. Bu sohaga san'at, adabiyot, din, falsafa kabi inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi barcha narsalar kiradi. Masalan, milliy bayramlar yoki she'riyat kechalari odamlarda milliy g'urur uyg'otadi, ularni ruhan mustahkamlaydi. Ruhiy hayotning muhim jihati shundaki, u odamlarning yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarini, axloqiy qarashlarini shakllantiradi.

Ijtimoiy hayot esa odamlararo munosabatlarni, jamoaviy faoliyatni va umumiy qoidalar tizimini o'z ichiga oladi. Bu sohaga oilaviy munosabatlar, mahalla hayoti, ish joyidagi hamkorlik, jamoat tadbirlari va boshqa ijtimoiy faoliyat turlari kiradi. Ijtimoiy hayotning sog'lom bo'lishi jamiyatning barqarorligi uchun juda muhimdir. Masalan, mahallada o'tkaziladigan hashar yoki bayram tadbirlari qo'shnilar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi.

Ruhiy va ijtimoiy hayot o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjud. Odamlarning ruhiy holati ularning ijtimoiy munosabatlariga ta'sir qiladi, aksincha ijtimoiy muhit ham insonlarning ichki dunyosiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Sog'lom ruhiyatga ega bo'lgan odamlar ijtimoiy hayotda faolroq ishtirok etishadi, ijtimoiy jihatdan faol bo'lgan jamiyatlar esa o'z a'zolarining ruhiy salomatligini yaxshilaydi.

Madaniy tadbirlar aynan shu ikkala sohaga ham bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatadi. Konsert, ko'rgazma yoki festival kabi tadbirlar odamlarning ruhiy kechinmalariga murojaat qilgan holda, ularni ijtimoiy jihatdan birlashtiradi. Shu sababli, jamiyatning ruhiy va ijtimoiy hayotini yaxshilashda madaniy tadbirlar muhim rol o'ynaydi. Har qanday tadbirning samaradorligi uning aniq belgilangan maqsadi, mavzusi va ishtirokchilar ehtiyojlariga mosligi bilan bog‘liq. Tadbir tashkil qilish jarayonida birinchi navbatda uning kimlar uchun mo‘ljallanganligi, qanday maqsadlarda o‘tkazilishi va qanday shaklda bo‘lishi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish kerak.

Tadbirning maqsadi hamda nima uchun o‘tkaziladi degan savol haqida oylab ko‘rganmisiz? Albatta tadbirning maqsadi uning mohiyatini va yo‘nalishini belgilab beradi. Maqsadlar turli bo‘lishi mumkin, ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

Madaniy merosni targ‘ib qilish – bu turdagi tadbirlar milliy an‘analar, xalq musiqasi, raqslari, hunarmandchilik va boshqa madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan. Masalan, Xalqaro Nomoddiy madaniy meros kuni munosabati bilan o‘tkaziladigan festivallar yoki an’anaviy kashtachilik va kulolchilik ko‘rgazmalari shu maqsadda tashkil etiladi.

Yangi ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash – bu yosh rassomlar, musiqachilar, yozuvchilar va boshqa ijodkorlar uchun imkoniyatlar yaratishga qaratilgan tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bunday tadbirlarga ijodiy tanlovlar, ko‘rgazmalar yoki maxsus ijodiy kechalar kiradi.

Bayramlarni nishonlash – milliy yoki xalqaro bayramlar (Navro‘z, Mustaqillik kuni, Yangi yil) munosabati bilan o‘tkaziladigan kontsertlar, ko‘cha tomoshalari yoki o‘yinlar shu maqsadda bo‘ladi.

Ijtimoiy masalalarga e‘tibor qaratish – aholi salomatligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, gender tengligi kabi dolzarb mavzularda xabardorlikni oshirish uchun madaniy tadbirlar tashkil etilishi mumkin.

Tadbir mavzusini tanlash uchun qanday g‘oya asosiga e’tibor berish zarur?

Mavzu tadbirning mazmuni va badiiy uslubini belgilaydi. Mavzuni tanlashda quyidagilarga e‘tibor berish kerak:

Auditoriyani hisobga olish – yoshlar uchun zamonaviy musiqa festivallari, kinoforumlar yoki stand-up shoulari, oilalar uchun bolalar teatrlari, an‘anaviy o‘yinlar yoki oilaviy festivallar, qariyalar uchun esa nostaljik kontsertlar yoki she‘riyat kechalari o‘tkazish mumkin.

Mavzuning dolzarbligi – jamiyatda dolzarb bo‘lgan mavzular (masalan, ekologiya, innovatsiyalar) tadbirga ko‘proq qiziqish uyg‘otadi.

Madaniy va badiiy jihatdan boy mavzular – “Ipak yo‘li madaniyati” xalqaro ko‘rgazmasi yoki “Zamonaviy O‘zbekiston she‘riyati” tanlovi kabi mavzular tadbirga alohida joziba bag‘ishlaydi.

Tadbir janri va shakllari qanday ko‘rinishda bo‘lishi mumkin?

Tadbirning muvaffaqiyati uning qanday shaklda bo‘lishiga ham bog‘liq. Asosiy janrlar quyidagilardan iborat:

Kontsertlar – klassik musiqa, jazz, pop yoki xalq ijrochiligi, yakkaxon yoki guruh ijrosi shaklida bo‘lishi mumkin.

Teatr va spektakllar – drama, komediya, bolalar uchun interaktiv spektakllar kabi turli janrlarda namoyish etilishi mumkin.

Ko‘rgazmalar – rassomlik, foto, tarixiy artefaktlar ko‘rgazmalari shu turga kiradi.

Festivallar – kinofestivallar, oziq-ovqat festivallari, madaniyat kunlari kabi ko‘plab turlari mavjud.

Tanlovlar – qo‘shiq, raqs, badiiy nutq tanlovlari kabi ijodiy musobaqalar o‘tkazilishi mumkin.

Tadbirni rejalashtirishda muhim omillar.

Tadbirni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun quyidagi omillarni hisobga olish kerak:

Byudjet – tadbir moliyaviy jihatdan qanchalik qoplanishi va resurslarning samarali taqsimlanishi.

Joy va vaqt – qulay joy va ishtirokchilar uchun mos vaqt tanlash, shuningdek, ob-havoni hisobga olish.

Reklama – ijtimoiy tarmoqlar, mahalliy ommaviy axborot vositalari va bannerlar orqali keng targ‘ib qilish.

Xavfsizlik – tomoshabinlar va ishtirokchilar uchun xavfsiz sharoitlar yaratish, favqulodda vaziyatlar uchun reja tayyorlash.

Xulosa

Tadbirning muvaffaqiyatiga erishish uchun uning har bir elementi diqqat bilan o‘ylab chiqilgan bo‘lishi zarur. Tadbirning maqsadi nafaqat aniq, balki ishtirokchilar uchun ham tushunarli va jozibador bo‘lishi lozim. Maqsad qanchalik aniq ifodalangan bo‘lsa, rejalashtirish jarayoni shunchalik samarali bo‘ladi. Mavzu esa tadbirning asosiy qadriyatlarini va yo‘nalishini belgilab beradi, shuning uchun u nafaqat zamonaviy, balki auditoriyaning qiziqishlariga ham mos kelishi kerak.

Auditoriyani to‘g‘ri tanlash va ularning ehtiyojlarini hisobga olish muvaffaqiyatning kalitidir. Har bir yosh guruhi, ijtimoiy guruh yoki madaniy guruhning o‘ziga xos xususiyatlari borligini unutmaslik kerak. Tadbir ishtirokchilari uchun qulay vaqtni tanlash, qulay joyni belgilash ham juda muhim omillardan hisoblanadi. Bu jihatlarni hisobga olmaganda, eng ajoyib g‘oyalar ham amalda muvaffaqiyatsizlikka uchrab qolishi mumkin.

Tadbir shakli va uslubi ham ayniqsa diqqat talab qiladigan jihatlardan hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, interaktiv elementlarni qo‘llash, tomoshabinlarni faol ishtirok ettirish kabi usullar tadbirning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bunday yondashuv nafaqat taassurotni kuchaytiradi, balki tadbir haqida ijtimoiy tarmoqlarda tabiiy ravishda muhokama boshlanishiga ham yordam beradi.

Tashkiliy jihatlar - byudjetni to‘g‘ri taqsimlash, xavfsizlik choralarini ko‘rish, sifatli reklama kampaniyasini olib borish - barchasi tadbirning yakuniy natijasiga ta‘sir ko‘rsatadi. Kichik tafsilotlarga ham yetarlicha e‘tibor berilishi kerak, chunki aynan shu tafsilotlar ko‘pincha umumiy taassurotni shakllantiradi.

Yaxshi tashkil etilgan tadbirlar faqat madaniy ahamiyatga ega bo‘lib qolmaydi. Ular ijtimoiy jihatdan ham jamiyatning turli qatlamlarini yaqinlashtiruvchi, o‘zaro tushunishni oshiruvchi vosita bo‘la oladi. Iqtisodiy nuqtai nazardan esa, bunday tadbilar turizmni rivojlantirish, mahalliy iqtisodiyotni rag‘batlantirish va yangi hamkorlik imkoniyatlarini yaratish uchun mos platforma hisoblanadi.

Oxir oqibat, har bir muvaffaqiyatli tadbir - bu uzoq muddatli ta‘sirga ega bo‘lgan, ishtirokchilar xotirasida uzoq vaqt qoladigan va ularning hayotiga ijobiy o‘zgarishlar kiritadigan voqea bo‘lishi kerak. Buning uchun esa barcha jihatlarni muvozanatli holda hisobga olish, ijodiy yondashuv va professional tashkilotchilik mahoratini uyg‘unlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. “Educational Process Legislation and Principles and their Use in Student Practice”. SU Norova, T Mukhamedov
International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24 (04), 6485
2. Способы направления студентов на информационные технологии
ТД Мухамедов. Вестник науки и образования

Ollaberganova Sanobar Xamidovna
Urganch davlat universiteti,
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI ORQALI O‘QUVCHILAR LINGVISTIK VA KOGNITIV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Annotatsiya. *Ushbu maqola boshlang‘ich ta’lim jarayonida xalq og‘zaki ijodi orqali o‘quvchilar lingvistik va kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish modeli, . o‘zbek xalq og‘zaki ijodi qisqa, aniq ma’no anglatadigan maqollardan, keng qamrovli, bir-biriga ulanib ketadigan dostonlargacha bo‘lgan har xil turdagi namunalar aks ettirilgan.*

Kalit so‘zlar: *xalq pedagogikasi, xalq og‘zaki ijodi folklor, maqollar, ertak va rivoyatlar, qo‘shiq, topishmoq, san’at .*

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ЯЗЫКОВЫХ И ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА В ПРОЦЕССЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье исследуется педагогическая модель развития лингвистических и когнитивных компетенций учащихся начальной школы посредством интеграции узбекских народных устных традиций в образовательный процесс. В исследовании рассматриваются различные жанры народной литературы — от лаконичных и назидательных пословиц до сложных и взаимосвязанных эпических повествований — и подчеркивается их роль в развитии лингвистических способностей учащихся, навыков критического мышления и культурной идентичности. В исследовании подчеркивается методологическая значимость использования устного народного творчества в качестве образовательного ресурса в рамках национальных и культурных ценностей.*

Ключевые слова: *народная педагогика, устный фольклор, пословицы, сказки, легенды, песни, загадки, традиционное искусство, языковое развитие, когнитивные навыки.*

A MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF LANGUAGE AND COGNITIVE SKILLS OF STUDENTS THROUGH ORAL CREATIVITY IN THE PROCESS OF PRIMARY EDUCATION

Annotation. *This article explores a pedagogical model for the development of linguistic and cognitive competencies of primary school students through the integration of Uzbek folk oral traditions into the educational process. The study examines diverse genres of folk literature—ranging from concise and didactic proverbs to complex and interconnected epic narratives—and highlights their role in enriching students' linguistic abilities, critical thinking skills, and cultural identity. The research emphasizes the methodological relevance of using oral folklore as an educational resource within the framework of national and cultural values.*

Keywords: *folk pedagogy, oral folklore, proverbs, fairy tales, legends, songs, riddles, traditional art, linguistic development, cognitive skills.*

Yoshlarga ta’lim-tarbiya berish har doim ham eng dolzarb muammo sanalib kelingan. Jamiyatning taraqqiyoti insonlarning ongiga, aql-zakovati, axloq-odobiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Yaxshi tarbiya ko‘rgan kishi eng avvalo, el-yurtning, xalqning manfaatini o‘ylaydi. Chunki har bir shaxsning baxt-saodati alohida, o‘z holicha amalga oshmaydi. Atrofdagilar baxtli va farovon turmush kechirganlarida huzur-halovat hammaga tatiydi. Bu qoida qadim zamonlardan mavjud bo‘lib, unga turli davrlarda turlicha amal qilib kelingan. Insoniyat boshidan kechirgan turli jamiyatlarda mafkura, g‘oya, siyosiy va ijtimoiy qonun-qoidalar bir-biridan farq qilgan. Ta’lim va tarbiya ishlari ijtimoiy

buyurtma sifatida mavjud jamiyatning ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilgan. Shu asnoda xilma-xil ta'lim-tarbiya tizimlari tarkib topgan. Yangicha qarashlar, ta'minotlar, nazariya va amaliy tajriba namunalari paydo bo'lgan. Hali insoniyat yozish-o'qishni bilmagan paytlarda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish haqidagi qarashlar xalq og'zaki ijodi namunalarida aks etgan. Uzoq davrlar tajribada sinalib, sayqallanib borgan. Kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish darajasiga etgan. Yozish-o'qish paydo bo'lgandan keyin ham xalq og'zaki ijodi o'z mavqeini yo'qotmagan, aksincha, yozma adabiyotlar mazmuniga singgan holda ta'sirchanligi yanada ortib borgan. Boshlang'ich ta'lim bola aqliy tarbiyasini kuchaytiradigan, tarbiyaning boshqa yo'nalishlari bilan uzviy bog'liqlikda olib boriladigan, bilim va dunyoqarashning ko'lamini kengaytiradigan, eng asosiysi, yuqori sinflarda muvaffaqiyatli ta'lim olishini ta'minlaydigan bosqichdir. Shu tufayli boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha fanlar, ularning bo'limlari, har bir mavzu va tushunchalar alohida e'tibor bilan tanlanadi. O'quvchining bilim saviyasi va darajasiga mos holda aqlining o'sib borishini ta'minlaydigan, kundalik turmush amaliyotida foydalanadigan, hayotda sodir bo'lgan voqea va hodisalarning mohiyatini anglatuvchi materiallar o'tiladi. Mana shu jarayonda yuqorida aytganimizdek, xalq og'zaki ijodi namunalari ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Xalq og'zaki ijodi namunalarining yoshlarga ta'lim va tarbiya berishga qaratilganlarini fanda xalq pedagogikasi deb yuritiladi. Xalq ommasining turmush kechirish jarayonida to'plangan ta'lim-tarbiya borasidagi tajribalar va bilimlar yig'indisi xalq pedagogkasining mazmunini ifodalaydi. Xalq pedagogikasi - mehnatkash xalq va donishmandlarning yoshlarni kutilgan maqsadga muvofiq barkamol kishilar qilib etishtirishda tarbiyaning maqsad va vazifalariga bo'lgan qarashlari hamda xalq ommasi tomonidan ta'limtarbiya ishlarini amalga oshirish borasida qo'llanib kelingan usul, vosita, ko'nikma va malakalar birligi, tajribalar asosida to'plangan bilim va ma'lumotlar yig'indisidir. Ulardan ta'lim jarayonida foydalanish o'quvchilarni milliy o'zligini anglashga, mustaqil O'zbekistonning munosib farzandlari bo'lishiga katta hissa qo'shadi. Shu tufayli ham boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning mazmuniga xalq og'zaki ijodi namunalaridan kiritilib kelinadi. Xalq dostonlari, maqollar, matallar, topishmoqlar, hikmatli so'zlar, afsona va rivoyatlar yoshlarning dunyoqarashini shakllantiradi, oliyjanob insoniy fazilatlarni tarkib toptiradi. Bola ular orqali o'z xalqining o'timishini, mehnat faoliyatini, orzu-havas va intilishlarini bilib oladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari o'quvchilarni bilim olishga qiziqtiradi, ongli va faol o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi.

Folklor janrlari va ularning ijtimoiy, metodik va lingvistik funktsiyalari, xalq og'zaki ijodi namunalari asrlar davomida tajribada sinalgan, hayotda takror-takror qo'llangan, shubhasiz yaxshi natijalar bergan tushunchalarni aks ettiradi. Bu tushunchalar xalq aql-zakovati va ijodiy mulohazalari bilan sayqallangan, yuksak badiiy qiymat kasb etadigan darajaga yetkaziladi. O'zbek xalq og'zaki ijodi qisqa, aniq ma'no anglatadigan maqollardan, keng qamrovli, bir-biriga ulanib ketadigan dostonlargacha bo'lgan har xil turdagi namunalami o'z ichiga oladi. Bularning hammasida inson kamoloti, aql-idroki, kuch-qudrati, axloq-odobi, mehnat faoliyati va mahorati talqin qilinadi. Bola kamolotining turli davrlariga mos keladigan, ta'limning har bir bosqichida o'rganilishi mumkin bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalari mavjud bo'lib, ularni to'g'ri tanlash, xilma-xil metod va usullardan, vosita va shakllardan foydalangan holda o'rgatish o'qitishning samaradorligini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy tarbiya berish kuchaytirilgan hozirgi paytda, ta'lim va tarbiyaning mazmuniga o'zgartirishlar kiritilayotgan sharoitda bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalari ijobiy natija berishi shubhasizdir. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan .

Folklor janrlari turlariga maqollar, ertak va rivoyatlar, qo'shiqlarni kiritish mumkin. Topishmoqlar ko'proq aqliy tarbiya va bilim olishning vositasi deb tahlil qilinadi. Lekin ularning ham tarbiyaviy ta'sirini inkor etish mumkin emas. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari hayotning turli-tuman tomonlarini o'z ichiga olgan, kishilarning axloq-odobga, sabr-qanoatga, insof va diyonatga, to'g'rilik va rostgo'ylikka chorlagan xalq donishmandligi durdonalarida yuksak insoniy ideallar targ'ib qilingan. Boshlang'ich sinflarda nisbatan ko'proq o'rganiladigan ertaklar, topishmoqlar, maqollarning til va badiiy xususiyatlari bir-biriga bog'liq hamda farq qilinadigan tomonlari bilan ajralib turadi. Xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari asosan, axloq-odob va tarbiyaning turli

yo‘nalishlarini amalga oshirishga mo‘ljallangan bo‘lsa, topishmoqlar ko‘proq yoshlarning aqliy kamolotiga ta’sir etishning vositasi bo‘lib kelgan. Topishmoqlar qandaydir darajada muammoli ta’limga yaqin turadi. O‘quvchining oldiga muammoli savol, vazifa, topshiriq hatto ayrim topishmoqlar muammoli vaziyat yaratish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda hech narsani e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi Maktabdan tashqarida, bola televizor va kompyuterdan charchaganida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanilsa ham aqliy, ham axloqiy, ham sihat-salomatlik uchun ulkan hissa qo‘shish mumkin ekanligi aniqlandi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda, xalq og‘zaki ijodidan foydalanishda, yoshlarga ta’lim-tarbiya berish har doim ham eng dolzarb muammo sanalib kelingan. Yoshlarning ta’lim-tarbiya olishlariga mas'ul bo‘lgan barcha o‘rinlarda xalq pedagogikasi xazinasidan foydalanish hayotiy ehtiyoj darajasiga ko‘tarildi. Yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi quyi sinflarda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanilganda bu darajaga erishish engil amalga oshadi. Boshlang‘ich sinflardayoq iqtisodiy va ekologik tushuncha, ko‘nikma va malakalar tarkib topib boshlaydi. Ta’lim-tarbiya muassasalarida o‘quvchi-yoshlarning har tomonlama kamol topishiga e'tibor qaratiladi.

Xalq og‘zaki ijodi xalq pedagogikasining asosiy vositasidir. Xalq pedagogikasi - bu yosh avlodni tarbiyalash bo‘yicha kattalar faoliyatining o‘quv predmeti va turi, g‘oyalar va g‘oyalar, qarashlar va qarashlar va e'tiqodlar, shuningdek, xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha ko‘nikma va uslublarning umumiyligi va o‘zaro bog‘liqligi va yosh avlodni tarbiyalash xalq amaliy san’atida o‘z ifodasini topdi. Bu millatning yosh avlodga nisbatan mentaliteti va oila va jamiyatdagi tarbiyaviy an’analar, avlodlar aloqasi va davomiyligidir. Xalq og‘zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyatlari cheksizdir. Bugun jamiyatimiz xalq tajribasidan foydalangan holda, unutilgan antik an’analarni tiklamoqda, tarbiya nazariyasi va amaliyotining yangi modellarini yaratmoqda. Xalq og‘zaki ijodiga, madaniyatning qadimiy qatlamlariga, bir butun sifatida an’anaga e’tibor inson tarbiyasi va kamolotining bitmas-tuganmas manbaai sifatida keyingi yillarda ijtimoiy-pedagogik muhitda ayniqsa faol bo‘ldi. Bu xalq og‘zaki ijodi janrlarining funksional xususiyatlari, xalq og‘zaki ijodining chuqur ma’naviyati va hikmati, milliy madaniyatning avloddan-avlodga o‘tish jarayonining uzluksizligi bilan bog‘liq. Yangi asr boshlarida milliy madaniyat, etnik jarayonlar, an’anaviy badiiy ijod, xalq og‘zaki ijodiga qiziqish kuchaydi. Olimlar har bir xalqning tarixiy va milliy o‘z-o‘zini anglashidagi alohida o‘sishni qayd etib, buni ijtimoiy-psixologik va siyosiy sabablar bilan izohlaydilar.

Xalq og‘zaki ijodi, xalq urf-odatlari, marosim va bayramlari, an’anaviy amaliy san’at va tasviriy san’atni qayta tiklash bugungi kunning dolzarb muammosidir. Folklor, uning janrlari, vositalari, usullari xalq hayotining butun manzarasini to‘liq to‘ldiradi, xalq hayoti, uning axloqi, ma’naviyati haqida yorqin tasavvur beradi. Xalq og‘zaki ijodi xalqning ruhini, qadr-qimmatini, xususiyatlarini ochib beradi. Ilm-fan nuqtai nazaridan xalq og‘zaki ijodi alohida o‘rganishga, puxta baho berishga loyiq hodisadir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, xalq og‘zaki ijodi bolalar va yoshlarning ertak, doston, afsonalar olamida ijodiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Ta’limning zamonaviy modelini qurishda xalq og‘zaki ijodida tizimlashtirilgan ma’naviyat an’analarining ko‘p asrlik tarixi topilmalaridan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn

2. . Aliyev A. Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Akademiya, 2000. – 631 b.

3. 17. Anorbayev A. Badiiy asar-ma’naviy boylik // Boshlang‘ich ta’lim, 2008, 6-son, 18-bet.

4. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S. va b. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 3-sinf o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. - Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. -160 b.

5. 28. Afzalov M.I. O‘zbek xalq ertaklari haqida. T.: «Fan», 1964. 88-92-betlar.

6. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi.- Toshkent: “O‘qituvchi”, 1990. 44-bet

7. Jo‘raev M. O‘zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar. – T.: Fan, 1991. – 153 b.

Sabirova Nasiba Rasulovna
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, O‘zbekiston, Buxoro
E-mail: sabirova.nasiba87@mail.ru

BASKETBOLCHILARNING BIOLOGIK YOSHIGA QARAB JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH METODIKASI: NAZARIY VA ILMIY ASOSLAR

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada basketbolchilarning biologik yoshiga mos jismoniy tayyorgarlik metodikasining nazariy asoslari va amaliy ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Biologik yoshni hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni individuallashtirish jarohatlar xavfini kamaytirish hamda sportchilar samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar natijalari va olimlarning qarashlari asosida metodika taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar. *basketbol, biologik yosh, jismoniy tayyorgarlik, individual yondashuv, sport metodikasi, jarohatlarning oldini olish.*

“МЕТОДИКА ПОВЫШЕНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ БАСКЕТБОЛИСТОВ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ИХ БИОЛОГИЧЕСКОГО ВОЗРАСТА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ”

Аннотация. *В данной научной статье будут рассмотрены теоретические основы и практическое значение методики физической подготовленности Гарлика, подходящей для биологического возраста баскетболистов. Индивидуализация тренировок с учетом биологического возраста является важным фактором снижения риска травм, а также повышения эффективности спортсменов. Была предложена методика, основанная на результатах научных исследований и оценках ученых.*

Ключевые слова. *баскетбол, биологический возраст, физическая подготовленность, индивидуальный подход, спортивная методика, профилактика травматизма.*

“METHODOLOGY FOR IMPROVING THE PHYSICAL PREPARATION OF BASKETBALL PLAYERS ACCORDING TO THEIR BIOLOGICAL AGE: THEORETICAL AND SCIENTIFIC FOUNDATIONS”

Annotation. *This scientific article will consider the theoretical foundations and practical significance of the physical readiness-garlik methodology, suitable for the biological age of basketball players. Individualization of training taking into account biological age is an important factor in reducing the risk of injuries as well as increasing the effectiveness of athletes. A methodology based on the results of scientific research and the qa-rashes of scientists has been proposed.*

Keywords. *basketball, biological age, physical fitness, individual approach, Sports methodology, injury prevention.*

Kirish.Basketbol dunyo bo‘ylab keng tarqalgan sport turlaridan biri sifatida yosh sportchilar jismoniy tayyorgarligining yuqori darajasini talab qiladi (Zatsiorskiy, 2012). Ushbu sport turida sportchining tezlik, chidamlilik, kuch va koordinatsiyadagi individual farqlari ularning natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, jismoniy tayyorgarlikni shakllantirishda sportchining **biologik yoshi** — ya’ni uning organizmning o‘sish, rivojlanish va funktsional imkoniyatlarini ifodalovchi ko‘rsatkich — muhim ahamiyat kasb etadi (Malina, Bouchard & Bar-Or, 2004).

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kalendar yoshga qaraganda biologik yosh sportchining jismoniy imkoniyatlarini aniqroq belgilaydi va tayyorgarlik jarayonini individuallashtirishda asosiy mezon hisoblanadi (Tanner, 1962). Biologik yoshga moslashtirilgan tayyorgarlik metodikasi yosh sportchilarda ortiqcha yuklanish va jarohatlar xavfini sezilarli darajada kamaytiradi (Kraemer & Ratamess, 2004). Tomkinson va boshqalar (2018) energiya tizimlarining yoshga bog‘liq rivojlanishini o‘rganib, yondashuvlarni optimallashtirish zarurligini ta’kidlaydilar.

O‘zbekiston sharoitida yosh sportchilar, xususan basketbolchilar salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy va amaliy ishlar so‘nggi yillarda sezilarli darajada faollashdi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda respublika bo‘ylab 12 yoshgacha bo‘lgan yosh basketbolchilar soni 5 ming nafardan oshgan, ularning jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish uchun metodik yangilanishlar talab qilinmoqda (O‘zbekiston Jismoniy Tarbiya va Sport Vazirligi, 2023).

Toshkent shahridagi ixtisoslashtirilgan sport maktablarida biologik yoshni aniqlash uchun rentgenologik suyak yoshini baholash va funksional testlar qo‘llanilmoqda. Sportchilarni individual rivojlanishiga asoslangan mashg‘ulotlar dasturlari ishlab chiqilmoqda. Sport fanlari doktori M. Islomovning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, biologik yoshga moslashtirilgan tayyorgarlik natijasida yosh basketbolchilarda o‘rtacha 15-20% jismoniy ko‘rsatkichlar yaxshilanishi kuzatilgan (Islomov va boshq., 2022). Masalan, O‘zbekiston Milliy Olimpiya Qo‘mitasi va yoshlar sport maktablari tomonidan olib borilayotgan amaliy tadqiqotlar biologik yoshga moslashgan tayyorgarlik metodikasining samaradorligini tasdiqlamoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yosh basketbolchilarning sportdagi yutuqlarini oshirish, jarohatlardan himoyalanish va ularning umumiy sog‘lomligini ta’minlash imkonini beradi. Shu bois, ushbu maqola xorij olimlarining biologik yosh tushunchasiga oid ilmiy tadqiqotlari va amaliy tajribalarini yoritib, ularni O‘zbekiston sport tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Basketbolchilarning biologik yoshiga qarab jismoniy tayyorgarlikni oshirish metodikasining nafaqat nazariy, balki amaliy asoslari ham ko‘rib chiqiladi.

Nazariy asoslar. Basketbol sportida jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajada bo‘lishi muvaffaqiyat garovidir. Jismoniy tayyorgarlikni shakllantirishda sportchining individual xususiyatlari, ayniqsa biologik yoshi katta ahamiyat kasb etadi. Biologik yosh — organizmning o‘sish, rivojlanish va funktsional holatini aks ettiruvchi ko‘rsatkich bo‘lib, sportchilarni baholashda kalendar yoshidan ko‘ra aniqroq ma’lumot beradi (Malina va boshq., 2004).

Nazariy jihatdan biologik yoshga asoslangan tayyorgarlik yosh sportchilarda o‘sish jarayonini hisobga olib, yuklamalarni optimallashtirish imkonini yaratadi. Bu yondashuv ortiqcha yuklamalarni oldini olib, jarohatlar xavfini kamaytiradi va sportchilar salomatligini mustahkamlaydi (Kraemer & Ratamess, 2004).

Tanner (1962) tomonidan ishlab chiqilgan biologik yosh aniqlash usullari sportchilarning o‘sish bosqichlarini baholashda keng qo‘llaniladi. Bu konsepsiya jismoniy tayyorgarlikni individuallashtirishda poydevor vazifasini o‘taydi.

Biologik yosh tushunchasi va uning aniqlanish usullari: Biologik yosh — bu organizmning funktsional holati va rivojlanish sur’atlarini ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib, u kalendar yoshidan farq qiladi. Biologik yoshni aniqlashda bir nechta usullar mavjud:

– Suyak yoshini rentgenografik usulda aniqlash (Tanner va Whitehouse metodikasi)
– Morfologik o‘zgarishlar bo‘yicha baholash (masalan, teri qalinligi, tana tuzilishi)
– Funktsional testlar (kardiorespirator chidamlilik, kuch, tezlik testlari)
– Biokimyoviy ko‘rsatkichlar (gormonlar darajasi va boshqalar)

O‘zbekiston sport muassasalarida ayniqsa suyak yoshini aniqlash keng qo‘llanilmoqda, bu yosh basketbolchilarning o‘sish bosqichini aniqlashga yordam beradi va mashg‘ulot yuklamalarini moslashtirish imkonini beradi (Islomov va boshq., 2022).

Biologik yosh va jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari:

Biologik yosh guruhi	Tezlik (10 m sprint, s)	Chidamlilik (VO2max, ml/kg/min)	Sakrash balandligi (sm)
11-12 yosh	2.4	42	30
13-14 yosh	2.2	48	35
15-16 yosh	2.0	52	42

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, biologik yosh oshgani sayin sportchilarning tezlik, chidamlilik va kuch ko‘rsatkichlari yaxshilanadi (Malina va boshq., 2004). Bu esa tayyorgarlik metodikasini yoshga moslashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

Maturatsiya darajasi va jismoniy tayyorgarlik

Maturatsiya darajasi	Tezlik (10 m sprint, s)	Agillik (505 test, s)	Kuch (tortish, kg)
Erta	2.0	2.5	45
O‘rtacha	2.2	2.7	40
Kech	2.4	2.9	35

Erta maturatsiyaga ega sportchilar odatda yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishadi, shuning uchun tayyorgarlikni ularning biologik holatiga qarab sozlash lozim (Kraemer & Ratamess, 2004).

Basketbolchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari va biologik yoshga bog‘liqligi: Basketbolchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari (tezlik, kuch, chidamlilik, koordinatsiya) ularning biologik yoshiga muvofiq o‘zgaradi. Malina va boshqalar (2004) tadqiqotlariga ko‘ra, biologik yosh sportchilarning jismoniy ko‘rsatkichlari va treningga javob berish tezligini belgilovchi asosiy omildir. Yoshga mos mashg‘ulot dasturlari yuqori samaradorlikka olib keladi, bu esa sportchilarning o‘yin davomida ko‘rsatgan faoliyatini yaxshilaydi va ularni ortiqcha charchoqdan himoya qiladi. O‘zbekiston sharoitida olib borilgan amaliy tadqiqotlarda biologik yoshga moslashtirilgan tayyorgarlik natijasida yosh basketbolchilarning o‘rtacha chidamlilik va kuch ko‘rsatkichlari 15-20% ga yaxshilanganligi qayd etilgan (Islomov va boshq., 2022).

Biologik yoshga mos tayyorgarlik metodikasi. Biologik yoshga mos tayyorgarlik metodikasi mashg‘ulot yuklamalarini, intensivligini, tiklanish davrlarini individual tarzda belgilashga asoslanadi. Ushbu metodika quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Biologik yoshni aniqlash va sportchining individual xususiyatlarini baholash
2. Jismoniy tayyorgarlik elementlarini (tezlik, kuch, chidamlilik, koordinatsiya) yoshga mos rejalashtirish
3. Mashg‘ulotlarning intensivligi va hajmini biologik yoshga qarab sozlash
4. Tiklanish va reabilitatsiya jarayonlarini individuallashtirish
5. Mashg‘ulot natijalarini muntazam monitoring qilish va metodikani qayta ko‘rib chiqish

O‘zbekiston sport muassasalarida bu metodika joriy qilinayotgan bo‘lib, bu jarayon yosh sportchilarning individual rivojlanishini hisobga olib, ularni ortiqcha yuklamalardan himoya qilish imkonini beradi.

Xulosa.Basketbolchilarning biologik yoshiga qarab jismoniy tayyorgarlikni oshirish metodikasi zamonaviy sport nazariyasi va amaliyotining muhim qismidir. Xalqaro va o‘zbek olimlarining tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, biologik yoshga moslashtirilgan tayyorgarlik jarayoni sportchilarning salomatligini saqlash va jismoniy ko‘rsatkichlarini oshirishda samarali vositadir.

O‘zbekiston sharoitida ushbu metodikaning joriy etilishi yosh basketbolchilarning individual rivojlanishini ta’minlab, ularning sportdagi natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bois quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

– Biologik yoshni aniqlash usullarini sport muassasalarida keng joriy etish
– Tayyorlov jarayonini individuallashtirish va yoshga moslashtirish
– Trenerlar va mutaxassislar malakasini oshirish bo‘yicha doimiy ish olib borish
– Ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish va amaliyotga tatbiq etish

Ushbu yondashuv yosh basketbolchilarning muvaffaqiyatli rivojlanishi va sport salomatligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Malina, R. M., Bouchard, C., & Bar-Or, O. (2004). *Growth, Maturation, and Physical Activity*. Human Kinetics.

2. Tanner, J. M. (1962). *Growth at Adolescence*. Blackwell Scientific Publications.

3. Kraemer, W. J., & Ratamess, N. A. (2004). Fundamentals of resistance training: progression and exercise prescription. *Medicine & Science in Sports & Exercise*, 36(4), 674-688.

4. Tomkinson, G. R., Lang, J. J., Tremblay, M. S., & Olds, T. S. (2018). Temporal trends in the cardiorespiratory fitness of children and adolescents in the United States, 1981-2014. *Sports Medicine*, 48(2), 295-306.

5. Smith, D. J., Norris, S. R., & Hogg, J. M. (2019). Performance evaluation of swimmers: scientific tools. *Sports Medicine*, 29(7), 495-509.

6. Ross, W. D., & Marfell-Jones, M. J. (1991). *Kinanthropometry*. In *Physiological Testing of the High-Performance Athlete* (pp. 223-308). Human Kinetics.

7. Islomov, A., Karimov, S., & Rakhmatov, M. (2022). Basketbolchilarning biologik yoshiga qarab jismoniy tayyorgarligini boshqarish metodikasi. *O‘zbekiston Jurnali: Sport va Sog‘liq*, 5(2), 45-53.

8. Milliy Olimpiya Qo‘mitasi. (2023). *Sportchilarni tayyorlashda biologik yoshga asoslangan yondashuvlar*. Toshkent.

9. Nasiba S. Basics and Advantages of Individual Training to Increase Technical and Tactical Training of Basketball Players //Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.

10. Sabirova N. Basketbol bilan bog'liq o'quv va tarbiya jarayonida o'yin texnikasining o'ziga xosligi: Basketbol bilan bog'liq o'quv va tarbiya jarayonida o'yin texnikasining o'ziga xosligi //Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 1.

Shoymurotov Umidjon Qahramon o‘g‘li
Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
mustaqil tadqiqotchisi
Abrorxonova Kamola Abrorxon qizi
Nizomiy nomidagi O’MPU Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi
kafedrasi mudiri, PhD, dotsent

TASVIRIY SAN’AT VA ADABIYOTNING ALOQADORLIK QONUNIYATLARI ASOSIDA TALABALARDA BADIIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH MODELI MAZMUNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarda tasviriy san’at va adabiyotning aloqadorlik qonuniyatlari asosida badiiy tafakkurni rivojlantirish modeli mazmuni haqida so’z borgan.*

Kalit so’zlar: *tasviriy san’at, adabiyot, badiiy tafakkur, model, integratsiya, gorizontal integratsiya, tematik integratsiya, mazmunli-jarayonli, funksional-tashkiliy, natijaviy blok.*

СОДЕРЖАНИЕ МОДЕЛИ РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ЗАКОНОМЕРНОСТЕЙ ВЗАИМОСВЯЗИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА И ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. *В данной статье речь шла о содержании модели развития художественного мышления у студентов на основе реляционных закономерностей изобразительного искусства и литературы.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, литература, художественное мышление, модель, интеграция, горизонтальная интеграция, тематическая интеграция, содержательно-процессная, функционально-организационная, результирующий блок.*

THE CONTENT OF THE MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF ARTISTIC THINKING IN STUDENTS ON THE BASIS OF THE LAWS OF COMMUNICATION OF FINE ARTS AND LITERATURE

Annotation. *this article talked about the content of the model for the development of artistic thinking in students on the basis of the laws of communication of Fine Arts and literature.*

Keywords: *visual arts, literature, artistic thinking, model, integration, horizontal integration, thematic integration, meaningful-process, functional-organizational, consequential block.*

Bugungi kunda zamonaviy o‘zbek tasviriy san’atiga ko‘plab yosh iste’dod egalari kirib kelayotgani, turli yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatayotgan ijodkorlar, xususan, rassom va haykaltaroshlar, xalq ustalari ijodida yangicha mazmun va shakl, jahon san’at maydonida munosib o‘rin egallashga intilish tendensiyalari ko‘zga tashlanayotganini ijobiy baholash lozim.

Fanlararo aloqalar tizimidagi tasviriy san’atning muhim xususiyati – bu o‘rganilayotgan materialning xilma-xilligi, o‘quv faoliyatiga qiziqish va motivatsiyani saqlashga imkon beradigan sinf ishining vositalari, shakllari va usullaridir. Go‘zallik, tasvir va hissiy intensivlik integratsiyalashgan san’at darslarida o‘rganilgan materiallar ham qiziqishni saqlab qolishga yordam beradi. Tasviriy san’atning yana bir o‘ziga xos xususiyati-bu bolalarni haddan tashqari yuk va charchoqdan himoya qiladigan intellektual faoliyat natijasida kelib chiqadigan neyropsik stressni engillashtirish qobiliyatidir.

Ushbu mavzu bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar, pedagogik adabiyotlarni o‘rganish muammosi shundaki, o‘smirlarning dizayn faoliyatiga tayyorligini rivojlantirishda tasviriy san’atning pedagogik salohiyati quyidagi qoidalardan iborat:

1. Tasviriy san’at ma’naviy va axloqiy rivojlanishga hissa qo‘shadi va dunyoni estetik idrok etishga, badiiy didni, qiziqishni va san’at bilan aloqani rivojlantirishga muhtoj.

2. Tasviriy san’at fan ichidagi va fanlararo aloqalar asosida o‘qitishni tashkil qilishda katta imkoniyatlarga ega.

3. Tasviriy san’at o‘spirinlarda yaxlit fikrlashni shakllantirishni ta’minlaydi.

4. Tasviriy san’at o‘smirlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shuningdek, tasviriy san’at va adabiyotning aloqadorlik qonuniyatlari asosida talabalarda badiiy tafakkurni rivojlantirish uchun quyidagi optimal uslublardan foydalanishni taqozo etadi:

1. Tasviriy san’at mashg‘ulotlari orqali talabalarning milliy madaniyatimiz va komillik tuyg‘ularini shakllantirish, ma’naviy, axloqiy-estetik dunyoqarashini shakllantirish, badiiy tafakkurini rivojlantirish maqsadida har bir tasviriy san’at asarlarini chuqur tahlil qilgan holda talabalarga o‘rgatish.

2. O‘rgatiladigan tasviriy yodgorliklar insonparvarlik g‘oyasini, milliy madaniyat aks ettirilgan ruhda shakllantirilgan bo‘lishi lozim va ushbu merosni ijro qilishda talaba tasviriy san’at asarining mazmunini qalban his qilishi.

3. Har bir tasviriy san’at mashg‘ulotning asosiy maqsadi aniqligini ta’minlash.

4. Tasviriy va amaliy vositalarning bog‘liqligi.

5. Mashg‘ulotlarda har bir tarbiyaviy maqsad va vazifalarning izchilligi.

6. Tasviriy san’at mashg‘ulotlarning har bir bo‘limiga taalluqli o‘quv materiallari va ko‘rgazmali qurollarni to‘g‘ri tanlash.

7. Eng samarali natija beradigan uslublarni tanlash.

8. Har bir tasviriy san’at asarini o‘rganish jarayonida talabalarning emotsional-hissiy qabul qilish jarayonida individual xususiyatlarini hisobga olish.

9. Tasviriy san’at mashg‘ulotning tashkiliy qismining aniqligi.

10. Tasviriy san’at mashg‘ulotning induvidual va jamoa bilan ish olib borishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish.

11. Olib boriladigan ishlarni uslublarning turlicha bo‘lishi, mazmundorligi, emotsionalligi va tempini aniqlash.

12. Talabalarning tasviriy qobiliyati past bo‘lganlari bilan olib boriladigan individual ish rejasini tuzish va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish.

Biz tadiqotimiz doirasida tasviriy san’at va adabiyotning aloqadorlik qonuniyatlari asosida talabalarda badiiy tafakkurni rivojlantirishning kognitiv, texnologik, kreativlik komponentlarini aniqlashtirishda qalamtasvir, rangtasvir va akademik qalamtasvir asoslari, dastgohli rangtasvir kabi fanlarni o`qitishda imitatsion, dasturiy va texnik vositalar asosida erishdik.

Ta’limdagi integratsiya-bu odamlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mexanizm. U intensivlikni tezlashtirish, o‘quv va kognitiv faoliyatni tizimlashtirish va madaniy savodxonlikni oshirishga ham yordam beradi.

Bu yerda ta’limda integratsiya turlari katta rol o‘ynaydi. Dastlab bir nechta o‘quv fanlarining o‘xshash materiallari birlashtiriladi. Keyin u ma’lumotni taqdim etadigan o‘qituvchiga beriladi. Bunday holda, mavjud ma’lumotlar turli sharoitlarda taqdim yetilishi kerak. Bu ishlatilgan strukturaning samaradorligini baholashga imkon beradi. Zamonaviy dunyo haqida to‘liq tasavvurga yega bo‘lgandan keyin ikkinchi muhim ta’sir bu o‘quv jarayonini jadallashtirishdir. Bu o‘z navbatida iqtisodiy foyda ham keltiradi.

Gorizontal ravishda katta asoslarga birlashtirilgan integratsiyaning bir necha bosqichlari mavjud.

Umumiy integratsiya quyidagi guruhlarga ajratiladi:

Ta’lim integratsiyalari ma’lumotlarni to‘plash chegarasiga ko‘ra vertikal integratsiya va gorizontal integratsiyaga bo‘linadi.

Vertikal integratsiya mohiyat – turli xil o‘quv yillarida turli xil qiyinchilik darajasida takrorlanadigan bitta mavzuga oid materialni birlashtirish.

Gorizontal integratsiya - aloqador o‘quv materiallarini turli xil o‘quv fanlaridan birlashtirishdir.

O‘rganilayotgan ob’ekt va qo‘llanilgan usul turiga ko‘ra quyidagi tiplarga bo‘linadi;

Tematik integratsiya. Bir necha fan bitta mavzuni ochib berish bilan shug‘ullanadi;

Muammoli integratsiya. Turli xil sohalar bitta muammo bilan shug‘ullanadi.

Kontseptual integratsiya. Ko‘rib chiqish barcha usul va vositalardan foydalanilgan holda bir nechta ob’ektlar tomonidan olib boriladi;

Nazariy integratsiya. Turli nazariyalarning o‘zaro bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi.

Dialektik integratsiya. Turli xil bilim sohalariga tegishli prinsiplar va tushunchalardan foydalaniladi.

Dissertatsiyamiz doirasida takomillashtirilgan model maqsadli, mazmunli-jarayonli, funksional-tashkiliy, natijaviy bloklaridan iborat.

Maqsadga yo‘naltirilgan blok talabalarda badiiy tafakkurni rivojlantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirishning asosiy va yetakchi rol o‘ynaydi. Bunda ijtimoiy buyurtma asosida tasviriy san’at va adabiyotning aloqadorlik qonuniyatlari asosida talabalarda badiiy tafakkurni rivojlantirishning maqsad va vazifalari belgilanadi.

Mazmunli-jarayonli blok badiiy tafakkurni rivojlantirish bosqichlari va turlarini o‘ziga mujassamlashtirgan. Mazmunli blok talabalarda badiiy tafakkurni rivojlantirish jarayonining pedagogik-psixologik ko‘rsatkichlari, tafakkurning barcha turlaridan foydalanish orqali talablarda badiiy tafakkurni rivojlantirishga oid nazariy-metodik tamoyillardan foydalanishga bog‘liqligin o‘zida aks ettirdi.

Funksional-tashkiliy blok integrativ yondashuv asosida qurilgan bo‘lib, bunda talabalarda badiiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat, tasviriy san’at va adabiyotning aloqadorlik qonuniyatlari asosida talabalarda badiiy tafakkurni rivojlantirish yo‘nalishlari va qonuniyatlari, bu jarayonga ta’sir qiluvchi metod, shakl va vositalarni o‘z ichiga oladi. Natijaviy blok tasviriy san’at va adabiyotning aloqadorlik qonuniyatlari asosida natijaviylik funksiyasini bajaradi va tadqiqotning amaliy jihatini tavsiflab, pedagogik tajriba-sinov bosqichlari, baholash mezonlari va badiiy tafakkurning rivojlanganlik darajalarini aks ettiradi.

Talabalarda badiiy tafakkurni rivojlantirishda oliy ta’lim muassasalarining Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishida “Dastgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya” fani imkoniyatlari asos qilib olindi. Bunda talabalarda badiiy tafakkurni rivojlantirishning illyustrativ, reproduktiv va produktiv jihatlar asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotimiz muammosiga doir ilmiy manbaalarni o‘rganish, tahlil natijalarini umumlashtirish talabalarning badiiy tafakkuri komponentlarini quyidagicha belgilash imkonini berdi, bular: san’at asarini bevosita idrok etishda tayanuvchi aniq amaliy tafakkur; tasavvurda aks ettiriladigan ko‘rgazmali-obrazli tafakkur; nazariy masalalarni hal qilish hamda badiiy-estetik idrok etishning mantiqiyligi bilan bog‘liq abstrakt nazariy tafakkur.

Mazkur modelning komponentlari bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligi hamda badiiy tafakkurini rivojlantirish tizimining pedagogik imkoniyatlari (kasbiy faoliyatga amaliy tayyorlash va ijodiy yo‘naltirish) talabalarning kasbiy faoliyatining amaliy ko‘rinishlari (loyihalash, konstruksiyalash) va komponentlari (san’at asarini bevosita idrok etishda tayanuvchi aniq amaliy tafakkur; tasavvurda aks ettiriladigan ko‘rgazmali-obrazli tafakkur; nazariy masalalarni hal qilish hamda badiiy-estetik idrok etishning mantiqiyligi bilan bog‘liq abstrakt nazariy tafakkur) mazmuni dinamik modellashtirish orqali tasviriy san’at va adabiyot integratsiyasiga asoslangan mashg‘ulotlar mazmuniga optimallashtirish asosida singdirildi.

Tasviriy san’at va adabiyotning aloqadorlik qonuniyatlari asosida talabalarda badiiy tafakkurni rivojlantirishning natijalari muayyan mezonlar asosida baholanadi. Ularning asosiylari sifatida quyidagilarni e’tirof etish mumkin: badiiy tafakkurning tanqidiy-tahliliy mushohada yuritish darajasi; badiiy tafakkurning yangi yechimlar topish imkoniyati, ya’ni mantiqiy variativ ko‘rinishlarni topa olish kompetensiyasi; fikrlash xarakterini aniqligi, muammoning barcha jabhalarini qamrab olish; fikrlash tezligi, ayni paytda uning badiiy tafakkurning boshqa komponentlari bilan aloqadorligi.

Talabalarda tasviriy san’at va adabiyotning aloqadorlik qonuniyatlari asosida talabalarda badiiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda uch turdagi mashqlar tizimidan foydalanish tavsiya etiladi. Birinchi yo‘nalish badiiy intellektning analitik sifatlarini rivojlantirish, ikkinchi yo‘nalish analitik mushohada orqali shakllantirilgan turli omillarni “omuxtalashtirish”, sintetik umumlashtirish orqali uchinchi yo‘nalish – ijodiy faoliyat uchun o‘ziga xos zamin vazifasini o‘taydi. Yuqorida aytilganlardan anglash mumkinki, har uchala yo‘nalishning yakuniy natijasi badiiy tafakkur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori / Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida // 21.04.2020 yildagi PQ-4688-son

2. Bulatov S. S., Jabborov R. R. / Tasvir san'at asarlarining falsafiy va psixolog tahlili // (Monografiya) T.: "Fan va texnologiya". 2010.

3. Семенов Ю. И. / Основные понятия логики разумного мышления // Философия и общество, № 2, апрель–июнь 2010 5–26.

Ulashova Muattar Dilshod qizi
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi magistranti

ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF TABIIY FANLARINI O'QITISHNING USLULLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinfda tabiiy fanlarni innovatsion yondashuv asosida o'qitishning zarurati, usullari va samaradorligi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinf, tabiiy fan, innovatsion yondashuv, tabiiy fanni o'qitish usullari, texnik vositalar, texnik vositalar yordamida tabiiy fanni o'qitish.*

МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. *В данной статье рассматривается необходимость, методы и эффективность преподавания естественных наук в начальных классах на основе инновационного подхода.*

Ключевые слова: *начальный класс, естествознание, инновационный подход, преподавание естествознания с использованием методов преподавания естественных наук, технических средств, технических средств.*

USLULS OF TEACHING ELEMENTARY GRADE NATURAL SCIENCES ON THE BASIS OF MODERN DIGITAL TECHNOLOGIES

Annotation. *This article reflects on the need, methods and effectiveness of teaching Natural Sciences in the primary class on the basis of an innovative approach.*

Keywords: *elementary grade, natural science, innovative approach, methods of teaching natural science, teaching Natural Science Using technical means, technical means.*

Kirish. Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sababi boshlang'ich sinf o'quvchilarini anglash, yod olish, tushunishga harakat qilish va qiziqish kabi psixologik xarakteristikalari mukammal rivojlanayotgan hisoblanadi. Shundan, tabiiy va ijtimoiy fanlarni o'qitish ularning mazmun mohiyatini bolalar psixologik qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o'rgatish samarali natijalarga olib kelmoqda. Shu bois ko'plab rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimlarida va dunyodagi pedagoglar tomonidan zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha bir qator ilmioy izlanishlar olib borilmoqda.

Muhokamalar. Innovatsion yondashuv bu – ta'lim jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy qilish, raqamli vositalardan foydalanish, interfaol metodlar orqali o'quvchilarni faol o'quvchilarga aylantirish jarayonidir. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilarda bilimga bo'lgan qiziqish, mustaqil fikrlash va muammo yechish qobiliyatlari rivojlanadi.

Boshlang'ich ta'lim - ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tabiiy fanlar - insonni, uning sog'lig'ini, shuningdek butun atrof-muhitni: tuproqni, atmosferani, umuman yerni, kosmosni, tabiatni, barcha tirik va jonsiz jismlarni tashkil etuvchi moddalar va ularning o'zgarishini o'rganadigan fanlardir. Tabiatda ro'y berayotgan hodisa va jarayonlar, tirik organizmlarning rivojlanish bosqichlari, tabiat va jamiyat qonunlariga insoniyatning ko'rsatadigan ta'sirlari haqida ilmiy va amaliy bilimlar majmuasini yoritish tabiiy va iqtisodiy fanlar blok-modulining asosiy vazifasini belgilab beradi. O'quvchining ichki motivatsiyasining qanchalik shakllanganligi tabiiy va iqtisodiy fanlarga qiziqishi, atrof-muhit muammolarini anglashi va uni hal qilishda muhim qarorlarni qabul qilishni bilishi hamda tabiiy va sotsial muhitga ta'sirini tahlil qilishda muhim o'rin egallaydi.

Boshlang‘ich sinfda tabiiy fanlarni o‘qitishda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

Interfaol metodlar – “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert” usullari orqali o‘quvchilar mavzuga faol jalb qilinadi.

STEM-ta’lim – o‘quvchilarni ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematikani uyg‘unlashtirib o‘rgatish orqali amaliy bilimlar beriladi.

Loyiha asosida o‘qitish – o‘quvchilar o‘zlari mustaqil loyihalar tayyorlab, darsga faol jalb etiladi.

Raqamli texnologiyalar – simulyatsiyalar, videodarslar, virtual laboratoriyalar orqali mavzular aniq va tushunarli bo‘ladi.

Bugungi kunda tabiiy fanlar 1-11-sinflar kesimida o'qitilmoqda[1]. 1-6-sinfda tabiiy fanlar alohida alohida emas balki yaxlit SCIENCE fani sifatida o'qitiladi. Oliy ta'limda "Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar" fan dasturi "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi ta'labalari uchun ishlab chiqilgan va u barcha mavzularni qamarab olgan. Mavzular ketma ketligi boshlang'ich ta'lim maktab o'quvchisi tushuna oladigan sodda tilda yozilgan bo'lib bu bolada shu fanga bo'lgan qiziqish ortishiga turtki bo'ladi. "Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar" fan dasturida biologiya, fizika, astronomiya, geografiya kabi fanlar mavzulari tabiat, o'simliklar, hayvonlar, odam, yashash joyi, bizning sayyora, ob-havo, tabiiy boyliklar, quyosh sistemasi, yil fasllari, energiya, issiqlik, yorug'lik, tovush va harakat kabi ketma ketlikda keltirilgan.

Introduction. In today's globalized healthcare environment, English plays an important role as the language of scientific communication, international collaboration, and clinical practice. For ambitious medical professionals, English language proficiency is no longer a supplementary skill—it is essential for accessing up-to-date medical literature, understanding international guidelines, and participating in international conferences. This demand has led to the growing importance of Medical English within the broader field of English for Specific Purposes (ESP), which focuses on providing learners with the language required in their academic and professional domains.

In the case of Uzbekistan, most first-year medical students enter higher education with limited English proficiency, commonly at the CEFR A1 level or lower. While national educational reforms emphasize communicative competence and international standards, existing instructional materials often fail to meet the specific needs of low-proficiency learners in the medical field. Firstly, general English textbooks lack clinical or contextual relevance, and typical Medical English resources require a higher level of language mastery. This disconnect creates a substantial gap in pedagogical resources, hindering both language competence and professional development.

To meet this need, this study proposes an A1-level Medical English course book designed specifically for Uzbek medical students. The course book is based on ESP methodology and CEFR progression principles, aiming to scaffold linguistic development through thematically organized, context-rich lessons. The conceptual foundation of this model is informed by a selected review of more than 15 scholarly sources, including seminal works by Hutchinson and Waters (1987), Dudley-Evans and St. John (1998), Bas Turkmen (2010), and Tomlinson (2011), as well as current research in CEFR-based curriculum planning, textbook evaluation, and medical communication.

The course book introduces essential grammar, vocabulary, pronunciation, and communication skills through a structured sequence of fifteen lessons built around a fictional clinical narrative. Following the experience of a patient named Ali, the narrative approach contextualizes language use in realistic hospital situations such as registration, symptom reporting, and patient discharge. By integrating clinical content with linguistic scaffolding, the model aims to provide a solution to the gap between foundational language learning and practical communication in medical settings—offering a localized and pedagogically coherent solution for beginner-level ESP instruction.

Literature Review (Thematic structure & critical synthesis)

The design of beginner-level Medical English materials focuses on several intersecting fields: English for Specific Purposes (ESP), CEFR-based curriculum planning, medical communication pedagogy, and instructional material development. While these domains offer valuable frameworks individually, few studies integrate all of them in the context of A1-level learners—especially within the Uzbek educational setting. This literature review synthesizes research thematically across four core areas and highlights how the current study meets overlooked needs.

I. English for Specific Purposes (ESP) and Needs-Based Instruction. When considered its history, ESP emerged as a pedagogical response to learners' domain-specific language needs. Hutchinson and Waters (1987) defined ESP as a learner-centered, goal-oriented approach in which content, method, and activities are tailored to practical outcomes. Dudley-Evans and St. John (1998) emphasized authenticity and needs analysis, arguing that meaningful learning occurs when learners engage with tasks they are likely to perform in real life. Robinson (1991) also stressed contextual relevance and short-term practical application—especially in professional training programs. However, even though ESP theory is well-developed, there are very few practical examples that show

how to use it effectively with A1-level learners, who need simple, well-structured content and step-by-step language support.

II. CEFR Alignment and Low-Level Learners. The CEFR provides a standardized framework for measuring and structuring language progression. Its descriptors for A1-level learners emphasize basic interaction, limited vocabulary, and the need for visual, fixed, and highly contextualized input (Council of Europe, 2020). North (2000) and Little (2006) support curriculum alignment with CEFR's can-do descriptors, especially for beginner learners. Despite this, most ESP textbooks require B1 or higher proficiency, ignoring the communicative struggles faced by A1 learners. Therefore, there is a pedagogical gap in adapting ESP materials to CEFR-aligned starter-level learners, particularly in medical contexts.

III. Medical English and Clinical Communication. Medical English as a sub-branch of ESP focuses on vocabulary, communicative functions, and discourse patterns in healthcare. Gavioli (2005) showed the value of corpus-based approaches for identifying real-life hospital interactions. Bosher and Smalkoski (2002) developed healthcare courses based on the communication needs of immigrant nursing students, focusing that basic interpersonal communication is followed by mastery of technical terminology. However, the majority of materials either target upper-intermediate learners or lack task-based interactivity—leaving a significant pedagogical gap for beginners who must perform everyday tasks like symptom reporting or form-filling in clinical settings.

IV. Materials Development and Textbook Design. Tomlinson (2011) emphasized that materials must be engaging, learner-driven, and integrated with meaningful tasks. McGrath (2002) and Graves (2000) argue that effective course books provide both language input and structured opportunities for output. Nation and Macalister (2010) stress that lexical aspect must be controlled, especially for beginners. Still, a lot of current textbooks either overwhelm A1 learners with too much medical vocabulary or use generic (not helpful for real-life usage) exercises that lack real-life context.

Methods

This study adopted a design-based research (DBR) methodology to develop an A1-level Medical English course book prepared to the needs of Uzbek medical students. The DBR approach was chosen for its suitability in creating practical, context-sensitive educational innovations. The course book was constructed through four interrelated stages: contextual analysis, syllabus design, material development, and pedagogical alignment. A narrative-based approach was integrated throughout the course book to enhance engagement, contextualization, and retention.

Contextual Analysis. The initial phase involved a qualitative review of existing teaching materials, national curriculum standards, and institutional syllabi within Uzbek medical universities. The analysis showed a clear gap: while ESP (English for Specific Purposes) is gaining ground, most available resources are either too general or linguistically advanced for absolute beginners. Beginner-level students often struggle with both medical terminology and basic English grammar, making it necessary to create materials that address both domains simultaneously in an accessible and structured format.

Syllabus Design. A 14-lesson syllabus was designed to progressively introduce foundational grammar, functional vocabulary, and communication skills situated within common medical contexts. Lessons were organized around real-life scenarios such as patient admission, describing symptoms, asking about medication, and understanding doctor's instructions. Grammar topics (e.g., subject pronouns, "to be," present simple, question formation) were sequenced to build core sentence structures. Each unit introduces 12–15 key medical terms selected for their frequency and relevance to basic clinical communication.

Medical English A1: Table of Contents

Table 1

L.	**MEDICAL CONTEXT**	**Grammar Point**	**Pronunciation Focus**

1	Welcome to the hospital	Subject pronouns & To Be	Weak forms & link-ing
2	Around the Clinic	Articles (a/an/the)	Article reduction (/ə/ vs /æn/)
3	Patient Interview	Wh-questions & Yes/No questions	Rising vs falling intonation
4	Lab Preparations	Possessive ’s vs of-phrases	Linking /s/
5	Multiple Symptoms	Plurals & many vs much	Stress on “many” vs “much”
6	Daily Routines	Simple Present (habitual; 3rd person –s)	3rd-person –s reduction
7	In Action	Present Continuous	–ing ending (/ɪŋ/ vs /ɪn/)
8	Finding Your Way	There is/are + Prepositions of Place	Weak “there” (/ðər/)
9	Permissions in OR	Can/Can’t & May/May Not	Strong vs weak “can”
10	Sterilization Steps	Imperatives (commands)	Stress on verbs
11	Medication & Supplies	Some/any	Rising vs falling intonation
12	Health Histories	Have got / Has got	Contractions (/aɪv gɒt/, /ʃəz gɒt/)
13	Comparing Conditions	Adjective opposites (mild/severe; acute/chronic)	Stress on opposites
14	Dosage & Quantities Review	Quantifiers (few, a few, little, many, much…)	Weak quantifier forms

One of the key elements of this syllabus is its storyline. Each lesson is part of a bigger story about Ali, a young patient going through his first day at the hospital. This approach helps create a sense of connection and flow, as learners meet the same characters and situations across different tasks. It makes the language feel more real and memorable, and adds an emotional touch that helps students stay engaged. Each lesson is carefully designed to follow a clear and consistent structure, blending all four language skills—listening, speaking, reading, and writing—with focused support for grammar, vocabulary, and pronunciation. The materials are practical and accessible, using visuals, simple clinical conversations, gap-fill tasks, role-plays, guided writing, and comprehension questions. The storyline runs through the dialogues and texts, giving learners a sense of continuity and something to look forward to as they follow the unfolding journey. Pronunciation support is also embedded, focusing on common areas of difficulty for Uzbek learners, such as word stress, vowel length, and linking sounds. All activities are designed to be low-anxiety, supportive, and functional for real-life use in clinical environments. To ensure coherence with internationally recognized standards, the course book content was aligned with CEFR A1 “can-do” descriptors, emphasizing achievable, practical communication goals. The design also draws on core principles of ESP, particularly the need for relevance, authenticity, and learner-centeredness in professional language

education. The use of a narrative framework enhances these principles by providing a familiar and motivating context in which students encounter and reuse medical language purposefully.

Results and Discussion. The design process resulted in a 14-lesson Medical English course book that systematically integrates grammar, vocabulary, pronunciation, and the four language skills within clinical contexts appropriate for CEFR A1 learners. This course book addresses a critical gap in entry-level ESP materials by offering structured, contextually rich content specifically developed for Uzbek medical learners with little or no prior English proficiency. One of the most significant pedagogical outcomes of the course book is the integration of a narrative-based approach, which links all lessons through the continuous story of Ali, a fictional patient character experiencing his first day in a hospital. This narrative framework provides a coherent and familiar communicative environment across units, facilitating contextualized language input and learner engagement. In beginner-level settings—especially in specialized fields such as medicine—this method helps reduce learner anxiety and makes abstract language forms more relatable and memorable. Each lesson introduces approximately 12 to 15 medical terms related to a specific clinical theme (e.g., registration, symptoms, instructions) and strategically recycles them across activities. This repetition in varied yet familiar scenarios supports lexical retention and promotes practical usage. Grammatical structures are introduced sequentially in a scaffolded manner, gradually building learners' sentence-level competence—from simple declarative forms to yes/no and Wh- questions, negatives, and short dialogues using the present simple tense. In addition to vocabulary and grammar, the course book offers focused pronunciation support, addressing common challenges faced by Uzbek learners, such as vowel length, weak forms, and word stress. These exercises aim to improve oral competence, a skill particularly vital for future healthcare professionals engaged in patient interaction and interdisciplinary communication.

A key pedagogical strength of the course book lies in its alignment with CEFR A1 descriptors, ensuring that learning objectives are specific, measurable, and globally recognizable. Students are guided toward clear communicative goals, such as "can introduce themselves and others," "can ask and answer questions about basic health symptoms," or "can follow simple instructions related to patient care." This outcome-based design provides both learners and instructors with a transparent framework for tracking progress and achievement. The course book also draws on fundamental ESP principles, including authenticity, needs-oriented instruction, and relevance to learners' professional goals. Dialogues, vocabulary, and tasks are modeled on real-life clinical exchanges, allowing learners to engage with the language in ways that are immediately applicable to their field. Because the course is designed in a modular format, it offers flexibility—making it easier for teachers to fit the lessons into different schedules and adapt them to the needs of diverse groups of students. The narrative method, in particular, appears to offer notable potential as a scaffolding strategy in ESP instruction. The course uses a story that continues from one lesson to the next. This helps students remember new words and ideas more easily. Instead of learning each lesson separately, the story connects them, so students learn step by step—just like how people learn language in real life, by using it in situations they understand. In summary, the developed course book presents a pedagogically sound, contextually appropriate, and learner-centered model for introducing Medical English at the A1 level.

Conclusion. This study proposed and implemented a pedagogical model for designing a Medical English course book at the A1 level, specifically tailored to the needs of beginner-level Uzbek medical students. The course book addresses a critical gap in ESP instruction by offering a structured, CEFR-aligned, and contextually relevant resource that supports learners in developing basic communicative competence in clinical settings. A central innovation of the course book is the integration of a narrative framework that connects all lessons through the unfolding story of a fictional patient, Ali. This approach not only enhances learner motivation and emotional engagement but also reinforces linguistic input through repeated exposure to familiar contexts. The alignment with CEFR A1 descriptors ensures that learning outcomes are realistic and measurable, while ESP principles guide the selection of vocabulary, grammar, and functional content relevant to healthcare communication. The development process demonstrates that beginner-level language instruction in specialized domains such as medicine can benefit greatly from combining scaffolded instruction,

thematic progression, and narrative-based learning. The course book can serve as both a special learning resource and a supplementary resource for instructors searching to introduce Medical English in a low-anxiety, structured, and professionally relevant manner.

Recommendation. To make the course book even better and more useful, it's a good idea to first try it out in real classrooms at different medical schools in Uzbekistan. Getting feedback from both teachers and students will help show how easy the course is to use, how interesting it is, and how well it helps students learn. Since teaching English for Specific Purposes (ESP) needs both language and subject knowledge, it's also important to provide teacher training. These training sessions can help teachers learn how to present the material clearly, teach pronunciation, and use the story-based lessons in the best way. In the future, it would be helpful to create extra digital tools—like audio recordings, flashcards, and fun quizzes—so students can practice on their own outside the classroom. This course book model could also be adapted for other areas, like Nursing or Pharmacy English, and used in schools with fewer resources in other countries too. Its flexible, story-based style makes it useful for many different learning situations.

References.

1. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A Learning- Centred Approach
2. Dudley-Evans, T., & St. John, M. J. (1998). Developments in English for Specific Purposes
3. Robinson, P. (1991). ESP Today: A Practitioner's Guide
4. Council of Europe. (2020) Common European Framework of Reference for Languages – Companion Volume
5. North, B. (2000). The Development of a Common Framework Scale of Language Proficiency
6. Little, D. (2006). The CEFR: Content, Purpose, Origin, Reception and Impact
7. Gavioli, L. (2005). Exploring Corpora for ESP Learning
8. Bosher, S., & Smalkoski, K. (2002). From Needs Analysis to Curriculum Development in Health-Care Communication
9. Tomlinson, B. (Ed.). (2011). Materials Development in Language Teaching (2nd ed.)
10. Graves, K. (2000). Designing Language Courses: A Guide for Teachers
11. McGrath, I. (2002). Materials Evaluation and Design for Language Teaching
12. Nation, I. S. P., & Macalister, J. (2010). Language Curriculum Design

Maxsudova Xolisxon Ummatovna
Andijon davlat texnika instituti Tillar va gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, PhD
ORCID: 0009-0006-5482-4488
E-mail: xolisxon0408@gmail.com

MASHINASOZLIK TERMINLARINING TIZIMLILIK, IERARXIYA VA TIPOLOGIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mashinasozlik sohasida qo‘llaniladigan terminlarning tizimlilik, ierarxik tuzilma va tipologik tasnifi ilmiy asosda tahlil qilingan. Terminlarning o‘zaro bog‘liqligi, semantik tartibi va kelib chiqish manbaalariga ko‘ra guruhlanishi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda tizimli, strukturaviy va klassifikatsion tahlil usullaridan foydalangan holda, terminlarning ilmiy-texnik kommunikatsiyadagi o‘rni ochib berilgan. Maqola mashinasozlik terminologiyasini yaxlit tizim sifatida o‘rganishga, uning aniq va izchil qo‘llanilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, yangi terminlarni yaratish va tarjima qilish jarayonida metodik yondashuvlarni taklif etadi.*

Kalit so‘zlar: *tizimlilik, tahlil, tipologiya, metod, ierarxiya, lug‘atlar.*

SYSTEMATICS, HIERARCHY AND TYPOLOGY OF MACHINE-BUILDING TERMS

Abstract. *This article analyzes the systematicity, hierarchical structure and typological classification of terms used in the field of mechanical engineering on a scientific basis. The interrelationship of terms, semantic order and grouping by source of origin are considered. The study reveals the role of terms in scientific and technical communication using systematic, structural and classification analysis methods. The article serves to study mechanical engineering terminology as a holistic system, to ensure its clear and consistent use. It also offers methodological approaches in the process of creating and translating new terms.*

Keywords: *systematicity, analysis, typology, method, hierarchy, dictionaries.*

СИСТЕМАТИЧНОСТЬ, ИЕРАРХИЯ И ТИПОЛОГИЯ МАШИННЫХ ТЕРМИНОВ

Аннотация. *В статье на научной основе анализируются системность, иерархическая структура и типологическая классификация терминов, используемых в области машиностроения. Рассматриваются взаимосвязь терминов, семантический порядок и группировка по источнику происхождения. В исследовании раскрывается роль терминов в научно-технической коммуникации с использованием методов системного, структурного и классификационного анализа. Статья служит для изучения терминологии машиностроения как целостной системы, для обеспечения ее четкого и последовательного использования. Также предлагаются методические подходы в процессе создания и перевода новых терминов.*

Ключевые слова: *системность, анализ, типология, метод, иерархия, словари.*

Kirish. Bugungi kunda sanoat va texnik taraqqiyotning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi mashinasozlik sohasining ham ilmiy, ham amaliy jihatdan keng ko‘lamda o‘sishini taqozo etmoqda. Shu bilan birga, bu sohada qo‘llanilayotgan ilmiy-texnik atamalarning aniqligi va izchil ishlatilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mashinasozlik texnik fanlarning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, sanoatning turli yo‘nalishlarida qo‘llaniladigan mexanik qurilmalarni loyihalash, ishlab chiqarish va ekspluatatsiya qilish bilan bog‘liq. Ushbu sohaga oid atamalar (terminlar) nafaqat ilmiy-texnik matnlarning asosini tashkil etadi, balki zamonaviy texnologik jarayonlarni tushunish va uzatishda muhim rol o‘ynaydi. Terminlar tiz-

imining aniq va qat'iy bo‘lishi ilmiy kommunikatsiyani soddalashtiradi va tushunishni yengillashtiradi. Shuning uchun mashinasozlik terminologiyasining tizimlilik, ierarxiya va tipologiyasi masalalarini tahlil qilish dolzarb hisoblanadi [1].

Zamonaviy ilm-fan va texnikaning jadal rivojlanishi, ayniqsa mashinasozlik sohasida yuz berayotgan innovatsion yutuqlar, ushbu sohaga oid terminlarning izchil va aniq shakllanishi, ularning tizimlashtirilgan holda qo‘llanilishini taqozo etmoqda [2]. Terminologiya fani nuqtai nazaridan qaralganda, har qanday ilmiy-texnik sohaga oid tushuncha va atamalar tizimi nafaqat soha vakillari o‘rtasidagi samarali kommunikatsiyani ta'minlash, balki ilmiy izlanishlar va texnologik jarayonlarni standartlashtirishda ham muhim ahamiyatga ega [3]. Shu sababli mashinasozlik terminlarini o‘rganishda ularning tizimlilik, ierarxik tartibda tashkil topganligi va tipologik jihatlari alohida e’tiborni talab etadi [4].

O‘zbek tilshunosligida texnik terminologiyani o‘rganish jarayonlari ancha yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, mashinasozlikka oid atamalar tizimi hanuzgacha yyetarlicha chuqur o‘rganilmagan. Ayniqsa, terminlarning ichki tuzilmasi, ularning semantik munosabatlari, funksional tafovutlari va qatlamlashuvi bo‘yicha tizimli tadqiqotlar zarur [5]. Zero, bunday izlanishlar til madaniyatini yuksaltirish bilan birga, fan va texnikaning rivojlanishida ham muhim o‘rin tutadi.

Mashinasozlik terminlarining lingvistik xususiyatlari, ular orasidagi ierarxik bog‘liqliklar, semantik guruhlanishlar va tipologik tasnif asoslari tahlil qilinadi. Bu esa, o‘z navbatida, texnik atamalarni umumtil doirasida mukammalroq o‘rganish va ularni tizimlashtirishga xizmat qiladi.

Mashinasozlik terminlarini tizimlashtirish, tahlil qilish va tasniflash borasidagi ilmiy izlanishlar xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli yo‘nalishlarda olib borilgan. Jumladan, terminlarning ilmiy-texnik sohalardagi o‘rni, ularning tuzilishi va shakllanishi haqida ko‘plab nazariy konsepsiyalar ilgari surilgan [6].

Xorijiy adabiyotlarda terminlar tizimining asosiy prinsiplari haqida quyidagi asarlar alohida o‘rin egallaydi. Jumladan, V. M. Leychik termin tizimining tuzilishi va ierarxiyasini o‘rganishda muhim nazariy asoslar yaratgan [7]. Uning fikriga ko‘ra, termin tizimlari atamalar o‘rtasidagi semantik va ierarxik bog‘liqlik asosida shakllanadi va bu tizim fan sohasining ichki tuzilishini aks ettiradi. Shuningdek, D. S. Lotte ilmiy-texnik terminlar standartlashtirilishi lozimligini ta'kidlab, ularning qat'iy semantik aniqlikka ega bo‘lishini asoslagan [8]. U, ayniqsa, texnik terminlarning uzviy tizimda shakllanishi ularning xalqaro kommunikatsiyadagi rolini oshirishi haqida gapiradi.

Yana bir muhim tadqiqotchi A. A. Reformatskiy bo‘lib, u til tizimining leksik darajasida terminlar o‘rnini aniqlash bilan birga, terminlar va umumxalq leksikasi o‘rtasidagi chegarani belgilaydi [9].

O‘zbek tilshunosligida esa mashinasozlik terminlariga oid alohida tadqiqotlar soni kam bo‘lsada, texnik terminologiyani o‘rganishga oid ayrim izlanishlar mavjud. Jumladan, M. Yo‘ldoshev texnik atamalarning tarjimasi, semantik tahlili va ularning o‘zbek tilidagi muqobillari haqida fikr bildiradi [10]. A. Jo‘raev esa texnik terminlarning tipologiyasiga oid izlanishlar olib borgan va ularni sintaktik hamda semantik asosda guruhlash muhimligini ta'kidlagan [11].

Shu tariqa, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mashinasozlik terminlarini o‘rganishda ularning tizimlilik, ierarxiya va tipologik xususiyatlariga bag‘ishlangan kompleks yondashuv hali to‘liq shakllanmagan. Bu esa yangi izlanishlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Asosiy maqsad qilib mashinasozlik sohasiga oid terminlarning lingvistik tizimini o‘rganish, ularning o‘zaro semantik va ierarxik munosabatlarini tahlil qilish, shuningdek, tipologik guruhlanish mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Ushbu tadqiqot orqali mashinasozlik terminlarini ilmiy asosda tasniflash, ularning o‘zbek tilidagi ifoda vositalarini aniqlashtirish va texnik terminologiyaning milliy standarti shakllanishiga hissa qo‘shish ko‘zda tutiladi. Natijada, o‘zbek tilida texnik bilimlarni ifodalash imkoniyatlari kengayadi va ilmiy-texnikaviy tarjima jarayonlarining sifat darajasi oshiriladi.

Tahlil va metodlar. Ushbu tadqiqodni olib boorish jarayonida mashinasozlik terminlarini chuqur o‘rganish, ularning tizimliligi, ierarxiyasi va tipologiyasini aniqlash uchun turli xil ilmiy-tadqiqot metodlari qo‘llanildi.

Tizimli (sistematik) tahlil metodi. Bu usul yordamida mashinasozlik terminlari o‘rtasidagi ichki mantiqiy bog‘liqliklar, ularning o‘zaro funksional va semantik aloqalari aniqlab chiqildi. Terminlar terminologik tizim sifatida bir butun holda ko‘rib chiqildi [12].

Strukturaviy-lingvistik tahlil. Terminlarning morfologik va sintaktik tuzilishi, ya’ni ular qanday so‘zlardan tashkil topgani, birikmalar (iboralik terminlar) holatidagi xususiyatlari o‘rganildi. Ushbu yondashuv orqali terminlarning tashkiliy tuzilmasi tahlil qilindi.

Ierarxik tahlil. Terminlarning umumiylik darajasiga ko‘ra yuqori, o‘rta va quyi pog‘onalarga bo‘linishi, ya’ni ularning leksik ierarxiyasi o‘rganildi. Bu orqali terminlarning tasniflanish prinsiplari va ularning o‘zaro subordinatsiyasi aniqlashtirildi [13].

Tipologik tahlil (klassifikatsion yondashuv). Mashinasozlik terminlari ularning semantik, morfologik va kelib chiqish xususiyatlariga ko‘ra turkumlashtirildi. Bu usul orqali terminlar turli mezonlar asosida guruhlarga ajratildi [14].

Deskriptiv (tasviriy) usul. Har bir termin yoki terminologik guruhning lug‘aviy va semantik xususiyatlari aniqlanib, ularning amaliy qo‘llanilishi tahlil qilindi. Bu metod real til materiallari asosida terminlarning ishlatilishini tasvirlashga imkon berdi [15].

Natija va muhokama. Mashinasozlik terminologiyasini lingvistik, ierarxik va tipologik jihatdan chuqur o‘rganish natijasida bir qator muhim xulosalar va ilmiy-texnik konseptlarning asosiy yo‘nalishlari aniqlanishi mumkin bo‘ldi. Quyida ushbu natija va mulohazalar bosqichma-bosqich muhokama qilinadi.

1. Tizimlilik tamoyilining amaliy ahamiyati

Terminologik tizimlilik — bu terminlarning yagona, bir-biri bilan bog‘langan tizim ichida joylashishi bo‘lib, mashinasozlik sohasida uni ta’minlash bir nechta yo‘nalish orqali amalga oshadi:

Semantik bog‘liqlik, ya’ni atamalar biror umumiy tushuncha doirasida o‘zaro aloqador bo‘lishi – masalan, "val", "g‘ildirak", "vint", "yostig‘i" – bular mexanik komponentlar toifasiga kiradi va bir-biri bilan semantik jihatdan bog‘liq so‘zlar tizimini ifodalaydi.

Guruhlash asosida tizimlash, bunda bir xil tipdagi terminlar kategoriya va subkategoriya bo‘yicha toifalanadi: masalan, "val" va "shaft" – harakat uzatadi, "bolt" va "screw" – birlashtiradi, "bearing" va "bushing" – surishni ta’minlaydi.

Tashqi standartlar bilan moslik, ya’ni terminlar xalqaro ISO, ANSI, DIN va boshqa standartlarga muvofiqligi orqali — bu terminologiyaning tizimli tuzilishini yuqori samaradorlikda ta’minlaydi.

Amaliy nuqtai nazardan qaralganda, tizimlilik ushbu terminlar ustida ishlaydigan mutaxassislar o‘rtasida kommunikatsiyani soddalashtiradi, texnik hujjatlar, loyihalar, ESG (environmental, social and governance) hisobotlari va ilmiy maqolalar sifatini oshiradi. Shuningdek, terminologiyaning tizimli bazasini yaratish mashinasozlik ta’limida modular darslik materiallari, terminologik glosar tuzish va tarjimalarni harmonizatsiyalash imkoniyatini beradi.

2. Ierarxiya – konseptual strukturaning kuchli vositasi

Ierarxiya, ya’ni terminlar bosqichma-bosqich yuqori-darajali kategoriya va past darajali subkategoriya kabi tartiblanishi natijasida quyidagi afzalliklar ko‘rsatildi:

Tashkiliy soddalashtirish: murakkab jamlangan tushunchalar minor funksional qismlarga bo‘linib, umumlashtiriladi. Masalan, "geometriya" terminining tarkibiy ierarxiyasida "g‘ildirak geometriyasi", "mufitsizlik", "tashqi egilish radiusi" kabi turli tipologik jihatlar aniqlanadi.

Semantik qatlamlar: ierarxik tizimlarda har bir yangi bosqich yuqori darajadagi tushunchalardan aniqlashni talab qiladi. Bu ichki semantik bog‘liqliklar tahlililine imkon beradi va terminlarni tushunishda chegara izchilligini (continuity) ta’minlaydi.

Ta’lim va o‘quv jarayonida qo‘llash soddaligi: yangi o‘quvchilarga ierarxik struktura asosida tushunchalarni bosqichma-bosqich qamrab olish imkonini yaratadi, bu esa pedagogik paradigmalarni yanada kuchaytiradi.

Ierarxiyaning murakkab darajalari “klassifikasiya – subklassifika-tsiya – sub-subklassifikatsiya” shaklida ifodalanib, terminlarni semantik toifalarga tutashgan holda tartiblaydi. Masalan:

- Mexanik elementlar
- Rulonli elementlar

- G‘ildirak (wheel)
- Val (shaft)
- Qo‘shuvchi elementlar
- Bolt (bolt)
- Vint (screw)

Bu shakldagi ierarxik tasnif mashinasozlik hujjatlari, konstruksiyalar va texnik diagrammalarda to'g'ri atama va semantik izchil ma’nolar ishlatilishini ta’minlaydi.

3. Tipologiya – tasniflashda jasorat

Tipologik yondoshuv terminlarni funksional, morfologik, semantik va qiyosiy jihatlarga qarab guruhlash orqali quyidagicha tagilgan:

Morfologik tipologiya: terminlarning so‘z yasash konstruktsiyasi asosida – prefiks-sufikslardan iborat terminlar, bir so‘z terminlar, birikmalar va ko‘plik shakllar; masalan, “tork momenti” (birikma), “bolta” (bir so‘z).

Semantik tipologiya: atamaning ma’nosiga qarab – asboblar, materiallar, jarayonlar, fizik birliklar va parametrlar; “mass moment of inertia” – fizik parametr, “val” – mexanik komponent.

Funksional tipologiya: konstruktsion xarakteriga ko‘ra – uzatuvchi, bog‘lovchi, suruvchi element; “bearing” – suruvchi, “weld” – bog‘lovchi.

Monolingual-o‘tkazuvchi terminologiya: ma’nosi oddiy tildan olingan terminlar (masalan, val angl. shaft), leksik ko‘chirma tarzida ishlab chiqilgan terminlar va tarjima moslamalardan iborat.

Bu tipologik fonda terminlarning o‘zaro toifalanish mexanizmlari ham aniqlashdi, bu esa til birliklarining qaysi jihatiga ko‘proq tayanilishi kerakligini ko‘rsatadi. Masalan, fiziko-matematik parametr terminlari morfologik rod deb olinadigan mustahkam leksik modelni talab qiladi, konstruksion terminlar esa amalda ishlatiladigan til modelini manfaat qiladi.

4. Tizimlilik va ierarxiya o‘rtasidagi samarasizlik

Analiz jarayonida to‘plangan korpus ma’lumotlaridan ko‘rinib turgan yana bir muhim jihat – bu terminlarning “tizim rigidligi” va “operativ fleksibil” tuzilma bilan bog‘liq buzilish muammosidir. Ba’zi terminlar biror toifada bo‘lishi kerak bo‘lsa ham, u ma’lum vazifaga ko‘ra boshqa ierarxik darajaga o‘tkazilishi mumkin. Masalan, “shaft coupling” – bu uzatuvchi mexanik komponent, lekin ba’zi kontekstlarda u “suruvchi” element sifatida ko‘riladi. Demak, ierarxiyani ham, funksional joylashuvni ham moslashuvchanlik bilan ko‘rib chiqish lozim.

Bu flexibil terminologik qiyinchilik ustidan ish olib borish jarayonida konseptyual semantik moslik, kontekstual strukturalar va terminologik “operativ ierarxiyalar” kontseptsiyalari kiritilishi maqsadga muvofiq bo‘ldi. Bu yondashuv yordamida har bir termin bir nechta kontekstual ierarxiyalarda qatnashishi mumkin – asosiy ixtiyoriy yoki tarjimai билдирilganda.

5. Mahalliy va xalqaro standartlar integratsiyasi

O‘zbek tilida mashinasozlik terminlari ishlatilishi borasida globallashuvning matnli bazasini yaratish masalasida ikki xil model konsensusga erishdi:

To‘g‘ridan-to‘g‘ri kirish (daasile) – an’anaviy terminlar inglizchadan to‘g‘ridan o‘zbek tiliga qabul qilingan. Masalan, bearing → "bearing", gearbox → "gearboks".

Tarjima-kombinatsiya modeli – terminlarni o‘zbek tilida ma’nosini ifodalaydigan tarzda shakllantirish. Masalan, "bearing" → "kiyish yostig‘i", "gearbox" → "tishli uzatma qutisi".

Integratsiya jarayonida har ikkala modelni ijro etish samaradorligi yuqori bo‘lib, standart shartlarda ishlatiladigan biror xalqaro atama uchun universal o‘zbekcha ekvivalentlar ishlab chiqilishi va jadallashtirilishi mumkin. Bu jarayonda ierarxik nomenklaturani ham ko‘rib chiqish muhim: standartlar mosligi ierarxiyaning to‘g‘ri shakllanishini ham ta’minlaydi.

6. Terminlar funksiyasining jamiyat va madaniyat omillariga bog‘liqligi

Mashinasozlik terminlari tizimli va ierarxik shakllanishida jamiyatning texnik-ijtimoiy madaniyati ham katta rol o‘ynaydi. Masalan, Sovet davrida shakllangan tarzdagi mashinasozlik tilida ruscha ildizlarning dominantligi (val = вал, bolt = болт, bearing = подшипник) aniq seziladi. Globallashuv jarayonida inglizcha terminlar ustuvor holga keldi. Bu esa ierarxik tizimga zamonaviy yutuqlar, ata-

malar va so‘zlashtirish me’yorlari doirasini kengaydi. Bu texnik-lingvistik madaniy darajani o‘rganishda ierarxiya piramidasi ichida dominanta nazariyasi («dominant influence») kiritildi, bu til tarkibining chuqur strukturaviy subyektiv modelini ko‘rsatadi.

7. Tahliliy model: korpus, termin bazasi va mulohaza tahlili

Mazkur tadqiqotda ishlatilgan terminologik korpus, ierarxik va tipologik model asosida mustahkamlangan bo‘lib, quyidagi tarkibiy modullarni o‘z ichiga oladi:

Termin baza: ~2500 atamalar, inglizcha-ruscha-o‘zbekcha yonma-yon indeks bilan tuzilgan;

Semantik yozuv: har bir atama uchun qisqa ta’rif, strukturaviy tasnif va muayyan tasniflanuvchi guruh ichida ifodalangan "klassifikatsiya identifikatsiyasi";

Ierarxik daraxt model: terminlarni kontekstual bog‘liqligi va semantik toifalarga bog‘lab bo‘lish xususiy kontekslarda tashkil etuvchi xarita;

Tipologik yozuvlar: morfologik, semantik, funksional shakllar bo‘yicha guruhlangan ro‘yxat.

Ushbu korpus va model mashinasozlik terminlarini nafaqat aniq, balki ierarxik va tipologik aniqlik asosida ifodalashda yordam beradi. Tahlillar jarayonida ba’zi terminlarning o‘ziga xos polisemantizm (bir nechta funksionallik) xususiyati aniqlanib, ular funktsional tipologiyada ko‘pbosqichli tayinotga ega bo‘lishi haqida mulohazalar berildi.

Bu tizim asosida amaliyatma uchun bir qator tavsiyalar ishlab chiqildi:

Terminologik glosar va elektron lug‘at: ongli ierarxik tuzilma bilan yaratilgan, morfemik-izchil tavsifli hamda inglizcha-ruscha-o‘zbekcha indeks mavjud lug‘at.

Mashinasozlik o‘quv dasturlarini yangilash: ierarxiyali terminologiya bo‘yicha modul dars materiallari ishlab chiqarish.

Tarjimonlar uchun stilistik qo‘llanma: terminlarning ierarxik va tipologik imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha styilistik kontrastlar.

ISO/DIN/ANSI standartlari bilan qo‘llashlarni keltirish: terminlar strukturaviy tartibda mahalliy terminlar va xalqaro kodlar bilan birlashtirilgan.

Terminologiya monitoringi: texnologiyalar yangilanishi va yangi terminlar paydo bo‘lishiga mos ravishda tizimni yangilab borish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish.

9. Cheklovlar va kelajak yo‘nalishlari

Mazkur tadqiqotda aniqlangan ba'zi cheklovlar mavjud:

Korpus hajmi cheklangan: hozircha ishlangan korpus ~2500 terminni o‘z ichiga oladi, kelajakda 5000+ darajaligacha kengaytirish zarur.

Tiliy modellarni mustahkamlash: ierarxiya funktsional kontekstual mukammallikdan cheklangan – ya’ni, terminlarning kontekstual turlicha ishlatilishi hisobga olinmagan.

Avtomatlashtirilgan identifikatsiya usullari: hozircha bu jarayon qo‘l bilan amalga oshirildi. NLP vositalari, mashina o‘rganish va termin ekstraktsiyasi tahlillarini joriy etish rejalashtirilmoqda.

Kelajak rejalarida quyidagilar ko‘zda tutilgan:

Terminologik korpusni kengaytirish: ilmiy maqolalar, patentlar, texnik hujjatlar, mashinasozlik sohasidagi standartlarni obdon o‘rganib, yangi atamalarni tizimga qo‘shish.

Konceptual ierarxiyalarni NLP bilan chiqarish: WordNet analogi shaklida mashinasozlik terminlari ierarxiyasini samarali tuzish.

Terminlarni avtomatik aniqlovchi dastur: PDF hujjatlardan kontekst asosida ierarxik modellash va tipologik guruhlash imkoniyatini beruvchi ilova ishlab chiqish.

Xalqaro standartlar birligi bilan termin aylanishini avtomatik tarzda izlash: terminlarning ISO kodlar bo‘yicha mosligi, o‘zgarishi, yangi terminlarning paydo bo‘lishini real vaqt kuzatib borish.

Natijada, mashinasozlik terminlarini tizimlilik, ierarxiya va tipologiya nuqtai nazaridan to‘liq tushunishga qaratilgan ushbu tadqiqot quyidagi ilmiy-amaliy natijalarga erishdi:

Terminlarni modul/shakl-platforma asosida guruhlash foydalanishga amaliy yondashuvni ta’minladi.

Ierarxik strukturani yaratish til modelini optimallashtirdi va konseptlarni bosqichli o‘rgatishga yordam berdi.

Tipologiya terminlarning turli jihatlarini aniqlab, ularni zamonaviy til madaniyati bilan integratsiya qilish imkonini berdi.

Amaliy tavsiyalar tillarning texnik-lingvistik hamda texnik-pedagogik jihatlarda rivojlanishiga yo‘l ochdi. Cheklovlar bardoshli bo‘lib, kelajakda yerga qo‘yilgan nishonlar orqali ilmiy loyiha sifatida strukturaviy kengaytirilishi rejalashtirilmoqda.

Xulosa. Mashinasozlik terminlari o‘zaro bog‘langan, ierarxik jihatdan tuzilgan va tipologik tahlilga bo‘ysunuvchi murakkab leksik tizimdir. Uning tizimlilik va aniqligi sohaning samarali rivojlanishi va ilmiy-texnik matnlarning to‘g‘ri tushunilishi uchun zarurdir. Keyingi bosqichlarda terminlarning yagona elektron bazasini yaratish va zamonaviy texnologiyalar asosida uni avtomatlashtirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Yuqoridagi tadqiqotlar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, mashinasozlik terminologiyasi o‘zaro bog‘langan, murakkab leksik tizimni tashkil etadi. Terminlar nafaqat alohida ilmiy tushunchalarni ifodalaydi, balki ularning tizimlilik, ierarxik tartib va tipologik farqlari ilmiy-texnik matnlarning aniq va tushunarli bo‘lishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tahlil natijasida terminlarning yuqori, o‘rta va quyi darajali ierarxiyasi shakllantirildi, ularning kelib chiqishi, tuzilishi va semantik funksiyasiga ko‘ra guruhlanishi aniqlandi.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar rivojiga mos ravishda yangi terminlarning paydo bo‘lishi mavjud terminologik tizimga yangilanish va kengayishni talab etmoqda. Bu holat terminlarni standartlashtirish, yagona elektron lug‘at bazalarini yaratish va ilmiy tarjima jarayonlarini mukammallashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Ushbu maqola mashinasozlik terminologiyasini chuqurroq o‘rganish, ularni izchil va tizimli asosda qo‘llash, shuningdek, o‘zbek tilida texnik fanlar lug‘atini boyitish borasida muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Мельчук И.А. Опыт теории лингвистических моделей. — Москва: Наука, 1982. — 416 с.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. — Москва: Советская энциклопедия, 1969. — 608 с.
3. ISO 1087-1:2000. Terminology work — Vocabulary — Part 1: Theory and application. — Geneva: International Organization for Standardization, 2000.
4. Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, задачи, методы. — Москва: ЛКИ, 2007. — 256 с.
5. Engineering Terminology Dictionary. — New York: McGraw-Hill, 2016.
6. Ganieva D. Mashinasozlik atamalarining o‘zbek tilida ifodalanishi va tarjima muammolari // Til va tarjima masalalari. — 2022. — №1. — B. 92–97.
7. V.M.Leychik, *Terminovedenie*, 3rd ed. Moscow: URSS, 2007.
8. D. S. Lotte, *Osnovy postroeniya nauchno-tekhnicheskoy terminologii*. Moscow: Nauka, 1961.
9. A. A. Reformatskiy, *Vvedenie v yazykovedenie*. Moscow: Yurayt, 2010.
10. M. Yo‘ldoshev, "Texnik terminlarning o‘zbek tilidagi ifodalanishi," *Filologiya masalalari*, vol. 4, pp. 87–92, 2018.
11. A. Jo‘raev, "Texnik atamalarning lingvistik xususiyatlari," *Til va adabiyot ta’limi*, no. 1, pp. 45–49, 2021.
12. Karimov I.A. Mashinasozlik asoslari. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018. — 352 b.
13. Qodirov B.T., Usmonov Z.I. Texnik terminologiyaning lingvistik asoslari. — Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2020. — 228 b.
14. Jumaniyozov M. Texnik terminlar tiplari va ularning tuzilishi // Filologiya masalalari. — 2021. — №2. — B. 84–89.
15. Yusupov R. O‘zbek tilida ilmiy va texnik terminlarni shakllantirishning zamonaviy yo‘nalishlari // O‘zbek tili va adabiyoti. — 2020. — №4. — B. 45–51.

Taylakova Dilnoza Norbekovna
Oriental universiteti dotsenti

ONA TILI FANINI O‘QITISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN PEDAGOGIK TA’LIM TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK TIZIMI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida darslarni tashkil etishning didaktik tizimi keng yoritilgan. Shu bilan birga o‘quvchining individual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashi va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish zarurati namo yon bo‘ldi. Tadqiqot davomida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida samarali dars modellarini yaratish tajribalari o‘rganildi. Shuningdek, ona tili darslarining mazmuni va metodikasida innovatsion yondashuvlar asosida o‘zgarishlar kiritildi hamda bu tizim o‘quvchilarni faollikka undadi va ularning tilshunoslik savodxonligini oshirdi.*

Kalit so‘zlar: *ona tili, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, didaktik tizim, AKT, metodik yangilanish, zamonaviy ta’lim, klaster metodi.*

ДИДАКТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА РОДНОЙ ЯЗЫК

Аннотация. *В данной статье широко освещена дидактическая система организации уроков на основе личностно-ориентированных образовательных технологий в преподавании родного языка. В то же время проявилась необходимость развития индивидуальных способностей учащегося, формирования самостоятельного мышления и коммуникативной компетенции. В ходе исследования был изучен опыт создания эффективных моделей уроков на основе личностно-ориентированного подхода. Также были внесены изменения в содержание и методику уроков родного языка на основе инновационных подходов, и эта система побудила учащихся к активности и повысила их лингвистическую грамотность.*

Ключевые слова: *родной язык, личностно-ориентированное образование, дидактическая система, ИКТ, методическое обновление, современное образование, кластерный метод.*

DIDACTIC SYSTEM OF ORGANIZING CLASSES ON THE BASIS OF PERSONALITY-ORIENTED PEDAGOGICAL EDUCATION TECHNOLOGIES IN TEACHING NATIVE LANGUAGE SCIENCE

Abstract. *This article extensively covers the didactic system of organizing lessons based on personality-oriented educational technologies in teaching native language. At the same time, there was a need to develop the individual abilities of the student, form independent thinking and communicative competence. During the study, the experience of creating effective lesson models based on a personality-oriented approach was studied. Also, changes were made to the content and methodology of native language lessons based on innovative approaches, and this system encouraged students to be active and increased their linguistic literacy.*

Keywords: *native language, personality-oriented education, didactic system, ICT, methodological renewal, modern education, cluster method.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayoni tezkor rivojlanayotgan jamiyat ehtiyojlariga moslashishda, yangi yondashuv va metodologiyalarning tatbiq etilishini talab qilmoqda. Bugungi kunda pedagogik jarayonda o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos holda ta’lim berish, ya’ni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyili muhim o‘rin egallamoqda. “Maktabda o‘qitish metodi-

kasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi”, – dedi Shavkat Mirziyoyev [1]. Bu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi, nutqiy kompetensiyasi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishni maqsad qiladi. Ayniqsa, ona tili kabi ijtimoiy-madaniy va kommunikativ ahamiyatga ega fanlarda bu tamoyilni amalga oshirish ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ona tili fanining o‘quvchilar shaxsini shakllantirishdagi o‘rni beqiyosdir. Til nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkur va madaniyat ifodasi sifatida insonning intellektual va ruhiy rivojiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ona tili darslarini shunchaki grammatik qoidalar yig‘indisiga emas, balki shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik tizim sifatida tashkil etish zarurati tug‘ilmoqda. An’anaviy darslarda o‘quvchi ko‘pincha passiv rolni egallab kelgan bo‘lsa, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bu holatni tubdan o‘zgartirib, uni ta’lim jarayonining faol sub’yektiga aylantirdi [2].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari, xususan, milliy o‘quv dasturlarining yangilanishi, innovatsion ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) vositalarini keng joriy qilish orqali shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning amaliyotga tatbiq etilishi uchun sharoitlar yaratmoqda. Bu jarayonda o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, zamonaviy metodik yondashuvlardan xabardorligi, o‘quvchilarning ehtiyojlarini to‘g‘ri anglash qobiliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [3]. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari didaktik tizimda muayyan o‘rin tutadi. Didaktik tizim bu ta’lim jarayonini boshqarish, rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilishda foydalaniladigan tizimli yondashuvdir. U o‘qitish mazmuni, shakli, vositalari va natijalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlaydi. Ona tili fanida bu tizimni shaxsga yo‘naltirish orqali har bir o‘quvchining psixologik, aqliy, til va madaniy ehtiyojlariga muvofiq metodik yondashuvlarni shakllantirish mumkin bo‘ladi [4].

Tadqiqot aynan mana shu ehtiyojdan kelib chiqadi. Bugungi ta’lim islohotlarida shaxsga yo‘naltirilgan metodikalar asosida ona tili darslarini qayta tashkil etish, zamonaviy texnologiyalarni o‘qitishning har bir bosqichiga integratsiyalash, darslarda o‘quvchi faolligini kuchaytirish va eng asosiysi, ularning tilshunoslik kompetensiyasini amaliy asosda rivojlantirish eng dolzarb vazifalardan biridir.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvining asosiy belgilariga quyidagilar kiradi: o‘quvchining individualligini inobatga olish, uning shaxsiy qiziqishi asosida topshiriqlarni tanlash, mustaqil fikrlash va muammo yechishga yo‘naltirilgan metodik uslublardan foydalanish, o‘quvchining muvaffaqiyatga erishishiga rag‘batlantiruvchi muhit yaratish va ularning o‘z o‘zini baholash imkoniyatlarini kengaytirish. Ona tili fanida bu tamoyillar o‘quvchining og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda, tahliliy va ijodiy fikrlash malakalarini shakllantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini rivojlantirishga undovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Bu ayniqsa o‘rta ta’lim bosqichidagi o‘quvchilar uchun muhim, chunki ular shaxsiy e’tiqod, qarash va ijtimoiy ong shakllanayotgan murakkab psixologik davrda bo‘ladilar. Ona tili darslari esa bu jarayonda ijtimoiy-madaniy identifikatsiyani mustahkamlovchi vosita bo‘la oladi. Bu sababli ham ona tili ta’limining zamonaviy didaktik tizimida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni tatbiq etish nafaqat metodik, balki ijtimoiy ahamiyat kasb etadi [5].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ona tili darslarida shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalar shakllanadi: matn ustida ishlash, mantiqiy tahlil qilish, o‘z fikrini asosli bayon qilish, savol va muammolarga ijodiy yondashish, muloqotda faol bo‘lish, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya qilish. Bu esa o‘z navbatida, ularning hayotiy faoliyatida ham qo‘l keladigan muhim kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aynan mana shu masalalar ya’ni, ona tili fanida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida darslarni tashkil etishning didaktik asoslari, metodik yondashuvlari va ularning amaliy natijalari tahlil qilinadi. Ilmiy asoslangan holda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning mazmun-mohiyati ochib berilib, real dars modellarida bu yondashuv qanday tatbiq etilishi mumkinligi ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, ta’lim jarayonida uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham muhokama qilindi.

Metodologiya

Ilmiy ish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda O‘zbekiston va xorijiy olimlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy-nazariy qarashlar, metodik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar muhim manbaa sifatida xizmat qilmoqda. Ayniqsa, ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirish, didaktik tizimni takomillashtirish va ona tili fanining o‘qitish usullarini zamonaviylashtirish masalalari so‘nggi yillarda alohida e’tiborga loyiq mavzulardan biridir.

O‘zbekistonlik olimlaridan jumladan;

H. T. Mahmudov ona tili darslarida kommunikativ yondashuvning afzalliklarini asoslab, o‘quvchining nutqiy faoliyatini faollashtirish usullariga to‘xtaladi [6]. N. Jo‘rayev o‘z tadqiqotlarida til o‘qitishda interfaol metodlarning o‘rnini tahlil qilgan va dars jarayonini o‘quvchi faolligiga yo‘naltirish zaruratini ta’kidlaydi [7]. Sh. S. Rahmatullayevning asarlarida esa ona tili o‘qitishining metodologik asoslari, dars mazmuni va shakllarini tanlashda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari muhim omil sifatida ko‘riladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarning o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi rolini chuqur o‘rgangan [8]. Z. Mamarasulova esa shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning gender va psixopedagogik jihatlarini yoritgan [9].

Chet ellik pedagog-olimlardan J. Dewey, C. Rogers, Lev Vygotsky, Howard Gardner, David Kolb, Robert Gagné va Benjamin Bloomlarning ishlari bu mavzuga nazariy va amaliy asoslar yaratgan. Jumladan, J. Deweyning “tajribaga asoslangan ta’lim” nazariyasi shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishning psixologik poydevorini beradi [10]. C. Rogers esa insonparvarlik pedagogikasi doirasida o‘quvchining his-tuyg‘ulari, ehtiyojlari va faolligini asosiy omil sifatida ko‘radi [11].

Lev Vygotskyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi ta’limda individual yondashuvning zaruratini ilmiy asoslab bergan [12]. Bloomning taksonomiyasi esa dars maqsadlarini aniqlashtirish va o‘quv faoliyatining bosqichlarini to‘g‘ri tashkil qilishda muhim vosita hisoblanadi [13]. Howard Gardner esa “ko‘p intellektlar nazariyasi” orqali o‘quvchilarning turli qobiliyatlariga qarab ta’lim berish zarurligini asoslagan [14].

O‘zbekiston ta’lim tizimiga oid me’yoriy hujjatlar, milliy o‘quv dasturlari, Prezident qaror va farmonlari, ta’lim to‘g‘risidagi qonun ham mavzuga oid yondashuvlarning amaliy asosini belgilab bergan. Bu hujjatlar shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni milliy ta’lim strategiyasining asosiy yo‘nalishi sifatida belgilaydi.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ona tili ta’limida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv nafaqat metodik yangilik, balki o‘quvchi shaxsini rivojlantirishning zamonaviy, ilmiy asoslangan pedagogik tamoyilidir. Ilmiy manbaalar mazmunidan foydalanish esa darslarni samarali tashkil etishda nazariy va amaliy yo‘nalish beradi.

Natija va muhokama. Ushbu tadqiqot doirasida ona tili fanini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitishning samaradorligi amaliy tajribalar, kuzatuvlar va tahlillar orqali baholandi. Tahlillar ko‘rsatdiki, mazkur yondashuv nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning kommunikativ, ijodiy va tahliliy salohiyatini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

O‘tkazilgan eksperimental darslar asosida shakllangan quyidagi 1-jadvalda an’anaviy va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim metodikalarining qiyosiy natijalari keltirilgan:


An’anaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv natijalarining qiyosiy tahlili

1-jadval

O‘quvchi faoliyati ko‘rsatkichi	An’anaviy yondashuv (%)	Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv (%)
Faollik darajasi	48%	87%
Mustaqil fikrlash ko‘nikmasi	52%	84%
Nutqiy ifoda va muloqot madaniyati	46%	81%
Yozma ishlar sifati	54%	86%
O‘z-o‘zini baholash va refleksiya	39%	77%

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim metodikasi barcha mezonlar bo‘yicha yuqori natijalarni ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, nutqiy ifodasi va ijodiy yondashuvi sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Quyidagi 1-rasmda dars jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan metodlardan biri “Klaster metod”ni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning tushunchalarni mantiqiy guruhlash va ularni izchil ifodalash ko‘nikmasi qanday shakllanishi tasvirlangan.



1-rasm. 8-sinf o‘quvchilari o‘rtasida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim klaster metodi

Muhokama davomida aniqlanganki, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar, ayniqsa, quyidagi omillar asosida yuqori samaradorlikni ta’minlaydi:

1. Differensial yondashuv ya’ni, o‘quvchilarning qiziqishi va bilim darajasiga mos topshiriqlar tanlanadi.

2. O‘zaro hamkorlik bunda, guruhlarda ishlash orqali ijtimoiy muloqot va tanqidiy fikrlash rivojlanadi.

3. Refleksiya jarayonlarida o‘quvchilar darsdan so‘ng o‘z fikr va his-tuyg‘ularini tahlil qiladi, bu esa shaxsiy o‘sishga turtki bo‘ladi.

4. AKT vositalaridan foydalanishda esa multimediya, interaktiv platformalar va virtual darslar orqali ta’lim sifati oshadi.

Tajribaviy darslar davomida 6–9-sinf o‘quvchilari ishtirok etgan bo‘lib, ular bilan olib borilgan kuzatuvlar, so‘rovnomalar va test natijalari asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

✓ O‘quvchilar an’anaviy yondashuvda ko‘proq nazoratga tayangan bo‘lsa, shaxsga yo‘naltirilgan modelda mas’uliyat va mustaqillik kuchaydi;

✓ Interfaol usullar orqali o‘quvchilar o‘z fikrini ochiq bildirishni o‘rgandi, bu esa ijtimoylashuv jarayonini tezlashtirdi;

✓ O‘quvchilarning yozma ishlari sifati (tuzilishi, uslubi, mantiqi) 30–35% ga yaxshilandi;

✓ O‘qituvchilarning darsga tayyorlanish jarayonida metodik tafakkur va kreativlik kuchaydi.

Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim darslarida o‘quvchi bilan individual ishlash, konstruktiv baholash, o‘zaro hurmatga asoslangan muloqot, ko‘proq “savol-javob” va “muammo

yechish" orqali bilim olish markazga chiqdi. Bu jarayonlarni boshqarish uchun o‘qituvchining yuqori metodik tayyorgarligi, moslashtirilgan dars materiallari va doimiy refleksiv tahlil zarur bo‘lib chiqdi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ona tili fanini o‘rgatishda nafaqat zamonaviy, balki insoniy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi eng samarali metodlardan biridir. Darsning mazmuni, shakli va vositalarini o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirish esa o‘qituvchining professional mahoratini doimiy oshirishini taqozo etadi.

Xulosa. Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bugungi ta’lim islohotlarining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ajralib turadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu yondashuv o‘quvchilarni ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisidan faol sub’yektiga aylantirib, ularning mustaqil fikrlashi, nutqiy faolligi, ijodiy yondashuvi va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan darslar mazmuni va metodikasi orqali tilshunoslik kompetensiyasi amaliy asosda shakllanadi. Darslarda interfaol metodlar, AKT vositalari, refleksiya va differensial yondashuvlar orqali har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini inobatga olish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bunday darslarda o‘quvchilar faolligi, mustaqil fikrlashi va yozma ishlari sifati oshadi, bu esa ta’lim samaradorligini ta’minlaydi.

Tadqiqot doirasida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida darslarni tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi, mavjud metodik muammolar tahlil qilindi va ularni hal etish yo‘llari taklif etildi. Ona tili fanida bu yondashuvni tatbiq etish nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki o‘quvchi shaxsini ijtimoiy va madaniy jihatdan shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Sh. M. Mirziyoyev, *Yangi O‘zbekiston maktabi – ma’rifatli jamiyat poydevori*, Tashkent: O‘zbekiston, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, *Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun ona tili fanidan yangilangan o‘quv dasturi*, Tashkent: TTEM, 2021
3. U. Karimov, Zamonaviy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv: nazariy va amaliy jihatlar, Tashkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. G. Normurodova, “Ona tili darslarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning samarali usullari,” Ta’lim va innovatsiyalar, no. 3, pp. 45–50, 2022.
5. Z. Hasanboyeva, “Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida til kompetensiyalarini rivojlantirish,” Metodik izlanishlar, no. 2, pp. 32–36, 2021.
6. H. T. Mahmudov, “Ona tili o‘qitish metodikasi asoslari”, Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti, 2019.
7. N. Jo‘rayev, “Ona tili ta’limida zamonaviy metodlar”, Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
8. Sh. S. Rahmatullayev, “Interfaol metodlardan foydalanishning didaktik asoslari,” Ta’lim va fan, vol. 2, pp. 45–51, 2020.
9. Z. Mamarasulova, “Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvda gender omilining o‘rni,” O‘zbek tilshunosligi jurnali, vol. 4, no. 1, pp. 112–118, 2021.
10. J. Dewey, “Experience and Education”, New York: Macmillan, 1938.
11. C. Rogers, “Freedom to Learn”, Columbus: Charles E. Merrill, 1969.
12. L. S. Vygotsky, “Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes”, Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
13. B. Bloom, “Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals”, New York: Longmans, 1956.
14. H. Gardner, “Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences”, New York: Basic Books, 1983.

Devorova Shamsiya Jumanazarovna
Termiz davlat universiteti, Fakultetlararo chet tillar kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: devorova@gmail.com

CEFR DOIRASIDA O‘QISH KO‘NIKMALARINI BAHOLASHDA AUTENTIK MATNLARNING QO‘LLANILISHI

(*Xorijiy til o‘qitish metodikasi doirasida tahliliy yondashuv*)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Yevropa til bilish kompetensiyalari doirasi (CEFR) asosida o‘qish ko‘nikmasini baholashda autentik matnlardan foydalanishning metodik va amaliy ahamiyati tahlil etiladi. O‘qish nafaqat axborot olish, balki tilni real kontekstda tushunish, talqin qilish va interaktiv muloqotga tayyorlanish vositasi sifatida ko‘riladi. CEFR o‘qish ko‘nikmasini A1 dan C2 darajagacha bosqichma-bosqich rivojlantirish mezonlarini belgilab, real hayotga yaqin topshiriqlar orqali tanqidiy fikrlash, tafsilotlarni tushunish, va matnni kontekstda anglash kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Autentik matnlar esa til o‘rganuvchilarni madaniyatlararo tafakkur, ijtimoiy masalalar, va global bilimlar bilan tanishtirib, ularning funksional til salohiyatini oshiradi. Maqolada A2 va B1 darajalari uchun topshiriq misollari keltirilib, matn asosida fikr yuritish va baholash jarayonlarining kognitiv murakkablik darajalari izohlanadi.*

Kalit so‘zlar: *CEFR, o‘qish ko‘nikmasi, autentik matn, baholash, til darajalari, tanqidiy fikrlash, kontekstual tushunish, metodika, til o‘rgatish, til kompetensiyasi.*

THE USE OF AUTHENTIC TEXTS IN ASSESSING READING SKILLS WITHIN THE CEFR FRAMEWORK

Annotation. *This article analyzes the methodological and practical importance of using authentic texts in assessing reading skills based on the Common European Framework of Reference for Languages (CEFR). Reading is seen not only as a means of acquiring information, but also as a means of understanding, interpreting language in real context, and preparing for interactive communication. The CEFR sets out criteria for the gradual development of reading skills from levels A1 to C2, and through tasks close to real life, it develops skills such as critical thinking, understanding details, and understanding text in context. Authentic texts, on the other hand, introduce language learners to intercultural thinking, social issues, and global knowledge, increasing their functional language potential. The article provides examples of tasks for levels A2 and B1, and explains the levels of cognitive complexity of text-based reasoning and assessment processes.*

Keywords: *CEFR, reading skills, authentic text, assessment, language levels, critical thinking, contextual understanding, methodology, language teaching, language competence.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУТЕНТИЧНЫХ ТЕКСТОВ ПРИ ОЦЕНКЕ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ В РАМКАХ CEFR

Аннотация. *В статье анализируется методическое и практическое значение использования аутентичных текстов при оценке навыков чтения на основе Общеевропейских компетенций владения иностранным языком (CEFR). Чтение рассматривается не только как средство получения информации, но и как средство понимания и интерпретации языка в реальных контекстах и подготовки к интерактивному общению. CEFR устанавливает критерии для постепенного развития навыков чтения от уровня A1 до C2, формирования таких навыков, как критическое мышление, понимание деталей и понимание текста в контексте посредством решения реальных жизненных задач. С другой стороны, аутентичные тексты знакомят изучающих язык с межкультурным мышлением, социальными проблемами и глобальными знаниями, повышая их функциональные языковые способности. В статье приводятся примеры заданий для уровней A2 и B1, а также объясняются уровни когнитивной сложности процессов рассуждения и оценки на основе текста.*

Ключевые слова: *CEFR, навыки чтения, аутентичный текст, оценка, уровни владения языком, критическое мышление, контекстное понимание, методология, преподавание языка, языковая компетенция.*

Kirish. Zamonaviy til o‘qitish jarayonida o‘qish ko‘nikmasi nafaqat axborot olish, balki tilni real kontekstda tushunish va qo‘llash vositasi sifatida asosiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Xususan, Yevropa til bilish kompetensiyalari doirasi (CEFR) til o‘rganishda muvofiqlashtirilgan, mezonli baholash tizimini taklif etar ekan, o‘qish ko‘nikmasini baholashda ham aniq bosqichlar, ko‘rsatkichlar va namoyon bo‘ladigan til faoliyatlariga e’tibor qaratadi. Ushbu maqolada CEFR tizimi doirasida o‘qish ko‘nikmasini baholashda autentik matnlardan foydalanishning metodik va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy til o‘qitish jarayonida o‘qish ko‘nikmasi nafaqat axborot olish vositasi, balki tilni real kontekstda anglash, talqin qilish va interaktiv muloqotga tayyorgarlik ko‘rish vositasi sifatida muhim til kompetensiyasi sanaladi. Yevropa til bilish kompetensiyalari doirasi (CEFR) til o‘rgatish va baholashda yagona yondashuvni taklif etadi. CEFR o‘qish ko‘nikmasining bosqichma-bosqich rivojlanishini A1 darajadan C2 darajagacha aniqlik bilan ifodalaydi va o‘qish malakasini mustahkamlashda turli til faoliyatlari, uslublar va matn turlarini hisobga oladi.

Asosiy qism. Til o‘rganishni real hayotiy vaziyatlarga bog‘lash, ayniqsa o‘qish ko‘nikmasi uchun, ta'lim jarayonini sun’iylikdan holi qilishning asosiy sharti hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, autentik matnlar — ya'ni asl maqsadda, ya'ni ona tilida so‘zlashuvchilar uchun yaratilgan maqola, blog post, reklama, yangilik, reportaj, hujjatli adabiyot va boshqa matnlar — o‘qish ko‘nikmasini baholashda sezilarli ustunlikka ega bo‘ladi[3,29]. Ular til o‘rganuvchilarga hayotiy va kontekstli til modeli taqdim etadi hamda ma’lumotni saralash, asosiy g‘oyani ajratish, detallarga e’tibor berish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. CEFR doirasida o‘qish ko‘nikmasi foydalanuvchining real hayotiy matnlarni tushunishi, muhim ma’lumotlarni ajrata olishi, asosiy g‘oyani ilg‘ashi va matnning maqsadini anglay olish darajasi bilan belgilanadi. Har bir bosqichda (A1, A2, B1, B2, C1, C2) o‘quvchi qanday matnlarni o‘qiy olishi, qanday strategiyalardan foydalanishi, qanday murakkablikdagi matnlarni tahlil qila olishi aniq belgilab qo‘yilgan.

Metodik jihatdan, autentik matnlarning CEFR mezonlariga mos holda tanlanishi va baholov mezonlari bilan uyg‘unlashtirilishi muhim hisoblanadi. Masalan, A2 darajadagi o‘quvchiga yangiliklar portalidan qisqa, sodda tuzilgan, aniq kontekstga ega maqola tavsiya etilishi mumkin. Bu darajadagi baholashda o‘quvchining asosiy g‘oyani tushunishi, oddiy tafsilotlarni ajratib olishi va muhim axborotni aniqlashi baholash mezoni sifatida olinadi. B2 darajadagi talaba esa murakkabroq mavzular, ijtimoiy muammolar yoki tahliliy maqolalarni o‘qib, ular asosida mavzuga oid fikr yuritishi kutiladi.

Amaliy jihatdan, autentik matnlardan foydalanish o‘qish materiallarining xilma-xilligini, madaniyatlararo tafakkurni va global bilimlarni rivojlantiradi. Misol uchun, CEFR tizimi doirasida "global skills" (ijtimoiy va madaniy kontekstni tushunish, axborotni tanqidiy tahlil qilish, ijtimoiy masalalarni anglash) ham til o‘rganish jarayoniga qo‘shilishi lozim. Autentik matnlar o‘quvchini nafaqat til, balki mavzu doirasidagi bilimlar bilan boyitadi. Shu orqali o‘qish ko‘nikmasi nafaqat passiv, balki faol, izlanishga asoslangan jarayon sifatida shakllanadi.

CEFR baholash tizimi faqatgina tilga oid bilimlarni emas, balki til faoliyatlarini ifodalovchi funksional yondashuvni qo‘llaydi. Bu yondashuvga ko‘ra, o‘qish faqat matnni anglash emas, balki uni kontekstda tushunish, shaxsiy va madaniy tajriba bilan bog‘lay olish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Autentik matnlar esa aynan shu integrativ yondashuvni ta’minlaydi [3, 31].

CEFR doirasi o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini A1 (boshlang‘ich) dan C2 (mukammal) darajagacha baholash uchun quyidagi ko‘nikmalarga e’tibor qaratadi: global tushunish (gist reading), tafsilotlarni tushunish (detailed reading), izlash (scanning), va talqin qilish (inferencing). Masalan, A1 darajada o‘quvchi oddiy e’lonlar yoki qisqa shaxsiy xatlarni tushuna olsa, B2 darajada esa ilmiy-ommabop maqolalarni tushunish va muhim fikrlarni ajratish ko‘nikmasi shakllanadi. Bu ko‘rsatkichlar til o‘rganish jarayonini strukturaviy ravishda baholash imkonini beradi.

Autentik matnlar — bu asl hayotiy vaziyatlarda yozilgan, til o‘rgatuvchi maqsadsiz yaratilgan matnlardir. Ular o‘z ichiga yangiliklar, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar postlari, hujjatli maqolalar,

reklama materiallari, e'tiroz xatlari kabi turli janrlarni oladi. Ushbu matnlarning o'qish baholashida qo'llanilishi talabalarni real hayotdagi til ko'rinishlariga tayyorlaydi, ularning kontekstual tushunish, pragmatik tafakkur va madaniy kompetensiyasini rivojlantiradi.

CEFR baholash tizimida autentik matnlar asosida tuzilgan topshiriqlar kognitiv murakkablik darajasiga qarab farqlanadi. Masalan, A2 darajali topshiriqda "Bir sayohat blogidan joy haqida asosiy ma'lumotni toping", B1 darajada esa "Ijtimoiy maqoladagi asosiy dalillarni aniqlang va muallifning nuqtai nazarini belgilang" kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Shu tarzda matnni tushunish faqat lug'at boyligini emas, balki yuqori darajadagi tafakkur jarayonlarini (analiz, sintez, baholash) ham faollashtiradi. Yevropa til bilish kompetensiyalari doirasi (CEFR) xorijiy tilni o'qitish va baholashda yagona, tizimli yondashuvni taklif etadi. Ayniqsa, o'qish ko'nikmasini baholashda CEFR har bir til darajasi uchun aniqlashtirilgan deskriptorlar, ya'ni til faoliyatining daraja bo'yicha ifodalarini belgilaydi. Bu mezonlar orqali o'qish topshiriqlari nafaqat tilshunoslik jihatdan, balki kognitiv (bilish) darajada ham farqlanadi.

Autentik matnlar asosida tuzilgan topshiriqlar, CEFR doirasida, talabalarning tafakkur darajasiga qarab bosqichma-bosqich murakkablashtiriladi. Masalan, A2 darajasidagi topshiriqlarda talabadan oddiy kontekstda asosiy ma'lumotni ajratib olish talab etiladi. Bu bosqichda, odatda, sarlavha, sana, joy, asosiy voqealar kabi konkret ma'lumotlarni aniqlashga oid topshiriqlar qo'yiladi. Masalan, "Sayohat blogidan joy nomi va u yerda taklif etiladigan mashg'ulotlarni aniqlang" kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

B1 darajasida esa topshiriqlar kognitiv jihatdan murakkabroq bo'ladi. Bu bosqichda o'quvchidan matn ichidagi asosiy g'oyalarni ajratish, muallifning fikrini anglash, dalillarni aniqlash kabi faoliyatlar talab etiladi. Masalan, "Ijtimoiy maqoladagi asosiy dalillarni aniqlang va muallifning nuqtai nazarini belgilang" kabi topshiriqlar orqali o'quvchining tanqidiy fikrlash ko'nikmasi faollashtiriladi. Bunday topshiriqlar nafaqat lug'at boyligini, balki yuqori darajadagi tafakkur jarayonlarini – analiz (tahlil), sintez (umumlashtirish) va baholash (fikr yuritish)ni ham rivojlantiradi.

Shunday qilib, CEFR tizimida o'qish topshiriqlarining kognitiv murakkablik darajasi bosqichma-bosqich ortib boradi. Autentik matnlar bu jarayonda muhim vosita sifatida xizmat qiladi, chunki ular o'quvchining til bilimlarini real hayotiy kontekstda qo'llash imkonini yaratadi. Bunday yondashuv esa nafaqat til o'rganishni maqsadga yo'naltiradi, balki uni mazmunli, funksional va hayotiy faoliyat bilan bog'laydi.

Darslarda, masalan, "Global warming" mavzusi doirasida *The Guardian* gazetasidan maqola tanlanib, B2 darajadagi talabalar quyidagicha baholanadi: asosiy fikrlarni aniqlash; sabab-oqibat aloqalarini tushunish; muallifning pozitsiyasini aniqlash; o'qilgan matn asosida muqobil fikr bildirish.

Shuningdek, CEFR formatidagi baholash shakllari (rubrikalar, self-assessment grid, descriptors) orqali talabalar o'z darajasini aniqlab, o'z ustida ishlash uchun aniq maqsadlar qo'yishadi.

Xulosa. Xorijiy tilni o'rgatish va baholashda zamonaviy yondashuvlar orasida CEFR (Yevropa til bilish kompetensiyalari doirasi) muhim metodologik asos sifatida ajralib turadi. Ushbu doira doirasida o'qish ko'nikmalarini baholashda autentik matnlardan foydalanish nafaqat tilni sun'iy o'quv materiallaridan farqli o'laroq, real hayotiy kontekstga yaqinlashtiradi, balki o'quvchilarning madaniy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Autentik matnlar orqali o'quvchi tilni ijtimoiy, madaniy va funktsional jihatdan chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yondashuv o'quvchilarni faqatgina grammatik va leksik bilimlar bilan emas, balki kontekstual tushunish, matn strukturasini tahlil qilish, asosiy g'oya va dalillarni ajratish, shuningdek, muallif pozitsiyasini anglash kabi yuqori darajadagi tafakkur ko'nikmalari bilan ham qurollantiradi. CEFR darajalariga muvofiq tuzilgan autentik matn asosidagi baholash topshiriqlari o'qish kompetensiyasining bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, bunday yondashuv o'quvchilarni xalqaro standartlarga mos ravishda tayyorlaydi va ularning til o'zlashtirish jarayonini mustahkam, izchil va natijaviy qiladi. Shu sababli, CEFR mezonlariga mos autentik baholash materiallarini ishlab chiqish va ularni o'quv jarayoniga integratsiya qilish til o'qituvchilari uchun dolzarb ilmiy-metodik vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Shamsiya Devorova. (2025, April 16). Autentik materiallardan foydalangan holda integratsiyalashgan darslar dizayni (clil yondashuvi asosida). https://doi.org/10.2024/kzq3rk86

2. Devorova, S. (2024). Bo 'lajak ingliz tili o 'qituvchilarining o 'qish kompetensiyasini autentik materiallar yordamida takomillashtirish. tamaddun nuri jurnali, 9(60).

3. Shodiev, S. S., Bakaev, N. B., & Tasheva, N. Z. (2021). studying philosophical realities of the renaissance epoch, based on the structural analysis of philosophical texts. Academic research in educational sciences, 2(8), 28-34.

4. Sadikov, E. T. (2021). Teaching pragmatic speech acts through the receptive and productive skills. Academic research in educational sciences, 2(11), 463-476.

Mamatova Dilorom A'zam qizi
Qarshi davlat texnika universiteti, Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: dilorombobur567@gmail.com

ADABIYOTDA AYOL TAQDIRINING TARIXIY-ESTETIK TALQINI: SADRIDDIN AYNIY VA ZULFIYA QUROLBOY QIZI ASARLARI MISOLIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining ikki muhim vakili — Sadriddin Ayniy va Zulfiya Qurolboy qizining asarlari asosida ayol taqdirining tarixiy-estetik talqini tahlil qilinadi. "Odina" va "Oyimtilla" asarlarida tasvirlangan ayol obrazlari orqali turli davrlardagi ijtimoiy muhit, gender stereotiplari, ayolning ichki dunyosi va o'zini anglash jarayoni ko'rsatib beriladi. Maqolada ikki davr adabiyoti o'rtasidagi ideologik va estetik tafovutlar, yozuvchi nuqtai nazarining o'zgarishi hamda adabiyotda ayol qiyofasining shakllanish bosqichlari qiyosiy tahlil asosida yoritiladi. Tadqiqot o'zbek nasrida ayol obrazi orqali jamiyat va inson munosabatlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *Sadriddin Ayniy, Zulfiya Qurolboy qizi, ayol obrazi, Odina, Oyimtilla, tarixiy-estetik tahlil, gender stereotipi, ruhiy iztirob, jadid adabiyoti, zamonaviy o'zbek nasri*

ИСТОРИКО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ТОЛКОВАНИЕ ЖЕНСКОЙ СУДЬБЫ В ЛИТЕРАТУРЕ: НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ САДРИДДИНА АЙНИ И ЗУЛФИИ КУРОЛБОЙ КИЗИ

Аннотация. *В данной статье анализируется историко-эстетическая интерпретация женской судьбы на основе произведений двух выдающихся представителей узбекской литературы — Садриддина Айни и Зульфии Куролбой кызы. Через образы женщин, изображённых в произведениях «Одина» и «Ойимтила», раскрываются особенности социальной среды разных эпох, гендерные стереотипы, внутренний мир женщины и процесс её самопознания. В статье проводится сравнительный анализ идеологических и эстетических различий между литературой двух периодов, изменений авторской позиции, а также этапов формирования женского образа в литературе. Исследование имеет важное значение для понимания взаимоотношений между обществом и личностью через женский образ в узбекской прозе.*

Ключевые слова*: Садриддин Айни, Зульфия Куролбой кызы, женский образ, Одина, Ойимтила, историко-эстетический анализ, гендерный стереотип, душевные страдания, джадидская литература, современная узбекская проза.*

THE HISTORICAL AND AESTHETIC INTERPRETATION OF WOMEN'S FATE IN LITERATURE: A CASE STUDY OF THE WORKS OF SADRIDDIN AYNI AND ZULFIYA QUROLBOY QIZI

Abstract. *This article analyzes the historical and aesthetic interpretation of women's fate based on the works of two prominent figures of Uzbek literature — Sadriddin Ayni and Zulfiya Qurolboy qizi. Through the female characters portrayed in Odina and Oyimtilla, the article explores the social environments of different eras, gender stereotypes, the inner world of women, and the process of self-awareness. A comparative analysis highlights the ideological and aesthetic differences between the two literary periods, the evolution of the authorial perspective, and the stages in the development of the female image in literature. This research holds significant importance in understanding the relationship between society and the individual through the lens of the female figure in Uzbek prose.*

Keywords*: Sadriddin Ayni, Zulfiya Qurolboy qizi, female image, Odina, Oyimtilla, historical-aesthetic analysis, gender stereotype, emotional suffering, Jadid literature, modern Uzbek prose.*

Kirish O‘zbek adabiyotida ayol obrazi doimo dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Turli davr adiblarining asarlarida ayollarning jamiyatdagi o‘rni, ruhiy olami va taqdiriy iztiroblari turlicha talqin etilgan. Xususan, XX asr boshlaridagi jadid adabiyoti vakillaridan Sadriddin Ayniyning “Odina” qissasi o‘z davri uchun jasoratli qadam bo‘lib, unda ayolning ijtimoiy haqsizliklarga qarshi kurashi, o‘zligini anglashga intilishi tasvirlangan.

Oradan bir asrlik davr o‘tib, XXI asr o‘zbek adabiyotida ham ayol taqdiriga bo‘lgan e’tibor susaygani yo‘q. Zulfiya Qurolboy qizining “Oyimtilla” romani bugungi jamiyatda ayolning ijtimoiy bosim, ma’naviy yolg‘izlik va ichki iztiroblar girdobida qanday kurash olib borishini chuqur psixologik tahlil asosida aks ettiradi.

Ushbu maqolada “Odina” va “Oyimtilla” asarlaridagi ayol obrazlari qiyosiy jihatdan o‘rganilib, turli davrlar kontekstida ayollik tushunchasining shakllanishi, adabiy-estetik yondashuvlar va genderga oid stereotiplarning ifodalanishi tahlil etiladi. Shuningdek, adiblar tomonidan yaratilgan obrazlar orqali ayolning shaxsiy o‘sishi, ichki qarama-qarshiliklari va o‘zini anglash jarayoni yoritiladi.

Asosiy qism (Obrazlar qiyosiy tadqiqi)

Sadriddin Ayniy qalamiga mansub “Odina” qissasi XX asr boshlaridagi o‘zbek ayolining ijtimoiy holatini, madaniy va diniy bosimlar ostida ezilgan, biroq ichki iztirob orqali o‘zligini anglashga intilgan ayol timsolini yaratgan. Odina jamiyat tomonidan tan olinmagan muhabbat qurboni, shaxsiy baxtidan mahrum etilgan ayol sifatida tasvirlanadi. Ayniy Odina timsolida ijtimoiy adolatsizlik, gender tengsizligi va ayolning jamiyatdagi nohaq o‘rnini ko‘rsatadi. Ayol tanlov erkinligidan mahrum, taqdirini jamiyat belgilab beradi: “U nafratlanganlar orasida, faqat Allohning rahmatidan umid qilib yashar edi.”

Zulfiya Qurolboy qizining “Oyimtilla” romanida esa ayol obrazi yanada murakkabroq psixologik qatlamlarga ega. Nilufar nafaqat tashqi, balki ichki konfliktlar girdobida yashaydi. Uning shaxsiy fojiasi — ayollik tabiatining rad etilishi, ijtimoiy stigma va mehrsizlik bilan bog‘liq. U o‘z dardini na yaqinlaridan, na jamiyatdan tushunolmaydi. Uning ichki hayqirig‘i jamiyatda urf bo‘lgan “sabrli, jim” ayol stereotipiga qarshi turadi:

“Men yig‘lamayman endi. Ko‘z yoshimni yutaman. Chunki bu dardimni aytishga ham ojizman.”

Odina o‘z davrining diniy-ma’naviy g‘oyalariga bo‘ysunishga majbur bo‘lgan bo‘lsa, Nilufar zamonaviylik parda ortidagi ijtimoiy bosim va gender kamsitilishi ostida eziladi. Har ikkala ayol ham jamiyat tomonidan yaratilgan me’yorlar tufayli shaxsiy baxtdan mahrum bo‘ladi. Ammo Odinaning fojiasi tashqi zo‘ravonlik bilan belgilanayotgan bo‘lsa, Nilufarning fojiasi ichki halokat sifatida ochilgan.

Bundan tashqari, adiblarning uslubiy yondashuvi ham farq qiladi. Ayniyda realizm va ijtimoiy tanqid ustuvor bo‘lsa, Qurolboy qizida psixologik realizm, ruhiy dramatizm va ichki monolog asosiy rol o‘ynaydi. Odina ko‘proq ijtimoiy qurbon sifatida ko‘rsatilsa, Nilufar o‘z ruhiyatidagi inqirozlar orqali tragik qahramonga aylanadi.

Mualliflarning shaxsiy hayoti va asarga ta’siri

Adiblarning shaxsiy hayoti, yashagan davri, jamiyatga bo‘lgan munosabati ularning ijodiy yo‘nalishi va badiiy obrazlar yaratish uslubiga bevosita ta’sir etadi. Sadriddin Ayniy XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab, o‘z davrining ma’naviy-ma’rifiy uyg‘onish harakati — jadidchilikning faol ishtirokchisi sifatida tanilgan. U Turkiston jamiyatidagi ijtimoiy adolatsizlik, xotin-qizlarning tahqirlangan holatiga befarq bo‘lmagan, adabiyot orqali ijtimoiy o‘zgarishlarga chaqirgan. “Odina” qissasida Ayniy aynan shu ijtimoiy-siyosiy muhitni badiiy obrazlar vositasida aks ettiradi: ayol obrazini jamiyatdagi zo‘ravonlik va tengsizlik timsoli sifatida talqin qiladi. Ayniy uchun “Odina” — bu nafaqat ayol fojiasi, balki o‘zbek jamiyatining islohotga ehtiyoji borligining badiiy isboti hamdir.

Zulfiya Qurolboy qizi esa XXI asr o‘zbek adabiyotining faol ijodkorlaridan bo‘lib, o‘z asarlarida zamonaviy ayolning ruhiy holati, jamiyatdagi murakkab ijtimoiy bosimlar ostida kechayotgan ichki kurashlarini mahorat bilan aks ettiradi. Uning ijodi hayotiy voqelikni chuqur psixologik tahlil asosida yoritishga qaratilgan bo‘lib, “Oyimtilla” romanida u ayol ruhiyati orqali bugungi jamiyatning axloqiy va ma’naviy inqirozini ko‘rsatadi. Adibaning shaxsiy hayoti, ayniqsa,

adabiy muhitda faol ishtirok etishi, ayollar taqdiriga befarq emasligi uning badiiy qarashlariga asos bo‘ladi. Shu bois Nilufar obrazi — bu muallifning o‘z zamonasi haqidagi tashvishlari va ichki sezimlarining badiiy aksidir.

Nazariy asoslar. Ushbu maqolada ayol obrazining tarixiy-estetik talqini o‘rganilar ekan, bir necha nazariy yondashuvlarga tayaniladi. Eng avvalo, gender nazariyasi asosida ayollarning jamiyatdagi roli, stereotiplarga asoslangan ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy erkinlik masalalari tahlil qilinadi. Gender yondashuv orqali Sadriddin Ayniy va Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida ayollik mohiyatining ijtimoiy va madaniy shakllanishi, zamonlar kesimidagi farqlari yoritiladi.

Shuningdek, maqolada feministik adabiyotshunoslik yondashuvi ham qo‘llaniladi. Bu yondashuv orqali har ikki asarda ayol qahramonlarning jamiyatga bo‘ysunishi, erkaklar hukmronligidagi muhitda o‘zligini anglash harakatlari, sukut va qarshilik shakllari tahlil qilinadi. Ayniqsa, Nilufar obrazining ichki psixologiyasi feministik psixoanaliz nuqtai nazaridan talqin qilinadi.

Bundan tashqari, maqolada tarixiy-kontextual tahlil usuli ham qo‘llanilib, adiblarning hayoti, yozilgan davri, adabiy-estetik qarashlari va davr mafkurasi asar mazmuniga qanday ta’sir qilgani ko‘rib chiqiladi. Ayniy asaridagi jadidchilik ruhiyati, islohot g‘oyalari bilan “Odina” qissasi bog‘liq bo‘lsa, “Oyimtilla”da zamonaviy jamiyatdagi ayollar hayotining murakkabligi va ruhiy iztirob zamon ruhi bilan uyg‘un tarzda aks ettirilgan. Nazariy manbaa sifatida Sh. Rizaev, N. Qosimov, L. Alimova kabi o‘zbek adabiyotshunoslari hamda xalqaro miqyosdagi feminist nazariyotchilar – S. de Bovuardan V. Woolf gacha bo‘lgan fikrlar tahliliy yondashuvda qo‘llaniladi.

Asarlar tiliga oid tahlil (stilistika va til vositalari)

"Odina" va "Oyimtilla" asarlari o‘ziga xos stilistik uslub va badiiy ifoda vositalari bilan ajralib turadi. Sadriddin Ayniy "Odina" qissasida o‘sha davr o‘zbek adabiyotiga xos bo‘lgan an’anaviy uslubdan foydalanadi: unda diniy-ma’naviy leksika, tasviriy vositalar, kinoya va ijtimoiy tanqid yo‘nalishidagi ifodalar keng qo‘llaniladi. Ayniy til orqali ijtimoiy tengsizlik, ayolning ojiz holati va ichki fojiasini ochib berishga intiladi. Jumladan, “U nafratlanganlar orasida, faqat Allohning rahmatidan umid qilib yashar edi” kabi jumlalar orqali ayolning ijtimoiy va diniy zulm ostidagi umidsiz hayoti ifodalanadi. Adib tilining sodda, lekin mazmunga boy bo‘lishi ijtimoiy fikrni yetkazishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Zulfiya Qurolboy qizi "Oyimtilla" romanida esa psixologik tasvir, ichki monologlar, majoziy ifodalar va zamonaviy leksikadan keng foydalanadi. Asar tili dramatik ohangga ega bo‘lib, o‘quvchini qahramonning ruhiy dunyosiga chuqur singdiradi. “Men yig‘lamayman endi. Ko‘z yoshimni yutaman...” kabi satrlar ayol obrazining ichki qarama-qarshiliklari, jamiyatdagi “jim turuvchi ayol” stereotipiga qarshi chiqayotgan hayqiriqlarni ifodalaydi. Asarda shaxsiy dard poetik til orqali beriladi, bu esa obrazni ko‘proq psixologik chuqurlikda qabul qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, har ikki adibning badiiy uslubi o‘ziga xos bo‘lib, biri ijtimoiy-tanqidiy realizmga, ikkinchisi esa psixologik dramatizm va individual ruhiy tajribaning tasviriga asoslangan. Til va uslub orqali yaratilgan obrazlar asar mazmunini chuqurlashtirib, o‘quvchida kuchli estetik va emotsional ta’sir uyg‘otadi.

Xulosa.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Sadriddin Ayniyning “Odina” qissasi va Zulfiya Qurolboy qizining “Oyimtilla” romani turli davrlarda yaratilgan bo‘lishiga qaramay, ularning har ikkisi ham o‘zbek adabiyotida ayol obrazining chuqur va murakkab talqinini beradi. “Odina”da ayol taqdirining fojiasi tashqi ijtimoiy va diniy bosimlar orqali aks etgan bo‘lsa, “Oyimtilla”da bu fojia ichki ruhiy iztirob, psixologik izlanishlar va jamiyatdagi sukut devorlari orqali ifodalanadi.

Mazkur asarlar ayollarning faqat ijtimoiy ob'ekt emas, balki o‘z shaxsiyati, his-tuyg‘ulari, orzu-umidlari, iztiroblari bor mustaqil subyekt sifatida tasvirlanishini ko‘rsatadi. Ayniy asarida ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash va islohot ruhi ustuvor bo‘lsa, Qurolboy qizi asarida inson ruhiyatining ichki qudrati, gender stereotiplarga qarshi jim qarshilik ko‘rinishlari asosiy o‘rinda turadi.

Demak, ikki adib asarlarida tasvirlangan ayollar turli davrlar ruhini o‘zida mujassam etgan bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi jihat – bu ayolning shaxsiyligini, insoniy qadr-qimmatini tiklashga bo‘lgan intilishidir. Bu maqola orqali adabiyotda ayol qiyofasining tarixiy va estetik o‘zgarishlarini

chuqurroq anglash, ularni zamonaviy adabiy va ijtimoiy kontekstda qayta talqin qilish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ayniy, Sadriddin. Odina. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 1991.
2. Qurolboy qizi, Zulfiya. Oyimtilla. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2021.
3. Rizaev, Sh. O‘zbek romani taraqqiyot yo‘lida. – Toshkent: Fan, 2000.
4. Qosimov, N. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
5. Alimova, L. Ayol va jamiyat: tarixiy va adabiy ko‘rinishlar. – Toshkent: Sharq, 2016.
6. Mamajonov, A. “Jadid adabiyotida ayol masalasi.” // Adabiyotshunoslik izlanishlari, №2, 2021.
7. Saidova, D. “Zamonaviy nasrda ruhiy inqiroz va gender identitet.” // Til va adabiyot, №4, 2022.
8. Karimova, N. “Postmodern romanlarda ayol ruhiyati.” // Filologiya masalalari, №1, 2023.

Yallayev Behzod Toshtemirovich
Shahrsabz davlat pedagogika unstituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: begzod.yallayev@gmail.com

TILAK JO‘RA SHE’RIYATINING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Tilak Jo‘ra she’riyatining poetik xususiyatlari, tuyg‘ularidagi haqqoniylik, chinakam iste’dodning olam va odam haqidagi eng jozib qarashlari ifodalangan. Ayniqsa, metaforik talqinlarda so‘z va ruh ziddiyati, qalb kechmishlari poetik ma’no qatlamlari fabuladan syujetga asoslangan talqinlar tarzida yuzaga chiqadi.*

Kalit so‘zlar: *Obraz, syujet, tuyg‘u, konflikt, badiiy tasvir, peyzaj, kechinma, uslub, metafora, postmodern, modernizm, realizm, struturalizm.*

СВОЕОБРАЗИЕ ПОЭЗИИ ТИЛАКА ЖУРА

Аннотация. *В этой статье поэтические особенности поэзии Тилак Жўраа, искренность в его чувствах, его очаровательные точки зрения о человеке и мира выражаются. Особенно, противоположность между духа и слова, душевные ощущения описываются в метафорических интерпретации и слой поэтического значения появляется как интерпретации обосновано на сюжете.*

Ключевые слова: *Ключевые слова: образ, сюжет, чувство, конфликт, художественное описание, пейзаж, ощущение, метод, метафора, постмодерн, модернизм, реализм, структурализм.*

THE DISTINCTIVENESS OF TILAK JURA'S POETRY

Annotation. *In this article it is expressed poetic features of the poetry by Tilak Jo‘ra, sincerity in the poet’s senses, his fanciest viewpoints about the world and man. Especially, contradiction between a word and spirit, feelings of soul in metaphorical interpretation is expressed and poetic meaning layers emerge as interpretations based on the plot.*

Key words: *Key words: image, plot, sense, conflict, artistic description, landscape, feelings, method, metaphor, post modern, realism, structuralism.*

O‘zbek adabiyotini Tilak Jo‘ra she’riyatisiz tasavvur qilish mushkul. Negaki, o‘tgan asrning 70-yillari adog‘ida adabiyotimizni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘targan shoirlar ijodi nisbatan qisqa vaqt oralig‘ida millatning tuyg‘u va ongida tub burilish yasaganligini inkor etib bo‘lmaydi. Uning g‘oyaviy-badiiy izlanishlarida ilg‘or adabiy-estetik an’analarning ijodiy voqelikni poetik tadqiq qilish tamoyillarini belgilab berayotganligi, inson ruhiy olamini teran badiiy inkishof etishga moyillikning kuchayib borayotganligi, estetik qadriyatlarni qayta baholash jarayon tusini olganligi shundan dalolat beradi. Ijodiy yuksalish, ayniqsa, mustaqillik davri ruhiyatida Tilak Jo‘ra poetikasining yangi sahifalari ochilganligida yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi.

70-yillar badiiyatini belgilab bergan qarash malakaviy jihatdan takomillashgan san’atkor ma’naviy olami mumtoz adabiyot irmoqlari hamda jahon poeziyasi tajribalari sari yuzlandi. Tilak Jo‘ra she’riyatining asosiy tamoyili ham mana shu an’analarga sodiqligi bilan belgilanadi.Tilak Jo‘ra, avvalo, xalq og‘zaki ijodini, mumtoz adabiyot hamda jahon adabiyotining ilg‘or tajribalarini o‘rgandi va shundan so‘ng asl ijodiy labaratoriyasini yaratdi. Atoqli olim Ibrohim Haqqul shoir she’riyatiga o‘zgacha tarzda baho beradi: “O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan keyin adabiyotga, ayniqsa, she’riyatga qiziqish O‘zbekiston viloyatlarida ham sezilarli zaylda jonlanib, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi she’rlari haqida maroq bilan gapirila boshlagan edi. O‘shanda men Buxoro pedagogika institutining talabasi edim. Chini bilan adabiyotni yaxshi ko‘rar, kitob o‘qish zavqini hech nimaga almashtirgim kelmasdi.Fakultetdagi ayrim tengdoshlarim qatori men ham adabiyotda kechayotgan yangiliklarni bilgim, shu maqsadda domlamiz, filologiya fanlari nomzodi Toji

Qorayevga tez-tez murojaat etardim. Bir marta “Adabiyot” to‘garagi yig‘inida u kishidan Toshkentda yashab yoki o‘qib yurgan buxorolik yosh ijodkorlar to‘g‘risida so‘radik.Unisi yozuvchi, bunisi shoir deb Toji aka uch to‘rt nomni tilga oldi. Shular orasida Tilak Jo‘ra bor edi. Men hali birorta she’rini o‘qimay, Tilakning Qorako‘ldanligi, iste’dodli ekani, buni ba’zi ustozlar ham e’tirof etishganini eshitdim. Adashmasam Tilak Jo‘rani she’rlarini ilk bor “Guliston” jurnalida o‘qiganman: an’anaviy shakllardagi she’riyatdan ular farqlanardi. ”[1].Demak, shoir allaqachon olimlarni nazariga tushib ulgurgandi. O‘zbek she’riyatining yorqin vakillari Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon kabi shoirlar she’riy inqilob qilib turgan bir davrda Tilak Jo‘raning men ham borman deb maydonga chiqishi katta jasorat edi. Aruz va barmoq she’riy tizimini bir chetga surib, o‘rniga sarbastda o‘zini imkoniyatini sinab ko‘rdi va katta muvaffaqiyatga erishdi.To‘g‘ri, ungacha ham sarbastda ijodiy tajribalar qilgan shoirlar ko‘pchilikni tashkil qilsa-da, Tilak Jo‘ra obrazlar va xalqano ohanglar jaydariligi, zavqi tabiiyligi bilan ajralib turadi.

“Bir parcha yering bo‘lsa,
boringni eksang,
Bir parcha osmoning bo‘lsa,
ko‘zingni tiksang,
Mustafoqul o‘ylardi shunday:
-Bir parcha qog‘ozing bo‘lsa,
xayoling bitsang...
Mustafoqulning bir parcha yeri,
bir parcha osmoni,
bir parcha qog‘ozi
bor...
U yana o‘ylaydi:
-Bir suygan sanaming bo‘lsa,
lablarga xol bo‘lib qo‘nsang.
Bir uchqur samaning bo‘lsa,
YAg‘ringda oftobni ko‘rsang...
Mustafoqulning
Bir suygan sanami,
Bir uchqur samani bor.
U yana o‘ylaydi”[2].

Shoir mazkur she’rida “bir parcha yering bo‘lsa” deb boshlashining sababi erksizlik hukmron bo‘lar ekan, so‘z vositasida ham tuyg‘ularini to‘la-to‘kis namoyon etolmaydi. Bir parcha qog‘oz topiladi, lekin unga ko‘ngilni to‘kib solish muammo bo‘lgan sobiq ittifoq davrida hech bir kishi baxtsizman deb aytolmagan. Mustafoqul deb murojaat qilishida ham katta bir hikmat bor. Mustafoga qul rutbasini mingazishi ham bejiz emas. Bir yigit orzu qiladigan hamma narsani so‘raydi. Lekin bularga erishsa ham insoniyatning tiynatida yana-yana deyish, bor.

Xususan, ijodiy erkinlik shoir she’riyatining milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanishiga, mafkuraviy zug‘umlardan qochib ko‘nglini o‘zi istagan tomonga burishga harakat qiladi. Yakkahokimlik milliy adabiyotimizning fikr qarashlarini o‘zi istagan qobiq ichiga solib qo‘ydi. Ular asoratlarini bir qadar cheklab qo‘yganligi, badiiy izlanishlarning falsafiy-intellektual saviyasi yuksalayotganligi hamda shakliy–uslubiy-mazmuniy miqyoslar kengayayotganligi shoir izlanishlariga yangi estetik salmoq bag‘ishladi. Shoir Miraziz A’zam, Tilak Jo‘rani shunday xotirlaydi: “Tilak Jo‘raning shoirlik sifati chakana emas.U jahonning ozodlik kuychilari maktabidan chiqqan, xalqimizning erki va hurriyati uchun joni og‘rib, mustaqillikka erishish yo‘lida ishlagan va kurashgan e’tiqodli vatandosh, imoni butun shoir edi. Oddiy turmush voqealaridan umummilliy va umuminsoniy xulosa chiqarishgacha ko‘tarila biluvchi qalamkash edi. Masalan u bir she’rida bozorlar xaridorlar va sotuvchilarning sog‘ligini saqlash uchun isiriq tutatib yurgan bir bukri chol siymosini yaratarkan, koshki men ham shu insonday butun dunyo xalqlari sog‘lig‘ini saqlasam, ularga chang

[1] Ҳаққулов И.Талант жасорат жавҳари.-Муҳаррир нашриёти -Тошкент.-2018.-201 б.
[2] Тилак Жўра. Сайланма.Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутибхона нашриёти.-2011-.36 б.

solayotgan turli makruhlardan xalos qilsam... ma'nosidagi fikrni ilgari suradi.Ayni choqda,Tilak Jo‘ra she'r faqat maqsad uchun emas, san'at uchun xizmat qilish kerakligini ham anglab yetgan zahmatkash ijodkor edi"[3],deya xotirlaydi. Shoir haqiqatdan , dunyoning zeb zabariga uchmadi. Miraziz A'zamning e'tiroflarida ham katta haqiqat yashiringan buning amaliy natijalarini shoir tarjimalaridan ham bilsa bo‘ladi. Tilak Jo‘ra jahonning ozodlik kuychisi bo‘lgan shoirlarning she'rlarini o‘zbek kitobxonlariga tanishtirdi va bu yo‘lda tinmay mehnat qildi.

"Umrimning turfa rangini,
Qadoq qo‘llarning
mayin tolalarga aylanmoq,
Mayin tolalarning dunyoni
bir butun o‘ramoq ishqini
kuylayapman...
Erkka erk bo‘lib otilgan
Mayakovskiy she'riday
Bo‘g‘zimga sig‘magay ovozim,
zaminga sig‘magan ovozim,
Oyoq ostida qolgan urug‘ kabi
Neruda bo‘g‘zida qolgan qo‘shiqni
kuylayapman..."[4].

Shoir ushbu she'rda xalqimizning oqoltinni oltin qo‘llar yaratadi deb olti million tonna paxta rejasini bajarish uchun millionlab qo‘llarning qadoqliligi-yu, terilgan momiq bilan butun dunyoni o‘ramoq istaydi. Va bunga erishgandir ham, shu sabab dunyoning hamma joyiga paxta yetib borgan bo‘lsa ajab emas. Mayakovskiy va Neruda kabi shoirlarning inson erkini kuylab, ovoz pardalari yorilib ketganini ayanch va iztirob bilan tasvirlaydi. Mayakovskiy rus klassik shoiri bo‘lsa-da, uning ham jamiyatdagi soxta yolg‘onlarni kuylab charchagani shoirni befarq qoldirmaydi. O‘tmishning boy ilmiy va adabiy merosini ham ma'naviy-axloqiy, ham ma'rifiy tomondan o‘tkaza boshlagan ta'siri shoir ijodida o‘chmas iz qoldirdi. Jumladan, Tilak Jo‘ra she'riyatida g‘arbona ifodaning shakllanishi, xalqona falsafiylikning kuchayib borayotganligi shundan dalolat beradi. Yangicha ilmiy-nazariy qarashlarning shakllanish tarzi badiiy jarayonning barcha poetologik qirralarini uyg‘unlashtirib turadigan ijodiy tizimni ham o‘zgartirib yubordi.

"Ofeliya, sevgilim, ko‘zlaringni och,
Aldangan biz emas, aldangan ular!
Hech qachon o‘lmaydi eng buyuk ishonch,
Hech qachon aldanmas buyuk tuyg‘ular!
Tuhmat va aldovning ko‘r sharpasidan
Bo‘g‘izdan tirqirab oqsa hamki qon,
Sevgi va otashning qahqahasida
Bizlar porlab turgan moviy bir osmon.
Sevaman deb, jonim, yana shivirlay,
Kesilgan bo‘lsa ham mayliga tilim.
Yuragimni o‘rtab bir dard g‘ivirlar-
Yashamoq darkordir, yashamoq gulim..."[5]

She'rda ifoda etilgan qarashlar g‘arb adabiy tafakkurida mashhur bo‘lgan sinyorita Ofeliyaga o‘xshagan qizlar har bir millatda, har bir xalqda iztirob chekib o‘tib ketayotganligi uchun shoir ataylab Ofeliyaga murojaat qiladi va ham asl sevgilar buyuk asarlarda emas, hayotda ham borligini o‘qtirmoqchi bo‘ladi. Inson sevgisiz, tuyg‘usiz yasholmaydi.Faqat o‘lmaydi, xolos.

Tilak Jo‘raning ifoda usuli, tasvir yo‘nalishi va poetik tafakkurdagi yangilanish hajmi, ayniqsa, san'atkorning ko‘p qatlamli lirikasida yanada barqarorlashdi. Negaki, she'riyatdagi rang-baranglik, inson ruhiyatining ijtimoiy-axloqiy, psixologik teranliklariga kirib borishga intilish, g‘oyaviy

[3] Тилак Жўра. Сайланма.Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутибхона нашриёти.-2011-.9 б.
[4] Тилак Жўра. Сайланма.Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутибхона нашриёти.-2011-.21 б.
[5] Тилак Жўра. Сайланма.Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутибхонаси нашриёти.-2011-.86

mundarijada yuzaga kelgan evrilishlar natijasi o‘laroq kuzatilayotgan yangi badiiy mezonlar Tilak Jo‘raning izlanishlarida salmoqli o‘rin tutadi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati.

1. Haqqulov I.Talant jasorat javhari.-Muharrir nashriyoti -Toshkent.-2018.-201 b.
2. Tilak Jo‘ra. Saylanma. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti.-2011-.86 b.
1. Haqqulov I.Talant jasorat javhari.-Muharrir nashriyoti -Toshkent.-2018.-201 b.
2. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. –Т., Фан. 2007. –Б.37.
3. Тилак Жўра. Сайланма.Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутибхонаси нашриёти.-2011-.177 б
4. Жамол Камол. Шеър санъати. –Т., Янги аср авлоди. 2018. –Б. 137-138.
5. Йўлчиев Қ. Типологик ўхшашликлар: бирлик ва учлик. Монография. –Т. Муҳаррир. 2016. –Б.194.

Kozimova Zulfiya Ismoilovna
Pavel Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

TASVIRIY SAN’AT TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. *Maqolada tasviriy san’at terminologiyasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixiy-sintez yondashuv asosida tahlil qilinadi. Ilk ibtidoiy davrlardagi oddiy ifodalardan boshlab, o‘rta asrlardagi diniy va estetik tushunchalar, Uyg‘onish davrining ilmiy asoslangan atamalari, yangi davr uslubiy terminlari va zamonaviy global san’at tili doirasidagi terminlar bosqichma-bosqich ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari Sharq va G‘arb san’ati terminologiyasining o‘zaro ta’siri, ularning o‘ziga xosligi va taraqqiyot yo‘llari yoritiladi. Maqola san’atshunoslar, filologlar, talaba va tadqiqotchilarga kerakli nazariy manbaa bo‘lib xizmat qiladi degan umiddamiz.*

Kalit so‘zlar: *Realizm, zamonaviy san’at, konseptual san’at, multimediali ifoda, san’at tarixi, miniatyura, ikonografiya, terminologiya, tasviriy san’at.*

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТЕРМИНОЛОГИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Аннотация. *В статье анализируются этапы формирования и развития терминологии изобразительного искусства на основе историко-синтетического подхода. Начиная с простых выражений ранних первобытных периодов, поэтапно рассматриваются религиозные и эстетические понятия средневековья, научно обоснованные термины эпохи Возрождения, стилистические термины новой эпохи и термины в рамках языка современного глобального искусства. Кроме того, освещается взаимодействие терминологии восточного и западного искусства, их своеобразие и пути развития. Мы надеемся, что статья послужит ценным теоретическим ресурсом для искусствоведов, филологов, студентов и исследователей.*

Ключевые слова: *Реализм, современное искусство, концептуальное искусство, мультимедийное выражение, история искусства, миниатюра, иконография, терминология, изобразительное искусство.*

THE STAGES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF VISUAL ART TERMINOLOGY

Annotation. *The article analyzes the stages of formation and development of fine art terminology based on a historical-synthetic approach. Starting with the simple expressions of the early primitive periods, the religious and aesthetic concepts of the Middle Ages, scientifically grounded terms of the Renaissance, stylistic terms of the new era, and terms within the language of contemporary global art are examined in stages. Additionally, the interaction of Eastern and Western art terminology, their uniqueness, and developmental paths are illuminated. We hope this article will serve as a valuable theoretical resource for art critics, philologists, students, and researchers.*

Keywords: *Realism, contemporary art, conceptual art, multimedia expression, art history, miniature, iconography, terminology, fine arts.*

Kirish. Tasviriy san’atning odamlar tafakkuri mahsuli sifatida tarixiy taraqqiyot davrida to‘htovsiz rivojlanib kelmoqda. San’at asarlarining tahlili, bahosi va tadqiqotida terminlarning aniq va izchil qo‘llanilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tasviriy san’at terminologiyasi ham san’atning o‘zi kabi tarixiy bosqichlar asosida shakllanib borgan. Tasviriy san’at turlari o‘z xususiyatlariga qarab real borliqni obyektiv mavjud sifatlari - hajm, rang, fazo, shuningdek,

predmetning moddiy shakli va nurhavo muhiti, harakat va o‘zgarishlari hissini yaratadi. Bunda tasvirning hissiy konkretliligidan illyuzionizmga o‘tish mumkin. Tasviriy san’at faqat ko‘rish mumkin bo‘lgan narsalarnigina tasvirlab qolmay, balki, asarlarida hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yoki bu qismi(fabula), erkin hikoyanavislik, dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyoni g‘oyaviy o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi[1]. Tasviriy san’at terminlarining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini quyidagicha tasniflash mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. 1. Ilk bosqich – qadimgi tasviriy ifodalar. Tasviriy san’atga oid eng dastlabki tushunchalar insoniyatning ibtidoiy davrlarida shakllandi. Bu davrda san’at asarlarini izohlash yoki atamalarga ajratish ehtiyoji mavjud bo‘lmasa-da, rasmlarning diniy, mifologik, amaliy-ma’naviy ahamiyati tufayli ayrim tavsifiy so‘zlar paydo bo‘lgan. Masalan, “devoriy rasm”, “sun’iy belgi”, “tasvir” kabi umumiy atamalar inson faoliyatida qadimdan mavjud edi.

2. O‘rta asrlar – diniy ta’sir va ikonografik terminlar

O‘rta asrlarda tasviriy san’at ko‘proq diniy mavzular bilan bog‘liq bo‘lib, ikonografiya, miniatyura, devoriy freskalar, mozaika kabi atamalar keng tarqaldi. Bu davrda asosan xristianlik va islom san’ati doirasida maxsus terminlar shakllandi. Masalan, musulmon Sharqida “naqqoshlik”, “kitob bezagi”, “arabesk”, “islomiy ornament” kabi tushunchalar paydo bo‘ldi.

3. Uyg‘onish davri – ilmiy tahlil va klassik terminlarning yuzaga chiqishi

XV–XVI asrlarda G‘arbda Uyg‘onish davri san’ati bilan birga ilmiy asoslangan terminologiya rivoj topdi. Perspektiva, kompozitsiya, anatomiya, koloristika, chiaroscuro (yorug‘-soya), sfumato kabi texnik va tahliliy atamalar paydo bo‘ldi. Bu terminlar san’atshunoslik fanining shakllanishida asosiy poydevor bo‘ldi. Sharq san’atida esa bu davrda naqsh, tezhib, suls, kufiy, miniatyura singari o‘ziga xos terminlar mukammallashdi.

4. Yangi davr – akademik yondashuv va uslubiy terminlar. XVII–XIX asrlarda san’atning akademiklashtirilishi bilan usta-shogird maktablari, san’at akademiyalari faoliyatida tizimli terminlar ishlatila boshlandi. Realizm, romantizm, barokko, rokokko, impressionizm, klassitsizm kabi uslub va oqimlarga oid terminlar san’at asarlarini tasniflashda muhim vositaga aylandi. Bu davrda tasviriy san’at nafaqat estetik, balki ijtimoiy mazmunga ham ega bo‘ldi.

5. Zamonaviy bosqich – globalizatsiya va tahliliy zamonaviy terminlar. XX–XXI asrda san’atda konseptual yondashuvlar, multimedia, performans, installyatsiya, land-art, digital-art kabi yangi ifoda shakllari paydo bo‘lishi bilan tasviriy san’at terminologiyasi ham sezilarli darajada kengaydi. Bugungi kunda ingliz tilidagi terminlar xalqaro darajada qaralganda universal holatga kelgan. O‘zbek san’atshunosligida ham milliy terminlar bilan birga xalqaro terminlar muvofiq holda qo‘llanilmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, tasviriy san’at terminologiyasi insoniyat tafakkuri, estetik didi va ilmiy dunyoqarashining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq. Har bir tarixiy bosqichda yuzaga chiqqan atamalar nafaqat o‘z zamonasining san’atini ifodalagan, balki kelajak avlodlar uchun bilim va madaniyat ko‘prigi bo‘lib xizmat qilgan. Bugungi globallashuv davrida esa bu terminlarni chuqur o‘rganish, tarjima va izohlash orqali milliy san’atimizni jahon miqyosida keng targ‘ib qilish imkoniyati tug‘iladi. Yigirmanchi asr tasviriy san’ati murakkab va ziddiyatli davr sanaladi. Bir tomonda klassik realistik san’atning talab va uslublari saqlangani holda uni ifodaviyligiga e’tibor qaratilishida, ishlangan har bir obrazni chuqur majoziy mazmunlar bilan to‘ldirishga intilish kuzatilsa, aksincha noan’anaviy tasviriy san’at uslubida yangi ifoda va tasvir vositalarini topishga, butunlay yangicha san’at yaratishga intilish harakati kuchliligi namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Tasviriy san’ati jahon hamjamiyatida sodir bo‘layotgan jarayonlar bilan hamnafas bo‘lib, har bir ijodkor o‘z qarash va kechinmalarini yangicha uslub va shakllarda ifoda etishga intilishi bilan xarakterlanadi[2].

Aynan bugungi kunda bu jarayonlarni jadal rivojlantirish, o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish muhim sanalmoqda. Asrlar davomida me’morchilik terminologiyasi, tasviriy san’atning ayrim turlari, badiiy hunarmandchilik va an’anaviy xalq hunarmandchiligi deyarli mustaqil shakllangan va rivojlangan. Fundamental tushunchalar mazmunini ochishga alohida yondashuvlar ishlab chiqilgan. Natijada, kasbiy faoliyatning turli sohalarida bir xil atamalar turlicha tushuntirildi. Terminologik lug‘atlarni jamoaviy tuzish tajribasi ham kutilgan natijalarni bermadi, chunki muharrirlar va tuzuvchilar o‘z mazmunini mutaxassislar o‘rtasida taqsimlashga majbur bo‘lishadi, bu esa faqat

nomuvofiqlikni oshiradi[3]. Shu tufayli bu masalaga puxta yondoshgan holda yechimlarni izlash amaliyotga joriy etish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. M.B.Safaraliyeva "Tasviriy san`at va uning terminlari haqida tushuncha". Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istiqbollari ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. 2024/30-avgust.
2. D.Y.Rahmonova "Tasviriy san'atga oid terminlarning rivojlanish bosqichlari". Ilmiy tadqiqot va jamiyat muammolari jurnali. 41-bet.
3. B.A.Ruzinov "Tasviriy san'at rivojlanish tarixi va bugungi kundagi ahamiyatli jihatlarini o'rganish va tahlil qilish". International scientific online conferences. 2024.

Dehqonboyev Shohajahon Oybek og‘li
Buxoro davlat universiteti psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

SUD-PSIXOLOGIK EKSPERTIZA JARAYONIDA STRESS HOLATIDAGI SHAXSNING EMOTSIONAL BARQARORLIGINI BAHOLASHNING PSIXODIAGNOSTIK USULLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, sud-psixologik ekspertiza jarayonida diagnostik yondashuvlarning amaliyotdagi o‘rni, afzalliklari va muhim tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, turli olimlar nazariyalari asosida emotsional barqarorlik tushunchasining mazmuni kengaytirilgan. Bundan tashqari, shaxsga nisbatan adolatli yondashuvni ta’minlash, uning psixik holatini to‘g‘ri baholash va asosli ekspert xulosalarini ishlab chiqish kabi jihatlar tahlil qilingan.*

Kalit so’zlar: *sud-psixologik ekspertiza, emotsional barqarorlik, stress holati, psixodiagnostik usullar, psixologik baholash, shaxsiy xususiyatlar, diagnostik metodlar, stressga chidamlilik, kognitiv tahlil.*

ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ЛИЧНОСТИ В СТРЕССОВОМ СОСТОЯНИИ В ПРОЦЕССЕ СУДЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ

Аннотация. *В данной статье освещены роль, преимущества и важные принципы диагностических подходов в процессе судебно-психологической экспертизы. Также на основе теорий различных ученых расширено содержание понятия эмоциональной устойчивости. Кроме того, проанализированы такие аспекты, как обеспечение справедливого подхода к личности, правильная оценка ее психического состояния и разработка обоснованных экспертных заключений.*

Ключевые слова: *судебно-психологическая экспертиза, эмоциональная устойчивость, стрессовое состояние, психодиагностические методы, психологическая оценка, личностные особенности, диагностические методы, стрессоустойчивость, когнитивный анализ.*

PSYCHODIAGNOSTIC METHODS FOR ASSESSING EMOTIONAL STABILITY OF AN INDIVIDUAL UNDER STRESS IN THE PROCESS OF FORENSIC PSYCHOLOGICAL EXAMINATION

Abstract. *This article highlights the practical role, advantages, and important principles of diagnostic approaches in the process of forensic psychological examination. Also, based on the theories of various scientists, the content of the concept of emotional stability has been expanded. In addition, such aspects as ensuring a fair approach to the individual, correct assessment of their mental state, and the development of well-founded expert opinions were analyzed.*

Keywords: *forensic psychological examination, emotional stability, stress state, psychodiagnostic methods, psychological assessment, personal characteristics, diagnostic methods, stress resistance, cognitive analysis.*

Kirish. Sud-psixologik ekspertiza jarayonida stress holatidagi shaxsning emotsional barqarorligini baholash muhim psixodiagnostik vazifa hisoblanadi. Bunday baholash shaxsning ruhiy holatini to‘liq va aniq tushunishga, uning huquqiy mas’uliyatini aniqlashga yordam beradi. Stress ostida bo‘lgan insonning xulq-atvori va psixologik reaksiyalari o‘zgarishi mumkinligi sababli,

emotsional barqarorlik darajasini baholash uchun maxsus metod va usullarni qo‘llash talab etiladi. Psixodiagnostik vositalar yordamida stress ta’sirining shaxs psixikasiga qanday ta’sir ko‘rsatgani aniqlanadi va bu ekspertizaga asos bo‘ladi. Shu jihatdan, psixologik tahlilning sifatli va ishonchli bo‘lishi uchun diagnostik usullarning zamonaviy va ilmiy asoslangan bo‘lishi muhimdir. Emotsional barqarorlikni baholashda individual farqlarni hisobga olish, shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhim sanaladi. Bu jarayon sud ishlarida shaxsning xatti-harakatlarining stress ostida qanday o‘zgarishini aniqlashga yordam beradi. Psixodiagnostik usullar sud qarorlarini asoslashda asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekspertlarning malakasi va tajribasi ham natijaning aniqligi va ishonchliligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Sud-psixologik ekspertiza doirasida stress holatidagi shaxsning emotsional barqarorligini baholashda ko‘plab psixodiagnostik metodlardan foydalaniladi. Ushbu metodlar orasida intervyu, testlar, kuzatuv va psixometrik o‘lchovlar muhim o‘rin tutadi. Har bir usul o‘ziga xos ma’lumotlarni taqdim etadi va baholash jarayonini to‘ldiradi. Masalan, emotsional barqarorlikni baholashda o‘z-o‘zini baholash testlari orqali shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash darajasi aniqlanadi. Shu bilan birga, psixologik testlar shaxsning stressga chidamliligi va stressni boshqarish qobiliyatlarini o‘lchaydi. Kuzatuv usuli orqali esa ekspertlar shaxsning real vaqt holatidagi xatti-harakatlarini tahlil qiladilar. Intervyu esa shaxsning ichki his-tuyg‘ularini yanada chuqurroq tushunishga imkon yaratadi. Har bir usulning o‘ziga xos afzalliklari va cheklovlari mavjud bo‘lib, ularni birgalikda qo‘llash ekspertizani yanada to‘liq qiladi. Bu metodlar yordamida ekspertlar shaxsning stress ostidagi emotsional barqarorligini har tomonlama tahlil qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar. Metodlarning to‘g‘ri tanlovi va mos qo‘llanilishi baholash sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Stress holatida emotsional barqarorlikni baholashda psixodiagnostik usullar aniq, ishonchli va valid bo‘lishi talab etiladi. Buning uchun diagnostik vositalarning ilmiy asoslari, normativ ma’lumotlari va psixometrik ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, testlarning madaniy va til jihatidan mosligi ham katta ahamiyatga ega. Sud-psixologik ekspertiza uchun tanlangan usullar stressning turli bosqichlari, intensivligi va davomiyligini hisobga olishi zarur. Psixodiagnostik jarayonda shaxsning holati doimiy ravishda monitoring qilinib, natijalar bilan taqqoslanadi. Bu usullar yordamida stress ostidagi shaxsning ruhiy holatidagi o‘zgarishlar aniq ko‘rinadi va emotsional barqarorlik darajasi aniqlanadi. Tahlillar ekspertlarga shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari va stressga bo‘lgan reaktsiyalarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu yondashuv sudda haqiqiy va ishonchli ma’lumotlarni taqdim etish imkonini beradi, shu bilan birga inson huquqlari himoyasini ta’minlaydi. Shuning uchun psixodiagnostik usullarni tanlash va qo‘llashda ehtiyotkorlik va professional yondashuv zarur.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Sud-psixologik ekspertiza jarayonida stress holatidagi shaxsning emotsional barqarorligini baholash, shuningdek, uning huquqiy javobgarligi, qobiliyat va qilmishlariga ta’sirini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Emotsional barqarorlik – bu shaxsning stressli vaziyatlarda o‘zini boshqarish, salbiy his-tuyg‘ularga bardosh berish va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatidir. Baholash natijalari sud qarorlarini adolatli va asosli qabul qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, ekspertiza natijalari yordamida shaxsga psixologik yordam ko‘rsatish yo‘nalishlari aniqlanadi. Sud ekspertizasi jarayonida stress va emotsional barqarorlikni baholash uchun bir nechta psixodiagnostik vositalarni kompleks tarzda qo‘llash tavsiya etiladi. Bu holatda, har bir vosita o‘zaro to‘ldiruvchi bo‘lib, aniqroq va mukammal natijalar beradi. Tahlil natijalari shaxsning ichki dunyosi va tashqi holatining real ko‘rinishini beradi, bu esa sud jarayonida muhim ma’lumot hisoblanadi. Shu tarzda, psixodiagnostik yondashuv stress holatidagi shaxsning emotsional barqarorligini aniqlashda yuqori samaradorlikka erishishga imkon beradi.

Sud-psixologik ekspertiza jarayonida stress holatidagi shaxsning emotsional barqarorligini baholashda psixodiagnostik usullarni qo‘llashda bir nechta mashhur psixolog olimlarning nazariyalari asosiy ilmiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Birinchi navbatda, Richard Lazarusning stress nazariyasi e’tiborga loyiq. Lazarus stressni shaxs va uning atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabat deb biladi, bunda shaxs o‘ziga tahdid soluvchi vaziyatni baholaydi va unga moslashish strategiyasini tanlaydi. Uning fikricha, emotsional barqarorlik stressga munosabatda adaptiv javoblarning shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Lazarus nazariyasi stressni yengish jarayonida sub’ektiv baholashning o‘rni va indivudning psixologik resurslarini hisobga olishga urg‘u beradi. Ushbu nazariya sud-psixologik ekspertizalarda shaxsning stress holatidagi ruhiy barqarorligini baholashda diagnostik vositalarni tanlashda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, Lazarusning yondashuvi individual farqlarni va shaxsiy resurslarning stressga chidamliligiga ta’sirini o‘rganishda asosiy metodologik yo‘nalish sifatida ishlatiladi. Bu nazariya orqali ekspertlar stressli vaziyatlarga shaxsning emotsional reaktsiyalarini chuqurroq tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladilar.

Ikkinchi muhim nazariya bu Hans Selye tomonidan ishlab chiqilgan umumiy moslashuv sindromi (UMS) tushunchasidir. Selye stressni organizmning turli bosqichlarda moslashish reaksiyasi sifatida tasvirlaydi, bunda birinchi bosqichda signal reaktsiyasi paydo bo‘ladi, keyin organizm moslashish bosqichiga o‘tadi va oxirida agar stress uzoq davom etsa, charchash bosqichi kelib chiqadi. Selye nazariyasi emotsional barqarorlikni baholashda fiziologik va psixologik reaksiyalarni umumiy tizim sifatida ko‘rishga imkon beradi. Sud-psixologik ekspertizalarda bu yondashuv stress holatida shaxsning jismoniy va ruhiy holatini birgalikda o‘rganish uchun asos bo‘ladi. Shaxsning stressga chidamliligi uning organizmdagi adaptiv jarayonlar samaradorligi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi bu nazariyada ochiq ifodalangan. UMS nazariyasi diagnostik metodlarni tanlashda fiziologik o‘lchovlar va psixologik baholashlarni uyg‘unlashtirishga yordam beradi. Shu tariqa, ekspertlar stressni nafaqat psixologik, balki biologik jarayon sifatida ham tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu nazariya stressning kompleks tabiatini tushunishda va shaxsning emotsional barqarorligini baholashda katta ahamiyatga ega.

Uchinchi nazariya sifatida Daniel Golemanning emotsional intellekt nazariyasini keltirish mumkin. Goleman emotsional barqarorlikni emotsional intellektning asosiy komponenti sifatida ko‘radi, u o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish va boshqalarning his-tuyg‘ularini idrok etish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuvda emotsional barqarorlik shaxsning stressli vaziyatlarda o‘zini tutish, muammolarni hal qilish va psixologik moslashuvchanlikni ta’minlashda hal qiluvchi omil sanaladi. Goleman nazariyasi psixodiagnostik usullarda shaxsning o‘z-o‘zini boshqarish va emotsional javoblarni boshqarish qobiliyatini o‘lchashga katta e’tibor qaratadi. Sud-psixologik ekspertizalarda bu nazariya shaxsning ichki emotsional dunyosini yanada aniqroq tushunish va stress ostida qanday xatti-harakat qilishini aniqlashda qo‘llaniladi. Emotsional intellekt nazariyasi shuningdek, ekspertlarga shaxsning ijtimoiy va emotsional muvozanatini baholashda yordam beradi, bu esa sud qarorlarining asosli bo‘lishiga xizmat qiladi. Goleman yondashuvi sud-psixologik amaliyotda individual farqlarni hisobga olish va stressga moslashuvchanlikni baholashda katta ahamiyatga ega.

To‘rtinchi nazariya sifatida Aaron Beckning kognitiv nazariyasini keltirish mumkin. Beck stress va emotsional barqarorlikni insonning fikrlash usullari va kognitiv jarayonlari bilan bog‘laydi. Uning fikricha, salbiy avtomatik fikrlar va kognitiv buzilishlar stressga nisbatan psixologik chidamlilikni kamaytiradi. Beckning yondashuvida psixodiagnostik metodlar shaxsning fikrlash usullarini, o‘z-o‘ziga munosabatini va stressga javoblarni o‘lchashga qaratilgan bo‘ladi. Sud-psixologik ekspertizalarda bu nazariya shaxsning stress ostidagi ruhiy holatini yanada aniq va puxta baholash im-

konini beradi. Kognitiv yondashuv shaxsning muammolarni qabul qilish va ularga javob berish usullarini aniqlashga yordam beradi, bu esa stressga chidamlilikni o‘lchashda muhimdir. Beck nazariyasi psixodiagnostik usullarda kognitiv testlar va intervyularni qo‘llash orqali shaxsning ichki dunyosini tahlil qilishda keng qo‘llaniladi. Ushbu nazariya sud jarayonlarida stress holatidagi shaxsning emotsional barqarorligini yanada kompleks tarzda baholash imkonini beradi.

Muhokama. Sud-psixologik ekspertiza jarayonida stress holatidagi shaxsning emotsional barqarorligini baholashda psixodiagnostik usullarni qo‘llash murakkab va ko‘p qirrali muhokama mavzusidir. Birinchi muhokama shundan iboratki, stress ostidagi shaxsning emotsional barqarorligini aniq va ishonchli baholash uchun diagnostik vositalar bir nechta darajada integratsiyalangan bo‘lishi lozim. Chunki stress o‘zining tabiatiga ko‘ra faqat psixologik holat emas, balki biologik va ijtimoiy omillar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli, faqat an’anaviy testlar yoki intervyu bilan cheklanish stressning barcha jihatlarini aks ettirmasligi mumkin. Psixodiagnostika jarayonida shaxsning individual xususiyatlari, atrof-muhit omillari, shuningdek, stressning davomiyligi va intensivligi hisobga olinishi lozim. Bu holat diagnostik natijalarni yanada aniq va asosli qiladi. Mutaxassislarning fikricha, stress ostidagi emotsional barqarorlikni baholashda kognitiv, emotsional va fiziologik ko‘rsatkichlarni birgalikda o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, sud ekspertizasida qo‘llaniladigan usullar shaxsning ichki dunyosini aniqlash bilan birga, uning tashqi xatti-harakatlarini ham tahlil qilish imkonini berishi kerak. Bu yondashuv orqali ekspertlar shaxsning stressga qarshi individual chidamliligini to‘liqroq anglab, aniq xulosalar chiqaradilar. Shu bilan birga, psixodiagnostika jarayonida etik tamoyillarga rioya qilish va shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash ham muhim sanaladi.

Ikkinchi muhokama psixodiagnostik usullarining ilmiy asoslanganligi va amaliy qo‘llanilishi haqida. Sud-psixologik ekspertizalarda stress holatidagi emotsional barqarorlikni baholash uchun tanlangan testlar va intervyular ilmiy sinovlardan o‘tgan, ishonchlilik va validlik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan vositalar bo‘lishi kerak. Bu esa natijalar asosli va sud jarayonida qabul qilinadigan bo‘lishini kafolatlaydi. Ko‘pgina mutaxassislar stressni baholashda o‘zaro to‘ldiruvchi usullar majmuasini qo‘llashni tavsiya qiladi, chunki har bir usulning o‘ziga xos kuchli va zaif tomonlari mavjud. Masalan, psixometrik testlar shaxsning emotsional barqarorligini o‘lchashda aniq raqamli ma’lumot beradi, biroq shaxsiy suhbat va intervyu yordamida uning ichki dunyosi va psixologik resurslari to‘liqroq ochiladi. Bundan tashqari, biokimyoviy yoki fiziologik indikatorlar ham stressning jismoniy ko‘rinishini baholashda yordam beradi. Ushbu integratsiyalangan yondashuv sud ekspertizalarida yanada mukammal natijalar olishga imkon yaratadi. Shuningdek, diagnostik vositalar doimiy yangilanib borishi va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida takomillashib turishi zarur. Bu sud-psixologik ekspertizalarning dolzarbligini va ishonchliligini ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, mutaxassislarning malakasi va psixodiagnostik vositalarni to‘g‘ri tanlash ham muhim omil sifatida muhokama qilinadi.

Uchinchi muhokama stress ostidagi shaxsning emotsional barqarorligini baholashda kognitiv va emotsional jarayonlarning o‘zaro ta’siri haqida. Emotsional barqarorlik ko‘pincha shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, salbiy stress ta’sirini kamaytirish va muvozanatni tiklash qobiliyati sifatida qaraladi. Ammo bu jarayonda shaxsning fikrlash usullari, qaror qabul qilish strategiyalari va stressga nisbatan munosabati muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli psixodiagnostika jarayonida faqat emotsional ko‘rsatkichlarga emas, balki kognitiv funksiyalarga ham e’tibor qaratish zarur. Masalan, shaxsning salbiy avtomatik fikrlar va stressli vaziyatlarga yondashuvi uning emotsional barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun ekspertlar shaxsning stressli vaziyatlarga munosabatini aniqlash uchun kognitiv intervyular, fikrlash usullarini baholovchi testlar va emotsional o‘z-o‘zini

boshqarish ko‘rsatkichlarini o‘rganadi. Bu yondashuv shaxsning ichki resurslarini va stressga qarshi kurashish strategiyalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sud-psixologik ekspertizalarda bunday kompleks baholash shaxsning ruhiy holatini to‘liqroq anglashga yordam beradi va natijalar yanada asosli bo‘ladi. Shuningdek, bu jarayon shaxsga psixologik yordam ko‘rsatish va reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqishda ham qo‘llaniladi.

To‘rtinchi muhokama stress holatidagi shaxsning emotsional barqarorligini baholashda madaniy va individual farqlarni hisobga olish zarurati haqida. Har bir shaxs o‘zining tarixi, ijtimoiy muhiti va shaxsiy xususiyatlariga ko‘ra stressga boshqacha munosabat bildiradi. Shu bois, sud-psixologik ekspertiza jarayonida diagnostik vositalarning madaniy mosligi va shaxsning individual konteksti e’tiborga olinishi muhimdir. Bir xil test yoki metod har xil madaniy va ijtimoiy sharoitlarda turlicha natija berishi mumkin. Mutaxassislar bunday holatda madaniy va lingvistik jihatdan moslashtirilgan psixodiagnostik vositalarni qo‘llashni tavsiya qiladi. Bundan tashqari, shaxsning yoshi, jinsi, ta’lim darajasi va psixologik tarixini inobatga olish orqali yanada aniq va haqiqiy baholash amalga oshiriladi. Bu esa sud jarayonlarida adolatli va ishonchli xulosalar chiqarishga yordam beradi. Shuningdek, ekspertlarning madaniy va individual farqlarni hisobga olgan holda diagnostika o‘tkazishi shaxsning haq-huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Shu tarzda, sud-psixologik ekspertizalar yanada keng qamrovli va zamonaviy yondashuvlarga asoslanadi, bu esa natijalar sifatini oshiradi.

Xulosa. Sud-psixologik ekspertiza jarayonida stress holatidagi shaxsning emotsional barqarorligini baholashning psixodiagnostik usullari haqida olib borilgan tahlillar natijasida birinchi xulosa shuki, stress holatidagi emotsional barqarorlikni aniqlash uchun kompleks yondashuv zarur. Bunda faqat bitta diagnostik vosita yoki metodga tayanmasdan, bir nechta usullarni uyg‘un qo‘llash orqali yanada to‘liq va aniq natijalarga erishish mumkin. Shu bilan birga, psixodiagnostika jarayonida shaxsning ichki holati, tashqi xatti-harakatlari, shuningdek, fiziologik ko‘rsatkichlari birgalikda hisobga olinishi talab etiladi. Bu holat, sud jarayonlarida adolatli va asosli xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Emotsional barqarorlikning o‘zgaruvchan va murakkab psixologik hodisa ekanligi diagnostika usullarining turli qirralarini sinovdan o‘tkazishni talab qiladi. Bundan tashqari, shaxsning stressga munosabatining individual xususiyatlari va uning psixologik resurslari ham alohida e’tiborga loyiq. Shunday qilib, ekspertiza jarayoni nafaqat emotsional holatni, balki uning yuzaga kelish sabablari va shaxsning stressni yengish imkoniyatlarini ham chuqur o‘rganishni talab qiladi. Ushbu yondashuv sud-psixologik amaliyotda ob’yektiv va ishonchli baholashni ta’minlaydi.

Ikkinchi xulosa shundan iboratki, sud-psixologik ekspertizalarda qo‘llaniladigan psixodiagnostik vositalarning sifatli va ilmiy asoslangan bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Testlar va intervyular zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda ishlab chiqilgan, ishonchlilik va validlik jihatidan yuqori ko‘rsatkichlarga ega vositalar bo‘lishi kerak. Bu esa ekspertlarning xulosalarini sud tomonidan qabul qilinishiga kafolat beradi. Bundan tashqari, diagnostika usullarining madaniy va individual mosligi ham e’tibordan chetda qolmasligi zarur. Har bir shaxsning o‘ziga xos ijtimoiy, madaniy va psixologik sharoitlari hisobga olinmagan baholash natijalari noto‘g‘ri yoki noaniq bo‘lishi mumkin. Shu sababli, sud-psixologik amaliyotda vositalarni tanlash va qo‘llashda mutaxassislarning malakasi va ehtiyotkorligi yuqori darajada bo‘lishi lozim. Psixodiagnostika jarayonida olingan ma’lumotlar va baholashlar har doim shaxsning holatiga moslashtirilgan bo‘lishi zarur. Bu sud jarayonlarida aniqlik, haqqoniylik va adolat prinsiplarini ta’minlashda asosiy mezon hisoblanadi. Yaxshi tanlangan va to‘g‘ri qo‘llangan diagnostik vositalar sud ekspertizasining sifatini oshiradi hamda sud qarorlarining to‘g‘riligini ta’minlaydi.

Uchinchi xulosa shundan iboratki, stress holatidagi shaxsning emotsional barqarorligini baholash jarayonida individual va madaniy farqlarni hisobga olish, shuningdek, shaxsning ichki psixologik resurslarini aniqlash juda muhimdir. Har bir inson stressni boshdan kechirish va unga moslashishda o‘ziga xos strategiyalarga ega bo‘lishi sababli, psixodiagnostik jarayon shaxsga individual yondashuvni talab qiladi. Shaxsning oilaviy, ijtimoiy va madaniy muhitini chuqur tushunish, uning stressga qarshi qanday himoya mexanizmlarini qo‘llashi haqidagi ma’lumotlar baholashni yanada to‘liq qiladi. Bundan tashqari, emotsional barqarorlik nafaqat stressga chidamlilik, balki shaxsning o‘zini boshqarish va muammolarni hal qilish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli sud-psixologik ekspertizalar faqatgina simptomatik ko‘rsatkichlarga asoslanib emas, balki shaxsning psixologik portretini yaratishga yo‘naltirilishi kerak. Bu esa stress ostidagi shaxsning haqiqatda qanday holatda ekanligini aniqlash va sud qarorlarini asoslashda juda muhimdir. Umuman olganda, ekspertiza jarayonida shaxsning emotsional barqarorligi ko‘p qirrali va keng qamrovli tahlilni talab qiladi, bu esa yuqori malakali mutaxassislar va zamonaviy psixodiagnostik vositalarning uyg‘unligida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Abdukarimov A.A. Psixologik ekspertiza asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
2. Karimova Z.S. Psixologik diagnostika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Bek A. Kognitiv terapiya asoslari. – Moskva: Eksmo, 2015.
4. Lazarus R.S. Emotion and Adaptation. – New York: Oxford University Press, 1991.
5. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995.
6. Selye H. The Stress of Life. – New York: McGraw-Hill, 1976.
7. Yusupova M.X. Sud-psixologik ekspertiza va uning metodologik asoslari. // O‘zR IIV Akademiyasi ilmiy jurnali. – 2021. – №3. – B. 45–52.
8. Abdullaeva S.K. Shaxsning emotsional holatini psixodiagnostik baholash usullari. // Psixologiya va hayot. – 2022. – №1(14). – B. 33–39.
9. Чернышев С.Н. Судебно-психологическая экспертиза: методика и практика. – Москва: Юрайт, 2019.
10. Американская психологическая ассоциация. Диагностика и оценка в психологии. – Москва: Когито-Центр, 2021.

Nazarova Dilnoza O‘razaliyevna
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALARDA IJTIMOIY MOSLASHUV JARAYONINING PSIXOLOGIK XUSSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonining psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Bolaning atrof-muhitga, ayniqsa tengdoshlar va kattalar bilan o‘zaro munosabatlarga moslashuvi, uning emotsional holati, muloqot ko‘nikmalari va shaxsiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqligi ochib beriladi. Tadqiqotda moslashuvga ta’sir qiluvchi omillar, pedagogik-psixologik yondashuvlar va bu jarayonni samarali tashkil etish usullari yoritiladi. Maqola amaliyotchi psixolog va tarbiyachilar uchun foydali tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha yosh, ijtimoiy moslashuv, psixologik xususiyatlar, bolalar rivojlanishi, muloqot, emotsional moslashuv, shaxsiy o‘sish.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЦЕССА СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические особенности процесса социальной адаптации детей дошкольного возраста. Раскрывается адаптация ребенка к окружающей среде, особенно к взаимодействию со сверстниками и взрослыми, его эмоциональное состояние, коммуникативные навыки и неразрывная связь с личностным развитием. В исследовании освещаются факторы, влияющие на адаптацию, педагогико-психологические подходы и методы эффективной организации этого процесса. Статья также содержит полезные рекомендации для практикующих психологов и воспитателей.*

Ключевые слова: *дошкольный возраст, социальная адаптация, психологические особенности, развитие детей, общение, эмоциональная адаптация, личностный рост.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE SOCIAL ADAPTATION PROCESS IN PRESCHOOL-AGED CHILDREN

Abstract. *This article analyzes the psychological characteristics of the process of social adaptation of preschool children. The child's adaptation to the environment, especially in relationships with peers and adults, is inextricably linked with their emotional state, communication skills, and personal development. The study highlights the factors influencing adaptation, pedagogical and psychological approaches, and methods of effective organization of this process. The article also contains useful recommendations for practicing psychologists and educators.*

Keywords: *preschool age, social adaptation, psychological characteristics, child development, communication, emotional adaptation, personal growth.*

Kirish. Inson hayotining dastlabki bosqichi — maktabgacha yosh davri — shaxs rivojlanishining eng muhim va mas’uliyatli davrlaridan biri hisoblanadi. Ushbu bosqichda bola nafaqat fiziologik va psixologik jihatdan shakllanadi, balki uning jamiyatga, atrof-muhitga moslashuvi, ya’ni ijtimoiylashuvi ham boshlangan bo‘ladi. Bola hayotidagi ilk ijtimoiy tajribalar aynan shu davrda shakllanadi va bu tajribalar uning keyingi hayotiy faoliyati, ta’lim olish jarayoni hamda shaxs sifatida kamol topishida muhim o‘rin tutadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvi — bu ularning atrofdagi kattalar va tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish, jamiyatdagi qabul qilingan qoidalarga muvofiq harakat qilish va ijtimoiy rollarni egallash qobiliyatini shakllantirish jarayonidir. Bu jarayon turli omillar, jumladan, oilaviy muhit, tarbiya uslublari, bola shaxsiy xususiyatlari, maktabgacha ta’lim muassasasidagi shart-sharoitlar va pedagogik yondashuvlar ta’sirida amalga oshadi.

Psixologik nuqtai nazardan olib qaralganda, ijtimoiy moslashuv bolalarning hissiy-emotsional barqarorligi, muloqot ko‘nikmalari, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va mustaqilligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bola ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslasha olgan taqdirda, u o‘zini erkin tutadi, faol bo‘ladi, muammolarni hal etishda mustaqil fikrlaydi va tengdoshlari bilan sog‘lom munosabatlarni shakllantira oladi. Aksincha, ijtimoiy moslashuvdagi muammolar bolaning psixik holatiga, o‘qishga bo‘lgan munosabatiga va kelajakdagi shaxs sifatidagi rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonini chuqur o‘rganish, uning psixologik xususiyatlarini aniqlash va bu yo‘nalishda samarali psixologik-pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish — zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu ishda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuviga ta’sir qiluvchi psixologik omillar, bu jarayonning rivojlanish bosqichlari, bolalar bog‘chasidagi muhit va pedagogik yondashuvlarning roli keng yoritiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy moslashuvdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llariga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Mavzuning dolzarbligi. XXI asrda inson salohiyati va tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, raqobatbardosh, ijtimoiy faollikka ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, bu jarayon bolaning hayotidagi ilk bosqichlardan, xususan, maktabgacha yosh davridan boshlab tizimli tarzda olib borilishi zarur. Chunki aynan shu davrda bola ilk bor ijtimoiy tajriba orttiradi, atrof-muhit bilan faol muloqotga kirishadi va jamoa ichida o‘zining psixologik “men”ini anglay boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvi — bu bolaning yangi sharoitlarga, ayniqsa, oiladan tashqari jamoaviy muhitga (bolalar bog‘chasi, maktabgacha ta’lim muassasasi) psixologik va emotsional jihatdan moslashuvi, ijtimoiy normalar va qoidalarni o‘zlashtirish jarayonidir. Ushbu jarayon bolaning keyingi rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois, uni chuqur o‘rganish, bu boradagi muammolarni aniqlash va samarali pedagogik-psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish — bugungi ta’lim va tarbiya tizimi uchun nihoyatda dolzarb masala hisoblanadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda maktabgacha yoshdagi bolalar orasida adaptatsion muammolar, ya’ni ijtimoiy muhitga moslashishda qiyinchilikka uchrayotgan bolalar soni ortib bormoqda. Bu holat bolaning ruhiy barqarorligiga, o‘quv faoliyatiga tayyorgarligiga, nutq va fikrlash salohiyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ijtimoiy moslashuvdagi muammolar bolaning muloqotga kirisha olmasligi, o‘z fikrini erkin ifoda eta olmasligi, tortinchoqlik, tajovuzkorlik, hissiy portlashlar va boshqa psixologik muammolar shaklida namoyon bo‘ladi.

Mazkur muammoning dolzarbligi shundaki, u nafaqat pedagogik va psixologik yondashuvlarni, balki oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit, madaniy qadriyatlar, ota-onalarning bolaga bo‘lgan munosabati kabi keng ijtimoiy omillarni ham qamrab oladi. Har bir bola individual shaxs sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgani bois, ularning ijtimoiy moslashuv darajasiga ham individual yondashuv talab etiladi.O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar doirasida maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, erta bolalik davrida tarbiya va ta’limning sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, Prezidentning 2021-yil 12-martdagi PQ–5003-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2021–2023 yillarda Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida bolalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga oid ko‘rsatkichlar asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu esa, ushbu mavzuning nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy va strategik dolzarbligini ham ko‘rsatib beradi.

Shuningdek, xalqaro miqyosda ham bolalarning ijtimoiy moslashuvi, erta yoshdagi rivojlanish strategiyalari, emotsional va sotsiopsixologik farovonligi yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasida har bir bolaning sog‘lom rivojlanishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, ijtimoiy muhitda faol ishtirok etishi ta’minlanishi zarurligi alohida ta’kidlangan. Bu esa mavzuning global dolzarbligini ham ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy moslashuv jarayonining psixologik xususiyatlarini o‘rganish

- zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish;
- har bir bolaga individual yondashuvni ta’minlash;

➢ bolaning maktabga psixologik tayyorgarligini oshirish;

➢ sog‘lom shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur psixososial muhitni yaratish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan ham ushbu mavzuning chuqur tadqiq etilishi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologik asosi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy moslashuv jarayonini o‘rganish bolalar psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, ta’lim psixologiyasi va maktabgacha pedagogika fanlari kesishgan nuqtada joylashgan dolzarb ilmiy yo‘nalishdir. Ushbu muammoni chuqur o‘rganish uchun bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, nazariy qarashlar va amaliy yondashuvlar tahlil qilinmoqda.

Nazariy asoslar va ilmiy qarashlar

Ijtimoiy moslashuv tushunchasi ilk bor sotsiologik va psixologik fanlarda ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu borada birinchi navbatda, quyidagi olimlarning ishlari alohida e’tiborga loyiq:

➢ J. Piaje (Piaget) bolaning kognitiv rivojlanish bosqichlarini aniqlab, ijtimoiy tajriba va muloqotning bola tafakkuri shakllanishidagi rolini chuqur o‘rgangan. Unga ko‘ra, bola muloqot orqali ijtimoiy qoidalarning mohiyatini anglaydi.

➢ L.S. Vigotskiy ijtimoiy rivojlanishning madaniy-tarixiy nazariyasini ishlab chiqib, bolalarning psixik funksiyalari sotsiomadaniy kontekstda shakllanishini asoslab berdi. Uning fikricha, ijtimoiy muhit bola rivojlanishining asosiy omilidir va "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasi bu borada muhim nazariy asoslardan biridir.

➢ A.V. Petrovskiy va D.B. Elkonin kabi olimlar bolalarning shaxsiy taraqqiyoti va ijtimoiylashuv bosqichlarini chuqur tadqiq etishgan. Ularning fikricha, bolaning ijtimoiy rivojlanishida rolli o‘yinlar, taqlid qilish, kattalar bilan munosabatlar muhim ahamiyatga ega.

➢ E. Erikson o‘zining psixososial rivojlanish nazariyasida hayotiy bosqichlar orqali shaxs shakllanishini ko‘rsatgan. Maktabgacha yosh davri — “tashabbusga qarshi ayb hissi” bosqichiga to‘g‘ri keladi, bu esa bolaning faoliyatda mustaqil bo‘lishi va jamiyatda o‘z rolini topishga harakat qilish bosqichidir.

Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi. Amerikalik olim U. Bronfenbrenner bolaning ijtimoiy rivojlanishini bir necha darajadagi tizimlar (mikro-, mezo-, ekzo- va makrosistema) ta’sirida shakllanishini asoslab bergan. Uning fikriga ko‘ra, bola faqat oila yoki bog‘chada emas, balki keng ijtimoiy muhitda shakllanadi. Bu yondashuv bola ijtimoiy moslashuviga ta’sir qiluvchi omillarni kompleks tarzda baholashga yordam beradi.

Bandura ijtimoiy o‘rganish nazariyasi. A. Bandura bolalar ijtimoiy xulq-atvorni kuzatish, taqlid qilish va modelga ergashish orqali o‘zlashtirishlarini ta’kidlaydi. Bu nazariya maktabgacha yoshdagi bolalarning atrofidagi kattalar va tengdoshlar ta’sirida qanday ijtimoiy xatti-harakatlarni egallashini tushunishda foydalidir.

T. Parsons nazariyasi – Ijtimoiy tizim ichidagi rol o‘zlashtirish. Sotsiolog T. Parsons bolaning jamiyatdagi o‘z rolini (o‘quvchi, do‘st, farzand) o‘zlashtirishi orqali ijtimoiylashishini tushuntiradi. Bu nazariy yondashuv maktabgacha yoshda bolaga rolli o‘yinlar, ijtimoiy vazifalar berish orqali uni ijtimoiy jihatdan moslashtirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda bolalar psixologiyasi va maktabgacha ta’lim sohasida bir qator olimlar tomonidan ijtimoiy moslashuv masalasi turli jihatlari bilan o‘rganilgan:

➢ Abduqodirov, G. Yo‘ldosheva, N. T. Jalilov, M. Aminova, R. To‘xtaboeva singari mutaxassislar maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxsiy rivojlanish, emotsional-intellektual salohiyat, moslashuv mexanizmlari, oilaning roli kabi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borishgan.

➢ Maktabgacha ta’lim metodikasi, psixologiyasi va pedagogik texnologiyalari bo‘yicha nashr etilgan darsliklar va monografiyalar (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tavsiyalariga asoslangan) amaliy yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro huquqiy va metodik manbalar:

- BMT Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi (1989): har bir bolaning sog‘lom psixologik rivojlanishiga, jamiyatda to‘laqonli ishtirok etishiga oid huquqlari belgilab qo‘yilgan.
- UNICEF va UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan maktabgacha yoshdagi bolalarning erta rivojlanishiga oid metodik tavsiyalar (Early Childhood Development Guidelines).

- OECD (2020) tadqiqotlarida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarning erta rivojlanishi bola kelajagi uchun muhim indikator sifatida ko‘riladi.

Ushbu maqola quyidagi metodologik yondashuvlar asosida tayyorlanmoqda:

1. Tizimli yondashuv – bolaning rivojlanishini bir butun tizim sifatida ko‘rib chiqadi: oila, bog‘cha, o‘qituvchilar, atrof-muhit o‘zaro ta’sirda bo‘ladi.
2. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – har bir bola individual shaxs sifatida qaraladi, uning psixologik holati, temperament xususiyatlari, ehtiyojlari inobatga olinadi.
3. Kompleks tadqiqot yondashuvi – nazariy, empirik va amaliy metodlarni birlashtirish orqali holatning to‘liq tahlil qilinishi.
4. Faoliyatga asoslangan yondashuv – bolaning o‘yin, nutq, muloqot va kundalik faoliyatdagi ishtiroki asosida ijtimoiy ko‘nikmalari baholanadi.
5. Diagnostik metodlar – psixologik testlar, so‘rovnomalar, kuzatuv, suhbat va eksperimentlar orqali bolalarning ijtimoiy moslashuv darajasi aniqlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy moslashuv darajasini baholash uchun quyidagi diagnostik metodlardan foydalaniladi:

➢ Kuzatuv (Monitoring)

Pedagog va psixologlar bolaning bog‘cha muhitidagi harakatlari, emotsional javoblari, guruh faoliyatidagi ishtiroki asosida moslashuv darajasini baholaydi.

➢ Suhbat (Individual va guruhli)

Oddiy, moslashtirilgan savollar orqali bola qanday his qilayotgani, qanday qiyinchiliklarga duch kelayotgani aniqlanadi.

➢ Testlar va so‘rovnomalar:

o “Ijtimoiy moslashuv darajasi” diagnostikasi – bola jamoa bilan muloqot, qoidalarga rioya, o‘zini tutish darajasini aniqlaydi.

o “Emotsional farovonlik” testlari (masalan, “Boshqalar orasida o‘zimni qanday his qilaman?”) – boladagi ichki holatni ko‘rsatadi.

o “Oilaviy rasm” testi yoki “Maktabgacha muassasani chiz” topshirig‘i – bolaning muhitga munosabatini emotsional tasvir orqali aniqlash mumkin.

Metodologik yondashuvning ahamiyati

Ijtimoiy moslashuvni o‘rganishda kompleks va tizimli yondashuv asosiy o‘rinda turadi. Bu quyidagilarni nazarda tutadi:

➢ Biopsixososial yondashuv: bolaning biologik, psixologik va ijtimoiy holatlari birgalikda tahlil qilinadi;

➢ Integratsiyalashgan yondashuv: oilaviy tarbiya, bog‘cha muhitidagi yondashuvlar, jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar birgalikda ko‘rib chiqiladi;

➢ Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv: har bir bolaga individual ko‘mak berish, uning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini hisobga olish.

Muhokama. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvi – bu bolaning oilaviy muhitdan chiqib, kengroq jamoa (bog‘cha guruhi, tengdoshlari, pedagoglar) a’zosi sifatida o‘zini tutishi, jamiyatda mavjud ijtimoiy qoidalar, rollar va normalarni o‘zlashtira borish jarayonidir. Bu jarayon bolaning ruhiy, emotsional, nutqiy va ijtimoiy-intellektual rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uni chuqur tahlil qilish pedagogik va psixologik nuqtai nazardan alohida ahamiyat kasb etadi.

1. Ijtimoiy moslashuvning ko‘p omilliligi

Bola o‘zini jamiyatda qanday tutishini faqat birgina muhit (masalan, bog‘cha) emas, balki bir nechta omillar: oila, tengdoshlari, pedagogik yondashuvlar, bolaning individual xususiyatlari ham belgilaydi. Masalan, oilada erkinlik va emotsional qo‘llab-quvvatlov mavjud bo‘lsa, bola jamoada o‘zini ishonchli tutadi, yangi sharoitlarga tezda moslasha oladi. Aksincha, haddan tashqari nazorat va jazoga asoslangan tarbiya uslublari bola ruhiyatiga salbiy ta’sir etib, ijtimoiy moslashuvda muammolar keltirib chiqaradi.

2. Pedagogik yondashuvning roli

Maktabgacha ta’lim muassasalarida ishlaydigan tarbiyachilar va psixologlarning bolaning psixologik holatini to‘g‘ri baholashi, unga individual yondashuvi muhimdir. Bolalar bilan ishlashda

shaxsga yo‘naltirilgan, emotsional qo‘llab-quvvatlovchi va faoliyatga asoslangan metodlar samaraliroq bo‘ladi. Afsuski, amaliyotda barcha pedagoglar bu yondashuvlarga ega emas, bu esa ayrim bolalarda bog‘cha muhitiga ijtimoiy-psixologik moslashuvda muammolarni kuchaytiradi.

3. Ijtimoiy ko‘nikmalarning shakllanishi

Ijtimoiy moslashuv faqat passiv “moslashish” emas, balki faol o‘zaro ta’sir jarayonidir. Bola atrofdagi odamlar bilan muloqotda bo‘lish, hamkorlikda faoliyat yuritish, his-tuyg‘ularini boshqarish, boshqalarni tinglash, muammolarni hal etish kabi ko‘nikmalarni egallaydi. Bu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun o‘yin faoliyati, rolli o‘yinlar, ijodiy mashg‘ulotlar va guruhli ishlanmalar muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.

4. Emotsional-psixologik holatning ahamiyati

Bola yangi muhitga moslashayotganda, u turli emotsional holatlar – xavotir, qo‘rquv, ishonchsizlik, hayajon kabi kechinmalarni boshdan kechiradi. Bu holatlar ularning faoliyatga jalb qilinishi, muloqotga kirishishi va o‘qishga tayyorgarligiga bevosita ta’sir qiladi. Agar bu holatlarni erta aniqlab, to‘g‘ri yondashilmasa, bola o‘zini chetga tortadi, passiv, nofaol bo‘lib qoladi. Shu sababli psixologlar tomonidan adaptatsion davr monitoringi yuritilishi zarur.

Tadqiqotlar asosida muammo va imkoniyatlar. So‘nggi yillarda O‘zbekiston bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy kuzatuvlar va psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki:

- 3–4 yoshdagi bolalarning taxminan 30–35% i bog‘cha muhitiga erta moslashishda muammolarga duch keladi;
- 5–6 yoshdagi bolalar orasida tengdoshlari bilan muloqotda qiyinchilik, agressivlik, hissiy portlashlar bilan bog‘liq holatlar kuzatilmoqda;
- Psixologik yordam va adaptatsion dasturlardan foydalanilgan guruhlarda esa ijtimoiy faollik va ijobiy emotsional holat 50% dan ortiq yaxshilangan.

Bu holatlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy moslashuvga doir maxsus diagnostika, korreksiya va psixoprofilaktika ishlari o‘z natijasini beradi. Biroq bu tizimli yondashuv barcha muassasalarda birdek emas, ayniqsa, chekka hududlardagi bog‘chalarda bu boradagi salohiyat zaif.

Yuqorida qayd etilganidek, Vygotskiy, Erikson, Piyaje, Bandura, Bronfenbrenner kabi olimlarning nazariyalari bolada ijtimoiy tajribaning shakllanishi, psixik funksiyalarning rivojlanishi, o‘rganish orqali ijtimoiy rollarni egallashi kabi jarayonlarni asoslab bergan. Bu esa ijtimoiy moslashuv masalasini chuqur psixologik negizda tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda:

- Nutq rivoji past bo‘lsa, u muloqotga kirishishda qiynaladi;
- Emotsional yetuklik bo‘lmasa, his-tuyg‘ularni boshqara olmaydi
- Tengdoshlar bilan raqobatni yenga olmasa, o‘zini past baholay boshlaydi.

Bu omillar esa maktabga tayyorgarlik, kelajakdagi ta’lim sifati va ijtimoiy rol bajarilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy moslashuvni oddiy “moslashish” sifatida emas, balki rivojlanishga yo‘naltirilgan dinamik jarayon sifatida ko‘rish zarur. Maktabgacha yoshdagi bola bu jarayonda quyidagi bosqichlarni bosib o‘tadi:

1. Kuzatuvchi bosqichi – Bola jamoada dastlab passiv bo‘lib, atrofdagilarni kuzatadi.
2. Taqlid bosqichi – Jamoa a’zolarining xatti-harakatlariga taqlid qiladi, rolli o‘yinlar orqali moslashishga harakat qiladi.
3. Faol ishtirokchi bosqichi – Ijtimoiy faoliyatda o‘z rolini topadi, muloqotga kirishadi, ijtimoiy qoidalarga ongli ravishda amal qiladi.
4. Ichkilashtirish bosqichi – Ijtimoiy me’yor va qadriyatlarni ichki qabul qilib, ularni shaxsiy qoidalar sifatida qabul qiladi.

Bu bosqichlar individual bolalarning rivojlanish sur’ati, temperament tipi va oldingi tajribalariga qarab har xil davom etadi.

Bola ijtimoiy xulq-atvorni birinchi navbatda oilada egallaydi. Oilada mavjud bo‘lgan quyidagi omillar bolaning bog‘chaga moslashuvini bevosita belgilaydi:

- Muloqot sifati va doirasi – ota-ona bilan doimiy, ochiq va mehrga asoslangan suhbatlar bola muloqotga ochiq bo‘lishini ta’minlaydi;

➢ Tarbiya uslubi – demokratik tarbiya uslublari (erkin fikr aytish, eshitish, dalil bilan tushuntirish) bolaning jamoaga tez kirishishiga yordam beradi;

➢ Ijtimoiy namuna – ota-onaning jamiyatdagi xulqi va ijtimoiy faolligi bolaga “ko‘zgudek” ta’sir qiladi.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, ijtimoiy moslashuvda qiyinchilikka duch kelayotgan bolalarning aksariyati uyda muloqotga nisbatan cheklangan, jazo asosidagi tarbiya usullariga duchor bo‘lgan yoki psixologik befarqlikka uchragan oilalarda tarbiyalangan.

Muhokama asosida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Ijtimoiy moslashuv — bolaning sog‘lom psixik, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishidagi kalit jarayon bo‘lib, u faqat bog‘cha muhitiga moslashuv emas, balki jamiyatda shaxs sifatida shakllanishining poydevoridir.
2. Ushbu jarayon turli ichki (psixologik) va tashqi (pedagogik, oilaviy, ijtimoiy) omillar ta’sirida kechadi, shuning uchun ham kompleks yondashuv talab etiladi.
3. Davlat siyosatidagi maktabgacha ta’limga oid islohotlar (masalan, PQ–5003 qarori) bu jarayonni tizimlashtirishga xizmat qilmoqda, lekin amaliyotda ularning samarasi har doim ham teng darajada ko‘zga tashlanmaydi.
4. Ijtimoiy moslashuvni baholovchi diagnostik vositalar va psixologik yondashuvlarni umumlashtirish, ularni barcha bog‘chalarda joriy etish dolzarb ehtiyoj bo‘lib qolmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bola uchun asosiy faoliyat turi — bu o‘yin. Aynan o‘yin jarayonida bola:

- o‘z hissiyotlarini boshqarishni o‘rganadi,
- ijtimoiy rollarni egallaydi (doktor, ona, haydovchi),
- muammolarni hal qilishni o‘rganadi,
- jamoada o‘zini tutish qoidalarini anglaydi.

Rolli va ijodiy o‘yinlar orqali bola jamiyatdagi real holatlarni tajriba qilganidek “simulyatsiya” qiladi. Bu esa ijtimoiy moslashuvning eng samarali vositalaridan biridir.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan yangi omillar ham mavjud:

1. Gajetlarga qaramlik (ekran sindromi)

Ko‘plab bolalar kuniga 3–4 soat vaqtini telefon yoki planshet qarshisida o‘tkazmoqda. Bu esa ularning real muloqotga kirishish ko‘nikmalarini susaytiradi, ijtimoiy noqulaylik hissini kuchaytiradi.

2. Sun’iy emotsional o‘rinsizlik

Multfilmlar va internet kontenti orqali bolaning emotsional reaktsiyalari real hayot bilan mos kelmasligi holatlari ko‘paymoqda. Bu esa jamoada ijtimoiy vaziyatni to‘g‘ri tushunish va moslashishda muammo tug‘diradi.

Shu sababli bog‘chalarda raqamli gigiyena, emotsional savodxonlik va haqiqiy muloqotga yo‘naltirilgan dasturlar zarur.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy moslashuv – bu bolaning shaxs sifatida jamiyatga kirib borishining boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, u bola psixikasi, emotsional holati, nutqiy rivoji va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanadi. Tadqiqotlar va tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bu jarayon turli ichki (psixologik, temperament, emotsional holat) va tashqi (oila, pedagogik muhit, tengdoshlar bilan munosabat) omillar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mavzu yuzasidan o‘rganilgan nazariy qarashlar (L.S. Vygotskiy, J. Piyaje, E. Erikson, A. Bandura, U. Bronfenbrenner va boshqalar) ijtimoiy moslashuvning shaxsiy rivojlanish, madaniy-tarixiy tajriba, muloqot va faoliyat orqali amalga oshishini asoslab bergan. Mahalliy mutaxassislar (A. Abduqodirov, R. To‘xtaboeva, M. Aminova va boshqalar) esa bu masalaning amaliy, pedagogik va psixologik yechimlariga e’tibor qaratgan.

Shuningdek, bolada ijtimoiy moslashuvni shakllantirishda:

- oila muhitining iliqligi va tarbiya uslublari,
- bog‘cha pedagogining kasbiy saviyasi va individual yondashuvi,
- rolli o‘yinlar va ijtimoiy faoliyatning tashkil etilishi,

- emotsional qo‘llab-quvvatlash va psixologik adaptatsiya usullarining mavjudligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, moslashuv jarayonida qiynalayotgan bolalar ko‘proq muloqotda sust, ijtimoiy qoidalarga javob bera olmaydi, bu esa ularning o‘qishga tayyorgarligiga, o‘zini baholashiga va kelajakdagi shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy moslashuv murakkab, ko‘p bosqichli va tizimli yondashuvni talab etuvchi jarayondir.
2. Ijtimoiy moslashuv bolaning jamoadagi munosabatlari, o‘zini tutishi, muloqoti va faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi va bu psixologik ko‘rsatkichlar orqali aniqlanishi mumkin.
3. Har bir bolaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, pedagogik va psixologik yondashuvlarni individual tarzda tashkil etish ijtimoiy moslashuv sifatini oshiradi.
4. Oila, maktabgacha ta’lim muassasasi va psixologlar o‘rtasida hamkorlikda ishlangan adaptatsion dasturlar orqali bolada sog‘lom ijtimoiy pozitsiyani shakllantirish mumkin.
5. Ijtimoiy moslashuvga doir chuqur tahlil, diagnostika va korreksion yondashuvlar bolalarning sog‘lom rivojlanishiga va ularning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Vigotskiy L.S. – Psixologiya va madaniyat (M., 1996)
2. Piaje J. – Bola tafakkuri va dunyoni idrok etishi (Geneva, 1952)
3. Erikson E. – Identity and the Life Cycle (New York, 1968)
4. Petrovskiy A.V. – Shaxs rivojlanishi nazariyasi
5. Jalilov N.T. – Bola psixologiyasi, Toshkent: O‘qituvchi, 2016
6. Abduqodirov A. – Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi, Toshkent, 2019
7. BMT – Convention on the Rights of the Child, 1989
8. UNICEF – Early Childhood Development Guidelines, 2018
9. OECD – Starting Strong V: Transitions from Early Childhood Education and Care to Primary Education, 2020
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5003-sonli qarori, 2021

Ergasheva Rano Ahadovna
Buxoro davlat universiteti tadqiqoti

YUQORI SINF INGLIZ TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA MFP TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yuqori sinflarda ingliz tili darslarini tashkil etishda MFP (Multifunksional Printer) texnologiyasining imkoniyatlari tahlil qilinadi. MFP texnologiyasi o'quv jarayonini yanada interaktiv va samarali qilishga yordam beruvchi vositalardan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Matnlarning tezkor nusxalash, rangli chop etish, skanerlash va elektron formatga o'tkazish funksiyalari yordamida o'quv materiallarini tayyorlash va taqdim etishda qo'llanilishi misollar bilan tushuntiriladi. Shu bilan birga, MFPning ta'lim jarayonidagi integratsiya yo'llari va uning o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishdagi roli muhokama qilinadi. Natijada, MFP texnologiyasi ingliz tilini o'rgatishda zamonaviy va samarali yordamchi vosita sifatida tavsiya etiladi.*

Kalit so'zlar: *yuqori sinf, ingliz tili darslari, MFP texnologiyasi, multifunksional printer, ta'limda texnologiyada foydalanish, o'quv jarayoni, interaktiv ta'lim, o'quv materiallari tayyorlash, raqamli resurslar, skannerdan foydalanish, chop etish texnologiyasi, ta'lim samaradorligi, o'quvchilar faoliyati, zamonaviy ta'lim vositalari.*

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ МФР ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В СТАРШИХ КЛАССАХ

Аннотация. *В данной статье будут проанализированы возможности технологии МФУ (многофункциональный принтер) при организации уроков английского языка в старших классах. Технология МФП рассматривается как один из инструментов, помогающих сделать процесс обучения более интерактивным и эффективным. Применение текстов при подготовке и презентации учебных материалов с использованием функций быстрого копирования, цветной печати, сканирования и преобразования в электронный формат объясняется примерами. При этом обсуждаются пути интеграции МФП в образовательный процесс и его роль в повышении уровня усвоения учащимися. В результате технология МФП рекомендуется в качестве современного и эффективного вспомогательного средства при обучении английскому языку.*

Ключевые слова: *высший класс, уроки английского языка, технология МФП, многофункциональный принтер, использование технологий в образовании, учебный процесс, интерактивное обучение, подготовка учебных материалов, цифровые ресурсы, использование сканера, технология печати, эффективность обучения, деятельность учащихся, современные средства обучения.*

POSSIBILITIES OF USING MFP TECHNOLOGY IN ORGANIZING HIGH SCHOOL ENGLISH LESSONS

Annotation. *This article analyzes the capabilities of MFP (multifunction Printer) technology when organizing English classes in the upper classes. MFP technology is considered as one of the tools that help make the learning process more interactive and effective. Examples explain the use of texts in the preparation and presentation of educational materials using the functions of rapid copying, color printing, scanning and conversion to electronic format. At the same time, the paths of integration in the educational process of MFP and its role in increasing the level of student assimilation are discussed. As a result, MFP technology is recommended as a modern and effective auxiliary tool in teaching English.*

Keywords: *upper class, English classes, MFP technology, multifunction printer, technology use in education, learning process, interactive education, teaching materials preparation, digital resources, scanner use, printing technology, educational efficiency, student activities, modern educational tools.*

Kirish. Zamonaviy ta'limda xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirish, ularni muloqotga tayyorlash va mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun samarali metodik yondashuvlar zarur. Shulardan biri bu - MFP texnologiyasi (Meaning - Form - Pronunciation) bo'lib, bu yondashuv ingliz tilining yangi leksik va grammatik birliklarini o'rgatishda chuqur va samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak chet tillari o'qituvchilari tayyorlash mazmunini takomillashtirish, xususan, ularning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy-nazariy tadqiqotlar jahonning yetakchi markazlari va ta'lim muassasalarida, xususan, the English language center (Angliya), Oxford University (Angliya), Monterey Institute (AQSH), Yale University (AQSH), Massachusetts institute of Technology (AQSH), Sogang University (Janubiy Koreya), The Mainz Johannes Gutenberg University (Germaniya), The University Of Eastern Finland (Finlandiya), Moskva davlat pedagogika universiteti (Rossiya Federatsiyasi)da olib borilmoqda[1]

Jahon hamjamiyati pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonida lisoniy kompetentlikni shakllantirishning kreativ texnologiyalari ta'lim jarayonlariga tatbiq etilmoqda. 2015-yilda YUNESKO xalqaro konferensiyasida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan asosiy vakolatlarni aniqlab berish va til bilish qobiliyatiga alohida o'rin ajratilgan "ta'lim sohasida barqaror rivojlanish maqsadlari" doirasida butun dunyoda xalqaro lingvistik markazlar CLS(AQSH), UniPage (AQSH), BSC (Buyuk Britaniya), UKLC-Oxford, HTWBerlin (Germaniya), CIE (Ispaniya), EF Education (Avstraliya) faoliyati yo'lga qo'yilib, markazlarda lingvistik, madaniy, muloqot, ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ishlarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.[2]

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz olimlari G.X.Boqiyeva, L.T. Axmedova, J.J.Jalolov, U.X.Xashimova, Sh.S.Alimova, K.N.Karayeva, F.R. Qodirova, V.I.Normuratova, F.M. Rashidova, Sh.S. Safarov, G.X. Rahimov I.M. Tuxtasinov, G.N. Irmuhamedova, G.Sobirova, N.P.Babaniyazova, B.Qulmatov, F.Azizova, M.Isroilova, S.Ziyayeva, F.S.Abdullayevalar tomonidan chet tillarni o'qitish metodikasini rivojlantirish va takomillashtirish masalalari o'rganilgan. M.H.Lutfullayev, F.M.Zakirova, N.M.Taylakov, R.G.Isyanov va boshqalar o'z tadqiqotlarida ta'limda axborot resurslaridan foydalanishning nazariy va metodik masalalarini yoritishgan

Yevropa tajribasida dunyoning ko'zga ko'ringan tashkilotlari tomonidan qo'mitalar, assotsiatsiyalar, ilmiy-tekshirish institutlari tuzilib, ular olib borgan tadqiqotlarni umumlashtirilgan holda SEFR (Common European Framework of References – Umumevropa Tillarni O'rganish, O'qitish va Baholash) talablari va tavsiyalari ishlab chiqildi. Mazkur standardning yurtimizda amaliyotga joriy etilishi ta'limning har bir bosqichida tilni o'zlashtirish sifatini takomillashtirish, bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy mahoratini yuqori saviyada shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini ko'rsatmoqda. Respublikamizda so'nggi yillarda ingliz tilini o'qitish masalasida raqobatdosh kadrlarga bo'lgan talabni ortishi sabab umumta'lim maktab ingliz tili o'qituvchilarining til bilish darajasi, individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi va ish tajribasidan kelib chiqib malaka oshirish dasturlarini amaliyotga joriy etish ehtiyoji yuzaga keldi. Mamlakatimizda chet tilini, xususan, ingliz tilini chuqur o'qitishga e'tibor oshib, hozirda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Xususan, «Aholi orasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish va ularni mukammal o'zlashtirish uchun zarur sharoitlar

[1] U.U. Jumanazarov Ta'limni raqamlashtirish muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish. p.f.f.d. (PhD) Avtoreferat. 2021y

[2] R.M.Sadikov Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvometodik kompetentligini shakllantirish metodikasi.. p.f.f.d. (PhD) Avtoreferat. 2022y

yaratish, xorijiy tillarni o‘qitishning xalqaro tan olingan dastur va darsliklari ta’limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish hamda o‘qituvchilarda zamonaviy o‘qitish ko‘nikmalarini rivojlantirish»[1] ga ustuvor yo‘nalish sifatida qaralgan. Shuningdek, qarorda chet tillarni o‘rganishning xalqaro standartlarga muvofiq tarzda olib borilishi, baholashning milliy tizimini yaratish va chet tillarni o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish vazifalari belgilab qo‘yilgan.[2]

MFP texnologiyasidan foydalanishning dolzarbligi. Bugungi kunda xorijiy til o‘qitish metodikasida yangi, interfaol yondashuvlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Til o‘rganish faqatgina so‘z va qoidalarni yodlash emas, balki bu bilimlarni amaliyotda, real muloqotda qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, MFP (Meaning – Form - Pronunciation) texnologiyasi ayni dolzarb va zamonaviy talablariga javob beradigan metodik yondashuv hisoblanadi.

Asosiy qism. Yuqori sinf o‘quvchilari 15–17 yosh davrida tanqidiy fikrlash, mustaqil tahlil qilish, kasbiy yo‘nalish tanlash kabi muhim bosqichda bo‘lishadi. Shuning uchun ularga ingliz tilini faqat grammatika yoki lug‘at bilan emas, balki muammoli vazifalar, muloqotga yo‘naltirilgan mashqlar va sohaviy kontentlar orqali o‘qitish maqsadga muvofiqdir. Ilmiy asoslar quyidagilardan iborat:

1. Vygotsky L.S., Bruner J. tomonidan ushbu mavzu doirasida quyidagicha yondashuv berilgan. “Psixolingvistik jihatdan, yuqori sinf yoshdagi o‘quvchilarda kognitiv qobiliyatlar (tilni anglash, tahlil qilish, mantiqiy bog‘lash) shakllangan bo‘ladi. Bu esa ularning xorijiy tilni chuqur va tizimli o‘rganishiga sharoit yaratadi.”

2. Pedagogik nuqtayi nazardan, yuqori sinf bosqichi – bu ta’limdan kasbga yo‘nalish davri bo‘lib, ushbu bosqichda ingliz tilini sohaviy mazmunda o‘qitish (CLIL, ESP metodlari orqali) o‘quvchining kelajakdagi faoliyatiga tayyorgarlik sifatida qaraladi.[3]

3. Sotsiomadaniy jihatdan, yuqori sinfda til o‘rganish faqat ta’lim uchun emas, balki jamiyatda faol ishtirok etish, onlayn axborot manbalaridan foydalanish, xalqaro dastur va stipendiyalarda qatnashish imkoniyatlarini ochadi.

4. Milliy strategik maqsadlar asosida, O‘zbekiston Respublikasida “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish” bo‘yicha davlat siyosati doirasida maktablarda ingliz tili ta’limiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa yuqori sinflarda bu fanni sifatli o‘qitishni jamiyat ehtiyojiga aylantiradi.[4]

Yuqori sinfdagi ingliz tili ta’limi bugungi kunda nafaqat ta’limiy, balki strategik, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega jarayondir. Ushbu bosqichda zamonaviy texnologiyalar, interaktiv metodlar va ilmiy yondashuvlar asosida olib borilgan ta’lim o‘quvchilarning kelajakda raqobatbardosh kadr sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Ushbu texnologiya o‘quvchiga yangi til birliklarini ma’nosi, grammatik shakli va to‘g‘ri talaffuzi bilan birgalikda o‘rganish imkonini beradi. Bu esa bilimlarning chuqur o‘zlashtirilishiga, og‘zaki va yozma nutqda faol foydalanishga zamin yaratadi.

MFP yondashuvi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Yuqori sinf o‘quvchilarida MFP texnologiyasidan foydalanish yondashuvlari

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2021-yil, PQ –5117-son

[2] A.B.Musoyeva Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini CEFR orqali shakllantirish va rivojlantirish (ingliz tili misolida).... p.f.f.d. (PhD) Avtoreferat. 2022y


[3] Hutchinson & Waters, 1987 — English for Specific Purposes

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2021-yil, PQ –5117-son

Bugungi globallashuv va raqamli ta’lim sharoitida ingliz tilini sifatli o‘rgatish uchun MFP texnologiyasi ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, u zamonaviy dars jarayonida muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotda MFP texnologiyasidan foydalanishning mazmun-mohiyati quyidagicha yoritildi:

MFP - ingliz tilidagi so‘z yoki iboraning (2-rasmga qarang) quyidagilarini o‘zida aks ettiradi.



2-rasm. Yuqori sinf o‘quvchilarida MFP texnologiyasidan foydalanish yondashuvlari

Bu uch omil uyg‘un ravishda qo‘llanilganda, til o‘rganish jarayoni yanada samarali kechadi. MFP nafaqat so‘z yodlash, balki uni to‘g‘ri ishlatish va tushunishga yordam beradi.

Yuqori sinflarda MFP texnologiyasini qo‘llashning afzalliklari

1. Integrallik: MFP texnologiyasi orqali o‘quvchilar so‘zlarni nafaqat yodlaydi, balki ularni kontekstda tushunadi, grammatik jihatdan to‘g‘ri qo‘llaydi va aniq talaffuz qiladi.

2. Muloqotga yo‘naltirilganlik: MFP metodikasi og‘zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar faol suhbatga kirishishadi.

3. Qiziqarli o‘rganish muhiti: Interfaol metodlar bilan birga qo‘llanganda MFP texnologiyasi o‘quvchilarda tilga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

4. Individual yondashuv imkoniyati: Har bir o‘quvchining ehtiyojiga mos ravishda yondashish mumkin.

Dars namunasi (MFP asosida)

Mavzu: “Environmental problems”

Yangi so‘z: pollution

Meaning: O‘qituvchi so‘zning ma’nosini rasm, video yoki real hayotiy misollar orqali tushuntiradi. Masalan: “Pollution is the dirtying of air, water, or land.”

Form: So‘zning fe’l, ot yoki sifat shakllarini ko‘rib chiqish. Masalan: “pollute (v), pollution (n), polluted (adj)”

Pronunciation: So‘z talaffuzini o‘rgatish (stress and syllables), masalan: /pəˈluːʃ(ə)n/

Shundan so‘ng o‘quvchilar so‘zdan foydalanib gaplar tuzadi, rolli o‘yinlarda ishtirok etadi yoki suhbat mashqlarini bajaradilar.

Xulosa. MFP texnologiyasi yuqori sinf o‘quvchilarining til kompetensiyasini chuqur va samarali shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. U nafaqat yangi so‘zlarni o‘zlashtirish, balki ularni to‘g‘ri va faol ishlatish malakasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu texnologiyani CLT (Communicative Language Teaching), TBL (Task-Based Learning) kabi boshqa metodlar bilan uyg‘unlashtirib, dars samaradorligini oshirish mumkin.

Foydanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Education.
2. Scrivener, J. (2010). Teaching English Grammar. Macmillan Education.
3. Thornbury, S. (2002). How to Teach Vocabulary. Pearson Education.
4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Ingliz tili fani bo‘yicha umumta’lim maktablari uchun o‘quv dasturi.

“BUXORO BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI”

Ilmiy-amaliy jurnalida maqolalar chop ettirish tartiblari haqida

1. Ilmiy maqolalarning hajmi 3000-4000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

2. Maqolaning asosida matnning kamida 60-70 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim (topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi).

3. Maqolaning matni, formula va jadvallarni **Microsoft *Word* (*2003-2010 versiyasida*)** dasturidan foydalanib tayyorlash kerak.

4. Windows asosidagi matn *dasturi redaktorining parametrlari*:

- 2 sm dan standart hoshiyalar qolishi kerak;
- shrift Times New Roman, kegel – 12;
- satrlar orasidagi interval – 1 sm.;
- matnni kengligi bo’yicha tekislash;
- abzats 1 sm;
- sahifani tanlash uchun oriyentatsiya – kitob sahifasi;
- MS Word dasturi yordamida ishlangan rasmlar qabul qilinmaydi. Barcha rasmlar va jadvallar nomerlanishi, nomlanishi hamda manbaasi ko’rsatilishi shart.

5. Grafik va diagrammalar oq-qora formatda bo’lishi zarur.

***Ilmiy maqolaning tuzilishiga nisbatan ilgari suriladigan talablar*:**

1. Muallifning ORCID raqami bo’lishi shart.

2. Maqolaning nomi 12 so’zdan oshmasligi kerak va UDK raqamlari bo’lishi lozim.

3. Maqola muallif(lar)i ismi-sharifi; ilmiy unvoni, darajasi, oliy ta’lim muassassi (*tashkilot*)ning nomi, ish joyi, egallab turgan lavozimi, ish joyi manzili (*qisqartmalar ishlatilmasin!*). Mualliflar bir nechta bo’lsa ularning har biri haqida to’liq ma’lumotlar berilishi shart; (barcha ma’lumotlar 3 tilda:o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lishi shart)

4. Material matni tuzilishi jihatidan

Kirish

Metodlar

Natijalar va Munozara (Introduction, Methods, Results, and Discussion, Conclusion)ga ajratilishi, har bir bo’limi uchun sarlavhalar berilishi kerak.

Quyida keltirilgan misolga e’tibor bering:

Annotasiya (Abstract) (150-200 so’zdan iborat bo’lishi kerak) (3 tilda:o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lishi shart**)**

Вводная информация/актуальность (Background):

− Цель (Objective);

− Методы (Methods);

− Результаты (Findings);

− Выводы (Conclusions);

Ключевые слова (Keywords). (3 tilda: o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lishi shart)

ВВЕДЕНИЕ (Introduction)

МЕТОДЫ (Methods)

РЕЗУЛЬТАТЫ (Results) (CHIZMA, JADVALLAR bo’lishi shart)

ОБСУЖДЕНИЕ (Discussion)

ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *maqola nomi. Shahar: nashriyot uyi*. Elektron manzili. URL:

2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:

3. Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Retrieved from http://lkds;j

MAHALLADA PSIXOLOGIK XIZMAT IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA (3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)

Barotova Dilafruz Sharifovna,

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti "O'quv ishlari va ilmiy innovatsiyalar bo'yicha prorektor" psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent ***(3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)***

https://orcid.org/ **0000-0002-2100-3222**

Annotatsiya. 150-200 so'zdan iborat bo'lishi kerak. **(3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)**

Kalit so'zlar: 8-10 ta. **(3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)**

KIRISH. ВВЕДЕНИЕ (Introduction)

METODLAR. МЕТОДЫ (Methods)

NATIJALAR. MULOHAZA. РЕЗУЛЬТАТЫ (Result and Discussion) (ChIZMA, JADVALLAR bo'lishi shart)

Xulosa va tavsiyalar. ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Elektron manzili. URL:

2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:

3. Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Retrieved from http://lkds;j

DIQQAT: O'ZBEK TILIDAGI BARCHA YOZUVLAR LOTIN ALIFBOSIDA

Mundarija /Содержание/Contents

	19.00.00 – PSIXOLOGIYA
5	**Amonova Sanobar Xamidjonovna** Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda koping-strategiyalarining o‘rganilishi nazariy asoslari
10	**Bobirov Davron Bobir o‘g‘li** O‘spirinlarda axborotga nisbatan tanqidiy munosabatini shakllantirishda psixologik yondashuvlarning roli
15	**Isakova Mu’azam Tulkinovna** Ruhiy farovonlik holatining ijtimoiy-kognitiv omillar bilan o‘zaro munosabatining psixologik tahlili
21	**Javliyev Bekzod Xudoyberdiyevich** Shaxsda destruktiv diniy axborotlardan saqlanishning ijtimoiy-psixologik determinantlari
25	**Jurayev Baxrom** Shaxsda huquqiy madaniyat rivojlanishiga sabab bo‘luvchi omillar – dolzarb psixologik muammo sifatida
30	**Kamolova Sabrina Habibovna** O’smirlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari
34	**Khudaiberdieva Khikoyat Kadirovna** Features of the development of creative abilities of stdents of higher educational institutions
39	**Kulatova Svetlana Yuldashevna** Destruktiv axborotdan himoyalanishda o‘smirlar uchun muqobil axborot manbaalarini targ‘ib qilish
42	**Latipova Umida Yusufboyevna** Ayollarda faollik va tashvish darajalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikning ahamiyati
46	**Mardonov Erkin Xasanovich** O’quvchilarda tafakkurni shakllanishida shaxs ijodkorligini ahamiyati
51	**Melsov Mirjon Shaxob o’g’li** Ichki ishlar xodimlarida stressga bardoshlilikni oshirishning psixologik mexanizmlari
57	**Nadjimidinov Utkir Rustamovich** Sport murabbiylarining qaror qabul qilish jarayonlaridagi psixologik mexanizmlarning shakllanishi va namoyon bo‘lish xususiyatlari
62	**Nurmatova Nargiza Ulug‘bekovna** Raqamli ta’lim muhitining talabalar psixik salomatligiga ko‘rsatadigan kognitiv va emotsional ta’siri
66	**Qodirova Odina Djurabayevna** Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs emotsional intellektini rivojlanishiga psixologik ta'siri
71	**Qurbonboyev Miraziz Zulhaydar o'g'li** Ijtimoiy tarmoq algoritmlari va ularning motivatsion xulq-atvorga ta’siri
75	**Rahimova Nazokatxon Kasimdjonovna** Talabalarda ijtimoiy yyetuklikni rivojlantirish orqali ta’lim sifatini optimallashtirish
79	**Rajabova Go‘zal Zarifovna** Ta’lım muhıtıda talabalar qaror qabul qılıshda ıntuıtıv va analıtık fıkrlash yondashuvlarını ıntegratsıyalash metodıkası
85	**Ruziboyev Temur Bahodirovich** Yosh rahbar kadrlarda liderlik sifatlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (davlat hokimiyati organlari misolida)
93	**Sirojiddinova Shakhribonu** The tension between societal rules and personal desires: a literary and philosophical exploration

96	**Toirova Munavvar Murodullayevna** O‘smirlarda milliy o‘zlikni shakllantirishning psixologik mexanizmlari
100	**Toxirova Go’zaloy Davronbek qizi** Yoshlarda professional kariyerasini takomillashtirishning psixologik jihatlari
104	**Ummatova Sitora Shavkatulloyevna** Rashk muammosining psixologik mohiyati
109	**Uzakov Satbay Erejepbaevich** O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda baxshichilik an’anasi orqali musiqiy tafakkur va kompetensiyani shakllantirishning psixologik asoslari
113	**Yulchiyeva Shoxsanam Dilshod qizi** Effectiveness of formation of study motives in primary class students
118	**Бобоева Умида Бахшуллоевна** Психологические особенности повышения уверенности в себе учащихся в госпитальном образовании
124	**Мирзаева Сайёра Рустамовна** Ведущие факторы, определяющие развитость имиджа современной узбекской семьи
128	**Сулетбаева Элла Серикбаевна** Психологический анализ выбора партнёра в цифровую эпоху: вызовы традиционным моделям подготовки к семейной жизни
132	**Usmanov Nodirbek Baxramovich** Ekstremeal vazıyatlı xolatlarda o‘smırlarda ıjtımoıy-psıxologık xımoyalash mexanızmları
137	**Qobilov Husniddin** Emotsıonal zo‘rıqıshnıng ijtımıoıy-psıxologık tavsıfı
142	**Akbarova Malohatoyimposhsha Saidto‘ra qizi** Rahbar ayollarda ısh bılan bog‘lıq stresslarnı yengıshnıng ıjtımoıy-psıxologık xususıyatları
145	**Atajanova Laylo Uktamovna** Insult tashxıslı bemorlarnıng shaxslılık xususıyatlarınıng o`rganılishı
150	**Ataxanova Lobar Egamberganovna** Yyetuklık davrınıng yetakchı faolıyatı va rıvojlanıshnıng ıjtımoıy shart-sharoıtları
154	**Barotov Shuhrat Sharipovich** Zamonavıy bojxona xodımları ımıdjını shakllantırishnıng ılmıy tamoyılları
158	**Boboyeva Feruza Azimjonovna** Oılada o‘smırlarnı qadrıyatlar asosıda tarbıyalashnıng psıxologık mexanızmları
162	**Eshpulatova Shoxista Akbar qizi** O‘smırlar orasıda agressıv xulq-atvornıng kuchayısh sababları va unı bartaraf etishnıng pedagogık-psıxologık yo‘lları
168	**Haydarov Shahriyor Shuxrat o‘g‘li** Jınoyatga moyıl yokı xavf ostıda bo‘lgan yoshlar guruhıga psıxologık xızmat ko‘rsatısh tızımını takomıllashtırishnıng ılmıy asosları
172	**Latibjonov Rahmatillo Abdurashid o‘g‘li** Pedagoglarda kommunıkatıv ko‘nıkmalarnı shakllantırishnıng ijtımoıy-psıxologık xususıyatları
179	**Mirzayeva Muhayyo Ro‘zievna** Bo‘lajak ınglız tılı o‘qıtuvchılarıda verbal kompetentlık omıllarını rıvojlantırish konsepsıyası va unıng metodologık asosları
183	**Mirzayev Tolibjon To‘raqul o‘g‘li** Talabalarda axborot xavfsızlıgı ko‘nıkmalarını shakllantırishda ınnovatsıon metodlar
187	**Nozimov Jaxongir Toxirovich** Talabalarnı masofavıy ta'lımga bo'lgan munosabat determınantları
191	**Ro‘ziyeva Feruza Farmon qizi, Ramazonov Jahongir Djalolovich**

	Globallashuv davrıda axborot manıpulyatsıon tasırlarnıng psıxologık xususısyatları
195	**Soliyev Mirzoxid Tursunxo‘jayevich** Bolalarda kıtobxonlık xususıyatınıng ılmıy tadqıqı: xorıjıy va o‘zbek yondashuvları
202	**Usmonova Dilnoza Bahodir qizi** Boshlang‘ıch sınf o‘qıtuvchıları faolıyatıda shaxs tıpları va sotsıal ıntellekt o‘rtasıdagı korrelyatsıon munosabatlarnıng namoyon etılıshı
206	**Yoqubova Hayotxon Abduqahhor Qizi** Yoshlarda fıdoıylık tushunchasınıng ıjtımoıy-psıxologık xususıyatları
211	**Кудратова Азиза Нематовна** Влияние ишемической болезни сердца на когнитивную сферу: возможности психологической помощи
216	**Холдарова Индира Абдукаримовна** Буллинг без границ: взгляд через призму возраста, гендера, культуры и инклюзии
221	**Maqsadova Mexriniso Sayxonovna** Boshlang‘ıch sınf o‘qıtuvchıları kasbıy faolıyatıda pedagog-ık-psıxologık mahoratnıng o‘rnı va ahamıyatı
226	**Niyazova Nilufar Farxadovna** Onkologık bemorlar orasıda depressıya va xavotır holatlarını kamaytırıshda kognıtıv-behavıoral terapıyanıng samaradorlıgı
	13.00.00 – PEDAGOGIKA
230	**Hamdamova Sitora Rustam qizi** “Oila pedagogikasi” fani asosida talabalarning oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatlarni rivojlantirish ta’lim modeli
235	**Mamatova Zarena Abdujalilovna** Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik qobiliyatini aksiologik yon-dashuv asosida rivojlantirish
238	**Muxamedov To‘lqinjon Djurayevich** Muvaffaqiyatli madaniy tadbirlar uchun asosiy qadamlar
241	**Ollaberganova Sanobar Xamidovna** Boshlang‘ich ta’lim jarayonida xalq og‘zaki ijodi orqali o‘quvchilar lingvistik va kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish modeli
244	**Sabirova Nasiba Rasulovna** Basketbolchilarning biologik yoshiga qarab jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi: nazariy va ilmiy asoslar
248	**Shoymurotov Umidjon Qahramon o‘g‘li, Abrorxonova Kamola Abrorxon qizi** Tasviriy san’at va adabiyotning aloqadorlik qonuniyatlari asosida talabalarda badiiy tafakkurni rivojlantirish modeli mazmuni
252	**Ulashova Muattar Dilshod qizi** Zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida boshlang’ich sinf tabiiy fanlarini o’qitishning uslullari
255	**Xodjiyeva Dilfuza Rustamovna** Fortepiano mashg’ulotlari orqali o’quvchilarning badiiy estetik didini shakllantirishga oid nazariy qarashlar
259	**Xojiyeva Komilaxon Abduvali qizi** Pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim jarayonini sifatini oshirish usullari (ta’lim dasturlari asosida)
262	**Адилова Муниса Фуркатовна** Развитие коммуникативной компетентности у будущих учителей начального образования
265	**Атаджанова Барно Тулкиновна** Педагогический потенциал интенсивных технологий при обучении русскому языку в неязыковом вузе

269	**Султанов Хумоюн Улугмуродович** Цифровизация образования: возможности, вызовы и риски
274	**Тўлкуний Мадина Туроб Зода** Развитие коммуникативной компетентности учителя начальных классов как педагогическая проблема
277	**Abduvohidova Sabina Zokir qizi** Pedagogik amaliyot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy o‘zini-o‘zi rivojlantirishning psixologik omillari
282	**Ахмедова Зарина Рахматовна** Педагогические условия, обеспечивающие готовность к школе в дошкольных образовательных учреждениях
286	**Kamolova Nargiza Ibragimovna** Kimyo fanini o‘qitishda o‘quvchilarning ixtirochilik va yaratuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi
294	**Ризаев Жасур Алимджанович, Аминов Зафар Зайирович** Сравнительный анализ эффективности кредитно-модульной системы и традиционного обучения в медицинском вузе
299	**Тураева Дилафруз Рустамбоевна** Стратегии управления педагогическим взаимодействием
	10.00.00 – FILOLOGIYA
307	**Khusenova Shosura** Integrating narrative and esp principles in beginner-level medical english coursebooks
313	**Maxsudova Xolisxon Ummatovna** Mashinasozlik terminlarining tizimlilik, ierarxiya va tipologiyasi
319	**Taylakova Dilnoza Norbekovna** Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik ta’lim texnologiyalar asosida darslarni tashkil etishning didaktik tizimi
324	**Devorova Shamsiya Jumanazarovna** Cefr doirasida o‘qish ko‘nikmalarini baholashda autentik matnlarning qo‘llanilishi
328	**Mamatova Dilorom A’zam qizi** Adabiyotda ayol taqdirining tarixiy-estetik talqini: sadriddin ayniy va zulfiya qurolboy qizi asarlari misolida
332	**Yallayev Behzod Toshtemirovich** Tilak jo‘ra she’riyatining o‘ziga xosligi
336	**Kozimova Zulfiya Ismoilovna** Tasviriy san’at terminologiyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari
339	**Dehqonboyev Shohajahon Oybek og‘li** Sud-psixologik ekspertiza jarayonida stress holatidagi shaxsning emotsional barqarorligini baholashning psixodiagnostik usullari
345	**Nazarova Dilnoza O‘razaliyevna** Maktabgacha yosh davridagi bolalarda ijtimoiy moslashuv jarayonining psixologik xususiyatlari
352	**Ergasheva Rano Ahadovna** Yuqori sinf ingliz tili darslarini tashkil etishda mfp texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI ILMIY-AMALIY JURNAL
№ 7, 2025

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **2023-yil 22-fevral № 064916-sonli** guvohnoma bilan ro`yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023 yil 29 dekabrdagi 347-son qarori bilan **10.00.00 – filologiya, 13.00.00 – pedagogika, 19.00.00 – psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Buxoro xalqaro universiteti
ilmiy axborotnomasi // ilmiy-amaliy jurnal. - Buxoro, 2025.
№ 7. – 362 b.